«Dala búlbúlleri» dana xalqımız mudamı óziniń tereń muzıkalıqlıǵı menen ataqlı bolıp, nama shertiwdi, qosıq aytıwdı, oyınǵa túsiwdi, muzıka ásbaplarında oynawdı jaqsı kórgen. Ónerment ustalarımız hár qıylı milliy saz ásbaplarımızdan: duwtar, ǵobız, girjek, shıńǵobıs, dáp, balaman, sırnay, nay, qoshnay, qamısnay, sazsırnay, sıbızǵı, úshpelek qusaǵan muzıka ásbapların soǵıp, kámine keltirip tayarlap xalıqqa inam etti. Bul saz ásbaplardıń barlıǵı balanıń sanasında, muzanıń ritmin, emociyonal sezimtallıǵın rawajlandırdı, muzıkalıq esitiw qábiletin qáliplestirdi. Qaraqaqlpaq kompozitorları folklor motivleri tiykarında muzıkalar dóretti. Olardıń balalarda miynet súygishlik, ádep - ikramlılıq, gózzallıq, doslıq,

mehriybanlıq, reyimshillik, insanǵa ǵamxorlıq sezimlerin qáliplestiriw sanasına sińdiriw hám rawajlandırıw máselesine baǵıshlap jazǵan namaları, ózleriniń ómirde arttırǵan aqıl - oyı, toplaǵan tájiriybeleriniń miywesi sıpatında biziń dáwirimizge shekem jetip keldi hám xalıq pedagogikası bolıp qáliplesti.

Arnawlı muzıkalıq bilimlerii bolmawına qaramastan talantlı xalıq kompozitorları baqsı, jırawlarımız, ájayıp namalar jarata aldı. Ata babalarımızdıń geyde muńlı, geyde ayanıshlı, geyde quwanıshlı keshken ómirin, olardıń ullılıgı ne menen ólshenetuǵının, saz nama mektebiniń sheber ustaları muzıkanıń ǝmirge jan beriwshi sıyqırlıqların keleshek jaslarǵa mezgil kútpey kún – tún demey úyretip barǵan. Xalıqtıń tariyxıy turmısı menen baylanıslı hám insaniyat dawamshısı balalarda eń joqarı adamgershilik sezimlerin qáliplestiriw maqsetinde jazǵan namaların bizge qaldırǵanı ushın olardı xalıq kompozitorları dep atawǵa tolıq haqımız bar. Xalıq kompozitorlarınan (baqsı - jırawlarlar) házirge shekem bizge belgili jırawshılıqtıń tiykarin salgan. xaliq awizında atı ańızǵa aylangan jırawlar Soppash Sıpıra jıraw menen Qorqıt atalardan baslap, olardıń izin basiwshi shakirtlerinen: Shankot, Jiyen, Nurabilla, Qurbanbay, Esemurat, Ógiz. Qiyas, Jannazar t.b. dawamshilari tariyxta málim. Jirawlardıń atqarip jurgen dastanlarinan: «Qoblan», «Alpamis», «Qiriq qiz», «Erqosay», «Ajigrey», «Janádil» h.t.b. dastanlar xalıq súyip tıńlaytugin dastanlardan bolip esaplanadi. [5] Ataqlı baqsılar Ǵaripniyaz, Aqimbet, Muwsa, Suyew, Shernazar, Arzı, Juman h.t.b. Olar dóretip qaldırǵan «Muwsa sen yarı», «Jıǵalı», «Demir donlı», «Muxalles» tiń túrleri, «Eshbay», «Dem bermes», «Sanalı keldi», «Sarbinaz», «Úsh top», «Xoja bala», «Merteul», «Iraniy», «Sen yar qal endi», «Bozataw», «Kunxoja», «Nalısh», «Tekenalısh», «Pashshayı kóylegim» «Xoshım palwan» h.t.b. namalar búginde xalqımızdıń júrek tórinen orın alǵan. [6]

Kompozitorlarımız muzıkalıq shaǵarmaları arqalı xalıq oyda sáwlelendiriwiniń baylıǵına mehir - muhabbat kórsetip, olar da haqıyqatlıqtıń ayrıqsha gózzallıǵın kórdi, onı óz muzıkasında shıraylı jetkere bildi. Zamanagoy kompozitorlarımız shıǵarmalarında adam kewil qoshı, milliy fantastika hám tábiyat obrazların sáwlelendiriwde, xalıq qosıǵınan paydalanıw jańa, ózgeshe tús taptı.

Qaraqalpaq folklorında balalar ushın júdá kóp qızıqlı muzıkalar hám qosıqlarǵa bay bolıp, shıǵarmalarıda balalar turmısındaǵı saqnalardı, áyyemgi haywanatlar dúnyasın, tábiyattı, ertek qaharmanların súwretlep berip, óz tásáwirlerin úlken muhabbat, súyiwshilik penen balalar menen bólisti. Folklordı, ásirese xalıq erteklerin jaqsı biletuǵın hám súyetuǵın, dóretken muzıkalı ertekler ájayıp obrazlarında mehribanlıq, balalıqtıń jarqın quwanıshları, jıllı házil menen uyǵınlsadı. Mısalı, ”Awelemen duwelemen” “Aq terekpe kók terek” ”Tulkishek” “Tuyeler” “Hákke qayda” h.t.b. [7]

Solayetip, muzıka ómirge kózqarasımızdı bayıta otırıp bizge insaniyat, tábiyat, haywanatlar dúńyası gózzallıǵın tolıq seziwge, ullılıqtı xoshametlewge, waqıt penen baxıttıń tákirarlanbas máwritlerin qádirlewge, kúndelik turmısımızda sulıwlıq nızamlarına muwapıq jasawǵa tárbiyalawı menen ómirdiń qıyın payıtlarında qollap - quwatlawǵada qádir. Muzıka balanıń ruwxıy dúnyasın qayta qurıp kámillikke eristiredi.

Bala muzıkadan ilham, yosh, lázzet, bilim hám tárbiya alıp, ómir hám jasaw gózzallıǵın sezedi, onıń jan dúnyası ózgeredi, dúnyaǵa taza kózler menen qaraydı, haq júrekli, jamanlıqtan jat kámil insan bolıp qáliplesedi. [8]

Biz bul kishigirim maqalamızda xalıq pedagogikasındaǵı kórkem ónerdiń anası, insan ómiriniń saltanatı, jan dúnyasınıń azıǵı, tárbiya qurallarınıń sultanı, ol haqqında qanshama ápsana aytsańda az, muzıkanıń tárbiyadaǵı ornın hám xalıq tedagogikasınıń ájayıp tárbiya quraqlı ekenligin aytqımız keldi.

Ádebiyatlar:

1. Ayımbetov Q. Xalıq danalıǵı. Nókis: Qaraqalpaqstan, 1988. 492 b.
2. Tajimuratov A. Qaraqalpaq xalıq pedagogikası. Nókis: Qaraqalpaqstan, 1996. 139
3.Adambayeva.T «Revolyutsiyaǵa shekemgi qaraqalpaq muzıkası». «Qaraqalpaqstan», Nókis. 1976. 245 b.
4. VolkovT.N. Etnopedagogika. – Cheboksarы, 2004. 305 s.
5.UcheniyejivoyEtiki: vtrex knigax/Sost. G. Ye. Girka - t. I. Spb: Prosveshyeniye, 1993.-586. s.
6. KaganM.S. Estetika kak filosofskaya nauka. Universitetskiy kurs lektsiy Avtor: Sankt-Peterburg, TOOTK «Petropolis», 1997. — S. 544.
7. MutaIipova M.J. Xalq pedagogikasi. T.: «Fan va texnologiya», 2015. 160 b.
8. Nadirova A. Qaraqalpaq muzıka tariyxı. Tashkent, 2018,384 b.

РЕЗЮМЕ

Maqalada muzıka óneriniń xalıq pedagogikasánıń ajayıp quralı ekenligi, ullı oyshılar Platon, A. Nawayı, Sh. Sheraziyler pikirlerine, muqáddes kitabımız Quranı Kariymniń qiráát jolı menen muzıkalı oqılıwınıń insan jan sezimine tásirine hám ayrıqsha kórkem óner túri sıpatındaǵı funkciyalarına tiykarlanıp kórsetilgen.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается основываясь на взгляды великих мыслителей Platona, А. Навои, Ш. Шеразий о музыке, эмоциональное воздействие музыкального чтения священной книги Коран чудесным путем кираат и её функциям как уникального вида исскуства, музыка как прекрасное средство воспитания народной педагогики.

SUMMARY

The article deals with music, and the emotional impact of musical reading of the holy book of the Koran by the miraculous way of kiraat and its functions as a unique kind of art, music as an excellent means of educating folk pedagogy based on views by the great thinkers such as Platon, A. Navoi, Sh. Sheraziy.

INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNING PEDAGOGLARNI TARBIYALASHDAGI AFZALLIKLARI

Radjapova Z.T.
Nizomiy nomidagi TDPU pedagogika fanlari bo'yicha falsafa dokto ri(PhD),dotsent
Mirzayeva G .Z.
Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim mutaxassisligi magistranti

Tayanch so'zlar: didaktik material, fanlararo aloqa, integratsiya, yondashuv, kuzatuv, tafakkur, bilim.

Ключевые слова: дидактический материал, междисциплинарная связь, интеграция, подход, наблюдение, мышление, знание.

Key words: didactic material, interdisciplinary communication, integration, approach, observation, thinking, knowledge.

Integratsiya o'zaro aloqadorlikda bo'lgan qismlarning uyg'unlashuvini anglatadi. Integratsiya atamasini turli sohalarda, turli faoliyatlarda uchratishimiz mumkin. Shu jumladan, ta'lim sohasida ham integratsiya atamasi foydalaniladi. Integratsiya bir-biriga yaqin bo'lgan fanlararo aloqani izohlaydi [4]. Umuman olganda, barcha fanlar bir-biri bilan o'zaro aloqadar hisoblanadi. Integratsiya olamning bir butunligini ham anglatadi, olamdagi barcha bilimlarning o'zaro hamkorligini ochishga yordam beradi. Integral bilimlar ta'lim oluvchini yaxlit bilimga ega bo'lishini ta'minlaydi. Bu ta'lim oluvchilarda dunyoqarashning kengayishiga, fikr olamini boyishiga, mantiqiy tafakkur qilishga, hodisalarni umumlashtirishga, abstraktsiyalashga yordam beradi. Integratsiya haqida ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar izlanishlar olib borganlar va o'z fikrlarini bayon etganlar. Ularning fikrlaridagi mazmun aynan, tizimning butunligini, olamning yaxlitligini, fanlarning bir tarmoqdan ajralganligini, fanlararo aloqadorlik qonuniyatlarini ko'rsatib beradi. Fanlar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlik, bog'liqlik barcha bilimlarning asosi bir xilligidan dalolat beradi.

Tadqiqotchilar fanlararo aloqadorlik yaratishi mumkin bo'lgan qulayliklar ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Ilmiy izlanishlar natijasida bolalar umumiy, aqliy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni belgilab, bir-biriga aloqador fanlar integratsiyasini yaratganlar. Fanlarning tarixiy, ijtimoiy ahamiyati bu yerda katta

rol o‘ynaydi. Bolalar tarbiyasida integratsiyadan foydalanish vaqtni tejash, yaxlit bilimga ega bo‘lish, tarbiya va ta’limni uyg‘unlashtirishga katta yordam beradi. Integratsiyani o‘rganish bir qancha yondashuvlar asosida amalga oshiriladi.

Pedagogika sohasida integratsiyaning roli benihoya katta hisoblanadi. Pedagogik tizimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ularning mazmunan bir xilligi integratsiyaning muhim masalasidir [1]. Bolalar tarbiyasida yuzaga keladigan muammolarni integrativ yondashuv asosida bartaraf etish mumkin. Jumladan, musiqa orqali ta’limiy bilimlar berish mumkin, she’riy satrlar orqali tabiat hodisalarini tushuntirish mumkin.

Ta’lim sohasida integratsiya pedagoglarga yengillik yaratadi, bolalarning tushunish tezligini oshiradi. Dunyoni yaxlit anglashga yordam beradi. Hodisa va jarayonlarni o‘zaro uyg‘unlikda kechishini asoslab beradi. Integratsiyalashgan darslar qiziqarli va tushunarli bo‘ladi. O‘quv fanlarini o‘zaro bog‘lab o‘rganish talabalarga olamni bir butunlikda anglashga imkon beradi. Bunday kompetentlilikka ega bo‘lgan tarbiyachi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida markazlar faoliyatini integrativ holatda tashkil eta oladi va maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini tizimlarning o‘zaro bog‘langanligi haqidagi bilimlar bilan boyitadi.

Integrativ yondashuv bizga quyidagi imkoniyatlarni beradi.

- mutaxassisni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi;
- ta’lim oluvchini dunyoni yaxlit idrok etishga o‘rgatadi;
- ijtimoiy va kasbiy sohada faol harakat qila oladigan darajada tarbiyalaydi;
- talabalarga ta’lim sifatini oshirishga ko‘proq talablar qo‘yadi va o‘qituvchiga darsni o‘qitish sifatini, bilim sifatini tobora oshirishga motivatsiya beradi, turli xil fanlar o‘zaro bog‘lanadi.

Bo‘lajak tarbiyachilar uchun integratsiya nima uchun kerak? Bo‘lajak tarbiyachilar bevosita MTTlarida faoliyat olib boradilar, bolalarga ta’lim-tarbiya berish bilan shug‘ullanadilar. Bolalarning diqqati beqaror va mustaqil fikrlashlari sust bo‘lgani bois ularning e’tiborlarini ma’lum bir faoliyatga jalb qilish nihoyatda mushkuldir. Bu esa tarbiyachidan katta mahorat talab etadi va u integrativ yondashuvga ehtiyoj sezadi. Tarbiyachi egallagan bilimlarini mohirona turli jarayonlar bilan bog‘lashi natijasida bolalarga oson tushuntiradi, qiziqish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu sabab talabalarni keyingi faoliyatga tayyorlash uchun Oliy ta’lim muassasalarida fanlararo aloqani o‘rnatish muhim masaladir.

Integratsiya o‘qituvchilar va talabalarni faol birgalikdagi ijodiy jarayonga jalb qilish imkonini beradi. Bu puxta o‘ylangan ta’lim va tarbiya jarayoni bo‘lib, u ta’limni tashkil etishning umumiy tuzilmasini qayta ko‘rib chiqishga, o‘quvchilarni idrok etish jarayoniga tayyorlashga yordam beradi [2]. Axborotni tushunish va tahlil qilishga o‘rgatib, talabalarda dunyodagi barcha jarayonlarning

bir butun sifatida o‘zaro ta’siri haqidagi tushuncha va g‘oyalar shakllantirladi. Bo‘lajak tarbiyachilar keyingi faoliyatlarining har bir jarayonida integratsiyaga duch kelishadi. Bolalarni turli faoliyatlari integratsiyasi, markazlar o‘rtasidagi integratsiya, MTTning turli faoliyatidagi integratsiyalari (ota-onalar, maktab, mahalla bilan integratsiyasi). Shu jihatlarni hisobga olib, tarbiyachilar sabr bilan bilim olishlari, izlanishlari, bolalar ruhiyatini o‘rganishlari talab etiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ayni shu davr umrining oxirigacha stsenariy bo‘lib xizmat qiladi. Aynan mana shu davrdagi harakatlar, vaziyatlar uning ong ostida saqlanib qoladi va hayoti davomida takrorlanadi.

Biz shu jihatlarini hisobga olib, tabiat bilan tanishtirish va nutq o‘stirish nazariyasi hamda metodikasi fanining integratsiyasiga alohida urg‘u beramiz.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani talabalarga shu fanning maqsad va vazifalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni, vazifalari, bolalarni MTTda tabiat bilan tanishtirish dasturi, dasturning tuzilishi, usul va uslublarini, ish shakllari, tabiat bilan tanishtirish ishiga uslubiy rahbarlik qilish haqida bilim beradi

Bola nutqini ravon bo‘lishi uchun, avvalo, uning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kerak. Bola qachonki chiroyli fikrlay olsa, uni o‘z nutqida bayon eta oladi. Buning uchun bolada dunyoni yaxlit anglay olishiga amaliy yordam kerak. Bu amaliy yordam tarbiyachilarimiz tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash texnologiyasini takomillashtirishga ehtiyoj katta. Biz shu jihatni nobatga olgan holda nutq o‘stirish va tabiat bilan tanishtirish fanlarini birlashtirishning ahamiyati haqida fikr bildirmoqchimiz. Bola nutqini faollashtirishda tabiat hodisalarini she’riy tarzda ham tushuntirish mumkin. Bola she’riy tarzda aytilgan hikoyaga qiziqadi, uni jon dili bilan eshitadi, ohangiga jo‘r bo‘ladi, kam sonli takrorlanishdan so‘ng bola she’rni yod oladi. Bu esa bolada nutqdagi kamchiliklarni bartaraf etilishiga, ravon nutqning rivojlanishiga, faol nutqning boyishiga, xotiraning kuchayishiga, o‘zini namoyon etish qobiliyatini shakllantirishga olib keladi.

Tarbiya jarayoniga integratsiya jarayonini tatbiq etish o‘qituvchilarining tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga nisbatan integratsiyalashdan iborat bo‘lib, mazkur ishlar mazmunini shakllantirish bir qadar murakkab jarayondir. Ta’lim jarayonida talabalarga muayyan o‘quv fani to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berishda vaqt hajmi qat’iy belgilab qo‘yilgan, bunday holat o‘quv faoliyatini integratsiyalash asosida tashkil etishni bir qadar barqarorlashtirishga imkon bersa, tarbiya jarayoniga nisbatan bunga erishish murakkabroqdir. Binobarin, ta’lim jarayonining muayyan bosqichlarida talabalarda bir qator shaxsiy sifatlar shakllantiriladi. Ularni boyitish esa shaxs tarbiyasini uzluksiz davom ettirishni talab qiladi. Talabalarga integrallashgan ta’lim berish uchun fanlarni eng muhim

g‘oyalarini tanlab, ularni talabalarga mos holda tizimlashtirsh kerak. Tizimlashgan materiallar talabalarga tabaqalashgan holda o‘rgatilishini inobatga olish zarur.

Integrativ materiallar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– qiziqarli;
– ilmiy;
– o‘quvchilar yosh xususiyati, psixiofiziologiyasiga mos bo‘lishi;
– oddiy:
– sodda tilda yozilgan bo‘lishi;
– tushunarli tarzda bayon etilishi;
– tarixiy, milliy, umuminsoniy xarakterga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, o‘quv rejalarini tuzishda talabalarning samarali o‘zlashtirishlarini ta’minlash uchun auditoriya mashg‘ulotlarini aniq tashkil etishni rejalashtirish bilan bir qatorda, auditoriyadan tashqarida o‘tkaziladigan bir qancha o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish ham mo‘ljallanadi.

Adabiyotlar:

1. Tirkashevna, R. Z. (2023). Landshaft dizayni bo ‘yicha ta’lim: muammolar va takliflar. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 158-164.

2. Radjapova, Z. T., Djumagulova, A. S., & Polupanov, A. G. (2007, August). Pharmacoepidemiology of antihypertensive drugs in Bishkek. In pharmacoepidemiology and drug safety (vol. 16, pp. s201-s202). the atrium, southern gate, chichester PO19 8SQ, W SUSSEX, ENGLAND: JOHN WILEY & SONS LTD.

3. Radjapova, Z. T., Djumagulova, A. S., & Polupanov, A. G. (2009, August). The Secondary Prevention of Hypertensive Patients with Cerebrovascular Diseases. In pharmacoepidemiology and drug safety (Vol. 18, pp. S220-S221). The atrium, southern gate, chichester PO19 8SQ, W SUSSEX, ENGLAND: JOHN WILEY & SONS LTD.

4. Mavlonova R.A. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi. // O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ILM ZIYo, 2009.

5. Radjapova, Z. T., Djumagulova, A. S., & Polupanov, A. G. (2008, August). Assessment of cardiovascular risk factors revealing by family doctors and its lifestyle modifications in patients with arterial hypertension. In pharmacoepidemiology and drug safety (vol. 17, pp. s102-s103). the atrium, southern gate, chichester PO19 8SQ, W SUSSEX, ENGLAND: JOHN WILEY & SONS LTD.

6. Radjapova, Z., & Abduraufova, U. (2023). The importance of using methods in the professional training of future teachers on the basis of an integrative approach. Science and innovation, 2(B1), 337-340.

7. Radjapova, Z. T. Dizayn to‘garaklarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Dissertatsiya. Toshkent-2020.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада интеграциялашган таълимнинг педагогларни тарбиялашдаги афзалликлари ҳақида сўз боради.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о преимуществах интегрированного образования в подготовке педагогов.

SUMMARY

This article talks about the advantages of integrated education in teacher training.

ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ИНТЕЛЛЕКТ ВА КОМПЕТЕНТЛИЛИК ТУШУНЧАЛАРИ

Тўрақулов Б.Н.
Чирчиқ давлат педагогика университети "Психология" кафедраси ўқитувчиси психология фанлари бўйича фалсафа доктори PhD

Таянч сўзлар: эмоция, шахс, эмоционал интеллект, умумий интеллект, ўз-ўзини баҳолаш, эмоцияни назорат қилиш, бошқалар эмоциялари, эмоционал компетентлик, эмпатия, фрустрация, шахсий кўникма, ижтимоий кўникма, шахслараро муносабатлар.

Ключевые слова: эмоции, личность, эмоциональный интеллект, общий интеллект, самооценка, контроль эмоций, эмоции других, эмоциональная компетентность, эмпатия, разочарование, личные навыки, социальные навыки, межличностные отношения.

Key words: emotions, personality, emotional intelligence, general intelligence, self-esteem, control of emotions, emotions of others, emotional competence, empathy, disappointment, personal skills, social skills, interpersonal relationships.

Маълумки, эмоционал интеллект шахснинг юқори даражада ривожланган ўз ҳис-туйғуларини ва бошқа одамларнинг ҳис-туйғуларини тушуниш, ўқитувчи ва ўқувчилар билан бир-бирини тушуниши ва уларни бошқариш қобилияти бўлиб, уни тадқиқ этиш психология фанида эмоционал интеллект муаммосига доир қатор янгича ёндошувларни юзага келтириши назарий ва амалий кўникмаларни амалга оширишини таъқоза этади Бунинг асосий сабаби халқ таълими тизимини ривожлантириш, педагогларнинг малакаси ва жамиятдаги нуфузини ошириш, ёш авлод маънавиятини юксалтириш бўлиб, президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганларидек, "Мактаб – бу ҳаёт-мамот масаласи, келажак масаласи. Уни давлат, ҳукумат ва ҳокимларнинг ўзи ҳал қилолмайди. Бу бутун жамиятнинг иши, бурчига айланиши керак"лигини унутмаслигимиз лозим. Минтақавий таълим тизими сифатини таъминлаш бўйича олиб борилган тадқиқот юзасидан Тошкент вилоятида Педагогик таълим инновацион кластери платформаси яратилди, масъул вакиллик органлари билан ҳамкорликда тадқиқот юзасидан бир қатор дастурлар ишлаб чиқилиб, амалиётга татбиқ этилмоқда. Кластер ўз фаолияти давомида минтақанинг халқ таълими вазирлигига тегишли долзарб муаммоларни, таълим сифатига таъсир этувчи омилларни аниқлаш ва уларни ҳал этишга катта аҳамият қаратмоқда. Шу ўринда таълимга нисбатан кенг қўлланилаётган "таълим кластери занжир ичидаги горизантал уланишлар-

га асосланган таълим-технология-ишлаб чиқариш инновацион занжиридаги ўқитиш, ўзаро таълим ва мустақил ўқитиш воситалари тизими" ҳамдир. Маълумки, ўқитувчилар сифатли таълим беришда асосий иштирокчилар бўлиб, биринчи навбатда, сифатли таълимни таъминлашда уларнинг билимини ошириш, меҳнат фаолиятлари давомида уларни рағбатлантириб бориш ва тоифаларни оширишга кўмаклашадиган малакаларни ривожлантириш муҳим.

Психологик мазмунга кўра, эмоционал интеллект - бу бошқа одамларнинг ҳис-туйғуларини енгил тушуниш ёки интеллектуал жараёнларга асосланган эмоцияларнинг асосланиши ҳамдир.Ўқитувчи ва ўқувчилар ҳамкорлигини тизимли ташкил этишда асос бўлиб хизмат қилади. Инсондаги эмоционал онгнинг барча таркибий қисмлари бир-бири билан узвий боғлиқ бўлиб, уларнинг ўзаро боғлиқлиги шахслараро муносабатларнинг дарс жараёнини ташкил этишда ва ўқувчиларнинг барча фанларни маълум даражада ўлаштиришига ёрдам беради.

Том маънога кўра, эмоционал интеллект тушунчаси эмоционал компетентлилик билан ўзаро боғлиқ бўлиб, бир хил мазмунга эга саналади. "Эмоционал компетенция" бу – инсон томонидан ўзининг ва бошқаларнинг ҳис-туйғуларини тушуниш ва баҳолашдаги барча билим ва кўникмалари ҳамда малакаларидир. Эмоционал интеллектнинг муайян даражаси эмоциялар билан боғлиқ бўлиб, у аниқ кўникмаларни ўрганиш учун ўта муҳимдир. Масалан, таниш қобилияти ўзга инсоннинг ҳиссиётларини англаш ва ўзгаларни руҳлантириш, уларга таъсир этиш қобилиятини ривожлантириш имкониятини беради. Шунга мос тарзда, ўз эмоцияларини яхши бошқаришга қодир инсонлар, турли хил стресс вазиятларида чидамли ва ишлаш қобилиятига эга саналади.

Демак, эмоционал компетентлиликнинг таҳлилида ишчанлик ва чидамлилик тушунчалари ҳам мужассам. Эмоционал интеллект конкрет ва абстракт интеллектдан фарқли ўлароқ, ташқи дунё қонуниятлари ва унинг шахс хулқ-атвори билан алоқаси ҳамда борлиқ билан ўзаро алоқадорлигини акс эттиради. Яъни эмоционал интеллект - ҳодисаларни дифференциал баҳолаш, турли яширин эмоцияларни англаш ва акс эттиришга асосланган қарор қабул қилиш жараёни ҳамдир.

Бошқалардан фарқли ўлароқ, В.С.Юркевичнинг илмий тадқиқотлари хулосаларига кўра, 95% интеллектуал жиҳатдан салоҳиятли бўлган болалар эмоционал интеллектни намоён қилишда қийинчиликларга учрашини таъкидлайди. В.С.Юркевич бу ҳолатни эмоционал муносабатларга киришишдаги инфантиллик деб атаб, у билим олишдаги қийинчилик эмас балки, боланинг ўз тенгқурлари билан муомалага киришишдаги қийинчик ҳолатидир деб тарифлайди.

Америкалик психолог Д.Гоулман таҳлилича, жамиятда 80% одамларнинг ҳаётий муваффақиятлари эмоционал интеллект таркибига кирувчи нокогнитив омиллар билан боғлиқ. Яъни менежер бўлиш учун (IQ) оддий интеллектнинг муайян даражасига эга бўлиш керак, бироқ инсон мансабга кўтарилиш учун етарли даражада (EQ) эмоционал интеллектга эга бўлиш керак деб таъкидлайди.

Дарҳақиқат, инсон юқори интеллектга эга бўлиши мумкин, ушбу интеллект ундаги ақлий устунлик, топқирлик ва кучли яратувчанликни белгиласа, юқори эмоционал интеллект бошқаларни тушуна олиш, ҳисларини пайқаш, ўз эмоцияларини турли вазиятларда бошқара олиш қобилияти бўлиб, унга эга шахс мансаб ва раҳбарлик поғоналарида бемалол одимлашиши табиийдир.

Д.Гоулман ўз даврида матбуот ва турли илмий конгрессларда "эмоционал интеллект" тушунчаси билан боғлиқ кўплаб чиқишлари билан барчанинг эътиборига тушган эди.

Таъкид жоизки, ҳозирга қадар фанда тадқиқотчилар Дж.Мэйер, П.Соловей ва Д.Голманлар "эмоционал интеллект" тушунчасини фанга олиб кирган уч қаҳрамон олимлар сифатида тан олинади.

П.Соловей "Эмоционал интеллект" борасидаги изланишларида ўзига хос таҳлилни амалга ошириб, унга кўра интеллект қандайдир идеал ҳодисани идрок қилмайди балки, эмоция бу вазифани бажаради. Яъни эмоционал интеллект - эмоцияларда ифодаланувчи шахснинг қабул қилиш ва тушуниш қобилияти шунингдек, ақлий жараёнларга асосланган ҳиссиётни бошқариш жараёни ҳамдир. П.Соловей фикрича, "эмоционал интеллект" тўрт қисмдан иборат

1. Ўз ҳисларини ва ўзгаларнинг эмоцияларини ҳис қилиш ёки қабул қилиш қобилияти;

2. Ақлга ёрдамлашувчи ўз эмоцияларини йўналтириш қобилияти;

3. У ёки бу эмоция ифодаланишларини тушуниш қобилияти;

4. Эмоцияларни бошқариш, назорат қилиш ҳамда тартиблаш қобилияти.

Тадқиқотчи И.Н.Андреева "эмоционал интеллект" таҳлилига ўзига хос ёндошиб, уни бошқалар ва ўз ҳисларини тушуниш жараёнидаги эмоция ва интеллектнинг кесишган нуқтаси деб таърифлайди

Бундан ташқари тадқиқотчи Д.Гоулмен фикрича, эмоционал интеллект бу – ўзи ва ўзгаларнинг ҳаракат мотивларини англаш жараёнида, ўзининг ва ўзгаларнинг эмоцияларини тушуниш, ўзгалар билан ўзаро алоқа ва ўз ўзининг эмоцияларини бошқариш қобилиятидир.

Бошқача айтганда, эмоционал интеллект–бу таълим жараёнида ўқитувчи ва ўқувчиларнинг дарс машғулотларини ташкил этишда дарснинг мазмунини ўқувчиларга қандай юсинда етқазишини асосли деб маълумотларни

тарғиб этади. Ўзининг ва ўзгаларнинг эмоцияларини англаш, ўзининг ва ўзгаларнинг эмоцияларини бошқариш қобилияти бўлиб, шу аснода маълумот тарқатувчи ва қабул қилувчиларнинг асосий бирлиги ва ҳамкорлигини ўрнатилади.

Баъзи психологик адабиётларда эмоционал интеллект бу – инсоннинг ўз эмоцияларини тушуниш кўникмаси деб тарифланади.

Тадқиқотчилардан П.Н.Лопес фикрича, эмоционал интеллект бу - ўз ҳолатини бошқариш ва атроф муҳит билан самарали муносабат, ўзи ва ўзгаларнинг яширин мотивлари ва эмоцияларини қабул қилиш ҳамда тушуниш жараёнидир.

Эмоционал интеллект (EQ) феноменини ўрганган Ревен Бар–Он таклифича, эмоционал интеллект бу - барча нокогнитив қобилиятлар каби турли ҳаётий вазиятлардан муваффақиятли чиқиш имкониятини берувчи билим ва компетентлиликдир.

Ревен Бар–Онга кўра, шахсда эмоционал маданиятнинг беш жиҳати мавжуд:

1. Ички шахслилик - ўз ўзини таҳлил қилиш, мустақиллик, ўзини ўзи ҳурмат қилиш, ўзини ўзи намоён қилиш;

2. Шахслараро муносабатларда юқори эмпатия ҳисси ва ижтимоий масъулият;

3. Адаптивлилик - муаммоларни ҳал эта олиш, мослашувчанлик, бошқаларни адекват баҳолаш;

4. Стресссдан чиқиш лаёқати - турли зўриқишлар устидан назорат, стресс ҳолатини кўтара олиш қобилияти;

5. Умумий кайфият - ҳаётий оптимизм , бахтни ҳис этиш ва ҳоказо.

Юқоридаги қарашлардан фарқли ўлароқ, рус психологи Д.В.Люсин фикрича, эмоционал интеллект бу – ўзи ва ўзгаларнинг эмоцияларини пайқаш ва уни тезкор тартиблаш жараёнидир. Шунингдек, эмоцияларни тушуниш ва тартиблаш инсон учун бошқалар билан ўзаро алоқаларни енгил кечишини таъминлайди.

Д.В.Люсин эмоционал интеллектнинг икки жиҳатини ажратади, яъни биринчи жиҳат бу “ички шахслилик” ва “шахслараро” жиҳат. Унинг таъкидлашича қайд этилган ҳар икки жиҳат ҳам эмоционал интеллект масаласида турли кўникмалар ва когнитив жараёнларни фаоллаштиради. Бу фаоллаштириш қуйидагилар билан белгиланади[8,69]:

1. Кучли эмоцияларни етарлича секинлаштириш, эмоцияларнинг интенсивлилигини назорат қилиш;

2. Эмоцияларнинг ташқи ифодаланишларини назорат қилиш;

3. Керакли вазиятларда у ёки бу эмоцияларни чақириш ва ифодалаш.

Шу ўринда муаммога амалий нуқаи - назардан қараганда, эмоционал интеллект ҳақида эмас, эмоционал компетентлилик хусусида тўхталиш ўринли ҳисобланади.

Том маънога кўра, эмоционал интеллект тушунчаси эмоционал компетентлилик билан ўзаро боғлиқ бўлиб, бир хил мазмунга эга саналади. "Эмоционал компетенция" бу – инсон томонидан ўзининг ва бошқаларнинг ҳис-туйғуларини тушуниш ва баҳолашдаги барча билим ва кўникмалари ҳамда малакаларидир. Эмоционал интеллектнинг муайян даражаси эмоциялар билан боғлиқ бўлиб, у аниқ кўникмаларни ўрганиш учун ўта муҳимдир. Масалан, таниш қобилияти ўзга инсоннинг ҳиссиётларини англаш ва ўзгаларни руҳлантириш, уларга таъсир этиш қобилиятини ривожлантириш имкониятини беради. Шунга мос тарзда, ўз эмоцияларини яхши бошқаришга қодир инсонлар, турли хил стресс вазиятларида чидамли ва ишлаш қобилиятига эга саналади.

Муоқотмандликка компетентлик, таниқли бўлиш қобилияти, очиқ кўнгиллилик, дўстона муносабатда бўла олиш ва ҳоказо.

Муаллиф эмоционал интеллектнинг ривожланишида муҳим саналган кўникмалар билан алоқадор қуйидаги таркибий жиҳатларни ҳам ажратади. Уларга:

– Шахслилик кўникмалари;
– Ижтимоий кўникмалар.

1. Шахслилик кўникмалари бу – ўз ўзини англаш, эмоционал ўзликни англаш, ўз ҳис–туйғуларини таҳлил эта олиш ва ўзаро таъсирни англаш, қарор қабул қилишда интуицияни қўллаш, ўзини ўзи аниқ баҳолаш, ўз имкониятлари чегарасини ва ўзининг кучли жиҳатларини билиш, дарғазаблик ва у билан боғлиқ эмоцияларни назорат қила олиш, очиқ кўнгиллилик, ишончлилик, адаптивлилик, мардонаворлик, инициативлилик, яъни ташаббускорлик, оптимизм каби сифатлар билан характерланади.

2. Ижтимоий кўникмалар бу – шахсдаги ижтимоий аниқлик, ҳамдардлик, ўзгаларнинг ҳиссиётларини танглай билиш, ўзгаларнинг қарашларини ҳис қолган ҳолда уларнинг муаммолари ечимига ҳамкорлик қилиш, кежакка умид билан қараб, ўз ортидан эргаштириш, ишонтириш услубини ўзлаштириш, ўзга инсонларни рағбатлантириш орқали уларнинг қобилиятларини ривожлантиш, тушунмовчиликларни мақсадида амалий ишларни ташкил этиш давомида Дж. Равеннинг "Прогрессив матрицалар" тестидан фойдаланилди

Мазкур тест 1936 йилда Дж.Равен ва Л.Пенроуз томонидан умумий интеллектни ўлчаш мақсадида ишлаб чиқилган. Тест прогрессив матрицалар кўринишидаги маълум шакллар, уларнинг хусусиятлари, характери, ўзаро

муносабатлар ва муносабатлар йиғиндисини идрок қилиш қобилиятларини ўрганишга қаратилган.

Йўриқнома: Сизга мантиқий фикрлаш ва фикран таҳлил этишни талаб этувчи 60 та тест-синов топшириғи берилган. Улар 5 та гуруҳга ажратилган бўлиб, ҳар бир гуруҳ топшириқларини бажариш маълум бир турдаги интеллектуал қобилиятни (абстрак-мавҳум фикрлаш, мантиқий боғланишларни топа билиш ва таҳлил этиш, предметни яхлит ва таркибий қисмларга ажратган холда кўз олдига келтириш, тасаввур қила олиш) талаб этади.

Натижаларни қайта ишлаш юзасидан интеллекти баҳолаш жадвали мавжуд бўлиб, унга кўра текширилувчилар фарқланадилар:

– 140 балл ва ундан юқори – жуда юқори, интеллектуал етук шахслар;
– 120 балл ва ундан юқори – юқори интеллектга эга кишилар;
– 110 –120 балл яхши интеллект соҳиблари;
– 100 – 110 балл меъёрдаги интеллект ;
– 90 – 100 балл ўртача интеллект;
– 80 – 90 балл ўртача кучсиз интеллект;
– 70 – 80 балл ақлсизлик аломатлари мавжуд;
– 50 – 70 балл ақлсиз;
– 20 – 50 балл ақлсизлик ўрта даражада;
– 0 – 20 балл юқори ақлсизлик.

Аслини айтганда, бугунги кунда кунда эмоционал интеллект тушунчасини маҳаллий тадқиқотларда назарий ва амалий жиҳатдан ўрганишга эҳтиёжлари юқори саналади. Яъни эмоционал интеллект таркиби, уни ривожланиш босқичларини ва типологик хусусиятлари ўрганиш катта аҳамият касб этмоқда. Чунки, ушбу мақоланинг амалий натижасини юзага чиқаришда ва аниқлик киритишда мавзунинг объети сифатида Тошкент вилояти Чирчиқ шаҳар 8-сонли умумий ўрта таълим мактабининг бир гуруҳ ўқитувчиларини синалувчилар сифатида жалб этилган. Ўказилган тадқиқот натижаларига кўра 11-нафар ўқитувчиларининг амалий натижаларига кўра 90 – 100 балл ўртача интеллект даражасини ташкил этди. Шу билан бирга тадқиқот натижаларига кўра 21-нафар ўқитувчиларининг амалий натижаларига кўра 100 – 110 балл тўплашди тестнтнг тавсифига кўра олинган амалий натижалар жавобига асосан синалувчиларнинг ёшга нисбатан ақлий тараққиёти меъёрдаги интеллект жавобини ташкил этди ва шу билан бирга 110 ва 120 оралиғида балл тўплаган ўқитувчилар 3-нафарни ташкил этди. тестнтнинг тавсифига кўра олинган амалий натижалар жавобига асосан синалувчиларнинг ёшга нисбатан ақлий тараққиёти юқори интеллектга эга кишилар жавобини ташкил этди ва шу билан бирга мактаб шароитида ўқувчиларга таълим бераётган ўқитувчиларнинг эмоцианал интеллектини кучайтириш мақсадида Психология, Педагогика кафедраларининг профессор ўқитувчи-

лари томонидан амалий ёрдам кўрсатиш мақсадида талабалар билан ҳамкорликда аниқ кўрсатмалар берилса кейинги босқичда амалий олинадиган натижалар ижобий тамонга ўзгариши мақсадида малакали мутаҳасислар томонидан махорат дарсларини ташкил этиш бўйича кўрсатмалар берилди. Инсонлар орасидаги эмоционал ҳолатлар ва жараёнларнинг, шахслараро ўзаро таъсирларини эмоционал ҳолатлар орқали ўрганишнинг роли беқиёсдир. Эмоционал интеллект табиатини очиш бошқаларни тушуниш маданиятининг ошишига хизмат қилиши табиийдир.Чунки, ақлий қобилят ва эмоционал қобилиятлар жуда чамбарчас боғликдир. Шахсдаги эмоционал кечинмаларнинг ўзгариши албатта интеллектуал қобилиятларни ҳам ўзгаришига олиб келиши мумкин. Кўпчилик олимлар томонидан маълум бир эмоциялар инсонларнинг ақлий қобилиятларини ошишига ёки камайиши таъсир кўрсатиши исботланган. Инсон ўз эмоцияларини бошқара олиши албатта уни жамиятда ўз ўрнини топишида муҳим аҳамият касб этиши аниқланган.

Агар бу борада янада кенгроқ тадқиқотлар олиб борилса, унда эмоционал интеллектни типологик жиҳатдан тушуниш, эмоционал интеллект ва ёш, эмоционал интеллект ва касб, бошқарувда эмоционал интеллект ва унинг роли, шахс эмоционал интеллектининг типологик жиҳатлари каби масалаларнинг илмий-амалий жиҳатлари ўзига хос ечим топиши эҳтимолдан ҳоли эмас.

Адабиётлар:

1. Mayer DJ. Emotional intelligence information. 2005. – P. 95
2. Current directions in emotional Intelligence research / P. Salovey [et al.].
3. In M.Lewis& J.M. Haviland (Eds.). Handbook of emotions (2nd ed.). – N.Y.: Guilford, 2000. – P. 504 – 520

РЕЗЮМЕ

Мақола эмоционал интеллект тушунчасининг яратилиш тарихи ва асосланиши мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақолада эмоционал интеллект тушунчасига оид турли тадқиқотлар, эмоционал интеллект тузилиши, эмоционал интеллект ва шахс, эмоционал интеллектни ривожлантириш шарт-шароитлари, умумий интеллект ва эмоционал интеллектнинг ўзаро алоқадорлиги, эмоционал компетентлик каби масалалар ҳам кенг китилган.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются история и обоснование понятия эмоционального интеллекта. В статье также рассматриваются различные темы, связанные с понятием эмоционального интеллекта, структурой эмоционального интеллекта, развитием эмоционального интеллекта и личности, условиями для развития эмоционального интеллекта, взаимосвязью общего интеллектуального и эмоционального интеллекта и эмоциональной компетентности.

SUMMARY

The article discusses the history and justification of the concept of emotional intelligence. The article also discusses various topics related to the concept of emotional intelligence, the structure of emotional intelligence, the development of emotional intelligence and personality, the conditions for the development of emotional intelligence, the relationship of general intellectual and emotional intelligence and emotional competence.

TALABALARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA KOMPETENSIYA VA KOMPETENTLIKNING AHAMIYATI

Abdujabbarova M. L.
O'zDSMI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti p.f.n.
Davlatov O.G'.
O'zDSMI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti (PhD).

Tayanch so'zlar: globallashuv, internet, axborot, axborot xavfsizlik, kompetentlik, kompetensiya, ta'lim jarayoni.

Ключевые слова: глобализация, интернет, информация, информационная безопасность, компетентность, компетенция, образовательный процесс.

Key words: globalization, internet, information, information security, competence, competence, educational process.

Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda. Bu jarayon – ta'lim oluvchi yoshlarni shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi.

Axborot xavfsizligini ta'minlash eng avvalo, axborot texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liqlikda yuzaga keladigan salbiy ta'sirlarni o'rganish, talabalarni mazkur salbiy ta'sirlardan o'z-o'zini va jamiyat a'zolarini himoya qilish, yuzaga keladigan muammolarning oldini olishga tayyorlashni talab etadi.

Pedagogik hamjamiyatda kompetensiya va kom¬petentlik, ulardan qaysi biri tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarini aniqlash jarayoni jadallik bilan bormoqda, mazkur tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda.

Kompetent yondashuv talabadan alohida-alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda o'z navbatida o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash

o‘z navbatida ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Dastlab ko‘pgina holatda sinonim so‘zlar sifatida qo‘llaniladigan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur.

Zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ta’lim tizimi oldiga qo‘yayotgan talablar bilan bog‘liqlikda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda kompetent yondashuv ta’lim mazmuni va metodlarini o‘zgartirishning yangi bosqichi sifatida ko‘rib chiqilgan. Ana shu nuqtai nazardan ko‘plab tadqiqotlarda kompetensiya produktiv va ijodiy faoliyat uchun zarur o‘zaro aloqador shaxsiy sifatlar majmui, kompetentlik esa, ma’lum sohaga doir biror-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan [1;2; 5-14-b].

Kompetensiya – ta’lim oluvchining ma’lum bir sohada samarali faoliyati uchun zarur hamda uning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (meyorlar)dan ham o‘zib ketishidir.

Meyoriy-huquqiy hujjatlar, psixologik-pedagogik, metodik adabiyotlar va axborot xavfsizligi sohasiga doir ilmiy ishlarni tahlil etish asosida talabalarni axborot xavfsizligi faoliyatiga tayyorlashga doir kompetensiyalar tizimi aniqlashtirishga ehtiyoj tug‘iladi.

Tahlil natijalari talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini rivojlantirish mutaxassislar tayyorlashning muhim vazifasi sifatida individual, guruhiy va omma psixologiyasini jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy, ekologik va boshqa sohalariga qaratilgan turli darajalardagi salbiy ta’sirlardan himoyalashga doir faoliyatini tashkil etib, informatsion savodxonlik, g‘oyaviy yo‘nalganlik, ijtimoiy-siyosiy faollik, tizimli qaror qabul qilish, sog‘lom tafakkur yuritish, informatsion dunyoqarash, axborot madaniyati, axborot iste’moli madaniyati kabi komponentlarni o‘z ichiga qamrab olishi haqidagi xulosaga kelindi.

Talabalarni axborot xavfsizligi faoliyatiga tayyorlashga doir kompetensiyalar tizimini quyidagicha shakllantirish maqsadga muvofiq:

Yuridik (axboriy-huquqiy) – Zararli axborotlar ta’siridan himoyalanish va axborot xavfsizligiga rioya qilishga doir meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish: milliy qonunchilik normalari: O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qaror va Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qaror va Farmoyishlari; Davlat organlarining metodik ko‘rsatmalari: Axborot xavfsizligi standartlari, metodik ko‘rsatmalar;

Dasturiy-texnik – Avtomatlashgan axborot tizimlari va aloqa tarmoqlarida axborot xavfsizligini ta'minlash metod va vositalarini egallaganlik: soxta va ta'qiqlangan axborotlardan muhofaza qilish vositalari; zarur axborotlarni olishning qulay vositalari; axborotlar bilan ishlashda maxfiylik va axborotlar qimmatini hisobga olish

Meyoriy-metodik – Faoliyat turi (tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish) bilan bog'liqlikda axborot xavfsizligi sohasida shaxsiy va jamoaviy meyorlarga rioya qilish: axborot xavfsizligini ta'minlashda maqsadning aniq shakllantirilganligi; aksiologik yondashuv asosida tarixiy-madaniy merosga nisbatan tahdidlarning oldini olish; tarixiy-madaniy merosga nisbatan tahdidlarni tahlil etish; tarixiy-madaniy merosni muhofaza qilish bilan bog'liqlikda axborotlar ustida ishlashni tashkil etish.

Ijtimoiy-madaniy – Jamiyat a'zolari va shaxsiy qadriyatlar tizimiga ta'siri nuqtai nazaridan axboriy faoliyatni quyidagi jihatlar bilan bog'liqlikda axborot bilan ishlash faoliyatini boshqarish: iqtisodiy (axborot mahsulot sifatida); siyosiy (mafkuraviy poligon); psixologik (axborot urushi); pedagogik (axborot orqali ta'sir o'tkazish); ijtimoiy-madaniy (jamiyatni axborotlashtirish sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim ahamiyat kasb etishi).

Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish – bo'lajak kasb egasi sifatida bevosita inson ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali uni o'z aqidalari, ma'naviy-axloqiy ideallari, e'tiqodidan ayiradigan buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashish malakasini tarkib toptirish bilan aloqadorligini ko'rsatdi. Shu bilan birga aynan axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish millat ma'naviyatini himoya qilish bilan bog'liq bo'lib, mazkur holatda talabalarning tarixiy-madaniy meros, jumladan urf-odatlar, an'analar, avlodlar vorisiyligi, millatning istiqboli bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlarni chuqur o'zlashtirishini talab etishini ko'rsatdi.

Ochiq axborot kommunikatsiyasi jarayonida talabalar ongiga ta'sir etayotgan yot g'oyalarga qarshi himoya vositalarini ishlab chiqishdan avval talabalarning ijtimoiy xulqida ko'zga tashlanadigan eng muhim holatlardan biri tashvishlanish, nimadandir cho'chish va shu tufayli ijtimoiy munosabatlardan o'zini olib qochishga intilish hislarining namoyon bo'lishidir. Chunki agar, psixologik himoya holatining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu shaxs ichki kechinmalarini ifodalovchi shunday holatki, unda odam ichki ruhiy mo'tadillikni asrash uchun o'zidagi xavotirlanish, qo'rquv va xadiksirashlarini bosishga, ulardan xalos bo'lishga intiladi. Psixologik himoya – shaxsni turli salbiy ta'sirlardan asrashga, psixologik diskomfortni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Ochiq axborot xurujlari vaziyatida talabaning o‘z-o‘zini himoya qilishini boshqarishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berish lozim:

Birinchidan, har bir talaba uchun mustaqil fikrga ega bo‘lish muhim. Mustaqil fikrga ega bo‘lgan insongina o‘ziga nisbatan qaratilgan yaxshi yoki yomon ma’lumotning mohiyatiga yetishi va unga nisbatan adekvat reaksiya ko‘rsatishi, himoya mexanizmlarini ishga solishi mumkin. M.Quronov ta’biri bilan aytganda, mustaqil fikrga mustaqil (erkin, ozod; tobe bo‘lmagan, alohida) – ixtiyori o‘zida bo‘lgan; tobe, qaram bo‘lmagan kabi ma’nolaridan kelib chiqib qarashimiz lozim. Bunda o‘zganing yordamisiz yoki rahbarligisiz, o‘zicha fikr yuritish, yashash tushuniladi. Yoshlar shunga qodirmi? Uni shunga o‘rgatyapmizmi? [3; 120-b.].

Ikkinchidan, talabalar turli yot va bemaza axborot xurujlariga berilmasligi uchun biz ularda milliy g‘ururni tinmay tarbiyalashimiz va bunda fanlararo aloqadorlik hamda tarbiyaviy muloqotlardan oqilona foydalanishimiz zarur. “Yangi zamonning yang tushunchalari” tahliliga e’tibor qaratar ekan, M.Quronov milliy g‘urur tushunchasining mohiyatini quyidagi tarzda sodda va tushunarli yoritib bergan: “Milliy g‘urur – talabaning yoshiga mos ravishda o‘z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi; uning madaniyati, ma’naviyati, iqtisodiyotida qo‘lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo‘lishga, ularni boyitishga intilishini o‘z ichiga oladi” [3; 153-b.]. Milliy g‘ururning ahamiyati ham ana shunda, bunday fazilatga ega talaba noto‘g‘ri g‘oyalarga, jumladan, axborot xurujlariga tobe bo‘lmaydi.

Uchinchidan, milliy g‘ururi bor insonda iymon, insof va diyonat tushunchalarini shakllantirish mumkin. Chunki inson qalbi bilan bog‘liq bu qadriyatlar Internet va ochiq axborotlar olamida adashtirmaydigan “kompas” rolini o‘ynaydi. “Internet shunday o‘rmonki, unda kompassiz yurib bo‘lmaydi”. Garchi Internet axloqiy jihatdan betaraf vosita sanalsa-da, undan shu vaqtga qadar to‘plangan madaniy merosni saqlash maqsadida ham, unga putur yetkazish maqsadida ham foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, professor-o‘qituv¬chilar tomonidan aytiladigan har bir so‘zning aniq mo‘ljalli bo‘lishini ta’minlash zarur. O‘qituvchi tomonidan quyidagi fikr muntazam takrorlab turilishi zarur: “Axborot qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, u qabul qiluvchi insonning izmida bo‘lishi, uning manfaatiga xizmat qilishi kerak”. Buning uchun yovuz niyatli, yot g‘oyalarni targ‘ib etuvchilarning asl niyatlarini, ular say’-harakatlarining oqibatlari nima bilan tugashini har bir mashg‘ulotning tashkiliy qismida esga solib turish lozim.

Adabiyotlar:

1. Turg‘unov S.T. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 2007. – 362-b.

2. Ильина М.В. Реализация компетентностного подхода в работе с учебным текстом (из опыта преподавания курса «История западной России в основной школе) // Исследования Балтийского региона. Вестник Института Балтийского региона РГУ им. И. Канта. – 2010. - №1. – С. 149-156.

3. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz (Ota-onalar uchun). – T.: Ma’naviyat, 2013. – 320-b.

РЕЗЮМЕ

Maqolada talaba-yoshlarni axborot xavfsizligini ta’minlashda shakllanishi muhim bo‘lgan kompetensiyalar va ularning funksiyalari borasida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuning bilan birgalikda kompetensiyalarning (axboriy-huquqiy, dasturiy-texnik, meyoriy-metodik, ijtimoiy-madaniy) mazmun-mohiyati ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены мнения о компетенциях и их функциях, которые важно формировать в обеспечении информационной безопасности обучающихся. При этом раскрыта сущность компетенций (информационно-правовой, программно-технической, нормативно-методической, социокультурной).

SUMMARY

The article presents opinions about the competencies and their functions, which are important to form in ensuring the information security of students. At the same time, the essence of competencies (information-legal, software-technical, normative-methodological, socio-cultural) is revealed.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ ТАЛАБАЛАРИНИ МЕДИА КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЎРНИ

Азизова С.А.
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ, катта ўқитувчи

Таянч сўзлар: медиа, медиакомпетентлик, инновация, инновацион фаолият, инновацион технологиялар.

Ключевые слова: медиа, медиакомпетентность, инновации, инновационная деятельность, инновационные технологии.

Key words: media, competency, innovation, innovation activity, innovation technologies.

Республикамизда барча соҳаларда бўлгани каби таълим тизимида ҳам улкан ислоҳатлар амалга оширилди. Жумладан, “Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегиясини муваффақиятли амалга ошириш, рақамли технологияларни ривожлантириш ва аҳолининг кундалик ҳаётига кенг жорий этишни таъминлашнинг муҳим шартларидан бири ҳисобланади.

XXI асрда ахборот, билим ва кўникмаларни мунтазам равишда янгилаб бориш вазифаси жаҳон ижтимоий-иқтисодий тараққиётининг муҳим омилига айланиб бормоқда. Бу эса таълим тизимининг янги, инновацион тузилмасини яратишни тақозо этмоқда. Негаки, янгиланган иқтисодиёт инновацион таълим тизимисиз ривожлана олмайди. Билимлар ҳозирги жаҳон хўжалик тизимининг қудратли ресурси ва бойлиги эканлиги боис, замонавий таълим тизими ҳам дунё стандартларига ҳамоҳанг бўлиши табиий. Миллий таълим тизимининг модернизация қилинаётган замонавий босқичи фундаментал ўзгаришлар ва тизимли ёндашув билан характерланади. Зеро, шиддат билан ўзгараётган дунёда ёш авлодни етук кадрлар қилиб тайёрлашга масъул бўлган педагоглар олдига қўйилаётган талаблар ниҳоятда юқори бўлиб, улар сифат жиҳатидан янги, интеллектуал, маънан баркамол ва юксак профессионал салоҳиятли шахсларни шакллантиришга йўналтирилган.

Маълумки, таълим сифати кўп жиҳатдан ўқитувчининг компетентлиги ва касбий маҳорати билан белгиланади. “Компетентлик” атамаси (лотинча

competentio интиламан, лойиқман, муносибман) –чуқур билим ва тажрибага эгалик, юксак маҳорат, хабардорлик, омилкорлик деганидир.

Замон талабларига жавоб бера оладиган мутахассислар тайёрлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Буни эса ўрта таълим мактабларидан тортиб токи олий таълим муассасаларида олиб борилаётган ишларда кўришимиз мумкин. Мақсад эса янгича фикрлайдиган, бозор иқтисодиёти шароитида мувоффақиятли хўжалик юритадиган юксак малакали кадрларни тайёрлаб берувчи педагогларни, чуқур билимга эга бўлган, замонавий педагогик технологиялар ҳамда компютер технологияларидан фойдаланган ҳолда илм олувчи талабанинг психологик хусусиятларини ҳисобга ола билувчи профессор-ўқитувчи мутахассисларни тайёрлаш давр талаби бўлиб қолади.

Мамлакатимизда ахборот коммуникация технологиялари инфратузилмасини ривожлантириш, хусусан, мазкур соҳада халқаро стандартларга мос юқори малакали мутахассисларни, биринчи навбатда, дастурий таъминотларни ишлаб чиқиш, ахборот тизими ва компютер тармоқларини бошқариш бўйича кадрларни тайёрлашга катта эътибор қаратилмоқда. Бу борада соҳага керакли мутахассисларни тайёрлаб берувчи олий таълим муассасаларининг ҳиссаси каттадир.

Айтиш жоизки, ахборот-коммуникация технологиялари соҳаси бутун дунёда тез суръатларда ривожланиб боряпти. Инновацион технологиялар, ишланмалар, дастурлар яратиш бўйича етакчи компаниялар ким ўзарга пойгага киришган. Соҳада ихтиро қилинган бугунги бирор янгилик эртага ўрнини бошқасига бўшатиб беришга мажбур бўлмоқда. Иқтисодиётнинг барча тармоқларда ривожланиш ахборот коммуникация технологиялари билан чамбарчас боғлиқ ҳолатда олиб борилмоқда. Бунинг учун мамлакатимизда барча имкониятлар – ҳукумат эътибори, моддий-техник база, интеллектуал салоҳият етарлидир.

Ҳозирда самарали таълимнинг замонавий усулларини яратиш етакчи масалалардан бирига айланган. Бунда мултимедиа ва мултимедиа маҳсулотларининг ўрни беқиёсдир.

Мультимедиа – бу бир неча маълумот тақдим этиш воситаларининг бир тизимга бирлашиши, матн, схема, жадвал, диаграмма, фотографиялар, видео ва аудио фрагментлар ва бошқа ҳар хил маълумотларни рақам кўринишида ишлаб чиқиш, яратишнинг дастурий-аппарат воситасидир. Мултимедиадан фойдаланиш маълумот қабул қилишнинг янги ва сифатли даражасини таъминлайди.

Мултимедиа ва графикадан фойдаланган ҳолдаги таълим фақатгина матндан фойдаланган ҳолдаги таълимдан яҳши ва самаралидир. Мултимедиа материаллари талаб даражасида тўғри ишлаб чиқилган бўлса, таълим олувчиларда аниқ ва самарали ментал модел(тасаввур) шаклланишига ёрдам беради. Ўтказилган комплекс тадқиқот натижаларига кўра тўғри ишлаб чиқилган мултимедиа материалларининг афзалликлари қуйидагилардан иборат:

1. Муқобил истиқболлар.
2. Фаол иштирок.
3. Тезкор таълим олиш.
4. Билимларни хотирада сақлаш ва қўллай олиш.
5. Тизимли равишда тушуна бориш.
6. Мустақиллик ва эътиборлилик.
7. Ахборотлар кетма-кетлиги ва тезлигини бошқариш.

Мултимедиа материалларининг потенциал афзалликлари тўғрисида Маер ҳам айтиб ўтган бўлиб, тингловчига видео ва аудио ахборотларни қабул қилиш имкониятини яратган ҳолда, алоҳида олинган ушбу имкониятларнинг ҳар биридан ҳам кўра мултимедианинг маълум устунлиги мавжуддир.

strategik jihatdan o’zgartirish orqali siz ishlashni optimallashtirishingiz va charchashning oldini olishingiz mumkin.

3. Kuch va konditsionerlikni ta’kidlang: umumiy jismoniy tayyorgarlikni kuchaytirish belbog’li kurashchilarga katta foyda keltirishi mumkin. Asosiy barqarorlik, portlovchi kuch va moslashuvchanlikni maqsad qilgan mashqlarni qo’shing. Bunga kombinatsiya orqali erishish mumkin

Kursantlarni belbog‘li kurashga tayyorlashda klaster yondashuvi muayyan mashqlar va mashg‘ulotlarni birgalikda guruhlash orqali mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan usuldir. Ushbu yondashuv mahoratni rivojlantirish va sportdagi umumiy ko’rsatkichlarni optimallashtirishga qaratilgan.

Klaster yondashuvini amalga oshirish uchun siz o’quv mashg’ulotlaringizni klasterlarga yoki tegishli mashqlar guruhlariga bo’lishingiz mumkin. Har bir klaster belbog’li kurashning texnika, kuch, chidamlilik yoki strategiya kabi o’ziga xos jihatlariga e’tibor qaratishi kerak. Mashg’ulotlaringizni shu tarzda tuzib, siz turli xil rivojlanish sohalariga yo’naltirilgan bo’lishingiz mumkin, shu bilan birga mashqlar o’rtasida to’g’ri dam olish va tiklanish imkonini beradi.

Masalan, sizda texnikaga e’tibor qaratiladigan mashqlar klasteri bor deylik. Ushbu klasterda siz kursantlarga tortishish usullarini yaxshilashga yordam beradigan mashqlarni kiritishingiz mumkin, masalan, olib tashlash, qochish yoki topshirish. Ushbu mashqlarni birgalikda guruhlash orqali kursantlar diqqatini jamlashlari mumkin

Kursantlarni belbog‘li kurash bo‘yicha tayyorlashning klaster usuli harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida ushbu sport turi bo‘yicha malakasini oshirish uchun qo‘llaniladigan usuldir. Bu yondashuv kursantlarni malaka darajalari, jismoniy qobiliyatlari va mashg‘ulotlarga bo‘lgan ehtiyojiga qarab guruhlarga bo‘lishdan iborat. Shunday qilib, o’qituvchilar o’zlarining o’quv dasturlarini har bir klaster uchun takomillashtirishning muayyan yo’nalishlarini hal qilish uchun moslashtirishlari mumkin.

Natijada, belbog‘li kurash bo‘yicha mashg‘ulotlarda klaster usulini joriy etish natijalari quvonarli bo‘ldi. Kursantlar ushbu sport turida texnikasi, kuchi va umumiy ko‘rsatkichlari yaxshilanganini ko‘rsatdi. Bu usul ko’proq individual e’tibor va maqsadli mashg’ulotlarga imkon beradi, bu esa tezroq taraqqiyot va yaxshi natijalarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, bir guruh kursantlar o’zlarini olib tashlash usullari ustida ishlashlari kerakligi aniqlandi, deylik. O’qituvchilar maxsus yo’naltirilgan mashqlar va mashqlarni ishlab chiqishlari mumkin

Harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida klaster usulidan foydalangan holda belbog‘li kurash bo‘yicha kursantlarni tayyorlash mexanizmlarini o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘p qirrali. Bunday yondashuv o‘quv jarayonini

optimallashtirish va belbog‘li kurash bo‘yicha o‘qitish samaradorligini oshirish uchun sport fani, pedagogika va harbiy tayyorgarlik tamoyillarini birlashtiradi.

Ilmiy nuqtai nazardan, ushbu mexanizmlarni tadqiq qilish kursantlarni belbog’li kurashga tayyorlashning fiziologik va psixologik jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Klaster yondashuvi doirasida maxsus o’qitish usullari, strategiyalari va protokollarini o’rganib, tadqiqotchilar kursantlarning jismoniy tayyorgarligini, jangovar mahoratini va umumiy ish faoliyatini rivojlantirishning eng samarali va samarali usullarini aniqlashlari mumkin. Keyinchalik bu bilimlar harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida o’quv dasturlarini yanada takomillashtirish uchun qo’llanilishi mumkin.

Amalda, ushbu tadqiqot natijalari bir nechta muhim oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, ular belbog’li kurash bo’yicha kursantlarning o’ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga javob beradigan kompleks o’quv dasturlarini ishlab chiqish haqida ma’lumot berishlari mumkin. Treningning asosiy mexanizmlarini tushunib, o’qituvchilar mahoratni oshirish va jangovar tayyorgarlikni maksimal darajada oshiradigan maqsadli mashg’ulotlar, mashqlar va mashqlarni ishlab chiqishlari mumkin. Harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida klaster usuli asosida belbog‘li kurash bo‘yicha kursantlarni tayyorlash mexanizmlari natijalarini amaliyotga tatbiq etish bir qancha muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Birinchidan, klaster yondashuvi va uning belbog’li kurash mashg’ulotlarida qo’llanilishi haqida aniq tushunchani shakllantirish muhimdir. Klaster yondashuvi o’xshash qobiliyat va ko’nikmalarga ega bo’lgan shaxslarni yanada maqsadli va samarali o’qitish uchun guruhlashni o’z ichiga oladi. Harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari sharoitida bunday yondashuv belbog‘li kurash bo‘yicha kursantlarni tayyorlash jarayonini optimallashtirishga yordam beradi.

So‘ngra kursantlarning belbog‘li kurash bo‘yicha hozirgi mahorat saviyalari va qobiliyatlari har tomonlama baholanishi kerak. Bu takomillashtirish zarur bo’lgan aniq hududlarni aniqlash imkonini beradi va kursantlarni guruhlash uchun tegishli klasterlarni aniqlashga yordam beradi.

Klasterlar shakllantirilgandan so’ng, har bir klaster ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus o’quv dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Ushbu dasturlar belbog’li kurashda texnika, kuch, chaqqonlik va taktik tushunishni yaxshilashga qaratilgan bo’lishi kerak. Trening progressiv bo’lishi kerak, asosiy ko’nikmalardan boshlab va asta-sekin yanada ilg’or usullarga o’tish kerak.

Samarali amalga oshirilishini ta’minlash uchun har bir klasterga belbog’li kurash bo’yicha tajribaga ega malakali murabbiylar biriktirilishi kerak.

Xulosa. Harbiy ta’lim muassasalarida belbog‘li kurash bo‘yicha kursantlarni tayyorlash odatda klaster usuliga asoslanadi. Ushbu yondashuv keng qamrovli

va samarali o'quv dasturini yaratish uchun o'xshash texnika va ko'nikmalarni birgalikda guruhlashga qaratilgan. Boshlash uchun kursantlar belbog'li kurashning asosiy tamoyillari va usullari bilan tanishadilar. Ular ushbu jang san'atining asosini tashkil etuvchi tanani to'g'ri joylashtirish, tutqichlar va tutqichlarni o'rganadilar. Texnik jihatlardan tashqari, klaster yondashuvi jismoniy tayyorgarlikka ham urg'u beradi. Kursantlar umumiy sport mahoratini oshirish uchun kuch va chidamlilik mashqlari, shuningdek, moslashuvchanlik mashqlari bilan shug'ullanadilar. Bu ularga belbog'li kurashni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun zarur bo'lgan zarur kuch, tezlik va chaqqonlikni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, klaster yondashuvi aqliy tayyorgarlik va strategiyani o'z ichiga oladi. Kursantlar raqiblarining harakatlarini tahlil qilishni, zaif tomonlarini aniqlashni va samarali o'yin rejalarini tuzishni o'rganadilar.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev tomonidan 2020 yil 24 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924 sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.02.2019 yildagi 118-son qarori

3. Mirzakulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati: / Sh.A. Mirzakulov. – O'quv qo'llanma. – Toshkent. – 2013. – 149 b;

4. Nurshin J. M., Salomov R. S., Kerimov F. A. O'zbek kurashi.-T. O'zJTI, 1993.-231 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. - 464 b. 223-6

6. Mirziyoev Sh. Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4881-son qaror. Toshkent. 2020 y. 4 noyabr.

7. Mirzakulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati: / Sh.A. Mirzakulov. – O'quv qo'llanma. – Toshkent. – 2013. – 149 b;

8. Nurshin J. M., Salomov R. S., Kerimov F. A. O'zbek kurashi.-T. O'zJTI, 1993.-231 b.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqola harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida klaster yondashuv asosida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish mexanizmlari masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda belbog'li kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uslublari hamda belbog'li kurashning texnik-taktik usullari, mezonlari, kurashni samarali usullarda tashkil etish imkoniyatlari yetarli darajada ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена вопросам механизмов обучения курсантов борьбе на поясах в военизированных учебных заведениях на основе кластерного подхода, в которой в достаточной мере раскрыты методы развития физической подготовки борцов на поясах, а также технико-тактические приемы борьбы на поясах, критерии, возможности эффективной организации борьбы.личности, развитие у учащихся способности решать возникающие проблемы.

SUMMARY

This article is devoted to the issues of mechanisms for training cadets in belt wrestling in paramilitary educational institutions based on a cluster approach, in which the methods of developing physical training of belt wrestlers, as well as technical and tactical techniques of belt wrestling, criteria, and the possibilities of effective organization of wrestling are sufficiently disclosed.

БЎЛАЖАК ОФИЦЕРЛАРДА ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК ТУЙҒУСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ВА АХЛОҚИЙ АСОСЛАРИ

Абдураҳимова Д.А.
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси
Ҳарбий психология ва педагогика кафедраси профессори,
педагогика фанлари доктори (DSc), профессор

Таянч сўзлар: ватан, ҳарбий, ҳарбий ватанпарварлик, маънавият, ахлоқ, тарбия, маънавий-ахлоқий мерос, ахлоқий идеал, фидоийлик, бурч, масъулият, қаҳрамонлик, матонат, садоқат, ғурур, орият.

Ключевые слова: родина, военный, военный патриотизм, духовность, этика, воспитание, духовно-этическое, этический идеал, честь, ответственность, героизм, верность, гордость, самопожертвование.

Key words: homeland, militare, militare patriotism, spirituality, ethics, education, spiritual, ethical, ethical ideal, honor, responsibility, heroism, loyalty, pride, selfsacrifice.

Ёшларимизни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш бўйича узлуксиз олиб бориладиган ишлар биз учун долзарб аҳамиятга эгадир. Ватанпарварлик ҳар бир давлат ҳаётининг маънавий асоси ҳисобланади ва жамиятни ҳар томонлама ривожлантириш борасида энг муҳим сафарбар этувчи куч сифатида намоён бўлади.

ШАВКАТ МИРЗИЁЕВ
Ўзбекистон Республикаси Президенти,
Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони.

ХХ асрнинг сўнгги ва ХХI асрнинг йигирма йилида юз берган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар туфайли миллатнинг асрий орзуси демократия, озодлик, эркинлик, фаровон ва осойишта турмуш тарзини чуқур англаш фурсати етди.

Халқимиз ўз олдига эзгу ва улуғ мақсадлар қўйиб, ўз тақдирини ўзи белгилаб, азалий қадриятларимизга суяниб, шунингдек, тараққийпарвар давлатлар тажрибасини ижодий ўрганиб юксак интилишлар билан яшай бошлади.

Буларнинг барчаси адабий таълимнинг мақсадини ҳам ўзгартирди - энди бош мақсад бугунги курсант эртанги офицерларни эзгу қадриятлар асосида билимли, юқори салоҳиятли, ватани ва халқи-

га содиқ, жисмонан соғлом, теран ва мустақил фикрловчи ҳарбий хизматчи этиб тарбиялашдир. Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёев 2021 йилнинг 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалаларига бағишлаб ўтказилган йиғилишда, "Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир, ... Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, иккита мустаҳкам устунга таянамиз. Биринчиси – бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт. Иккинчиси – аждодларимизнинг бой мероси ва миллий қадриятларга асосланган кучли маънавиятидир",- деб бежиз таъкидлаб ўтмадилар.

Шунинг учун ҳам бугунги Янги Ўзбекистонда ҳарбий кадрлар тайёрлаш тизимининг шаклланиши ва фаолият кўрсатишининг асосий тамойили сифатида бўлажак офицерларни Ватанга садоқат, юксак ахлоқ, маънавият ва маърифат, меҳнатга виждонан муносабатда бўлиш руҳида тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Янги Ўзбекистон равнақи, келажак стратегияси ҳақида фикр юритилар экан, олий ҳарбий таълим тизимида катта ўзгаришлар амалга оширилмоқда. Шу боис бўлажак офицерларни миллий ғоя руҳида тарбиялаш, уларда Ватани ва эли билан фахрланиш, ҳимоясига шай туриш туйғусини ривожлантиришда адабий таълимнинг ўрни беқиёс. Мазкур ҳолат ҳамда шиддатли ахборот оқими туфайли ёшларимизда хориж мамлакатлари турмуш тарзига интилиш, тақлид қилиш, миллийликдан узоқлашиш, давлатлараро ядровий эмас, мафкуравий кураш олиб борилаётгани узлуксиз адабий таълим тизимининг асосий субъекти - бўлажак офицерларда ватанпарварлик туйғусини тарбиялаш йўсинларини илмий педагогик муаммо сифатида тадқиқ этиш долзарб эканлигини белгилайди.

Бўлажак офицерларда ҳарбий ватанпарварлик, юксак ахлоқийликни намоён этадиган туйғу бўлиб, унинг мазмуни Ватанга меҳр қўйиш, Ватанни ҳимоя қилиш, унинг хавфсизлиги ҳамда яхлитлигини таъминлашга бевосита ва билвосита масъуллик орқали мустаҳкамланади. Шунинг учун ҳам чинакам ҳарбий ватанпарварлик ўзидан оилани, оиладан Ватанни, Ватандан инсониятни устун қўйишни талаб этади. Муҳим жиҳати шундаки, ундаги ҳиссиётлар тор ватанпарварлик доирасига сиғмайди, ундан "четга чиқади". Ҳарбий ватанпарварлик фақат Ватанни севиш ёки яхши кўриш билан чекланмайди, балки бор кучи ва ақл-идрокини Ватанни ҳимоя қилиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишга сафарбар қилишда намоён бўлади.

Президентимиз Шавкат Мирзиёев таъкидлагандек: “Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик ва маънавий-ахлоқий қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаш ва ўқитиш, навқирон авлодимизни бизнинг халқимизга мутлақо бегона бўлган бузғунчи ғоялардан ҳимоя қилиш масалаларига зарур даражада эътибор қаратилмади. Айниқса, диний экстремизм ғояларига берилиб, йўлдан адашган ёшларни соғлом турмуш тарзига қайтаришда биз Қуролли Кучлар сафида хизмат қилаётган аскар ва офицерларимизнинг салоҳиятидан фойдалана олмаяпмиз”. Кези келганда таъкидлаш зарурки, ватанпарварлик, хусусан, “фуқаро ватанпарварлиги” билан “ҳарбий ватанпарварлик” тушунчасини бир хил деб қабул қилиш нотўғри. Ҳарбий қомусий луғатларда ватанпарварликнинг мазмуни “юртга содиқлик, Ватанга муҳаббат, эл манфаатларига хизмат ва мамлакатни душмандан ҳимоя қилиш”, деб талқин этилади. Умуман олганда, ҳарбий ватанпарварликнинг мазмун-моҳияти шу таърифда мужассам бўлганга ўхшайди. Бироқ, фуқаро ватанпарварлиги – ҳуқуқий маданият ва қонунга итоаткорлик ҳақидаги билимлар тизими бўлиб, жамият ва давлатдаги сиёсий-ҳуқуқий ҳодисажараёнларнинг янгилигини баҳолаш, фуқаролик позициясига эгалик, халқига хизматда доимо тайёр туриш ва конституциявий бурчини бажаришдан иборатлиги таъкидлаш лозим. Ҳарбий ватанпарварлик − умумхалқ, умуммиллий ватанпарварликнинг алоҳида тури ва ажралмас қисми бўлиб, у Ўзбекистоннинг давлат мустақиллигини мустаҳкамлаш шароитида яна ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шу боис ҳарбий ватанпарварликнинг методологик асослари, илмий-назарий хусусиятларини ўрганиш, тадқиқ ва таҳлил қилиш ҳар доим долзарб ахлоқий масала бўлиб қолаверади.

Бугунги курсант эртага офицер. Уларни ҳар томонлама баркамол этиб тарбиялашда ўтмишда яратилган маънавий мерос ва ҳарбий саркардалар жасоратидан баҳраманд этиш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Бу ҳақда Биринчи Президентимиз Ислом Каримов: “Албатта, ҳар қайси халқ ёки миллатнинг маънавиятини унинг тарихи, ўзига хос урф-одат ва анъаналари, ҳаёти қадриятларисиз тасаввур этиб бўлмайди. Бу борада, табиийки, маънавий мерос, маданий бойликлар, кўҳна тарихий ёдгорликлар энг муҳим омиллардан бири бўлиб хизмат қилади”, дея таъкидлаб ўтган эди. Бинобарин, халқимизнинг буюк миллий маънавияти ва ахлоқий асослари ва унинг тарихини чуқур ўрганиш, англаш орқали Ватанимиз келажаги ҳисобланмиш ёшларимизни ягона мақсад сари муқаддас Ўзбекистонимиз учун хизмат қилишимиз зарур эканлигини тақозо этмоқда. Бугунги кунда ватанимиз олдида турган энг долзарб вазифамиз бу мустақилликни асраш, халқимиз тинчлигини, осойишталигини сақлашдир. Тарихда юрт озодлиги, мустақиллиги йўлида душманга қарши мардонавор курашган буюк ватандошларимиз Широқ, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик, Нажмиддин Кубро, Амир

Темур ва Бобур каби миллийқаҳрамонларимизнинг жасоратини ёшларимиз онгига сингдириш уларда ватанга дахлдорлик ҳиссини кучайтириш ва ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Таъкидлаш жоизки, глобаллашув шароитида инсон қалби ва онгига раҳна солувчи таҳдидлар ортаётганлиги ташвишли ҳолдир. Айниқса, ташқи таъсирлар, тазйиқлар, тажовузлар ортиши, ахборот хуружларининг авж олиши дунё жамоатчилигини жиддий ташвишга солмоқда. Ҳозирда дунё миқёсида таҳликали вазиятни ортиб бораётгани биздан доимо ҳушёр, огоҳ ва сергак бўлишни талаб этмоқда. Тарихдан маълумки, аксарият таназзулга юз тутган давлатларда жамиятнинг парчаланишида ғоявий парокандаликлар асосий сабабларидан бири сифатида эътироф этилган. Шу ўринда, бугунги кун талаби барча воқеа ҳодисалар, ижтимоий-сиёсий жараёнлардан етарли даражада хабардор бўлишни тақозо этмоқда.

Маълумки, ҳарбий ватанпарварликнинг ўрни ва аҳамияти, ҳарбий ватанпарварлик тарбияси нафақат мафкуравий асосларга, балки ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ахлоқий асосларга ҳам боғлиқ. Зеро, бугунги кунда ҳарбий ватанпарварлик тарбияси бевосита Қуролли Кучлар тизими, ҳарбий соҳа, давлат органлари ва жамоат ташкилотлари орқали амалга оширилса-да, оила, маҳалла ва таълим муассасаси уни билвосита амалга оширишга масъул ҳисобланади ва бу борада ҳар бир фуқаро миллий-маънавий ва ахлоқий жиҳатларни яхши билиши лозим. Ҳозирги даврда ҳарбий ватанпарварликнинг асосини − юрт тинчлиги белгилаб беради. Бугунги таҳликали замонда Қуролли Кучларимиз қудратини ошириш, миллий армиямизни модернизация қилиш жараёнларини янада чуқурлаштириш, мамлакатимизнинг мудофаа қобилиятини мустаҳкамлаш, Ватанимиз сарҳадлари дахлсизлигини кўз қорачиғидай асраш ушбу методологиянинг асосий шарти ва кафолати ҳисобланади. Бу шартнинг ахлоқий моҳияти қуйидаги жиҳатларни тақозо этади:

1.Ҳарбий хизматчиларнинг ахлоқий онги. Бу – хизмат жамоаларининг манфаатларига мос келувчи ахлоқий тушунча, ғоя, қараш, ишонч, туйғу каби ҳиссиётлар тизимидан иборат бўлиб, уларнинг жамиятдаги, кундалик турмуш, хизмат фаолиятидаги хатти-ҳаракатларида намоён бўлади. Бу Ватанга бўлган муҳаббат, бурчга садоқат, жамият олдида масъуллик, миллий ғурур ва ифтихор ҳиссиётларидир.

2. Ҳарбий хизматчилар ахлоқи. Бу – ватанпарварлик, мардлик, энг замонавий жанг қуроллари ва воситаларни билиш, уларни ҳар қандай шароитда қўллай олиш, жанговар ўртоқлик қоидаларига содиқ бўлиб, жанг майдонларини ташлаб кетмаслик, ҳарбий қасамёдга содиқ қолиб, ҳарбий бурчни ҳаётининг сўнгги дақиқаларига қадар бажариш каби хусусияти билан ажралиб туради. Юқоридаги тамойиллар ҳозирги даврда ҳарбий ватанпарварлик она юртнинг,

халқнинг тарихи ва тақдирига чуқур ҳурмат билан қарайдиган, Ватан манфаатлари йўлида фидойилик намуналарини кўрсатишга қодир бўлган ёшларга хос фазилатга айланишини талаб этмоқда. Чунки, Ватанга муҳаббат ва унинг келажагига ишонч умумхалқ манфаатларига қаратилган ягона мақсад асосида шакллангандагина ҳарбий ватанпарварлик ўз тақдирини Ватан, миллат тақдири билан боғлаган барча кишилар фазилатига айланади. Таъкидлаш жоизки, ҳарбий ватанпарварлик миллий меросимизнинг қадимий тарихи ва маънавий манбаларига бориб уланади. Жумладан, “Авесто” адабий ёдгорлигида, “Гўрўғли”, “Алпомиш” сингари қаҳрамонлик достонларида, “Темур тузуклари”, “Маҳбуб ул-қулуб”, “Туркий Гулистон ёҳуд ахлоқ” каби ижтимоий-ахлоқий пандномаларда ҳарбий ватанпарварлик ғояларининг тарғиботи билан боғлиқ масалаларни ахлоқшунослик контекстида ўрганиш ғоятда долзарбдир. Чунки, ёшларда ғурур, ор-номус, шаън, ишонч ва садоқат каби ахлоқий фазилатларни шакллантириш бевосита ҳарбий ватанпарварлик шартлари асосида реалликка айланади. Бундан ташқари, Спитамен, Жалолиддин Мангуберди, Нажмиддин Кубро, Темур Малик, Амир Темур, Заҳириддин Муҳаммад Бобур каби бобокалонларимизнинг ҳарбий ватанпарварлигини ахлоқий идеал сифатида улуғлаш, уларнинг ватанпарварлик фазилати билан боғлиқ ахлоқий қарашлари ва ҳаётий фаолиятлари акс этган манбаларни чуқурроқ таҳлил қилиш ёшларда ҳарбий ватанпарварликни янада юксалтиришга хизмат қилади. Таъкидлаш зарурки, ўзбек халқининг миллий-маънавияти ва ахлоқий қадриятларида ҳарбий ватанпарварлик юрт тарихи, тақдирига чуқур ҳурмат билан қараш, Ватан ҳимояси йўлида фидойилик намуналарини кўрсатишга қодир бўлган шахсларга хос фазилат сифатида қадрланади.

Бу туйғу “муҳаббат”, “ишонч”, “садоқат” каби маънавий ва ахлоқий тушунчалар асосида шаклланиб, кишиларнинг қалбидан чуқур ўрин олганлиги учун ҳам даврлар мобайнида ўз мавқеини йўқотмай келаётган фалсафий категориядир. Ватанпарварлик ўзида бирлаштириш, йўналтириш, жипслаштириш, сафарбар қилиш каби ахлоқий сифатларни мужассам этгани учун ўзбек халқи маънавий меросига тааллуқли барча манбаларда улуғланади. Бундан юксак маънавий қадриятимиз ҳисобланган Ислом дини ҳам мустасно эмас. Бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган ислоҳотлар самараси ,аввалambор, юксак маънавиятли, мустақил фикрлайдиган, Ватанимиз тақдири ва истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир ёш кадрлар сафини кенгайтиришга бевосита боғлиқ.

Олий ҳарбий таълим муассасалари курсантларини миллий ғоя руҳида тарбиялашда ҳарбий ватанпарварликнинг ўрни ва аҳамиятини фалсафий – педагогик жиҳатдан таҳлил қилишда ҳарбий ватанпарварлик тарбияси нафақат мафкуравий асосларга, балки ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, ахлоқий асо-

сларга боғлиқ эканлигига эътибор бериш зарур. Бу борада, ҳарбий ватанпарварликнинг илмий-назарий асосларини ўрганиш билан боғлиқ маърифий ишлар кўламини кенгайтириш мақсадга мувофиқ. Бундай тадбирлар курсантлар ва бўлажак ёш офицерларни ҳақиқий ватанпарвар қилиб тайёрлашда муҳим ўрин тутади. Бугунги кунда ёш авлоднинг Ватан ва унинг келажаги ҳақидаги ўй-фикрлари, ватанпарварлик туйғусини ҳис қилиши, аввало:

– шахсий манфаатларини Ватан манфаатлари билан боғлашда;
– миллий ғурур ва миллий ифтихор туйғусининг мустаҳкамлигида;
– Ватан равнақи йўлида фидойилик кўрсатишида;
– юрт тинчлигини асраш, ҳимоя қилиш учун курашда яққол намоён бўлади. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ватанпарварлик фақат инсонга хос хусусият бўлиб, маъно-мазмуни жиҳатидан маънавий фазилатлар туркумига киради.

Унинг ахлоқий асосини муҳаббат – бурч − фидоийлик ўртасидаги ўзаро диалектик боғланган ижтимоий-маънавий фаолият ташкил этади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев. Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари. - Тошкент. “Янги Ўзбе-кистон” 2021 йил 19 январь.

2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008. – Б.29–30.

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган таркибдаги мажлисидаги нутқи // Халқ сўзи, 3-сони. – 2017. – 10 янв.

4. Аледова Р. Ш. Амир Темурнинг маърифий-тарбиявий қарашлари: Пед. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 23 б.

5. Военный энциклопедический словарь. – Москва: Эксмо-Пресс, 2007. − 1024 с.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада бўлажак офицерларнинг ижтимоий фаоллиги юксалтиришнинг устувор йўналишлари фалсафий- педагогик жиҳатдан таҳлил қилинган. Ватанпарварлик туйғусини бўлажак офицерлар онгига сингдиришнинг таълимий асослари янада такомиллаштирилиши зарур, бундай юксак мураккаб масалани, энг аввало, ижтимоий гуманитар фанларнинг ўзаро алоқаси, уларда ватанпарварлик, изчиллик тамойили талқини ва ушбу фанларни ана шу йўналишда ўқитиш орқали эришилади.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проводится анализ приоритетных направлений воспитания у будущих офицеров социальной активности, духовно-этических особенностей воспитания будущих офицеров духе патриотизма, а также дано духовно-этическое определение данному понятию. Научно обоснованно формирование и развитие патриотизма на основе определённой веры, национальной культуры и идеологии.

SUMMARY

This article analyzes the priority areas of education among the young social activity, spiritual and ethical characteristics of youth education in the spirit of patriotism. And also, given the spiritual and ethical definition of this concept. Scientifically formation and development of patriotism based on a leap of faith, of national culture and ideology are given.

KREDIT TIZIMI ASOSIDA FANLARARO INTEGRATSIYANI RIVOJLANTIRISH

Azizova S.A.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, katta o'qituvchi

Tayanch so'zlar: kredit, integratsiya, innovatsiya, innovatsion faoliyat, kredit tizimi.
Ключевые слова: кредит, интеграция, инновация, инновационная деятельность, кредитная система.
Key words: credit, integration, innovation, innovation activity, credit system.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamqorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy xamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish ..." ta'kidlanib, ushbu Qarorning ijrosini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovason faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari huzurida ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Yuqorida qayd etilgan holatlar Oliy ta'lim tizimini axborotlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasalari talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini kasbiy-pedagogik kompetentlikning yangi mezoni sifatida qarab, talabalarining innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish orqali bunday tayyorgarlikni takomillashtirilgan metodik tizimini ishlab chiqish muammosi dolzarbliligini ko'rsatadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga yo'naltirish, o'quv jarayonida innovatsion ta'lim muhitini va elektron axborot ta'lim muhitini uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish,

ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va mehnat bozoriga raqobatbardosh kadrlar tayyorlash oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi. Bu esa o‘z navbatida oliy ta’lim muassasalaridagi innovatsion faoliyat mazmunini takomillashtirish asosida o‘qitishning innovatsion shakl va metodlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish zaruratini ko‘rsatib beradi.

K.Angelovski [2] innovatsiyaga oid ta’riflarini tahlil qilar ekan, ko‘pgina olimlar innovatsiyani yangilik, yangi, yangi modellar, yangilanish jarayoni deb e’tirof etganliklarini, lekin uning fikricha innovatsiya bu o‘zgarish sifatida ustunlik qilishini ta’kidlaydi. K.Angelovski “pedagogik innovatsiya”larni, ta’lim - tarbiyani takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan o‘zgarishlar sifatida belgilaydi.

R.N.Yusufbekova [3] “pedagogik innovatsiya” tushunchasining mohiyatinini ochib berar ekan, pedagogika nazariyasi va amaliyotida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarning mazmuni (ta’lim tizimida innovatsiyalarni o‘zlashtirish va uni joriy etish), avval uchramagan holatga olib keladi, natijada ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti rivojlanadi.

Ta’lim innovatsiyalarini joriy etish bir necha vazifalarni hal etishni talab etadi, jumladan: zarur o‘quv vositalari va didaktik materiallarni chop etish, ta’lim oluvchilarga tadbiq etilayotgan innovatsiyalar haqida ma’lumot berish, bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, maxsus o‘quv dasturlarini yaratishdir. Tadbiq etilayotgan innovatsiyalarning qay darajada samarali ekanligi pedagogik tajriba-sinov asosida aniqlanadi. Shu bois, innovatsiyalarning tadbiq etishda doimiy tahlillar o‘tkazilishi kamchilik va nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning rivojlanishida bozor mexanizmlarining shakllanishi asosida kasbiy ta’limga qiziqish sifat jihatidan o‘zgardi. Kasbiy tayyorgarlik darajasiga yuqori talablar qo‘yilayotgan hozirgi kunda mutaxassislarning asosiy vazifasi mehnat bozorida o‘z yo‘lini oson topish imkonini beruvchi innovatsion faoliyatga tayyorgarlik hisoblanadi. Bugungi kunda axborot miqdorining keng ko‘lamda ortib borayotganligi kasbiy ta’lim jarayoniga ham yangidan-yangi talablar qo‘ymoqda. Axborotlarni o‘zlashtirish va ulardan ta’lim jarayonida yetarlicha hamda samarali foydalanish uchun qulay vositalardan foydalanishga zarurat tug‘ilmoqda. Bugungi texnologiyada yuz berayotgan inqilobiy o‘zgarishlar aynan axborotlardan ta’lim jarayonida yetarlicha foydalanishni ta’minlashda kompyuter va texnik vositalar, umuman olganda, ta’limni axborotlashtirish sharoitlarida tashkil etishni

taqazo etmoqda. Shu nuqtai nazardan o‘quv muassasalarida ta’lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini kiritish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida elektron ta’lim sifatini oshirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadr potensialini rivojlantirish, mutaxassislarni tayyorlash soha rivojining asosiy ustunidir [4]. Biroq, mavjud bo‘lgan infrastrukturani ishlata oladigan, texnik ko‘nikmalarga ega mutaxassislar kamligi sezilib turadi.

Ta’lim mazmunini tabaqalashtirish o‘ziga xos ijodiy jarayon bo‘lib, u ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari va intellektual salohiyatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi hamda shular asosida ta’lim oluvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda o‘rganilayotgan manbaning (mavzuning, bobning, fanning, kursning, sohaning va shu kabilarning) mazmuni, hajmi, murakkabligi bilan bir – biridan farqlanadigan turli darajadagi o‘quv dasturlari va rejalari, didaktik va innovatsion kommunikativ didaktik materiallar tayyorlanadi hamda ularni bajarish va ulardan foydalanish metodologiyasi tayyorlanadi. Quyida keltirilgan usulni foydalanish metodikasi keltirilgan bo’lib, undan mashg’ulotlarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

KWHL usulu. KWHL (bilasizmi?, bilishni xohlaysizmi?, qanday bilib olsam bo‘ladi?, nimani o‘rganib oldim?) – mavzudan avval talabalarining bilim va qziqishlari darajasini bilib olish uchun o‘qituvchilar qo‘llashi mumkin bo‘lgan va talabalarning o‘qish yakunida baholash orqali yordam beruvchi vosita.

Mavzu yoki bobni oxirida talabalar “Nimalarni bilib oldim” savoliga javob berishadi. Ular javoblarini avvalgi savollarga berishadi va bu orqali ular bilimlari qanchalik darajada ortganini va o‘zlari bilishni xohlagan ma‘lumotga ega bo‘lishganligini aniqlashadi.

PMI usuli. Belgilangan jihatlar bo‘yicha ko‘p miqdordagi fikrlarni baholash metodi hisoblanadi. Ushbu metodda talabalar mavzu yoki bob yakunida qog‘ozni uch ustunga ajratadilar, birinchi ustunda Plus(ijobiy jihatlari), ikkinchi ustunda Minus(salbiy jihatlari), uchinchi ustunda esa Interesting(qiziqarli jihatlari) yoziladi.

PLUS	MINUS	INTERESTING

Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari talabalarini innovatsion faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslarini psixologik-pedagogik jihatdan tahlil qilish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Ilmiy-

pedagogik adabiyotlar va tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan ilmiy ishlar tahliliga ko‘ra: ta’limni axborotlashtirish sharoitida pedagog kadrlarning innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish orqali ta’lim sifatini oshirish, mavjud ta’lim mazmunini (o‘quv reja, dasturlar) innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-5847-sonli Farmoni // www.lex.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ―Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги фармони. – Т.: 2017.

3. Ангеловски К.М. Учителя и инновации. - М.: Просвещение, 1991.-159

4. Юсуфбекова Н. Р. Общие основы педагогической инноватики: Опыт разраб. теории инновац. процессов в образовании: (Метод. пособие). Пед. о-во РСФСР, Центр. совет, АПН СССР, НИИ теории и истории педагогики. - М.: -1991. - 91 с ЦСПО РСФСР,.

5. Нажмиддинова Ё.Р. Инновационная деятелност в системе профессионалного образования // WORLD SOSIAL SCIENCE practical journal, – М.: 2018.-№ 4 – С. 29.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада кредит тизими асосида фанлараро интеграцияни ривожлантиришнинг йўллари тўғрисида сўз юритилади

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о путях развития междисциплинарной интеграции на основе кредитной системы.

SUMMARY

This article talks about ways to develop interdisciplinary integration based on the credit system.

ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ САМАРАЛИ ШАКЛ,МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ

Эшбеков С.Ж.
Фарғона вилояти бўйича Миллий гвардияси бошқармаси офицери

Таянч сўзлар: ҳарбий ватанпарварлик, тарбияси, таълим, комил инсон, суҳбатлар, соғломлаштириш, таҳдид.

Ключевые слова: военный патриотизм, воспитание, образование, идеальный человек, бе-седы, исцеление, угроза.

Key words: military patriotism, upbringing, education, ideal person, conversations, healing, threat.

Ёшларга қаратилаган ҳарбий ватанпарварлик тарбияси ишларида тарбия, оммавий ташвиқот ишларининг кенг шакл ва услублари қўлланилади. Тарбиявий ишларнинг шакллари деганда, у ёки бу тарбиявий мақсадга эришишга йўналтирилган, ёшларнинг жамоавий ва якка тартибдаги фаолиятларини ташкиллаш услублари тушунилади.

Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик тарбияси миллий мафкурага асосланиб, жанговар ҳужумкор хусусиятларга эга бўлиши, ёшларни Ватан ҳимоясига тайёрлаш борасида учраётган барча камчиликларни қатъий очиб ташлаши ва уларни тузатиш тадбирларини ишлаб чиқиши керак.«Айни вақтда халқаро терроризм ва экстримизм хавфининг тобора ортиб бораётгани, дунёнинг айрим минтақаларида қуролли тўқнашувлар давом этаётгани, таҳликали вазият сақланиб қолаётгани Ўзбекистоннинг барқарор ривожланишига таҳдид солмасдан қўймайди, албатта. Буларнинг барчаси олдимизда пайдо бўлаётган таҳдид ва хатарларга муносиб зарба беришга доимо тайёр бўлишни талаб этади» [1;422]. Бундай вазиятда ёшларда ҳарбий ватанпарварлик сифатини ривожлантириш талаб этади. Ҳарбий ватанпарварлик ҳам тарихан шаклланадиган ва авлоддан-авлодга ўтиб келаётган ахлоқий қадриятлар сирасига киради: уни ҳам фазилат, ҳам мерос, ҳам қадрият сифатида талқин ва тадқиқ этиш зарур.

Ижтимоий-маънавий муҳитни янада соғломлаштириш, диний ақидапарастликнинг олдини олиш, маънавий тубанлик, зўравонлик каби иллатларни батамом йўқ қилишга эришиш мақсадида ҳар бир идора ва ташкилотда, таълим-тарбия муассасаларида, жамоа хўжаликларида махсус «маънавият кунлари», «маънавият сабоқлари» - ўқувлари; музей, тарихий қадамжоларга саёҳатлар, Ватан, меҳнат қахрамонлари, тарихий ва таниқли шахслар билан учрашувлар ўтказиш, ижодкор оилалар ва ёшлар клублари ташкил этиш, аждодларимиз маданий мероси, қадамжолар, тарихий, ёдгорликлари, урф-одатлари, тўй ва мотам маросимлари, халқ оғзаки ижоди, ўзбек миллий ҳунармандчилнк намуналарини ўрганиш ва келгуси авлодларга етказиш мақсадида саёхат ва илмий экспедициялар уюштириш ватанпарвар ёшларни шакллантиришнинг самарали йўлларидир.

Ватанпарварлик руҳини ривожлантиришда энг муҳим омиллардан бири – бу таълим-тарбия тизимидир. Бизга маълумки, ота-боболаримиз қадимдан бебаҳо бойлик бўлмиш илму маърифат, таълим ва тарбияни инсон камолоти ва миллат равнақининг энг асосий шарти ва гарови деб билган. Таълим-тарбия ватанпарварлик руҳини шакллантирадиган ва ривожлантирадиган энг муҳим омилдир. Хусусан, таълим-тарбия тизими ва шу асосда онгни ўзгартирмасдан туриб, ёшларда ватанпарварлик руҳини ривожлантириб бўлмайди. Таълим – жамиятнинг ислоҳ қилиш ва уни ташқи дунё учун янада очиқ ҳамда янги технология ва билимларга йўналтирилган жамиятга айланишнинг асосий омилидир. Миллатимизнинг эртанги куни қандай бўлиши, бугунги кунда таълим олаётган ёшларнинг қай даражада таълим-тарбия олиши билан боғлиқдир.

Ватанпарварлик бу комил инсонга хос фазилатлардан бири. Ватанпарварлик ҳар бир инсонни қалбига она сути билан жойлашган ўта нозик ва теран туйғудир. «Ватанпарварлик – бу шундай нозик, теран бир туйғуки, у фақат она сути билан кириши ва жон билан чиқиши мумкин». Ватанпарварликка берилган бу таърифдан кўриниб турибдики, ватанпарварлик туйғуси инсонларда ўз-ўзидан пайдо бўлмайди. Бу нозик ва теран туйғу она қалбида туғила-жак фарзандига нисбатан меҳри ва туғилиши билан ва боланинг ўз онасини эмиши орқали қалбига жойлашган оқ сути билан пайдо бўлади ва умрининг оҳиригача ривожланиб, тако-миллашиб бораверади. Инсон вафот этгандан сўнг, ватанпарварлик туйғуси ҳам ўз-ўзидан барҳам топади.

Ватанпарварлик ҳар бир инсонни қалбига она сути билан жойлашган ўта нозик ва теран туйғудир. «Ватанпарварлик – бу шундай нозик, теран бир туйғуки, у фақат она сути билан кириши ва жон билан чиқиши мум-

кин» [2;48]. Ватанпарварликка берилган бу таърифдан кўриниб турибдики, ватанпарварлик туйғуси инсонларда ўз-ўзидан пайдо бўл-майди. Бу нозик ва теран туйғу она қалбида туғилажак фарзандига нисбатан меҳри ва туғилиши билан ва боланинг ўз онасини эмиши орқали қалбига жойлашган оқ сути билан пайдо бўлади ва умрининг оҳиригача ривожланиб, такомиллашиб бораверади.

Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик тарбиясининг назарияси ва амалиётини ўзлаштириш, уларни ҳарбий хизматга, ўз Ватани – Ўзбекистон Республикасини ҳимоя қилишдаги бурчларини бажаришга ҳар томонлама тайёрлаш – ўқув юртлари педагогик жамоаларининг муҳим вазифаларидан биридир. Бу вазифани муваффақиятли равишда ечиш учун ёшларни Қуролли Кучлар хизматига, Ватан ҳимоясига ахлоқий-сиёсий, психологик, ҳарбий-техник ва жисмоний тайёрлашни ташкиллаш, унинг мазмуни, шакл ва услублари бўлиб ҳисобланади.

Шуни алоҳида таъкидлаш зарурки, ҳарбий ватанпарварлик тарбияси умумий талқиндаги ватанпарварликдан қатор жиҳатлари билан фарқ қилади.

– ҳарбий ватанпарварлик тарбияси Ўзбекистон фуқароларини Ватанни қурол билан ҳимоя қилишга тайёрлашни ўз олдига мақсад қилибқўйган;
– ҳарбий ватанпарварлик асосини Ўзбекистон Қуролли Кучларининг удумлари ташкил этади, ватанпарварлик тарбияси асосини эса ҳарбий удум билан бир қаторда меҳнат удумлари ташкил қилади;
– ҳарбий ватанпарварлик тарбияси Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучларига нисбатан ҳурмат ва ғурурланиш, ҳарбий хизматчи бўлишга хоҳиш ва интилиш ҳамда қўлида қурол билан мустақил Ватанни ҳимоя қилиш ҳиссини уйғотади. Ватанпарварлик тарбияси эса Ватанига содиқлик, Ўзбекистон фуқароси ўз давлатининг буюклигини, кучлилигини мустаҳкамлаш, мустақиллигини ҳимоя қилиш ҳиссини ривожлантиради[3;20].

Ёшлардаги ҳарбий ватанпарварлик онг, ахлоқий фаолият кўникмалари ҳамда ватанпарварлик маданияти турли соҳаларида фидокорона меҳнат қилаётган, илм-фан, маданият, ишлаб чиқариш, спорт соҳаларида ютуқларни қўлга кириш билан Ўзбекистон Республикаси номини жаҳонга машҳур қилаётган, унинг обрў-эътиборининг ошишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшаётган шахслар ҳаёти ва фаолият тўғрисидаги маълумотлардан самарали фойдаланиш, ватанпарварлик намуналарини кўрсатган, халқ қаҳрамонлари намунасида шакллантирилади. Ватанпарварлик

тарбияси ёшларда дунёқарашни шакллантиришда ҳам муҳим аҳамиятга эга бўлиб, уни самарали ташкил этишда онг, ҳис-туйғу ҳамда хулқ-атвор бирлигига эришиш мақсадга мувофиқдир. Бадиий ва илмий адабиётлар, матбуот янгиликлари, кинофильм, спектакл ғоялари, турли суҳбатлар мазмунини тушунтириш, тарғиб этиб бориш орқали ўқувчилар онгига ватанпарварлик туйғулари сингдирилади. Ватанпарварлик тарбиясини ташкил этиш учунмаълум шарт-шароитларнинг мавжудлиги тақозо этилади. Булар:

- умумтаълимда ташкил этилаётган таълим-тарбия жараёни юксак даражада уюштирилиши;
- ватанпарварлик тарбиясини ташкил этиш жараёнининг муваффақияти ўқитувчи ва ўқувчилар жамоасининг савияси;
- тарбиявий ишнинг режали, узлуксиз, тизимли бўлиши;
- оила, мактаб ва маҳалла ўртасида ўзаро ҳамкорликнинг юзага келиши ватанпарварлик тарбиясининг муваффақиятинитаъминлаш;
- ўқувчиларнинг ахлоқий ва ҳуқуқий меъёрлар, умумий тартибга қатъий риоя этишга ўргатиш, зиммасидаги бурчни тўлақонли адо этишларига эътиборни қаратиш.

Тарбиянинг ҳаётийлигини таъминламасдан туриб тарбия бераётган ёшларимиздан, фарзандларимиздан қандайдир нажот кутиб бўлмайди. Фақатгина тўғри тарбияланган фарзандларимизда Ватанга, ота-онага, атрофдагиларга, муҳаббат садоқат, меҳр ва оқибат қирралари шаклланади. Ватанпаварлик туғуси халқнинг ўз тарихи чуқур билиши ва ундан ғурурланишда, бюк аждодлар томонидан яратилган моддий ва маънавий меросни кўз қорачиғидак асраб, келгуси авлодларга етказишда, аждодлар урф-одат, расм-русум ва удумларни, меросларни ўрганиб, унинг қадриятига айланган қисмини давом эттиришда, давлатимиз, келажаги истиқлолининг барқарорлиги, келажагини буюклигини чин дилдан ҳис этиш, шундай келажакни барпо этишга астойдил кўмаклашиш каби юзлаб фазилатларда ўз аксини топади. Зеро, барча замонларда ҳар қандай миллатнинг тақдири унинг келажаги бўлган ёшлар тарбияси билан белгиланади. Инсон, жамият ҳаётида тарбиянинг ўрни қанчалик муҳимлигига жадид мутаффакирлари ҳам эътибор қаратишган. Хусусан, Абдулла Авлоний “Тарбия бизлар учун ё ҳаёт- ё нажот- ё ҳалокат, ё саодат- ё фалокат масаласидир”, деганда тарбиянинг нафақат алоҳида шахс, балки жамият тарққиётида ҳам нақадар катта рўл ўйнашини таъкидлаган эди[4,44].

Дарс ва дарсдан ташқари тарбиявий ишлар жараёнини Алпомиш, Тўмарис, Широқ каби халқ қаҳрамонлари, Амир Темур, Улуғбек, Бобур

сингари давлат арбоблари ва саркардаларимиз, Ибн Сино, Беруний каби олиму фузалоларимиз қарашларига тез-тез мурожаат қилишимиз, ёшларни Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялаш ишнинг асосини ташкил қилади. Шу билан биргаликда тарбия борасидаги жаҳон стандартларига ҳам эътиборни қаратмоқ лозим. Ёшларда ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда ҳарбий ватанпарварлик тарбиясининг ҳам аҳамияти беқиёсдир.

Ҳарбий ватанпарварлик тарбияси ёшларни Ватан ҳимояси ва ҳарбий мудофаага тайёрлаш, уларда фавқулодда ҳолатларда ҳарбий мудофаани ташкил этиш кўникма, малакасини шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараёндир. Ҳарбий-ватанпарварлик тарбиясининг мақсади ёшларни ватан ҳимояси ҳамда ҳарбий мудофаага тайёрлаш, уларда фавқулотдаги ҳолатларда ҳарбий мудофаани ташкил этиш кўникма ва малакаларинишакллантиришдан иборат. бўлиб, мазкур жараёнда қуйидаги вазифалар амалга оширилади:

– ҳарбий ватанпарварлик тарбиясини ташкил этишда таълим муассасаларида ўқитилиши йўлга қўйилган бошланғич ҳарбий тайёргарлик машғулотлари муҳим аҳамиятга эга. Ёшлар ўртасида чақириққа қадар бошланғич тайёргарлик фани бўйича ўзлаштирилган назарий ва амалий билимларни намойиш этиш имконини берувчи мусобақанинг ташкил этилиши бу борада ижобий натижа бераолади. Ўқитувчи раҳбарлигида «Шон-шуҳрат» музейларига уюштирилувчи экскурсиялар ҳам ҳарбий-ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда муҳим роль ўйнайди. Демак, ижтимоий қоидалар доираси беҳад даражада кенгдирки, улар меҳнат интизоми ва ватанпарварлик талабларига жавоб берадиган хулқ-атвор намуналаридан тортиб то одоблилик қоидаларига қадар ҳаммасини ўз ичига олади.

Шундай қилиб, ҳарбий ватанпарварлик тарбияси ижтимоий ҳодиса бўлиб, унинг мазмуни ва моҳияти шахсни ўраб турган жамият нормаларига, шу жамиятда қабул қилинган ва эъзозланадиган қадриятларга боғлиқ бўлади. Мустақиллик шароитида мамлакатимиз ёшлари онгига ватанпарварлик, ҳисларининг тарбияланиши, табиий, ҳар бир ёш авлодда ўзлигини англаш, ўзи мансуб бўлган халқ ва миллат маънавиятини қадрлаш ҳисларини тарбияламоқда. Бу эса, ўша юксак ўз-ўзини англашнинг пойдевори ва муҳим шакллантирувчи механизмдир.

Ёшларни ҳарбий ватанпрварликда тарбиялаш оилада ва мактаб давридан бошланиб, бу даврда ватан туйғусини ҳис этишга оид жараённинг дастлабки элементлари сингдирилади. Аммо, шуни эътироф этиш лозимки, ҳозирга қадар узлуксиз таълим жараёнида ёшларда ватанпарвар-

лик ҳиссини шакллантириш механизмлари илмий-методик асосда ишлаб чиқилмаган. Шундан келиб чиқиб, қуйидаги масалалар қай даражада ечимга эга эканлигини аниқлаш мақсадга мувофиқдир:

1. Ҳар бир вилоят кесимида ёшларда харбий ватанпарварлик ҳисини шакллантириш тизими қандай шакллантирилган?

2. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини такомиллаштириш муаммоларининг ечимлари қай даражада амалиётга жорий этилмоқда?

3. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини такомиллаштириш қай даражада таҳлил этилмоқда?

Ҳарбий ватанпарварлик тарбияси ёшларни Ватан ҳимояси ва ҳарбий мудофаага тайёрлаш, уларда фавқулодда ҳолатларда ҳарбий мудофаани ташкил этиш кўникма, малакасини шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараёндир. Ҳарбий-ватанпарварлик тарбиясининг мақсади ёшларни ватан ҳимояси ҳамда ҳарбий мудофаага тайёрлаш, уларда фавқулотдаги ҳолатларда ҳарбий мудофаани ташкил этиш кўникма ва малакаларини шакллантиришдан иборат бўлиб, мазкур жараёнда қуйидаги вазифалар амалга оширилади: ҳарбий-ватанпарварлик тарбиясини ташкил этишда таълим муассасаларида ўқитилиши йўлга қўйилган бошланғич ҳарбий тайёргарлик машғулотлари муҳим аҳамиятга эга. Ўқитувчи раҳбарлигида “Шон-шуҳрат” музейларига уюштирилувчи экскурсиялар ҳам ёшларда ҳарбий-ватанпарварлик туйғусини шакллантиришда муҳим роль ўйнайди.

Ҳарбий ватапарварликнинг шакл ва услублари.

Ўқувчиларнng ҳарбий-ватанпаварлик тарбияси ишларида тарбия, оммавий ташвиқот ишларнинг кенг шакл ва услублари қўлланилади.

Тарбиявий ишларнинг шаклларидеганда, у ёки бу тарбиявий мақсадга еришишга йўналтрилган, ўқувчиларниг жамоавий ва якка тартибдаги фаолиятларини ташкиллаш услублари тушунилади.

Бундай шакилларга қуйидагилар киради:

Маърузалар;

Докладлар;

Суҳбатлар;

Ҳикоялар;

Тематик кечалар;

Йиғилишлар;

Мажлислар;

Саёҳат ва екскурсиялар уюштриш;

Жасорат дарслари;

Ҳарбий-спорт байрамлари;

“Шунқорлар” ва “Темурбеклар” ҳарбий-спорт ўйинлари.

Тарбиянинг услуби дейилганда, ўқувчиларда аниқ бир тарбиявий сифатларни шакиллантришга йўналтрилган педагогик таъсирнинг услуб ва услубларнинг йиғиндиси тушунилади.

Ҳарбий-ватапаврлик тарбиясида тарбиянинг умумий услублари кенг қўлланилади. Ўқувчиларнинг ҳарбий-ватапаврлик тарбиясида ўрнак, ишонтириш, машқ, рағбатлантириш, тақдирлаш каби услублардан фойдаланилади.

Хулоса қилганда, ватанпарварлик тарбияси ижтимоий ҳодиса бўлиб, унинг мазмуни ва моҳияти шахсни ўраб турган жамият нормаларига, шу жамиятда қабул қилинган ва эъзозланадиган қадриятларга боғлиқ бўлади. Мустақиллик шароитида мамлакатимиз ёшлари онгига ватанпарварлик, ҳисларининг тарбияланиши, табиий, ҳар бир ёш авлодда ўзлигини англаш, ўзи мансуб бўлган халқ ва миллат маънавиятини қадрлаш ҳисларини тарбияламоқда. Бу эса, ўша юксак ўз-ўзини англашнинг пойдевори ва муҳим шакллантирувчи механизмдир.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.508.

2. Каримов И. А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент: Ўзбекистон. 2015. –Б.75.

3. Эргашева. Г.М. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда кўргазмали қуроллардан фойдаланиш (Ўқув-услубий қўлланма). –Тошкент: Олий ҳарбий техника билим юрти, 2008. – 20 б.

4. Абдулла Авлоний Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент: Адолат, 1992. – 44 б.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёнларини самарали шакл, метод ва воситаларини ташкил этувчи омиллари хақида ёритиб берилган. Бу шакл, метод ва воситалар ҳарбий ватанпарварлик тарбиясининг асосий қоидалари, талаблар, Ватан ҳимоясига тайёрлашнинг амалий фаолитида ўз аксини топган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны факторы, составляющие эффективные формы, методы и средства воспитания молодежи в духе военного патриотизма. Эти формы, методы и средства отражены в основных правилах и требованиях воспитания военного патриотизма, практической деятельно-сти по подготовке к защите Родины.

SUMMARY

This article describes the factors that make up effective forms, methods and means of educating young people in the spirit of military patriotism. These forms, methods and means are reflected in the basic rules and requirements for instilling military patriotism and practical activities to prepare for the defense of the Motherland.

ЁШЛАРНИ ҲАРБИЙ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ

Эшбеков С.Ж.

Фарғона вилояти бўйича Миллий гвардияси бошқармаси офицери

Таянч сўзлар: ватан, тарих, миллат, малака, глобал, мудофаа, ёшлар, ватанпарварлик, қаҳрамонлар, қадриятлар, армия.

Ключевые слова: родина, история, нация, компетентность, глобальность, оборона, молодежь, патриотизм, герои, ценности, армия.

Key words: homeland, history, nation, competence, globality, defense, youth, patriotism, heroes, values, army.

Ўзбекистоннинг янги тараққиёт босқичида мисли кўрилмаган ўзгаришлар ва ислоҳотлар олиб борилмоқда. Мазкур ислоҳотлар жамиятнинг барча соҳаларини қамраб олганлиги билан ажралиб туради. Ислоҳотларнинг ижодкори, ҳаракатга келтирувчиси, амалга оширувчиси ҳазрати инсондир. Бугунги кунда ҳазрати инсонннинг ватанпарвар ва етук мутахассис бўлиши муҳим аҳамият касб этади. Айниқса, замонавий шароитда ватанпарварлик тарбиясини янада юксалтириш мамлакатимиз ҳар бир фуқаросининг муқаддас бурчидир. Зеро, «бугунги глобал маконда, қарама-қаршиликлар, инсон, айниқса, ёшларнинг онги ва қалбини эгаллаш учун кураш ниҳоятда кучайган ҳозирги шароитда ёш авлод тарбиясининг ўрни ва аҳамияти ҳар қачонгидан ҳам ортиб бораётгани ҳеч кимга сир эмас. Сиз билан биз яшаётган замоннинг аччиқ ҳақиқати шундан иборатки, катта ҳаёт остонасига қадам қўяётган ёшларни агар соғлом кучлар тўғри йўлга бошламаса ғаразли ниятлар билан юрган бузғунчи кучлар ўз ортидан эргаштирипб кетади»[1;136].Шундай экан, ёшларда юксак ватанпарварлик сифатларини тарбиялаш орқали уларда бузғунчи кучларга қарши тура олиш кўникмаларини ҳам шакллантириш вазифалари юзага келмоқда.

Ёшларнинг ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини такомиллаштиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятларини таҳлил ва тадқиқ этишдан аввал ёшларнинг ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш категориясининг мазмун-моҳиятини очиб бериш мақсадга мувофиқ бўлади.

Ёшларнинг ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш-бу миллати, тили ва касбидан қатъий назар, ёшларда Ванга садоқат туйғусини шакиллантриш, уларни ўз фуқаролик бурчи ва конститутцион мажбуриятларини бажаришга, жамият ва давлат манфаатларини химоя қилишга қодир шахслар этиб тарбиялашга йўналтрилган давлат органлари, жамоат бирлашмалари ва бошқа ташкилотларнинг кўп босқичли, тизимли, мақсадли ва мувофиқлаштрилган фаолиятидир [2;3].

Педагогик жараёнда ёшларни ватанпарварликни, муҳаббат туйғуси чинакам эътиқодга, чинакам ақидага айланиши учун уларда тарихий шахсларни ватанпарварлиги, ватан олидаги қаҳрамонлиги ўргатиш, психологик таъсир кўрсатиб мардлик ва жасорат сифатларини ривожлантириш мумкин. Мисол учун, кекса Шайх Нажмиддин Кубро ўзи бош бўлиб, қасоскор халқдан лашкар тузиб, Урганч фуқаросини душманга қарши жангга сафарбар қилади. Икки томон ўртасида қаттиқ, беомон жанг бўлади. Шунда Шайх байроқни ушлаган ҳолда то сўнгги нафасига қадар уни қўлда маҳкам ушлаб боради. Байроқни олиш учун Шайхнинг бармоқларини бир-бир кесиб олишга мажбур бўлган эканлар.

Ватаннинг куч-қудрати, соғломлиги, енгилмаслиги, эътиқоди, жисмоний саломатлиги ёшларимизнинг ҳарбий ватанпарварлиги билан боғлиқдир. Амир Темур бобомиз армия тузишда масаланинг бу томонига катта эътибор қаратганлар: «Черик (қўшин, ҳарбий тузилма) тузиб, навкар олмоқда уч қоидага амал қилдим:биринчидан – йигитнинг куч-қувватига; иккинчидан – қилични ўйната олишига; учинчидан – ақл-заковати-ю, камолотига. Шу уч фазилат жамулжам бўлса, навкарлик хизматига олдим. Негаким, куч-қудратли йигит ҳар қандай қийинчиликларга, азоб-уқубатларга чидамли бўлади, қилич ўйната оладиган киши рақибини мағлуб эта олади, оқил навкар ҳар жойда ақл-идрокини ишга солиб, мушкулотни бартараф этмоғи мумкин»[3;54].

Ўзбек халқи маънавий-ахлоқий меросида ҳарбий ватанпарварлик юксак ахлоқийликни намоён этадиган туйғу бўлиб, унинг мазмуни ватанга меҳр қўйиш, ватанни ҳимоя қилиш, унинг ҳавфсизлиги ва яхлитлигини таъминлашга бевосита ва билвосита масъуллик орқали мустаҳкамланади. Шунинг учун ҳам чинакам ҳарбий ватанпарварлик ўзидан оилани, оиладан Ватанни, Ватандан инсониятни устун қўйиши талаб этади. Ушбу олимлар фазилатнинг муҳим жиҳати шундаки, ундаги ҳиссиётлар тор ватанпарварлик доирасига сиғмайди, ундан «четга чиқади». Ҳарбий ватанпарварлик фақат Ватанни севиш ёки яхши кўриш билан чекланмайди, балки бор кучи ва ақл-идрокини Ватанни ҳимоя қилиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишга сафарбар қилишда намоён бўлади.

Буюк мутафаккир олимларимизнинг ватанпарварлик тўғрисидаги ғоялари, ўгитларини ёшларга сингдириш ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Маърифатпарвар аждодимиз Алихонтўра Соғуний «Кераклича дин илмини ўқиш ҳаммага фарз бўлганидек, Ватанини ва миллатини сақлаш учун замонавий фан илмини ўқиб билишлик ҳам фарздир... Шу сабабдан тушунган Ватан ўғлон қизларимиз замонавий ҳар илм-ҳунарни асоси билан яхши тушуниб, имконият борича билиб ўзлаштиришга бошқалардан ортиқроқ киришмоқлари лозимдур»[4;76-77].

Ватанпарварликни шакллантириш мақсади ҳам педагогик жараённинг самарадорлигини таъминлашда мухим ўрин тутади. Бунда қуйидагиларга эътибор қаратиш лозим:

– Ўзбекистон Республикаси Президентининг фаолияти ҳамда миллий истиқлол негизида ифодаланган она-Ватанга эътиқодни шакллантириш хақидаги фикрлардан унумли фойдаланиш.
– миллий қахрамонларнинг айнан ватанга бўлган эътиқодини намуна сифатида кўрсата олиш (Тўмарис, Широқ, Спитамен, Муқанна, Нажмиддин Кубро, Жалолиддин Мангуберди, Темур Малик ва Амир Темур, Захириддин Муҳаммад Бобур кабилар).
– машҳур алломаларнинг ватанпарварлик ҳақидаги фикр- мулохазаларидан унумли фойдалана олиш.
– ватанга эътиқодсиз инсонларнинг ҳатти-ҳаракати туфайли содир бўлган воқеаларнинг оқибати натижасида (Тошкент, Андижон воқеалари) халқимиз ва ватанимизга етказилган озорлар тўғрисида маълумот бериш орқали ватанга эътиқоднинг вужудга келиши мумкинлигини мақсад килиб олмоғи лозим.

Ўқувчиларни ватанпарварлик рухида тарбиялашда дарс самарадорлигини оширишда қуйидаги масалаларга эътибор қаратиш керак, деб ҳисоблаймиз:

– миллий ва умуминсоний қадриятлар, уларнинг таркибий кисмлари ҳақида ўкувчиларнинг билим ва қизиқишларини хисобга олган холда, элементар тушунчалар беришни йулга қуйиш;
– “Ватан”, “Ватанпарварлик”, “Ватанга эътиқод” тушунчаларининг мазмун- моҳиятини тингловчилар онгига сингдириш, уларни инсон ҳаётидаги ўрни ва аҳамиятига эътибор қаратиш;
– ватанпарвар аждодларимиз фаолиятларини таҳлил қилиш асосида ўқувчилар диққатини ватанпарварлик масаласига йуналтириш;
– миллий ва умуминсоинй қадриятларнинг муштараклигини таъминлаш, мамлакатимизда истиқомат қилаётган бошқа миллат вакилларига нисбатан хурмат ва дустона муносабатни тарбиялаш.

Ўкувчиларда ватанпарварлик ва миллий ғоя тушунчаларини шакллантиришда қуйидаги тадбирларни амалга ошириш мақсадга мувофик деб хисоблаймиз:

– ёш ва психологик хусусиятларини хисобга олган холда, ўқувчиларнинг ватан ва ватанпарварлик мавзусига бўлган қизиқишларини ўрганиш;
– ўқувчилар дунёкарашига таъсир этувчи омилларни аниқлаш;
– ўқувчилар қизиқиш билан иштирок этадиган тадбирларни аниқлаш;
– тадбир сенарийларини тузишда ўқувчиларни жалб киладиган томонларга алохида эътибор қаратиш;
– тарбиявий тадбирлар мазмунини ватанга эътиқод мавзуси билан бойитиш орқали ўқувчиларда ватанга эътиқодни шакллантиришга эришиш.
– ўқувчилари онгига миллий кадриятлар мазмунида ифода этилган ватанпарварлик ғояларини сингдириш, уларнинг ватанга эътиқодини аниқлашга эришиш.

Хулоса қилиб айтганда кишида ватанпарварлик рухининг ривожланиш даражаси ва кўлами бой тарихий меросимизни ўрганиш, ўзлаштиришга бевосита боғлиқ. Бу борадаги ишларда жамиятимиздаги ғоявий таълим-тарбия, тарғибот-ташвиқот сохасида хизмат қилаётган кишиларнинг назарий ва амалий фаолиятлари хал килувчи ахамиятга эга. Шунинг учун халқимиз ўтмиши ва хозирги хаётида яратилган маънавий-маданий ва ғоявий-мафкуравий қадриятлардан юртимиздаги таълим-тарбия тизими ва ижтимоий-маданий тузилмалардаги турли босқич, шакл ва йуналишлар оила, махалла, Ватан, маданий-маърифий муасассалар, санъат, дин билан боғлиқ сохаларни чуқур ўрганиш, қадрлаш, уларни асраб-авайлаш хозирги куннинг энг асосий вазифалардан биридир.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – Б.452.

2. “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик рухида тарбиялаш ишлари самарадорлигини ошириш концепцияси тасдиқлаш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Қарори. Тошкент ш., 2023 йил 29 июндаги 267-сонли. Б.11.

3. Замонавий шароитда ватанпарварлик тарбиясини янада юксалтиришнинг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий конференцияси. –Тошкент: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси. 2016йил 20 август.–Б. 232.

4. Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси. – Тошкент, Шарқ, 2003. – Б. 76-77.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялашда ижтимоий-психологик хусусиятлар ва ҳарбий ватанпарварлик давлат сиёсатининг устувор вазифаларидан бири сифатида қаралиши ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены социально-психологические особенности воспитания молодежи в духе военного патриотизма и рассмотрение военного патриотизма как одной из приоритетных задач государственной политики.

SUMMARY

This article examines the socio-psychological features of educating young people in the spirit of military patriotism and considering military patriotism as one of the priority tasks of state policy.

TA’LIM SIFATINI OSHIRISH BUGUNGI KUNNING DOLZARB MASALASIDIR

Bozorov Z. Yu.
Termiz davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

Tayanch so’zlar: «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, ta’lim sifati, ta’lim sifatini baholovchi tizimlar.

Ключевые слова: Закон «Об образовании», качество образования, системы оценки каче-ства образования.

Key words: Law «On Education», quality of education, systems for evaluating the quality of ed-ucation.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yilning 20-dekabr kuni Oliy Majlisga hamda respublikamiz xalqiga Murojaatnomasi tom ma’nodagi Yangi O‘zbekistonning kelgusi yildagi rivojlanish istiqbollarini o‘zida jamlagan dastur bo‘ldi.

Jami olti yo‘nalishdan iborat Murojaatnomada so‘nggi yillarda mamlakatimizda inson qadri, uning manfaatlari hamma narsadan ustunligi, xalqimizning farovon hayotini ta’minlash asosiy vazi-falardan biri etib belgilanganligi yana bir bor mustahkamlab qo‘yildi.

Prezident Yangi O‘zbekistonni «ijtimoiy davlat» tamoyili asosida qurish asosiy maqsad qilib qo‘yilganligi, shu jumladan, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun xalqimizga teng imkoni-yatlar, munosib turmush sharoitlarini yaratish, kambag‘allikni qisqartirish maqsadida birinchi navbat-dagi e’tibor ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi ta’kidlandi. Bugungi kunda eng katta investitsi-ya sifatida ko‘rilayotgan ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning yagona to‘g‘ri yo‘li bo‘lishiga alohida to‘xtalib, 2023-yilni «Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili» deb nom-lashni taklif etdi.

Haqiqatdan ham mamlakatimizda Maktabgacha va maktab ta’limi hamda Oliy va o’rta maxsus kasbiy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ayniqsa, ta’lim sifatini oshirish maqsadida o‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish, mamlakatda maktabgacha va maktab ta’limi bilan oliy ta’lim o’rtasidagi aloqani yanada mus-tahkamlash, pedagogoliy

ta’lim muassasalari talabalarning bilimini mustahkamlash uchun o‘qish hamda amaliyot jarayonining uyg’unligini ta’minlashga asosiy vazifa qilib qo’yilmoqda.

Respublikamiz oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifati ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshiritayotgan barcha islohotlarning hamda o‘quv-tarbiya jarayonining pirovard natijasi sifatida doimiy nazoratdagi ustuvor vazifa hisoblanib kelgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 27 iyuldagi «Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3151-sonli qarori, respublikadagi ta’lim muassasalarining maktabgacha, boshlang‘ich, musiqa, tasviriy san’at, chet tillari, mehnat ta’limi, jismoniy tarbiya yo‘nalishlari va boshqa fanlar bo‘yicha oliy ma’lumotli pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylardagi ta’lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash hamda ularni tayyorlash tizimini joylarda tashkil etishni yanada takomillashtirish orqali ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida 2017 yil 26 sentyabrdagi «Oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maqsadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi PQ-3290-son qarorlari orqali amaliyotga joriy etilmoqda.

Pedagogika fanida «Ta’lim sifati» tushunchasining bir qator talqinlari, izohlari mavjud. Ta’lim sifati tushunchasiga ta’rif va qarashlar ta’lim-tarbiya tizimining rivojlanishiga mos ravishda rivojlanib, takomillashib borgan.

Ta’lim sifati tushunchasining kelib chiqishi tarixi bilan shug‘ullangan V.I.Zvonnikov aynan ta’lim sifati atamasi qadimgi davrda ishlatilmagan bo‘lsada, shu ma’noni anglatuvchi ta’riflar bo‘lganligini ta’kidlaydi. Jumladan, M.V.Martынenko, L.D.Maslova, D.Sh.Matros, V.N.Pugach va N.F.Efremovalar o‘z tadqiqotlarida «ta’lim sifati» tushunchasi shakllanishining birinchi boshlang‘ich davri qadimgi dunyo davlatlarida mavjud bo‘lgan darvga borib taqaladi, degan fikrni aytishgan.

«Sifat» tushunchasini Aristotel borliqning ko‘rinishdagi farqlanishi sifatida ta’riflagan. Uning fikricha biror-bir predmet boshqasi bilan bir xil bo‘lmaydi, chunki u sifat jihatdan o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Sifat tushunchasi ma’lum bir holat, borliqning farqli jihatlari, predmetga xos bo‘lgan xususiyatlar, rivojlanayotgan yoki harakatlanayotgan ob’ektning joylashish koordinatalaridan iborat.

Mazkur masalaga oid fikrlar o‘sha davr faylasuflarining ta’lim jarayoni va natijalari qanday bo‘lishi kerak, degan qarashlarida o‘z aksini topgan. Qadimgi dunyo faylasuf olimlarining fikricha, ta’lim va tarbiyaning eng samarali natijasi

insonning komilligi bo‘lishi lozim degan fikrni ilgari surishgan. Ta’lim sifatiga yondashuvlar XVIII asrga kelib tubdan o‘zgardi. Bu davrda ta’lim-tarbiya va bilim konsepsiyasi takomillashib, ilm-fanning nazariy va ilmiy tajriba yutuqlari sifatni belgilovchi omil hisoblana boshladi.

Ta’lim sifati tushunchasiga S.E.Shishov va V.A.Kalniylar «Maktab: ta’lim sifati monitoringi» deb nomlangan kitobida «Ta’lim sifati – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining umid va maqsadlarining ta’lim muassasasi tomonidan ko‘rsatilgan ta’lim xizmatidan qondirilish darajasi» yoki «Ta’limdan ko‘zlangan maqsad va vazifalarga erishilgan darajasi» deb ta’rif berganlar. Mazkur tushunchaga A.Moiseev «Ta’lim sifati – o‘quvchilar, jamiyat va buyurtmachilar talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ta’lim natijasining xususiyatlari va xarakteristikasining o‘ziga xos jamlanmasi» deb ta’rif beradi.

Bugungi kunda mahalliy va xalqaro ilg‘or tajribalar ta’lim sifati quyidagi asosiy pedagogik tamoyillarga javob berishini belgilab bermoqda: ta’lim dasturlarining ta’lim oluvchilarning, kadr iste’molchilarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi xususiyatlarga ega bo‘lishi; ta’lim mazmuni va faoliyat shaklining tizimlilik, yaxlitlik, ko‘p variantlilik, muqobillilik, bir muammoni hal qilishda turli xildagi ko‘p fikrlilik va bir necha echimlarni izlab topishga yo‘naltirilganligi; mazmunning muammoli va hamkorlikdagi ta’lim tamoyillariga asoslanganligi, ta’lim-tarbiya jarayonida ishtirokchilarning o‘zaro samarali muloqot hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi; ta’lim oluvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchisi sifatidagi faolligi, mustaqilligi, o‘z-o‘zini rivojlantirishdagi ijodiy faoliyati, o‘zini-o‘zi baholay olishi va boshq.

Demak, ta’lim sifati – ta’lim natijalarining me’yoriy talablar, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarga mos kelish darajasidir. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda ilg‘or texnologiyalar hamda ta’lim vositalaridan unumli foydalanish bilan bog‘liq qator muammolar mavjud. Axborotlashgan jamiyat ta’lim sifatini amalga oshirishda o‘quv faoliyatining boshqaruvini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yangi shart-sharoitlarni yuzaga keltirib chiqarmoqda. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi va ta’lim oluvchining o‘zaro hamkorligi tamoyillari asosida quriladi, buni takomillashtirish uchun zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini mukammal darajada egallash talab etiladi.

OTMda ta’lim sifatini ta’minlashda o‘quv-me’riy hujjatlar (davlat ta’lim standarti, malaka talablar, o‘quv reja, o‘quv jarayoni jadvali, fan dasturlari, dars jadvalining to‘g‘ri shakllantirilganligi) asosida o‘quv jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishga alohida e’tibor qaratish lozim.

OTMda ta’lim sifatini ta’minlash faqatgina moddiy texnik baza yoki o‘quv me’yoriy hujjatlarning mavjudligiga emas, balki o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi pedagog xodimlarning ilmiy-metodik salohiyati, xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal egallaganligi va undan mashg‘ulotlarda samarali foydalanish olish kompetensiyalariga ega bo‘lishiga bog‘liqdir.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.09.2018 y. 736-son “Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018 yil 19 sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 29 dekabrdagi «Respublika oliy ta’lim tashkilotlari reytingini baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida» 371-son qarori / O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 1-son, 10-modda

3. Azareva V. V., Kruglov V. I., Puzankov D. V., Sobolev V. S., Solovev V. P., Stepanov I. V., Stepanov S. A., Yaщenko V. V. “Metodicheskie rekomendatsii po vnedreniyutipovoy modeli sistemы kachestvaobrazovatelnogo uchrejdeniya” - Sankt_Peterburg, Izdatelstvo SPbGETU «LETI», 2006.

4. Alekseenko V.A. “Sistema upravleniya kachestvom vыsshego obrazovaniya: soderjanie, modelirovanie, optimizatsiya” - M.: Izdatelskiy sentr problem kachestva podgotovki spesialistov, 2001.

5. Yo‘ldoshev M, Nazarova N. Rahbarlik psihologiyasida ahloq. T.2010.190-b.

6. Kabatchenko, T. Psixologiya upravleniya / T. Kabatchenko. - M.: Prosveщenie, 1996-264 s.

7. Karimova V., Hayitov O, Djalolova S. Boshqaruv psihologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T. 2008. 208 b.

РЕЗЮМЕ

Ta’lim sifati tushunchasining rivojlanish tarixi va mamalakatimizda so’nggi yillarda ta’lim sifatini oshirishga bag’shlangan prezidentimiz nutqlari asosida ta’lim tizimimizda sifatni ko‘tarib borish bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

На основе истории развития концепции качества образования и выступлений нашего президента, посвященных повышению качества образования в нашей стране в последние годы, описано повышение качества в нашей системе образования.

SUMMARY

Based on the history of the development of the concept of quality of education and the speeches of our president dedicated to improving the quality of education in our country in recent years, the improvement of quality in our education system is described.

MUAYYAN YOSHDAGI MAKTAB O‘QUVCHILARI BILAN SAMARALI ISHLASHDA MAKTAB PSIXOLOGIYASI FAOLIYATINNING AHAMIYATI

Xujaniyozova O.R.
Urganch Davlat Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so‘zlar: maktab, o‘quvchilar, yoshlar, metod, qo‘llanma, psixolog, material, faoliyat.

Ключевые слова: школа, студенты, молодежь, метод, пособие, психолог, материал, дея-тельность.

Key words: school, students, young people, method, manual, psychologist, material, activity.

Kirish. O‘zbekistonda maktab psixologiyasi o‘quvchilarga ta’lim, ijtimoiy va ruhiy muvaffaqiyatlarga erishishda yordam berishga qaratilgan ixtisoslik sohasidir. O‘zbekistondagi maktab psixologlari barcha o‘quvchilar uchun xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish uchun maktab xodimlari, oilalar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi. Ular tadqiqotga asoslangan aralashuvlar va ruhiy salomatlik xizmatlarini, masalan, individual va guruhli maslahatlar, xatti-harakatlarga aralashuvlar va inqirozli aralashuvlar bilan ta’minlaydi. O‘zbekistondagi maktab psixologlari, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘quvchilarning bilimini yaxshilash bo‘yicha samarali strategiyalarni o‘rganishga, alohida muammoli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilishga, oilalarga maslahat xizmatlari ko‘rsatishga va ijobiy xulq-atvor, ruhiy salomatlik va salomatlikni rivojlantirish bo‘yicha maktab miqyosidagi tashabbuslarga ko‘maklashishga yordam beradi. Bundan tashqari, O‘zbekistondagi maktab psixologlari har bir o‘quvchining o‘ziga xos madaniyati va kelib chiqishini tushunish va qadrlash orqali barcha o‘quvchilar uchun teng va inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga intiladi.

Maktab psixologiyasi. Maktab psixologiyasi - bu barcha yoshdagi o‘quvchilarning maktabda muvaffaqiyat qozonishiga yordam berishga qaratilgan psixologiya sohasi. Bu psixologik baholash va akademik samaradorlikni, ijtimoiy moslashishni va umumiy farovonlikni yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Maktab psixologlari yordamga muhtoj o‘quvchilar uchun individual

rejalar tuzish uchun o‘qituvchilar, ota-onalar va ma’murlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Ular o‘rganishdagi nuqsonlar va xulq-atvor buzilishlarini baholaydi, tashxislaydi va davolashadi. Ular tadqiqot olib boradi, maslahat beradi va kerak bo‘lganda inqirozga aralashish xizmatlarini taklif qiladi.

Maktab psixologlari o‘quvchilarni o‘rganishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan har qanday akademik, ijtimoiy yoki ruhiy muammolarni aniqlash uchun baholaydilar. Talabaning qobiliyatlari va ehtiyoj sohalari haqida har tomonlama tushuncha hosil qilish uchun ular psixometrik testlardan ham, suhbatlardan ham foydalanadilar. Ular, shuningdek, o‘quvchilarni yaxshiroq baholash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash uchun sinfda o‘quvchilarni kuzatadilar.

Maktab psixologlari har bir o‘quvchi uchun Individuallashtirilgan Ta’lim Rejasini (ITR) ishlab chiqadi, keyinchalik u o‘qituvchilar, ma’murlar va ota-onalar bilan baham ko‘riladi. ITR o‘quvchiga ta’lim maqsadlariga erishishda yordam beradigan maxsus strategiyalar, xizmatlar va yordamlarni belgilaydi. Ushbu reja kichik guruhlarda sinflarni tashkil etish, ta’lim davrida turar joy bilan ta’minlash, ijtimoiy ko‘nikmalar guruhlarini tashkil etish yoki boshqa maxsus xizmatlarni taklif qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Maktab psixologlari sog‘lom maktab muhitini targ‘ib qilish uchun ham ishlaydi. Maktab psixologlari zo‘ravonlik bilan kurashish, inqirozli vaziyatlarga javob berish va o‘quvchilarni ruhiy salomatlik muammolari haqida o‘qitishda qimmatli manbalardir.

Maktab psixologlari har bir o‘quvchining ta’lim maqsadlariga erishish uchun teng imkoniyatga ega bo‘lishini ta’minlashga intiladi. O’qituvchilar, ma’murlar va ota-onalar bilan hamkorlikda maktab psixologlari har bir o‘quvchi o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishi mumkin bo‘lgan muhitni yaratishga yordam beradi.

14-17 yoshli maktab o‘quvchilari bilan samarali ishlash. 14 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ishlash o‘qituvchi uchun eng foydali va qiyin tajribalardan biri bo‘lishi mumkin. Bu yosh guruhi odatda jismoniy, kognitiv va ruhiy o‘sish va rivojlanishning eng o‘zgaruvchan davrlari hisoblanadi. Ushbu yosh guruhidagi tajribalar individual kelib chiqishi, madaniyati va shaxsiy sharoitlariga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo’lsa-da, ushbu yosh guruhidagi maktab o‘quvchilari bilan samarali ishlashning bir qancha asosiy tamoyillari mavjud.

Birinchidan, ijobiy, hurmatli va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratish va qo‘llab-quvvatlash muhimdir. O‘quvchilar o‘z fikrlari va g‘oyalari qadrlanishiga ishonishlari mumkin bo‘lgan xavfsiz va xavfsiz sinf muhitini yaratish ijobiy ta’lim muhitini yaratish uchun uzoq yo‘lni bosib o‘tishi mumkin. O‘quvchilarga

nisbatan hurmat va ijobiy xulq-atvorni namuna qilish ham muhimdir, shunda o‘quvchilar tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro munosabatlarida bunday xatti-harakatni tan olishlari va qadrlashlari kerak.

Ikkinchidan, o‘quvchilarning ehtiyojlari va manfaatlariga moslashtirilgan individual yondashuvni ta’minlash zarurligini tan olish juda muhimdir. O‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan, o‘z qiziqishlarini o‘rganish, ko‘nikmalarini rivojlantirish va mavzular bo‘yicha tushunchalarini rivojlantirishga imkon beradigan o‘quv faoliyatini loyihalash eng yaxshi yondashuvdir. Bu yoshda o‘quvchilarda atrofdagi dunyo haqida ko‘proq tushuncha va tushunchalar rivojlana boshlaydi va o‘z tajribalari bilan bog‘liq yoki ijodiy fikrni ifodalash uchun imkoniyatlar yaratadigan faoliyat ayniqsa foydali bo’lishi mumkin.

Uchinchidan, mazmunli fikr-mulohazalarni taqdim etish o‘quvchilarga ularning harakatlari va ish faoliyatini qanday yaxshilash mumkinligini tushunishga yordam berish uchun juda muhimdir. O‘z-o‘zini aks ettirishni rag‘batlantirish va o‘sish tafakkurini rivojlantirish o‘qubvhilarga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga va ta’lim maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Va nihoyat, ota-onalar va vasiylar bilan muntazam muloqot qilish sinfda muvaffaqiyatli tajribani ta‘minlash uchun uzoq yo‘lni bosib o‘tishi mumkin. Ota-onalarni farzandining muvaffaqiyati haqida xabardor qilish va ularga topshiriqlar va umidlar haqida tushuncha berish muhimdir. Shuningdek, o‘quvchi, ota-onalar va maktab xodimlari o‘rtasida ochiq muloqot va mazmunli muloqot uchun imkoniyatlarga ega bo‘lish muhimdir.

14 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan maktab o‘quvchilari bilan samarali ishlash o‘qubvhilarga akademik muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan tuzilma va yo‘l-yo‘riqlar bilan ta’minlash va ularga izlanish va o‘sish erkinligini berish o‘rtasida ijodiy muvozanatni talab qiladi. Sinfdagi ijobiy atmosferani, individual ta’limni, mazmunli fikr-mulohazalarni va ota-onalar bilan kuchli muloqotni birlashtirgan holda, o‘qituvchilar o‘z qaramog‘idagi o‘qubvhilar uchun chinakam foydali ta’lim tajribasini taqdim etishlari mumkin.

Maktab o‘quvchilarini tarbiyalashning samarali usullarini qo‘llash. Maktab o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berish har qanday maktab uchun muhim vazifa bo‘lib, muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun samarali usullardan foydalanish zarur. Turli texnika va yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar qiziqarli va samarali ta’lim berishlari mumkin. Bu yerda o‘quvchilarni maktabda o‘qitishning eng yaxshi usullari mavjud.

1. Amaliy ta’lim: o‘rganishning bu turi o‘quvchilarni o‘rganilayotgan material bilan amaliy tajriba o‘tkazish orqali o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Bunga tajribalar, eksperimentlar, guruh muhokamalari va simulyatsiyalar kiradi. Ushbu turdagi ta’lim faollikni oshirishga yordam beradi va o‘quvchilarni yechim

topish uchun o‘z ijodkorligi va ko‘nikmalaridan foydalanishga undaydi. Maktab o‘quvchilari o‘rtasida amaliy ta’lim usulini qo‘llashda bir qator afzalliklarni ko‘rish mumkin:

Yangi boshlanuvchilar uchun amaliy o‘rganish usullari o‘quvchining tushunchasini mustahkamlashga yordam beradi. Faoliyat bilan shug‘ullanib, o‘quvchilar shunchaki passiv kuzatuvchi bo‘lishdan ko‘ra material bilan chuqurroq shug‘ullanish va chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu o‘quvchining bilim va tushunchasini oshiradi va ularga ma’lumotni yaxshiroq saqlashga yordam beradi.

Amaliy o‘qitish usullarini qo‘llashning yana bir afzalligi shundaki, u o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb etishga yordam beradi. Materiallar bilan faol shug‘ullangan holda, o‘quvchilar zerikishlari yoki mavzuga qiziqishlari kam bo‘ladi. Bundan tashqari, ushbu turdagi o‘rganish e’tiborsiz bo‘lgan o‘quvchilarning diqqatini jamlashga va materialga qiziqishiga yordam beradi.

Va nihoyat, amaliy ta’lim usullari o‘quvchining muammoni yechish malakasini oshirishga yordam beradi. Amaliy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanib, o‘quvchilar o‘rganilayotgan materialni kuzatish va tajriba o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularga muammolarni ijodiy yechimini topish imkoniyatini beradi. Bu tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi va talabalarni haqiqiy dunyo muammolariga tayyorlashga yordam beradi.

2. Zinapoya uslubi: zinapoya murakkab vazifalarni boshqarilishi mumkin bo‘lgan bosqichlarga ajratishni o‘z ichiga oladi. Topshiriqni kichikroq qismlarga bo‘lish orqali o‘quvchilar materialni osonroq tushunishlari va topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishlari mumkin. Zinapoya, shuningdek, talabalarga kerak bo‘lishi mumkin bo‘lgan yordamni taqdim etadi, shuningdek ularni yangi tushunchalar bilan tanishtiradi.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida zinapoya usulidan foydalanish juda ko‘p ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu usul o‘quvchilarni mustaqil ishlashga va tanqidiy fikrlashga undaydi, bu esa ko‘proq tushunish va ta’lim natijalarini yaxshilashga yordam beradi. Zinapoya, shuningdek, yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, o‘quvchilarga o‘rganishni real dunyo muammolari bilan bog‘lash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu hamkorlikni rivojlantirishi va o‘quvchilar o‘rtasida hamjamiyatlik tuyg‘usini rivojlantirishi mumkin, bu ularga g‘oyalar va fikrlarni osongina almashish imkonini beradi. Natijada, bu usul o‘quvchilarga o‘z-o‘zini tartibga solish va metakognitiv strategiyalarini amaliyotda qo‘llash imkonini beradi, bu esa ularga ko‘proq mustaqil va o‘zini o‘zi boshqaradigan o‘quvchilar bo‘lishga yordam beradi.

3. So‘rovga asoslangan ta’lim: so‘rovga asoslangan ta’lim o‘quvchilarga savol berish, tanqidiy fikrlash va o‘zlariga javob topish imkoniyatini berishdan iborat. Bu usul o‘quvchilarni o‘rganishda faol ishtirok etishga undaydi va ularga materialni o‘rganish va kashf qilish imkoniyatini beradi.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida so‘rovga asoslangan ta’limdan foydalanish qisqa muddatli va uzoq muddatli istiqbolda bir qancha ijobiy natijalar berishi mumkin. Qisqa muddatda o‘quvchilar analitik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdan foyda olishlari mumkin. Shuningdek, ular o‘zlariga bo‘lgan ishonchni oshirishlari va o‘rganishlari uchun egalik tuyg‘usini rivojlantirishlari mumkin. Uzoq muddatli istiqbolda tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, so‘rovga asoslangan o‘rganish akademik samaradorlikni oshirishga, yaxshi ish xotirasiga, ijodkorlikni oshirishga, katta motivatsiyaga va o‘zini o‘zi boshqarishni kuchaytirishga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, so‘rovga asoslangan ta’lim talabalar o‘rtasida muloqot, hamkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalarni yaxshilashga yordam beradi. Bu ko‘nikmalarning barchasi har qanday ishchi kuchida qimmatlidir va o‘quvchilarga sinfdan tashqarida ham muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi.

4. Tabaqalashtirilgan ta’lim: Tabaqalashtirilgan ta’lim o‘quvchilarning individual ta’lim uslublari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga oladigan o‘qitish usulidir. Bu bir xil materialni turli yo‘llar bilan o‘rgatish yoki muayyan o‘quvchilarga moslashtirilgan turli tadbirlarni o‘tkazishni o‘z ichiga olishi mumkin. Individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda, tabaqalashtirilgan o‘qitish o‘qituvchilarga barcha talabalarning ehtiyojlarini samarali qondirish imkonini beradi.

Maktab o’quvchilari o’rtasida tabaqalashtirilgan ta’limdan foydalanish bir qancha ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Differentsiallashtirilgan ta’lim har bir talabaga uning individual ehtiyojlari, kuchli tomonlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan individual ta’lim tajribasini taqdim etishga intiladi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga yanada yaxshi jalb qilishga yordam beradi, balki har bir talaba uchun ijobiy o‘rganish tajribasiga olib keladi.

Maktab o‘quvchilari o‘rtasida tabaqalashtirilgan ta‘limni qo‘llashning ba’zi potentsial natijalariga yuqori ta’lim yutuqlari, o‘ziga bo‘lgan ishonch va o‘zini o‘zi hurmat qilish, mazmunga ko‘proq jalb qilish, o‘quvchilar o‘rtasida yaxshiroq muloqot va hamkorlik va umumiy ijobiy ta’lim muhiti kiradi. O‘quvchilar ta’lim jarayonida faol ishtirok etganliklari uchun muloqot qobiliyatlarini yaxshilashlari mumkin. Shuningdek, ular o‘zlarining ta’lim uslublari va ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishlari va o‘z ta’limlariga egalik qilish uchun yaxshi jihozlangan bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu yondashuv turli xil ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi o‘quvchilari o‘rtasidagi yutuqlarni kamaytirishga yordam beradi.

Bu usullar o‘qituvchilarning sinfda o‘qitishni samaraliroq qilishlari mumkin bo‘lgan usullardan faqat bir nechtasi. Ijodiy va samarali strategiyalardan foydalangan holda, o‘qituvchilar qiziqarli va samarali ta’lim berishlari mumkin.

O‘zbekiston maktab psixologiyasi o‘quvchilar, o‘qituvchilar, oilalar va jamiyat farovonligini ruhiy salomatlikni mustahkamlash, ta’lim va xulq-atvor muammolarini erta aniqlash, aralashuvlar va maktab tizimini isloh qilish orqali qo‘llab-quvvatlaydigan kasbiy amaliyot sohasini anglatadi. O‘zbekiston maktab psixologlari ruhiy salomatlik va ta’lim muammolarini baholash, tashxislash, davolash va samarali oldini olishga ixtisoslashgan. Ular boshqa maktab mutaxassislari, o‘quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda o‘quvchilar salohiyatini maksimal darajada oshiradigan xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitini yaratadilar. Maktab psixologlari, shuningdek, o‘quvchilarning kognitiv, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishini rag‘batlantirish uchun tadqiqotga asoslangan tadbirlardan foydalanadilar va maktab iqlimi, akademiklar va ta‘lim bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun dalillarga asoslangan strategiyalarni taqdim etadilar.

Xulosa. O‘zbekistonda maktab psixologiyasi ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarga o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradigan psixologik yordam ko‘rsatadi. Maktab psixologlari o‘rganishdagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, profilaktika tadbirlari bilan shug‘ullanish va o‘rganishdagi qiyinchiliklarni aniqlash uchun ta’lim va psixologik testlarni o‘tkazish uchun ishlaydi. Ular, shuningdek, maslahat xizmatlarini taqdim etadi, ta’lim rejalarini ishlab chiqishda yordam beradi va o‘qituvchilar, ma’murlar va ota-onalar kabi boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qiladi. O‘zbekistonda maktab psixologiyasi barcha o‘quvchilarning eng yaxshi ta’lim olishini ta’minlashning muhim qismi bo‘lib, ularga nafaqat qo‘llaridan kelganini qilish, balki o‘z salohiyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil. https://lex.uz/uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son. https://lex.uz/docs/-3171590

3. “O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son. https://lex.uz/docs/-4545884

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son. https://lex.uz/docs/-5193564

5. “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son. https://lex.uz/docs/-4749364

6. “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son. https://lex.uz/ru/docs/-5085999

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son. https://lex.uz/docs/5085887

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-son. Farmoni https://lex.uz/ru/docs/-5841063

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish Milliy dasturi” to‘g‘risidagi 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni. https://lex.uz/docs/6008663

10. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Т.: НМИУ, 2017. - 592 б.

11. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 28 декабрь 2018 йил. Т.: Ўзбекистон, 2019.-64б.

12. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т.: НМИУ, 2019. - 400 б.

13. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. Т.: НМИУ, 2020. - 453 б.

14. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.–Т.: “O‘zbekiston”, 2021. - 464 б.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada 14-17 yoshli maktab o‘quvchilarini aqliy va psixologik jihatdan shakllantirishda maktab psixologlarining tutadigan o‘rni va ularning faoilyatida o‘quvchilarni qo‘llab quvvatlashga bo‘lgan harakatlar va bunda foydalaniladigan amaliy metodlar haqida yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описывается роль школьных психологов в психическом и психологическом становлении школьников 14-17 лет, усилия по поддержке учащихся в их деятельности, используемые при этом практические методы.

SUMMARY

This article describes the role of school psychologists in the mental and psychological development of schoolchildren aged 14-17, the efforts to support students in their activities, and the practical methods used in this.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL TA'LIM TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Xolmatova S.K.
ChDPU Maktabgacha ta`lim fakulteti o`qituvchisi

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, Blended learning, aralash o'qitish audiovizual, Web-quest, Equal, samaradorlik.

Ключевые слова: самостоятельное образование, смешанное обучение, смешанное аудиовизуальное обучение, Web-квест, Равенство, эффективность.

Key words: independent learning, Blended learning, mixed learning audiovisual, Web-quest, Equal, efficiency.

Kirish. Zamonaviy ta'lim jarayonini tubdan isloh qilinishi, talabaning auditoriya va ma'ruza yuklamalarini mustaqil ta'lim hissasini oshirish orqali kamaytirilishini talab qiladi. Bu holda ta'lim jarayonining asosiy markazi o'qituvchidan talabaning mustaqil faoliyatiga o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentning 2019 yil 8 oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan. «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi»ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Kredit-modul tizimi amaliyotida auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40/60 foizni tashkil etadi. Bu nisbat, boshqacha qilib aytganda, 1/1.5ga to'g'ri keladi, ya'ni talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har bir soat dars uchun darsdan tashqari bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi kerak bo'ladi. Demak, talaba fan bo'yicha darsda va darsdan tashqari mustaqil tarzda muntazam ravishda o'qib, o'z bilim darajasini oshirib borishi lozim. Fan o'qituvchilari talabaning mustaqil faoliyati samarali tashkil etishga e'tibor qaratishi zarur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kunda mustaqil ta'limning zamonaviy yangi, tobora ommalashib borayotgan shakllaridan biri- Blended learning (aralash o'qitish) ta'limidir. Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida talaba mustaqil ta'lim oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi. Guruhli mashg'ulotlar davomida "blended learning" (aralash o'qitish)ning qo'llanilishi tufayli har bir talaba o'quv materiallarini o'zlashtirish borasida o'zida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni namoyon etgan holda

muloqot ko‘nikmalarini o‘zlashtirib boradi, o‘tilgan materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlanadi.

Blended learning (aralash o‘qitish) ko‘p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma’lumotlar negizida tashkil etiladi, qo‘shimcha materiallar esa tinglovchiga onlayn platforma orqali uzatib beriladi. Talaba mustaqil ta’lim olar ekan, guruhning boshqa a’zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi. Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar vaqt miqdori bo‘yicha o‘zaro mos kelishi turlicha o‘zgarib turishi mumkin. Ta’limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta’lim samarali ravishda qorishtirib yuboriladi. Aralash ta’limda o‘qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar uchun soatlar hajmi kamaytiriladi degan faraz noto‘g‘ridir. Vlended learning (aralash o‘qitish)ning muvaffaqiyati ta’lim vositalarining to‘g‘ri tanlanishi bilan belgilanadi. Bu ta’lim shaklining afzalligi shundaki, talabaning o‘zi o‘quv materialini o‘zlashtirish tezligi va ta’lim jarayonining intensivligini o‘zi belgilaydi.

Aralash o‘qitish o‘zida quyidagi Yevropa ta’limi modellarini jamlaydi:

1. Masofaviy ta’lim (distance learning).

2. Auditoriya ta’limi (face-to face learning). Blended learning (aralash o‘qitish) – onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shakli.

3. Internet ta’limi (online learning).

4. Uzluksiz ta’lim (lifelong learning).

Bu shakldagi ta’lim quyidagi shaxslar uchun nihoyatda ahamiyatlidir: ish vaqti qat’iy tartibga solinmagan sohalarning xodimlari; ishlab chiqarish ajralmagan holda ta’lim olishlari lozim bo‘lgan korxona, tashkilot va firmalarning xodimlari; “jonli muloqotga asoslangan ta’lim” muhitida o‘qishni xohlovchi shaxslar uchun. Aralash ta’limning tarkibiy tuzilmasi ham o‘zgaruvchan hisoblanadi. Ayni vaqtda xorijiy mamlakatlarda aralash ta’limning o‘ndan ortiq shakllari mavjud.

O‘qitish amaliyotida aralash ta’lim o‘z “o‘lcham” (ko‘rsatkich)lariga ega. Ular quyidagilardir:

– malakali kadrlar guruhining shakllantirilganligi;
– mahorat darslariga asoslangan ta’lim;
– yuqori darajadagi yutuqlari kafolatlovchi muhit;
– talabalarning o‘z shaxsiy ta’limiy yutuqlari uchun javobgarligi

1. OTMda blended learning (aralash o‘qitish) quyidagilarga asoslanadi[5]:

- Onlayn ma’ruza mashg‘ulotlari. - Onlan amaliy mashg‘ulotlar.

– Internet tarmog‘ida muhokama qilinadigan loyiha va guruh ishlari.
– Onlayn rejimda tashkil etiladigan laboratoriya mashg‘ulotlari.

– Onlayn rejimda mustaqil topshiriladigan test.
– Onlayn rejimda tashkil etiladigan maslahat.

Xorij davlatlarida, jumladan Avstraliyada blended-learning usulida ta'lim olgan talablarni ko'proq ishga olishar ekan. Chunki ular nafaqat kompyuter texnologiyalarini yaxshi bilishada balki, ularda mustaqil shug'ullanish va hamkorlikda ishlash ko'nikmalari kuchli rivojlangan bo'lar ekan. Mamlakatimizda ham aralash ta'lim modeliga o'tilib zamonaviy talablar asosida o'quv dasturlarini, o'quv-metodik adabiyotlar majmualarini yangilash, o'quv jarayoniga elektron ta'lim texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aralash ta'limni tashkil etish va undan foydalanish texnologiyalaridan biri– audiovizual texnologiyalar hisoblanadi. O'quv jarayoniga keng kirib kelayotgan o'qitishning audiovizual tizimi (lotinchadan audire - eshitish va visuails - ko'rish) ko'rgazmali va eshitiladigan axborotlarni taqdim qilishga mo'ljallangan maxsus texnik vositalarni o'z ichiga oladi. Audiovizual vositalar– audio, video, elektron o'quv qo'llanmalar, o'quv videoyozuvlar, elektron resurslar bankini yaratish va ulardan samarali foydalanish tamoyillaridir[2].

Bugungi kunda ta'lim samaradorligini oshirishda turli usullardan foydalanilmoqda. Maqsadga erishish hamda axborotlarni qabul qilishda audiovizual vositalari imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Audiovizual vositalar va texnologiyalarni mashg'ulotlarda asossiz, ixtiyoriy ravishda qo'llash salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun ko'rgazmali vositalardan foydalanishda bir qator shartlarga rioya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

– qo'llanilayotgan ko'rgazmali vosita ta'lim oluvchining yoshi, psixofizik xususiyatlariga mos kelishi;
– ko'rgazmali vosita me'yorda ishlatilishi va uni ketma-ketlikda hamda ta'lim jarayonining faqatgina lozim bo'lgan joyida ko'rsatish;
– illyustratsiyalarni ko'rsatishda asosiylari va muhimlarini aniq ajratib olish;
– namoyish qilinayotgan ko'rgazmalar materiallar mazmuni bilan mos tushishi;
– ko'rgazmali qo'llanmadan yoki namoyish etilayotgan qurilmadan istalgan axborotni topish va tahlil qilishga ta'lim oluvchilarning o'zlarini jalb etish lozim [1].

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartida belgilangan umumiy talablarida o'quv jarayonini faol va interfaol shakllarini tashkil etish, talabalarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil ta'lim olish bilan birgalikda xorijiy ilm-fan ta'lim texnologiyalarini keng qo'llashni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan ta'lim tizimi faqatgina pedagog faolligiga

asoslangan an’anaviy ta’limdan farqli ravishda, ta’lim sifatini oshiribgina qolmay, ta’lim oluvchining faolligini kuchaytirib, uning ijodiy qirralarining ochilishiga katta yordam beradigan vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun geografiya ta’limida audiovizual vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Talabalar umumiy tabiiy geografiya fanini o‘zlashtirish jarayonida fanning tadqiqot obyekti, predmeti, tadqiqot usullari, Koinot, Quyosh sistemasi, Yer va uning Quyosh sistemasidagi tutgan o‘rni, geografik qobiq va uning tuzilishi, geografik muhit va inson munosabatlarining geografik asoslariga oid nazariy qarashlar haqida tasavvurga ega bo‘lishlari lozim. Audiovizual vositalar esa pedagog yetkazmoqchi bo‘lgan tasavvurni ta’lim oluvchidagi mavjud ma’lumotlar bilan uyg‘un holda unda shakllantirish imkonini beradi. Audiovizual taqdim qilingan material pedagog tomonidan so‘zlar orqali berilgan materialga nisbatan to‘liqroq qabul qilinadi. Bu yerda teletasvirlarni qabul qilishning psixologik o‘ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ixtiyoriy jarayon va hodisalarni chuqur o‘rganishda ularni kompyuter va audiovizual apparatlar asosidagi qurilmalar va texnologiyalar majmuasidan iborat zamonaviy audiovizual vositalar yordamida modellashtirish imkoni yuzaga keldi.

Talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish hamda mustaqil tarzda u yoki bu o‘quv topshiriqlarini bajarish imkonini beruvchi texnologiyalardan biri-Web-quest texnologiyasidir.

Web-quest texnologiyasi pedagogikada turli web- saytlarda joylashgan qisman yoki to‘liq ma’lumotlar asosida talabalar ishlashi mumkin bo‘lgan Internetdagi ta’lim saytlaridir. Web-questlar alohida muammolarni yoritishi, o‘quv fani,o‘quv mavzusi va shuningdek fanlararo sohalarni qamrab olishi mumkin [3]. Oliy ta’lim muassaslari talabalari uchun mo‘ljallangan geografiya fanlariga oid web-questlar mavjud emas. Web-questlardan foydalanish usullari quyidagilar: Tafakkurni rivojlantirish, hamkorlik, muammoli ta’lim, loyihali ta’lim, motivatsiya va autentlik, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Ta’lim web-questlar – rolli o‘yin elementlari bilan boyitilgan, Internet axborot resurslaridan foydalanib, bajariladigan muammoli topshiriqlardan iboratdir. Web-questlardan foydalanish uchun talabalardan ma’lum darajada tilni bilish talab etilib, Internet manbalridan , haqqoniy axborotlardan foydalanish talab etiladi. Webquestlardan foydalanish talabalarni mustaqillikka, har qanday hayotiy muammolarni yechishga, ijodiy ishlashga, axborot makonida to‘g‘ri harakat qilishga, tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi.

Hozirgi kunda fanlar bo‘yicha questlarning yig‘ilishi tarix, geografiya, ingliz tili va adabiyot, tabiiy fanlar yo‘nalishlaida amalga oshirilmoqda. Web-quest texnologiyasining muhim jihati shundaki, talaba o‘ziga baho bera olishi, muzokoralar o‘tkazish orqali kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishi, saytlarda

ishlash orqali xorijiy tillarni mukammal o‘rganishi, yangi bilimlarni egallashi va yangi axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Web-quest guruhda yoki yakka holda bajarish uchun mo‘ljallangan. Talabalar web-questni bajarishda 6 ta bo‘limdan foydalanadi: kirish, topshiriq, jarayon, harakatlarga rahbarlik qilish, baholash va yakuniy xulosalar. Ushbu texnologiya talabani o‘rganayotgan mavzusiga qiziqishini orttiradi hamda muammoni qo‘yish va uni yechish uchun talabani izlanishga chorlaydi.

Talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradigan interaktiv texnologiyalaridan yana biri bu- “Equal” texnologiyasidir. Pedagog geografiya darslarida talabalarning imkoniyatlari, qiziqishlari, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini inobatga olgan holda mustaqil tarzda bajaradigan geografik amaliy mashg‘ulotlarni “Equal” texnologiyasidan foydalanib tashkil etish maqsadga muvofiqdir. “Equal” texnologiyasi talabalarning nazariy bilimlarini amalda tatbiq etishga, materiallarni ongli va puxta o‘zlashtirish bilan bir qatorda ularning kartalar va atlaslarda qo‘llaniladigan turli shartli belgilarni o‘rganish, shartli belgilar haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘lish, ularni eslab qolish hamda o‘zaro aloqasini tushunish, anglash, bir-biriga bog‘lay olish kabi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi [4].

Bu texnologiyani har bir pedagog individual-ijodiy yondoshgan holda istalgan shartli belgilar bilan o‘zgartirishi mumkin. Masalan foydali qazilmalar, aholi punktlari kabi shartli belgilar bilan almashtirsa ham bo‘ladi.

Xulosa.Oliy o‘quv yurtlari malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari – interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va roli benihoya kattadir. Bunda pedagogik texnologiya va pedagogik mahoratga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Adabiyotlar:

1. Мухаммадиев А.Ш. Таълим тизимининг ахборот таъминотини шакллантиришда аудивизуал технологиялар // Замонавий таълим №1. 2015. –Б. 37-38

2. Новые аудиовизуальные технологии: Учебное посо-бие. / Отв. ред. К.Э.Разлогов. – М.: «Едиториал», 2005.

3. Сокол И.Н. Классификация квестов // Молодий вчений. –2014. – №6 (09). – С. 138-140. – [Электроный ресурс]. – Режим доступа: http: // molodyvcheny/inua/files/ journal/ 2014/6/89.pdf.

4. Xamroyeva F.A. Geografiya fanlarini o„qitish va innovatsion yondashuv// Самарқанд давлат университети илмий тадқиқотлар ахборотномаси. Самарқанд, №2 (126) 2021. Б. 195-197.

5. Хамроева Ф.А. (2019). Вопросы повышения медиаграмотности у студентов. Актуальные проблемы современной науки.

6. Ражабов Ф.Т., Абдимуротов, О.У. (2020). Табиий география курсларида амалий машғулотларни ташкил қилишда янги педагогик технологияларни қўллаш услубиѐти. Academic research in educational sciences, (4), 663-671.

7. Abdimurotov O.U. (2021). “Yevrosiyo materigi” ni o’qitishda “keys stadi” metodidan foydalanish usullari. Academic research in educational sciences, 2(1), 377-382.

8. Abdimurotov O.U. (2020). Tabiiy geografiya darslarini mustaqil o„rganishda interfaol metodlardan foydalanishning imkoniyatlari. Academic research in educational sciences, (3), 1306-1312.

РЕЗЮМЕ

Maqolada mustaqil ta’limni tashkil etish, ta’lim oluvchining faolligini kuchaytirib, uning ijodiy qirralarini ochishga yordam beradigan ta’lim vositalari hamda talabalarning tafakkurini rivojlantiruvchi zamonaviy texnologiyalar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, mustaqil ta’limning zamonaviy yangi, tobora ommalashib borayotgan shakllaridan biriBlended learning (aralash o‘qitish) ta’limi, audiovizual texnologiyalari, Webquest, “Equal” interaktiv ta’lim texnologiyalar va ulardan foydalanish ahamiyati keng yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлены сведения об организации самостоятельного обучения, средствах обучения, повышающих активность обучающегося и помогающих раскрыть его творческие стороны, а также современных технологиях, развивающих мышление учащихся. Также широко освещены одна из современных новых, набирающих популярность форм самостоятельного образования, смешанное обучение, аудиовизуальные технологии, веб-квест, «Равные» интерактивные образовательные технологии и важность их использования.

SUMMARY

The article provides information on the organization of independent learning, educational tools that help to increase the activity of the learner and reveal his creative side, as well as modern technologies that develop students’ thinking. The importance of Blended learning, audiovisual technology, Web-quest, Equal interactive learning technologies and their use is also widely covered.

TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA MUS-TAQIL ISHLARNING AHAMIYATI

Xolmatova S.K.
ChDPU Maktabgacha ta`lim fakulteti o`qituvchisi

Tayanch so‘zlar: talaba, mustaqil ta’lim, shakllantirish, kompetensiya, ijodiy, ko‘nikma, malaka.

Ключевые слова: студент, самостоятельное образование, формирование, компетентность, творческий подход, умение, квалификация.

Key words: student, independent education, formation, competence, creative, skill, qualification.

Zamonaviy sharoitda o‘rganishning asosiy vazifasi - bilimlarni egallash emas, balki faoliyatni o‘zlashtirish, buning natijasida bilimlar shakllanadi. Shu bilan birga, ta’lim o‘qitishning informatsion shakllaridan faol shakllari va usullariga o‘tishi kerak. Bundan tashqari, o‘zgaruvchan dunyoda bo‘lajak mutaxassis butun hayoti davomida o‘zini o‘zi tarbiyalash qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini rejalashtirishda birinchi kursdan boshlab o‘quv fanlarini mustaqil o‘zlashtirishning kamida 50 foizi ko‘zda tutilgan.

“Talabalarning mustaqil ishi ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish talabalarning bilimlarni mustaqil egallash va ulardan foydalanish, ilmiy va o‘quv adabiyotlari bilan ishlash ko‘nikmalarini, olingan natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini va umuman, o‘rganishga ijodiy yondashishni rivojlantirishga yordam beradi, ya’ni. malakali va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun nima zarur.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, birinchi kurs talabalari mustaqil ta’lim faoliyatiga tayyor emasligiga maktabda o‘qish davrida bitiruvchilar mustaqil ishlash uchun yetarli ko‘nikmalarga ega emasliklari bilan bog‘liq. Oqibatda hozirgi vaqtda mustaqil ta’limning roli va ko‘lamining ortishi bilan birinchi kurs talabalarining ushbu faoliyat turiga tayyor emasligi o‘rtasida qarama-qarshilik mavjud. Shu bois talabalarni mustaqil ishlashga alohida tayyorlash zarurligi va bu tayyorgarlik bilan har bir o‘qituvchi shug‘ullanishi zarur, degan fikrga qo‘shilish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlarni o‘quv jarayoniga joriy qilishda asosiy yo‘nalishlar mustaqil ishni rag‘batlantirish hisoblanib, unda talabalarning ijodkorlik va mustaqillikka e’tibor qaratgan holda ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Talabalarni mustaqil ta’lim asosida olingan bilimlarni zamonaviy jamiyatning amaliy muhim vazifalarida qo‘llash kompetensiyalari oshadi [2].

Shu munosabat bilan mustaqil ta’lim maqsadlarini quyidagicha tuzilishi mumkin:

– fanlarni o‘zlashtirish maqsadlari - fanlararo bilimlarni va faoliyat usullarini o‘zlashtirish;
– fandan tashqari o‘qitishning maqsadlari - asosiy va kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish, ta’limiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini shakllantirish.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim ishlarining asosiy vazifalaridan biri talabalarni o‘z-o‘zini tarbiyalashning oqilona usullari va usublarini egallashdir. Chop etilgan matn ustida ishlash jarayonida talabalarni konspekt olishga, ko‘rib chiqishga, ko‘chirma tuzishga, matn rejasini tuzishga, shuningdek, konspekt va izohlar yozishga o‘rgatish zarur. Talaba matndagi asosiy narsani ajratib ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakllantirishga hissa qo‘shadigan maxsus topshiriqlarni olishi kerak. Bu qo‘llab-quvvatlovchi va sintez qilingan eslatmalarni, jadval yozuvlarini tayyorlash bilan bog‘liq vazifalar bo‘lishi mumkin. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradigan mustaqil ish sohalaridan biri ijodiy vazifalarni hal qilishdir.

Uy vazifasi sifatida talabalarga o‘z sohasiga oid tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydigan ijodiy topshiriqlar taklif etiladi. Bular: referatni rasmlar, misollar bilan to‘ldirish; taklif qilingan jadval bo‘yicha jadvalni to‘ldirish; test yozish; o‘tgan qismda metod o‘ylab topish; krossvord, boshqotirma va hokazolarni yechish [1].

Ilmiy-tadqiqot, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida talabalar axborotni qayta ishlash, tahlil qilish va prognoz qilishning zamonaviy usullaridan foydalana olish kabi kasbiy kompetensiyalarni egallaydi hamda olingan ma’lumotlarni tushunish, ifodalash va tadqiqot natijalarini taqdim etish qobiliyati shakllanadi.

Dars soatlari hajmining kamayishi va talabalarning mustaqil ishlariga ajratiladigan soatlarning ko‘payishi ularda tadqiqotchilik qobiliyatini yanada samaraliroq bo‘lishi, ularni ijodiy mustaqil ta’lim faoliyatiga ko‘niktirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ijodiy faol talabalarni tadqiqotchilik qobiliyatiga tayyorlash uchun ma’lum shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli shakllantirish shartlaridan biri o‘qitishning interfaol shakllariga o‘tish, reproduktiv ta’limdan samarali ta’limga o‘tishdir [3].

Ishlab chiqarish faoliyati obyektiv yangi yoki subyektiv yangi natija olishga qaratilgan. Samarali ta’limni, masalan, loyiha usulini qo‘llash orqali amalga oshirish mumkin. Ushbu usul o‘quv, ilmiy, meyoriy va pedagogik adabiyotlar bilan mustaqil ishlashning katta qismini nazarda tutadi. Loyihadan ta’lim usuli sifatida foydalanish ko‘plab pedagogik muammolarni hal qilish imkonini beradi. Shu jumladan, talabalarning tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish, bitiruv malakaviy ishlar, kurs ishlari, ilmiy maqolalar yozish kabi mustaqil faoliyatga tayyorligini shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Loyiha usuli talabalarni faol kognitiv mustaqil faoliyatda o‘z ichiga oladi, bu faoliyatni bajarilayotgan vazifaning murakkabligi va qiziqishlari nuqtai nazaridan farqlashni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot ko‘nikmalarini shakllantirish uchun talabalarga mustaqil ta’lim uchun quyidagi vazifalarni taklif qilish tavsiya etiladi:

– ilmiy kashfiyot tavsifi;
– har qanday ilmiy yo‘nalishning rivojlanish istiqbollarini o‘rganish.

Kasbiy faoliyat asoslarini o‘zlashtirish va nazariy bilimlarni qo‘llash yo‘llarini topish uchun modellar, texnologik jarayonning tavsifi kabi mustaqil vazifalarni taklif qilish mumkin; ekskursiyalarga tashrif buyurish to‘g‘risida hisobot, pedagogik ko‘rgazmalarga tashrif buyurish to‘g‘risida hisobot tuzish.

Bunday turdagi o‘quv mashg‘ulotlarida talabalarning ishtiroki mustaqil bilish faoliyatida faol ishtirok etishni ta’minlaydi. Talabalarning mustaqil ta’lim ishlarini tayyorlashga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish uchun talabalarning ilmiy konferensiya va seminarlarda ishtirok etish natijalariga ko‘ra talabalarning ijodiy ishlarini nashr etish imkoniyatini yaratish kerak. Ilmiy faoliyatga kirishish barqaror ko‘nikmalarni, monografiyalar, tezislar, maqolalar, ma’lumotnomalar bilan ishlashga tayyorlikni shakllantiradi.

Bularning barchasi intellektual kompetensiyalarni shakllantirishni talab qiladi: mantiqiy modellarni, konstruksiyalarni qo‘llash usullarini, tushunish va bilish, lug‘at mavjudligi, konspektlar tuzish, mantiqiy to‘g‘ri va adekvat xulosalar chiqarish, grammatik tuzilish va uslubni o‘zlashtirish ularning kompetensiyaviy shakllanishining asosi hisoblanadi. Binobarin, mustaqil ta’lim ishlarining asosiy natijalaridan biri intellektual va mantiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish va matn yordamida o‘z fikrini ifodalash, o‘quv va tadqiqot ishlari natijalarini tasvirlash va rasmiylashtirishdir.

Talabalarning mustaqil ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta’limning barcha shakllari uchun o‘quv jarayonida ta’limni tashkil etishga kompleks yondashuv, oliy ta’lim tizimining barcha darajalari (turlari) kombinatsiyasi va bajarish sifati ustidan nazoratni ta’minlash orqali erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Мухаммадиев А.Ш. Таълим тизимининг ахборот таъминотини шакллантиришда аудивизуал технологиялар // Замонавий таълим №1. 2015. –Б. 37-38

2. Новые аудиовизуальные технологии: Учебное посо-бие. / Отв. ред. К.Э.Разлогов. – М.: «Едиториал», 2005.

3. Сокол И.Н. Классификация квестов // Молодий вчений. –2014. – №6 (09). – С. 138-140. – [Электроный ресурс]. – Режим доступа: http: // molodyvcheny/inua/files/ journal/ 2014/6/89.pdf.

4. Xamroyeva F.A. Geografiya fanlarini o„qitish va innovatsion yondashuv// Самарқанд давлат университети илмий тадқиқотлар ахборотномаси.Самарқанд, №2 (126) 2021. Б. 195-197.

РЕЗЮМЕ

Mazukr maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati borasida fikrlar bayon etilgan bo‘lib, unda mustaqil ta’lim ishlarining ta’lim jarayonidagi ahamiyati ta’kidlangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье высказываются мнения о значении самостоятельной работы в формировании профессиональных компетенций студентов, а также подчеркивается значение самостоятельной учебной работы в образовательном процессе.

SUMMARY

In this article, opinions on the importance of independent work in the formation of professional competences of students are expressed, and the importance of independent educational work in the educational process is emphasized.

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Махкамов У.И.
ЧДПУ профессори
Тешакулова Б.Ш.
ЧДПУ талабаси

Таянч сўзлар: маҳорат, компонент, педагогик маҳорат, тажриба, ўқитувчи, назокат, педагогика, билим, мутахассис,коммуникатив лаёқат, педагогик техника.

Ключевые слова: умение, компонент, педагогическое мастерство, опыт, педагог, дели-катность, педагогика, знания, специалист, коммуникативные способности, педагогический при-ем.

Key words: skill, component, pedagogical skill, experience, teacher, delicacy, pedagogy, knowledge, specialist, communication skills, pedagogical technique.

Бугунги кунда ўқитувчи касбига қаратилаётган этибор, кўрсатилаётган ҳурмат, шунингдек, илм-фанга, талимга киритилаётган инновация, техника ва технологиялар ўртасида рақобат юзага келмоқда. Шундай соҳалар сирасига таълим тизимини киритсак бўлади. Ривожланган мамлакатларда кундан кунга, йилдан йилга дарс ўтиш технологиялари такомиллашиб бормоқда. Шундай вазиятда биз ҳам Президентимиз томонидан яратилаётган имкониятларлар, замонавий технологиялар ёрдамида улкан ютуқларга эришишимиз шарт ва зарур.

Президентимиз Шавкат Мирамонивич Мирзиёевнинг “ Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси “ китобида таъкидлашича : “ Янги Ўзбекистонни обод ва фаровон, демократик мамлакатни, Учинчи Ренессансни барпо этишда педагоглар, профессор – ўқитувчилар, ижодкор зиёлиларни энг катта куч, таянч ва суянч, деб биламан.Уларнинг ҳал қилувчи аҳамиятга эга булган фаолиятини қўллаб-қувватлаш, улар учун муносиб меҳнат ва турмуш шароити яратиб беришни Президент сифатида ўз бирчим деб ҳисоблайман. “ – деган ғоя-ларни илгари сурган.

Мамлакатимизда миллати , тили, динидан қатъий назар, ҳар бир инсоннинг қобилияти ва истеъдодини, билим ва тажрибасини руёбга чиқара оладиган ижтимоий давлат барпо этиш билан бирга ёшларнинг интеллектуал ва жисмоний камолоти, уларнинг сифатли та-лим олиб, ҳаётда муносиб

урин эгаллашларида муҳим ўрин тутади. Бу борада Шавкат Мир-зиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош ассамблеясининг 78- сессиясида таълим соҳасидаги ғоялари барқарор ривожланиш мақсадлари" га оид фикрлари, талим тизимини ривожлантиришга оид вазифалари жамият ҳаётида ўқитувчининг ўрни ва тасирини, илм фан таълим ва тарбия соҳасининг ривожланишида муҳим ўрин тутади, чунки ушбу жараёнда ўқитувчининг педагогик маҳорати таълим тарбия сифатини ривожлантириш имкониятла-рини такомиллаштиради.

Бунинг учун укитувчидаги тараққиётимиз дастури бўлмиш " Ўзбекистон – 2030" стратегияси асосида талим тизимини янада ривожлантириш, Ватанимизнинг тақдири ва келажаги учун масъулиятни зиммасига олишга қодир янги авлодни тарбиялаши унинг маҳоратига боғлиқ. Чунки маҳорат ўқитувчидан моҳирлик, усталик, эпчилликни талаб эта-ди.

Албатта, бу ўринда бўлажак ўқитувчиларда педагогик маҳорат компетентциясини ривожлантириш асосида дарс жараёнини самарали ва оқилона ташкил этилиши ва олиб бо-рилиши аҳамиятли ҳисобланади. Бу борада купгина олимлар ўз фикрларини куйидагича билдирганлар.

Россиялик олим И. Р. Раченконинг таъкидлашича " педагогик маҳорат деганда ўқитувчининг педагогик- психологик билимларни, касбий малака ва кўникмаларни мукам-мал эгаллаши, ўз касбига қизиқиши ривожланган педагогик фикрлаши ва интуитцияси, ҳа-ётга ахлоқий- эстетик муносабатда бўлиши, ўз фикр мулоҳазасига ишончи ва қатъий иро-даси тушунилади." -деган.

Педагогик махоратнинг таркибий кисмлари кўйидагилардан иборат:

1. Нутқ малакаси ва техникасини мукаммал ўзлаштириш ;
2. Тушунарли, тасирчан фикр ва хис тўйғуларни сўзда аниқ ифодалаш
3. Мимик ва рантомимик ҳаракатлардан ўз ўрнида фойдаланиш;
4. Маъноли ва очиқ чеҳрали нигоҳ билан қараш.
5. Хиссий психик ва тасодифий ҳолатларда ўз хис тўйғуларини жиловлай олиш.
6. Турли вазиятларда тарбиячига хос бўлган ижодий кайфиятни бошқариш;
7. Кулгу ва табассумда самимийликни эътироф этиш;
8. Ўқувчилар билан доимо яхши кайфият ва рағбатлантирувчи муносабатда бўлиш ;
9. Саводли ва соф адабий тилда сўзлаш;
10. Аниқ имо-ишораларни ўз ўрнида ишлата олиш ;
11. Ижодий педагогик қобилиятни қўллай билиш;

12. Юксак замонавий ахборот технологиялари ва пертал тизимидан эркин фойдалана олиш ;

13. Мулоқот одобига доимо риоя қилиш кабилардан иборат.”

Ўзбекистонлик олим, педагогика фанлари доктори, профессор Аъзамжон Холиқов педа-гогик маҳорат тушунчаси мазмунини қуйидагича изоҳлаш мумкин эканлигини таъкидлайди;

1. Маданиятнинг юқори даражаси, билимдонлик ва ақл- заковатнинг юксак кўрсаткичи.

2. Ўз фанига доир билимларнинг мукаммал соҳиби.

3. Педагогика ва психология каби фанлар соҳасидаги билимларни пухта эгаллаганлиги, улардан касбий фаолиятида фойдалана олиши.

4.Ўқув- тарбиявий ишлар методикасини мукаммал билиши.

Педагогик маҳорат тизими қуйидаги ўзаро бир- бири билан боғлиқ бўлган асосий ком-понентлардан иборат:

1. Педагогик инсонпарварлик талабларига бўйсуниши.

2. Касбга оид билимларни бошқа фанлар билан алоқадорликда мукаммал билиш.

3. Педагогик қобилиятга эга бўлиш.

4. Педагогик техника сирларини пухта эгаллаш.”

Юқорида айтиб утганимиздек маҳоратли ўқитувчи билимдон, ўз касбининг мутахасси-си, назарий ва амалий билимларни мукаммал билиши, гўзал нутқ соҳиби замонавий фикр-лаш қобилиятига эга, ташаббускор, ташкилотчи, юксак хотира соҳиби, креатив, қизиқувчан, ижодкор ва албатта назокатли бўлмоғи лозим. Ҳар бир ўқитувчи изланувчан бўлиши керак. Яни, у ҳаракатдан тўхтаб қолмаслиги, билимини янада оширишга ҳаракат қилиши, ўзини ҳар томонлама ривожлантириш, доимий мутолаада бўлиши керак. Жаҳон илм-фани ва мада-ниятига ҳисса қўшган машҳур олим ва адиб Абул-Қосим Маҳмуд Ибн Умар Аз- Замахшарий “ Навобиг‘ ул-калим” (“Нозик иборалар”) асарида “ Мураббий ўқиб турсагина мураббий була олади, агар ўқишни тўхтатиб қуяр экан, унда мураббийлик улади.” – деган фикрларни билдирган.

Профессор Аъзамжон Холиқов педагогик маҳоратни қуйидаги воситалар асосида ри-вожлантириш мумкинлигини таъкидлайди.

“1.Мустақил ўқиб-ўрганиш (педагогика фанида руй бераётган энг сўнгги янгиликларлар ҳақида маълумотларни берувчи янги адабиётлар, интернет материаллари, портал тизими, вақтли матбуот саҳифаларида чоп этилаётган маълумотлар, шунингдек, илғор технология-лар билан танишиб бориш, уларда илгари сурилаётган ғояларни умумлаштириш, хулосалаш асосида мустақил лойиҳаларни тайёрлаш).

2. Тажрибали устоз ўқитувчилар фаолиятини ўрганиш (таълим муассасидан четга чиқма-ган ҳолда ташкил этилиб, вақт ва иқтисодий нуқтаи назардан самарали саналади.Тажрибали ўқитувчилар фаолиятини ўрганиш, улар томонидан ташкил этилаётган машғулотларни кўзатиш, таҳлил қилиш асосида амалга оширилади. Бу борада олинган таассуротларни умумлаштириш асосида хулоса чиқариш мақсадга мувофиқдир). 3.Ўқитувчи ходимларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курслари ва институтларида касбий малака ва кўникмаларни ошириб бориш. 4.Доимий равишда илмий анжуманлар (назарий ва амалий конференция ҳамда семинарлар, педагогик ўқиш ҳамда тренинглар) да фаол иштирок этиш.

5.Республика ҳамда ривожланган хорижий мамлакатларнинг етакчи талим муассасаларида ўз тажрибаларини ошириш, касби бўйича энг сўнгги маълумотларни ўрганиш."

Юксак педагогик махоратни шакллантиришни таъминловчи омилларга қўйидагилар киради:

А) ихтисослик бўйича ўқув предметини замон, илм фан , техника тараққиёти даражасида мукаммал билиши, унинг бошқа ўқув фанлари билан ўзаро алоқадорлигини таъминлаш ма-лакасига эга бўлиши;

Б) таълим олувчиларнинг ёш, физиологик, психологик ҳамда шахсий хусусиятларини ҳисоб-га олиши, уларнинг фаолиятини обектив назорат қилиши ва баҳолаши ;

С) таълим жараёнини демократлаштириш ва инсонпарварлаштириш асосида ўз фаолиятини ташкил этиши ;

Д) ўқув тарбиявий жараённи замон талаблари даражасида ташкил қилиш учин асосий педа-гогик – психологик ва методик маълумотларга эга бўлиши;

Е) фанларни ўқитиш жараёнида замонавий ахборот технологиялари имкониятларидан кенг фойдаланишни билиши;

Г) жамоани "кўра билиш" , ўқувчиларнинг қизиқишлари, интилишлари, уларнинг ҳаёт фао-лиятларида учрайдиган кийинчилиларни тушуниш ва хамдард бўла олиш, ўз вақтида улар фикрини англай олиш, билиш, зукколик билан ҳар бир боланинг характер хусусияти, қоби-лияти иродасини тушуниш ҳамда уларга муваффақиятли таъсир кўрсатишнинг шакл, усул воситаларидан хабардор бўлиши ;

Ж) ўз шахсий сифатлари (нутқининг равонлиги, ташкилотчилик қобилияти, бадиий эхтиё-жи, диди ва ҳоказо) ни такомиллаштириш малакасига эга бўлиши кабилар киради."

Қуйидаги вазифаларни мунтазам бажариб бориш орқали бўлажак ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратини шакллантиришга эришилади:

1.Бўлажак ўқитувчилар педагогик маҳоратнинг назарий ва методологик асослари билан қуроллантирадилар.

2. Педагогик маҳорат фанининг педагогик техника, педагогик ҳамкорлик (мулоқот), педаго-гик назокат, педагогик қобилият, тарбиячилик маҳорати, таълим жараёнини бошқариш, нутқ маданияти, тарбия технологияси, педагогик ижодкорлик, рефлексия каби таркибий қисмлари тўғрисидаги билимлар тизимини эгаллайдилар.

3. Бўлажак ўқитувчилар миллий урф-одат ва анъаналаримизда ва Ўрта Осиё мутаффакирла-рининг бой ижодий меросларида акс этган педагогик маҳорат сирларини мустақил эгаллаш-га нисбатан ўзларида эҳтиёж ва ҳавасни ривожлантириб борадилар.

4. Эгалланган педагогик – психологик ва методик билимлар, кўникма ва малакалар тўғри-сидаги маълумотлар асосида ҳар бир бўлажак ўқитувчи ўзининг шахсий педагогик маҳора-тини шакллантиради.

5. Ўқув тарбиявий жараённи жаҳон андозаларига хос сўнгги замонавий метод ва шакллар асосида ташкил этиш ва бошқаришни амалга ошириш-нинг назарий ва амалий асосларини мунтазам ўзлаштирадилар.

6. Ўқитувчилар ўз касбий маҳоратларини такомиллаштиришлари учун шахсий -ижодий ма-лака оширишнинг шакл, усул ва воситаларини эгаллайдилар.

7. Тарбиячи маҳоратининг моҳияти, функцияси, тузилиши тўғрисида ўқитувчилар узлуксиз маълумотларни ўрганиб борадилар.

8. Юксак замонавий ахборот технологиялари ва портал тизимидан эркин фойдаланиш асоси-да ўз касбий маҳоратларини шакллантирадилар .

Ҳозирги замонда маҳоратли ўқитувчи нафақат ўз мутаххаслигига оид билимларни, бал-ки, бошқа соҳаларни ҳам билиши, технологиялардан яхши фойдалана олиши лозим. Про-фессор Аъзамжон Холиқов таъкидлаб ўтадики, ҳозирги кун ўқитувчиларидан қуйидагича бурч ва масъулият талаб қилинади;

1.Ўқитувчи, энг аввало, масъулиятни ҳис этувчи тарбиячи, тажрибали нотиқ, мада-ният ва маърифат тарғиботчисидир.

2. Ўқитувчи табиатан ўқувчиларни сева олиши, ўз меҳрини, ҳис-туйғуларини ҳар лаҳзада ўқувчилар ички дунёси билан боғлай олиши, уларнинг ҳам меҳрига, ҳурматига сазовор бўлиши керак.

3. Ўқитувчи жамият ижтимоий ҳаётида рўй бераётган ўзгаришларни, олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар моҳиятини чуқур англаб етиши ва уларга холисона баҳо бериб, бу борада ўқувчиларга туғри ва асосли маълумотларни доимий бера олиши лозим.

4. Замонавий ўқитувчининг илм-фан, техника ва ахборот-коммуникацион технологиялари янгиликларидан ва ютуқларидан хабардор бўлиб бориши талаб этилади.

5. Ўқитувчи ўз мутахассислиги буйича чуқур ва пухта билимга эга бўлиши, барча фанлар интеграциясини ўзлаштириб бориши, бунда ўз устида тинимсиз илмий изланишлар олиб бориши керак.

6. Ўқитувчи педагогика ва психология фанлари асосларини пухта билиши, ўқувчилар-нинг ёш ва психологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда талим- тарбия фаолиятини ташкил этиши керак.

7. Ўқитувчи касбий педагогик фаолиятида таълим ва тарбиянинг энг самарали замона-вий шакл, метод ва воситаларидан унумли фойдалана олиш имкониятига эга бўлмоғи лозим.

8.Ўқитувчи ижодкор, талим-тарбиявий фаолият ташаббускори ва ёш авлод келажаги учун жавобгар шахсдир.

9.Ўқитувчи касбий фаолияти жараёнида юксак даражадаги педагогик маҳорат, комму-никатив лаёқати, педагогик техника (нутқ, юз, қул-оёқ ва гавда ҳаракатлари, мимика, пан-томимика, такт) қоидаларини чуқур ўзлаштириб бориши шарт.

10.Ўқитувчи нутқ маданиятига эга булиши зарур, унинг нутқи қуйидаги хусусиятлар-ни ўзида акс эттириши керак: турли шева сузлардан ҳоли бўлиб, фақат адабий тилда ифода ифода этилиши; ўқитувчининг нутқи содда, равон ва тушунарли бўлиши ; ҳикматли сўзлар, ибора ва мақоллар, маталлар ҳамда кўчирма гаплардан ўринли фойдалана олиши ло-зим.Жаргон (муайян касб ёки соҳа мутахассисларига хос сўзлар), варваризм (муайян миллат тилида баён этилаётган нутқда ўзга миллатларга хос сўзларни ноўрин қўлланилиши), вул-гаризм (ҳақорат қилиш, солишда қўлланиладиган сўзлар) ҳамда конселяризм (ўрни бўлма-ган вазиятларда расмий сўзлардан фойдаланиш) каби норасмий сўзлардан ҳоли бўлиши ке-рак.

11. Ўқитувчининг кийиниш маданияти ўзига хос бўлиши, яни содда, озода, бежирим кийиниши, таълим-тарбия жараёнида ўқувчининг диққатини тез жалб этувчи турли хил без-аклар (олтин, кумуш тақинчоқлар) дан фойдаланмаслиги, фасл, ёш, гавда тузилиши, юз қиёфаси, ҳатто, соч ранги ва турмагига мувофиқ равишда кийиниши талаб этилади.

12. Ўқитувчи таълим муассасида синф жамоасининг асосий ташкилотчиси ва таълим соҳасида олиб борилаётган ислоҳотларнинг энг фаол иштирокчисидир.

13. Ўқитувчи педагогик мулоқот жараёнининг фаол иштирокчиси эканлигини унут-маслиги шарт. Шунинг учун касбий фаолиятида педагогик

маҳоратнинг бир қатор сифатла-рини узлуксиз таркиб топтириб бориши зарур.

14. Ўқитувчи, энг аввало, мулоҳазали, босиқ, ҳар қандай педагогик вазиятни туғри баҳолай оладиган ҳамда мустақил равишда мавжуд зиддиятларни бартараф этишнинг уд-дасидан чиқа олиши керак.”

Ўқитувчилик шарафли касб. Ҳамма ҳам ўқитувчи бўла олмайди. Бунинг учун кучли зеҳн, мустаҳкам ирода, сабр тоқат, юксак билим салоҳиятга эга бўлиш керак. Инсон били-мини, нутқини ривожлантириши учун кўп китоб ўқиши керак. Битта соҳада фикр билдириш учун энг камида битта китоб ўқиб чиққан бўлиши, ўша соҳада нутқ сўзлаши учун энг кам-да туртта китоб ўқиб чиққан бўлиши, бирор бир соҳада дарс бериши учун энг камида 100 та китоб ўқиб чиққан бўлиши керак.Бу бир мисол эди холос, оддий бир ўқитувчи бўлиш учун энг камида 100 та китоб ўқиган бўлиши керак, маҳоратли ўқитувчи даражасига етиш учун эса бундан 10 баробар кучли ҳаракат қилиши керак. Педагогик маҳорат ҳеч кимга тайёр ҳол-да берилмайди, яни ҳеч ким тўғилганидан маҳоратли бўлиб туғилмайди. Қобилиятга тўпланган билим, изланиш ва ҳаётий фаолият орқали эришилади.Уқитувчи уқувчиларга та-лим- тарбия бериш орқали уларни жамиятга тайёрлайди, яни бу орқали янги жамият аъзола-рининг ахлоқийлигини таъминлайди. Ўқитувчининг билимлари, кўникма ва малакага ай-ланиши натижасида маҳорат шакллана бошлайди.

Адабиётлар:

1. Ш.Мирзиёев”Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси”. Учинчи нашр.Тошкент: “ Ўзбекистон” нашриёти, 2022-йил.234-саҳифа.

2. ”Педагогик маҳорат “ ўқув қўлланма/ Г. О. Эрназарова, М. Ш. Исламова.- Тошкент: “ МАЛИК ПРИНТ СО” , 2021.

3. Педагогик маҳорат. Дарслик / А.А. Холиқов.Т.: “ ИҚТИСОД- МОЛИЯ”, 2011.

4. Раченко И. Р. Диагностика развития педагогического учителя – Пятегорск.196-саҳифа.1992-йил.

5.” Нозик иборалар” Абул – Косим аз-Замахшарий.Т.: “Камалак”, 16-саҳифа.1992-йил.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг ўқитувчилар ҳақидаги ғояларини педагогик асосда ўқув тарбиявий жараёнида амалга ошириши, шунингдек, ушбу муаммога оид олимларнинг фикрлари, хусусиятлари, воситалари илмий – назарий жиҳатдан ёритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье научно и теоретически освещается реализация идей Президента Ш.М.Мирзиёева о педагогах на педагогической основе в образовательном процессе, а также мнения, особенности и инструментарий ученых, связанных с этой проблемой.

SUMMARY

This article scientifically and theoretically covers the implementation of the ideas of President Sh.M. Mirziyoyev about teachers on a pedagogical basis in the educational process, as well as the opinions, features and tools of scientists related to this problem.

ТАЛАБАЛАРНИ ЭЛЕКТРОТЕХНИКАДАН ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИГА ТАЙЁРЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА КАСБИЙ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Норқулов У.Э.
Тошкент кимё технология институти Шахрисабз филиали

Таянч сўзлар: муҳандис, электротехника, касб, маданият, дидактика, тамойиллар, модел.

Ключевые слова: инженер, электротехника, профессия, культура, дидактика, принципы, модель.

Key words: engineer, electrical engineering, profession, culture, didactics, principles, model.

Замонавий муҳандис учун зарур бўлган фазилатлар фақат талабаларнинг мустақил таълим, ўйин ва коммуникатив фаолиятида тез ва самарали ривожланади. Ушбу сифалатларни шакллантириш воситалари ўқув, меҳнат, ўйин ва мулоқот фаолиятининг турли шакллари талабларига жавоб бериши, уларнинг турларини мураккаблаштириши ва талабанинг ижодий мустақиллиги даражасини ошириши керак. Муҳандиснинг зарурий дунёқараши ва сунъий эмас, балки тор мавзудаги муаммоларни ҳал қилишнинг ҳаракатчанлиги олий таълимда ўқишнинг бутун дастурини яхлит кўриш билан боғлиқ. Шу сабабли, янги модел доирасида имкониятларни эркин очиб бериш учун шароит яратишга, уларни рақобат шароитида шакллантиришга, тадбиркорлик, ташаббускорлик руҳини ривожлантиришга, имконият даражаси бўйича танлаш ва фарқлашга эътибор қаратиш лозим. Мутахассиснинг замонавий моделини яратиш учун мутахассиснинг касбий фаолиятининг муваффақиятини таъминлайдиган интеллектуал, касбий, маънавий ва шахсий сифатларининг эмпирик равишда аниқланган умумийлигини аниқлаштириш керак [1].

Шахсий сифатлар ва имкониятлар нафақат келгусдаги ишларнинг самарадорлигига, балки афзал кўрилган таълим йўлига ҳам таъсир қилади. Боғланишлар ва қонуниятларни ажратиб кўрсатиш учун шароит яратадиган алоҳида фанни ташкил қилишнинг айрим ўзига хос хусусиятларини эътиборга олган ҳолда, уларни кейинчалик ўтказиш ва шахсий хусусият-

лар ва эҳтиёжларга мослаштириш имкониятини эътиборга олган ҳолда, мазкур тадқиқот ишимизда моделда акс эттиришга мурожаат қилиб, фанлараро ўзаро алоқалар тизимини аниқлаш орқали умумлаштирилган фан муҳитининг муҳандис фаолияти, чунки айнан ушбу боғланишлар орқали шахсга йўналтирилган таълим муҳитини шакллантириш учун тармоқланиш амалга оширилади. Фанлараро алоқалар модели одатда интизомдан инти-зомга ўтиш схемаси сифатида тавсифланади. Масалан, «электротехника» курсини ўрганишни бошлаш учун физика, математика ва информатиканинг айрим бўлимлари бўйича билимлар талаб қилинади. Худди шундай, фандан фанга ўтиш даврида талабаларда маълум кўникмалар мавжудлигини эътиборга олиш мумкин. Ушбу ўтишлар зарур билим, малака ва кўникмалар блоки орқали амалга оширилади, бундай моделдан фойдаланиш нафақат ҳар бир фан бўйича ўқитиш самарадорлигини оширишга, балки мавзулар тўплами ва ҳажми бўйича алоҳида ўқув дастурини шакллантиришга ёрдам беради. Бундай алоҳида дастур имкониятларнинг дастла-бки рейтингига ва талабанинг тайёргарлик даражасига мувофиқ белгиланган ёки максимал ўрганиш тезлигини таъминлаши мумкин.

Маълумки, таълим стандартлари нафақат бугунги ишлаб чиқариш эҳтиёжларини акс эттириши, балки уни ривожлантириш истиқболларини ҳам ҳисобга олиши керак. Маълумки, охирги муаммони ҳал қилиш мутлақо мумкин эмас, аммо ўтишлардан бири келгусида мутахассисларини баҳолаш мезонларини ташкил этиш лозим. Батафсил моделларни ишлаб чиқмасдан, олий ўқув юртларида таълим жараёнини мақсадли равишда такомиллаштириш мумкин эмас. Тадқиқот ишимиз доирасида синтез ва таҳлил усулларидан, ўқитишнинг комбинацияланган усулларидан, махсус дастурий таъминотдан (ҳам таълим воситаси, ҳам чуқур назорат воситаси сифатида) фойдаланишда истиқболли ривожланиш йўналишларини тақдим этилади.

Мутахассислик моделини ишлаб чиқишда қуйидаги:

1. Ушбу мутахассислик муҳандислари томонидан ҳал қилинадиган асосий вазифалар рўйхатини тузиш (муҳандис фаолиятининг модели).

2. Фаолият модели (муҳандисларни тайёрлаш модели) асосида ёш мутахассислик учун зарур билимлар мажмуасини аниқлаш.

3. Мутахассислик учун зарур бўлган шахсий сифатларни аниқлаштириш (мутахассисликнинг шахсий касбий аҳамиятли сифатлари модели).

4. Саноат талаблари ва унинг кейинги йиллар учун ривожланиш башорати (мутахас-сисликни ривожлантириш истиқболлари модели) асосида ушбу мутахассислик бўйича ис-тиқболли ривожланиш йўналишларини

ўзлаштиришга тайёргарлик каби компонентлар ша-клида тақдим этилиши мумкин.

Фақат мутахассислик моделига, муҳандис фаолияти моделига, муҳандис кадрларнинг шахсий сифатлари моделига ва мутахассисликни ривожлантириш истиқболлари моделига мос келиш орқали касбий фаолият мазмунини ўқув мақсадлари учун етарли даражада ўтказиш таъминланади.

Талабанинг келгусидаги касбий тайёргарликлаи вазифаларини қондирадиган дастлабки шахсий хусусиятларига қўйиладиган талабларнинг тавсифи, тайёргарлик мақсади ва ўқитишнинг тегишли мазмуни билан биргаликда таълим жараёнида ҳал қилинадиган дидактик вазифани ташкил этади [2]. Замонавий муҳандисларнинг энг кенг тарқалган касбий сифатларини қуйидагилар: компетентлилик, масъулият, меҳнатсеварлик, мустақиллик, ташаббускорлик, мақсад эришиш ва бошқалар ташкил қилади. Мвзкур тадқиқот ишимизда аниқ қуйидаги: самарадорлик, талабчанлик, мулоқот, коллективизм, масъулият, қатъиятлилик, ҳаракат тезлиги, ижодкорлик каби касбий сифатларга мурожаат қилинади.

Ҳар бир дидактик вазифа ўзининг мақбул ечими учун қуйидаги: дидактик жараён, таълимнинг ташкилий шакллари, ўқитувчининг педагогик малакаси ва фойдаланиладиган ўқитишнинг техник воситалари каби элементлардан ташкил топган маълум бир замонавий таълим технологияларидан фойдаланишни талаб қилади. Шунинг билан бирга, таълим технологияси дидактик вазифани ўз вақтида ҳал қилишнинг босқичма босқич жараёнини намойиш этади. Дидактик вазифа сингари, замонавий таълим технологиялари ҳам амалий фаолиятдан олдин тавсифланиши керак.

Педагогик жараённи ташкил этиш технологияси доирасида касбий тайёргарликни моделлаштириш босқичида ўқитувчи дуч келадиган биринчи муаммо бу унинг мазмунини ташкил этишдир. Ўқув дастури ва талаба таълим мазмунининг лойиҳаси бўлиб, унинг асосида ўқитувчи ўз фаолиятининг мақсадлари ва шартларига мувофиқ талабаларга тақдим этиш учун нимани танлашни мустақил равишда ҳал қилади (В. А. Сластенин ва бошқ.) [3]. Касб-ҳунар таълими мазмунини танлаш ўқитиш мақсадига мувофиқ амалга оширилади. Касбий тайёргарлик мазмунини тавсифлашда мутахасисликка қўйиладиган талаблар ва умумий дидактик талабларни эътиборга олган ҳолда қуйидагилар: изчиллик, мавжудлик, илмий, намуна олинмайдиган аниқлик ва кўриниш, шунингдек усуллар, хусусиятлар, тамойиллар, қоидалар, хусусиятлар ва алгоритмлар аниқланади.

Электротехника машғулотларининг мазмуни электротехникага тегишли фанлари орқали амалга оширилади.

Алоҳида фанларнинг аҳамияти ҳақидаги ғояларни кўриб чиқиш мутахассис модели-нинг таркибий қисмлари асосида амалга оширилади. Мазкур тадқиқот ишимизда касбий ме-ханик муҳандислар, технологлар, қурувчилар ва бошқаларнинг зарур билимларини аниқлаш жиҳатларидан бирини ўрганади. Компетентлилик талабларини ташкил этиш учун электро-техника таълимидан тайёргарлигини амалга ошириш нуқтаи назаридан ва улар асосида - за-монавий муҳандисларни электротехника таълимига тайёрлаш бўйича ўқув дастурлари ишлаб чиқилади. Бундай маълумотлардан фойдаланишда юзага келадиган қийинчиликлар биринчи навбатда касбий билимларнинг тузилиши билан боғлиқ. Шу мақсадда гуруҳ сўрови тизими қўлланилди, унинг давомида муҳандисларнинг керакли билим, малака ва кўникмалари ҳақидаги ғоялари аввал «ишчи дастурларда», сўнгра курслар ва фанлар номларининг одатий атамаларида қайд этилади. Ушбу усул фаол гуруҳ муҳокамаси бўлиб, унда касбий вазифала-рнинг ўхшашликларини ҳал қилиш жараёнида зарур билим, малака ва кўникмалар аниқла-нади.

Юқорида қайд қилинган фикр мулоҳазаларни умумлаштириб, касбий вазифалар тизи-мини аниқладик, уларнинг ечими электротехника таълимидан касбий тайёргарликлари би-лан таъминланади. Электротехника таълимидан машғулотларини ташкил этиш мақсадлари, тамойиллари, функциялари, шунингдек уларга эришиш шакллари эътиборга олинади. Мвзкур тадқиқот касбий электротехника таълимининг асосий вазифалари қуйидагилардан:

– замонавий муҳандисларнинг касбий маданияти даражасини шакллантириш жараёнининг самарадорлигини таъминлайдиган шарт-шароитларни яратиш;
– рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш кабилардан иборат.

Электротехника таълмидан касбий тайёргарликни ташкил этишнинг асосий дидактик тамойиллари қуйидагилардан:

– замонавий муҳандиснинг касбий маданияти асосларини шаклллантириш ва ўқитиш мазмунини танлашда умумий ёндашувларни ишлаб чиқиш орқали амалга ошириладиган из-чиллик ва яхлитлик. Умумий ғоя курснинг барча мавзуларини бир бутунга боғлайди, шунинг билан бирга курснинг ҳар бир мавзуси турли нуқтаи назардан асосий ғояни мазмун билан тўлдиради, фан мавзусига тизимли яхлит қа-

рашни шакллантиради. Электр занжирла-ри ва электр машиналари бўлимларида бу қувват баланси ғояси ҳисобланади;

– тайёргарликнинг муайян мазмуни ва усулларидан фойдаланиш орқали амалга оши-риладиган касбий йўналиш. Муҳандислик фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини акс эти-рувчи касбий электротехника таълимида касбий тайёргарликларининг шартларидан иборат. «Электротехника» курсини ўрганиш доирасида ушбу фан муаммоларини талабаларнинг келгусидаги фаолиятига касбий йўналтиришда, уларнинг касбий фаолияти билан боғлиқ мавзуларни муккамал ўрганиш орқали ифодаланади. Вазифалар, лаборатория ва амалий машғулотлар мавзулари, ҳисоблаш график ишлари ва курс лойиҳаларини танлаш амалга оширилади;
– талабаларнинг ўқув ва когнитив фаолиятини ташкил этишнинг фандаги билиш жараёнига мувофиқлиги орқали амалга ошириладиган даврийлик орқали амалга оширилади;
– замонавий муҳандисларнинг касбий маданиятини шакллантириш жараёнининг узлуксизлиги ва изчиллигини таъминлаш орқали амалга ошириладиган узлуксизлик ва изчилиги, мослашувчан ва ижодий даражага қадар, турли хил ташкилий шаклларнинг комбинацияси билан таъминланади;
– мустақил ишни фаоллаштириш орқали амалга ошириладиган мустақиллик ва ўзи ўзини тушунишдир. Мустақил иш учун тмазмунни танлашга табақалаштирилган ёндашув орқали талаба шахсини ўзини ўзи тушуниши учун шароитлар яратилади;
– вазифаларни ҳал қилиш сифатига шаклланган касбий маданият даражасининг таъсирини таъминлайдиган кўп функциялилик. Касбий маданиятнинг маълум даражасини шакллантириш нафақат касбий муаммоларни ҳал қилиш кўникмасиига, балки замонавий муҳандис кадрларнинг касбий сифатлариларига, унинг умумий маданиятига ҳам таъсир қилади;
– электротехника таълими техник воситалари тизими орқали амалга ошириладиган кўриниш. Замонавий муҳандис кадрларнинг электротехника таълими бўйича касбий тайёр-гарликларини амалга оширишда кўриниш муҳим аҳамиятга эга. Махсус лаборатория ускуна-лари, стендлар, моделлар, моделлар ва маърузалар, лаборатория ва амалий ишлар учун ишла-тилади. Бундан ташқари, кафедра ходимлари томонидан лаборатория жиҳозлари таркибини доимий равишда давр талабларига мувофиқ равишда янгиланиб боради.

Касбий маданиятни шакллантириш жараёнининг самарадорлиги замонавий муҳандис кадрларнинг ўқув ва когнитив фаолиятини фаоллаштиришни таъминлайдиган дидактик шароитларга боғлиқ. Буларни қуйидагилар:

– касбий электр тайёргарлигини ташкил этишда тизимли яхлит ёндашувни амалга ошириш;
– мақсадли созламаларни амалга оширишга қаратилган таркибни танлаш, ўқитиш шакллари ва усулларини бирлаштириш, шаклланган касбий маданиятнинг маълум даражасига эришиш;
– таълим жараёни учун махсус ўқув методик таъминотни ишлаб чиқиш;
– махсус моддий техник таъминотни ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш (лаборатория ускуналари, стендлар, асбоблар ва бошқалар.) кабилар ташкил қилади.

Ўқитишнинг асосий функциялари қуйидагилар: таълимни, ривожлантирувчи, мослашувчан ҳисобланади. Замонавий муҳандисларнинг электротехника таълимидан касбий тайёргарлигини амалга оширишда мвзкур тадқиқот ишимизда асосан ўқитиш технологиясидан фойдаланамиз, шунинг билан бирга таълимнинг таълим функциялари ҳақида унутмаймиз. Тайёргарлик жараёнида талабаларга нафақат зарур билим, малака ва кўникмалар берилади, балки уларнинг интеллектуал даражаси ошади, умумий ва касбий маданияти шаклланади.

Таълим жараёнини қуйидагилар: кундузги, сиртқи, масофавий ташкил этиш шакллари ҳисобланади. Таълим жараёнини ташкил этиш шаклларини қуйидагилар: маърузалар, амалий ва лаборатория машғулотлари, мустақил иш кабилар ташкил қилади.

Ўқитишнинг асосий усуллари бўлиб, экспериментал ҳамда ривожлантирувчи таълим усуллари ҳисобланади.

Замонавий муҳандисларнинг касбий маданиятини шакллантириш қуйидаги: адаптив, репродуктив, эвристик, ижодий каби даражалардан иборат.

Электротехника таълимидан касбий тайёргарликларини амалга ошириш таълим ва ахборот касбий йўналтирилган муҳит шароитида амалга оширилади. Мвзкур тадқиқот ишимизда касбий тайёргарликларнинг зарур сифатларини самарали шакллантириш ва ривожлантириш мумкин бўлган муҳитни яратиш ҳақида гапирилади.

Талабаларнинг ўқув ва когнитив фаолиятини рағбатлантириш бўлажак муҳандис кадрлар фаолиятининг ижодий тамойилларини шаклланти-

ришда муҳим аҳамиятга эга. Ўқитиш мотивацияси махсус ташкил этилган ўқув фаолияти натижасида шаклланиши мумкин.

Бўлажак муҳандисларнинг касбий маданияти даражаси унинг машғулот пайтидаги фаолияти даражасига боғлиқ. Замонавий муҳандисларни тайёрлашнинг асосий вазифаларидан бири бу талабанинг билим, малака ва ижодий кўникмаларини аниқлаш ва ривожлантиришга имкон берадиган ўқитишнинг ахборот туридан машғулотларга ўтиш ҳисобланади.

Шундай қилиб, замонавий муҳандис кадрларнинг касбий фаолияти турлари ва мазмунини таҳлил қилиш ва уни ўқитиш учун ижтимоий буюртма асосида мвзкур тадқиқот ишимизда замонавий муҳандис кадрларнинг электротехника таълимидан касбий тайёргарликларини ташкил этиш модели яратилди. Мазкур модел концептуал даражага (мутахассисликларни ўзлаштириш мантиғи), технологик (ўқув стратегиясини эътиборга олган ҳолда) ва методик (таълим жараёнини ташкил этишнинг таркибий таркиби ва ўзига хос хусусиятлари) эга.

Адабиётлар:

1. Байчоров К.У. Образовательные стандарты как основа разработки новых технологий под-готовки специалиста: Дис... д.-ра пед. наук: 13.00.08/К.У. Байчоров.- СПб.,1998.

2. Беспалько В. П. Системно - методическое обеспечение учебно¬воспитательного процесса подготовки специалистов: Учеб. - метод, пособие. В. П. Беспалько, Ю. Г. Татур.- М.: Высш, шк., 1989.- 144с.

3. Сластенин В.А. Педагогика: Учеб, пособие для студентов пед. Заведений 3-е изд /В.А. Сласте-нин, И.Ф. Исаев, А.И. Мищенко, Е.Н. Шиянов.-М.: Шко¬ла-Пресс, 2000.- 512с.

РЕЗЮМЕ

Замонавий муҳандисларнинг касбий маданиятини шакллантириш адаптив, репродуктив, эвристик ва ижодий даражалардан иборат, мақолада шу ҳақида фикр юритилган.

РЕЗЮМЕ

Формирование профессиональной культуры современных инженеров состоит из таких уровней, как адаптивный, репродуктивный, эвристический и творческий в статье речь идет об этом.

SUMMARY

The formation of the professional culture of modern engineers consists of such levels as adaptive, reproductive, heuristic and creative. This is what the article is about.

AKSIOLOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARDA MILLIY G‘URUR VA IFTIXOR TUYG‘ULARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SHAKL, METOD VA USULLARI

Ashurov M.Sh.
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dekan o‘rinbosari

Tayanch so‘zlar: aksiologiya, qadriyatlar, ma’naviyat va ma’rifat, tarbiya, ijtimoiy-madaniy, milliy musiqa.

Ключевые слова: аксиология, ценности, духовность и просвещение, воспитание, социо-культурность, национальная музыка.

Key words: axiology, values, spirituality and enlightenment, upbringing, socioculturality, nation-al music.

Mamlakatimizda ta’lim sohasidagi islohotlarda yetuk shaxsni tarbiyalash masalasiga katta e’tibor berilmoqda. Sog’lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma’naviy-axloqiy va jismonan yetuk, milliy udum va qadriyatlarimizga sadoqatli yoshlarni voyaga yetkazish, ularni amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning faol va jonkuyar ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ulg’ayib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash xususida so’z yuritilar ekan ta’lim-tarbiya jarayonini aksiologik yondashuv asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Aksiologiya (yunoncha «axia» - qimmat, qadr va «logos» - ta’limot) qadriyatlar haqidagi soha [4]. Bugungi kunda umuminsoniy tamoyillar asosida yoshlarni tarbiyalash yangicha yondashish shakllanib jamiyat a’zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e’tibor ko’rsatilayotganligi mazkur soha rivojining muhim maqsadlardan biridir. Qadriyatlar kelajak avlodni tarbiyalashning ma’naviy omillaridan biri sifatida qadrlanishi borasidagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugun xalqaro munosabatlar tizimida o’z o’rniga, o’z so’ziga ega bo’lgan, demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish, xalqaro hamjamiyatga tobora ko’proq integrasiyalashish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo’lidan borayotgan O’zbekiston uchun globallashuv jarayonining qator ijobiy xususiyatlari mavjudligini inkor etib bo’lmaydi, lekin mazkur jarayonning salbiy xususiyatlari ham borligiga, ayniqsa, jahonda kuchlar nisbatini qayta ko’rib chiqishga bo’lgan urinishlar tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda stixiyali rivojlanib borayotgan globallashuv jarayoni uning tashabbuskorlari va homiylari

qo'lida taqqoslab bo'lmaydigan kuchli qurol vazifasini bajarayotganligiga ham e'tiborsizlik bilan qarab bo'lmaydi.

Globallashuv (globalizasiya) - lotincha "glob" so'zidan olingan bo'lib, aynan uni "dumaloqlashuv", "kurralashuv", deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, Yer kurrasining fan-texnika yutuqtari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi. Katta "sakkizlik" mamlakatlari rahbarlarining 1999 yil yozida Germaniyaning Kyoln shahrida bo'lib o'tgan uchrashuvi Yakuniy kommyunikesining ikkinchi bandi ayniqsa katta ahamiyatga ega. Unda globallashuv jarayoniga rasmiy ta'rif berilgan [3]. Glaballashuv-bu Yer shariga, sayyoraga tegishli bo'lmoq, jahon ahamiyatiga molik bo'lmoqdir. Ayni chog'da mafkuraviy jarayonlar shu mavqyeda turibdi. Butun dunyoni qamrab olgan, insoniyatning bugungi va kelajagiga xavf soluvchi, yechimini topishda barcha davlatlar va xalqlarning hamjihatlik bilan birgalikda harakatini talab qiluvchi muammolarga global muammolar deb ataladi. Hozirda 10 ta global muammo bor:

1. Tinchlik va qurolsizlanish, 2. Ekologik, 3. Demografik, 4. Energetik, 5. Xomashyo, 6. Oziq-ovqat muammosi, 7. Dunyo okeanlaridan foydalanish 8. Koinotdan tinch maqsadlarda foydalanish 9. Rivojlanayotgan davlatlarni qoloqlikdan chiqarish muammosi 10. Mafkuraviy muammo.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi — g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integrasiyalashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizasiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integrasiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron – bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod

ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis – yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g’oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganidir. Mafkuraviy globallashuv saviyasi past audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ’ib qiladigan “san’at asarlari”ning ham keng tarqalishiga sabab bo’lmoqda. G’oyaviy-mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o’zining g’oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini ta’minlaydigan chora-tadbirlarni ko’rishi zarur bo’lib qolmoqda. Ana shunday tadbirlar izchil amalga oshirilganda Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi g’oyaviy qarashlardagi muayyan farqlardan qat’i nazar, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik g’oyalariga sodiqlikning kamol topishiga sharoit yaratadi, umuminsoniy sivilizasiya taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O’zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat” [1]. Mamlakatimiz o’z mustaqilligini qo’lga kiritgandan so’ng erkin fikrlaydigan, o’z-o’zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustivor yo’nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma’naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqoza etadi. “Har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma’naviyati bilan qudratlidir”

“Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta’siri bo’lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o’rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur [2]. Yoshlarni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalash, buning uchun boy tariximiz va ma’naviyatimizni yaxshi o’rgatish, bu yo’nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni ken-gaytirish muhimligi ta’kidlangan.

Ma’naviyat ko’p qirrali tushunchadir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko’zga tashlanuvchi zoxiriy va yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab oladi. Ma’naviyat o’zi nima?, degan savolga aniq va lo’nda javob topish qiyin. Unga har xil, ba’zan esa bir-biriga qarama qarshi, noaniq sayoz javob va fikrlar bildirilgan. “Ma’naviyat” tushunchasiva uning tamoyillariga o’ziga xos izoh va ta’riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma’naviyat” tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g’oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o’zida to’la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidir. Aslida ma’naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha

mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo’la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko’rmaymiz. Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag’ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo’lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir. Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo’lganligi uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

A.Erkayevning fikricha, ‘Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir’[5].

M.Imomnazarov dastlab “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur…’, -deb yozgan bo‘lsa, keyinchalik “Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi”, -deb yozadi [6].

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan ya’ni bilim bilan uyg’un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg’unligiga erisha olsakkina yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo’lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Bu haqda Abu Hamid Muhammad G’azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar «Ilm bo’lgach, amalga hojat yo’q qablida fikr qiladilar. Bunday fikrlar ilmning o’zi bilan kifoyalanib, shariatni inkor etuvchilar e’tiqodi bo’lib, ular uchun ilm hosil bo’lsayu, amal bo’lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo’qligini bilishmaydi. Holbuki o’qib o’rgangan ilmga amal qilmagan kishining qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir» [3]. Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan, ma’naviy barkamol, komil zotlar o’zlarida ma’navyat va ma’rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo’lganlar. Ular ma’naviyat va ma’rifat chiroqlarini mash’ala singari yoqqanlar.

Yuksak ma’naviyat va ma’rifat tufayli To’ron zamini yer yuzida shuhrat qozongan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo’li mana shu yo’l bundan boshqa yo’l yo’q. Ma’naviyat va ma’rifat xalqimizning, millatimizning, Vatanimizning porloq kelajagi uchun suv va havodek zarur. Ma’naviyat va ma’rifatning o’zaro birligi, uyg’unligi, ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlarimizni birga olib borish taraqqiyotimiz taqazosi. Ularni bir-biridan ajralgan holda, boshqa-boshqa olib borib bo’lmaydi. Zero, ta’lim va tarbiya ishini uyg’un holda olib borishni talab etadi”, chunki “... inson qalbiga yo’l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo’ja Behbudiy

o’tgan asrning boshidayoq “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo’lur”, degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shuurini uyg’otishga da’vat etgani bejiz emas... Bu so’zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlanmoqda”. Ma’naviyat va ma’rifat, uni egallash masalasiga yondashuvga hadislarda aytilgan “Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unitmang” degan mazmundagi naqlini hyech qachon esdan chiqarmasligimiz zarur. Chunki tarix va hayot tajribasi dunyoviy va diniy qadriyatlar, ilm ma’rifat doimo bir-birini to’ldirib, boyitib kelganligi shu asosda kishilar ma’naviy kamolot cho’qqilariga erishganligidan dalolat beradi.

Ma’naviy va ma’rifiy qashshoqlik bilan hech bir millat, u yashayotgan mamlakat hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy – siyosiy taraqqiyotning yuksak cho’qqilariga erisha olmaydi. Har bir elat va millatning o’ziga xos uning milliy Ruhiyati yashash tarzi tarixiy an’analari va fikrlash qobiliyatlari tabiatining ifodalaydigan ma’naviyati mavjud. Ma’naviyatning milliyligi masalasi tabiiyki uning tarixan shakllanganligi milliy mazmun koloritga egaligidir. O’zbek xalqi milliy ma’naviyatini xarakterlaydigan o’ziga xosligini ko’rsatadigan hususiyatlar quyidagilar; Yuksak insonparvarlik bag’rikenglik mehmondo’stlik hamma millat va elat vakillariga izzat hurmat ko’rsatish kattalarga izzat-ikrom mulohazalilik sharm hayolilik hamdardlik mahalladoshlik bolajonlik xalollik va hokazolar. Bularni yanada umumlashtiradigan bo’lsak ma’naviyatning xilma-xil jihat qirralari shaklda namoyon bo’ladi hayo va andisha vafo va sadoqat o’ktamlik va hokisorlik bosiqlik va fahm farosat va zakovat balog’at va fasohat mardonalik va mas’uliyatlilik va boshqalar. Ma’naviyat milliy ong ijtimoiy ong mafkura milliy madaniyat e’tiqod imon milliy g’urur iftixor kabi tushunchalar bilan yaqin turadi. O’zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy g’urur va iftixor tuyg’usini “Bizning qadimiy va go’zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo’lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizasiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog’liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko’tarilishida ona yurtimizda tug’ilib kamolga yetgan ulug’ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g’urur va iftixor bag’ishlaydi.” deb ta’riflaydilar.

Bizga ma’lumki, XIX asr oxirlariga kelib o’zbek musiqiy madaniyatida o’zgarishlar davri hisoblangan. Turkiston o’lkasini Russiya tomonidan istilo qilinishi milliy musiqa madaniyatimizga salbiy ta’sirini etgan bo’lsa ikkinchi tomoni, o’ziga xos rivojlanish davri bo’lganligini ham ta’kidlash kerak. Nota yozuvining kirib kelishi, o’lkamizda milliy musiqa san’atimizni ilmiy ravishda o’rganish, folklor va milliy maqom san’at turining rivojlanishida katta ta’sir etdi.

Bu davrda musiqada maqomlar rivojlanishi uchun o'ziga xos davr bo'ldi. Maqom Sharq xalklarinnng musiqa merosida juda katta o'rin tutadi. Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katga tarixiy, ilmiy va amaliy aqamiyatga zga bo'lgan masalalardan biri bo'lib qoldi IX - XIX asr Sharq musiqa madaniyatiga oid tari xiy-nazariy asarlar va tarixiy-adabiy xarakterdagi manbalariing ko'plarida maqomlar masalasiga aloqida axamiyat berilgan.

Markaziy Osiyo musiqa yo'nalishida chinakam uyg'onish davrini boshdan kechirganligi, sozandalik va xonandalik, musiqa ilmi hamda bastakorlik kamol topganligi haqida ko'plab manbalar mavjud. Ularda ta'kidlanishicha, XVII-XVIII asrlarga kelib, Shahrisabzda buxorolik va samarqandlik san'at ustalari hamkorligida "Shashmaqom" taronalariga raqsga tushadigan raqqoslar hamda sozandalar guruhlari tuzilgan.

Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy singari musiqamiz darg'alari ulardan saboq oldilar. Bundan tashqari, jahon musiqiy madaniyatining durdonalari sanalmish fortopiano sozi, opera va balet, simfonik ijro, jahon klassik musiqiy sozlarining kirib kelishi musiqiy madaniyatimizning rivojiga hissa qo'shdi. O'rta asrlarda yaratilgan mumtoz ijod maxsuli «O'n ikki maqom»dek muhtasham tizim, uning negizida shakllanib bizgacha yetib kelgan Buxoro va Xorazm maqom turkumlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari, an'anaviy ijrochilik va surnay yo'llari, xalq bastakorlik ijodkorligi, musiqiy dostonchilik san'ati musiqiy yo'nalishlar uchun alohida maktablar yaratildi [7] .Tarixiy manbalarning tahlili o'tgan davrda folklorshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar miqyosi, albatta, tahsinga loyiq. Xususan, dostonchilik, uni o'rganish, targ'ib etish bobida erishilgan yutuqlar milliy o'zlikni anglash, tariximizni chuqur bilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kabi ezgu ishlarda qo'l keldi. Millat o'z qahramonlarini chinakamiga taniy boshladi…O'zbek xalq og'zaki ijodiga qaysi miqyosdan qaramaylik, muhtashamligi, savlat-salobati bilan ajralib turadi. Tabiiyki, bu shu xalqning farzandi sifatida har birimizda g'urur-iftixor tuyg'ularini uyg'otadi. Ammo har sohada bo'layotgani kabi globallashuv jarayonining achchiq mevasi - madaniyatlar to'qnashuvi folklorshunoslikda ham ayrim muammolarni keltiradi. Asrlar narikim, xalq og'zaki ijodi baxshi-shoirlar, ertakchilar, qo'shiqchilar, askiyachilar ijrosida sayqal topib, o'z tinglovchilariga juda katta ruhiy-ma'naviy quvvat berib kelgan. Janrlar nuqtai nazaridan rang-barang hamda baxshilarimizning ijodiy salohiyati va badiiy mahorati nuqtai nazaridan hayratlanarli darajada go'zal bir badiiy silsila hisoblanadi. Globallashuv jarayonining bir qator ijobiy va salbiy xususiyatlari dunyodagi barcha xalqlarning, chunonchi, o'zbek xalqining turmush tarzida, madaniyatida ham namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda folklor asarlarini to'plash, nashr etish va ilmiy o'rganish borasida hozirga qadar bajarilgan ilmiy-ijodiy tajribalarni umumlashtirgan holda o'zbek folklori durdonalarining yaxlit badiiy tizim sifatidagi mukammal nashr etildi. Doston, ertak, afsona va rivoyatlarimiz

turkiy xalqlarning folklor merosi bilan qiyosiy jihatdan o'rganilayapti. Ana shu qiyosiy-tipologik tadqiqotlar asnosida ko'plab qadimiy epik syujetlarning kelib chiqish tarixi, arxaik qatlamiga mansub mifologik ildizlari mavjud.

Talabalarning ma'naviyatini rivojlantirish davlatimizning bosh siyosatiga aylangan. "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" [1], - deyb ta'kidlagan Sh.Mirziyoyev.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi - xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usining qaror topishiga yordam beradi. Shu bois, xalq an'analari, urf-odatlari, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni talabalar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir // Xalq so'zi 2021 yil 20 yanvar.

2. Sh.Mirziyoyev ma'naviyatni yuksaltirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. 19 Yanvar 2021.

3. https://kitobxon.com/uz/kitob/yuksak-manaviyat-engilmas-kuch

4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. To'ldirilgan uchinchi nashri. – T.: Sharq, 2006. 70-71 betlar

5. Erkayev. A. O'zbekiston yo'li. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2017. 312-bet.

6. Imomnazarov. M. Ma'naviyatning rivojlanish tarixi (Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma) Toshkent – 2008.263 bet .

7. M.Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jild. 2021.Toshkent. Akademnashr. 312-b

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada xalqimizning asrlar davomida yaratgan oltin xazinasi milliy urf-odat va an'analari, Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni ma'naviy-axloqiy va jismonan yetuk, milliy udum va qadriyatlarimizga sadoqatli yoshlarni voyaga yetkazish, ularni amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning faol va jonkuyar ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan zamonaviy shaxsning rivojlanishida o'z ichiga olgan xalq donoligining qimmatli barcha boyliklaridan foydalanish metodik ko'rsatmalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье будет представлена сокровищница многовековых традиций и обычаев нашего народа, ценных ценностей народной мудрости, содержащихся в развитии современной личности, направленных на воспитание здорового и гармоничного поколения, воспитание духовно-нравственно и физически зрелой молодежи, приверженности национальному духу и ценностям, превращение ее в активного и активного участника проводимых масштабных реформ. даны методические указания по использованию их богатств.

SUMMARY

This article will present a treasure trove of centuries-old traditions and customs of our people, valuable values of folk wisdom contained in the development of a modern personality, aimed at educating a healthy and harmonious generation, educating spiritually, morally and physically mature youth, com-mitment to the national spirit and values, turning it into an active and active participant in the ongoing large-scale reforms. methodical instructions on the use of their wealth are given.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI RAHBARLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Yusupaliyeva D.Q.
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasi dotsenti t.f.n.

Tayanch so'zlar: rahbar, menejer, boshqaruv, menejment, fazilat, diplomat, boshqaruvchi.
Ключевые слова: лидер, менеджер, менеджмент, менеджмент, качество, дипломат, администратор.
Key words: leader, manager, management, management, quality, diplomat, administrator.

Mustaqillik o'zbek xalqi va davlatchiligi tarixida tamomila yangi davrni boshlab berdi. Mamlakat hayotida boshlangan bu davr o'z mazmun-mohiyati bilan davlat boshqaruvida ham zamon talabiga javob bera oluvchi rahbar kadrlar bo'lishini taqozo etadi. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati ildizini mustahkamlash uchun demokratik mezon talablariga javob beradigan rahbar kadrlarni shakllantirish bugungi kunning muhim talabidir. "Rahbar degani kuzatuvchi emas, avvalambor, barcha ishlarga bosh-qosh bo'ladigan, mas'uliyat va javobgarlikni o'ziga oladigan, og'ir paytda boshqalarga namuna bo'ladigan, tashkilotchi, kerak bo'lsa, odamlarni o'z ortidan ergashtirishga qodir, kuch-qudrati va irodasi baquvvat inson bo'lishi shart".

Boshqarish uchun rahbardan katta bilim va tajriba, tashkilotchilik salohiyati, eng muhimi, ko'p millatli bu vohada odamlar til topishib ishlay olishi talab qilinadi.

Menejer – bu maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrorlari, qonun-qoidalarini puxta egallagan malakali mutaxassisdir. Menejer bu yo'llanma boshqaruvchi bo'lib, alohida ijtimoiy qatlamga mansub bo'ladi.[1]

Kompaniya, firma, korxona, bank, moliya muassasalarining ijroiya hokimiyatiga ega bo'lgan boshqaruvchi, direktor, rahbar, mudir, ma'muriy boshqaruvchilar menejerlar deb yuritiladi.

Menejerlar boshqaruv pog'onasiga binoan uch toifaga bo'linadi:

- Yuqori pog'ona menejerlari.
- O'rta pog'ona menejerlari.
- Quyi pog'ona menejerlari.[2]

Yuqori pog‘ona menejerlari firma istiqbolini belgilash, uning kelajagi uchun ahamiyatli cho-ra-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi. Bir so‘z bilan aytganda firma rejasini ishlab chiqadi va uni amalga oshiradi.

O‘rta pog‘ona menejerlari firma faoliyatining ayrim tomonlarini, chunonchi, ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, narx belgilash, moliya faoliyati, yangi tovarlarni o‘zlashtirish, texnologi-yani qo‘llash, mehnatni tashkil etish kabilarni boshqarish bilan shug‘ullanadi.

Quyi pog‘onali menejerlar quyi bo‘g‘inda, masalan, tsex, bo‘lim, brigada doirasida ishni tashkil etish, kunlik, haftalik, oylik ish topshiriqlarining bajarilishini boshqarib boradi.

To‘g‘ri, korxonani boshqarish bevosita mulk egasining vazifasi deyishimiz mumkin. Ammo boshqarish uchun mulk egasi bo‘lish shart emas. Shu xususdan orkestrni boshqaruvchi direjyor mu-siqa asboblarining egasi bo‘lmasa ham o‘z ishini qilaverishi o‘rinli. Boshqarish vazifasini korxona egasining o‘zi yoki yollangan, ammo mulkdor nomidan ish qiluvchi menejer bajaradi.

Iqtisodiy aloqalar murakkablashgan sari menejer xizmatiga talab oshadi, o‘z ishining ustasi bo‘lgan maxsus ijtimoiy toifa-menejerlar toifasi paydo bo‘ldiki, uning alohida ijtimoiy maqomi bor. Menejer g‘oyat murakkab, o‘ta mas’uliyatli ish bilan shug‘ullanishi, firmaning hayot-mamotiga javobgar bo‘lganligi uchun ham yollanib ishlovchilar orasida eng katta xizmat haqi oladi.

Boshqaruv funktsiyalarini bajarishda va jamoat ishlab chiqarishida zamonaviy menejer:

- rahbar-boshqaruvchi;
- rahbar-diplomat;
- rahbar-murabbiy, tarbiyachi;
- rahbar-inson;
- rahbar-tadbirkor;
- rahbar-innovator sifatida maydonga chiqadi.

Har bir menejer o‘ziga xos boshqaruv uslubiga ega. Uslub - bu ishlash, boshqarishdagi o‘ziga xos yo‘l, usul ma’nosini anglatadi. Shu nuqtai nazardan quyidagi tushunchalarni ajrata bilish lozim:

- boshqaruv uslubi;
- ish uslubi;
- rahbarning ish uslubi.[3]

Boshqaruv uslubi – bu boshqaruv jarayonida yuzaga chiqadigan muammolarni hal qilish usul-lari, yo‘llari majmuidir.

Ish uslubi - bu boshqaruv funktsiyalarini samarali bajarish maqsadida biror-bir organning yoki rahbarning bo‘ysinuvchilarga aniq va nisbatan barqaror ta’sir ko‘rsatish usuli va yo‘llari majmuidir. Masalan:

– mamlakat boshqaruv organlarining ish uslubi;
– vazirlik, qo‘mita, hokimlarning ish uslubi;
– sud, prokuraturaning ish uslubi;
– korxona, tsexlarning ish uslubi;
– ayrim rahbarlarning ish uslubi va hk. Boshqaruvning turli pog‘ona va bosqichlarida turgan boshqaruv organlari va rahbarlarning ish uslublari har xildir. Shu nuqtai nazardan ish uslubi g‘oyat ko‘p qirrali tushunchadir.

Rahbarning ish uslubi - bu boshqaruv jarayonida u yoki bu masalani hal qilishda uning o‘ziga xos yondoshishidir. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil etganda va qo‘l ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. Biroq, har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayonida o‘zi uchun mos bo‘lgan, o‘z rahbarlik uslubini belgilaydigan usullar bilan harakat qiladi. Mutlaqo bir xil ikki kishi bo‘lmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yo‘q. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo‘l ostidagilari bilan aloqasida, ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi.

Uslub boshqaruv organining intellektual salohiyati, sifatlari, uning individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Qayd etilgan rahbarlik uslublari sof holda uchramaydi. hayotda har bir rahbarning ish uslubi har xil bo‘ladi, lekin yuqoridagi uch uslubdan biri yaqqolroq sezilib turadi. Turli xil ishlab chiqarish vaziyatlarida har xil xodimga nisbatan rahbarlikining ijobiy tomonlaridan foydalanish kerak. Rahbar haqiqiy ahvolga qarab ish tutishi va bo‘ysinuvchilarning o‘ziga xos shaxsiy xislatlarini hisobga olib muomala qilishi kerak.

Rahbar inson qanday hislatlarga ega bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida ko‘plab allomalarimiz xususan shonli tariximizda buyuk davlatchilikka asos solgan sohibqiron Amir Temur o‘z “Tuzuklar”ida: “Tajribamda ko‘rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat‘iy, tadbirkor va xushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. Chunki tajribali bir kishi ming kishiga ish buyuradi”, deb yozgan edi. Gippokrat esa rahbar haqida quyidagi fikrlarni bildirgan.

“Fazilat – bu ijobiy xislat, yaxshi sifat yoki xususiyatdir. Kishilarda fazilatlarning turlicha bo‘lishi hamda har xil xulq-atvorlar insonning badanida aylanib yuradigan suyuq moddalarga ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligi tajribada kuzatilgan.”

Qadimgi tibbiyotning yirik namoyandasi Gippokratning inson badanida qon asosiy o‘rinni ishg‘ol etsa, bunday odam harakatchan, yengil bo‘ladi, taassurotlarning almashinishiga tez ko‘nikib keta qoladi, o‘z atrofida sodir bo‘layotgan voqealarga darhol va ishtiyoq bilan aralashadi, degan fikri bejiz emas. Mana shu xil kishilarni Gippokrat sangviniklar (xushchaqchaq kishilar) deb atagan. Bu lotincha «sangvinis», ya’ni «qon» degan so‘zdan kelib chiqqan.

- Sangviniklar tuyg‘u (jo‘shqin) xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular: yangi kishilar bilan tez til topishadigan;
- bir ish turidan ikkinchi ish turiga tezda ko‘nikadigan;
- bir turda bajariladigan ishlarni yoqtirmaydigan;
- yangi sharoitga osonlik bilan o‘rganadigan;
- xushchaqchaq;
- harakatlari shiddatli;
- nutqi tez;
- kelajakka ishonch bilan qaraydigan;
- so‘zini aniq va ma’noli qilib, imo-ishoralar bilan gapiradigan kishilardir.

Sangviniklar ish jarayonida kechgan ko‘ngilsiz hodisalarni tezda unutadilar. Ular o‘z kuchi hamda qobiliyatlariga ortiqcha baho berish xususiyatiga ega bo‘ladilar.

Rahbarlar sangviniklarning ishini salbiy baholashdan ko‘ra ularga nisbatan qattiqqo‘l va talab-chan bo‘lsalar, ijobiy natijaga erishishlari mumkin.

Sangviniklar yuqori lavozimga intiladigan kishilar bo‘ladi.

Agar kishida shilliq hukmron o‘rin tutsa, unday kishilar og‘ir, tepsa tebranmas, kayfiyatlari va intilishlari ancha barqaror, voqealar va hayot taassurotlariga loqayd qaraydigan bo‘ladilar. Bunday xil kishilar flegmatiklar deb atalgan. Qadimgi shilliqni «flegma» deyishgan.

Flegmatiklar:

- ta’sirchanligi sust bo‘ladi;
- bir turdagi ishdan ikkinchi turdagi ishga sekinlik bilan ko‘chadilar;
- faolliklari kam;
- yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadilar;
- harakatlari va nutqlari sust;
- ko‘ngilsiz hodisa yuz berganda osoyishtaliklarini buzmaydilar;
- sabr-toqatli, chidamli bo‘lib, so‘zlaganda xotirjam, o‘zga shaxslar bilan hayajon-lanmay gaplashadilar.

Flegmatiklar chidamliligi, matonati, o‘zini tuta bilishi bilan ajralib turadi.

Gippokratning fikricha, agar kishida za’faron safro ustun tursa, bunday kishi tezkor, qat’iy, harakatchan bo‘ladi. Bu toifa kishilarni Gippokrat xoleriklar (qoni qiziq kishilar) deb atagan. Qa-dimgi yunonlar safroni «xoley» deyishgan.

Xoleriklar - ko‘tarinki ruhda ishlay oladigan, qarshiliklarni yenga oladigan kishilar bo‘lib, ularning ishlash zavqi kayfiyatining buzilishi bilanoq tez o‘zgarishi mumkin. Ular serjahl, o‘zini yaxshi ko‘radigan, tez gapiradigan odamlar bo‘lib, boshqalardan gapining ohangi o‘zgaruvchanligi bilan ajralib turadi. Xoleriklarning vazminlik darajasi xuddi sangviniklarnikidek bo‘ladi. Rahbar va boshqa kishilarga nisbatan o‘zini to‘g‘ri tutadi.

Nihoyat, Gippokrat yana bir tur kishilarni ajratadiki, bundaylarning ahvoli, ruhiyati bir xilda turmaydi. Ular yomon kayfiyatga ko‘proq moyil bo‘ladilar, arzir-arzimas narsalardan qattiq kuyunaveradilar. Bunday kishilarni ulug‘ shifokor melanxoliklar deb atagan. Qadimgi yunonlarda «melanxolik» so‘zi «qora safro» degan ma’noni birdirgan.

Melanxoliklar:

- o‘ta ta’sirlanuvchi xususiyatga ega;
- tez toliqadigan va o‘ziga ishonmaydigan;
- tashvishsiz, lekin juda sezuvchan;
- nihoyatda arazchan;
- juda oz kuladigan;
- faolligi sust, tortinchoq, kamg‘ayrat;
- arzimagan sabablarga ko‘zidan yosh oqib ketaveradigan;
- yangi xodimlar bilan qiyinchilik bilan til topishadigan kishilardir.

Melanxoliklar qulay sharoitda oldiga qo‘yilgan masalalarni muvaffaqiyatli bajaradi. Agar ishda sharoit, ya’ni vaziyat o‘zgarsa, qiyinchilik tug‘ilsa, ular o‘zlarini olib turishadi.

Rahbar madaniyati quyidagilardan iboratdir:

Rahbar bir qator talablarga javob berishi kerak. “Rahbarlik qilish” degan so‘zga izohli lug‘atlarda boshqarish, maslahat berish, kuzatish, yo‘naltirish, ko‘rsatma berish degan turli ma’lumotlar berilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, hozirgi davrda menejer (rahbar)lar qondirishi zarur bo‘lgan talablar juda ko‘pdir. Ularni quyidagi beshta yirik guruhga bo‘lish mumkin.

Rahbarga qo‘yiladigan talablar [4]

Talablar	Izoh
Ma’naviy yetuklik	• siyosiy yetuklik; • huquqiy yetuklik; • axloqiy yetuklik; • yuqori saviya va ong; • ma’rifatchilik; • madaniyatlilik; • xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qodirlik; topshirilgan ish uchun shaxsiy javobgarlikni his qilish, halollik, vijdonlilik; • shaxsiy manfaatlarni jamoa manfaatlariga bo‘ysundirishga qodirlik; • kishilarga nisbatan mehribon va e’tiborli bo‘lish; tashabbus va ilg‘orlikni qo‘llab-quvvatlash qobiliyati; printsipiallik; tanqidga chidamli bo‘lish, o‘z-o‘zini tanqid qila bilish.
Intizom va mehnatga bo‘lgan munosabat	• mehnatsevarlik; • jamoa o‘rtasida intizomni yo‘lga qo‘ya bilish; • atrofdagilarga mehnatsevarlikni tarbiyalay bilish; Bir noshud rahbarning beg‘amligi yuzlab, minglab kishilar taqdirining bedaxl qirralariga ta’sir etishi mumkin. Boqibeg‘am bu toifa rahbarlarning ish uslubi bilan murosa qilib bo‘lmaydi.
Bilim darajasi	• iqtisodiyotni bilish; • texnika va texnologiyani bilish; • boshqarish ilmini, funktsiya va strukturasini bilish; istiqbolni bilishga qodirligi va hk. Rahbar aniq, chuqur va keng bilimga ega bo‘lishi, uni doimo to‘ldirib va yangilab borish kerak. Aks holda u obro‘ qozona olmaydi, xodimlarning ishonchiga sazovor bo‘la olmaydi.

Tashkilot chilik qobiliyati	• xodimlarni tanlay bilish va ulardan samarali foydalanishni ta’minlay olish; • qo‘l ostidagilarni mehnatga o‘rgatish va tarbiyalashni bilish; jipslashgan jamoani vujudga keltira olish; maqsad sari intiluvchanlik; • kutilmagan vaziyatlarda boshqarish qobiliyatini yo‘qotmaslik. “Yomon korxona yoki tashkilot yo‘q, lekin yomon rahbarlar bor”. Bu ibora shuni bildiradiki, yomon ishlab turgan korxonaga jamoani yaxshi boshqaradigan, tashkilotchilik qobiliyati yuqori, mehnatsevar, talabchan, bilimdon rahbar qo‘yilsa, u korxonani tezda yaxshi korxona safiga qo‘shadi. Agar ishlab turgan korxonaga tasodifan tashkilotchilik qobiliyati past rahbar kelib qolsa, u korxona asta-sekin tanazzulga yuz tutadi.
Boshqarish samarador ligini ta’minlay olish	• boshqarishni kollegial tarzda tashkil qila olish qobiliyati; • ish haqida qisqa va aniq gapirish qobiliyati; • ishga oid xat, buyruq, farmoyishlar yoza bilish turli manbaalardan ish uchun zarur axborotlarni olish qobiliyati; • rahbarlarni va qo‘l ostidagilarni tinglay bilish qobiliyati; • asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish qobiliyati; • rejalarni bajarishdan xodimlarning moddiy va ma’naviy manfaatdorligini ta’minlash qobiliyati; • boshqaruv organi qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta’minlay bilish; • boshqarish strukturasini takomillashtirib borish qobiliyati va hk.

Rahbarning sifat xislatlarini belgilovchi mezonlar ko‘p. Biroq quyidagi ijobiy xislatlar ular orasida alohida mavqega ega:

Dovyuraklik – bunday rahbarda mardonavorlik, botirlik, dadillik mavjud bo‘ladi. Ular omadsizlikdan qo‘rqmaydi. Qo‘rquv ularni jasoratga chorlaydi va zafarlarga olib keladi. Har bir yangi harakatni taraqqiyotga va hayotiy tajribalarga erishtiradi.

Sabrlilik – bunday rahbar muvaffaqiyatga birdaniga erishish mumkin emasligini yaxshi tushunadi. Unga faqat bardosh va sabr-toqatli bo‘lib, sabot-matonat bilan qiyinchiliklarni yengish orqali erishish mumkinligini biladi.

Yaxshi niyalitlik – bunday rahbar xayrixoh va iltifotli bo‘ladi, kishilarga nisbatan doimo yaxshi niyatda bo‘ladi. O‘zidagi qanoatsizlikni g‘irrom raqobatchilik yo‘li bilan emas, balki xayrixohlik yo‘li bilan bartaraf qilishga harakat qiladi. Uning hayotidagi shiori hasad emas, balki: “Birni ko‘rib shukr qil, birni ko‘rib fikr qil” – degan shiordir.

Sog‘lom shubhalilik – bunday rahbar ko‘pincha “har narsada shubhada bo‘l” degan shiorga amal qilsa-da, biroq nosog‘lom shubha – bu xoin, u kishilarni urinib ko‘rishdan qo‘rqitib, erishishlari mumkin bo‘lgan narsalardan mahrum etilishini yaxshi biladi. Shu bilan bir qatorda ular o‘z kuchiga ishonish, unga sog‘lom shubha bilan qarash ishchan mas’uliyatli qarorlarni qabul qilishga chorlashini, ularni bajarish yo‘lida kishi kuchiga kuch qo‘shishni yaxshi tushunishadi.

Kamtarinlik – bunday rahbar kamtarlikning deyarli har doim iste’dodga to‘g‘ri mutanosib ekanligini, kamtarlikni yetishmasligi esa nodonlikning darakchisi ekanligini yaxshi tushunadi.

Samimiy xushmuomalalik – bunday rahbar sofdil, ochiq ko‘ngil bo‘ladi, chin yurakdan gapiradi. Qo‘l ostidagilarga sadoqat bilan ixlos qo‘yib xizmat qiladi. Ular samimiylikning og‘ir va juda nozik masala, u aql va chuqur ma’naviy odobni talab etishini, shuningdek, kimki o‘zgalar bilan nosamimiy munosabatda bo‘lishga odatlangan ekan, u pirovard natijada o‘z-o‘ziga ham samimiy bo‘laolmay qolishini yaxshi tushunishadi.

Rahmdillik – bunday rahbar barchaga rahm-shafqatli bo‘ladi. Ular boshqalarni ko‘p narsada kechirishadi, ammo o‘zlarini esa hech narsada kechirishmaydi. Ular rahm-shavqat insonlarning eng oliy fazilatlaridan biri ekanligini, rahm-shavqatli kishi doimo odamlarga yordam qo‘lini cho‘zishini, ojiz va notavon kishilardan xabar olib turish lozimligini yaxshi tushunadilar.

Xushxulqlilik – bunday rahbar inson go‘zalligining asosi uning chiroyli xulqida ekanligini, aynan xushxulqlik insonni ulug‘likka olib borishini, yoqimli xulq egasidan barcha katta-kichik xursand bo‘lishini, bunday xulq egasiga boshqalarni xursand qilishdan tashqari, o‘zi ham doimo xursand yurishini, boshqalardan esa o‘ziga muhabbat va muloyimlik qaytishini yaxshi tushunadi.

Qanoatlilik – bunday rahbar qanoatsizlikdan keladigan ofatlarni, ya’ni nafs balosi, hasad, xudbinlik, baxillik, tamagirlik kabilarni yaxshi anglaydi. Ular nafs balosi odamni har kuyga solishini, nafsini tiygan hurmat-izzat topishini va bexavotir yashashini, qanoatni esa izzatning asosi, o‘lmaydigan boqiy xazina, qurimaydigan daraxt, zavol topmaydigan mulk ekanligini yaxshi tushunishadi.

Obro‘ – bu hamma tomonidan tan olingan hamda mehnat evaziga orttirilgan, rahbar uchun zarur ishonch va qalqondir. Ayni paytda har bir rahbar o‘zidan yuqori turuvchi rahbarlar oldida ham, o‘ziga bo‘ysinuvchi xodimlar oldida ham, o‘zi bilan huquqi teng boshqa rahbarlar oldida ham obro‘ga ega bo‘lishi lozim.

Rahbar yuqorida keltirilgan talablarga rioya qilmas ekan u o‘z rahbarlik usulida salbiy hodisalarga yo‘l qo‘yishi, pirovardida esa o‘z obro‘yini ketkazishi va el nazaridan qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

“Hech bir rahbarga to‘liq o‘xshashga harakat qilmang. Siz uning “ikkinchi nusxasi” bo‘lolmaysiz. Siz undan va o‘zgalardan eng yaxshi sifatlarni oling va ulardan ham komil bo‘lishga intiling.

Haqiqatdan ham ko‘pgina yosh rahbarlar o‘zlari eshitgan, ko‘rgan yoki amaliyot davri va endi ish faoliyatini boshlagan paytda shogird bo‘lgan, tajribali, obro‘li rahbarlarning ish uslubiga moslashib, shu holatga tayanib qolishadi. Biz bunday tizmli ish uslublaridan bosqichma - bosqich voz kechishimiz lozim. Gap shundaki sarflangan kuch, energiya va mehnatga qaramay ilgarigi muhit, natijalar takrorlanib qolinishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan yosh rahbarlar ham o‘z o‘rnida ko‘p yillik, o‘z ishining ustasi bo‘lgan rahbarlarning ish rivoji uchun unumli xususiyatlarini o‘zlashtirishlari hamda o‘zlarining ham kreativ va yangicha fikrlari asosida mehnat qilishlari kerak.

Yosh rahbarlarga xos ijtimoiy – psixologik xususiyatlardan muhim jihat shundan iboratki, avvalo rahbar o‘z shaxsidan, hayotidan, faoliyatidan qoniqqanlik darajasiga ega bo‘lishi shart. Bunday tarzdagi ijtimoiy – psixologik qoniqqanlik darajasi uni yuqori ko‘tarinki kayfiyat, optimizm ruhida qarorlar qabul qilishiga, jamoda sog‘lom muhitni shakllantira olishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Rahbarning kreativ fikrlashi, motivatsiyani oshirishga ta’sir qiluvchi qarorlar qabul qilishi o‘z navbatida qo‘l ostidagi xodimlarining qarashlaridagi va faoliyatidagi yangilanishlarni yuzaga keltiradi. Jamoadagi har bir xodimning individual psixologik xususiyatlarini bilishi, ta’sir etish yo‘llarini topishi rahbar faoliyatining muvaffaqqiyatini ta’minlaydi.

Yosh rahbarlar mehnat faoliyatining samarali va o‘zi rahbarlik qilayotgan muassasa yoki jamoa uchun ham yaxshi ma’noda manfaatli bo‘lishi uning psixologik qarashlari va ta’siriga ham bog‘liq bo‘ladi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, rahbar xodimlarining harakteri, kayfiyati hamda mehnat unumdorligiga qarab rag‘batlantirishi, ruhlantirishi mumkin. Bunday jarayon jamoaviy va yakka holatda bo‘ladi. Rahbarlar yangiliklarni qabul qilishi va izlanuvchan bo‘lishlari ham talab etiladi.

Islohotlarimiz samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash lozim.

Albatta, rahbarlar tomonidan qabul qilingan har qaysi qaror o‘zining amaliy ijrosi bilan manfaatlidir. Shunday ekan jamiyat a’zolari yoki fuqarolar bu islohotlarning samarasini ko‘ra olishi va ulardan foydalana olishlari kerak. Har qancha bilimli, tajribali rahbar bo‘lmasin qabul qilingan qaror va buyruqlar ijrosini taminlay olmas, ularni jamiyatga tadbiq qila olmas ekan, ularning qog‘ozlarda yoki arxivlarda qolishiga zamin yaratgan bo‘ladilar.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning nafaqat yosh rahbarlar balki barcha rahbarlar uchun ish faoliyati mundarijasi bo‘ladigan “Xalqimiz azaldan yuksak qadrlab

keladigan, hamma narsadan ustun qo‘yadigan adolat tuyg‘usini yanada keng qaror toptirishni biz birinchi darajali vazifa deb hisoblaymiz”, – deydi.

Darhaqiqat, har bir rahbarlarning o‘z mehnat faoliyatida adolat me’zonlariga amal qilishlari ham farz, ham qarzdir. Shuningdek, bilim, ko‘nikma, tajriba, o‘ziga bo‘lgan ishonch va har bir vazifaga vijdonan yondashish talab etiladi. Bu talablarga ma’suliyat bilan javob bera olgan har qaysi yosh rahbarlargina Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadilar.[5]

“Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqazosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohatlarimizning yaqqol ifodasidir.

Yosh rahbarlarda eng murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishda maxsus trening darslaridan foydalanish va malaka oshirish kurslarida o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Kasbiy mahoratini oshirish yo‘lidagi asosiy omil nafaqat kasbga oid mutaxassisliklar, balki rahbarlik mahoratini oshirishga ham tegishlidir. Misol uchun, “General Electric” kompaniyasi inson resurslarini rivojlantirish uchun sarflangan har bir dollar ustiga ustama 3 dollar foyda olar ekan. Ushbu rivojlantirish dasturidagi asosiy e’tibor, yangi texnologiyani o‘zlashtirish va maqsadga intilish yo‘lida samarali faoliyat yuritish uslubini o‘rganishga qaratiladi. Shunday ekan yosh rahbarlarni tashkilotda statusi va mavqeini oshirish, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish samarali yangicha uslublarni o‘rganishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda. Shu maqsadda yosh rahbarlarining malakasini oshirish zarur. Ularni aynan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga 4 oylik “Zamonaviy boshqaruv” va “Boshqaruv mahorati”, “Kreativ boshqaruv”, “Siyosiy madaniyat” kabi malaka oshirish kurslarida o‘qitish lozim. Bundan ko‘zlangan maqsad yosh rahbarlarning rahbarlik mahorati oshadi, xodimlariga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi, muammoli vaziyatlardan oson chiqib ketish yo‘llarini o‘rganadi. Sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ishlash texnikasini oshiradi, bugun bilan hamnafas bo‘lish kerakligini va xodimlariga o‘rnak bo‘lish ko‘nikmalarini egallaydi. Shuningdek, seminar-treninglar mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lgan va qaror qabul qila oladigan yoshlarni tarbiyalash, ularda mantiqiy fikrlash va mohirona munozara olib borish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda davlat xizmatida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish qadriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Hech bir rahbarga to‘liq o‘xshashga harakat qilmang, siz uning “ikkinchi nusxa”si bo‘la olmaysiz. Siz undan va o‘zgalardan eng yaxshi sifatlarni oling va ulardan ham komil bo‘lishga intiling. Yangilikka chanqoq bo‘ling,

rahbarlik faoliyatingizda yangi uslub, texnalogiya, yondashish, loyihalar muallifi bo‘ling va shu bilan birga mutaxassislar maslahatini oling.

Xulosa qilib aytganda Yangi O‘zbekistonning Uchinchi Renessansni amalga oshirishda yanada jadal qadam qo‘yish, biz kabi yoshlarning zamonaviy texnologiyalarni, tezkor va samarali qaror qabul qilishni bilishimiz hamda liderlik qobiliyatini o‘stirish uchun jamoa a’zolari bilan ko‘proq muloqotga kirishishimiz lozimdir. Biz kabi yoshlar ota-onamizning, Vatanimizning, Prezidentimizning qolaversa butun xalqimizning ishonchini to‘laqonli oqlaymiz, albatta.”[6]

Adabiyotlar:

1. T.Abdurashidov. Menejer fazilatlari. O’quv qo’llanma/ Toshkent : “ABU MATBUOT -KONSALT”, 2008. 128 b

2. N.K.Yo’ldoshev, G.E. Zaxidov. Menejment [Matn]. Darslik/-Toshkent: “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. – 392 b

3. SH.Razzoqov. Rahbarlik san’ati. – Toshkent :Lesson press, 2017. 120 b

4. N.Boymurodov. Rahbar psixologiyasi. – Toshkent : Yangi asr avlodi, 2016. – 132 b

5. Mardiyev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Xolmo‘minov Zokir O‘g‘Li Mo‘minmirzo. «YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSH RAHBARLARGA QO ‘YILADIGAN TALABLAR.» Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 243-247.

6. Axmatov, Otabek Murod O‘G‘Li, and Xolmo‘minov Zokir O‘g‘Li Mo‘minmirzo. «YANGI O ‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSH RAHBAR KADRLARNING O ‘RNI.» Oriental Art and Culture 3.2 (2022): 395-399.

7. Xolmo‘minov, Mo‘minmirzo. «RAHBARNING ISH USLUBIDA IMIJNING O ‘RNI.» Educational Research in Universal Sciences 2.2 (2023): 156-160.

8. Mardiyev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. «Boshqaruvda rahbar qiyofasi va uning axloqi.» Oriental Art and Culture 4.1 (2023): 391-397.

9. Mardiyev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. «Rahbar axloqi va adolatli boshqaruvni tashkil etish muammolari.» Oriental Art and Culture 4.1 (2023): 276-282.

10. Mardiev, Shahbozxon Abdusamad O‘G‘Li, and Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li Xolmo‘minov. «Rahbarlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ijrosini ta’minlash.» Oriental Art and Culture 4.1 (2023): 509-514.

11. Xayriddinova, Asal Farhod Qizi, and Mo‘Minmirzo Zokir O‘G‘Li. «Bugunning zamonaviy rahbari.» Oriental Art and Culture 3.4 (2022): 184-188.

12. Xolmo‘minov, Mo‘minmirzo Zokir O‘g‘Li. «Madaniyat bo ‘lim mudirlarining ish faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari.» Oriental Art and Culture 3.3 (2022): 95-101.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada rahbar, menejer tushunchalari, yuqori, o‘rta quyi pog‘onali menejerlar haqida, madaniyat va san’at sohasi rahbariga qo‘yiladigan talablar, rahbarning fazilatlari, rahbar ish uslubi kabilar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассмотрены понятия лидера, менеджера, менеджеров высшего и среднего звена, требования к лидеру культуры и искусства, лидерские качества, стиль работы руководителя и др.

SUMMARY

This article discusses the concepts of leader, manager, top and middle managers, requirements for a leader of culture and art, leadership qualities, manager’s work style, etc.

AL-HAKIM AT-TERMIZIY PEDAGOGIK QARASHLARIDAN OLIY TA'LIM TIZIMIDA FOYDALANISH MUAMMOSINING YORITILISHI

Erdanova Z.O.
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: pedagogika, oliy, ta'lim, tizim, muammo, Al-Hakim at-Termiziy, shart, sharoit.

Ключевые слова: педагогика, высшее, образование, система, проблема, Аль-Хаким ат-Тирмизи, состояние, условия.

Key words: pedagogy, higher, education, system, problem, Al-Hakim al-Tirmizi, condition, condition.

Kirish. Jahonda ajdodlar ma'naviy merosi inson kamoloti va zamonaviy bilimlarning nazariy asosi sifatida e'tirof etilmoqda. Sharq ma'naviyati negizida shakllangan tasavvufiy meros insonparvarlik, bag'rikenglik, ruhiy-ma'naviy uyg'unlik g'oyalari bilan inson qadrini ulug'lash, ma'naviy makon, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, hozirgi mafkuraviy tahdidlar keskin tus olgan davrda ajdodlarimizning, xususan al-Hakim at-Termiziy ilmiy-ma'naviy merosidagi ezgu g'oya va qarashlarni keng jamoatchilikka targ'ib etish, o'sib kelayotgan yosh avlodning sog'lom dunyoqarashini yuksaltirish, ularni umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashda allomaning insonparvar maqsadlarga yo'naltirilgan qarashlari orqali yechim topish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fanida, xususan yetakchi ilmiy markazlar, tadqiqot institutlarida Sharq mutafakkirlari ilmiy, falsafiy merosining qiyosiy tahlili asosida ma'rifatli zamonaviy shaxsni tarbiyalash, inson borlig'i, axloqiy poklik, hayotning ma'nosini anglash, ma'naviy kamolotga erishish, ilm va hunarga ega bo'lish, insonni ezgu faoliyatga yo'naltirishga oid qator fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan Hakim Termiziyning inson kamolotiga oid tasavvufiy-falsafiy qarashlarida ilgari surilgan ilm, ma'rifatga oid g'oyalarining insonparvar maqsadlarga asoslanganligini falsafiy-tarixiy tadqiq etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Tahlil va natijalar. Ta`lim ijtimoiy taraqqiyot va insoniyat taraqqiyotining o‘zagi hisoblanadi. U jamiyatlarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘sishi uchun zarur bo‘lgan barqaror rivojlanishning asosiy ustunlaridan biri sifatida global miqyosda e`tirof etilgan. Oliy ta`limda pedagogik yondashuvlar talabalarning ta`lim natijalari va muvaffaqiyatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. 10-asrda yashagan islomshunos olim Al- Hakim at-Termiziy ham diniy, ham dunyoviy ta`limga moslashtirilgan va tatbiq etilgan pedagogik qarashlar tizimini ishlab chiqdi. Uning nazariyalari tanqidiy fikrlash va mustaqil ta`limga urg`u beradi, bu esa uni zamonaviy pedagoglar uchun qimmatli ilhom manbaiga aylantirgan. Biroq uning pedagogik qarashlaridan bugungi oliy ta`lim tizimida unumli foydalanish uchun ma`lum shartlarni bajarish zarur.

Ushbu ishimiz shartlarni ko‘rib chiqadi va uning g`oyalarini zamonaviy pedagogik yondashuvga kiritishning mumkin bo‘lgan afzalliklarini o‘rganadi.

Al-Hakim at-Termiziy 10-asrning taniqli islom olimi bo‘lib, ilohiyot va fiqh sohalariga katta hissa qo‘shgan. U hozirgi O‘zbekistonning Termiz shahrida tavallud topgan bo‘lib, o‘sha davrning eng yaxshi olimlari, jumladan, mashhur fors ilohiyot olimi al-Ashariydan ta`lim olgan. At-Termiziy arab tili grammatikasini puxta egallaganligi va she`riyat mahorati bilan ham mashhur. U mohir ustoz va obro‘li olim bo‘lib, uning pedagogik qarashlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning yondashuvi bilim ishlab chiqariladigan kontekstni tushunish muhimligini ta`kidladi va u o‘z talabalarida tanqidiy fikrlash va mustaqil izlanishni rag`batlantirishga katta e`tibor berdi.

Al-Hakim at-Termiziy o‘zining pedagogik qarashlarida o‘qituvchi va shogird o‘rtasidagi samarali muloqot zarurligini ta`kidlagan. U o‘qituvchi o‘quvchilarga interaktiv munosabatda bo‘lishi va ularni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishga undashi kerak, deb hisobladi. At-Termiziy fikricha, o‘qituvchi faqat mazmunga e`tibor qaratmasdan, o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llashi kerak.

U o‘qituvchilar o‘quvchilarning individual farqlari va o‘ziga xos ehtiyojlarini bilishlari va o‘qitish usullarini shunga mos ravishda moslashtirishlari kerakligini ta`kidladi. Bundan tashqari, at-Termiziy o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni rivojlantiruvchi, qulay o‘rganish tajribasini ta`minlaydigan muhit yaratish muhimligini ta`kidladi. Shuningdek, u o‘qitish va o‘rganishda texnologiyadan foydalanish faollikni oshiradi va shuning uchun o‘rganish natijalarini yaxshilaydi, deb hisobladi. Bu qarashlar o‘qituvchilar uchun o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga yordam beradigan ta`lim dasturlarini ishlab chiqish va taqdim etishda e`tiborga olishlari muhim.

Oliy ta`lim sohasida al-Hakim at-Termiziy fikrlarini hisobga olish juda muhim. Uning pedagogik usullari o‘quvchilarga faol ravishda ruxsat berilgan talabalarga

qaratilgan muhitni yaratishga qaratilgan o‘quv jarayoniga jalb qilish. Bugungi tez sur`atda va doimiy rivojlanayotgan dunyoda talabalar sinfdan tashqari muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.

At-Termiziyning hayotiy vaziyatlardan foydalanish va tajriba asosida o‘rganish haqidagi qarashlari nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi. Bundan tashqari, uning xarakter tarbiyasining muhimligiga urg`u berish akademik yutuqlardan tashqarida bo‘lgan yaxlit ta`limga bo‘lgan hozirgi talabga mos keladi. At-Termiziy uslublarini oliy ta`limda qo‘llash nafaqat ilmiy jihatdan, balki bugungi kundagi kadrlar uchun zarur bo‘lgan shaxslararo munosabatlar va axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lgan har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, At- Termiziyning fikrlarini ko‘rib chiqish oliy ta`limni inqilob qilish va talabalarni shaxsiy va kasbiy hayotlarida muvaffaqiyatga tayyorlashda muhim qadam bo‘lishi mumkin.

Shuni alohida ta`kidlash joizki, Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlari oliy ta`lim tizimida qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘lsada, ularning ta`sirchanligini ta`minlash uchun ma`lum shartlarga rioya qilish zarur. Bunday shartlardan biri tanqidiy fikrlash va ochiq muhokamani qadrlaydigan qo‘llab-quvvatlovchi o‘quv muhitiga bo‘lgan ehtiyojdir.

Talabalar o‘zlariga taqdim etilayotgan material bilan shug`ullanishga va ularga e`tiroz bildirishga undashlari, kelishmovchiliklar va bahs-munozaralar uchun joy bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘zlari o‘qiyotgan mavzuni chuqur tushunishlari, shuningdek, o‘z o‘qitish usullarini o‘quvchilarning ehtiyojlari va o‘rganish uslublariga moslashtirishga tayyor bo‘lishlari kerak. Shuningdek, o‘qituvchilar uchun sinfda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday potentsial madaniy yoki lingvistik to‘siqlarni tan olishi va bartaraf etishi barcha o‘quvchilarning o‘qitilayotgan materialdan teng foydalanishini ta`minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu shartlarni bajarish orqali Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlaridan foydalanish oliy ta`lim sifatini ancha oshirish imkoniyatiga ega.

Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlarini oliy o‘quv yurtlarida to‘g`ri qo‘llash uchun ular amalga oshirilayotgan madaniy sharoitni ham hisobga olish kerak. Termiziyning qarashlari islom an`analari va ta`limotlari asosida shakllangan bo‘lib, ular dunyoviy ta`lim muassasasining e`tiqod va qadriyatlariga mutlaqo mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, barcha o‘quvchilarning e`tiqodlari va istiqbollarini hurmat qilgan holda, bu g`oyalarni turli xil va ko‘p madaniyatli sinflarga qanday qilib qo‘shish mumkinligini diqqat bilan ko‘rib chiqish muhimdir.

Qolaversa, Termiziy g`oyalari asosan diniy bilim va qadriyatlarni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, ular barcha fan sohalariga taalluqli bo‘lmasligi mumkin.

Agar uning g`oyalari kengroq ta`lim kontekstida qo‘llanilishi kerak bo‘lsa, ular o‘qitilayotgan muayyan mavzuga moslashtirilishi kerak. Pirovardida, oliy o‘quv yurtlarida Termiziy pedagogik qarashlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish har bir alohida sinfning o‘ziga xos konteksti va ehtiyojlarini hisobga olgan holda chuqur o‘ylangan va nozik yondashuvni talab qiladi.

Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlarini zamonaviy oliy ta`lim tizimida chinakam anglash va hayotga tatbiq etish uchun avvalo, uning ta`limoti rivojlangan madaniy-tarixiy sharoitni chuqur anglash kerak. At-Termiziy islomning oltin asrida, turli sohalarda, jumladan, ta`lim sohasida sezilarli yutuqlarga erishgan olim edi. Islom ulamolari ta`lim-tarbiya, xususan, ustozning o‘rni va o‘qituvchi va shogird o‘rtasidagi munosabatga e`tiqod qilganlar. At-Termiziyning pedagogik qarashlari ana shu madaniy-tarixiy sharoit asosida shakllangan bo‘lib, unda ilm yetkazish va ezgulikni tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan.

Qolaversa, uning ta`limoti islom dunyoqarashiga asoslangan bo‘lib, diniy va dunyoviy bilimlar o‘rtasidagi birlik va muvozanat muhimligini ta`kidlagan. Ushbu madaniy va tarixiy kontekstni tushunish At-Termiziyning pedagogikaga qo‘shgan hissalarining ahamiyatini tushunish va ularning zamonaviy oliy ta`limdagi ahamiyatini anglash uchun zarurdir.

At-Termiziy qarashlarining zamonaviy ta`limdagi dolzarbligini baholash uning g`oyalarini hozirgi ta`lim amaliyoti nuqtai nazaridan tanqidiy tekshirishni taqozo etadi. Uning ba`zi ta`limotlari saqlanib qolishi mumkin tegishli bo‘lsa, boshqalar zamonaviy nazorat ostida turmasligi mumkin. Masalan, kitoblar kam bo‘lgan davrda uning yod olishga urg`u bergani o‘rinli bo‘lgan bo‘lishi mumkin, ammo axborotga to‘yingan bugungi dunyoda eslab o‘rganish unchalik qadrlanmaydi.

Xuddi shunday, uning gender haqidagi qarashlari tenglik va inklyuziya haqidagi zamonaviy tushunchalarga zid bo‘lishi mumkin. Biroq uning xulq va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish borasidagi ijobiy yondashuvi zamonaviy ta`limga qo‘shgan qimmatli hissasi bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, uning individuallashtirilgan ta`lim va tanqidiy fikrlashga bo‘lgan e`tibori zamonaviy pedagogik tendentsiyalarga mos keladi.

Shu bois at-Termiziyning fikrlarini tanqidsiz qabul qilmaslik kerak, ammo ularni diqqat bilan baholash va zamonaviy ta`lim maqsadlari va qadriyatlariga mos keladigan joyda tatbiq etish zarur.

Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlarini oliy ta`lim tizimida qo‘llashda muhim ahamiyatga ega.

At-Termiziy yondashuvi shaxsiylashtirilgan ta`limni qo‘llab-quvvatladi, bunda o‘qituvchi o‘qitish uslubini talabaning imkoniyatlari va o‘rganish uslubiga moslashtiradi. Biroq, zamonaviy davrda o‘quvchilarning xilma-xilligi ortib,

inklyuziv ta`limga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Shu sababli, At-Termiziy fikrlarini samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar o‘qitish usullarini turli xil o‘rganish ehtiyojlariga ega bo‘lgan talabalarni, masalan, vizual, eshitish yoki kinestetik o‘quvchilarni moslashtirishi kerak.

Bundan tashqari, dunyo raqamlashtirishga intilayotgani sababli, o‘quv jarayoniga texnologiyani kiritish zaruriyati tug`iladi. O‘qituvchilar o‘rganishni yaxshilash uchun At-Termiziyning shaxsiy yondashuvini onlayn munozara forumlari, multimedia taqdimotlari va onlayn viktorinalar kabi innovatsion o‘qitish vositalari bilan birlashtirishi kerak. Shu bois, At-Termiziyning pedagogik qarashlarini o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtirib, o‘qituvchilar barcha o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan inklyuziv va samarali ta`lim muhitini yaratishi mumkin.

Termiziyshunoslikka ixtisoslashgan olimlar bilan hamkorlik qilish al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlarini mustahkam tushunish uchun qimmatli manba bo‘ladi. Qolaversa, bunday olimlar bilan birga ishlash o‘qituvchilarga Termiziy ijodi bo‘yicha chuqur izlanishlar natijasida olingan ko‘plab tushunchalarga ega bo‘lish imkonini beradi.

Termiziy mutaxassislari bilan hamkorlik qilish orqali pedagoglar uning ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishlari va islom tarixining kengroq rivoyatlari doirasida uning g`oyalarini kontekstuallashtirishlari mumkin edi. Olimlarning tajribalari Termiziyning pedagogik amaliyotini, jumladan, o‘quv mashg`ulotlarida qo‘llagan turli uslublarini tushunishda asosiy boylik bo‘ladi.

Bundan tashqari, hamkorlik o‘qituvchilarga Termiziy g`oyalari va pedagogik amaliyotlari bilan islom an`analari doirasidagi boshqa samarali pedagoglarning g`oyalari o‘rtasida taqqoslash imkonini beradi. Mohiyatan, hamkorlik o‘qituvchilarga Termiziy g`oyalari haqidagi tushunchalarini boyitish, bu sohadagi mutaxassislarning stipendiyalaridan foydalanish va islom pedagogikasi sohasida salmoqli yutuqlarga erishish imkonini beradi.

Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlarining oliy ta`lim tizimiga tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan asosiy jihatlaridan biri uning talabalarning individual ta`lim uslublarini tushunishga urg`u berishidir. Uning o‘qitishda moslashtirish va individuallashtirish muhimligiga bo‘lgan ishonchi, ayniqsa, ko‘pincha turli xil talabalar populyatsiyasidan iborat bo‘lgan zamonaviy sinf xonalari uchun dolzarbdir.

Har bir talabaning o‘ziga xos kuchli va zaif tomonlarini hisobga olgan holda, o‘qituvchilar individual o‘quvchilarning ehtiyojlariga ko‘proq mos keladigan o‘quv tajribalarini loyihalashlari mumkin. Bundan tashqari, At-Termiziyning pedagogikaga bo‘lgan yondashuvi darsda shunchaki eslab qolishga emas, balki tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish muhimligini ta`kidlaydi. Bunday

yondashuv, ayniqsa, oliy ta`lim muassasalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, talabalarda mustaqil fikrlash va murakkab ma`lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish talab etiladi. O‘qituvchilar At-Termiziyning pedagogik qarashlarini o‘quv dasturlari va o‘qitish usullarini loyihalashda qo‘shish orqali o‘quvchilarga akademik va kasbiy faoliyati davomida qimmatli bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam berishi mumkin.

Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlarini oliy ta`lim tizimiga kiritishning asosiy afzalliklaridan biri bu talabalarning faolligi va motivatsiyasini oshirishdir. ni ta`kidlab o‘qituvchi va talaba munosabatlari, Termiziy yondashuvi talabalar ishtiroki va motivatsiyasini kuchaytiradigan ijobiy ta`lim muhitini yaratishga ustuvor ahamiyat beradi. Bundan tashqari, uning talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga urg`u berishi ularga murakkab mavzular va tushunchalarni tahlil qilish va baholashga qodir bo‘lgan faolroq o‘quvchilar bo‘lishga yordam beradi.

Bu materialni chuqurroq tushunish va saqlashga, shuningdek, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini yaxshilashga olib kelishi mumkin. Qolaversa, Termiziyning yondashuvi o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qadrlaydi, har bir talaba o‘ziga xos qobiliyat, qobiliyat va qiyinchiliklarga ega ekanligini tan oladi va o‘qitish usullarini ularning individual ehtiyojlariga moslashtirish o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga yordam beradi.

Tirmiziyning pedagogik qarashlarini hayotga tatbiq etish orqali oliy ta`lim muassasalari talabalar salohiyatini maksimal darajada oshiradigan yanada inklyuziv va samarali ta`lim muhitini yaratishi mumkin.

Talabalarning oliy ta`limdagi faolligi va motivatsiyasini oshirishning bir yo‘li faol ta`lim strategiyalarini o‘z ichiga oladi.

Faol ta`lim deganda o‘quvchilarni kichik guruhlarda muhokama qilish, muammolarni hal qilish va amaliy loyihalar kabi mashg`ulotlarga jalb qilish orqali o‘quv jarayonida ishtirok etishni talab qiladigan o‘qitish usullari tushuniladi. Bu strategiyalar o‘quvchilarga o‘rganganlarini amalda qo‘llash va turli tushunchalar o‘rtasida aloqa o‘rnatish imkonini beradi. Bundan tashqari, texnologiyani sinfga kiritish yanada interaktiv va qiziqarli o‘rganish tajribasiga imkon beradi. Masalan, virtual reallik simulyatsiyalari yoki onlayn viktorinalardan foydalanish o‘quvchilarga zudlik bilan fikr-mulohazalarini taqdim etishi va faol ishtirok etishga undashi mumkin.

Motivatsiyani kuchaytirishning yana bir usuli - talabalarga shaxsiy qiziqishlari va ehtiroslarini amalga oshirish imkoniyatini berishdir. Bunga tanlov kurslari, mustaqil ta`lim loyihalarini taklif qilish yoki talabalarni o‘z manfaatlariga mos keladigan klub va tashkilotlarga a`zo bo‘lishga undash orqali erishish mumkin. Ushbu strategiyalarni o‘z ichiga olgan holda, talabalar o‘zlarining ilmiy

ishlariga ko‘proq jalb qilinadi va motivatsiyalanadi, bu esa pirovardida yanada muvaffaqiyatli o‘rganish tajribasiga olib keladi.

Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlaridan oliy ta`lim tizimida foydalanishning yana bir sharti – tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rag`batlantirishdir. Termiziyning fikricha, talabalar ma`lumotni passiv qabul qiluvchilar emas, balki o‘z ta`lim tajribasining faol ishtirokchisi bo‘lishlari kerak. Demak, o‘quvchilarga o‘rganilayotgan material haqida tanqidiy fikr yuritish, o‘rganganlarini real vaziyatlarda qo‘llashga yordam beradigan ijodiy muammolarni yechish faoliyati bilan shug`ullanish imkoniyati berilishi kerak.

Tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rag`batlantirish orqali o‘qituvchilar talabalarga o‘rganilayotgan materialni chuqurroq tushunishga yordam berishlari va ularga akademik va kasbiy jihatdan muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni berishlari mumkin. Bunga erishish uchun o‘qituvchilar bir qator pedagogik usullardan, jumladan, guruh muhokamalari, rol o‘ynash mashqlari va hamkorlikdagi loyihalardan foydalanishlari mumkin. Oxir oqibat, sinfda tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarni 21-asr ishchi kuchida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan qurollantiradigan o‘quv muhitini yaratishi mumkin.

Universitetlar doimo barcha talabalar uchun mehmondo‘st va inklyuziv muhitni ta`minlashga intilayotganligi sababli, hurmat va inklyuzivlik madaniyatini rivojlantirish juda muhimdir. Bunga xilma-xillik va madaniy xabardorlikni targ`ib qilish, xodimlar va talabalar uchun sezgirlikni oshirish bo‘yicha treningni amalga oshirish va marginal jamoalar uchun resurslar bilan ta`minlash kabi turli vositalar orqali erishish mumkin.

Bundan tashqari, ochiq muloqot va munozara uchun imkoniyatlar yaratish universitet hamjamiyatida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan noto‘g`ri qarashlar va noto‘g`ri qarashlarni bartaraf etishga yordam beradi. Talabalarni madaniyatlararo tadbirlar va tadbirlarga jalb qilish, shuningdek, turli guruhlar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishga va tushunishga yordam beradi. Hurmat va inklyuzivlik qadriyatlariga ustunlik berish orqali universitetlar, ularning kelib chiqishi yoki kimligidan qat`i nazar, barcha talabalar uchun yanada adolatli va qo‘llab- quvvatlovchi muhit yaratishi mumkin. Bu oxir-oqibatda ishtirok etgan har bir kishi uchun yanada muvaffaqiyatli va qoniqarli kollej tajribasiga olib kelishi mumkin.

Oliy ta`lim talabalarga ma`lum bir ta`lim sohasini o‘rgatishdan tashqari, umrbod ta`lim olish va shaxsiy o‘sishga ham yordam berishi kerak. Al-Hakim at-Termiziy uzluksiz ta`lim olishning muhimligini tan olgan va ta`lim faqat sinf bilan cheklanmasligi kerak, deb hisoblagan.

U o‘qish va mustaqil ta`limning bilim va ko‘nikmalarni kurs dasturidan tashqari rivojlantirish vositasi sifatida muhimligini ta`kidladi. Ushbu g`oyani amalga oshirish uchun oliy ta`lim muassasalari talabalarga bitiruvchilar uyushmalari, uzluksiz ta`lim dasturlari va tadqiqot ma`lumotlar bazalariga kirish kabi bitiruvdan keyin ham o‘qishni davom ettirish uchun resurslar va imkoniyatlarni taklif qilishi mumkin. Bundan tashqari, o‘quv dasturiga shaxsiy rivojlanish va hayotiy ko‘nikmalar bo‘yicha kurslarni kiritish talabalarga o‘qishni tugatgandan keyin hayotni boshqarish uchun vositalarni taqdim etish orqali foyda keltirishi mumkin.

Butun umr davomida ta`lim olish va shaxsiy o‘sishga e`tibor qaratgan holda, oliy ta`lim nafaqat talabalarni muvaffaqiyatli martaba uchun tayyorlashi, balki ularni to‘laqonli hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va bilimlar bilan jihozlashi mumkin.

Bundan tashqari, zamonaviy oliy ta`lim tizimining yuqori talablari o‘qituvchilardan talabalarning faolligini oshirish va o‘zlashtirishni kuchaytirish uchun innovatsion va interfaol o‘qitish usullarini kiritishni talab qiladi. Al-Hakim at-Termiziyning amaliy o‘rganish va amaliy tajribaga e`tibor qaratishi ana shu ehtiyojni qondira oladi. O‘quvchilarga tajribalar o‘tkazish va dala ishlarida qatnashish kabi tajribalar orqali o‘rganish imkoniyatlarini taqdim etish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilar ishtirokini kuchaytirishi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishi mumkin. Qolaversa, Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlarida o‘quvchilarni nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga undash, kontekstda o‘rganish muhimligi ta`kidlanadi. Ushbu yondashuv talabalarga o‘z ta`limlarini real muammolar va echimlar bilan bog`lashda yordam beradi, shuningdek, ularning ilmiy fanlarini yanada kuchliroq tushunishga yordam beradi. Nihoyat, al-Hakim at-Termiziyning inklyuzivlik va xilma-xillik muhitini rivojlantirish haqidagi ta`limotlarini o‘z ichiga olish oliy ta`lim tizimida mavjudlik va tenglikni oshirishi mumkin. Talabalarning o‘ziga xos ehtiyojlari va kelib chiqishini hisobga oladigan talabaga yo‘naltirilgan yondashuvga ustuvor ahamiyat berish orqali o‘qituvchilar inklyuziv va teng huquqli ta`lim muhitini yaratishga yordam berishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Al-Hakim at-Termiziyning pedagogik qarashlari oliy ta`lim sharoitida, ayniqsa, musulmonlar yashaydigan mamlakatlarda juda dolzarb bo‘lishi mumkin. Bilimlarni amaliy qo‘llash bilan birlashtirishga e`tibor qaratish, tanqidiy fikrlash va mulohaza yuritishni rivojlantirish, axloq va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatishning ahamiyati zamonaviy oliy ta`lim tizimlarining muhim jihatlaridir.

Qolaversa, At-Termiziyning individuallashtirilgan va shaxsiylashtirilgan ta`limga alohida e`tibor qaratgani va barchaga mos keladigan yondashuvni rad

etishi o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ta`lim olishlarini ta`minlashda muhim ahami Shu bilan birga, uning pedagogik qarashlarini texnologiyaning so‘nggi yutuqlari, masalan, onlayn o‘qitish, o‘zgaruvchan sinflar va o‘yinlar orqali faol o‘rganishga yordam beradigan va kurs mazmuni bilan yanada mazmunli shug`ullanishi mumkin bo‘lgan yangilash kerak. Pirovardida, oliy ta`limda At-Termiziyning pedagogik qarashlaridan foydalanish talabalarga bilim va ko‘nikmalarni egallashni axloqiy tarbiya bilan uyg`unlashtirgan holda yaxlit ta`lim berish orqali o‘qitish va o‘qitishning yanada samarali natijalariga erishishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Umumta’lim maktablarining milliy o‘quv dasturi/ Tabiiy fanlar (SCIENCE).-T.: 2021.-53-b.

2. Muxtarova L.A., Pardayeva G. Steam texnologiyasini hayotga tadbiq etishda oila va maktab hamkorligi. “Oilaviy munosabatlar destruktsiyasining psixologik tadqiqi: muammo va yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Termiz: 2022 yil. 356-359 b.

3. Axmedova Z.R. Fizika fanini o‘qitishda ilmiy tadqiqot metodlari va STEAM texnologiyasi «Science and Education» Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Issue 5.

4. Tog‘ayeva G.O., Xolmirzayev F.G., Tabiiy fanlar savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko‘rish uchun daftar. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent 2020 yil.

5. Jalgashevna, P. G., & Abdimannabovna, M. L. (2023). Pedagogical possibilities of teaching natural sciences based on steam technology. World Bulletin of Social Sciences, 21, 109-111.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola Al-Hakim at-Termiziy pedagogik qarashlaridan oliy ta’lim tizimida foydalanish muammosining yoritilishi, Al-Hakim at-Termiziy pedagogik qarashlaridan oliy ta’lim tizimida foydalanishning pedagogik xususiyatlari va Al-Hakim at-Termiziy pedagogik qarashlaridan oliy ta’lim tizimida foydalanishning shart-sharoitlari haqida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещена проблема использования педагогических взглядов Аль-Хакима ат-Тирмизи в системе высшего образования, педагогические особенности использования педагогических взглядов Аль-Хакима ат-Тирмизи в системе высшего образования, а также использование педагогических взглядов Аль-Хакима ат-Тирмизи в системе высшего образования. педагогические взгляды в системе высшего образования.писано об условиях.

SUMMARY

This article highlights the problem of using Al-Hakim al-Tirmizi’s pedagogical views in the higher education system, the pedagogical features of using Al-Hakim at-Tirmizi’s pedagogical views in the higher education system, and the use of Al-Hakim at-Tirmizi’s pedagogical views in the higher education system. written about the conditions.

JAHON ILM-FANIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MASALALARINI O'RGANISH TEN-DENSIYALARI

Muxtarova L.A.
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dotsent v.b.

Tayanch so'zlar: madaniyat, kognitiv, akmeologik, aksiologik omillar, o'quvchilar, tabiiy fanlar, tabiiiy savodxonlik.

Ключевые слова: культура, познавательный, акмеологический, аксиологический факторы, студенты, естествознание, природоведческая грамотность.

Key words: culture, cognitive, acmeological, axiological factors, students, natural sciences, natu-ral literacy.

Kirish. Dunyo xalqlari taraqqiyotining hozirgi bosqichida insoniyat uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Ona sayyora muhitini bulg'ayotgan ekologik xavf, "Tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarining buzilishi yer yuzidagi barcha xalqlarni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda. Shu jihatdan olganda, bugungi kunda har bir o'quvchining ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo yangi tendentsiyalar orqali yuksaltirib borish davr talabi. Xavfsizlikni global ekologik muammolardan biri sifatida tadqiq etish, uning mazmun-mohiyatiga tahliliy yondashish, o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish hamda ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natija. Ekologik muammolar, umuman, inson hayotining hamma sohalarini qamrab oluvchi murakkab, har tomonlama tavsifga ega bo'lganligi sababli ularni chuqur ilmiy asosda tizimli ravishda hal etish zarur. Mazkur yo'nalishda belgilangan vazifa o'z samarasini ifodalashi uchun avvalam bor, "ekologiya", "xavfsizlik", "madaniyat", "ekologik xavfsizlik madaniyati" kabi tushunchalar mazmun-mohiyati negiziga nazar qaratmoq zarur.

Ekologiya so'zi yunoncha oikos – "vatan, uy" va logos – "fan, ta'limot" so'zlaridan olingan bo'lib, tirik organizmlarning bir-biri va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini, shuningdek, koinot va biosferadagi organizmlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan. Bu atama nemis biologi Yernest Gekkel (1834-1919) tomonidan 1866-1869 yilda fanga kiritilgan.

Ekologik ong, ekologik madaniyatning sodda me'yorlari qadimdan mavjud bo'lib, tarixiy yozma manbalarda, masalan, zardushtiylik dining muqaddas kitobi "Avesto"da, buddizm, xristian, islom va boshqa dinlar manbalarida, shu bilan bir qatorda, SHarq uyg'onish davrining yetuk mutafakkirlari hisoblangan Abu Nasr Forobiy ("Kitob al-mabodi al-insonia"); Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy ("Kitab surat al-arz" "Erning surati" yoki "Geografiya"); Abu Rayhon Beruniy ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"); ibn Sino ("Aqliy ilmlar tasnifi") va o'rta asrlarda Alisher Navoiyning "Farhod va SHirin", "Sab'ai Sayyor" kabi asarlarida inson ruhiyati nabotot olami bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilganligini ko'rishimiz mumkin]. "Avesto"da, islom ta'limotining asosiy manbai "Qur'on", tasavvuf falsafasi, xalq og'zaki ijodi, SHarq va G'arb mutafakkirlari asarlarida tabiat muhofazasi va ekologik tarbiyaga oid ahamiyatli ilmiy meroslarda o'z aksini topgan.

Ekologiya mustaqil fan sohasi sifatida XX asr boshlarida shakllandi. Milliy amaliyotga ekologiya tushunchasi sekinlik bilan kirib kelgan. Fanda XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida ingliz olimi Djon Bardon-Sanderson (Angliya), S.Forbe, K. SHreter (AQSH), E.Gekkel (Germaniya), G.Spenser (Angliya), E.Zyuss (Avstriya), K.Mebius (Germaniya), E.Varming (Daniya), X.Game (SHvetsariya), E.Lerua, (Frantsiya), K.Troll (Germaniya), A.Tensli, F.Klemente, V. SHelford, R.Lindeman, Yu.Odum, Dj. Forrester, D.Medouz, B.Kommoner (AQSH), D.N.Kashkarov, V.N.Sukachev, V.I.Vernadskiy, N.F.Reymers (Rossiya)larning ekologiyaga oid izlanishlar olib borishgani ma'lum.

Bugungi kunga kelib ekologiya sof biologik fanlar tizimidan chiqib, mazmunan kengayib bormoqda: bu holat zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining atrof-muhitga salbiy ta'siri bilan izohlanadi. Hatto ekologik muammolarning globallashuvi fanda "inson ekologiya"si degan atamaning qo'llanilishiga sabab ko'rsatdi.

Ekologik siyosat bo'yicha Yevropa instituti direktori Ernst Ulrich von Weizsacker (Germaniya) "Zamonaviy dunyoda chetlab bo'lmaydigan mavzu - bu madaniyat, tadbirkorlik va umuman taraqqiyotning ajralmas qismiga aylangan texnologiyalar" deb izoh berib, kelgusida ekologik paradigma iqtisodiy paradigmaga nisbatan ustunlik kasb etib, uni nazorat qila boshlaydi deyiladi. Shunga ko'ra, XXI asr ekologik xavfsizlik asriga aylandi. Buyuk Britaniyaning Staffordshir universiteti professori Abdel Hamed Silamonning ma'ruzalarida dolzarb ekologik xavfsizlik muammolari, jumladan, "Inson umrining abadiy emasligi, chegara bilishi, inson hayotini tabiat va koinotdan ayro tasavvur etib bo'lmasligi bilan birga u bilan hisoblashib yashash muhimligi izohlanadi".

Dunyo mamlakatlari Shveytsariya, Iclandiya, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya davlatlaridagi etakchi ilmiy-tadqiqot inctitutlari va markazlarida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish cohacida kadrlar tayyorlashning ilmiy-nazariy acoclarini qaytadan ko'rib chiqishga doir ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Natijada, ko'plab rivojlangan davlatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, xizmat ko'rcatish, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy muhofaza va barqaror rivojlanishning barcha yo'nalishlarida ekologik madaniyat tamoyillari joriy etilmoqda.

"Inson va biosferaning koevolyutsiyasi" tushunchasini N.N.Moiseev: "Biosfera noyob ob'ekt bo'lib, u bir nusxada mavjud. Bugun kechagidek emas, ertaga ham bugungidek bo'lmaydi. Biosfera bilan o'tkazilgan har qanday tajribalar qabul qilinishi mumkin emas" deb ilmiy jihatdan asoslaydi. Demak, barqaror rivojlanish atrof-muhitning bevosita insoniyatga nisbattan ta'sir darajasini inobatga olish muhimligini ko'rsatmoqda.

"Ekologiya" mazmunida atrof-muhitning buzilishi, mazkur jarayonda inson keltirgan zarar nazarga olingan bo'lsa, so'nggi yillarda "barqaror rivojlanish"da inson hayotining barqarorligini ta'minlash ko'zda tutildi. G'arbda atrof-muhit muhofazasi deganda, eng avvalo, inson faoliyatining tabiatga bo'lgan salbiy ta'sirining oldini olish tadbirlari majmui tushuniladi. AQSh, Buyuk Britaniya, Yevropa Hamjamiyati davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiyada "envayron-mentalogiya" (environmentalism aslida environment - atrof-muhit, tabiat so'zidan olingan) termini ishlatiladi hamda mazkur termin o'zbek tilidagi "atrof-muhitni muhofaza qilish ilmi" ma'nosiga to'g'ri keladi.

Ispaniyaning Oviedo universiteti "Tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar hamda unga qarshi kurashning Yevropa ittifoqi tajribasi" sohasida Tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlar epidemiologiyasi, ularni baholash va boshqarish, iqtisodiy qiymatini xisoblash, ularning jamoat salomatligiga ta'sirini o'rganish, tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlarni oldini olish strategiyasi bilan tanishish hamda tabiiy ofatlar va favqulodda vaziyatlarda qutqaruv va tez tibbiy yordam ko'rsatish faoliyatini tashkil etish va barqaror xavfsizlik kabi muammolarni o'rganmoqda.

Dunyo xalqlari taraqqiyotining hozirgi bosqichida insoniyat uchun ekologik xavfsiz makonda yashash masalasi tobora dolzarb muammoga aylanib borayotgan ayni vaqtda ona-Zaminimiz muhitini bulg'ayotgan ekologik xavf, "tabiat-jamiyat-inson" munosabatlarining buzilishi barchamizni bu haqda chuqurroq o'ylashga majbur etmoqda.

Jahon ilm-fani integratsiyalashuvi dunyoda ekologik xavfsizlikni barqarorlashtirish borasida tajribalar almashinuvi imkonini bermoqda.

Jumladan, AQShda ekologiyaning turli muammolariga bag‘ishlangan ta’lim markazlari faoliyat olib borib, har yili o‘nlab monografik asarlar nashr kilinadi. Ulardan Stewart Frances o‘z maqolasida rivojlanayotgan mamlakatlarda ham, global miqyosda ham rivojlanish va xavfsizlik o‘rtasidagi aloqalarni ko‘rib chiqadi. U xavfsizlikni inson xavfsizligi deb talqin qiladi va bu toifada siyosiy zo‘ravonlikka asosiy e’tibor xavfsizlikning muhim manbai sifatida qaratiladi. Bu jarayonda asosan uchta bog‘liqlik farazi ko‘rsatiladi: inson xavfsizligi odamlar farovonligining muhim qismini tashkil qiladi. SHu bois rivojlanish maqsadi; inson xavfsizligining yo‘qligi iqtisodiy o‘sish va qashshoqlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi, shu bilan birga rivojlanish; rivojlanishning etishmasligi yoki keskin gorizontal tengsizliklarni o‘z ichiga olgan nomu-tanosib rivojlanish nizolarning muhim sababi” deb izohlaydi.

John Pezzey inson va atrof-muhit xavfsizligiga izoh berib: “So‘nggi yillar ichida atrof-muhit zaxiralarining insoniyat tsivilizatsiyasini qo‘llab-quvvatlash qobiliyati haqida keng tarqalgan tashvish to‘lqini kuzatildi, “barqaror rivojlanish”, “barqaror o‘sish” yoki shunchaki “barqarorlik” masalalari global muammoga aylandi. Bu insonning ijtimoiy va atrof-muhit xulq-atvorini qo‘zg‘atuvchi ba’zi kuchlar qanchalik chuqur ekanligini ko‘rsatadi va bizni uni qanchalik o‘zgartirish mumkinligi hamda o‘zgarishi kerakligi to‘g‘risida real qarashga majbur qiladi” deb tashvishlanadi. Bu borada ko‘plab xorijlik olimlarning qarashlari mavjud bo‘lib, xususan, ekologik ta’limning mazmuni va mohiyati, tuzilishi C.S.Haugen, atrof-muhit muhofazasining o‘ziga xos jihatlari Hsing Yun, Sayyoramizda hayot kurtaklari va uning davomiyligi Bastedo Jamie Shield, Bioreginalizm, madaniyat va ekologiya sohasiga oid global muammolar Brennan Andrew, kontseptual ekologik tadqiqotlar metodologiyasi masalalari R.Harding, tabiiy-ilmiy bilimlar integratsiyasi D.Coste va J.Trimlar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ekologik xavfsizlik muammosiga oid quyidagi mulohazalarni bildirgan: “Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o‘nglab bo‘lmas ekologik falokatlarga olib keladi”.

V.N.Kuznetsovning fikricha, “XXI asr global strategiyasining asosini ikkita hodisa, ya’ni tinchlik va xavfsizlik madaniyati tashkil etadi. Globallashuv va taraqqiyot yo‘lida birinchi qadam qo‘yildi tinchlik madaniyati shakllandi. Endi ikkinchi qadamda XXI asrning mustaqil global gumanitar hodisasi

sifatida tinchlik va xavfsizlik madaniyati sintezida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish zarur".

Zamonaviy o‘quv materiallarini loyihalash, atrof-muhit bilan bog‘lash va sertifikatlashtirish amalga oshirilgan (Stiftung Digitale Chancen, Germany); fanlararo integratsiyani rivojlantirishda xalqaro baholash dasturlari PISA (Programme for International Student Assessment) metodikasi ishlangan (Rossiya ta'lim akademiyasining ta'limni rivojlantirish strategiyalari instituti); zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy qilish, standartlashtirishning asosiy strategik mezonlari takomillashtirilgan (Europen Information Technologies Certification Institute), ta'lim sifati va ta'lim dasturlarini takomillashtirishda zamonaviy yondoshuv (Total Quality Management).

Dunyo ekotadqiqot ishlari tizimida ekologik dunyoqarashni milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro munosabati, insoniyatning nabotot olamiga munosabati aholining ekologik ongi va madaniyatini rivojlantirishning kreativ mezonlarini ishlab chiqish imkoniyatini bermoqda. CHunonchi rivojlangan mamlakatlarda ekologik ta'lim "fanlararo mavzu" sifatida uchta asosiy tushuncha - tizim, dunyoqarash, kelajak orqali tasniflanib, o‘quvchilarda tabiatga estetik munosabat va amaliy ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Insoniyat dunyoning hamma burchagida o‘z turmush tarzini yengillatish va yaxshilash uchun, tabiatdan imkon qadar ko‘p narsani yulib olishga harakat qilmoqda. Qizig‘i shundaki, odamlar tabiatni poymol qiladi, ammo atmosferaning musaffo, oqar suvlarining toza bo‘lishini, uzoq yashashni orzu qiladi. Aslida esa atrof-muhitni ifloslantirib, o‘z xohishiga va orzusiga zid harakat qilayotganini o‘ylamaydi ham sekin-asta iqtisodiy rivojlanishning biologik qurboniga aylanishini esa fahmlamaydi.

Ekologiya buzilishi, atmosfera ifloslanishi sababli nafas olish yo‘li, o‘pka bilan bog‘liq kasalliklar rivojlanmoqda. Okean va dengizlarga insonning uzluksiz aralashishi u yerdagi tirik organizmlarning yoppasiga qirilib ketishiga sabab bolmoqda. Suvga kimyoviy moddalar tashlanishi, katta tankerlar halokati oqibatida neftь va boshqa moddalar to‘kilishi suvdagi barcha organizmlarning bir zumda halok bo‘lishi natijasida suvlar o‘lik suvga aylanadi.

Dunyo ilm-fanida ekologik ta'limning nazariy asoslari akademik I.D.Zverev, A.N. Zaxlebniy, ekologik ta'lim mazmuni I.T.Suravegina, A.T.Terletskaya, ekologiya nazariyasi akademik V.I.Vernadskiy, akademik N.N.Moiseev, ekologik tarbiya vositasida o‘quvchilar ekologik madaniyatini shakllantirish masalalari A.M.Ryabov, ekologik bilimlarni o‘quvchilarga yetkazishning ilmiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihatlari N.M.Mamedov,

ekologik madaniyat va uning o‘ziga xosligi V.A.Dubrovin, ekologik ong va madaniyat munosabati S.N.Glazachev, fanlararo ekologik madaniyat masalalari Ch.M.Alirzaev, D.A.Danilovlarning tadqiqot ishlarida o‘rganilgan.

Ekologik madaniyat masalasi dastlab ekologik tarbiya tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Zotan, kishilarda ekologik bilimlarning yetishmasligi asrlar osha insoniyat xavfsizligiga jiddiy tajovuzlarni keltirib chiqardi. Shu bois mamlakatimizda istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga davlat darajasida e’tibor qaratilib, ko‘plab farmon va qarorlar qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlagani kabi, “Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi ijtimoiy muammolaridan biri. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo‘lib, tsivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liq”. Bu borada ekologik muammolar tashvishi tabiiy fanlar doirasidan chiqib, fanlararo muammoga aylanganini esa tadqiqotchi M.Farmonova shunday qayd etadi: “Zaminning fojiali qashshoqlashuvi, tabiatga zulukday yopishib, uning boyliklaridan nooqilona foydalanish natijasida yuzaga kelgan ekologik tanglik jamiyat taqdirini nochor ahvolga solib qo‘ydi. O‘z qilmishlarining oqibatini tushunib yetgan odam tabiatning o‘ch olishini biladi, shu bois hech bo‘lmagandan kech bo‘lgani yaxshi deganlaridek, tabiatning boshini silashga, unga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo‘lishga intiladi”.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030” (P4G) ikkinchi xalqaro Sammitida so‘zlagan nutqida: “Ona-Vatanimizni ravnaq toptirish, yurtimizda ilmiy muhitni yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarda ilmu fanga intilishni kuchaytirish, ilmiy-texnikaviy, innovatsion sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun kelajakda hali ko‘plab ezgu ishni amalga oshiramiz” degan ijobiy mulohazalari nechog‘lik haqqoniyligini ko‘rsatmoqda. Zero, ushbu fikrlardan kelib chiqib, boshlang‘ich ta’lim tizimida fanlararo integratsiyalashgan yondashuv asosida o‘qitish mexanizmlarini yaratish, ilmiy bilimlarni kundalik hayotda qo‘llash qobiliyatini oshirish, kichik yoshdagi o‘quvchilarni tabiiy fanlar savodxonligini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyamizning 55-moddasida “Er, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida” deb izohlanadi. Tabiat muhofazasi va ekologik muvozanatni saqlash, yer, suv, yer usti boyliklari - o‘rmon, havo, o‘simlik va hayvonot dunyosi, shifobaxsh o‘simliklardan foydalanish va muhofaza qilishda jiddiy kamchiliklar mavjud. Bunda eng muhim masala - “jamiyatning, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish.

Albatta, bunday keng ko‘lamli muammoni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi; bunga yosh avlod qalbida ona-tabiatga mehr-muhabbat, unga dahldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin”.

Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarda jiddiy o‘zgarishlar, insonni tabiat ustidan hukmronlik qilishga intilishi, “muvozanat barqarorligi” kontseptsiyasining muomaladan chiqib ketishi oqibatida sayyoramizda inqirozli holatning kelib chiqishi hamda jahon tsivilizatsiyasiga bo‘lgan tahdid borgan sari ortib bormoqda. Bugungi kunda “ekologik ta’lim” va “ekologik madaniyat” yer yuzidagi tsivilizatsiyani saqlab qolishi mexanizmlarni ishlab chiqish mumkin bo‘lgan omillardan biridir. Bu esa, ekologik inqiroz muammosiga “ekologik ta’lim”ni safarbar etish, davlat va jamiyatning mazkur sohadagi qonunchilik loyihalarini qayta ko‘rib chiqish hamda insoniyat manfaatlariga muvofiqlashtirishni taqozo qiladi.

BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi o‘z rezolyutsiyasida birinchi marta insonning toza atrof-muhitga bo‘lgan huquqini tan oldi. Mishel Bachelet uchta global tahdid haqida gapirdi: iqlim o‘zgarishi, ifloslanish va atrof-muhitning degradatsiyasi, salomatlik va kelajak avlodlar uchun ekologik xavflarsiz toza tabiiy muhitni saqlashning ahamiyati muhimligini asosladi.

AQSh va rivojlangan G‘arb mamlakatlarida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ekologik muammolar yechimiga nisbatan skeptik-pessimistik qarashlar shakllandi. Bunda bir-biriga zid qarashlar shakllangan bo‘lsada, biroq mavjud global muammolar tahdididan insoniyatni ogoh etishi amaliy ahamiyatga ega.

Nemis faylasufi E.Hanke insoniyat tarixida ilk bor yer yuzidagi hayot nishonalarini yo‘q qilishga qodir kuch-qudratga ega bo‘lganligini ta’kidlab: “Atrof-muhit muammolarining avj olishi ikki muqobil imkoniyatning mavjudligi: “yoki halokat”, “yoki najot” dan iborat, zero, gap bizning muammoni qay darajada anglab yetishimizda”. “Rim klubi” a’zolaridan Forrester, Jay W. (AQSh), Meadows Donella(AQSh), Falk R. (AQSh), Ya.Tinbergan (Gollandiya), King Alexander (Britaniya), Peccei A. (Italiya)lar ham mazkur fikrga o‘z munosabatini bildirganlar.

Demak, global ekologik muammolar sharoitida odamlarga tabiatni himoya qilishni bolalikdan o‘rgatish kerak, chunki atrof-muhit bilan bog‘liq ko‘plab qiyinchiliklar hech bir insonni chetlab o‘tmaydi. Qabih kimsalarning qilgan mudhish xatosi tufayli sodir bo‘layotgan ekologik falokat havo va suvning ifloslanishi, global isish, maishiy chiqindilarning tabiatga chiqarilishi, kislotali yomg‘ir va issiqxona effekti, o‘rmonlarning yo‘q bo‘lib ketishi muammosini anglash uchun ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va “zamonaviy

bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”.

Sodir bo‘layotgan global isish va unga hamroh klimatologik o‘zgarishlarning yaqin kelajakda jiddiy salbiy ekologik oqibatlarga olib kelish ehtimoli mavjud. Issiq davrlar soni oshib borishi suv zahiralari shakllanishi tsikllarini o‘zgartirmoqda, ekstremal ob-havo hodisalari, uzoqroq davom etadigan qurg‘oqchilik va kuchli yog‘ingarchilikka olib kelmoqda, ekotizimlarda suv oqimining tabiiy mo‘’tadil boshqarilishida omil bo‘lgan muzlik va qor zaxiralariga harorat oshishining salbiy ta’siridan vayronagarchiliklar sodir bo‘lishi kutilmoqda.

Mazkur muammoning yechimini bevosita insonning atrof-olamga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishdan izlash kerak. Xususan, sayyoramizning halokatli holati haqida Buyuk Britaniyadagi Greenpeace tashkilotining Okeanlarni muhofaza qilish dasturi menejeri Uill Makkallumning “Dunyoni qutqarish” bo‘yicha ko‘rsatmalari muhim. Bunda, avvalo, tabiatni o‘rganadigan soha olamiga murojaat qilinib, uning qonuniyatlariga amal qilishimiz muhim, tabiatdagi o‘zgarishlar tirik organizmlarning yashash muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi kerak.

H.Artur Uestingning atrof-muhit va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash uchun inson ekologik zahiralardan oqilona foydalanishi muhimligini aytib: “Kelajak avlodlarning o‘z ehtiyojlarini qondirishida atrof-muhitga ziyon etkazmaslik qobiliyatini rivojlantirish kerak” degan fikrlari o‘rinli. Pirages Dennis, Theresa Manleylar fikricha: “Atrof-muhit xavfsizligi, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish tendentsiyalari tobora kuchayib borayotganligi inson xavfsizligi masalasi hamisha dolzarbligini ifodalaydi”. SHu munosabat bilan barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro institutning ta’kidlashicha, xavfsizlikni barqarorlashtirishdan maqsad “atrof-muhit va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish orqali inson xavfsizligini global darajaga olib chiqish zarur”. Zero zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalar va muqobil energiya manbalarining kashf etilishi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi ijobiy mazmun-mohiyatga ega bo‘lsada, buning ortida minglab salbiy oqibatlar borligi tabiiy jarayonlarga ruxsatsiz aralashuvlar atrof-muhit uchun jiddiy tashvish tug‘dirdi.

Ekologik ta’lim, tarbiya va amaliyot uchligining mohiyati uning uch yo‘nalishdagi tadqiqot qilish, o‘rgatish va amalga joriy etish predmetida o‘z aksini topadi: ekotizimlarni (tabiiy va antropogen o‘zgargan) muhofaza qilish, ekotizimlarning tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, buzilgan ekotizimlarni qayta tiklashdan iborat.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ekologik xavfsizlik madaniyatni uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inida uzviylikda olib borish zarur. Zero, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoshiga mos ravishda xavfsiz atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq vazifalarni bajaradi, jumladan, inson salomatligi uchun muhim bo‘lgan ichimlik suvi va boshqa tabiiy zahiralardan oqilona foydalanishga oid bilim, ko‘nikma, malaka, kompetentsiyalar dars va darsdan tashqari o‘qitish jarayonida takomillashadi, atrof-muhitning ifloslanish darajasini pasaytirish imkonini beruvchi ekologik toza texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari o‘rgatiladi.

Ekologik xavfsizlikni ta’minlash va ekologik madaniyatni boyitish nabotot olamiga ziyon yetkazmaslik, uni ko‘z qorachig‘idek avaylab-asrash, tabiat ehsonlaridan omilkorona foydalanish ko‘nikmalari ushbu belgilangan me’yoriy talablarni o‘zlashtirish, bajarish va baholashda ko‘rinadi. Xususan, inson hayoti uchun iste’molga yaroqsiz, xavfli ifloslantiruvchi moddalar va chiqindilarni tashlab yuborish, tarqatish uchun ichki taqiqlarni ishlab chiqish, tabiiy gaz, suv va elektr energiyasini iste’mol qilish hajmiga ham ehtiyot bo‘lish kerak. Bu ekologik xavfsizlikni ta’minlash va tabiiy muhitni saqlash yo‘lidagi dastlabki qadamlar bo‘ladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning to‘laqonli sub’ekti sifatida ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan izchil ekologik siyosat yuritmoqda. Zero, “Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko‘rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e’tiborga molik”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yildagi 541-son Atrof-muhitga ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi Qarorida “Ekologik xavfsizlik talablaridan: tabiat in’omlaridan oqilona foydalanishga, atrof-muhit va fuqarolar sog‘lig‘iga salbiy ta’sirning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, atmosfera havosiga chiqariladigan tashlanmalar hamda oqova suvlarning kutilayotgan tarkibi va hajmi, hosil bo‘ladigan chiqindilar morfologiyasi va hajmi, shuningdek, ularning atrof muhitga salbiy ta’siri va ularni kamaytirish usullaridan iborat” deb ko‘rsatilgan. Qarorning mazmun-mohiyati boshlang‘ich ta’limdan boshlab ekologik madaniyatini shakllantirish, ularda ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallardan, mahsulotlardan, kimyoviy moddalardan foydalanishni ta’minlash hamda atrof-muhit muhofazasi bilan aloqador ishlarni bajarishning xavfsiz ekologik tizimini takomillashtirish muhimligi ko‘rsatilgan.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, o‘quvchida ekologik madaniyatni yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo‘lish, tabiat ne’matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta’sirlarning oldini olishda asosiy omillardan bo‘lib, bunda ekologik ta’limning ahamiyati beqiyos, chunki, tabiat in’omlaridan omilkorona foydalanish orqali atrof-muhit va ijtimoiy hayot uyg‘unligini ta’minlash asosida barqarorlikni saqlashda muhim o‘rin egallaydi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантиришконцепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ – 5712- сонли Фармони. ПФ-5712-сон 29.04.2019. (lex.uz).

2. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).

3. Muxtarova L.A. Yoshlarda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga doir masalalarda innovatsion yondashuv. Ilim ham jamiyet. Илмий-методик журнал. - Нукус, 2020. 4-сон. - Б. 84-86 б.

4. Muxtarova L.A. Boshlang’ich ta’limda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirishning metodologik asoslari // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси ilmiy-nazariy jurnali. 2021, 12-сон. – B. 657-662.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola Jahon ilm-fanida ekologik xavfsizlik masalalarini o’rganish tendensiyalari va jahon ilm-fanida ekologik muammolar global muammoga aylandi. Shu bois, nafaqat bir-ikkita davlat, balki bizni o‘rab turgan dunyo muvozanati haqida o‘ylayotgan ko‘plab davlatlar ham ushbu muammoni hal qilishga e’tibor qaratgan. Bugun dunyo bo‘ylab keng tarqalayotgan ekologik inqiroz va muammolar tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, unga e’tiborni kuchaytirish zarurligini bildiradi. Xususan, bu muammoni hal etish O‘zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi haqida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье основное внимание уделяется тенденциям изучения вопросов экологической безопасности в мировой науке, а проблемы окружающей среды стали глобальной проблемой мировой науки. Поэтому не только одна или две страны, но и многие страны, задумывающиеся о балансе окружающего нас мира, сосредоточились на решении этой проблемы. Экологический кризис и проблемы, которые сегодня распространяются по всему миру, означают, что необходимо правильно относиться к природе и уделять ей больше внимания. В частности, было написано, что решение этой проблемы поднялось на уровень государственной политики в Узбекистане.

SUMMARY

This article focuses on the trends in the study of environmental security issues in world science and environmental problems have become a global problem in world science. Therefore, not only one or two countries, but also many countries that are thinking about the balance of the world around us, have focused on solving this problem. The environmental crisis and problems that are spreading around the world today mean that it is necessary to treat nature correctly and pay more attention to it. In particular, it was written that solving this problem has risen to the level of state policy in Uzbekistan.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-MA’NAVIY AHAMIYATI

Eshnazarov M.K.
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: germenevtika, ta’lim, madaniyat, metodologiya, ijtimoiylik, globallashuv, axbo-rotlashuv,integratsiya,pedagogika,anglash,fenomen,gumanitar,konseptual,madaniyat,matn.

Ключевые слова:герменевтика,образование,культура,методология,социальность, глоба-лизация,информация,интеграция,педагогика,понимание,феномен,гуманитарный-,концептуальный, культура, текст.

Key words: hermeneutics,education,culture, methodology, sociality, globalization, information, integration, pedagogy, understanding, phenomenon, humanitarian, conceptual, culture, text.

Kirish. Xalqi farovon, avlodlari barkamol yurtning kelajagi fan va ta’lim asosida shakllanuvchi tafakkur tarzi bilan uzviy bog‘liq. Hozirgi zamon pedagogikasining asosiy yondashuvlaridan biri – germenevtikaning metodologik jihatlarini tahlil qilish globallashuv, axborotlashuv va integratsiya jarayoni ketayotgan XXI asrda voqealar ma’no-mazmunini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Narsa-hodisalar mohiyatini tushunish va tushuntirish fan oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekan, germenevtika masalalarini o‘rganish ma’naviy – ma’rifiy tarbiya sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar: “Bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo‘nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi”. Shunday ekan, pedagogik germenevtikaning metodologik jihatlarini mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlar misolida tahlil etish O‘zbekistonning barqaror rivojlanishida o‘zining amaliy natijasini beradi.

Fenomenologik-germenevtik yondashuv gumanitar fanlarning yetakchi metodologik strategiya-laridan biridir. Darhaqiqat, zamonaviy inson tashqi dunyo bilan ko‘plab va tobora murakkablashib borayotgan ko‘p qirrali ijtimoiy-

madaniy aloqalarga kiradi. Bu aloqalar ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa turdagi munosabatlarda shakllanadi, ularda ham shaxslar, ham ijtimoiy institutlar ishtirok etadi. Bu jarayon jiddiy uslubiy asoslashni va nazariy va amaliy yordamni talab qiladi.

Ta'limga kelsak, vositachilik g'oyasi, avlodlar va davrlar o'rtasida aloqa o'rnatish («ko'priklar») o'qituvchi tomonidan o'zining o'quv va tarbiyaviy faoliyatida professional tarzda amalga oshiriladi va u bilan bog'liq bo'lgan vositachi bo'lish jarayoniga vositachilik qilish g'oyasi; fanlarni o'rganish orqali ta'lim olgan shaxs, madaniy tajribaga murojaat qilish («madaniy hodisalarning shakllanishi ja-rayonida o'zaro bog'liqlik») o'zini pedagogik faoliyatning asosiy dunyoqarashi va uslubiy ko'rsatmalari deb e'lon qiladi. Shu bilan birga, germenevtikaning asosiy toifalari «tushunish», «tushunish», «talqin qilish» bilan ifodalangan ta'limning insonparvarlik mexanizmlariga tayanish printsipial jihatdan muhimdir.Umumta'lim va kasb-hunar ta'limining zamonaviy ommaviy tajribasiga murojaat qilish shuni ko'rsatadiki, afsuski, unda asosan «o'tkazish», «to'plash», «shakllanish» tushun-chalari bilan ifodalanadigan tendentsiyalar ustunlik qiladi.

Tabiatshunoslik va tafakkurning texnokratik uslublarini xarakterlovchi dunyoqarash munosaba-tlari. Bu germenevtikaga insonparvarlik hodisalarini tushunish va talqin qilish nazariyasi va amaliyoti sifatida, «madaniyat tarjimasi» dan farqli o'laroq - ongli va mustaqil ma'no yaratishga («madaniyat tarjimasi» tushunchasini chuqurroq o'rganishga) talabni keltirib chiqardi.

Germenevtik yondashuv - bu insonparvarlik dunyoqarashining usuli, faol rivojlanayotgan amaliyotga yo'naltirilgan nazariya bo'lib, u asta-sekin talqin qilishning amaliy talqin usullari to'plami bilan to'ldiriladi, ularning manbalari psixolingvistika, adabiyotshunoslik, ilohiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, pedagogika va boshqalar.

Ta'lim muammosi sifatida germenevtik yondashuv inqilobdan oldingi va sovet davrlari pedagogika metodologiyasining chuqurligida o'zini namoyon qildi. Uning tarixiy ildizlari XXI-asr mahalliy pedagogikasida shakllangan dunyoqarash an'analari – universitet (tabiiy fanlar bag'rida vujudga kelgan) va ma'naviy-akademik (gumanitar) shaklida topiladi. Bu mafkuraviy yondashuvlarning rivojlanishi qarama-qarshiliklar birligi va kurashining dialektik qonuniga muvofiq amalga oshirildi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitda pedagogika va ta'lim metodologiyasida madaniy-ijodiy gumanitar tamoyilni saqlash va mustahkamlash masalasi hech qanday navbatchilik xarakteriga ega emas, uning ortida bir necha o'n yillar davomida shakllanib kelayotgan jiddiy muammo yotadi.

Turli kontekstlar: mafkuraviy, siyosiy, umumiy madaniy, psixologik. Gap shundaki, tushunish germenevtikaning asosiy kategoriyasi sifatida matnli

xususiyatga ega va shunga mos ravishda madaniy qadriyat sifatida o‘qish hodisasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Gumanitar bilimlar metodologiyasi sifatida germenevtikaning ob’ekti ijtimoiy-madaniy aloqalarga kiritilgan shaxs, uning predmeti esa gumanitar madaniyat hodisasi va tushunish jarayonini boshqaruvchi mexanizm sifatida matndir.

Mutolaa fenomenining zamirida shaxs ongidagi sifat o‘zgarishlari bilan birga bo‘lgan madaniyatni anglash yotadi. 2007-2020 yillarga mo‘ljallangan kitobxonlikni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish milliy dasturining asosiy qoidalarida kitobxonlik asosiy ijtimoiy ahamiyatga ega axborot–kasbiy va kundalik bilimlarni o‘zlashtirishning eng muhim yo‘li deb atalishi bejiz emas.

Ta’limni modernizatsiya qilish, uni insonparvarlashtirish, o‘qish institutini takomillashtirmasdan va shaxsning ijtimoiy kompetentsiyasining asosi bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini yuksaltirmasdan oddiygina mumkin emas. Shuni ta’kidlash kerakki, madaniy matnlarni o‘zlashtirish jarayonida ma’noni shakllantirish va tushunish mexanizmlarining shakllanishiga mafkuraviy, sivilizatsiyaviy va ijtimoiy-madaniy rejalar omillari ta’sir qiladi. Faoliyat sifatida o‘qishning qiymati va mavjud o‘qish mexanizmlarining ta’siri ma’lumotni uzatish yoki qabul qilish ehtiyojlariga qaraganda ancha chuqurroq va kengroqdir.

O‘qishni rivojlantirishning hozirgi bosqichi va shunga mos ravishda aqliy va ma’naviy faoliyat turi sifatida tushunishni takomillashtirish, o‘rnatilgan (aniq yoki bilvosita, tahririy hiyla-nayranglar yordamida) mafkuraviy munosabatlardan xoli bo‘lganligi sababli, bugungi kunda jiddiy murakkablashmoqda.

Bugungi kunda axborotlashtirish va kompyuterlashtirishning umuman ilg‘or jarayonlari bir qarashda, taraqqiyot ko‘rinadi. Biroq olimlar sivilizatsiya kiritgan kitob madaniyati va axborot almashinuvining yangi shakllarining “ortiqcha” va “minuslari”ni aniqlashlari kerak. Aniq sotib olishlar bilan bir qatorda, keng tarqalgan axborotlashtirish “SMS madaniyati” kabi hodisalarni keltirib chiqardi, chunki zamonaviy Internet va mobil aloqa foydalanuvchilari yangi muloqot tilini ixtiro qildilar. An’anaviy o‘qish institutlarining yo‘q qilinishi sharoitida lingvistik iqtisod tamoyili asosida qurilgan «sodda adabiyot» paydo bo‘ldi - XX asrda tug‘ilgan post-folklor janri. O‘qishning tizimli inqirozi holati «foydalanish» fenomeni bilan sezilarli darajada yomonlashadi.

O‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga kelsak, rivojlanayotgan kiber madaniyat ta’siri ostida o‘qituvchilik kasbining ma’naviy tarkibiy qismining ma’lum bir deformatsiyasi beixtiyor sodir bo‘ladi. Shunday qilib, o‘quv materialini «qayta ishlash» hajmining ortishi va sur’atlarining oshishi, bir tomondan, o‘quv faoliyatini ratsionalizatsiya qilishning ne’mati, miqdoriy ko‘rsatkichi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, afsuski, o‘quv materialini qayta ishlashga to‘sqinlik qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchining insonparvarlik ongini va insonparvarlik tafakkurini rivojlantirish, chunki psixologik-pedagogik bilimlarning aks ettiruvchi «yashashi» va ijodiy

ma’no shakllanishi ma’lumotlarni majburiy iste’mol qilish bilan almashtiriladi. Oqibatda pedagogik ta’lim mazmunini o‘zida mujassam etgan belgilar ko‘pincha o‘zlari olib yurgan ma’nolardan ajralib chiqadi.Shu bilan birga, gumanitar bilimlar va yangi axborot texnologiyalarining «choragida» qurilgan o‘qitish uslublari va tartiblari etarlicha o‘rganilmagan va hali ham yomon qo‘llaniladi.

Hozirgi sharoitda pedagogik germenevtika-bir tomondan, u o‘quvchining repressiv ongining namoyon bo‘lishi ko‘rinishidagi mafkuraviy yondashuv oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan - va boshqa tomondan, axborot asrining chaqiriqlariga javob berib, madaniyat bilan o‘zaro munosabatlarning insonga yo‘naltirilgan xususiyatini saqlab qolgan holda, texnokratik yondashuv va tafakkurni shakllantirish tendentsiyasi xarajatlarini neytrallashi kerak. Shu bilan birga, eng istiqbolli yo‘nalish - ma’lumotni tushunishning yagona gipermatnli tabiatini o‘rganish va shu asosda ma’no shakllanishining umumiy mexanizmlarini takomillashtirish, turli xil ommaviy axborot vositalarida taqdim etilgan ma’lumotlarning rivojlanish va dunyoqarash salohiyatini aktuallashtirish (uchun). masalan, bir tomondan elektron gipermatn fazolarida ma’no shakllanishining intensivligi va sifatini, ikkinchi tomondan, an’anaviy kitobdagi ko‘p burchakli syujet bilan chiziqli bo‘lmagan hikoyani solishtirish).

Zamonaviy pedagogikaning germenevtikaga murojaat qilish zarurati, ma’naviyat ustuvorligini e’lon qiladigan ta’limning gumanistik kontseptsiyasini amalga oshirish, afsuski, ko‘plab o‘qituvchilar uchun, afsuski, semantik shablonlarga tayanish istagi bilan paradoksal tarzda birlashtirilganligi sababli kuchaydi. -aqliy sxemalar («pedagogik texnologiyalarni joriy etish» deb ataladigan) tuzilgan. Bunday munosabat kasbiy va umumiy madaniy tajribani rivojlantirishga utilitar yondashuvga asoslanadi, bu esa inson individualligini to‘liq idrok etishga to‘sqinlik qiladi. Biroq, pedagogika fanining o‘ziga xosligi muayyan rivojlanayotgan shaxsning hayotiy ko‘rinishlarining o‘ziga xos yangiligi bilan bog‘liq va bu har doim ham noyob pedagogik faktlarni klassik fan, universal tavsiyalar va modellar tomonidan ishlab chiqilgan umumlashtiruvchi toifalarga kiritishga imkon bermaydi. . Bu, umuman olganda, gumanitar bilimlar uchun, xususan, pedagogika uchun germenevtik nuqtai nazar dolzarb va samarali bo‘lib tuyulishi foydasiga yana bir dalil, chunki germenevtika an’anaviy ravishda mazmunlilikka tayanadi va stereotiplardan qochishadi, tushunishga tayanadi. -mantiqiy, balki san’at, din, etnopedagogika va til tizimiga murojaat bilan faoliyatning irratsional boshlanishi haqida. Demak, pedagogik germenevtika bu turli janrdagi matnlarda qayd etilgan pedagogik bilimlarni ijtimoiy va madaniy an’analarni hisobga olgan holda, ularni eng to‘liq va chuqur anglash, aks ettirish maqsadida talqin qilish va talqin qilish nazariyasi va amaliyoti (fan va san’at). insoniyatning hissiy va ma’naviy tajribasi va shaxsiy ma’naviyat. tushunish sub’ektining tajribasi. Hozirgi vaqtda germenevtika madaniy matnlarni o‘qish va

Natija. Simulyatsiya tibbiy ta’limda uzoq tarixga ega. Zamonaviy texnologiyaning rivojlanishi bilan simulyatsiya ham rivojlandi. Agar simulyatsiya aviatsiya sanoatida bo‘lgani kabi tibbiy va oliy tibbiy ta’lim o‘quv dasturlariga kiritilsa, bemorlarni parvarish qilish va xavfsizlikni yaxshilash imkoni ortgan bo‘lar edi.

Xulosa. Sog’liqni saqlash yanada murakkablashib, klinik amaliyot yanada ixtisoslashgan bo‘lsa, simulyatsiya ta’lim ehtiyojlarini qondirish uchun rivojlanishda davom etishi mumkin. Biz virtual haqiqat, kengaytirilgan haqiqat va aralash reallik simulyatorlari tobora kengayib borishini kutishimiz kerak. Simulyatorlar diagnostika, vazifa va atrof-muhit bo‘yicha trenerlarni birlashtirgan holda yanada qobiliyatli bo‘lishi mumkin. Simulyator manekenini tasavvur qiling-a, u to‘lqin shakllarini hosil qiladi va ularni anesteziya monitorlariga yuboradi, shu bilan birga bronkoskopik tekshiruv va endotrakeal naychani manipulyatsiya qilish, markaziy venoz chiziqni joylashtirish, torakosentez va ko‘krak qafasi trubkasini joylashtirish imkonini beradi. simulyator vositasi. Bunday vositalar nafaqat tibbiy ta’lim uchun bebaho bo‘ladi, balki ular nafaqat bilim va mulohazalarni, balki jismoniy ko‘nikmalarni ham tekshirishga imkon beruvchi kengash sertifikati kabi samaradorlikni baholash uchun yangi paradigmaning asosini tashkil qilishi mumkin. tibbiyot ta’limiga simulyatsiya asosidagi o‘quv dasturlarini kengroq joriy qilish nafaqat baholashni soddalashtirish, balki bemorlarga xizmat ko‘rsatish sifati va xavfsizligini yaxshilash imkoniyatini taminlagan bo‘lar edi.

Adabiyotlar:

1. Jons F, Passos-Neto C, Braghiroli OFM. Tibbiy ta’limda simulyatsiya: qisqacha tarix va metodologiya. Klinik tadqiqotlar tamoyillari va amaliyoti. 2015; 1:46–54. Buck GH. Tibbiy ta’limda simulyatorlarni ishlab chiqish. Gesnerus. 1991;48 Pt 1:7–28.

2. Kuper JB, Taqueti VR. Klinik ta’lim va o‘qitish uchun maneken simulyatorlarini ishlab chiqishning qisqacha tarixi. Postgrad Med J. 2008; 84: 563-570.

3. Grenvik A, Schaefer J. Resusci-Anne’dan Sim-Mangacha: tibbiyotda simulyatorlarning evolyutsiyasi. Crit Care Med. 2004;32:S56–S57.

4. Rozen KR. Tibbiy simulyatsiya tarixi. J Crit Care. 2008;23:157–166.

5. Gaba DM, DeAnda A. Anesteziya kursantlarining simulyatsiya qilingan tanqidiy hodisalarga munosabati. Anestetik analjezik. 1989;68:444–451.

6. SimX. Virtual haqiqat sog’liqni saqlash simulyatsiyasi. https://www.simxvr.com/. 2020-yil 18-noyabrda ko‘rilgan.

7. GL Khasanovich. Possibilities Of The Infocommunication Base In Teaching On Differentiated Educational Programs In Professional Educational Institutions - Berlin Studies Transnational Journal of Science and …, 2022

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada simulyatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, shifokorning texnik qobiliyatlarini oshirishni o‘rgatish uchun xavfsiz va boshqariladigan muhitni rivojlantirish, shuningdek, tibbiy ta’limni baholashning ishonchli usulini yaratish haqida so‘z borgan. Shu sababli muallifning fikricha tibbiy ta’lim

uchun mos simulyatsiyani ta'minlash tibbiy ta'lim jarayonida eng yaxshi ta'lim standartlari va axloqiy tamoyillarga mos keladigan asosiy yo'ldir. Maqolada simulyatsiya tarixi va buguni haqida muallifning nazariy va amaliy bilimlari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются особенности моделирования, разработка безопасной и контролируемой среды для обучения совершенствованию технических навыков врачей, а также создание надежного метода оценки медицинского образования. Поэтому, по мнению автора, обеспечение надлежащего моделирования медицинского образования является основным способом соблюдения лучших образовательных стандартов и этических принципов в процессе медицинского образования. В статье описаны теоретические и практические знания автора об истории и современности моделирования.

SUMMARY

This article discusses the features of simulation, the development of a safe and controlled environment for training to improve the technical skills of physicians, and the creation of a reliable method for assessing medical education. Therefore, in the opinion of the author, ensuring proper simulation of medical education is the main way to adhere to the best educational standards and ethical principles in the process of medical education. The article describes the author's theoretical and practical knowledge about the history and modernity of modeling.

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

TALABALARNING MUQOBIL ENERGIYAGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Jamilov Yu.Yu.
Buxoro davlat pedagogika instituti
"Texnologik ta'lim" kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Tayanch so'zlar: yangi energiya, muqobil energiya, kompetensiya, fizik hodisalarni modellashtirish, pedagogik-psixologik asos, tejamkor texnologiyalar, qurilmalar, mexanizmlar, innovasion ta'lim, intellektuallik.

Ключевые слова: новая энергетика, альтернативная энергетика, компетентность, моделирование физических явлений, педагогико-психологические основы, экономические технологии, устройства, механизмы, инновационное образование, интеллектуальность.

Key words: new energy, alternative energy, competence, modeling of physical phenomena, pedagogical and psychological foundations, economic technologies, devices, mechanisms, innovative education, intellectuality.

Fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bugungi kunda ekologiya va atrof-muhit sofligini saqlash, xalq xo'jaligida muqobil (qayta tiklanuvchi) energiya manbalaridan foydalanishni keng targ'ib kilish, ta'lim muassasalarida muqobil energiyaga oid dars mashg'ulotlarini samarali tashkil etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Jahon ta'lim sohasida o'qitishning zamonaviy shakl va didaktik vositalarini joriy etish, zamonaviy ta'lim vositalari asosida o'quv jarayonini loyihalash, axborot ta'limi muhitida dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda innovasion texnika va texnologiyalarni qo'llash, ta'lim jarayoniga milliy va jahon ta'lim tajribasida mavjud yondashuvlarga asoslangan tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni tadbiq etish hamda takomillashtirish orqali mamlakatimiz intellektual resurslari potensiali ulushini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.


Muqobil energiyaga oid ta'lim jarayonida multimediali dasturiy vositalari ya'ni elektron darsliklar, elektron masalalar to'plami, elektron o'quv-uslubiy majmualar, virtual laboratoriya stendlari, 3D animatsiyalar, elektron o'quv trenajorlari va bilimlarni nazorat qilishning kompyuterli tizimlaridan foydalanish,

ta’lim oluvchilarning motivatsiyasi hamda ta’lim sifati samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Ta’lim tizimida dasturlashtirilgan vositalar ikki turga ajratiladi: ta’limni tashkil qilish va boshqarishga oid bo‘lganlari dasturlashtirilgan vositalar va bundan faqat o‘quv jarayoniga oid bo‘lganlari dasturlashtirilgan ta’lim vositalar deb yuritiladi. Bugungi kunda o‘quv jarayonida foydalanishga mo‘ljallangan ko‘plab dasturlashtirilgan ta’lim vositalar yaratilganki, ularga elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron jurnal, elektron ensiklopediya, elektron kutubxonalar, virtual kutubxonalar, elektron kataloglar, elektron o‘quv metodik majmua va boshqa atamalar bilan yuritiladigan dasturlashtirilgan vositalarni misol qilib keltirish mumkin [2].

Dasturiy ta’lim vositalari magnit optik tashuvchi yoki kompyuter tarmoqlarida (lokal, mintaqaviy, global) joylashgan va o‘zida o‘quv axborotning elektron ko‘rinishini saqlagan nashrlardir. Dasturiy ta’lim vositalari o‘zida o‘quv jarayonini ta’minlash vazifasini bajaruvchi, elektron ko‘rinishda taqdim qilingan, o‘quv va o‘qitish metodikasiga oid ma’lumotlardir. Dasturlashtirilgan ta’lim vositalari umumiy tushuncha bo‘lib, ko‘zda tutilgan tugallangan elektron qo‘llanmalar, balki har xil yaratish bosqichidagi resurslar, shu jumladan texnik topshiriq darajasidagi, rejalashtirilgan darajadagi resurslardir.

Ma’lumot o‘rnida aytish lozimki insonda tashqi axbrotlarni qabul qilish, ularning mustaqil faoliyatida muhum ahamiyat kasb etadi. Didaktikada turli sezgi a’zolari orqali o‘zlashtirilgan axborot, oradan 15 kun o‘tgach, quyidagi miqdorlarda xotirada qolishi aniqlangan: o‘qiganimizning - 10 %, eshitganimizning - 20 %, ko‘rganimizning - 30 %, ko‘rgan va eshitganimizning - 50 %, gapirganimizning - 80 %, gapirgan va amalda bajarganimizning - 90 %. Bundan ko‘rinib turubdiki, olingan bilimlarning mustaqil o‘qib va amalda sinab ko‘rish natijasi samaraliroq ekanini ko‘rsatadi (1-rasm).



1-rasm. Insonning axborotni sezish ko‘rsatgichlari

Dasturiy ta’lim vositalari yaratish yo‘llari, unga qo‘yiladigan pedagogik-psixologik talablar, zaruriy dasturlashtirilgan vositalar, ularning

vazifalari, ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati, qolaversa, metodik ta’minoti asoslarini ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi. Dasturiy ta’lim vositalariga qo‘yiladigan talablarni bir nechta guruhga bo‘lib keltirish mumkin: texnik, texnologik, didaktik, psixologik, mazmuni va tuzilishiga oid va boshqalar [3].

Dasturiy ta’lim vositalari yaratish va joriy qilishda bir qancha muammolar mavjudki, ularni jaxon tajribasidan kelib chiqib, bugungi kunning talab va ehtiyojlarini o‘rgangan holda bartaraf etish zarur. Bu kabi muammolar sabablari o‘rganilib, ularni bartaraf etish maqsadida respublikamizda qator qonun hujjatlari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilinmoqda. Muammolarni hal qilishda, avvalo, ta’lim tizimiga e’tibor qaratish lozim. Chunki yuqori malakali kadrlargina zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish, dasturiy ta’lim vositalari yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kafolatlay oladi. Dasturiy vositalar yaratish va joriy qilishni rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biri ularni yaratishga o‘rgatuvchi fanlarni zamon talablari asosida o‘qitishdan iboratdir.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalaridagi axborot ta’lim muhitiga o‘zaro axborotli ta’sir muhiti sifatida qaralib, talabalar, magistrantlar hamda ilmiy izlanuvchilarning axborotga va dasturiy ta’lim vositalarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini qondirish ko‘zda tutiladi.

Mazkur axborotlar tarkibiga: insonlararo kommunikatsiya vositalari (elektron pochta, telefon aloqasi, chatlar, forumlar, video konferensiyalar va boshqalar), tashqi va ichki axborot resurslariga ulanish, shuningdek, o‘quvchilarga taqdim etiladigan axborot resurslarining o‘zi kiradi. Oliy ta’lim muassasa¬lari asosiy axborot resurslarini turli fanlarni o‘rganishga oid elektron o‘quv-metodik majmualar tashkil etadi. Elektron o‘quv-metodik majmualar deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Bundan tashqari, unda hozirgi kunda talab etiladigan zarur interaktivlik, ko‘rgazmalilik, mobillik, ixchamlik va ularni ko‘paytirishda kam xarajat sarflash, ko‘p variantlilik, ko‘p bosqichlilik hamda tekshirish uchun topshiriqlar va testlar hajmi¬ning ko‘p bo‘lishini ta’minlaydi. Zamonaviy elektron o‘quv-metodik majmualarining afzalligi, avvalo, o‘quv jarayonida o‘quvchilarning mustaqillik va faollik rolini samarali tashkil etishdan iborat. Ta’lim jarayoniga elektron o‘quv-metodik majmualar joriy etish talabalarga fan bo‘yicha axborotning to‘liq manzarasini namoyish etish, o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirishini ta’minlash, o‘qitishni individuallashtirish, nazorat va o‘z-o‘zini nazoratni takomillashtirish, o‘quv jarayonini natijaviyligini oshirishga yordam beradi. Zamonaviy elektron o‘quv-metodik majmualarning afzalligiga dars jarayonining yanada qiziqarli o‘tishini ta’minlash xususiyatidir [1].


Elektron o‘quv-metodik majmualar talabaga taqdim etilayotgan o‘quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko‘ra, o‘zlashtirishida o‘qituvchining o‘qitish funksiyasi talabaning o‘ziga o‘tadi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchini faqat qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammolarni hal etishga yordam beradi.

Tuzilmaviy elektron o‘quv-metodik majmualar o‘quv kursi bo‘yicha ishchi dasturga ega bo‘lishi, fan bo‘yicha nazariy materialni mantiqiy turkumlashtirish, talabalar mustaqil bilim olishi va o‘zini nazorat qilishi uchun tipik masala, topshiriq va testlar, imtihon yoki sinovlar uchun savollar bo‘lishi, zarur me’yoriy-ma’lumotnoma axborotlarini batafsil ta’riflab, bayon etilgan misollar berilishi shart. Bundan tashqari, unda muallif haqidagi ma’lumotlar, o‘quv fanining nomi, ixtisoslik shifri, shuningdek, butun o‘quv kursi uchun talab etiladigan taxminiy soatlar hajmi aniq ko‘rsatilishi ham shart. Elektron o‘quv-metodik majmualar dasturiy platformasi mavjud operasion tizim va dasturiy mahsulotlar o‘quv markazi boshqaruvida bexato hamda to‘g‘ri ishlashi zarur.

Elektron o‘quv-metodik majmualarni yaratishda uning ayrim muhim jihatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Bugungi kunda elektron o‘quv-metodik majmualar mazmuni albatta yangi avlod talablariga muvofiq kelishi, shuningdek, bilimlar sohasida zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot darajasiga javob berishi shart. Elektron o‘quv-metodik majmualar tuzilmasi ikki mantiqiy o‘zaro aloqador elementlar yoki modullardan iborat bo‘lishi shart. Alohida modulni ishlab chiqish yoki ko‘rib chiqishda ular turli xususiy masalalarni hal etishga yo‘naltirilgan xususiyatga ega bo‘lsada, umumiy maqsadli alohida elektron o‘quv material mazmunida ochilishi shart. Elektron o‘quv-metodik majmualar interfeysi shunday tashkil etiladiki, u qat’iy ifodali ko‘rinishga ega bo‘lishi, ko‘rgazmali vositalar paneli foydalanuvchi uchun ishlash texnologiyasini o‘zlashtirishda sodda bo‘lishi maqsadga muvofiq [5].

Darslarning multimediali dasturiy ta’lim vositalar imkoniyatlaridan foydalanib o‘tilishi o‘qituvchilarga bir qancha qulayliklar beradi. Chunki, fanga oid mavzulashtirilgan ovozli dasturlar, rasmli ishlanmalar, harakatli yozuvlar, multiplikatsiya ko‘rinishida yaratilgan filmlar, taqdimotlar, animasion roliklar, o‘yinlar, videoilovalar, multimediali galereyalar, audioilovalar, web uchun ilovalar o‘quvchi uchun qiziqarli yangillik bo‘ladi, o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qiladi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Jumladan, multimediali dasturiy ta’lim vositalari, muqobil energiyaga oid ta’lim jarayonida talabarning muqobil energiya manbalari va qurilmalari, ulardan xalq xo‘jaligida foydalanish, muqobil energiya manbalaridan foydalanishning ekologiya va atrof muhit sofligini saqlashdagi ahamiyatiga oid chuqur bilim



2-rasm. Fotobatareykalar tuzilishi, ishlash prinsipining animasion namoyish etilishi

olishida, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda multimediali dasturiy vositalari ya'ni elektron darsliklar, elektron o'quv-uslubiy majmualar, virtual laboratoriya stendlari, 3D animatsiyalar, elektron o'quv trenajorlari va bilimlarni nazorat qilishning kompyuterli tizimilaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning motivatsiyasi hamda ta'lim sifati samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Masalan "Yarimo'tkazgichlar. Yarimo'tkazgichlarda aralashmali o'tkazuvchanlik" mavzusini o'qitishda nazariy ma'lumotlar bilan birgalikda yarimo'tkazgichli qurilmalarning "Volt-Amper" xarakteristikasini aniqlashda virtual laboratoriya stendlari, yarimo'tkazgichlarning amaliyotda qo'llanilishi misolida fotobatareykalar, ularning tuzilishi va ishlash prinsipi aks etgan animatsiyalardan foydalanish ta'lim oluvchilarning mavzu yuzasidan chuqur bilim olishini ta'minlaydi (2-rasm).

Muqobil energiya manbalariga oid tushunchalar talabalarning kompetensiyaviy tafakkurini rivojlantirishga asos bo'ladi. Talabalarning muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, bo'lajak mutaxassislarning innovasion kasbiy faholiyatga tayyorlashda, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [2].

Talabalarning muqobil energiyaga oid motivatsiyalarini inobatga olib, ularning pedagogik-psixologik va fiziologik xususiyatlariga mos ravishda (ijtimoiylik, kommunikativlik, intellektuallik, axborotlilik) kompetensiyalari rivojlantirildi.

Ijtimoiylik kompetensiyasi – energetika va atrof muhit muhofazasi sohasida bo'layotgan voqea, hodisalarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Kommunikativlik kompetensiyasi – ijtimoiy vaziyatlarda muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy

moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Intellektuallik kompetensiyasi – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Axborotlilik kompetensiyasi – media manbalardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta’minlashni, media madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, fanning mazmunidan kelib chiqqan holda talabalarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham rivojtirildi.

Dasturiy ta’lim vositalari, ya’ni elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, elektron jurnal, elektron ensiklopediya, elektron kutubxonalar, virtual kutubxonalar, virtual laboratoriya stendlari, elektron kataloglar, elektron o‘quv-uslubiy majmualar, elektron masalalar to‘plami, 3D animatsiyalar, elektron o‘quv trenajorlari va bilimlarni nazorat qilishning kompyuterli tizimilari, ularni ishlab chiqishga qo‘yiladigan talablar o‘rganilib, talabalarning muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari tadqiq qilindi.

Ta’kidlash zarurki, “Mutaxassis modeli” tushunchasi turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. Ko‘pchilik olimlar mutaxassis modeli deganda, muayyan ixtisoslik bo‘yicha mutaxassisning umumlashtirilgan obrazi hisoblangan, o‘rganiladigan ob’yektning asosiy tavsifini aks ettiruvchi va bayon etuvchi o‘xshashlikni tushunishgan.

Mutaxassis modeli vaziyatni yaxlit tushunish, oliy ta’lim muassasasi doirasidan tashqariga chiqish, o‘rganilayotgan mutaxassislar, misolida bo‘lajak kasbiy fanlar o‘qituvchilari faoliyati sohasidagi o‘zgarishlarni oldindan aytish va bu o‘zgarishlarni mutaxassislar tayyorlash jarayonida hisobga olish zarurligini o‘z ichiga olishi lozim. Mutaxassis pedagog faoliyati modelini yaratish murakkab va ko‘p qirrali vazifa bo‘lib, uning bosqichlarini R.C.Nemov quyidagicha ajratib ko‘rsatadi: mutaxassis modelining asosiy parametrlarini dastlab farazlar tarzida, so‘ngra tadqiqot darajasida ajratib ko‘rsatish; modelni loyihalash uchun uning ko‘rsatkichlarini tanlash, konstruksiyalash, standartlashtirish; mutaxassis modelini yaratish uchun metodik asoslarni ishlab chiqish [6].

Quyida modelning asosiy komponentlari izohlangan:

Ijtimoiy ehtiyoj komponentida oliy ta’lim muassasalari talabalarining muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini dasturiy ta’lim vositalari asosida rivojlantirish

orqali mustaqil ishlash, mantiqiy fikrlash, ilmiy dunyoqarash, ijodkorlik qobiliyatlarini o‘stirish va faholiyat turlari bo‘yicha malaka talablari va Davlat ta’lim standartlari talablarining bajarilishi nazarda tutilgan.

Maqsad komponentida dasturiy ta’lim vositalari asosida talabalarining muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish belgilangan.

Talabalarining muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan dasturiy ta’lim vositalarining didaktik xususiyatlariga qarab metodik-tashkiliy, texnologik jarayonli va kreativ turlariga ajratib o‘rganildi.

Texnologik jarayonda esa, “Konstuktorlik-texnologik faoliyati” tushunchasi mazmuniga faqat texnikaviy-konstruksiyalash, ijodiy masalalarni hal qilish emas, balki ularni tajriba orqali, ya’ni detallar tayyorlash texnologiyasi va texnikaviy ob’yektni yig‘ish orqali amalga oshirish ham kiritiladi. Bunday yondoshishning ahamiyatli tomoni shundaki, talaba deyarli haqiqiy ishlab chiqarish sharoitida faoliyat ko‘rsatadi.

Kreativlikka oid kompetensiyalar, bo‘lajak mutaxassisning ijodiy texnikaviy tafakkurlarini rivojlantirish yo‘llaridan biri texnikaviy konstruksiyalash va modellashtirish asosida darslarni tashkil etishni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir. Dars mashg‘ulotlarida yoki o‘quv ustaxonalaridagi texnikaviy konstruksiyalashni ma’lum darajada malakali konstruktorlar, texnologlar, malakali ishchilar, yig‘uvchilar va sozlovchilar faoliyati bilan taqqoslash mumkin. Chunki, ishlab chiqarish sharoitida yangi mashinalarni yaratish singari o‘quv ustaxonalarida turli buyumlarni texnikaviy yaratish jarayoni ham quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: texnikaviy fikrning tug‘ilishi, mo‘ljallangan buyumga texnikaviy talablarning qo‘yilishi, konstruksiyani eskizlar holatida ishlab chiqarish va uni muhokama qilish, texnologik jarayonni ishlab chiqarish, zarur materiallar va asboblarni tanlash, o‘ylab qo‘yilgan buyum detallarini tayyorlash va ularni uzellarga yig‘ish, uzellardan buyum tayyorlash, buyumni ishda sinab ko‘rish va uni sozlashlarni nazarda tutadi [7].

Bo‘lajak mutaxassisning muqobil energiyaga oid tayanch kompetensiyalarini (ijtimoiylik, kommunikativlik, intellektuallik, axborotlilik) rivojlantirishda yondashuvlar, tamoyillar va dasturiy o‘quv-metodik ta’minot belgilab olingan.

Ta’lim jarayoni (auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim)da, ishlab chiqilgan interfaol metodlar, foydalanilgan vositalar va ularning didaktik imkoniyatlari asosida, talabalarning o‘quv materialini mustaqil o‘rganish malakasini shakllantirish, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni o‘qituvchi tomonidan maqsadli tashkil etiladi va uning nazorati ostida amalga oshirilishi belgilangan.

Metodlar. “Alternative choice” – “muqobil tanlov” metodi, fanga oid tushunchalar, bildirilgan fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni aniqlash, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirish va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri ifodalangan ma’lumotlarni tanlash, xulosa chiqarishga yordam beradi.

“Targeting method” – metodi yordamida bir vaqtning o‘zida guruhning barcha a’zolariga nazariy dars mashg‘ulotlarida, mustaqil ta’lim mazmuni bo‘yicha nostandart topshiriqlarni berish orqali ularning imkoniyatlarini aniqlash, baholash hamda talabalarning o‘quv materialini mustaqil o‘rganish malakasini shakllantirish mumkin.

“Concept analysis” – metodi asosida kichik guruhlar shakllantiriladi, mavzuga oid tushunchalar, muammoli vaziyatlar, qarama-qarshi fikrlar o‘rganiladi, guruhlar bergan xulosalar tizimli tahlil qilinadi, umumlashtiriladi, asoslanadi va optimal yechim ko‘rsatiladi.

Kompetensiyalar mazmunida talabalarning muqobil energiyaga oid ijtimoiylik, kommunikativlik, intellektuallik, axborotlilik kompetensiyalarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Tayyorgarlik darajalari. Baholash mezonlari asosida talabalarning reproduktiv (axborot bilan ishlash), produktiv (muloqotga kirisha olish), qisman izlanishli (muammoli vaziyatlarni hal qila olish), kreativ (faoliyatda novatorlik) kabi tayyorgarlik darajalari orqali muqobil energiyaga oid kompetensiyalari baholangan.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda axborot-ta’lim muhitining o‘rni sezilarli darajada salmoqli bo‘lib, bunda dasturiy ta’lim vositalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuqorida aytilganlardan talabalar texnikaviy model yoki asbobni ishlab chiqishi yoki takomillashtirishi mumkin. Texnologiya ta’limi darslarini tashkil etishda ko‘rgazmali metodlarni qo‘llash yuqori samara berishi ilmiy tadqiqotlard a aniqlangan bo‘lib, ayniqsa u ish-harakat faoliyatini virtual tarzda namoyish qilish natijasida bo‘lajak kasbiy fanlar o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Axborot-ta’lim muhiti sharoitida bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga imkon beruvchi ta’lim vositalari tarkibiga elektron darsliklar elektron darslik va elektron o‘quv qo‘llanmalar, multimediali o‘rgatuvchi tizimlar; audio o‘quv-axborot materiallari; video o‘quv-axborot materiallari; virtual laboratoriya ishlari; trenajyorlar; ma’lumotlar va bilimlar bazasi; elektron axborot resurs markazlar; ekspert o‘rgatuvchi tizimlar asosidagi o‘qitish vositalari; virtual reallik asosidagi o‘qitish vositalari kiradi.

Ta’lim jarayonida virtual stendlar va laboratoriyalardan foydalanish ta’lim tizimi rivojlanishining tabiiy bosqichi bo‘lib bunda bo‘r doskadan kompyuter o‘rgatuvchi animatsiyali hamda multimediali dasturlarga, odatdagi axborot resurs markazlaridan elektron axborot resurs markazlarga, kichik o‘quv guruhlardan istalgan hajmdagi virtual auditoriyalarga almashtirilishi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Baholash mezonlari. Bo‘lajak mutaxassislarning muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini baholash quyidagi mezonlar asosida olib borildi: Ijtimoiylik (ijtimoiy ongi, munosabati va ta’lim tizimdagi islohotlardan xabardorligi va h.k.), kommunikativlik (pedagogik muloqotga kirishuvchanligi, xorijiy tillarni egallanligi va pedagogik etikani amalda qo‘llashi va h.k.), intellektuallik (kasbiy salohiyat, dunyoqarash va o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni amalda qo‘llash va h.k.) va axborotlilik (axborot texnologiyalar bilan ishlash, ma’lumotlarni izlash, yig‘ish va qayta ishlash va h.k.).

Auditoriya mashg‘ulotlari: bevosita ta’lim muassasasida o‘qituvchi rahbarligida, nazoratida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga qaratilgan o‘quv kasbiy faoliyatlari.

Mustaqil ta’lim: ta’limiy materiallarni mustaqil o‘zlashtirish, amaliy vazifalarni axborot texnologiya elementlaridan foydalangan holda ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim va amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, bakalavr-o‘qituvchilarni tayyorlashda axborot-ta’lim muhitining o‘rni sezilarli darajada salmoqli bo‘lib, bunda dasturiy ta’lim vositalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish jarayonida o‘qitishning texnik vositalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda kompyuterlar yangi o‘quv materialining kasbiy ta’lim darslariga mos ravishda muayyan zarur hajmli qismini kiritish va qaytish aloqasini olish imkonini beradi.

Talaba olingan axborot asosida tegishli harakatlarni amalga oshiradi, shundan keyin esa kompyuterga olingan natijalarni kiritadi va o‘quvchining berilgan topshiriqni qanchalik to‘g‘ri bajarganligi haqida unga ma’lumot beradi. Nazorat qilishning matrisa usuli mohiyati shundaki, talaba bir qancha savollar va ularning har biriga mos javoblarga ega bo‘ladi, ulardan to‘g‘rilarni tanlaydi. Bu javoblarni talaba koordinatali yoki raqamli usul bilan kodlashtirishi kerak. Koordinatali usulda talabaga turli shakllar chizilgan varaq beriladi, unda gorizontal chiziqlarning raqamlari javoblarni bildiradi. Talaba qo‘yilgan savolga javob topar ekan, gorizontal va vertikal chiziqlarning ilova qilingan javobga mos keluvchi kesishgan joyini yirik nuqta bilan belgilab qo‘yishi lozim.

O‘qituvchida to‘g‘ri javob berilgan joylarda teshiklari bor bo‘lgan trafaret (matrisa) bo‘ladi. U talabaning to‘ldirilgan varag‘iga ana shunday trafaretni qo‘yib darhol uning tanlagan javoblari sifatini aniqlaydi. Talaba raqamli kodlashtirishdan foydalanganda savolning har bir raqami to‘g‘risiga tanlangan javobning mos keluvchi raqamini qo‘yadi. O‘qituvchi tegishli trafaretni bajarilgan topshiriq ustiga qo‘yib, javoblarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini belgilab chiqadi.

Adabiyotlar:

1. S.K.Kakharov, Yu.Yu.Zhamilov “Formation of competencies in the field of alternative energy using software for teaching physical education” The role of physics in modern education. Materials of the Republican Scientific and Practical Conference. Samarkand. 2019. – P. 41-42.

2. S.K.Kakharov, Yu.Yu.Zhamilov “Opportunities of the formation of students’ competence on alternative energy using training software devices” European science 2020. № 2 (51). Part II. –P. 61-64.

3. S.K.Kakharov, H.O.Jurayev, Yu.Yu.Zhamilov “Recirculating Solar Dryer” Science and world – international scientific journal, № 11 (39), 2013, Том 1, Volgograd, –P. 26-28.

4. S.K.Kakharov, H.O.Jurayev, “Alternative energy sources” Textbook for Vocational Colleges. – T.: “Niso Poligraf”, 2016.

5. Qahhorov S.Q., Jo’rayev H.O., Jamilov Y.Y., Hamdamova N.M. “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari” // O’quv qo’llanma. Buxoro. “Sadriddin Salim Buxoriy”. 2021. – B. 322.

6. Kakhhorov S.K., Zhuraev A.R. Method of application of virtual stands in teaching subjects of electrical engineering, radio engineering and electronics// LXII International correspondence scientific and practical conference «International scientific review of the problems and prospects of modern science and education» (Boston. USA. September 22-23). 2019. – P. 44-47.

7. Zhuraev AR. The choice of the optimized content of labor education and the methodology of its training (5A112101 – Methodology of labor training). Tashkent - 2014 from 107.

8. Zhuraev A.R. Research and methodology background to the optimization of labour and professional training curriculum in general secondary education // International scientific journal. № 7 (35) / Russia Volgograd. International scientific journal. № 7 (35) / Russia Volgograd. Impact factor of the journal «Science and world» – 0.325 (Global Impact Factor 2013, Australia) 2016. – P. 70-71.

9. Zhuraev A.R. Methodology for the use of virtual laboratories in teaching the subjects of hydraulics and heat engineering // LXII International correspondence scientific and practical conference «International scientific review of the problems and prospects of modern science and education» (Boston. USA. September 22-23). 2019. –P. 48-50.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada talabalarning muqobil energiyaga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlillar, ta’riflar va xulosalar keltirilgan. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning muqobil energiyaga oid bilim olishi zarurati, pedagogik xususiyatlari, energiya tejamkor texnologiyalar, qurilmalardagi fizik hodisalarni modellashtirish, ta’limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili bayon qilingan. Ushbu ilmiy izlanishlar ta’lim oluvchilarda yangi energiya turlarini hosil qilishning fizik jarayonlariga oid xususiy va tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish, muqobil energiya manbalaridan samarali, oqilona hamda tejamkorlik bilan foydalanish madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены анализ, определения и выводы педагогических и психологических основ развития компетенций студентов, связанных с альтернативной энергетикой. Описана необходимость изучения студентами альтернативной энергетики в высших учебных заведениях, педагогических особенностей, энергосберегающих технологий, моделирования физических явлений в устройствах, анализа научных исследований, направленных на использование современных

технологий в образовании. Данные научные исследования служат развитию специальных и базовых компетенций студентов относительно физических процессов создания новых видов энергии, повышению культуры эффективного, рационального и экономного использования альтернативных источников энергии.

SUMMARY

This article presents the analysis, definitions and conclusions of the pedagogical and psychological foundations for the development of student competencies related to alternative energy. The need for students to study alternative energy in higher educational institutions, pedagogical features, energy-saving technologies, modeling of physical phenomena in devices, analysis of scientific research aimed at using modern technologies in education is described. These scientific studies serve to develop special and basic competencies of students regarding the physical processes of creating new types of energy, improving the culture of effective, rational and economical use of alternative energy sources.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BIOFIZIKA FANINI O‘QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Hakimov A.
Andijon davlat universiteti “Fizika- matematika” fakulteti dotsenti

Tayanch so’zlar: oliy ta’lim myassasasi, talabalar, biofizika, zamonaviy innivatsion tehnologiyalar, kreativlik, kreativ yondashuv.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, студенты, биофизика, современные иннова-ционные технологии, креативность, креативный подход.

Key words: higher education institution, students, biophysics, modern innavation technologies, creativity, creative approach.

XXI-asr o‘zining ilm va texnologiya eng yuqori pag‘onasiga ko‘tarilgani bilan ahamiyatlidir. Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarining mavjud taraqqiyoti zamonaviy jamiyat qiyofasini belgilab bermoqda. Zamonaviy jamiyatning eng muhim xarakterli jihati uning barcha sohalarida globallashuvning ko‘zga tashlanayotganligidir. Globallashuv o‘z-o‘zidan tezkor harakatlanish, zarur axborotlarni zudlik bilan qo‘lga kiritish, ularni qayta ishlash va amaliyotga samarali tatbiq qilishni taqozo etadi. Bu tarzda harakatlanish imkoniyatiga o‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan, kasbiy malakalarni yuqori darajada egallay olgan, boy tajriba va mahoratga ega kadrlargina ega bo‘ladilar.

Uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiluvchi ta’lim jarayonida o‘quvchi shaxsining dars markazidagi faoliyatini ta’minlash o‘qituvchi zimmasidagi mas’uliyatli vazifadir. O‘qituvchi ana shunday jarayonda dars loyihasini maqsadga muvofiq tashkil etmog‘i va ko‘zlangan natijaga erishmog‘i uchun izla- nishi, yangi g‘oyalar bilan darsga kirishi, har bir darsni yangi bir asardek tashkil etmog‘i hozirgi kun talablaridan hisoblanadi. Bugungi kunda tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlashga, tibbiy talim muassasalarida talim sifatini oshirishga katta etibor qaratilmoqda. Shu maqsadda tibbiyot oliygohlariga yangi texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan simulyatsion talim tizimining amaliyotga kirib kelishi bu boradagi ishlarning jaxon standartlari darajasiga olib chiqayotganligidan dalolatdir. So‘nggi yillarda tibbiy talim sifatini yanada oshirish, ularning nazariy va amaliy tayyorgarligini, kasbiy va ixtisoslik fanlari

bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari xamda klinik o‘quv amaliyotini kengaytirish hisobiga yaxshilashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta’lim jarayonida tobora faol qo‘llanilayotgan zamonaviy vositalardan biri – bu axborot texnologiyalari sanaladi. Ularning texnik, texnologik imkoniyatlari ta’lim jarayonini qiziqarli, jonli, samarali tashkil etishda pedagoglar uchun nihoyatda qo‘l keladi. Bugungi kunda ta’limda radio eshit-tirish, teleko‘rsatuvlar, filmlarni namoyish imkoniyatlari mavjud. Ulardan foydalanish o‘qitish sifatini yaxshilaydi, talabalar, pedagoglarning kreativ sifatlari, kasbiy-ijodiy malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalari orasida kompyuterlarning alohida o‘rni bor. Zamonaviy o‘qitishda kompyuter texnologiyasi pedagoglar uchun eng yaqin “yordamchi” bo‘lmoqda. Ta’lim jarayonida ulardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

1) real ishlab chiqarish faoliyatiga mos keluvchi hajm, psixologik va mantiqiy-tarkibiy tuzilma mohiyatga ko‘ra o‘quv axborotini to‘la taqdim etilishini ta’minlaydi;

2) o‘quv axborotlarining tezkor yangilanishini inobatga olgan holda ularni taqdim etish tezligini zarur darajada bo‘lishiga ko‘maklashadi;

3) o‘quvchilarga bajarilayotgan ish-harakat yoki faoliyat sifati haqidagi ma’lumotni berishda tezkorlikni ta’minlaydi;

4) ishlab chiqarish ustasiga o‘quvchi faoliyatini nazorat qilish va unga zarur o‘rinlarda maslahat, yo‘nalish hamda ko‘rsatmalar berish imkoniyatini yaratadi[87].


Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi dars mashg‘ulotlariga sezilarli ijobiy samara beruvchi yangilik kiritishdan iborat. Axborot- kommunikatsi-ya texnologiyalari ta’lim modelida pedagoglar fasilitator, tyutor, mediapedagog, moderator kabi va-zifalarni ado etadilar.

Jumladan:

– kompyuter texnologiyalari asosida ta’lim berishda pedagog fasilitator, ya’ni jarayonda asosiy yordamchi;
– masofadan o‘qitish ta’limida tyutor vazifasini, ya’ni masofadan o‘quvchi bilan o‘quv jarayonini tashkil qiluvchi, aloqani o‘rnatuvchi, vazifa beruvchi va tahlil qiluvchi;
– mediata’lim beruvchi pedagog esa mediapedagog nomi bilan, ya’ni barcha texnika vositalarini bir vaqtning o‘zida o‘zi mustaqil boshqara olish, namoyish etish va muloqotga kirishish;
– internet forumda ishlovchi pedagog moderator, ya’ni videokonferensiyalarda ishni tashkil qiluvchi va aloqa o‘rnatuvchi vazifasini bajaradi.

1-jadval

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ta’lim modeli



Hozirda ilg‘or innovatsion pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish murakkab bo‘lib bormoqda. Shu munosabat bilan ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanmoqda, o‘quv- tarbiya jarayoni yangi o‘quv uslubiy majmualar bilan ta’minlanmoqda.

Ta’lim tizimini axborotlashtirish, uni jahon axborot tarmog‘iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog‘i bilan to‘liq ta’minlash, o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy qilish natijasida quyidagilarga erishish mumkin:

1. Elektron shakldagi o‘quv adabiyotlari va ma’ruza matnlarining mazmunini doimiy ravishda yangilab va boyitib borish imkoniyati tug‘iladi. Biofizikaga oid qonunlar o‘zgarmas bo‘lsada, lekin xozirgi kunda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishi natijalari, biofizika fanini takomillashtirishda erishilayotgan yutuqlar, yangiliklar bilan doimiy ma’lumotlar yangilanib boriladi. Talabalar biofizikada mavzu bo‘yicha elektron o‘quv adabiyotlarini elektron kutubxonadan olishi mumkin. Bu unga ancha qaqtini tejashga xamda ko‘p ma’lumotlar bazasi bilan tanishish imkonini beradi. Institut hududida doimiy ravishda Wi-Fi zona ishlab turishi barcha professor- o‘qituvchilar va talabalar uchun adabiyotlar bilan muntazam tanishib borish hamda yangiliklar bilan ishlash imkoniyatini beradi.

2. Institutda 2 ta o‘quv xonasi kompyuterlar bilan,1 ta xona elektron interfaol doska bilan ta’minlangan bo‘lib, barcha kompyuter xonalari internet tarmog‘iga ulangan. Institutda faoliyat olib borayotgan professor- o‘qituvchilar va talabalar ta’lim jarayonida va bo‘sh vaqtlarida ulardan unumli foydalana oladilar.

3. Ochiq universitetlarni yo‘lga qo‘yishga zamin yaratilib, unda o‘quvchilar respublikamizdagi eng yuqori malakali pedagoglardan ta’lim olishga erishadilar. Talabalar xatto rivojlangan mamlakatlardagi universitetlarning talabalari bilan xam aloqa o‘rnatish imkoniga ega bo‘ladilar.


4. Elektron o‘quv adabiyotlarini loyihalashtirish va ishlab chiqish juda ko‘p mehnat talab qiladigan jarayon hisoblanadi, lekin ular bir marta ishlab chiqilgandan keyin ulardan ta’lim jarayonida cheksiz foydalanish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, katta iqtisodiy samara beradi. Albatta, o‘z o‘rnida shuni aytish joizki, internet muntazam ravishda ishlab turgan holda kutubxona ham o‘z faoliyatini yangilab, elektron kutubxonaga aylangan.

Dars jarayoni murakkab ijodiy mashg‘ulot bo‘lganligi bois, uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning kreativlik mahorati va ijod- korligiga bog‘liq. Talabalarning faollashtirish uchun axborot texnologiyalari, o‘yin, bahs, suhbat, musobaqa, sayohat, konferensiya, davra suhbati, rolli o‘yinlarni qo‘llash, kitob bilan ishlash, kompyuter mashg‘ulotlariga yetarlicha vaqt ajratish kerak.

Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rinli qo‘llanishi mashg‘ulotlarning qiziqarli tarzda tashkil etilishi bilan birga o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Ta’lim jarayonini multimediali resurslar bilan tashkil etish albatta ijobiy natijalarni ko‘rsatadi. Multimediali ilovalarning afzallik tomonlaridan biri mavzularga tegishli animatsiyalardan gipermurojaat yordamida foydalanish imkoniyati mavjud. Animatsiyalar harakat va ovoz bilan boyitilishi evaziga o‘quv materiallarining mazmunini kengroq va tushunarli tarzda yoritib berish mumkin.

Multimedia – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha. Biofizika fanini o‘qitishda bu ta’lim texnologiyasi juda katta samara beradi. Masalan, yurakning tuzilishi, qon aylanish sistemalarini talabalarga tushuntirishda xarakatlantiruvchi oboarzi, ya’ni annimatsiya ko‘rinishi talabalarda aniq tasavvur paydo qiladi. Aks xolda, yurakdagi fizik jarayonlarni tushuntirish uchun avval yurak tuzilishi xakida tushuncha berish kerak. Yurak tuzilishi xaqida tushuntirib o‘tgunga qadar, asosiy mavzuga vaqt yetmay qolishi mumkin. Shuning uchun mul’timediya mahsulotlaridan foydalanib, avval yurakning animatsion xarakatlanuvchi obrazi namoyish qilinadi, so‘ng fizik jarayonlar prezintatsiya qo‘rinishda bayon qilinadi. Tadqiqotimiz doirasida barcha ma’ruza mashg‘ulotlari va amaliy mashg‘ulotlarni zamonaviy axborot ta’lim texnologiyasidan foydalanib, xar bir mavzu uchun multimediya mahsuloti ishlab chiqdik.



1-rasm. Yurak tuzilishining animatsion effektlar yordamida multimediya ishlanmasi

Axborot texnologiyalarining moslashuvchanlik va interaktivlik xususiyatiga egaligi talabalarning o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq holda o‘tilgan mavzuni qaytarish, mavzu ustida ishlashlarni individual tempda amalga oshirish, shuningdek, tabiiy muloqotni imitatsiyalash, ya’ni, elektron darslik matni bilan talaba o‘rtasida muloqot o‘rnatib, so‘rovnoma, verbal, noverbal, ovoz va boshqalar yordamida o‘qituvchi mavjudligini his etish imkoniyatini yaratadi. Bu turdagi texnologiyalar yordamida multimedia mahsulotlari, elektron albom, elektron atlas, raqamli video lavhalar, virtual stendlar, audio va video vizual materiallar, shuningdek, prezentatsiyalar tayyorlash imkoniyati mavjudki, ular ta’lim jarayonining qiziqarli tashkil etilishini ta’minlaydi. Qolaversa, ular vositasida talabalarning ijodiylik, ya’ni kreativlik qobiliyatlari takomillashadi, hissiy-estetik tuyg‘ulari shakllanadi. Bu esa shaxsning kreativligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Quyidagi axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan ijod mahsulotlarini sanab o‘tamiz.

Multimedia – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha. Biofizika fanini o‘qitishda bu ta’lim texnologiyasi juda katta samara beradi. Masalan, yurakning tuzilishi, qon aylanish sistemalarini talabalarga tushuntirishda xarakatlantiruvchi oboarzi, ya’ni annimatsiya ko‘rinishi talabalarda aniq tasavvur paydo qiladi. Aks xolda, yurakdagi fizik jarayonlarni tushuntirish uchun avval yurak tuzilishi xakida tushuncha berish kerak. Yurak tuzilishi xaqida tushuntirib o‘tgunga qadar, asosiy mavzuga vaqt yetmay qolishi mumkin. Shuning uchun mul’timediya mahsulotlaridan foydalanib, avval yurakning animatsion xarakatlanuvchi obrazi bnamoyish qilinadi, so‘ng fizik jarayonlar prezintatsiya qo‘rinishda bayon qilinadi. Tadqiqotimiz doirasida barcha ma’ruza mashg‘ulotlari va amaliy mashg‘ulotlarni zamonaviy axborot

ta’lim texnologiyasidan foydalanib, xar bir mavzu uchun multimediya mahsuloti ishlab chiqdik.(dissertatsiya ilova qismida berilgan)

Elektron albom – rasmlar, suratlar, chizmalar va boshqar grafik tasvirlar hamda ularning izohlarini o‘zida aks ettiruvchi elektron shakldagi to‘plam.

Elektron atlas (yun. “Atlas” – birinchi bo‘lib, osmon globusini yaratgan afsonaviy Liviya podshosining nomidan) – muayyan o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha tavsiya etilgan va o‘ziga xos grafik tasvirlarga ega bo‘lib, o‘quv maqsadlariga ko‘ra foydalaniladi.

Raqamli video lavhalar – o‘quv moduli (o‘quv fani) bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yordam beradigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan 3D o‘lchamdagi zamonaviy o‘quv manbai.

Virtual stendlar – 1) real ob’yekt, predmet, jarayon, voqea va hodisalarning elektron modeli; 2) matn, rasm, sxema, jadval, diagramma va boshqa shakldagi axborot, jarayon hamda virtual muhitlarni yaratish, saqlash, ishlov berish, raqamlashtirish va tizimli ravishda amalga oshirishni ifodalovchi kompyuterli vosita. Ayniqsa, biofizikada berilgan labaratoriya ishlari uchun deyarli asbob-uskunalar, jixozlar yetishmaydi. Bori xam zamon talabiga javob bera olmaydi. Shuning uchun xam ko‘rgazmali qurollardan masadli foydalanish uchun, xam labaratoriya ishi natijasida olingan birliklarni xatoliklarni matematik xisob kitob qilish tezlashishi va aniqlik darajasi oshishi uchun vertual labaratoriyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zida mujassam etgan “Biofizikadan labaratoriya mashg‘ulotlari” deb nomlangan vertual labaratoriya ishlariga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma ishlab chiqdik. Bunda asosan labaratoriya ishlariga mo‘ljallangan “DELPI” elektron dasturlash tilidan foydalandik.(dissertatsiyaning ilova qismida berildi)

Imitatsion virtual trenajyor (ingl. “train” – “tarbiyalamoq”, o‘qitmoq”, “mashq qildirmoq”) – elektron shakldagi o‘quv-mashqlantiruvchi qurilma bo‘lib, u yordamida mehnat faoliyatining real sharoiti modellashtiriladi, muayyan faoliyat (m: mashina (mexanizm)ni boshqarish, murakkab stanokda ish bajarish yoki harbiy texnika sirlarini o‘zlashtirish) ko‘nikmalari shakllantiriladi, ko‘nikmalar malakalarga aylantiriladi hamda hosil bo‘lgan malakalar takomillashtiriladi. Bunga misol qilib xozirgi kunda tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilayotgan xamda talabalarda kreativlik kompetensiyalarini rivojlantirishga katta xissa qo‘shayotgan Simulyatsion markazlardagi ta’lim jarayonlarini misol qilish mumkin. So‘nggi yillarda tibbiy talim sifatini yanada oshirish, ularning nazariy va amaliy tayyorgarligini, kasbiy va ixtisoslik fanlari bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlari xamda klinik o‘quv amaliyotini kengaytirish hisobiga yaxshilashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda “Simulyatsion o‘qitish

markazlari" tashkil etilib, talabalar bu yerda nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llab, simulyatsion uskunalar orqali amaliy mashg‘ulot olib bormoqdalar. Ushbu markazlarda talabalarga bilim berayotgan o‘qituvchilarni zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo‘lishlari, ta’lim amaliyotida o‘qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatlari va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko‘nikma-malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish kabi pedagogik mahorat talab etadi.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini belgilovchi shunday xususiyatki, u o‘z fanini chuqur va atroflicha bilishida, pedagogik, psixologik, metodik tayèrgarligida, talabani o‘qitish, tarbiyalash va ma’lumotli qilishning optimal yo‘llarini izlab topishida namoèn bo‘ladi. Pedagogik mahorat tug‘ma talant èki nasldan-naslga o‘tadigan xususiyat emas, balki tinimsiz izlanish, ham ilmiy, ham amaliy shakldagi ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko‘p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat ètadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolip shaklida qolib ketadigan ish usuli emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jaraènida tashkil topadi va rivojlanadi.

Simulyatsion talim tizimida amaliyot jarayonlari asosan klinik yoki mutaxassislik fanlari(jarrohlik, terapiya, akusher-gnekologiya, stomotologiya) dan simulyatsion markazlarda dars berayotgan o‘qituvchilar tor doiradagi mutaxassislar tomonidan, yani jarrox, terapevt yoki akusher-gnekologlar tomonidan simulyatsion uskunalar(mulyajlar, manikenlar) yordamida dars beradilar. Masalan, akusher-gnekolog mulyaj orqali tug‘ruq jarayonlarining borishi, chaqaloqni ona qornidan ajratib olishdek murakkab jarayonlarni talabalarga amaliy ko‘rsatib beradi. Bu borada o‘qituvchi talabaga ushbu amaliy jarayonni nazariyasini ochib berish uchun undan pedagogik maxorat talab etiladi. Chunki jarroh kuchli mutaxassis bo‘lishi mumkin, akusher gnekolog o‘z kasbining ustasi bo‘lishi mumkin, ammo pedagog emas. Shuning uchun o‘qituvchidan pedagogik ta’lim texnologiyalarini bilishi talab etiladi. Simulyatsion ta’lim maksadi - klinik fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiya – simulyatsion mulyajlarda tegishli amaliy ko‘nikmalarni bajarishda qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari va kreativ kompetentlik talabalarni innovatsion ta’lim texnologiyalari, o‘qitishning innovatsion shakl, metod va vositalari, kasbiy kompetentlik sifatlari hamda ta’lim jarayonini tashkil etishga kreativ yondashishga doir bilimlarini takomillashtirish asosida ular tomonidan innovatsion yondashuv, kasbiy kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyatning samarali o‘zlashtirilishiga yordam beradi. O‘qitishning zamonaviy metodlarini

qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun simulyatsion o‘quv markazlarida dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, simulyatsion uskunalarni kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda simulyatsin ta’limda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi va yuqori natijadorlikka erishish taminlanadi.

Axborot texnologiyalarining imkoniyati va talabalarning kasbiy faoliyatlariga ijodiy yondashishlari natijasida yaratilgan multimedia mahsulotlari, audio va video materiallar, xususan, video animatsiyalar ham ta’lim jarayonida faol qo‘llaniladi.

Multimedia mahsulotlari – o‘zida AKTning dasturiy va texnik imkoniyatlari asosida audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida o‘quv materialini tinglovchilarga yetkazib berilishini mujassamlashtirgan ishlanma (mahsulot)lar.

Audio va video vizual materiallar – o‘quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta’minlovchi materallar.

Video animatsiyalar – chizilgan (rasmli) yoki kichik hajmli obraz (hajmiy, qo‘g‘irchoq yoki o‘yinchoqli ob’yekt)larni harakatga keltirish va bu harakatning har bir bosqichini ketma-ket suratga olinganligini ifodalovchi elektron tasvirlar.

Prezentatsiya (taqdimot; lot. “praesentatio” – taqdim etish) – muayyan mavzu yoki muammo bo‘yicha o‘quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog‘ozlari (oddiy yoki vatman qog‘ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proyektor, protsesor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi Mohiyatiga ko‘ra axborot texnologiyalari yordamida tayyorlangan va ta’limiy maqsadlarda foydalaniladigan ijod mahsulotlar talabaning bilish faoliyatini faollashtirishi, uning o‘quv materialani o‘zlashtirish maqsadlari bilan qurollantirish, o‘quv materialini tushunishi va o‘zlashtirishini kuchaytirish,

fanlararo aloqani chuqurlashtirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Buning uchun elektron shakldagi ijod mahsulotlari turli jarayon va hodisalarni tushunishni osonlashtirishga, tajribalarni bajarish usullari bilan tanishtirishga, laboratoriya jihozlarida ishlashni yengillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biridir. Buning uchun dars jarayonida kreativ mahsulot (ishlanma) lardan foydalanish eng samarali usuldir. Bu yo‘lni tutishda pedagog talabalarga «Odamning qon aylanish tizimi» mavzusida Power Point dasturi yoki multimedia vositalari yordamida taqdimotni yaratish topshirig‘ini berishi mumkin. Taqdimotni tayyorlash jarayonida talabalarda kreativ fikrlash ko‘nikmalari faol rivojlanadi. Talabalar o‘zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoyon qilishlari mumkin. Agar talabalarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo‘rquv hissi mavjud bo‘lsa, fikrni noto‘g‘ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrashdan qo‘rqsalar, bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi.

Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholashda qo‘llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul biofizika fanini o‘qitishda eng ko‘p ishlatilayotgan ta’lim texnologiyalraidan xisoblanadi. Buning uchta asosiy sababi bor:

Birinchidan, bu ta’lim texnologiyasi nafaqat biofizika, balki barcha fanlarda xam keng qo‘llanilib kelayotgan ta’lim metodidir. Prezintatsiya qo‘rinishda darsning olib borilishi pedagog uchun xam, talaba uchun xam ancha qo‘laylik yaratadi. Chunki o‘qituvchi dars tarkibi, dars rejasini to‘la namoyish shaklda qo‘ribturib, nimadlan keyin nimani aytishi aniq belgilab qo‘yilgan bo‘ladi. Talabalarda esa ming marta eshitgandan bir marta ko‘rgan afzal deganidek, ko‘rib, tushunish imkoniyatlari ortadi.

Ikkinchidan,tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida biofizika fani uchun dars soatlari deyarli juda xam kam soat ajratilgan.

Uchinchidan, bir juftlikka mo‘ljallangan mavzu juda katta xajmdagi axborotni o‘z ichiga oladi. Bunday xolatlarda o‘qituvchi talabalarga mavzuga oid barcha ma’lumotlarni aytib berishga vaqt yetmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, mavzuga tegishli eng asosiy tayanch ta’riflar, tushunchalar, asosiy birliklar, dars rejalari prezintatsiya ko‘rinishda ifodalanishi muammoni ancha yengillashtirishga imkon beradi. Katta mavzuni prezintatsiya ko‘rinishida bayon qilishda talabadan kreativ yondashish talab etiladi. Shuning uchun xam biofizika fanidagi 15 soatga mo‘ljallangan 8 ta ma’ruza xam, 45 soatga mo‘ljallangan 15 ta amaliy mashg‘ulot xam talabalarga prezintatsiya ko‘rinishda namoyish etildi.

Xulosa qilib aytganda, talablarning kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, ular o‘zlaridagi mavjud kreativlik sifatlari, ularning darajasi borasida aniq tasavvurga ega bo‘ladi, ikkinchidan, ular tomonidan tashkil etilayotgan ta’lim jarayoning sifati hamda samaradorligi xususida bir to‘xtamga kelish mumkin. Shuningdek, kreativlik sifatlariga egaliklarini aniqlash orqali talabalarning bu boradagi faoliyatlari yo‘nalishlarini belgilash imkoniyati yuzaga keladi. Talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish muayyan bosqichlarda kechadi. Mazkur bosqichlarning har birida kreativlik sifatlarini rivojlantiruvchi metod, vosita va texnologiyalarining maqsadli, izchil qo‘llanilishi, shuningdek, pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish o‘qitish sifatining yaxshilanishi, samaradorligining oshishi uchun qo‘lay sharoitni yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/Монография. – Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2013.

2. Педагогика назарияси / ОТМ учун дарслик. Муал.: М.Х.Тохтаходжаева ва бошқалар. Проф. М.Х.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: «Iqtisod-moiya», 2010..

3. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб / Методик қўлланма. Иноятов У.И., Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Иноғомова Д. – Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 28 февралдаги ПФ-27-сон “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясининг “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида”

РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy ta’lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida biofizika fanini o‘qitish metodikasini takomilashtirish omillari, pedagogik shart sharoitlari, samaradorlikni oshirish usullari xaqida bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье говорится, что образование эффективно, педагогика условия, примирения методика совершенствования методика обучения, педагогика условия труда примирения методика изложена.

SUMMARY

The article describes the pedagogical conditions, the meaning and methods of achieving the goal of developing professional and personal capabilities of the head by a preschool institution.

MUTAXASISLIK FANLARNI O‘QITISHDA AXBOROT KOMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI VOSITASINI QO‘LLANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Pardaboyev J.E.
p.f.f.d.,(PhD)
Yangi Asir universiteti

Tayanch so’zlar: uzluksiz, ta’lim, texnologiya, ilmiy, texnika, metod, fan, integratsiya, o’qitish, savodxonlig, dars, axborot.

Ключевые слова: непрерывное, образование, технология, научное, техника, метод, наука, интеграция, обучение, грамотность, урок, информация.

Key words: continuous, education, technology, scientific, technique, method, science, integra-tion, teaching, literacy, lesson, information.

Hozirgi vaqitda axborotlarni uzatish saqlash va qaytadan ishlashni axborot komunikatsion texnologiyalarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi .

Inson qabul qilayotgan har xil oqimdagi axborotlarni ajratib olishda hisoblash texnologisi juda katta yordam bermoqda. Shuning uchun hozirgi paytda ta’limni kompyuterlashtirish masalasi dolzarb bo‘lib turibdi. Buning uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlarni;

- ta’limning barcha bosqichlarida o‘quv jarayonini axborot komunikatsion texnologiyasidan foydalanish bilan jadallashtrish;
- uzluksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim muassasalarida axborot komunikatsion texnologiyasi va kompyuter sistemalari bilan to‘la-to‘kis jixozlash;
- o‘quv maqsadida axborot komunikatsion texnologiyalarini dasturiy ta’minotini va o‘quv xamda nazorat dasturlarini ishlab chiqishni markazlashtirish va standartlashtirishni amalga oshirishni taqazo qiladi.

Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida mutaxasisilik fanlarini o‘qitishda axborot komunikatsion texnologiyasini o‘qitish hamda targ‘ibot qilish oliy ta’lim muassasalari asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi.

Ilmiy tadqiqot ishlarda va o‘quv jarayonida axborot komunikatsion texnologiyalardan foydalanish masalalari darslarini turli shakillarini mavjud

bo‘lgan o‘qitish usullarini kuchaytirish nuqtai nazardan tadqiqotlar olib borilgan.

“Oliy ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalanish faqatgina mutaxasisilik fanlar o‘qituvchilarining ishi bo‘lib qolishi kerak emas balki barcha fan o‘qituvchilarning ishi bo‘lmog‘i lozim”.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki xali barcha oliy ta’lim muassasalari ommaviy tarizda axborot komunikatsion texnologiyasi hamda internet tarmog‘i bilan jixozlanib bo‘lmagan bir paytda uning dasturiy ta’minotini va o‘quv dasturinig ta’minoti va o‘quv dasturining yaratilishi murakkabligini xisobga olgan xolda bu ishlarni amalga oshirish zarur.

Davr talabi nuqtai nazaridan mutaxasislik fanlar o‘qitish jarayonini boshqarishga axborot komunikatsion texnologiyalarining kirib kelishi, ularning sezilarli darajada o‘zgarishiga olib keladi.

O‘qitish texnologiyasi-o‘qitish jarayonida ilmiy yo‘nalishni xamda oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini ilmiy-texnika yutuqlari asosida yangilashni nazarda tutadi.

O‘qitishda axborot komunikatsion texnologiya foydalanish-fan-texnika taraqqiyotining axborot komunikatsion texnologiya yo‘nalishini rivojlanishi asosida paydo bo‘lgan. Bu usulda o‘qitish reseptiv (bir yo‘nalishli) sistemalarga bo‘linadi.

Kompyuterli o‘qitish-bu sistemada o‘qitish jarayonida o‘quv vositasi sifatida axborot komunikatsion texnologiyalaridan foydalaniladi.

Agar mutaxasisilik fanlar o‘qitish jarayonini kompyuterlashtirish hozirgi oliy ta’lim muassasalaridagi fanlarni o‘qitishda zamonaviy dars tashkil etish uslubi sifatida ko‘rilsa, axborot texnologisini ishlatish o‘qituvchi uchun yana bitta kerakli qurol bo‘lib qoladi.

Axborot komunikatsion texnologiyasi mutaxasislik fanlar fanining fundamental bazasi xisoblanadi va o‘qitish vositasi sifatida keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Bo‘lajak pedagoglarning kopyuter savodxonligi komponentlari yig‘ilgan xolda, unga kompyuter vositasidan faqtgani dars va darsdan tashqari ishlarda foydalanibgina qolmasdan, balki talabalarning dastur asoslari va mutaxasislik fanlarni o‘qish va o‘rganish, ularni boshqa fanlar, jumladan pedagogika, psixologiya, ta’limda axborot texnologiyalari fanlari bilan bog‘laydi. Birorta dasturlash tilini bilgan xolda datur asoslarini o‘rganish, axborot komunikatsion texnologiyalari bilan muloqatda bo‘lish, axborot komunikatsion texnologiyalarini umumiy funksiyalash va ko‘rish usullari haqida bilish xamda axborot komunikatsion texnologisini ishlab chiqarishda,

fanda va boshqa soxalarda inson xayoti va faoliyatidagi roli haqida tushunchalar kiradi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlani metodik jixatdan o‘quv jarayoni uchun, xususan, mutaxasislik fanlar talabalar tomonidan unumli o‘zlashtirilishi uchun qo‘llanilayotgan o‘qitish vositalarini, jumladan. Axborot komunikatsion texnologiyalari va uning asosida ishlaydigan sistemalarning didaktik imkoniyatlarini to‘g‘ri tasavvur qilish lozim.

O‘rganilayotgan jarayonning aksariyati axborot komunikatsion texnologiyalarining didaktik va metodik imkoniyatlari deganda pedagogik dastur vositalarining imkoniyatlarini nazarda tutadilar. Ular asosan o‘quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish samaradorligini ochib beradigan xususiyalarini o‘zida mujassamlashtirgan.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 2020 yil 25 yanvar “Xalq so‘zi” gazetasi. 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521) - soni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 21aprel, 79(6773)-soni

3. Yakubov A.N., Mirzayeva M.A. Fizikaviy jarayonlarni o‘rganishda kompyuterli modellashtirishdan foydalanishning xususiyatlari. // J.Ta’lim muammolari, ilmiy-uslubiy yutuљlar va ilђor tajribalar. 1998.№1-2. B.49-53.

4. Yo‘ldoshev J.G‘ Xorijda ta’lim. - Toshkent, 1995.

5. Зиямухамедов Б. и др. Новая педагогическая технология: теория и практика. - Тошкент, 2002. - 99 с.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada aynan ta’lim tizimida axborot tizimida bo’ladigon yangiliklar xar xil turdagi voqiyalar tushunchasi samaradorligiga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье новости в информационной системе в системе образования служат эффективности концепции различных типов мероприятий.

SUMMARY

In this article, the news in the information system in the educational system serves the effectiveness of the concept of various types of events.

TEXNOLOGIK JARAYONLARINI O'RGANISHDA ISHLAB CHIQARISH TA'LIMINING O'RNI

Kucharov S.A.
Termiz davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: dasturli mashina, mexanizm, ustoz-shogird, tizim, ko'nikma, malaka.
Ключевые слова: программируемая машина, механизм, наставник-ученик, система, обучение, навык, квалификация.
Key words: programmable machine, mechanism, mentor-student, system, education, skill, qualification.

Texnika va texnologiyaning rivojlanishi kelajakda kam malaka talab qiladigan ishlarni bajarishdan ozod qilish uchun baza yaratadi, dastur tuzish, texnologik jarayonlar rejimini ishlab chiqish va uning borishini nazorat qilish funktsiyalarini kengaytiradi (dasturli mashina va mexanizmlar). Zamonaviy ishchi murakkab texnologik va texnik masalalarni tahlil qilib, hal eta olish malakasiga ega bo'lishi zarur. Texnika rivoji tufayli yuzaga kelgan o'zgarishlar aqliy va jismoniy mehnatning qo'shilib ketishi uchun asos bo'la oladi.

Bu talablar korxonalarni malakali ishchi kadrlar bilan ta'minlashning asosiy manbai hisoblangan kasb-hunar ta'limi tizimining oldiga murakkab va mas'uliyatli talablar qo'ydi. Bo'lajak kichik mutaxassislar kasb-hunar kollejida o'qish davomida zarur bilim, malaka va ko'nikmalar olishlari, yangi texnika va texnologiyani o'zlashtirishlari, mehnat qilishning ilg'or, samarali usul va yo'llarini egallashlari, sifati zamonaviy talablarga javob bera oluvchi mahsulot ishlab chiqarishni o'rganishlari lozim.

Ishlab chiqarish ta'limi malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Kasbiy tayyorgarlik yoki insonni ma'lum aniq sohada ishlashga ya'ni mehnat qilishga o'rgatish quyidagi qiska yo'l orkali amalga oshirilishi e'tirof etilgan:

a) o'kuvchini malakali mutaxassis bilan bevosita hamkorlikda ishlash jarayonida, ya'ni ustoz-shogird tizimida;

b) maxsus muassasalarda tashkil etilgan kasbiy ta'lim-tarbiya jarayonida.

Ishlab chiqarish ta'limi kasb-hunar ta'limi muassasalarida malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim qismidir. Shuning uchun ham kasbiy

tayyorgarlik uchun ajratilgan umumiy vaqtning 40-45 foizi ishlab chiqarish ta'limiga beriladi. U moxiyatiga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon buladigan muxandis-pedagog (o'qituvchi) bilan o'quvchilarning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladigan faoliyatlarida o'z aksini topadi. Bunday faoliyatning natijasi bo'lib, o'quvchilarda tarkib topgan amaliy bilimlar, kasbiy xatti-xarakat usullari (ko'nikma, malaka) hamda shaxsiy fazilatlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi ta'lim-tarbiya ishlarining barcha umumiy qonun-qoidalariga qat'iy amal qiladi, shu bilan birga uning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir.

Dars qanday ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lganidek ishlab chiqarish ta'limida ham o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatining ikki tomoni, ya'ni ichki va tashqi tomonini hisobga olish muhimdir. Ishlab chiqarish ta'limida o'quvchilar faoliyatining tashqi tomoni – ularning o'quv-bilish faoliyatlarida ma'lum kasbiy xatti-xarakat usullarini bajarishda, mahsulot tayyorlashlarida mexanizmlarni roslash va sozlashda, mashinalarni ishga va saqlashga tayyorlashda hamda texnika xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda ularni ishlatishlarida o'z aksini topadi. Ichki (intellektual) faoliyat esa usta ko'rsatmalarini qabul qilish, idrok etish, fikr yuritish, berilgan vazifalarni rejalashtirish, ularni bajarishning maqbul variant va usullarini belgilash, bajarilgan ish sifatini aniqlash va baxolash xamda o'z xatti-xarakatlarini nazorat qilish kabilarda namoyon bo'ladi. O'kuvchilar faoliyatining bu ikki tomonini o'zaro birgalikda uzviy bog'lik holda o'quv materialiga jalb etish natijasida ularda amaliy jixatdan muhim kasbiy ish-xarakat usullari muvaffaqqiyatli shakllanadi.

Odatda kasb-xunar muassasalarida ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari laboratoriyalarda, o'quv ustaxonalarida, o'quv-mashq qilish maydonlarida, otaliqlar xo'jaliklar hamda korxonalarda o'tkaziladi.

Shu o'rinda xar qanday mashg'ulot kabi ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlari ham muhandis-pedagogning ko'plab omillariga muvofiq hal etadigan ijodiy ish ekanligini unutmaslik lozim. Ishlab chiqarish ta'limi mashg'ulotlarini yuqorida zikr etilgan joylarda tashkil qilishning o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni tashkil etish va o'tqazish uchun muhandis-pedagog eng avvalo materialining mazmunini, mashg'ulot maqsadi va o'tkazish shart-sharoitlarini bilishi lozim. Ishlab chiqarish ta'limining maqsadi va mazmuni tayyorlov yo'nalishi bo'yicha mutaxassislik malaka tavsifnomasi hamda o'quv dasturlarida o'z ifodasini topadi.

Ishlab chiqarish ta'limi dastlab o'quv laboratoriyalari va ustaxonalarida tashkil etilib, ularda o'quvchilar ilk bor kasbiy mahorat sir-sinoatlarini egallashga kirishadilar.

Shunday qilib, o'kuvchilarning ta'lim-tarbiyaviy maksadlariga buysundirilgan ishlab chiqarish mehnatlari ishlab chiqarish ta'limining asosi xisoblanadi. O'kuvchilarda egallanayotgan kasb (ixtisoslik)ga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish - ishlab chiqarish ta'limining mazmunini tashkil etadi. Ishlab chikarish ta'limi jarayoni nazariya bilan amaliyotning uzviy aloqadorligida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kollejlarida ta'lim jarayoni nisbatan mustaqil, ammo o'zaro aloqada bo'lgan, qismlarga bo'linadi: nazariy va ishlab chiqarish (amaliy) ta'limi. Ta'lim jarayoni ishlab chiqarish ta'limi ustasi, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Nazariy ta'lim o'quvchilarni bilimlar tizimi bilan qurollantirishga qaratilgan. Bunda yetakchi rol o'qituvchiga tegishlidir. O'qituvchi o'quv dasturiga muvofiq, o'quv fani materialining mazmunini bayon qiladi, o'quvchilar tasavvur va tushunchalarni shakllantiradi hamda boyitadi, o'quvchilarning o'quv mashg'ulotlariga rahbarlik qiladi, ularni bilimi va bajargan ishlarini tekshirib baholaydi.

Ishlab chiqarish ta'limi o'quvchilarni muayyan mehnat jarayonlarini bevosita amalga oshirishga tayyorlash, ya'ni ularning bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rgatish, kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish vazifasini qo'yadi.

Mehnat faoliyatida oddiy bir ishchigina bajarishga yo'naltirgan vazifaning har bir elementi, mehnat harakati deyiladi. Texnologik jarayonning bir turdagi asboblar, moslamalar va mehnat usullarini qo'shib olib borishi orqali tugallangan qismi mehnat operatsiyasi deb ataladi. Ishlab chiqarish ta'limida operatsiya tushunchasi (o'quv operatsiyasi), sanoatning ayrim sohalaridagi tushunchalari bilan bir biridan katta farq qiladi. Sanoatning ayrim soha operatsiyalari deganda bir ish o'rnida amalga oshiriladigan bir detal ustida (yoki detallar guruhi) to keyingi detallar guruhi detallarini ishlashgacha bo'lgan texnologik jarayon qisman tushuniladi. Texnologik jarayonlar mazmuni bunday hollarda ishlab chiqarishda qabul qilinib, tashkil etilishiga qarab o'zgaradi, bu vaqtda ular barcha o'quv operatsiyalari kabi muayyan kasb uchun bir turda bo'ladilar.

Har bir mehnat operatsiyasi mehnat usullarining birga qo'shib olib borilishi yordamida bajariladi. Usul-bu ishning muayyan maqsadga ega bo'lib, tugallangan mehnat harakatidir. Masalan, tiskilarda detallarni mustahkamlash, sverloni shpindel teshigiga o'rnatish, dastgohni yurgizish, detallar o'lchamini tekshirish va hokazo usullar bilan farqlanadi. Usullar muayyan mehnat harakatlari bilan birga qo'shib olib borilgan taqdirda bajariladi (detalni tokarlik

dastgohi markaziga yoki patronga o'rnatish, asbobni detalga yaqinlashtirish dastgohni yurgizish va hokazo).

Nazariy va ishlab chiqarish ta'limi vazifalarining bo'linishi shartli xarakterga ega, chunki nazariy ta'limda bilimlarni amaliyotda qo'llashga ko'p e'tibor beriladi.

Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida olingan bilimlar nazariy ta'limda tizimlashtiriladi, nazariy ta'lim jarayonida egallagan ko'nikma va malakalar esa, ishlab chiqarish faoliyatida foydalanib mustahkamlanadi.

Ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashdan iboratdir. Mehnat unumdorligi avvalo o'quvchilarning tanlangan kasbi bo'yicha ishga tayyorgarligi, shaxsiy tajribasiga bog'liq. Shaxs tajribasi – bu uning tomonidan egallangan bilim, malaka va odatlar yig'indisidir. Umumiy rejada u kishi madaniyatini, kasb faoliyatida tayyorlanganlik darajasini belgilaydi.

Kasbiy bilimlar - kishi tomonidan o'zlashtirilgan tushunchalar tizimi, ishlab chiqarish vazifalarini (jarayonlarini) ongli ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan ilmiy-texnik ma'lumotlar yig'indisidir.

O'quvchilar bilim jarayonida umumta'lim, texnikaviy, maxsus texnologik va turli xil bilim oladilar. Ta'lim jarayonida olinadigan bilimlarning umumiy hajmi va sifatini nazariy fanlarning o'quv dasturlari, kasbga oid bilimlarning hajmi va sifatini maxsus fanlar bo'yicha malaka tavsifnomalari va o'quv dasturlari belgilashi lozim.

Bilimlar asosida tafakkur va xotira jarayonlari yotadi. Bilimlar shaxsning qiziqishlari yo'nalganligiga ham bog'liq. Ammo o'quvchilar bilimidagi individual farqlar har bir o'quvchini nimaga o'rgatilganligiga bog'liq bo'ladi. Bilimlardagi individual farqlar har tomonlama baholanishi lozim. Amalda ularni mazmuni, izchilligi va mustahkamligiga ko'ra baholash qabul qilingan. Bunday baholash to'g'ri, lekin u barcha zarur jihatlarni qamrab ololmaydi. Bilimlarning muhim tomoni uning qo'llaniluvchanligidir.

Unga shablonlik ko'rinishida namoyon bo'ladigan ko'r-ko'rona yodlashga qarama-qarshi qo'yiladi. Tushunish eslab qolish uyg'unligini va ma'lum omillardan faol foydalanishni taqozo qiluvchi o'zlashtirish darajasi ham muhim rol o'ynaydi.

Ishlab chiqarish mahoratining navbatdagi shakllanish bosqichi malaka va ko'nikmalarning vujudga kelishi hisoblanadi.

Kasbiy bilimlarni egallash, ishlab chiqarish malaka va ko'nikmalarining shakllarini – kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarning bilish faoliyatlaridagi

o’zaro bog’liq komponentlardir. Bu muammoning hal qilinishi o’quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ko’p jihatdan bog’liqdir.

Malaka maqsadga yo’nalgan faoliyat jarayonida undagi ayrim harakatlarga maxsus e’tibor bermagan holda, lekin ong nazorati ostida avtomatik suratda bajarish qobiliyatidir. Shu bilan birga bu harakatlar, mashq qilish jarayonida shakllangan va ancha murakkab harakatlar tuzilmasiga kiradi.

Faoliyatning ayrim qismlarini avtomatik ravishda bajarish qobiliyati turlicha bo’lishi mumkin, chunki ko’nikmalar sifati ham bir xil emas. Ko’nikmalar shakllangan va shakllanmagan, yangi va eski, oddiy va murakkab, alohida va kompleks bo’lishi mumkin. Bularning hammasi o’zlari shakllanib o’zlashtirilayotgan faoliyatga bog’liq bo’lib, davomsiz yoki uzoq vaqtga, oddiy yoki murakkab mashqlar bir xil, yoxud xilma-xil, faoliyatining oddiy va murakkab sharoiti.

Ishlab chiqarish malakalarining quyidagi turlari ma’lum:

aqliy malakalar - bu vazifalarni bajarishda mavjud bilim hamda tajribalarni o’ylab turmasdan zudlik bilan qo’llay olish, vaziyatni fahmlash (kesish rejimini tanlash, nazorat uskunalar ko’rsatkichlarini o’qish va hokazo);

sensor malakalar - bu yerda sezgi organlari faoliyati asosiy rol o’ynaydi: (alanga rangiga qarab haroratni, metallning tashqi ko’rinishiga qarab sortini, mashinalarning singan, buzilganligini ovoziga qarab aniqlash va hokazo);

dvigatelli (motorli) malakalar - ishlab chiqarish ta’limi uchun juda xos bo’lib, ishlab chiqarish ta’limida o’quvchilarning o’zlashtirishi va tayyorgarligini belgilaydi, asosan qo’llar harakati bilan, ba’zan qo’l, oyoq va butun tana harakati bilan bog’liq (silliqlash, kesish, dastgoh dastasini burash, mexanizmlar bilan ishlash va hokazolarda qo’llar harakati);

senor-dvigatelli malakalar - idrok va dvigatelli harakatlarni o’z ichiga oluvchi malakalar. Bu turga mashina va qo’lda bajarilishi kerak bo’lgan jarayonlarni o’rganishda shakllanadigan ko’pchilik ko’nikmalar kiradi;

irodaviy - intizom ko’nikmalari.

Har bir ko’nikma shakllanish jarayonida qator bosqichlarni bosib o’tadi. Dvigatelli ko’nikmalarning quyidagi shakllanish bosqichlarini ko’rib o’tamiz.

birinchi - malakali fikrlashning boshlanishi. Maqsadni aniq tushunish, ammo unga erishish yo’llarini yaxshi tushunmaslik. Harakatni bajarishda qo’pol xatolar;

ikkinchi - ongli, ammo epsiz bajarish. Harakatni qanday bajarishni aniq tushunish, ammo o’z diqqatini qancha jamlashiga qaramay noaniq bo’sh bajarish; ortiqcha harakatning ko’pligi, mazkur ko’nikmani ijobiy tadbiq etishning yo’qligi.

uchinchi - malakaning avtomatlashishi.

Harakatlarni bo'shashtirilgan erkin diqqat vaqtida borgan sari sifatliroq bajarish va uni taqsimlash imkoniyatining mavjud bo'lishi ortiqcha harakatlarni bartaraf etish; ko'nikmalarni ijobiy tadbiq etishning paydo bo'lishi.

to'rtinchi - o'ta avtomatlashtirilgan ko'nikma. Boshqa murakkabroq bir harakatni bajarish vositasi bo'lgan harakatni aniq, tejamli qat'iy bajarish.

Rivojlanayotgan ko'nikmalar paydo bo'lishlari bilanoq o'zaro aloqada bo'ladilar. Yangi ko'nikmani o'zlashtirishning yengil va qiyin bo'lishi hamda uning avval shakllangan ko'nikmalar bilan o'zaro aloqasi ko'nikmalarning tadbiq etilishi deb ataladi (ijobiy yoki salbiy).

Ko'nikmaning salbiy tadbiq etilishi shunday hollarda uchraydiki, unda ma'lum bir hakatni bajarish, ko'nikmaga ega bo'lgan ishchi uni boshqa yo'l bilan bajaradi (masalan, boshqa dastgohga o'tishi, boshqarish dastasi avvalgi dastgohnikiga nisbatan boshqacha joylashgan; haydovchining o'zgacha boshqarish tizimiga ega bo'lgan avtomashinada ishlashi va hokazo).

Ko'nikmalarni ijobiy tadbiq etishda o'quvchilar yangi va o'xshash ko'nikmalarni tezda egallab oladilar (masalan, pichoq bilan kesishdagi ko'nikmalar, silliqlashdagi ko'nikmalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi).

Ba'zan chetdan qaraganda oddiy bo'lib ko'ringan ko'nikmalarning shakllanish jarayoni tashqi jihatdan oddiy bo'lib tuyulsa-da, aslida juda murakkab. Bir qarashda taxmin qilish mumkinki, batafsil tushuntirish, ish usullarini yetarli miqdordagi mashqlar yordamida ko'rsatish, o'quvchilarni diqqat-e'tibori hamda harakati bu ko'nikmalarni ta'minlaydi, deyish mumkin. Ammo ko'pincha yetarli nazariy tayyorgarlikka ega bo'lgan kasb-hunar kolleji bitiruvchilari, amaliy ko'nikma va malakalarini bo'sh egallaydilar.

O'quvchilarda ko'nikmalar shakllanishining murakkabligi, ta'lim usulini tanlashdagi barcha hollarda hisobga olinishi lozim bo'lgan ko'pgina omillarning ta'siri bilan izohlanadi. Ko'nikmalarni shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- o'quvchilarning muvaffaqiyatlarga erishishdagi qiziqishlari;
- ularda zarur bilimlarning mavjudligi;
- yo'riqnomaning boshlanishiga qadar va mashqlar jarayonidagi samaradoligi;
- mashqlar jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish ishlab chiqarish ta'limi ustasi bahosining o'z vaqtida bo'lishi va ob'ektivligi;
- o'quvchilar faoliyatining faol bo'lishi, ularning faolligini oshiruvchi ta'lim metodlarini qo'llash;
- mashqlar miqdori;

- ko’nikmalarning rivojlanish darajasiga aniqlik, sur’at va hokazolar jihatidan qo’yiladigan talablar;
- ko’nikmalarning turli ko’rinish va xususiyatlari;
- o’quvchilarning yosh va individual xususiyatlari.

Ko’nikma avtomotizmdan shu bilan farq qiladiki, sinov mashqlarida bu harakat unga diqqat yo’naltirilgan holda to’la va ongli bajarilib, asosan mashqda avtomotlashgan haraktlarda diqqat ularga emas, balki ularning maqsadiga yo’naltirilgan holda bajarilishi kerak. Bunda ko’nikmalarni takomillashtirib borishga qarab, avtomotlashtiriladigan harakatlarni maqsadi, ulardan muntazam ravishda uzoqlashtirib va shu yo’l bilan yoki bu ishni yanada murakkabroq ko’nikmalar kompleksini shakkllantirish lozim. Shu bilan birga murakkab malakalar ham takomillashtirib boriladi.

Malaka - bu kishining ishni yaxshi sharoitda mahsuldor, zarur sifatlar bilan tegishli vaqtda bajara olish qobiliyatidir.

Har qanday malaka bilim hamda ko’nikmalarni o’ziga olib mavjud ko’nikma bilimlar asosida shakllanadi, ularni yangi sharoitlarda yetishmaydigan elementlarni qaytadan shakllantiradi. Malakani bilim va ko’nikmalarga zid deb bilish yoki sanab o’tilganda, ba’zan uchrayotgandek ulardan oldin qo’yish mumkin emas, chunki malaka ular asosida tarkib topadi.

Kasbiy malakalar o’z shakllanishida qator bosqichlarni bosib o’tadi:

birinchi bosqich - boshlangich ko’nikma. Harakat maqsadini va uni bajarishning ilgari egallangan bilim hamda ko’nikmalarga (odatda maishiy) tayanadigan izlanish yo’llarini anglash faoliyat sinov va xatolar yo’li bilan amalga oshiriladi;

ikkinchi bosqich - yetarli bo’lmagan ko’nikmali faoliyat. Harakatni bajarishda muayyan faoliyat uchun xos bo’lmagan ilgari egallangan ko’nikmalardan foydalanish;

uchinchi bosqich - alohida umumiy ko’nikma. Faoliyatning turli ko’rinishlari uchun zarur bo’lgan qator o’ta rivojlangan, ammo tor malakalar (o’z faoliyatini rejalashtira olish ko’nikmasi, tashkilotchilik malakasi va xokazo.)

to’rtinchi bosqich - o’ta rivojlangan ko’nikma. Muayyan faoliyatga oid bilim va ko’nikmalardan ijodiy foydalanish; faqat maqsadni emas, balki unga erishish yo’llarini tanlash sababini ham anglash;

beshinchi bosqich - mahorat. Turli malakalardan ishonchli ijodiy ravishda foydalanish.

Mahorat - kasbiy malakalar rivojalanishning yuqori darajasi va kasb-ta’limning mutloq maqsadidir. Unga amaliyot orqali erishiladi. Mahorat - bu

murakkab ishni tez va aniq bajarishning yengilligi, bu mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi uchun kafolat beruvchi ishdagi ishonchlilikdir.

O'quvchilarning ko'pgina harakatlari faqat ko'nikma va malaka tarzida emas, balki odatlar sifatida ham shakllanadi. Mehnat odatlari - mehnat va ishlab chiqarish ta'limida hosil qilingan hamda avtomatlashgan xarakterga ega bo'lgan fe'l-atvor odatlaridir.

Quyidagilarni kasbiy odatlar deb hisoblash mumkin:

mehnat intizomiga rioya qilish (ishga, mashg'ulotlarga, yig'ilishlarga o'z vaqtida kelish, berilgan topshiriqlarni va ichki kun tartibini aniq bajarish);

texnologiya qoidalariga aniq va qat'iy rioya qilish (yo'riqnoma -texnologik kartadan foydalanilgan holda chizmalar bo'yicha ishlatilishi kerak bo'lgan material, asbob, jihoz va texnikadan foydalanish);

mehnat qilishning eng ilg'or metodlarini izlashga doimo intilish, ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga xalaqit beruvchi eskirgan, takomillashmagan narsalarga tanqidiy munosabat;

ish o'rnini joylashtirish tartibi (dastgoh, stanok va asbob-uskunani ishga tayyorlash hamda ularni ishdan keyin tartibga solish va boshqalar);

umumxalq mulkiga ehtiyotkorlik munosabatida bo'lish, ilg'or ish tajribalarini o'rtoqlashish va ishlab chiqarish rejasini bajarishga ko'maklashish istagi;

xavfsizlik texnikasi, mehnatni muhofaza qilish qoida va talablariga rioya qilish.

Ta'lim jarayonidagi tarbiya masalasini, o'quvchilarda ko'rsatib o'tilgan odatlarni shakllantirmasdan turib hal etish mumkin emas. Zararli odatlarning vujudga kelishidan saqlanish lozim. Ular ko'pincha e'tiborsizlik, parishonxotirlik, intizomsizlik, shuningdek, tegishli mehnat sharoitining yo'qligi va o'quv jarayonini yomon tashkil etilishi tufayli yuzaga keladi. Masalan o'quvchilarni ba'zan noto'g'ri ish usullariga, asboblardan noto'g'ri foydalanishga odatlantiradi.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun ularga puxta tayyorgarlik ko'rishi muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi nimani, qachon va qanday o'rgatilishini juda aniq tasavvur qilishi kerak.

O'quv rejasida ishlab chiqarish ta'limiga ajratiladigan o'quv vaqtini yarim yilliklar va xaftalar bo'yicha taqsimlash mo'ljallanadi. Malakali tavsifnomasi talablari asosida tuzilgan o'quv dasturida o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialining hajmi, uning mavzulari bo'yicha taqsimlanishi va har bir mavzuni o'rganish vaqti belgilab olinadi. Dasturning har bir mavzusida o'quvchilarga

mehnat qilishning qaysi yo'l va usullarini, qanday texnologik operatsiyalarni o'rgatish lozimligi ko'rsatilgan.

Malaka tavsifnomasida kasb-hunar kollejini biror ixtisoslik bilan tamomlagan yosh kichik mutaxassis, nazariy bilimlar olish va ishlab chiqarish malakalarini qondirish yuzasidan qanday talablarga javob berishi zarurligi ko'rsatib o'tiladi. «Kasbni qanday o'rgatish lozim?» degan savolga metodik qo'llanmalardan javob olish mumkin. O'quv dasturida keltirilgan hamma bandlar o'quv ishlarining turli ob'ektlarida har xil metodlar yordamida o'rganiladi. Kasb-hunar kollejlarida beriladigan ixtisosliklarga oid ko'pgina qo'llanmalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularda ishlab chiqarish ta'limi berishning shakl va metodlari yoritib berilgan.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi haqida gap borganda, juda ko'p hollarda faqat ishlab chiqarish ta'limidan o'tiladigan darsga tayyorgarlik yoki bir o'quv kuni uchun zarur hamma narsalarni o'ylab olish, rejalashtirish va ta'minlashgina nazarda tutiladi. Bunday deb o'ylash-noto'g'ri. Butun mavzuni o'tishga tayyorgarlik ko'rmasdan turib, alohida darsga yoki ish kuniga to'g'ri tayyorlanib bo'lmaydi. Boshqa bir tomondan, ishlab chiqarish ta'limi ustasining mavzuga yoki darsga tayyorgarlik ko'rishi hamisha o'quv rejasi ustida ishlash bilan mustahkamlangan taqdirdagina muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasi tayyorgarlikni yangi o'quv yili boshlanmasdan oldin boshlaydi. Tabiiyki, tayyorgarlikning mazmuni tajribali va endigina o'qituvchilik faoliyatini boshlagan pedagoglar uchun turlicha bo'ladi. Ammo ishning bu bosqichi tajribasidan qat'iy nazar har bir ishlab chiqarish ta'limi ustasi uchun majburiydir.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishi ishchining oldiga yangi talablar qo'ymoqda. Malaka tavsifnomalarida, ishlab chiqarish ta'limi rejalari va dasturlarida o'zgarishlar yuz bermoqda, ishning yangidan-yangi ilg'or yo'l va usullari paydo bo'lmoqda, yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rayotganida bularning hammasini hisobga olish lozim.


Ishlab chiqarish ta'limi ustasi o'quv yiliga (yarim yillikka) tayyorlanayotganida mutaxassislik tavsifnomasini, ishlab chiqarish ta'limi o'quv rejalari va dasturlarini, maxsus texnologiyani yoki muayyan mutaxassislikka doir ishlab chiqarish asoslari texnologiyasini o'rganadi, boshqa fanlar (umumiy ta'lim, materialshunoslik, chizmachilik, elektrotexnika va boshqalar) dasturlari bilan tanishib chiqadi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustalari o’quv dasturlarini o’rganayotganlarida ularga kiritilgan mavzularning ro’yxati va mazmuni bilan yaxshilab tanishadilar. Bu ularga har bir mavzuni o’rganish maqsadini aniq tasavvur etish, oldin o’tilgan o’quv materialni navbatdagi material bilan bog’lashni belgilab olish, mashg’ulotlar o’tkazish uchun zarur o’quv ishlari, jihozlar, moslamalar, asbob-uskunalar va materiallarni aniqlab olish hamda ularni tayyorlash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlarining tajribali ustalari butun bir yilga mo’ljallab umumiy ta’lim rejasini tuzadilar. Bu rejada quyidagilar nazarda tutiladi: ya’ni texnikaga doir adabiyotlarni, qo’llanmalarni, ixtisoslikka oid ilg’or tajribani yorituvchi axborot varaqalarini o’rganish; yangi darsliklar, metodik qo’llanmalar bilan o’quvchilarga ta’lim va tarbiya berish masalalari yoritilgan metodik tavsiyanomalar va boshqa materiallar bilan tanishish; ishlab chiqarish ilg’orlarining ishlash metodlari bilan amalda tanishish, zarur o’quv moddiy baza tayyorlash; juda murakkab buyumlarning namuna etalonlarini hozirlash; respublika va viloyat KHK boshqarmalarining tayanch korxonalar buyurtmalari va o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzgan namuna ro’yxatlari asosida o’quv ishlari ro’yxatini ishlab chiqishda qatnashish; operatsiyalarga hamda ishlarni bajarishdagi o’zgarishlarga doir instruktsiya-texnologik hujjatlari ishlab chiqishda (operatsiyalar va o’zgarishlar izchilligini, shuningdek har bir o’zgarishning texnikaviy sharoitlarini ko’rsatgan holda) bevosita ishtirok etish; ro’yxatda tayyorlash uchun ko’zda tutilgan ishlarni katta ishlab chiqarish ta’limi ustasi bilan hamkorlikda me’yorlashtirish (ishchi va shogirdlik me’yorlari).

Ishlab chiqarish ta’limi ustasining dasturdagi navbatdagi mavzuni o’rganishga tayyorgarlik ko’rish quyidagilardan iborat: ishlab chiqarish ta’limi ustasi mavzu o’quv materialining mazmunini tahlil qiladi, uni darslar bo’yicha taqsimlab chiqadi va har bir darsga qo’yiladigan vazifalarni belgilab oladi; mavzuni o’rganish paytida o’quvchilar bajarishi lozim bo’lgan o’quv ishlarining mazmuni hamda miqdorini belgilab qo’yadi; o’quv guruhining muayyan mavzuga doir ishlarni bajarish uchun o’quv-moddiy baza tayyorlaydi. O’quv dasturining ko’pchilik mavzulari bir qancha ishlarni o’z ichiga oladi; bunday hollarda o’quv materiali mavzusi kichik mavzularga bo’lib chiqiladi.

Butun guruh ishning bu xil usullarining o’zini ayni bir vaqtda (frontal tarzda) o’rganish nihoyatda zarur, lekin ba’zi mavzular (masalan, asosiy detallar, mexanizmlar, asboblar, uzel va agregatlarning bir turdagi komplektlarining yetarlicha miqdorda bo’lmagan mavzulari) bo’yicha bunday qilish mumkin emas. Bunday paytlarda ishlab chiqarish ta’limi ustasi oldindan reja tuzib



1-rasm. Mashg'ulotga tayyorlanish sxemasi.

olishi kerak. Aynan shu reja asosida asta sekin ayrim o'quvchilarga o'quv mavzusining to'la bajarilishiga imkon beradigan topshiriq beriladi.

Navbatdagi mavzuni to'liq va sifatli o'rganish uchun ishlab chiqarish ta'limi ustasi ishlab chiqish ta'limi o'quv dasturining mavzusinigina emas, balki maxsus texnologiyaga doir mavzularni ham sinchiklab o'rganadi. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi nazariy ta'lim darslarida olingan bilimlardan foydalanish uchun o'quvchilarning maxsus texnologiya va boshqa fanlardan nimalarni o'rganganlarini aniqlab olishi lozim. Bundan tashqari, ishlab chiqarish ta'limi ustasi mavzu materialini o'quv kunlari bo'yicha shunday taqsimlashi kerakki, o'quvchilar har kuni ish bilan bir xilda band bo'lsinlar, ayrim kunlarda o'quvchilarga o'zlashtirib olish lozim bo'lgan ko'pgina yangi material berish, boshqa kunlarda esa, aksincha, juda kam material berish hollari bo'lmasin. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi mashg'ulotlarni mavzular bo'yicha o'tkazish metodikasi masalalarini yaxshilab o'ylab, quyidagilarni belgilab oladi:

- qaysi o'quv materialining o'quv kunlari bo'yicha taqsimlanishi;

- o’quvchilar bilan ishning qaysi yo’llari, usullari va turlarini o’rganish zarurligi, fanlararo aloqalarni qaerda hamda qanday qilib qo’llanish kerakligi;
- qanday ish qurollaridan foydalanishni o’rgatish lozimligi, ish usullarini o’rganish izchilligi;
- nazorat qilishning qanday yo’l va usullarini o’rganishga to’g’ri kelishi, bunda qanday asbob-uskuna va jihozlardan foydalanish lozimligi;
- kirish mashg’ulotlarini o’quvchilarga individual yo’l-yo’riqlar berish va yakunlovchi mashg’ulotlarni qachon (darsning qaysi qismida) o’tkazish kerakligi;
- mavzuni o’rganishning boshlang’ich va yakunlovchi bosqichlarida o’quvchilarga topshiriqlarni bajarish tartibini qanday tushuntirish lozimligi, o’quvchilarning mustaqilliklariga erishish;
- o’quvchilarning topshiriqni sifatli bajarishlari, ularning tayyor ishlari esa hamma talablarga javob berishi uchun texnologik jarayonning qaysi xususiyatlarini ko’rib chiqish lozimligi;
- o’quvchilarga mehnatni tashkil etish va xavfsizlik texnikasi bo’yicha qanday tadbirlarni tushuntirish kerakligi;
- qanday tarbiyaviy ish olib borish, uni materialni o’rganish bilan qanday bog’lash lozimligi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi o’quv materialini kunlar bo’yicha taqsimlab chiqqandan keyin mazuni butun o’rganishni yo’lga qo’yishni o’ylab oladi, asosiy va yordamchi materiallarni, alohida kichik mavzular, maxsus asbob uskunalar, moslamalar, o’quv-ko’rsatma qurollarini; chizmalar, texnologik hamda axborot kartalarini tayyorlaydi; o’quvchilarning o’zlashtirish va ish qobilyatlarini hisobiga olib, ularga har kuni qo’shimcha ishlar berishni mo’ljallab qo’yadi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi navbatdagi mavzuga tayyorgarlik ko’rayotganda texnika, texnologiya, ishni ilmiy asosda tashkil etish va ishlab chiqarish ilg’orlari ish tajribalari sohasida erishilgan so’nggi yutuqlar yoritilgan texnikaga doir adabiyotni sinchiklab o’rganadi. Bunda ishlab chiqarish ta’limi ustasi o’quvchilarni tanishtirish lozim bo’lgan ishning ilg’or metodlarini, tayanch korxona ilg’orlari mehnatining oqilona yo’l va usullarini tanlashga alohida e’tibor berishi lozim.

O’quv mashg’ulotlariga tayyorgarlik ko’rish ishlab chiqarish ta’limi ustasining butun tayyorgarlik ishining yakunlovchi va hal qiluvchi bosqichidir. O’quvchilarga ta’lim va tarbiya berish samaralari, ularning kasbga doir bilimlarni, ko’nikma xamda malakalarini chuqur va puxta o’zlashtirib olishlari, ularda faollik hamda mustaqillikning rivojlanishi ana shu tayyorgarlikka

bog'liqdir. Ishlab chiqarish ta'limi ustasining burchi har bir mashg'ulot (dars) ga puxta tayyorlanishdir.

Darsning asosiy qoidalari: guruh tarkibining bir xilligi va doimiyligi; ayni bir vaqtda ta'lim berilishi; o'rganiladigan o'quv materiali hajmini belgilashdagi aniqlik; dars jadvalining bir xil davom etishi hamda barqarorligi; o'quv-ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish ta'limi ustasining rahbarlik roli.

Har bir dars dastur materialining mazmuniga qarab o'z xususiyatlariga ega bo'ladi va uni belgilangan bir andazada tuzib bo'lmaydi. Lekin har bir kasbga o'qitish ishlab chiqarish ta'limi darsiga qo'yiladigan umumiy talablarga rioya qilishi zarur. Dars yuksak g'oyaviy-siyosiy va ilmiy pedagogik saviyada o'tkazilishi lozim; ta'lim-tarbiyaviy ishlarning mazmuni va uni amalga oshirish metodlarining organik birligi; o'qishdan ko'zlangan aniq maqsad bo'lishi; asosiy maqsad va vazifalarga mos ravishda qurilishi; o'quvchilarni ishlab chiqarish hayotiga jalb etishi, o'qitishning frontalligi va o'quvchilarga yakka tartibda munosabatda bo'lish tamoyillariga asoslangan holda «harakatning» frontalligini ta'minlashi; o'quvchilarning oldingi darslarda egallagan bilim va ko'nikmalariga asoslanishi; o'quvchilarning bilim hamda malakalarini faol va chuqur egallashlarini ongli mehnat intizomi sharoitida o'tkazilishi lozim; o'qitishning turli metodlarini qo'llanishni nazarda tutishi zarur.

O'quvchilar darsdan ketayotganlarida mazkur darsda qanday yangilikni o'rganganlarini, qanday malaka va ko'nikmalar hosil qilganlarini yoki mustahkamlab olganlarini aniq tasavvur qilishlari lozim.

Ishlab chiqarish ta'limi ustasining darsga tayyorgarlik ko'rishi darsning maqsad va mazmunini aniqlab olishdan; moddiy-texnika bazasini hozirlash va metodik tayyorgarlik ko'rishdan iborat.

Moddiy-texnika bazasini tayyorlash paytida ishlab chiqarish ta'limi ustasi omborda zarur materiallar, asbob-uskunalar, moslamalarning, mexanizmlarning bor yo'qligini tekshiradi va yetishmayotgan narsalar bilan ta'minlash choralarini ko'radi; tegishli talabnomalar tuzadi; mavzuni o'rganish vaqtida foydalaniladigan moslamalar, mexanizmlar, qurilmalar tayyorlaydi hamda ularni tekshiradi. Zarurat tug'ilgan paytlarda ta'mir qilish va sozlash choralarini ko'radi; o'quv texnika hujjatlarini, chizmalarni, ma'lumot jadvallarini, ko'rsatmali, texnologik xaritalarni ajratib oladi; mashg'ulotlarda foydalanish uchun o'quv-ko'rsatma qurollar; ma'lumotnomalar, plakatlar, haqiqiy va hajmli qo'llanmalar, etalonlar, tayyor mahsulotlar va hokazolarni tayyorlaydi.

O'quv ishlari ob'ektlari va texnik hujjatlarni tayyorlash ishlab chiqarish ta'limi ustasi tomonidan mashg'ulotdan bir kun oldin o'tkaziladi. Ishlab

chiqarish ta’limi ustasi guruh uchun asbob-uskuna, material, texnik hujjatlar oladi, o’zining va o’quvchilarning ish o’rinlarini tayyorlaydi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustasi metodik tayyorgarlik ko’rayotgan paytida tegishli metodik qo’llanmalarni, tavsiyanomalarni, fan-texnikaga doir adabiyotlarni o’rganadi; o’quvchilarning nazariy mashg’ulotlarda olgan texnika hamda umumiy ta’lim bo’yicha bilimlarining hajmini aniqlash maqsadida umumiy texnika va umumiy ta’lim fanlari o’qituvchilari bilan suhbatlashadi hamda fanlararo aloqalar masalalarini belgilab oladi; mavzuni o’zgarish; o’quv ishini tarbiyaviy ishlar bilan usul va metodlarini o’ylab oladi; metodik kengashning muayyan mavzuni o’rganish yuzasidan tayyorgarlik ko’rish masalalari muhokamasida ishtirok etadi; mashqlar tanlaydi.

Darsda o’rganiladigan o’quv materialining maqsad va mazmuniga qarab: ishlab chiqarish operatsiyalarini o’rganish; kompleks ishlarni bajarish; o’quvchilarning bilimlari, ko’nikmalari va malakalarini tekshirish (tekshiruv ishlari) bo’yicha bir-biridan farq qiladi.

Ishlab-chiqish ta’limi darsini o’tish quyidagi shart-sharoitlar yaratishni talab qiladi: o’quvchilarning faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan o’quv-ishlab chiqarish ishlari muntazam ravishda ishlab chiqarish ta’limi ustasining rahbarligida o’tkaziladi; ishlab chiqarish ta’limi ustasi mashg’ulotlar paytida butun guruhni ko’rib turishi kerak; texnologik jarayon o’quv-ishlab chiqarish ishlarining maqsad va vazifalariga bo’ysundirilishi lozim; frontal ish shakllari uchun o’quvchilarning ish o’rinlari bir xil bo’lgani ma’qul; ishlab chiqarish ta’limi ustasi uchun maxsus uyushtirilgan ish o’rnini hozirlashga harakat qilish zarur; ustaxona, uchastka, jihozlar o’qitish maqsadlariga mos bo’lishi lozim; jihozlar, asbob-uskunalar va moslamalar ta’limning frontal bo’lishiga erishish imkonini berishi kerak; kompleks-operatsion tizim asosida ta’lim berish uchun o’quv-ishlab chiqarish ishlarini o’quv davrlariga moslab maxsus tanlab olish zarur; o’quv-ishlab chiqarish ustaxonalarida zamonaviy, yuksak darajadagi mahsuldor jihozlar, asbob-uskunalar, moslamalar bo’lishi lozim.

Asosiy operatsiyalarni bajarish bo’yicha egallangan ko’nikmalar o’quvchilar tomonidan boshlang’ich malaka ishlarini bajarishlari bilan mustahkamlangan taqdirdagina boshlang’ich, operatsiya va kompleks davrlarda ishlab chiqarish ta’limining dars tizimi to’liq amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish yo’riqnomalari o’quvchilarga mo’ljallangan faoliyatni tashkil etish uchun asosiy pedagogik vositadir. Tadqiqotlar ko’rsatganidek, o’rganilayotgan mehnat harakatlarining vazifalari, ularni bajarish vositalari,

shart sharoitlari va usullari to'g'risida tasavvur hamda tushunchalarni tarkib toptirish bu faoliyatga asos qilib olinadi.

Kirish yo'riqnomalari ishlab chiqarish ta'limi dasturining mavzusi, kichik mavzuchasi yoki bo'limini o'rganishdan oldin beriladi. Bularning vazifasi o'quvchilarni o'quv-ishlab chiqarish ishlarini ongli ravishda eng samarali usullar bilan bajarishga tayyorlash, yaroqsizlik va xatolarning oldini olish, xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilishiga erishishdir.

Odatda dars boshlanayotganda kirish yo'riqnomalari beriladi. Ammo, darsda bir necha kichik mavzular o'rganiladigan yoki o'quvchilar yangi, murakkab ishni bajaradigan bo'lsalar, kirish yo'riqnomalari bir qancha qismlarga bo'lib yuborib, dars davomida ularni bir-biri bilan almashtirib turgan, ayni vaqtda o'quvchilarga o'quv-ishlab chiqarish topshiriqlarini bajartirgan ma'qul.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада бошланғич синфларда она тили ва ўқиш саводхонлиги дарсларида ўқувчиларнинг нутқини ўстириш йўллари берилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены способы улучшения речи учащихся на родном языке и занятия по читательской грамотности в начальных классах.

SUMMARY

This article presents ways to improve students' speech in their native language and reading literacy classes in primary school.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASHNI FANLARARO ALOQADORLIKDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Norbo‘tayev X.B.
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani pedagogika fanlari doktori (DSc)., professor

Tayanch so‘zlar: tabiiy fanlar, dunyoqarash, fanlararo aloqadorlik, dars, boshlang‘ich ta’lim, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya, fan, texnologiya, zamonaviy rivojlanish, tamoyil, takomillashtirish, maktab, o‘quvchilar, shakl, metod, vosita, tabiat, jamiyat atrof-muhit, inson va tabiat, samaradorlik.

Ключевые слова: естественные науки, мировоззрение, междисциплинарность, урок, начальное образование, знание, умение, умение, компетенция, наука, технология, современное развитие, принцип, совершенствование, школа, учащиеся, форма, метод, инструмент, природа, общество, окружающая среда, человек и природа , эффективность.

Key words: natural sciences, worldview, interdisciplinarity, lesson, primary education, knowledge, skill, ability, competence, science, technology, modern development, principle, improvement, school, students, form, method, tool, nature, society, environment, human and nature, efficiency.

O‘quvchini har tomonlama rivojlantirish muammosining echimi jamiyat hayotida alohida ahamiyatga ega. Buning uchun o‘quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirish tizimini belgilab berish muhim masalalardandir. O‘quvchilarda mavjud bo‘lgan bilimlar hamda ular taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlari orasida aloqadorlikni ta’minlagan holda shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishi, ularning o‘quv jarayonidagi taraqqiyoti orasida dinamik aloqadorlikni ta’minlash lozim. O‘quvchining intellektual jihatdan erkin rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlangan insonning haq-huquqlari haqidagi qonun-qoidalarga amal qilib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi bo‘lishga undash orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishdan maqsad o‘quvchilarda samarali pedagogik ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini vujudga keltirishdan iborat. Birinchidan, mazkur muammoning amaliyotdagi holati tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilar o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishga aksariyat hollarda e’tibor qaratmaydilar.

Ikkinchidan, ta’lim sohasidagi islohotlar natijasida o‘quvchilarni intellektual rivojlantirishda yangi pedagogik imkoniyatlar vujudga keldi.

Ta’lim jarayoni, undagi o‘zgarishlar, uning ko‘p faoliyatli didaktik maydonga aylanishi o‘quvchi shaxsiga nisbatan yangicha pedagogik munosabatni qaror toptirishni taqozo qilmoqda. Bugun o‘quvchining ilmiy dunyoqarashini shakllantirish asosida intellektual rivojlantirish o‘quv jarayonining ustuvor maqsadiga aylandi. Keyingi yillarda o‘quv jarayoni subyektlariga nisbatan qadriyatli munosabat pedagogik madaniyatning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Ta’lim jarayonining demokratlashuvi o‘quvchi shaxsiga nisbatan qadriyatli munosabatning shakllanishiga asos bo‘lmoqda .

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning mazmun-mohiyatiga ko‘ra har bir o‘quvchi tayanadigan qadriyatlarni hisobga olish bilan bog‘liqdir;

o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholashi ularning shaxsiy mavqelarini belgilaydi;

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni oldiga qo‘ygan joriy maqsadlarga erishilganligini nazorat qilish natijasida ularning intellektual faoliyatlari natijalarini aniqlash imkoniyati tug‘iladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirish jarayonining tahlili shuni ko‘rsatadiki, uni ta’minlovchi faoliyatning tarkibiy qismlarini ajratish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

o‘quv jarayonida o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish mazmunini ifodalovchi qismi; bu qism o‘zida o‘quvchilarga ilmiy dunyoqarashni shakllantirish imkonini beradigan nazariy bilimlar tizimini mujassamlashtiradi;

o‘quv jarayonida o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tayanch qismi; bu qism o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarash faoliyat ko‘rsatishlarini ta’minlaydigan amaliy ko‘nikmalar va malakalarni o‘zida mujassamlashtiradi;

o‘quv jarayonida o‘quvchilarni ilmiy faoliyat ko‘rsatishga undovchi qismi; bu o‘quvchilarda ilmiy faoliyatni rivojlantirish imkonini beradigan didaktik metodlar, tamoyillar, ish rejalari va o‘quv modellarini o‘zida mujassamlashtiradi;

o‘quv jarayonida o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashi rivojlanganlik darajalarini nazorat qilishga yo‘naltirilgan qismi; bu qismda o‘quvchilarning ilmiy faoliyat rivojlanganlik darajalarini nazorat qilish, ularning ilmiy faoliyatida mavjud bo‘lgan yutuqlar va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ularning o‘ziga xosliklari va taraqqiyot darajalariga tayanish lozim.

O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish darajalarini hisobga olishda ularning o‘quv jarayonidagi faolliklari va shaxslararo ijtimoiy muloqot

me’yorlarini o‘zlashtirganliklariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilarning ilmiy faoliyat taraqqiyoti ularning fikrlash tarzi, o‘quv jarayonidagi faolliklari, bilish ko‘nikmalariga egaliklari, mantiqiy tuzilmasi shaxs rivojlanish sohalarining (motivatsion, intellektual) o‘zaro aloqadorlikga asoslangan holda amaliyotga joriy etilganligi, ularning egallagan nazariy va amaliy bilimlari yordamida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlik asosida shakllantirish uchun ularda umumiydan xususiyga va xususiydan umumiyga qarab fikrlashni o‘rgatish nihoyatda zarurdir. Buning uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalarida o‘quv materiallarini induktiv-deduktiv usulda bayon etishga erishish talab etiladi. Masalan, mamlakatimizning ko‘plab hududlarida kundalik hayotda dehqonlar ekinlarni kechroq ekishganida erga qora ko‘mir sepib qo‘yishganini guvohi bo‘lamiz, sizningcha ushbu usuldan nima maqsadda foydalaniladi?, Afsonalarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida hukumronlik qilgan xon kunlardan bir kun suv taqchil bo‘lgan hududga tog‘dan suv yo‘li olib keltiradi. Vazifa bajarilgandan so‘ng xon birinchi bo‘lib suvni ichib ko‘radi. Xalq orasida “xon suv ichdi” degan hushxabar tarqalib ketadi., Bir qiz uzoq safarga ketishdan oldin o‘z gullari bir stakandan suv qo‘yib, gullarini tagiga bir modda tashlab ketadi. Safardan qaytib kelsa, gullari so‘lmay ochilib turgan bo‘ladi. Sizningcha bu qanday modda hamda sababini nima bo‘lishi bilan izohlaysiz?

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda muammoli ta’lim ham alohida o‘rin egallaydi. O‘quvchilar turli muammolarni echish jarayonida mantiqiy fikrlay boshlaydilar. To‘g‘ri tarzda tashkil etilgan har qanday o‘quv-bilish jarayoni o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilgan o‘quv jarayoni o‘quvchining ma’naviy, mantiqiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi, ularni intellektual faoliyatga yo‘naltiradi. Agar o‘quv materiallari va uni o‘quvchiga taqdim etish metodlari ular oldiga muammoli vaziyatlarni qo‘ya olmasa, o‘quvchilarning ilmiy taraqqiyoti jadal kechmaydi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni fanlararo aloqadorlikda shakllantirish masalasi, bugungi kunda didaktikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bu masala ta’limning turli bosqichlarida turli yo‘sinda echilishi mumkin. Chunki o‘quvchilar o‘zlarigagina xos bo‘lgan turli ko‘rsatgichlar bilan o‘zaro bir-birlaridan farqlanadilar. Shuning uchun ham, ularning intellektual rivojlanish jarayoni turlicha kechadi.

Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarda ta’limni individuallashtirish tushunchasiga turlicha ta’rif berilgan. Jumladan, pedagogik atamalar lug‘atida

individual ta’lim, individuallashtirilgan o‘qitish atamalari quyidagicha izohlangan.

Individual ta’lim-o‘qituvchining o‘quvchiga yakka tartibda pedagogik ta’sirini amalga oshiruvchi o‘quv mashg‘ulotlari shakllaridan biri, o‘qituvchining o‘quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan alohida faoliyati.

Individuallashtirilgan o‘qitish-bunday o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari, sur’ati tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy-boshqaruv tadbirlari orqali ta’minlanadi.

Xususan, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ekologik masalalar keng qamrovli bo‘lib, mazkur o‘quv materialining tabiatdagi, unda sodir bo‘ladigan hodisalar, o‘zgarishlar va ular o‘rtasidagi uzviylikni taminlashga imkon beradi. Masalan, sayyoramizning havo haroratining ortishi tirik organizmlarning moslashgan arealida yashab qolishga qarshilik ko‘rsatishi, yashash uchun kurashda nobud bo‘lishga olib kelishini anglab etadi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

o‘quvchilar tomonidan tabiatning yaxlitligi, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirishga asos bo‘ladigan ekologik bilim, ko‘nikma va malakalrni egallashga erishish;

tabiat va uning tarkibiy qismlarining keng ma’nodagi ahamiyatini tushunish, tiklanadigan va tiklanmaydigan boyliklarning farqiga etish;

tabiiy boyliklardan tejamkorlik bilan foydalanish, atrof-muhit tozaligini asrash, ko‘kalamzorlashtirish va tabiiy boyliklarni ko‘paytirish uchun amalga oshirish, ijtimoiy foydali mehnatda faol ishtirok etish motivlarini shakllantirish.

O‘quvchilarga tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitish jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish tabiat bilan jamiyat uyg‘unligini tabiiy-tarixiy, tadrijiy, ijtimoiy muammo sifatida talqin qiluvchi dialektik bilish hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy va aniq fanlarni fanlararo o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy va aniq bilimlarni fanlararo aloqadorlik asosida o‘qitish jarayonini loyihalash. Bunda tabiiy va aniq bilimlarni o‘rgatish jarayonining maqsadlari, vazifalari, qo‘llaniladigan usul va vositalarni

oydinlashtirish, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladigan savol va topshiriqlarni tanlash, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashning shakllanganlik darajalarini tashxislash nazarda tutiladi.

2. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda har bir sinf o‘quvchilarining o‘ziga xos xususiyatlari, tabiat hodisalariga bo‘lgan qiziqishlari, ta’lim muassasasi joylashgan hududning tabiiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘shimcha o‘quv materiallarini, savol va topshiriqlarni tanlash uchun o‘qituvchilarni yo‘naltirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqish.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga taqdim etilayotgan qo‘shimcha o‘quv materiallari, savol va topshiriqlarni fanlararo aloqadorlik asosida tanlash va ularning o‘quvchilarda ijtimoiy faoliyat tajribasini hosil qila olish darajasini muntazam nazorat qilib borish.

4. Tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonining samaradorlik darajasini muntazam tashxislash, tahlil qilish va muvofiqlashtirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini fanlararo shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish talab etiladi:

tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilarga qanday bilimlarni taqdim etish zarurligini aniq ko‘rsatish;

boshlang‘ich sinflarda tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini fanlararo shakllantirish jarayonini aniq ifodalash;

boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini chuqurroq o‘zlashtirishni ta’minlash asosida metodik xizmat imkoniyatlarini kengaytirish.

Ta’lim mazmunini tanlash, o‘quv jarayonini fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etishdan iborat. Chunki ushbu yondashuvlar doirasida o‘quvchilarning shaxsiyati, faoliyatini rivojlantirish nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual, hissiy-irodaviy hamda boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirish asosida ularda mas’uliyatlilik, maqsadga yo‘nalganlik, tanlov erkinligi, bag‘rikenglik, tabiatga ongli munosabat tuyg‘ulari ham rivojlantiriladi.

Shuningdek, o‘quv jarayonida vaziyatli-muammoli yondashuvdan ham foydalaniladi.

Mazkur yondashuvlar doirasida o‘quvchilarga tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirish jarayoni amalga oshiriladi. Bunda turli muammolarga bag‘ishlangan o‘quv

vaziyatlari tashkil etiladi. Ushbu vaziyatlar atrof-olamni muammoli vaziyatlar orqali o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilarda muammoli vaziyatlar orqali atrof-muhitga nisbatan qadriyatli munosabatda bo‘lish tajribasini ham hosil qilish talab etiladi.

Tabiiy fanlarni matematika bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga asoslangan ta’lim mazmunini tanlashning asosiy mezoni o‘quvchining o‘z faoliyatini individuallashtirish, egallagan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini amaliy xarakterdagi vazifalarni hal qilishda qo‘llay olish imkoniga ega bo‘lishiga qaratilgan. Bunday nazariya doirasiga quyidagilar kiradi:

o‘qitish inson uchun tajribalarni o‘zlashtirish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi;

ilgari ishlab chiqilgan o‘quv kurslari ta’lim jarayonida modernizatsiya qilinishi kerak;

o‘quv materiali o‘quvchilarning tajribalari, kundalik hayotiga yaqin bo‘lishi lozim;

ta’lim sifati o‘quvchilarning fanlararo aloqadorlikka oid bilimlarning qay darajada o‘zlashtirganliklariga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy va aniq fanlarni o‘qitishda o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini fanlararo shakllantirish o‘quvchilarda individual faoliyatni faollashtiradi, shuningdek, ularda egallagan bilimlarini amaliyotda tadbiq etish faoliyati mustahkamlanadi. Masalan, daraxtlarning barglari yordamida qo‘l ishlarini amalga oshirish, gerbariylar yig‘ish shular jumlasidandir. Ushbu bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zida yanada ko‘proq axborotlarni mujassamlashtiradi.

Ta’lim mazmunini tanlashda fanlararo bilimlar tizimi ko‘rinishida taqdim etishni nazarda tutuvchi muammoli, yondashuvli o‘qitishni o‘yin bilan uyg‘unlashtirish yoki o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish kabilar kompetensiyaviy yondashuvning asosini tashkil qiladi. Bu, ayniqsa, tabiiy va aniq fanlar bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Diss.ped. fan.dok. - Toshkent, 2006. - 263 b.

2. Abdurahmonova Z.A. O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlik faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari// Zamonaviy ta’lim.- Toshkent, 2017. - № 9. - B. 17-21.

3. R.A.Mavlonova., N.H. Rahmonqulova “Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi”. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2009. -192 b.

4. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: psix.fan dok. diss. -T., 2005.- 391 b.

5. Norbo‘tayevX.B. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini takomillashtirish metodikasi. //“Globallashuv jarayonida innovatsion ta’lim va milliy tarbiya: integratsiyaga xos muammolar, bahslar va echimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. - Termiz: “kitob nashr”, 2023. - 1022 b.

6. Toshpulatova N.Sh. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o’quvchilarni aqliy tarbiyalash (aniq va tabiiyfanlar misol) //Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘. Ilmiy-metodikaliq jurnal.-Nekis.-2022. 6/7 son. -B. 57-61.

7. Shirinov M.K O‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda ekologik ta’lim-tarbiyaning o‘rni // Xalq ta’limi. - Toshkent, 2015. - № 3. - B. 88-92.

РЕЗЮМЕ

Maqolada ta’lim tizimida fan va texnologiyaning jadal sur’atda rivojlanishi sharoitida o‘quvchi ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, interaktiv ta’lim strategiyalari va mexanizmlarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi yangi nazariy va amaliy bilimlarni ta’lim mazmuniga singdirish, barcha fanlardan o‘zaro aloqadorlikda zarur bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini shakllantirish, ijtimoiy hayot tajribalari va ilm - fanning turli sohalari uchun muhim bo‘lgan bilimlarni o‘quvchilar egallashlari uchun ijodkor mutaxassislarni tayyorlash ustuvor hisoblanib, bu esa o‘z navbatida uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini hisoblangan boshlang‘ich ta’lim o‘quv rejasi va fan dasturlarini mazmunan maqsadga muvofiq tahlil qilish, pedagogik jarayonlar va ta’lim muhitini faol axborot almashinish jarayonlari bilan integratsiyalash masalalari bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье в условиях стремительного развития науки и техники в системе образования происходит формирование у студента научного мировоззрения, совершенствование интерактивных образовательных стратегий и механизмов, основанных на принципах современного развития, внедрение новых теоретических и практические знания о законах природы и общественного развития в содержание образования, необходимые знания, умения и навыки. Приоритетным направлением считается подготовка творческих специалистов с целью приобретения учащимися знаний, важных для формирования умений и компетенций, социальной жизни опытом и различными областями науки, которая, в свою очередь, является основным звеном системы непрерывного образования, описаны анализ учебной программы начального образования и научных программ, интеграция педагогических процессов и образовательной среды с активными процессами обмена информацией.

SUMMARY

In the article, in the conditions of the rapid development of science and technology in the education system, the student is forming a scientific worldview, improving interactive educational strategies and mechanisms based on the principles of modern development, introducing new theoretical and practical knowledge about the laws of nature and social development into the content of education, the necessary knowledge , skills and abilities. The priority direction is the training of creative specialists in order to acquire knowledge by students important for the formation of skills and competencies, social life, experience and various fields of science, which, in turn, is the main link in the system of continuing education, the analysis of the primary education curriculum and scientific programs, the integration of pedagogical processes and the educational environment with active processes of information exchange are described.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EMOTSIONAL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Xurvalieva T. L.
CHDPU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi, P.f.d. (DSc), professor

Tayanch so'zlar: emotsional, psixik taraqqiyot, emotsional motivatsion, muloqot, obrazlilik, faoliyat, sintoniya, desentratsiya, egozim, shaxs, yaqin rivojlanish zonasi, lingvistik, mantiqiy.

Ключевые слова: эмоциональное, психическое развитие, эмоциональная мотивация, общение, образность, активность, синтония, децентрация, эгоизм, личность, зона ближайшего развития, лингвистическая, логическая.

Key words: emotional, mental development, emotional motivation, communication, figurativeness,activity, syntony, decentration, egoism, personality, zone of proximal development, linguistic, logical.

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha yosh davrida bolalar emotsional jihatdan o'zgaruvchan bo'ladi. Ular insonlarning yuz-ifodasidagi o'zgarishlarni quvonch, jahl, xafalik, qo'rquvni farqlaydi. Ba'zida emotsiyalarni tez ilg'aydi, ba'zida qiynaladi. Biroq quvonchni tez anglaydi, xafalikni ham sezadi, asta-sekin jahl qilgan odamlarni ham ajrata boshlaydi.

Go'dak bolalarda tashqi dunyoga ongsiz "ishonch" tuyg'usi vujudga keladi. Buning bosh sababi ota-onaning mehr-muhabbati, g'amxo'rligi va jonkuyarligidir. Agar go'dakda ishonch paydo bo'lmay, borliqqa ishonchsizlik hissi tug'ilsa, voyaga yetganda mahdudlik, umidsizlik vujudga kelishi shubhasizdir.

L.S.Vigotskiy bola rivojlanishida psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi muhimligini asoslaydi, buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyati katgalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. Olim tavsiya etgan "psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasi "tahlim taraqqiyotdan oldinda boradi" degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunshi uchun imkoniyat yaratadi.

L.S.Vigotskiy **"bola taraqqiyotini hech mahal maktab tahlimidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas"** - deb tahkidlaydi [1].

Ilk bolalikda mustaqil bo'lishga intiladi va shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usi shakllanadi. Agarda oilada psixologik muhit yaxshi bo'lmasa aksincha,

bolalarda tortinish va qo'rquv hissi paydo bo'ladi. Boladagi mustaqil hatti-harakatlar unga o'z tanasini boshqarish uchun keng imkoniyat yaratadi. Bo'lg'usi shaxs sifatida tartib, intizom, mashuliyat, javobgarlik, hurmat tuyg'ulari tarkib topishiga zamin hozirlaydi.

5-7 yoshli bolalardagi xohish-istakni ro'yobga chiqarish yo'li to'sib qo'yilsa, buning uchun u o'zini aybdor deb hisoblaydi. Mazkur davrda jamoaviy o'yinlarni tashkil qilish, tengqurlari bilan muloqotga kirishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bola turli rollar ijro etishi natijasida tasavvuri o'sishiga imkon yaratiladi. Aynan shu davrda bolada adolat tuyg'usi, uni tushunish mayli tug'ila boshlaydi. Avvalo bilish sohalari, so'ngra esa emotsional motivatsion yo'nalish bo'yicha ichki shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo'nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo'lgan bosqichlarni o'taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o'zgartirishi va erkin harakatga keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantikiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuiiladi. Bolaning uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yuzaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashkil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy uzgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi hisoblanadi.

Biroq oilada yoki maktabgacha tahlim tashkilotlarida tashkil etilgan noto'g'ri tahlim-tarbiya bola psixikasida emotsional zo'riqishni vujudga keltirishi mumkin. Ularga to'xtalib o'tamiz:

- √ kattalar tomonidan bolaning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini xisobga olmaslik;
- √ xohish va istaklarini mustaqil ravishda qaror toptirishga intilishlariga to'sqinlik qilish;
- √ qiyinchiliklarni bartaraf etishga imkon bermaslik, yahni kattalarning o'zi yordam berishi;
- √ Bolaga mustaqil ish tutishini cheklash.

Ota-onalar va pedagoglar bolalarning rayiga, mustaqilligiga qarshi turmasdan, mumkin qadar istagiga, intilishiga yordam bersalar, uning shaxsini shakllantirish jarayonidagi qiyinchilik o'z-o'zidan barham topadi, nizo yoki zo'riqishni oldi olinadi. Oilada, maktabgacha tahlim tashkilotida shaxslararo munosabatlar ijobiy bo'lsa, muayyan qoidalarga suyanilsa va pedagogik odob doirasidan chetga chiqilmaca, yuqorida aytilgan ziddiyatlarning oldi olinadi.

Kichik va o'rta guruh bolalarining shaxsiy fazilatlari kattalarni kuzatish asosida tarkib topadi. Ushbu davrda bolada iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot va munosabatlarga kirishishni o'rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan muloqotga kirisha olishida, ish bo'yicha va shaxsiy munosabatlarini samarali o'rnata olishida foyda keltiradi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy harakatlar emotsiyani boshqarishga yordam beradi, barqaror hissiyot ifodalanadi. Bola rivojlanishi davrida murakkab ijtimoiy xavotirlar paydo bo'ladi, yahni xamdardlik, o'zgalarga qayg'urish, ko'mak berish kabilar. Biroq bolalar o'yin faoliyati orqali tengdoshlarini ruhan qo'llab-quvvatlaydi. Ularda empatiyaga moyillik uyg'ona boshlaydi. Maktabgacha yosh davrida o'zi va boshqalarning xavotirini anglaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar atrofidagi insonlarning emotsional holatini kuzatadi va o'z munosabatini bildiradi. Turli hissiyotlarni vaziyatga qarab ifodalaydi. Biroq, shu narsa diqqatta sazovorki, agar maktabgacha yoshidagi bolalarda xayol qilish qobiliyati bo'lmaganda edi, ularning xayoli ham xilma-xil bo'lmas edi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning xayollari turli xil mashg'ulotlarda ham o'sadi. Masalan, maktabgacha yoshidagi bolalar loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o'ynashni va rasm solishni yaxshi ko'radilar. Ana shunday mashg'ulotlar bolalar xayolining o'sishiga faol tahsir qiladi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga faol tahsir qiluvchi omillardan yana biri - ertaklardir. Bolalar hayvonlar haqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan mahlum munosabatlari yuzaga keladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda yoqimli va yoqimsiz his-tuyg'ular g'oyat kuchli va juda tez namoyon bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarning his-tuyg'ulari kun jihatdan ularning organik ehtiyojlarining qondirilishi va qondirilmasligi bilan bog'liqdir. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi sababli bolada noxushlik (yoqimsiz), norozilik, iztiroblanish kabi tuyg'ularni qo'zg'aydi.

Katta maktabgacha yoshidagi bolalarda burch hissi - «nima yaxshi-yu», «nima yomonligini anglashlari bilan ularning axloqiy tasavvurlari orasida bog'liqlik bor. Katta odamlar tomonidan buyurilgan biron topshiriqni bajarganlarida mamnunlik, shodlik tuyg'ulari paydo bo'lsa, biron tartib qoidani buzib qo'yganlarida xafalik, tahbi xiralik hissi tug'iladi. SHuningdek, maktabgacha yoshidagi bolalarda mahnaviy hissiyotlardan o'rtoqlik, do'stlik va jamoachilik hislari ham yuzaga kela boshlaydi.Bolaning maktabgacha yoshidagi davrida estetik hissiyotlari ham ancha tez o'sadi. Maktabgacha yoshidagi bolalarda

estetik hislarning namoyon bo'lishini, ayniqsa, ularning chiroyli, yangi kiyim-bosh kiyganlarida juda yaqqol ko'rish mumkin.

XULOSA. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy muhitga moslashishida emotsional sintoniya va emotsional detsentratsiya mexanizmlari muhim rol o'ynaydi. Sintoniya-emotsional zararlanish bo'lib, bu chaqaloklik davrida paydo bo'lib, rivojlanish davrida xavotirlanish jarayonigacha olib kelishi mumkin. Bolalar asta-sekin o'zgalarning xis-tuyg'ulari, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklarini o'zida tasavvur qila boshlaydi. Biroq ulg'aygan sari boshqalarning his-tuyg'ularini o'ziga olmaydi, mustaqil ravishda o'zining emotsiyalarini bildira boshlaydi. Desentratsiya esa, bolalarda egoizmni paydo bo'lishi mexanizmi deyish mumkin, bunda uning shaxsiy qarashlari, o'zgalarni taqqoslash va pozitsiyani integratsiyalash natijasida o'zgarib boradi. Emotsional detsentratsiya asosida emotsional vaziyatlar va ixtiyorsiz harakatlar yotadi. SHu sababdan maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional zo'riqishni oldini olish maqsadida, oilada sof psixologik muhit yaratish, maktabgacha tahlim-tarbiya jarayonida ularning individual xususiyatlarini inobatga olish muhim sanaladi.

Adabiyitlar:

1. Выготский Л.С. К Вопросу о динамике детского характера. М.:2000-127 с.

2. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии-СПб.: Союз, 1997.-224 с

3. Грецов А.Г. Практическая психология для родителей и подростков.-СПб.: Изд-во "Питер", 2006.-160 с.

4. Davletshin. M.G., SH.Do'stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O'quv metodik qo'llanma.-T.: 2004-129 b.

5. Сергиенко Е.А.Социально-эмоциональное развитие детей. Теоротическое основы. М.: Дрофа.2019- 248 с.

6. Xurvalieva T.L., Xolmatova S.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalarda senzitiv rivojlanish davrlarining o'ziga xos xususiyatlari.// Tahlim va innovatsion tadqiqotlar. Xalqaro ilmiy-metodik jurnal.2022 yil. № 9-son. B.292-298.

РЕЗЮМЕ

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh psixologik xususiyatlari keltirilgan. SHuningdek, bolalarda emotsional rivojlanish xususiyatlari hamda emotsional zo'riqish sabablari tahlil qilingan. Emotsional holatlar va ularning mohiyati yoritilgan. Ota-onalar va tarbiyachi-pedagoglarga psixologik tavsiyalar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье даны психологические особенности детей дошкольного возраста. Также были проанализированы особенности эмоционального развития детей и причины эмоционального напряжения. Освещены эмоциональные состояния и их значение. Родителям и педагогам даются психологические рекомендации.

SUMMARY

The article gives the psychological characteristics of preschool children. The features of the emotional development of children and the causes of emotional stress were also analyzed. Emotional states and their significance are highlighted. Psychological recommendations are given to parents and teachers.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHNING PEDAGOGIK –PSIXALOGIK XUSUSIYATLARI

Tashmatova SH.R.
Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktoranti

Tayanch so'zlar: kreativlik, ijodkorlik, turlicha fikrlash, fikrlash qobiliyatlari,g'oyaviy sermahsullik, ijodiy strategiyala,ijodiy yondoshish.

Ключевые слова: креативность, творчество, иное мышление, навыки мышления, творческая стратегия, творческий подход.

Key words: creativity, thinking differently, thinking skills, creative strategy, creative approach.

Kreativlik - lotincha so'z bo'lib, "ijod" yoki "yo'q narsadan yaratish" kabi ma'nolarni anglatadi. Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni, yangi g'oyalarni aks ettirishi kerak.Kreativlik tushunchasi o'zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan'anaviylikni aks ettiradi. Bugungi kun boshlang'ich sinf o'qituvchisida ijodkorlik va kreativlik bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jihati uning ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Biz shular orasida **«kreativlik»** tushunchasiga alohida to`xtab o`tmoqchimiz. Bu tushuncha so`nggi yillarda ta`lim-tarbiya jarayonlarida ma`lum darajada qo`llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma`nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativl ikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan.

Ayniqsa bunday izlanishlar psixologiya soxasida keng rivojlangan. A.Yu.Agafonov, Yu.Lotman, V.Rudnevg, S.Batishev, M.Baxtin, D.B. Bogoyavlenskaya, V.M.Vil`chek, V.Dil`tey, V.N.Drujinin, D.A.Leont`ev, A.Maslou, A.A.Melik-Pashaev, I.Meyerson, A.Ya.Ponomarev, M.Rorbax, S.L.Rubinshteyn, V.Frankl, R.Yakobson singari olimlar shular jumlasidandir. Yuqorida tilga olingan psixolog olimlarning ilmiy tatqiqot ishlarini va boshqalarda kreativlikning mazmun va ma`nosi jihatdan psixolog olimlar quyidagi xulosalarga kelishganligining guvohi bo`lamiz.

1. **Kreativlik** – bu madaniyat vositasi asosida shaxs sifatida shakllanish jarayonida namoyon bo`ladigan shaxsning shaxsiy sifati (fazilati)dir.

2. **Kreativlik** – bu insonning shaxsiy xususiyati bo`lib, uning o`z-o`zini takomillashtirib va rivojlantirib borishi bilan bog`liq.

3. Psixolog olimlar tomonidan kreativlikning qo`yidagi ikkita komponenti aniqlangan. Bular:

A). Shaxsiy mazmun. Ya`ni har bir insonning shaxsiy hayotining umumiy mazmuni. Bu mazmun madaniyatshunoslik bilan bog`liq. Har bir inson biron bir soha yoki faoliyat bilan shug`ullanar ekan, u kreativlik, ya`ni yaratuvchanlik munosabatda bo`ladi va uni iloji boricha chiroyli, insonlarni o`ziga tortishga yo`naltiriladi. Bu esa o`z navbatida insoniyatning madaniyatga yo`naltirilganligidir.

B). Signifikatsion ko`nikmalar.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, kreativlik tushunchasiga nisbatan bir-biriga zid bo`lgan quyidagi turli xil qarashlar majud. Bular:

1. Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi sifatlari majmuidir.

2. Kreativlik – bu insonning o`ziga topshirilgan muayyan topshiriq va vazifalarni bajarish usulidir.

3. Kreativlik – bu intellekt (aql) ning mahsulidir.

4. Kreativlik – bu insonga xudo tomonidan berilgan qobiliyat, kashfiyotlardir.

5. Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

6. Kreativlik – bu ijodkor insonlarning ma`naviy-axloqiy va ijtimoiy adaptatsiyalanishidir.

7. Kreativlik – bu madaniyat bilan uzviy bog`liq bo`lgan kategoriyadir.

Shu bilan bir qatorda psixologiyada ijod va ijodiy faoliyat muammosini o`rganuvchi alohida yo`nalish – ijodkorlik psixologiyasi yo`nalishi vujudga kelgan.

Ijodkorlik psixologiyasining asosiy maqsadi psixologik qonuniyatlar, ijod jarayoni mexanizmi va kreativ (creativity – inglizcha ijodiy)likni o`rganishdan iborat. Ijodkorlikka rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida (N.V.Kipiaki, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, I.N.Semenov va boshqalar) qaraladi va uning o`rganilishi M.S.Bernshteyn, V.S.Bibler, V.N.Shkin, O.K.Tixomirov, E.G.Yudin va boshqalar nomi bilan bog`liq.

Psixologik ijodkorlikning kreativlik deb nomlanuvchi yo`nalishi ustida g`arb olimlari: J.Gilford, S.Liding, V.Smit, D.Xalperik va boshqalar izlanishlar olib borishgan.

Chet el olimlarining kreativlik tushunchasi haqidagi izlanishlarini tahlil qilib va umumlashtirib R.Xameni yozadi: «Kreativlik o`zida yangicha yo`sinda

amalga oshirilgan o`zlashtirish to`lqinini (Makkelif), yangicha aloqadorliklarni aniqlash (Kyubi), yangicha munosabatga kirishish (Rodjers), yangiliklar (Lassuel), ongning yangicha e`tirozlariga sabab bo`luvchi faoliyatidir».

Ko`pchilik tadqiqotchilar kreativlikni belgilashda shaxsning o`ziga xosligi va xususiyatlariga e`tibor qaratadilar. J.Gilfordning fikricha, kreativlik va ijodiy imkoniyat qobiliyatlar va ijodiy tafakkurga ta`sir etuvchi omillar yig`indisi sifatida namoyon bo`ladi.

E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo`lmasligi muammosi, qiyinchiliklar qarshiidagi indentifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi. (E.Torrens, 1996-y.)

Ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-boshqaruv darajasida – ijodkorlik determinantlari borasida jamoa ijodkorligini boshqarishda tashkilotchilik muammosi, jamoaning funktsional-rolli differentsiyasi yo`nalishi bo`yicha izlanishlar olib borilmoqda.

Kreativlik ijodiy tafakkurning yangi mahsuli yoki natijasi ekanligi yuzasidan bahslar hali ham ayrim olimlar orasida davom etmoqda.

Boshqa izlanishlarda ijodkorlikning yangilik yaratishdagi yetakchiligi ta`kidlanadi. V.Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo`lgan ob`ektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg`unligi».

Ko`rinib turganidek, kreativlik masalasi ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida tahlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog`liq ekanligi e`tirof etilgan. Agarda til va nutq inson psixikasining mahsuli sifatida namoyon bo`ladigan bo`lsa, uning shakllanishi va rivojlanishi pedagogik muammo sifatida ham tahlil etishni taqozo etadi.

Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e`tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo`llanilmayotgan bo`lsa ham bu tushunchani ma`lum darajada pedagogik iste`molga kiritishga doir harakatlar ko`zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog`liq holda o`rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog`liq holda tahlil etiladi. Ijodning psixologik asoslari sifatida qo`yidagi elementlar qabul qilangan.

Bular:

1. Qabul qilish.
2. Xohish va istak.
3. Tasavvur qilish.
4. O`z-o`zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o`rinni egallaydigan fikr yuritish bilan tasavvur qilish qo`yidagi elementlar belgilanishi e`tirof etilgan. Bular:

1. Aqliy mehnat.
2. Intuatsiya.
3. Dunyoqarash

Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o`zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida baholi qudrat fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang`ich ta`limda innovatsiya», «Boshlang`ich ta`lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o`quv qo`llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to`xtab o`tgan.

Buyuk olim V.A.Slastyonin pedagogning innovatsion faoliyatiga bo`lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlarini qo`yidagicha belgilagan:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo`llaganligi.

Bu qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o`z kamolotiga intilish;

- kreativlik, bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyati va o`z ka - molotiga intilish;
- kasbiy faoliyatni baholash, bu - ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik kontseptsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari; ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o`zaro yordam berish qobiliyati;
- o`qituvchining individual qobiliyati, bu - ijodiy faoliyat sur`ati va ish qobiliyati; qat`iyatlik, mas`uliyatlik va xalollik, o`zini tuta bilish.

O`tgan asrning 60-70-yillari pedagogikada kreativlik muammosini o`rganishda keskin burilish yillari bo`ldi. Shu davrda ijodiy izlanuvchan pedagog-novatorlar paydo bo`ldi. Novatorlar erishgan natijalar nafaqat pedagoglarni, balki psixologlarni ham qiziqtirdi, ular ijodiy ta`limining psixologik tomonlarini, ijod faoliyatining pedagogik psixologiyadagi mexanizmini o`rgandilar. (V.V.Davidov, LA.Zimnaya, N.V.Kuzmina, A.M.Matyushkin, Y.A.Ponomarev, R.A.Mavlonova rahbarligidagi pedagogika fanlari ilmiy-tekshirish instituti jamoasi.)

Biz kreativlikning tizimlilik tuzilishidan kelib chiqib, unga shaxsning o`ta intellektual-evristik jihati sifatida emas, balki shaxsni qadrlovchi, tabaqalashtirilgan ta`lim sifatida qaraymiz.

Tadqiqotchilar fikrlari orasida kreativ insonlar boshqalarga taqlid qilmasdan, o`zlari tanlagan faoliyatlarining barcha bosqichlariga ijodiy yondashadilar, degan fikr etakchilik qiladi.

O`rganilayotgan muammoga V.A.Slastyonin, L.S.Podimova, N.M.Gnatko qarashlari bilan birgalikda, kreativlik mexanizmini ikki turga bo`lishni taklif qiladilar:

1. Potentsial
2. Dolzarb.

Potentsial kreativlik - muallifning fikricha, kreativlik faoliyatidir, individiumni potentsial joylashuvi ma`lum tashqi sharoitlarda dolzarb kreativlikni egallashning asos tayyorgarligini tashkil etadi; potentsial kreativlik - ijodning sub`ektiv zarur sharoitidir.

V.A.Slastenin, L.S.Podimova potentsial kreativlikning dolzarb kreativlikka izchil taqlid qilish mexanizmi orqali o`tishi muammosiga o`ziga xos yondashganlar.

Shunday qilib, kreativlik taqlid qilish, nusxa ko`chirishdan ijodiy nusxa ko`chirish, taqlidiy ijod va haqiqiy ijodkorlikka tomon rivojlanib boradi. Tabiiyki, barcha o`qituvchilar ham kreativ rivojlanishning barcha bosqichlari bilan tavsiflanmaydilar:

- ba`zilar tayyor metodik tavsiyalardan nusxa olib, faqat birinchi darajaga erishadilar;
- ikkinchilari to`liq konsepsiya va tizimlarga ega bo`lmasdan turib, ba`zi metodik usullarga o`zgartirishlar kiritadilar;
- uchinchilari ma`lum g`oya asosida to`liq mazmun, metod va shakllarni ishlab chiqadilar;
- to`rtinchilar esa ta`lim va tarbiyada o`zlarining kontseptsiya va metodikalarini tavsiya etadilar.

Yuqoridagilarga munosabat bildirib aytish mumkinki, dastlabki uchtasi taqlid bosqichida bo`lib, to`rtinchisi ularga qarama-qarshi tarzda ijod bosqichida.

Intellektual faollik darajasini belgilangan kreativlik bosqichlari bilan taqqoslash, ikkala yo`nalish orasida ma`lum mutanosiblikni, innovatsion-pedagogik faoliyatning bir necha bosqichda takomillashib borish darajasidagi tushunchalarni aniqlashga imkon berdi. Pedagog faolligining borgan sari yuqoriroq darajadagi faoliyatga ko`tarilib borishi kelajakda innovatsion ta`lim strategiyasini tashkil qilishni belgilaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joyizki, kreativ fikrlashning pedagogik-psixologik jihatlarini o`rganish va tadbiq etish boshlang`ich sinf o`quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Inoyatev U.I., Usmonboyeva M., Inog`omova D. "Pedagogika: 1000ta savolga 1000 ta javob" / Metodik qo`llanma –T.: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012. – 193-b.

2. Ibragimova G.Ijodkor pedagoglarda shaxs xususiyatlarini namoyon bo`lishi// Xalq ta`limi.-Toshkent,2010. –B.40-43.

3. Amabile, T. (2012), «Componential theory of creativity»,No. 12-096, Harvard Business School, http://www.hbs.edu/faculty/ Publication%20Files/12-096.pdf (accessed on 28 March 2018).

4. Beghetto, R. and J. Kaufman (2014), «Classroom contexts for creativity», High Ability Studies, Vol. 25/1, pp. 53-69, http://dx.doi.org/10.1080/13598139. 2014.905247

5. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X."Boshlang'ich ta'limda innovatsiya".T.,TDPU 2007-y.

6. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X."Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya." T., 2013.

7. "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent- 2016

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, kreativlikning inson rivojlanishiga va uning shaxsiyatiga ta'siri masalalari yoritilgan bo'lib,bu masalada ko'plab olimlarning fikrlari va mulohazalari ham o'rin egallagan. Kreativlikni rivojlantirishda g'oyaviy sermahsullikning ahamiyati va kreativlikni rivojlantirish bo'yicha takliflar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещаются вопросы развития навыков творческого мышления учащихся, влияние творчества на развитие человека и личности, а также в этом вопросе имели место мнения и мнения многих ученых. Даны значение мыслительной продуктивности в развитии творчества и предложения по развитию творчества.

SUMMARY

In this article, the issues of development of students' creative thinking skills, the impact of creativity on human development and personality are highlighted, and the opinions and opinions of many scientists have taken place in this issue. The importance of ideational productivity in the development of creativity and proposals for the development of creativity are given.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ БИЛАН ЎҚУВ ЛУҒАТЛАРИ УСТИДА ИШЛАШ

Омонбоева Н.Э.
Навоий давлат педагогика институти ўқитувчиси

Таянч сўзлар: нутқий компетенция, луғатчилик, ўқув луғатлари, изоҳли луғат, таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар, ўзга тилли гуруҳлар, қардош ва қардош бўлмаган тиллар.

Ключевые слова: речевая компетенция, лексикография, учебные словари, толковый словарь, школы, где обучение ведется на казахском языке, группы иностранных языков, родственные и неродственные языки.

Key words: speech competence, lexicography, educational dictionaries, explanatory dictionary, schools where education is conducted in the Kazakh language, groups of foreign languages, related and unrelated languages.

Таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар пировард натижада ўқувчини ҳаётга тайёрлашни назарда тутади. Тиълимнинг асоси, пойдевори, албатта, бошланғич таълимга боғлиқ. Мамлакатимизда етти тилда таълим берилади, бироқ барча таълим муассасаларда давлат тилини ўқитишга алоҳида эътибор берилади. Таълим қозоқ тилида олиб бориладиган мактаблар сон жиҳатда кўпчиликни ташкил қилади. Қардош тилларни ўқитиш бўйича олиб борилаётган тадқиқотлар сонини ошириш, айниқса, тилларни қиёслаб ўқитиш масаласи, туркий сўзларнинг изоҳини ўргатиш бугунги глобаллашув шароитида долзарб бўлиб турибди.

Бугунги кунда таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларда ўзбек тили ўқитиш масаласи кенгроқ ўрганлган. Бу борада профессор Х.Муҳиддинованинг таълим бошқа тилларда олиб бориладаиган муассасаларда ўзбек тили ўқитишга доир дастур ва дарсликлар мазмунидаги узлуксизлик масаласига асосий эътиборини қаратилади[2]. Ҳ.Мирзоҳидова ўзбек мактабларида фонетика ўқитишни қирғиз тилига қиёслаб, қардош тилларга таққослаб тушунтиришнинг қулайликлари ҳақида фикр юритади[3]. Бироқ лексика соҳасини ўқитиш, хусусан, ўқув луғатлари мсаласи эътибордан четда қолиб келмоқда.

Тил луғатларда акс этади. Ўзбек лексикографияси кейинги йилларда сезиларли даражада ривожланиб бормоқда, бироқ ўқув луғатлари соҳасида

тадқиқотлар етарли эмас. Тил таълимининг ядросини ташкил қиладиган мазкур восита махсус илмий ва методик изланишларга катта эҳтиёж сезади. Ўқув луғатлари ҳозирги шароитда қачон заруратга айланади, қачонки, таълим мазмуни эҳтиёж сезса, ўқув топшириқлари тузишда тизимили равишда мавзулар луғатлар билан боғлаб борилса. Тил луғатлар асосида ўргатилиши керак. Ўқув луғатлари яратишда она тили таълими олдига бугунги давр қўяётган вазифаларни ҳам ҳисобга олиш лозим. Мактаб ўқитувчилари учун она тили дарсларида ўқув луғатларда фойдаланиш методикаси ишлаб чиқилиши керак. Амалдаги "Она тили" дарсликлари асосан, изоҳли луғатлардан фойдаланишга диққат қаратган, аслида имло, талаффуз, сўзларнинг шакл ва маъно муносабатига кўра турларини ўргатишга хизмат қиладиган луғатлар билан баравар ишлаш ҳам ўтиш керак[1].

Дарсликларда ажратиб олинган, ўқувчига тақдим қилинган луғат сўзларидан ҳам ташқарига чиқиш керак. Қолаверса, фразеологик, пареминеологик луғатлардан ҳам узлуксиз фойдаланишни йўлга қўйиш керак. Ўқув топшириқлари шундай такомиллаштирилиши керакки, натижада ўқувчи турли луғатлар орқали сўзни тўғри ёзишни, талаффуз қилишни, маъносини англашни, ўрнига бошқа сўзни қўллашни ўрганиши керак.

Луғат – ҳар қандай мамлакатнинг ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий, иқтисоий ривожланишининг рамзий тимсоли. Луғат фақат тилни ўрганиш эмас, халқ маданияти, турмуш тарзи ва бошқа жиҳати хусусида ҳам маълумот бериш учун хизмат қилади.

Манбаларда луғатнинг жамият тараққиёти учун муҳим ижтимоий, сиёсий, маданий аҳамиятга эга бўлган қуйидаги асосий вазифаси ажратилади:

– она тилини ва бошқа тилни ўргатиш;
– она тилини тасвирлаш ва меъёрлаштириш;
– тиллар ва маданиятлараро муносабатни таъминлаш;
– тил лексикасини илмий текшириш ва талқин қилиш[4].

Тилшунослик тизимида лексикографиянинг ўқув луғатчилиги тармоғи пайдо бўлгандан буён, мутахассисларни ўқув луғати қандай луғат, уни яратишда қандай мезон устуворлик қилади, асосий вазифалари нимадан иборат, умумий луғатдан нимаси билан фарқланади, бошқа типдаги луғатдан устунлиги нимада деган савол қизиқтириб келган. Жаҳон тилшунослигида XX аср бошидаёқ бу саволларга давр талабидан келиб чиққан ҳолда муайян жавоб берилди. Кўпгина ривожланган мамлакатда ўқув лексикографияси ўз тараққиётининг бир неча босқичини ортда қолдириб, бугунги кунда замонавий типдаги янги авлод антропоцентрик ўқув луғатининг янги-янги жанрини яратиш назарияси ва амалиёти билан шуғулланмоқда[1].

Маълумки, ҳар қандай луғатда ниманидир ўргатиш мақсади ётади. Аммо бевосита мактаб учун яратилган луғатгина ўқув луғати тоифасига киритилади ва у махсус мезонлар асосида тузилади.

Шу билан бирга тилшуносликда ўқув луғатчилиги лексикографиянинг алоҳида тармоғи экани билан боғлиқ мунозарали фикр ҳам учрайди. Айрим тадқиқотчилар ўқув луғатига лексикографиянинг алоҳида жанри эмас, шунчаки ўқув жараёнига чуқурроқ кириб борган кўриниши деб қарайди.

Э.Ю.Балалаева ҳам ўқув луғатини ажратиш масаласида тадқиқотчилар орасида қатъий тўхтам йўқлиги, жумладан, Б.Бим-Баднинг ўқув луғатининг таълимий, маълумот бериш ва тизимлаштириш, шунингдек, бошқа барча луғатга хос бўлган ахборот бериш ва меъёрлаштириш вазифасини бажариши, М.Лаптеванинг терминологик ўқув изоҳли луғатнинг ахборот бериш, тизимлаштириш ва мустақил билим бериш каби етакчи вазифани бажаришига доир фикрини келтириб ўтади. Олима мазкур тадқиқотчиларнинг фикрини инкор этар экан, М.Ковязина, Т.Петрашов, В.Табанакова каби бу борада П.Н.Денисов фикрига қўшилишини ва ўқув луғатининг тўртта – таълимий, тизимлаштириш, маълумот бериш, меъёрлаштириш вазифаларини бажарувчи минимал лексик тизим эканлигини таъкидлайди.

Ўқув луғатини педагогик аспектда ўрганган Т.В.Жеребило[6] ўқув луғатини бир қатор ўзига хос хусусиятига қарамай, дарслик, қўлланма ва турли дидактик материалдаги маълумотни шунчаки лексикографик шаклга келтириш, жамлаш ва сақлаш вазифасини бажарадиган восита деб ҳисоблайди. Унингча, ҳар қандай луғат таълим бериш ва инсон шахсини ривожлантириш воситаси сифатида ўқув, таълимий, тарбиявий, интеллектуал ривожлантириш билан боғлиқ асосий вазифани бажаради. Ўқув луғати ушбу универсал функция билан бир қаторда маълумот бериш, ахборот узатиш, тизимлаштириш, меъёрлаштириш, мотивлаш каби махсус функцияларни ҳам бажаради холос[6].

Умуман олганда, Т.В.Жеребило ўқув луғатини дидактик тизимнинг шунчаки бир қисми сифатида қарайди ва унинг вазифасида таълим жараёнига хосланиш бироз чуқурлашган деб ҳисоблайди. Айрим тадқиқотчилар Т.В.Жеребилонинг қарашига қарши чиқади ва бу фикр ҳар доим ҳам тўғри келавермаслиги, масалан, ўқув терминологик луғат тарбиявий вазифа бажармаслигига эътиборни қаратади.

В.В.Дубичинский ўқув луғатининг энг муҳим хусусияти методик талабга асосан тил ўрганишга қаратилган восита эканлиги, аслида, ўқув луғати нафақат лексикографик, балки дидактик нашрлигини, она тили таълими ҳам, хорижий тилни ўқитиш методикаси ҳам унга эҳтиёж сезишини таъкидлайди. У мутахассисларнинг ўқув луғатчилиги соҳасини ажратиш ёки

4. Djumayeva M. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarga oid ko‘nikmalarni shakllantirish. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy amaliy anjuman 19- mau 2023 yil 168-177 b

5. Djumayeva M. Tabiiy fanlarni o‘qitishda kreativ yondoshuv masalalari Zamonaviy ta’lim: Yangicha yondashuvlar va dolzarb tadqoqotlar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya 2023 yil 16-17 may. 368-3729.

6. Djumayev M.I Musayeva N.X. The development of mathematical abilities in younger students. Science and innovation international scientific journal volume 2 issue 1 january 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz 424-435.

7. Djumayev M.I Formation of mathematical competence in future primary school teachers in the. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 issue 3 march 2023 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 | scientists.uz.

РЕЗЮМЕ

TRIZ vositalari dunyoning tizimli (ilmiy) xaritasini yaratishga yordam beradi. Inson va tabiat bir-biridan ajralmas va bir-biri bilan chambarchas bog’liqdir. Tabiat hayot uchun muhit va jamiyat uchun zarur resurslarning yagona manbaidir. Tabiat va uning boyliklari insoniyat jamiyati hayoti va rivojlanishining asosidir. Har bir yangi o’n yillik insoniyatga inson va tabiat o’rtasidagi o’zaro ta’sirdagi qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani haqida tobora ko’proq dalillar keltirmoqda.Ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish uchun men ko’pincha sinfda muammoli vaziyatga duch kelishadi, faktlarni guruhlash va umumlashtiruvchi xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirish bu analitik-sintezlovchi fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

РЕЗЮМЕ

ТРИЗ - инструменты помогают строит системную (научную) картину мира. Человек и природа неотделимы друг от друга и тесно взаимосвязаны. Природа является средой жизни и единственным источником необходимых для общества ресурсов. Природа и её ресурсы - это основа жизни и развития человеческого общества. Каждое новое десятилетие приносит человечеству всё новые доказательства обострения противоречий во взаимодействии человека и природы. Для развития креативного мышления и фантазии, часто создаю на уроках проблемную стиуатции. Тогда ученики встают перед обоснованным выбором, это и способствует развитию аналитико-синтезирующего мышления: развитию умения с группировать факты, сделать обобщающие выводи.

SUMMARY

TRIZ tools help build a systematic (scientific) picture of the world. Man and nature are inseparable from each other and are closely interconnected. Nature is the environment for life and the only source of resources necessary for society. Nature and its resources are the basis of life and development of human society. Each new decade brings humanity more and more evidence of the exacerbation of contradictions in the interaction between man and nature. To develop creative thinking and imagination, I often create a problem situation in the classroom. Then students are faced with an informed choice, which contributes to the development of analytical-synthesizing thinking: the development of the ability to group facts and draw generalizing conclusions.

UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYA KONSERSIYASINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLAR

Axmadaliyev B.S.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti r.f.f.d (RhD)

Tayanch so'zlar: ta'lim, bilim, tarbiya, ma'naviyat, muxit, shaxs, sadoqat, mafkura, ijtimoiy, siyosiy, axloq, konsersiya, pedagogika, psixologika, madaniyat.

Ключевые слова: образование, знание, воспитание, духовность, среда, личность, лояльность, идеология, социальная, политическая, мораль, концерт, педагогика, психология, культура.

Key words: education, knowledge, upbringing, spirituality, environment, personality, loyalty, ideology, social, political, morality, concert, pedagogy, psychology, culture.

O'zbekiston Respublikasi Rrezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yisha qo'shimsha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi RQ-4307-son Qarori, «Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017 yil 20 apreldagi RQ-2909-son Qarori, 2017 yil 27 iyuldagi "Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutini tashkil etish to'g'risida" RQ-3152 sonli Qarori hamda 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy ishlarning mohiyatini institutdagi pedagogik ta'limning axloqiy mazmunidan kelib chiqqan holda "Ta'lim + Bilim + Tarbiya + Ishlab chiqarish" tamoyili asosida amalga oshirishni taqozo etmoqda.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsersiyasi"ning boshlang'ish asosini quyidagi qoidalar tashkil etadi:

1. Ma'naviyatli shaxsning muhim belgisi insonning fuqarolik, shaxsiy xususiyatlari integral tavsifi va ruhiy-fiziologik etukligi sifatida tushuniladigan ijtimoiy-insonrarvar omilkorligidir. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, axloqsizlik, mas'uliyatsizlik, ruhiy tayyor bo'lmaslik bugungi kunda nafaqat kasbiy ziyon darajasini ifodalaydi, balki o'zida kutilmagan xavf-xatar va jinoyatni ham namoyon etadi. Aynan axloqiy-ruhiy tayyor bo'lmaslikning o'z kasbiy faoliyatning u yoki bu turini amalga oshirishda vujudga keladigan kutilmagan vaziyatlarni hosil qiladi.


2. Ijtimoiy-insonrarvar omilkorlik keng ma’noda inson mohiyatini hayotiy faoliyat shakli sifatida to‘la ifodalovshi samarali qayta o‘zgartish faoliyati rivojlanishini anglatadi. Bunda shaxsning tashqi sharoit holatiga mohiyatli ta’sir etishga qodirligi, ularni ichki nazariy mexanizmidan o‘tkaza bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Ijtimoiy-insonrarvar omilkorlikning tarkibiy qismini pedagogik omilkorlik – ta’lim-tarbiyaning psixologik-pedagogik asoslarini bilish tashkil etmog‘i lozim. Bu umumpedagogik tayyorgarlikni umumiy va kasbiy pedagogik ta’limning barsha darajalari mazmuniga, shaxs rivojlanishining hamma davrlardagi tarbiya jarayoniga kiritish zarurligini hamda shunday sharoitdagina jamiyat uning ijtimoiy-pedagogik infratuzilmasi asosini tashkil etadigan pedagogik madaniyatning zaruriy darajasiga erishishini nazarda tutadi.

Tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda klasterli yondashuv faoliyatining yetakchi maqsadi – integrallashgan bilimga ega bo‘lgan yosh mutaxassisni etishtirishga qulaylik yaratadigan, omilkorlik bilan bir qatorda – o‘zida kasbiy, umumkasbiy, umuminsoniy bilimlar, ko‘nikma, malakalar hamda ahloqiy fazilatlar uyg‘unlashuvini, sub’ekt tomonidan kasbiy faoliyatni, o‘z vazifalarini bajarish samaradorligini ifodalaydigan ijtimoiy-pedagogik infratuzilma yaratishdan iboratdir.

Shunday qilib, klasterli yondashuv maqsadi insonning kasb egallashi orqali uning ma’naviy, axloqiy, intellektual va rsixomotor rotensialini to‘la oshishdan iboratdir. Shu bilan bir qatorda, shaxs malakali, raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishi ushun mutaxassisning vazifa tavsifiga urg‘u beriladi. Shaxs parametri (sifati, xususiyati, individual xususiyatlari va shu kabi) tizim hosil qiluvshi omil maqomini oladigan maxsus ko‘nikmaga nisbatan yetakchi ahamiyat kasb etadi. Talabalarning qobiliyati, o‘ziga xos individual xususiyatlari ularga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda klasterli yondashuvni tatbiq qilish bitiruvshining kasbiy tavsifi, ko‘r bosqichlilik asosida yo‘naltirish bo‘yisha pedagoglarni tayyorlash, “Talabalarni psixologik-pedagogik tayyorlash asoslari” kursi bo‘yisha tajriba o‘quv dasturlaridan iborat o‘quv dasturiy hujjatlarni ishlab shiqishni talab qiladi. Dasturlashtirilgan ta’limga oid binar darslardan foydalanish amaliyoti, shuqurlashtirilgan tarzdagi sinovlar va imtihonlar, fakultativlar komrleksi kabi integratsyalashgan faoliyat elementlarini ham singdirish lozim. Talabalarni ijtimoiylashtirish va kasbiy tayyorlashda ishtirokshilardan har tomonlama tayyorgarlik hamda qobiliyatni namoyon etishni talab qiladigan bo‘sh vaqtni samarali o‘tkazishning “Bilimlar



Pedagogik klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlar mexanizmini takomillashtirish

kuni", "O'qituvshi va murabbiylar kuni" kabi shakllari ham katta ahamiyatga ega.

Pedagogik klaster yondashuvi asosida tarbiyaviy ishlar mexanizmini takomillashtirish ta'lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlarini ushbu yo'nalishlar doirasida etarlisha shuqurlashtirib yoritishni mo'ljallaydi

Tarbiya jarayonini tashkil etishga – pedagogik klaster yondashuvidan foydalanish tahlili yakunida quyidagilar: oliy ta'lim samaradorligini ta'minlash, tarbiya jarayoni maqsadi, tuzilishi va mazmunini asoslashda tashkiliy-pedagogik sharoitlar o'rni hamda vaqtini belgilash;

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, mustaqillikning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ayniqsa, talabalarning qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, pedagogik ta'limga sadoqat tuyg'ularini shuqur singdirish, mutaxassislikning tarbiyaviy asoslarini yaratish dolzarb ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va informasion kurashlar kushayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarni turli mafkuraviy hurujlardan himoya qilish, yoshlarning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish vazifasi pedagogik ta'lim sohasining talaba-yoshlari

bilan ishlashda aniq va samarali natija beradigan tizimni yaratish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yisha qo‘shimsha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2019 yil 3 maydagi RQ-4307-son Qarori.

2. O‘zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi RF-6108-sonli Farmoni.

3. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishdagi akademik liseylarda matematika o‘qitish misolida): Red.fan.dok... diss. –Toshkent, 2006.

4. Botirova Sh.I. Adabiy ta’lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Red. fan. dok. (DSs) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021.

5. Ismoilova Z.K. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksrerimental-metodik asoslari: Dis… red. fan. d-ri. – T., 2006.

Беспалько, В.Р. Основы теории редагогишеских систем: рроблемы и методы рсихологик-редагогишеского обесрешения технишеских обушающих систем: монография [Текст] / В. Р. Бесралко. – 3-э изд. – Воронеж: Изд-во Воро- неж. ун-та, 2011.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақола узликсиз таълимда ноананвавий дарс ўтиш бўйича дарснинг самарадорлик даражасини ошириадиди ва мазмунли тушунарли оддий содда янгиликллар билан бойитишга хизмат қилади.

РЕЗЮМЕ

Данная статья повысит эффективность нетрадиционного учебного курса в непрерывном образовании и обогатит его содержательными и понятными новшествами.

SUMMARY

This article will increase the effectiveness of the non-traditional learning course in continuing education and will enrich it with meaningful and easy-to-understand innovations.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY RIVOJLANISHINI SHAKLLANTIRUVCHI ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Inadullayeva S.Q.
TerDPI Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, pedagogik texnologiyalar, ijodiy fikrlash, qobiliyat, kognitiv qiziqish, ijodkorlik, muloqotga kirishish.

Ключевые слова: интерактивные методы, инновационные подходы, педагогические технологии, творческое мышление, способности, познавательный интерес, креативность, общение.

Key words: interactive methods, innovative approaches, pedagogical technologies, creative thinking, ability, cognitive interest, creativity, communication.

Kirish. Bolalar ham xuddi katta odamlar singari doim ma'lum faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Katta odamlar boshqa odamlar uchun kerak bo'ladigan ijtimoiy foydali narsalar ishlab chiqarish faoliyati bilan band bo'lsalar, bolalar faoliyatining asosiy maqsadi bilib olish, o'rganishda asoslanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyatlari – o'yin, rasm chizish, plastilin yoki loydan biron narsa yasash, applikatsiya, qurish-yasash va shu kabilardan iborat bo'lishi mumkin. Bolalar odatda 77 ta kishilarning topshiriq va takliflari bilan ma'lum faoliyatga kirishadilar.

Ayrim hollardagina bolalarning o'zlari mustaqil ravishda u yoki bu faoliyatni bajaradilar. Har ikki holatda ham bolalar faoliyati ma'lum natijaga ega bo'ladi. Faoliyat mahsuloti bolalar faoliyatining natijasiga qarab o'rganiladi. Ko'pincha bolalar faoliyatining mahsuli ular chizgan rasmlarga, loy yoki plastilindan yasalgan narsalarga qarab o'rganiladi. Bolalar psixologiyasiga ko'ra ularni maktabgacha ta'lim muassasasiga berish va mavjud qobiliyatiga qarab kelajakdagi sohasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun ayni shu sohada interfaol texnologiya va metodlar ta'lim tizimiga joriy etilmoqda.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy rivojlanishini shakllantirish texnologiyasi, o'quv jarayonlarini o'zgartirish, ta'lim usullarini yanada turli vaqt va ko'rsatkichlarga mos ravishda boshqarishni o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalardan bolalarning ijodiylik va o'zlashtirish qobiliyatlarini

rivojlantirish uchun foydalaniladi. Quyidagi usullar bu maqsadni amalga oshirish uchun muhimdir:

Ta'lim texnologiyalari va kompyuter dasturlari: Bilim olishni o'yinlar orqali o'rganish, darslarni multimedia asboblar orqali o'tkazish, va kompyuter dasturlari orqali o'quv jarayonlarini yanada qiziqarli qilish mumkin.

Interaktiv darsliklar: Interaktiv darsliklar, talabalarga o'qituvchilar yordamida o'qitishni yanada sodda va qiziqarli qilish imkoniyatini beradi. Bu darsliklar bolalarning o'zgartirilgan bosqichlarda o'rganishlariga imkon beradi.

Ta'lim boshqaruv tizimlari: Ta'lim boshqaruv tizimlari o'qituvchilarga va bolalarga vazifalarini boshqarishda yordam beradi. Bu texnologiyalar yosh bolalarni o'quv natijalarini monitoring qilish va bolalarining o'zlashtirishini o'rganishda yordam beradi.

Virtual va qol ostida amaliyotlar: Virtual o'qitish texnologiyalari va texnologik amaliyotlar, talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish va turli sohalar bilan tanishishlari uchun qulayliklar yaratadi.

O'quv dasturlarining shaxsiylashtirilishi: Barcha talabalar bir xil o'quv dasturini o'rganishga imkon beradi, ammo o'qituvchilar va bolalar o'quv dasturini o'zlarining talabalarning zarur talabalarning qobiliyatlarini o'rganishiga mos ravishda shaxsiylashtirishlari mumkin.

Ta'limni taqdim etishning interaktiv usullari: Video darslar, interaktiv savollar, qo'shimcha ma'lumotlar va ko'rsatuvlar yordamida o'qituvchilar bolalarni darslarga jalb qilish uchun interaktiv usullardan foydalanishlari mumkin.

Mahalliy ilmiy jamoalar va mentorlar: Mahalliy ilmiy jamoalar va mentorlar bolalarga dars berish, yaratish va o'zlashtirish uchun yordam berishi mumkin.

Kreativlikni oshirish: Texnologiyalar, talabalarni ijodiylik va kreativlikni oshirish uchun ma'lumotlarni qo'llab-quvvatlashda yordam berishi mumkin. Bunday vositalar, yosh bolalar ijodiy fikrlarni olib chiqish va o'zlarining ijodiy va o'zlashtirish usullarini rivojlantirish uchun yaxshi bo'ladi.

Online hamjamiyat va ko'p qatnashchi platformalar: bolalar uchun online hamjamiyatlar va ko'p qatnashchi platformalar, ularning ijodiyliklarini namoyon qilish va boshqalari bilan ulashishlari uchun muhim bo'ladi.

Bu texnologiyalar o'quv jarayonini yanada turli va individual ravishda shakllantirishga imkon beradi va yosh bolalarning o'zlashtirish va ijodiyliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

Interfaol o'rganish, shubha yo'qki, pedagogikaning qiziqarli, ijodiy, istiqbolli yo'nalishidir. Bu ularning psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalardan foydalanish butun dunyo bo'ylab

dunyodagi bolalar haqidagi bilim va taqdimotni boyitishga imkon beradi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar haqida bolalarni ijtimoiy munosabatlar tizimida faol munosabatda bo‘lishga undaydi. Pedagogika sohasida bir nechta o‘quv modellari farq qiladi:

1) Passiv – bola mashg’ulotning “ob’ekt” sifatida ishlaydi (tinglash va tomosha qilish)

2) faol – bola mashg’ulotning “mavzusi” sifatida ishlaydi (mustaqil ish, ijodiy vazifalar)

3) Interfaol – bola va o‘qituvchining o‘zaro ishlashi.

Shuningdek, aytib joizki, bunday o‘quv va ta’limning asosiy vazifalari:

- Bolalar tashabbusi hamda o‘zaro mustaqilligi rivojlanishi;
- Ma’lumotni o‘rganish va mustaqil ravishda ishlab chiqarish qobiliyatini shakllantirish;
- Bolalar bilan integratsiyalashish;
- Bolalar va kattalar o‘rtasidagi muloqotlar;
- Bolaning jamiyatga faol jalb qilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun interfaol 78 ata 78 z 78 ic texnologiyalarni joriy etish asta-sekin amalga oshiriladigan jarayon, bu, albatta, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bugun yurtimizdagi maktabgacha ta’lim muassasalarida bir necha interfaol texnologik mashg’ulotlardan foydalaniladi.

Misol uchun: “Kichik guruhlarda ishlash (Troika) “ushbu ish texnologiyasining qo‘llanilishi barcha bolalar asosida ishlash imkonini beradi. Bolalar o‘z mustaqil ishlarini, nafaqat o‘zining balki o‘rtog’ining ishini baholashni, o‘zaro aloqa qilish, bir-birlariga yordam berishni o‘rganadilar. “Zanjir” Ushbu texnologiyaning asosi bitta vazifaga har bir ishtirokchining izchil yechimi qidirishi hisoblanadi. Umumiy maqsadning mavjudligi, va o‘zaro bir-birlariga yordam ko‘rsatish muhitini bir-birlari bilan qamrab olishga, vazifani hal qilish imkoniyatlarini taqdim etadi, bolalarda jamoada ishlash imkoniyatini shakllantiradi.

“Bilim daraxti”- bu bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi, muzokaralar olib boorish va vazifalarni hal qilishda mas’uliyat his qilish qobiliyatini shakllantiradi. Interfaol mashg’ulotlar faol o‘quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o‘quv o‘zaro ta’siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdgi bolajonlar o‘rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko‘plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o‘rganish usullari har doim o‘zaro ta’sir, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o‘rtasidagi o‘yindir.

Darslarda faol va interfaol o‘rganish usullaridan foydalangan holda o‘qituvchi talabalar tomonidan o‘qilgan materiallar miqdorini 90 foizgacha oshiradi. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi interfaol texnologiyalar va o‘quv usullariga asosan qo‘llaniladi. Maktabgacha tarbiyachi uchun o‘yin – bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo‘lgan hamma narsani o‘rgatishingiz mumkin. Shu o‘rinda dunyoning rivojlangan mamlakatlarui tajribasiga ham nazar tashlaymiz. Masalan: Qaysi turdagi yoki uslubdagi maktabgacha ta’lim muassasasini tanlasangiz ham, bolangiz bu bilan o‘zlarini qulay his qilishi kerak chunki ular tarbiyachilari bilan birga ular ko‘p vaqt sarflashadi. Siz ularni maktabgacha ta’lim muassasalarida bosim yoki cheklovlarni his qilishni xohlamaysiz – bu ularning maktabni umuman yoqtirmasligiga ishontirishi mumkin, bu esa ularning akademik faoliyatining qolgan qismida muammo tug’dirishi mumkin.

O‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lish, chunki ular buni qiziqarli deb bilishadi, ularning umumiy baxtini va uzoq muddatli muvaffaqiyatlarini ochish uchun kalit bo‘ladi. Qaysi usulni tanlashingizdan qat’iy nazar, ular biron bir narsani o‘rganishadi va har bir dars ularning rivojlanishi uchun juda muhimdir.Interfaol o‘yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ulardagi barcha kreativ jarayonlarni rivojlantirib borish zamonaviy dunyoda inson shaxsiyatining asosiy fazilatlari orasida kasbiy faoliyat uchun eng muhimi «ijodkorlik» yoki «ijodiy fikrlash» hissining shakllanib borishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlash va kognitiv faoliyatni izlash va yangi bilimlarni kashf qilish, muammoli xarakterdagi muammolarni hal qilish jarayonida ishtirok etadilar. Interfaol o‘yinlar va mashqlarni faoliyatga kiritish maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlash va izlanish istagini shakllantiradi, uning intellekt imkoniyatlarida o‘z qobiliyatiga ishonch hosil qiladi va hissiy va psixologik muhitni yaratishni o‘z ichiga oladi.

Bolalarda o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini tarbiyalashning rivojlangan shakllari asta-sekin uning kundalik o‘zini tutishida namoyon bo‘lib boradi. Ijod haqli ravishda haqiqiy iste’dodning barcha ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lish shakli hisoblanadi. Agar bola aqlli va intiluvchan bo‘lsa, u yaxshi va tez o‘rganadi va o‘z bilimlarini kundalik vaziyatlarda mustaqil ravishda qo‘llay oladi. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, yangi, g’ayrioddiy narsalarni yaratish - bu haqiqiy iste’doddir.

Bugungi kunda bolaning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun ijtimoiy ta’sir etuvchi omillar va ta’sir kuchlari mavjud.Bu boladagi ijodiy salohiyatlarning shakllanib yuzaga chiqishi uchun turtki vazifasini bajaradi.Bolaladagi ijodkorlik hissi kattalar tomonidan qo‘llab -quvvatlanib doimiy ravishda rivojlantirib borilsa,bola psixikasida ushbu ijod shakllanib o‘z mahsulini ong orqali namoyon qiladi.Bu jarayon kelajakda yetuk ijodkorni kashf etish mahsuli bo‘lib hizmat

qiladi. Jamiyatdagi bunday tartibning namoyon bo‘lishiga javoban, maktabgacha ta’lim tashkilotlari bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli xizmatlarni taqdim etadilar: Bunda ta’lim-tarbiya jarayonida innavatsion ta’lim shakli,ta’lim dasturlari, badiiy, texnik va ilmiy ijodni rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha ta’lim yangiliklari, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Interfaol o‘yinlar bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi O‘yin tarbiyachi qo‘lidagi eng kuchli ta’lim vositalaridan biridir.O‘yin orqali bolada ijodiy tafakkur shakllanadi va bola o‘yin faoliyati davomida mustaqil fikrini nutqqa ko‘chirib beradi.Nutq insonning vizual aloqa vositasidir.Bolalar bir biri bilan nutq orqali fikrlar kesishmasida ijodiy mahsulini yaratadi va uni harakatlari orqali yuzaga chiqarib beradi. Aynan o‘yinda bola shaxsining turli tomonlari namoyon bo‘ladi va rivojlanadi, uning ko‘pgina intellektual va hissiy ehtiyojlari qondiriladi,bolada xarakter shakllanadi. O‘yinlar bolalarni zamonaviy texnologiyalar olami bilan tanishtirishga imkon berishlari va ularning ongini yangiliklar bilan boyitib borishi ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish jarayonida juda muhimdir. Interfaol o‘yinning asosiy maqsadi o‘quv jarayoniga qiziqishni oshirishdir.

O‘yin bolalar uchun qiziqarli bo‘lishi, ular oldiga aniq vazifalar qo‘yishi va ularning yechimini topishga yordam berishi, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarga asoslangan ijodiy mustaqillikning namoyon bo‘lishi uchun keng qamrovli bo‘lishi shart. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishning eng samarali usuli hisoblanadi. Interfaol o‘yinlar, vazifalar orqali siz bolalarni ijodkorlik usullari va vositalari bilan tanishtirishingiz mumkin. Majburiy elementlar sifatida ushbu o‘yinlarda ijodiy ixtiro vazifalari bo‘lishi kerak. Interfaol o‘yinlar barcha ta’lim sohalarida va maktabgacha yoshdagi bolalar bilan har qanday o‘quv faoliyatida qo‘llanilishi mumkin. Interfaol o‘yin - bu maxsus tashkil etilgan ijtimoiy o‘zaro ta’sir natijasida olingan tajribaga asoslangan faol o‘rganish usuli bo‘lib, buning natijasida ishtirokchilarda bevosita o‘yin jarayonida tug’ilgan yoki ushbu o‘yin natijasida egallangan yangi bilim va tajribalar paydo bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy rivojlanishini shakllantirish uchun quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin:

Interaktiv darsliklar va ma’lumotlar bazasi: bolalar uchun interaktiv darsliklar va ma’lumotlar bazasini o‘rnatish, ularni qiziqarli va o‘rganishni oshirishga yordam beradi. Bu darsliklar bolalarning o‘zlarining qiziqtirishlariga mos ravishda yaratilishi kerak.

O‘quv dasturlarining shaxsiylashtirilishi: Har bir bola o‘zining ilmiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o‘ziga xos dasturlar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Mahalliy ilmiy jamoalar va mentorlar: Yosh bolalar uchun ilmiy jamoalar va mentorlar orqali ijodiy rivojlanishning yo‘lini olishlari mumkin. Bu ularda bolalarga ilmiy maslahatlar va qo‘llab-quvvatlashlarni olib borish orqali rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim platformalari va online maktablar: Ta’lim platformalari va online maktablar orqali bolalar o‘zlarining qiziqtirishlariga mos ravishda ta’lim olishlari mumkin. Bu shaklda ular o‘quv dasturini o‘zlarining jadvaliga qo‘yish va o‘quv vaqtlarini o‘zlarining qiziqtirishlariga mos ravishda tanlashlari mumkin.

Virtual va qo‘l ostida amaliyotlar: Virtual o‘qitish texnologiyalari va virtual amaliyotlar yosh bolalarni turli sohalarda o‘rganish uchun qulayliklar yaratishga yordam beradi. Bu texnologiyalar masalalar va maslahatlar orqali ilmiy va ijodiy o‘zlashtirishni yaratishga yordam beradi.

Kreativlikni oshirish dasturlari: Kreativlikni oshirish dasturlari, mas’uliyat, o‘zlashtirish va ijodiylikni oshirishga yo‘nalish beradi.

Robototexnika va dasturlash ta’limi: Yosh bolalar uchun robototexnika va dasturlashni o‘rganish imkoniyati, ijodiylikni rivojlantirish va texnologik islohotlarni tushuntirish uchun qulaydir.

Ko‘p qatnashchi loyihalar va jamoat platformalari: bolalar ijodiy loyihalarga qo‘shilish, jamoat bilan birlashish va yangi texnologik mahoratni o‘rganish uchun ko‘p qatnashchi loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy rivojlanishini shakllantirishda, ularni o‘zgaruvchanlik, kreativlik, va muhokama qobiliyatlarini rivojlantirish uchun texnologiyalardan foydalanish juda muhimdir. Bu usullar, bolalarni o‘zlarining qobiliyatlarini oshirish va ularga texnologik o‘zlashtirishni o‘rganishga yordam bera olishi mumkin.

Yosh bolalarning ijodiy rivojlanishini shakllantirish texnologiyalari va usullari bilan davom etishni istaysizmi? Har bir yosh bolaning o‘zining maxsus talablari va qobiliyatlari bor, shuning uchun texnologiyalardan foydalanishni o‘rganish va ularga qulay keluvchi yollarini qidirish juda muhimdir. Qanday mavzular, turli texnologiyalar yoki usullar haqida batafsil ma’lumot olishingizni yoki boshqa savollar bormi, deb yordam bera olishimizni so‘rang.

Yosh bolalar ijodiy rivojlanishini shakllantirish texnologiyalari va usullari hayotning har bir bosqichida o‘zgartirilishi mumkin. Quyidagi davom etish texnologiyalari va usullar ko‘p qatnashchi va samarador bo‘lishi mumkin:

Interaktiv o‘yinlar va simulyatorlar: bolalarning masalalar va o‘quv jarayonlarini masalalar va simulatsiyalar yordamida o‘rganishlari bolalarni o‘rganish jarayonini qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi.

Ma’ruzalar va ijodiy tanlovlar: Yosh bolalarni ijodiy rivojlantirish uchun ma’ruzalar, ijodiy tanlovlar va yangi loyihalar tashkil etish, ulardan foydalanishni o‘rganishlarini o‘rganish imkon beradi.

O‘quv dasturlarining integratsiyasi: Texnologiyalar, barcha fanlarni o‘rganishni o‘zlashtirish uchun integratsiyaga imkon beradi. Ular bolalarning fanni boshqarishlarini oshirish va turli fanlarni bir-biriga bog’lashlari uchun yordam beradi.

Mass media va ijodiy mediatexnologiyalar: bolalarning ijodiyliklarini rivojlantirish va o‘zgaruvchanliklarini oshirish uchun mass media va ijodiy mediatexnologiyalardan foydalanishlarini o‘rganish imkon beradi.

Ijodiy platformalar va ijodiy ijro etish: bolalarni ijodiy platformalarda, masofaviy jamoatlar va ijodiy loyihalarda ishtirok etishlarini ta’lim berishlarini o‘rganish.

Ilmiy tadqiqotlar va loyihalar: Yosh bolalar ilmiy tadqiqotlar va loyihalar o‘rganishlarini o‘rganganlarida o‘zlashtirish uchun ilmiy fikrlarini va tushunchalarini rivojlantirishlari mumkin.

Yosh bolalar ijodiy rivojlanishini oshirish uchun ko‘p qatnashchi ta’lim va interaktiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. O‘quvchilarning qiziqtirishlariga mos ravishda ta’lim olishlari va o‘zlashtirishlarini oshirishlari uchun bu turdagi texnologiyalardan foydalanishlarini o‘rgatish juda muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirish, ularni o‘z fikrlarini ifodalash, muhokama qilish, muhokamali o‘ylash va ijodiy mashg’ulotlar tashkil qilish orqali oshiriladi.

Ijodkorlik va o‘zgaruvchanlikni oshirish uchun texnologiyalardan foydalanish boshqa masalalarni o‘rganish va ijodiy fikrlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Yosh bolalarni ijodkorlikni rivojlantirishga yo‘nalish berish va o‘zgaruvchanliklarini oshirish juda muhimdir, chunki bu ularning ma’naviyati va ijtimoiy qabiliyatlarini oshiradi.

Yosh bolalar ijodkorligi o‘zlarining o‘zgaruvchan, ijodiy, va o‘z fikrlarini ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishning, yangi fikrlar yaratish va ularni boshqalarga yetkazishning muhim jihatlardan biri bo‘lib, ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega. Yosh bolalar ijodiy rivojlanishini rivojlantirish va ularni o‘zgaruvchanliklarini oshirishning ko‘proq yollaridan foydalanish, ularni o‘zlarining o‘z fikrlarini ifodalash, yangi chizishlar yaratish va ijodiyliklarini

rivojlantirishga yo‘nalish beradi. Bu usullar, ularni o‘zgaruvchanliklarini oshirish va o‘zlarining o‘zgaruvchanliklarini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Zero, interfaol texnologiyalar muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishga imkon beradi: kattalar va bolalar bilan bepul aloqa o‘rnatish; bolalarning og’zaki nutqining barcha tarkibiy qismlarini ishlab chiqish; nutq standartlari o‘quvchilari amaliy mahoratiga hissa qo‘shish. Xulosa qilib aytish mumkinki, dunyoning turli institutlari tomonidan o‘qitilgan boshqa turli xil uslublar mavjud. Yondashuv jihatidan har xil bo‘lishiga qaramay, har doim ham ushbu metodlarni o‘qitishning aniq usullariga ajratish mumkin emas.

Xulosa. Ko‘p marta turli xil yondashuvlar ma’lum darajada mos kelishi mumkin, shuningdek, turli xil bolalar ehtiyojiga bog’liq. Biroq, ushbu turli xil usullarni aks ettiradigan narsa – bu bolaning ehtiyojlarini qondirish uchun muassasa tomonidan qilingan harakatdir. Ushbu usullar, shuningdek, bola uchun maktabgacha ta’lim muassasasi bilan faol aloqada bo‘lish zarurligini aks ettiradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish jarayonida har bir bola bilan individual shaklda ish olib borish va ularning ruhiy holatlarini ham hisobga olgan holda ishlash eng maqbul yechimlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. M.G. Davletshin, Sh. Do‘stmuhamedova, M. Mavlonov, S.To‘ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU, – T.: – 2004.(12-15 betlar).

2. Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent – 1998. (40-41 betlar).

3. Yagyaeva, E. B. (2021). Tourism resources as a condition for the tourism development. Middle European Scientific Bulletin, 12, 323-327.

4. Bakhtiyarovna, Y. E. (2019). Portfolio as an assessment tool for individualized instruction. Достижения науки и образования, (5 (46)).

5. Ягъяева, Э. Б. (2017). Язык как отражение культуры народа. Вопросы науки и образования, (3 (4)).

6. https://singapore.globalindianschool.org/blog-detail/5-preschool-teachingmethods-to-improve-the-quality-of-early-care-and-education.

7. https://www.bachpanglobal.com/blog/different-preschool-teachingmethods-techniques-used-worldwide.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ulardagi psixologik o‘zgarishlar natijalari yoritib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описано развитие творческих способностей дошкольников и результаты психологических изменений у них с помощью интерактивных методов обучения.

SUMMARY

This article describes the development of creative abilities of preschool children and the results of psychological changes in them through interactive educational methods.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TEVARAK-ATROF BILAN TANISHTIRISHNING SHAKLLARI

Tursunova R.R.
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim , nazariya, tevarak-atrof, axloqiy sifatlar, qadriyat, asos.

Ключевые слова: дошкольное образование, теория, среда, этические качества, персонал, фонд.

Key words: pre-school education, theory, environment, ethical qualities, personnel, foundation.

Kirish. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyachi kopincha ko'rgazmali metod – kuzatish usulidan foydalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ish shakllari va o'ziga xosligi Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirish xilmaxil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda, hamda mehnatda amalga oshiriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bilim¬larni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi.

Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan mashg'ulotlarda bolalarda dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma'lum bir tartibda rivojlantiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig'ilib boradi. Mashg'ulotlar ularga aniqiash va tizimlashtirish imkonini beradi. Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg'ulot turi, uning asosiy maqsadiga ko'ra tanlanadi. Mashg'ulotlarning bir xillarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, badiiy asarlarni o'qish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni ko'rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bilimlar kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi.

Tahlil va natijalar: Aytib o'tilgan metodlardan tashqari bu mashg'ulotlarda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi turdagi mashg'ulotlarning asosiy vazifasi — bilimlarni umumlashtirish hamda bir tizimga solishdir. Shuning uchun suhbatlar, didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi

kuzatishlardan foydalaniladi. Bolalar egallagan oilimlarini mehnat va o‘yinlarda amalda qo‘llaydilar.

Mashg‘ulotlar kichik va o‘rta yosh guruhlarda bir oyda 2 martadan, katta guruhlarda esa haftada lmartadan o‘tkazitedi. Ekskursiyalar o‘rta guruhdan boshlab tashkil etiladi. Barcha qo‘shimcha sifatida maqsadli sayrlar o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotga tayyorlanish. Mashg‘ulotning samaraliligi tarbiyachining tayyorgarlik darajasiga bog‘liqdir. Tarbiyachi mashg‘ulot mavzusini va ahamiyatini belgilab, mavzu bo‘yicha tabiatshunoslik bilimlarini to‘ldirishi, so‘ng mashg‘ulot vazifalarini dastur asosida ishlab chiqishi lozim. Bunda tarbiyachi «Uchinchi ming yillikning bolasi» dastur vazifalariga, bolaning qobiliyat darajasiga hamda tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga tayanadi. Mazkur mashg‘ulot mazmunini tanlashda uning ish tizimidagi o‘rni (mashg‘ulotda boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish jarayoni sodir bo‘lyaptimi, yoki ular boyitilib bir tizimga solinyaptimi, bilimlarni qo‘llash mashq qilinyaptimi va shu kabilar)ni aniqlash lozim. Bu o‘rinda tarbiyachi darsning maqsadi va mazmuniga qarab turli metodlarni qo‘llaydi.

Tarbiyachi qanaqa metod va uslublar tanlamasin ulardan kompleks, bir-birini to‘ldirgan holda foydalanishi, bu asosiy maqsad — o‘rganilayotgan tabiat jismlari va hodisalarning bolalar tomonidan qabul qilib olinishini yaxshilashga hamda tabiat haqidagi tushunchalarning to‘g‘ri shakllanishiga xizmat qilishi kerak.

Mashg‘ulotda hal etiladigan tarbiyaviy vazifalar tabiatga ijobiy, ehtiyotkorona, g‘amxo‘rona, estetik munosabatlarni shakllantirishga yo‘llanadi.

Mashg‘ulotga tayyorlanish hamda uni o‘tkazishda uning tuzilishini to‘g‘ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta’limiy vazifalar xarakteri, tabiiy obyektning xususiyatlari hamda bolalarning yoshiga bog‘liqdir. Masalan, yovvoyi hayvonlar haqidagi bilimni shakllantirishni yaxshisi diafilm, kinofilmlar ko‘rsatish orqali, tabiat burchagidagi hayvonlar va o‘simliklar bilan tanishishni esa ularni bevosita kuzatish orqali amalga oshirgan ma’qul. Kichik yoshdagi bolalar mashg‘ulotlarida kuzatish, o‘yin metodlaridan foydalaniladi. Og‘zaki metoddan, asosan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda foydalaniladi.

Tanlangan metod dastur vazifasining to‘liq bajarilishini va bolalarning faol aqliy faoliyatini ta’minlashi lozim. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan o‘qitish metodlarining xilmaxilligi tarbiyachidan puxta sharoit yaratishni talab qiladi: hayvonlar, xonaki o‘simliklar, rasmlarni ko‘rish uchun bolalar yarim doira qilib o‘tqaziladi. Bu bolalarning mashg‘ulotda faol ishtirol etishlariga imkon beradi. Agar mashg‘ulotda tarqatma material lardan foydalanilsa, ya’ni har

bir bolaning qo‘lida kuzatish obyekl bo‘lsa, bolalarning o‘z stollari atrofida o‘tirganlari ma’qul. Ba’zai guruh xonasida mehnat malakalarini tarbiyalashga bag‘ishlangai mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Bunday holatda bolalarni to‘rtburcha shaklida joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shunda bolala tarbiyachi ko‘rsatadigan ish usullarini yaxshiroq ko‘rishga eg bo‘ladilar.

Tarbiyachi mashg‘ulot o‘tkazishdan oldin bir qancha ko‘r gazmali qurollar, yani jonli va jonsiz tabiat jismlari (gerbariylai yil fasllari, tabiat manzaralari tasvirlangan kalendarlar, toshlar foydali hasharotlar, o‘simliklar va ularning qismlari, mayda hayvoi va boshqalar)ni tayyorlab qo‘yadi. Chunki ko‘rgazmali quro bolalarga o‘rganilayotgan narsani bir necha sezgi a’zolari bilai qabul qilib olish imkoniyatini beradi, ya’ni ular narsani ko‘ribgin qolmasdan, uning xususiyatini (masalan, tirnab ko‘rish, bolg‘ach bilan urib ko‘rish orqali narsaning mo‘rtligini, egish bilai qayishqoqligini, egiluvchanligini va hokazo) sinaydilar.

Mashg‘ulot, asosan, quyidagi tartibda olib boriladi: Mashg‘ulot so‘ngida tarbiyachi bolalarning malaka va ko‘nik malarini, ularning mashg‘ulotga munosabatlarini, qiziqishlarin pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuv bolalarning yoshiga bog‘liq bo‘ladi.

Ekskursiya: Ma’lumki, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tarbiyach xilmaxil: og‘zaki, ko‘rgazmali va amaliy metodlarni qo‘llaydi U o‘simlik va hayvonlarni, ularning yashash sharoitlarini namo yish qiladi. Bu narsalarni oddiy mashg‘ulotlarda ko‘rsatib bo‘lmaydi. Shuning uchun tabiat bilan tanishtirish metodikasida mashg‘ulotlarni to‘ldiruvchi maxsus shakllar qo‘llaniladi.

Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi mashg‘ulotlar turidan biridir. U tabiat bilan tanishtirish metodlarining ko‘rgazmali metodiga kiradi. Ekskursiya vaqtida bola tabiat hodisalarining mavsumiy o‘zgarishlarini tabiiy sharoitda kuzatishi, tabiatning insonning hayot va talablariga muvofiq o‘zgarayotganini hamda atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to‘g‘risida bilimlar to‘plashga imkon beradi. Ekskursiya mashg‘ulotlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o‘simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko‘rish, hamda tabiatda mavjud bo‘lgan o‘zaro aloqalar haqida dastlabki dunyoqarash, tasavvurlarini, olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tarbiyachi rahbarligida o‘rmon, dala, daryo va ko‘lqirg‘oqlariga’uyushtirilgan ekskursiya bolalarning diqqatini jalb qiladi, tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlarga xilmaxil material to‘plashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalarda bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o‘rganishga qiziqish o‘sadi. Ular narsa¬larni sinchiklab kuzatish va uning xarakterli xususiyatlarini qayd

qilishga odatlanadilar. Tabiatning go‘zalligi bolalarda estetik hissiyotlarning o‘sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish shakllanadi.

Ekskursiyalar mazmuniga ko‘ra shartli tarzda ikki turga bo‘linadi tabiatga uyushtiriladigan ekskursiya — bog‘, o‘rmon, daryo, o‘tloq, shuningdek, hayvonot bog‘i, botanika bog‘iga (bular turli mavsumda o‘tkaziladi) ekskursiyalar hamda qishloq xo‘jalik ekskursiyasi - dala, parrandachilik fabrikasi, bog‘, ekinzor va shu kabilarga kattalarning mehnati bilan tanishish maqsadida uyush-tiriladigan ekskursiyalar.

Ekskursiya mashg‘ulot turi sifatida o‘rta, katta hamda tayyorlov guruhlarida o‘tkaziladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo‘lgan dastur mazmuni belgilanadi. Tarbiyachining ekskursiyaga tayyorlanishi. Tarbiyachi ekskursiyani rejalashtirar ekan, ekskursiya mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, ekskursiya o‘rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ulardiqqatini asosiy maqsaddan chalg‘itmaydigan) yo‘lni belgilaydi. Ekskursiya o‘rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan ekskursiyalar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek mavsumni, yo‘lning xu-susiyatlarini, obhavo holatini hisobga olish zarur.

Ekskursiya uyushtiriladigan joy tarbiyachiga qanchalik tanish bo‘lmasin, u birikki kun oldin o‘sha joyni ko‘rib chiqishi lozim. Boiajak ekskursiya joyida bo‘lgan tarbiyachi marshrutni aniqlaydi, kerakli obyektlarni topib, bolalar kuzatishlarni mustaqil olib borishlari hamda dam olishlari mumkin bo‘lgan joyni belgilaydi. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin tarbiyachi uni o‘tkazish usullarini atroflicha o‘ylab ko‘radi va ekskursiya qiziqarli o‘tishi uchun oldindan she’r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi. Bolalarni ekskursiyaga tayyorlash. Ekskursiyadan bir necha kun oldin bolalarda mashg‘ulotga qiziqish uyg‘otish, tasavvurlarni jonlantirish maqsadida tarbiyachi ular bilan kichik suhbat o‘tkazadi, ya’ni ekskursiya vazifalarini qo‘yadi, topshiriq va vazifalami taqsimlaydi, ekskursiyadagi xulqatvor qoidalari bilan tanishtiradi, shuningdek anjomaslaha va jihozlarni tayyorlaydi.

Tabiatshunoslik ekskursiyasi. Tabiatshunoslik ekskursiyasi kirish suhbati, kollektiv bo‘lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to‘plash, bolalarning dam olish vaqtida to‘plagan materiallar bilan o‘ynashi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga oladi. Bolalarni ekskursiya o‘tkaziladigan joyga olib kelgandan so‘ng tarbiyachi qisqa suhbatda ekskursiyaning maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so‘ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o‘tadilar.

Ekskursiyaning asosiy qismi - kollektiv kuzatishdir. Bunda mashg‘ulotning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolalarga narsa va hodisalarning xarakterli xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriqlar, she’rlar, tadqiqotchilik harakatlari, o‘yin usullari)ni qo‘llash orqali erishiladi. Tarbiyachi kuzatishlarni o‘z hikoyasi hamda tushuntirishlari bilan toidiradi.

Kuzatishda asosiy e’tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko‘rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o‘rtasidagi aloqa larni aniqlashga yordam beradigan savol va topshiriqlarga qaratiladi. Kuzatish jarayonida hikoya, she’r va topishmoqlarni qo‘llash foydalidir. Ekskursiya jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og‘zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish) ko‘rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi.

Ekskursiyaning asosiy qismi tugagach, bolalarning individual mustaqil kuzatishlarga qiziqishlarini qondirish va tabiatshunoslikka oid materiallarni to‘plash uchun imkoniyat berish zarur. Biroq material to‘plash uchun topshiriq berishda, to‘plangan material miqdorini qat’iy cheklash lozim, bu bolalar e’tiborini faqat ma’lum o‘simlik va hayvonlarga qaratish va bundan tashqari tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalash uchun ham kerakdir. Bolalar mustaqil ishlayotgan vaqtda, tarbiyachi ham yordam berib turishi lozim. Ba’zan o‘simlikni qanday kavlab olishni, quruq novdani qanday qirqishni va shu kabilarni ko‘rsatib turishi kerak.

Dam olish vaqtida to‘plangan materiallar saralanadi, jildlarga, savatchalarga joylanadi, ba’zilaridan o‘yin va mashqlarda foydalaniladi. Qishloq xo‘jalik ekskursiyasi. Qishloq xo‘jalik ekskursiyalari xilmaxildir: dala (yer haydash, ekish, hosil to‘plash), o‘tloq (mol boqish, hashak o‘rish) bog‘, ekinzor, mevazor, ferma, botanika bog‘i, issiqxona, parrandachilik fermasi va shu kabilarga ekskursiyalardir. Ekskursiya insonning tabiatga ta’sirini, ya’ni o‘simliklarni o‘stirishni va hayvonlarni boqishni ko‘rgazmali tarzda ko‘rsatish imkonini beradi. Bu yerda bolalar asosiy mehnat jarayonlarining bir nechtasi bilan tanishadilar. Ekskursiyalarning o‘ziga xosligi shundaki, bola inson faoliyatini ham, u ta’sir etayotgan tabiatni ham kuzatishi mumkin.

Qishloq xo‘jalik obyektiga uyushtiriladigan ekskursiya suhbat bilan boshlanadi. Qishloq xo‘jalik ekskursiyalariga tayyorlanishda tarbiyachi kuzatish obyekti bilan oldin o‘zi tanishadi, ekskursiya o‘tkazish uchun ruxsat oladi, ekskursiya vaqti, bolalarning mehnatda qatnashishlari haqida kelishib oladi va bolalarning ma’lum ishda band bo‘lgan kattalar bilan bo‘ladigan suhbatining mazmunini belgilaydi. Ekskursiya yakunida mazkur obyekt ishi haqidagi taassurotlar umumlashtiriladi. Ekskursiyadan keyingi ish.

Ekskursiyada olingan bilimlar mashg‘ulotlarda, o‘yinlarda, tabiat burchagida o‘tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Ekskursiya vakunida to‘plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o‘simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrarium, sadaklarga joylashtirish), o‘simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur.

Ekskursiyadan 23 kun o‘tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o‘yinlar, mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o‘qiladi, boialarning ekskursiyadan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi. Mashg‘ulot yakunida umumlashtiruvchi suhbat o‘tkaziladi. Tabiatshunoslik ekskursiyalari ma’lum tizimga muvofiq o‘tkaziladi. Ularni tabiatda bo‘ladigan mavsumiy o‘zgarishlarga qarab ayni bir obyektning o‘ziga yilning turli fasllarida uyushtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, bahor mavsumida maktabgacha katta yoshdagi bolalar bilan vazifalarni astasekin murakkablashtirgan holda istirohat bog‘iga 3 marta ekskursiya uyushtirish lozim.

Bu ekskursiyadan maqsad - bolalarni bahorgi o‘zgarishlar bilan tanishtirish, ularni ko‘rish hamda tabiatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sababini tushunish ko‘nikmalarini o‘stirishdir. Qishloq xo‘jalik ekskursiyalarini kattalar mehnatining ayrim turlari bilan tanishtirish maqsadida epizodik tarzda o‘tkazish lozim. Ekskursiyani uyushtirish guruhdagi mashg‘ulotni uyushtirishga qaraganda qiyinroqdir, shuning uchun uning muvaffaqiyatli o‘tishi tarbiyachi va boialarning puxta tayyorlanishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Tabiat bilan tanishish insonni ma‘naviy kamolotga yetkazuvchi jarayon bo‘lib, uni barcha salbiy xatolardan saqlaydi. Natijada uning xulqiy go‘zalligi ortadi. Shu sababdan ham tabiat bilan tanishtirish orqali ta‘lim-tarbiya jarayoni uzoq tarixga ega. Shu nuqtai nazardan O‘rta Osiyo xalqlari tabiatni muhofaza qilish sohasida boy an‘anaga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha ta‘lim muassasalarida bolalarni ma‘naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, Vatanga mehrli bo‘lish, ekologik ta‘lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Adabiyotlar:

1. Bure R. S. Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy tuyg‘ularni tarbiyalash: bolalar bog‘chasi o‘qituvchisi uchun kitob. - M.: Ma’rifat, 2009. - 96 b.

2. Vinogradova N.F., Kulikova T.A. Bolalar, kattalarvaatrofdagidunyo, M.: Ta’lim, 1993 yil.

3. Bolalar bog‘chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari. ed. P. G. Samorukova. - M.: Ma’rifat, 1981 yil.
4. fayllar.org
5. uz.denemetr.com
6. uz.infourok.ru
7. uz.delachive.com

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha ta‘lim muassasasi tarbiyalanuvchilarida borliq va unga tutash hodisalar va tabiatni sevishga qaratilgan holatlarni ko‘rish mumkin. Bola tarbiyasida axloqiy sifatlarning shakllanishida tevarak- atrof o‘z o‘rni borligi va undan oqilona foydalanishni tushuntirish zarurligi alohida to‘xtalib o‘tilgan.

РЕЗЮМЕ

У детей дошкольного образовательного учреждения можно увидеть состояния, связанные с любовью к существованию и связанным с ним явлениям и природе. Подробно рассмотрено то обстоятельство, что среда имеет мало места в формировании нравственных качеств в воспитании детей и необходимость объяснения ее рационального использования.

SUMMARY

It is possible to see the conditions of existence and related phenomena and love of nature in the students of preschool educational institution. The fact that environment has little place in the formation of moral qualities in child education and the need to explain its rational use has been discussed in detail.

6-7 YOSHLI BOLALAR BILISH JARAYONLARINI SHAKLLANTIRISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINING AHAMIYATI

Sharapova S.T.
Termiz davlat Pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: bilish jarayonlari, o'rganish, o'yin, faoliyat.
Ключевые слова: познавательные процессы, обучение, игра, деятельность.
Key words: cognitive processes, learning, play, activity.

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalarda barcha sezgi organlari tuzilish jixatidan to'la rivojlangan bo'ladi. Lekin bundan bolaning sezgi organlari keyingi davrlarda ortiq rivojlanmaydi degan xulosa kelib chiqmaydi, albatta. Maktabgacha yoshdagi bolalarning sezgi organlari (analizatorlari) narsalarning turli-tuman xususiyatlarini aks ettira olsalar xam, xali ko'p jixatdan kattalar sezgi organlarining yuksak takomili darajasida emas. U xali ritvojlanishda davom etadi.

Maktabgacha yoshidagi bolalar o'zlariga ma`lum xodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ayrim tabiiy sabablarni tushuna oladigan bo'ladilar. Masalan, katta gruppa bolalarining gaplariga diqqat qilsak, ular shunday xodisalar haqida muloxaza yuritadilar: Maktabgacha yoshidagi katta bolalarda umumlashtirish qobiliyati va umumiy tushunchalarning shakllanishi, tafakkurning kuyingi usishi uchun juda katta ahamiyatga egadir. Shunday kilib, bogcha yoshdagi davrda bolalarning tafakkurlari juda jadal suratda usadi. Tafakkurningn bundan keyingi usishi maktab yoshidagi davrda, ukish jarayonida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta`lim-tarbiya va xususan Maktabgacha ta'lim tashkilotida ona tilidan o'tkaziladigan maxsus faoliyatlar tufayli bola nutqini normal o'stirish mumkin. Bola nutqining bundan keyinga o'tishi maktabda o'qish jarayonida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning bilish faoliyatlarida xayolning roli juda kattadir. Maktabgacha yoshidagi bolalarning xayollari turli faoliyatlarda o'sadi. Masalan, maktabgacha yoshidagi bolalar

loy o‘ynashni, ya`ni loydan turli narsalar yasashni, qumdan turli narsalar qurib o‘ynashni va rasm solishni yaxshi ko‘radilar. Maktabgacha yoshidagi bolalar xayolining o‘sishiga aktiv ta`sir qiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar bunday ertaklarni juda yoqtiradi va har doim maroq bilan tinglaydilar. Bolalar xayvonlar xaqidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma`lum munosabat yuzaga keladi. Bolalar uchun chiqarilgan turli ertaklarning tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutib, pedagoglar bolalarga ertak aytib berish va o‘qib berishga zo‘r e`tibor bilan qarashlari lozim. Maktabgacha ta’limni boshlash bolangizga ko‘p narsalarni o‘ylash imkonini beradi. Uydagidan farq qiladigan yangi qoidalar va tartiblar mavjud. Bu birinchi navbatda charchoq va chalkash bo‘lishi mumkin. Farzandingizga moslashish uchun vaqt va ko‘p sevgi va yordam kerak bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarining rivojlanishida quyidagilar o‘ta muhim hisoblanadi:

- ota-onalarning ishtiroki ya’ni bola o‘sib rivojlanayotgan muhit;
- sog’lom uyqu (bolaning etarlicha dam olishini ta’minlash bilish jarayonlari rivojlanishining muhim qismidir);
- Oziqlanish (yod, temir, magniy, sink, vitamin B12 va omega-3 kabi vitamin va mineriallar);
- O‘quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish;
- Takrorlash va mashq qildirish;
- Tanaffus
- Jismoniy mashqlar

Bolaning bilish jarayonlarini rivojlanishida uning muhiti katta rol o‘ynaydi va barqarorlik birinchi o‘rinda turadi .Oziqlanish miya rivojlanishi uchun juda muhimdir va yod, temir,magniy, sink, vitamin B12 va omega-3 kabi oziq moddalar bilish jarayonlarini rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. Bundan tashqari, suvsizlanish idrokga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ya.A.Komenskiy“izchillikkarioyaqilibo‘qitishlozim,tokibugun,o‘rganilgan ilmlar kecha o‘rganilganlarni mustahkamlasin, erta o‘rganiladiganlarga zamin hozirlasin” degan edi. Ma’lumki, puxta o‘zlashtirishning harakterli belgisi mustahkam esda saqlab qolishdir, boshqacha qilib aytganda, bu tamoyil o‘quvchilarning xotira faoliyati, ya’ni o‘quv materiallarini esda qoldirish, esda saqlash va qayta esga tushurish kabi xotira jarayoni faoliyatiga bog’liqdir.

Takrorlash va mashq qildirishning mustaqil va alohida -alohida o‘qitish metodi sifatida ishlatiladigan usul va vositalarining turi xilma - xildir. Biroq gap puxta o‘zlashtirishning didaktik asoslari ustida borar ekan, takrorlashning bilimlarni xotirada saqlab qolishdagi ahamiyatini ko‘rib o‘tish maqsadga

muvofiqdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda televizor tomosha qilish tufayli ingliz, matematika va fanlar bo‘yicha turli foydali bilimlarga ega bo‘ladilar va o‘z tengdoshlari erishgan fan,madaniyat,sport sohalaridan erishgan yutuqlarini ham kuzatib boradilar. Albatta, bu borada ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning ekran ortidagi vaqtini mazmunli o‘tqazishini nazorat qilishi,vaqtini cheklashlari kerak. Amerika Pediatriya Akademiyasi kuniga ikki soatdan kamroq vaqtni ekran ortida o‘tkazishni tavsiya qiladi.

Tanaffus miyani mustahkamlash uchun zarurdir.Bilish jarayonlarining kengayishi bevosita tanaffuslarga bog’liq. Bundan tashqari, jismoniy mashqlar ham bilish jarayonining rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishini rag’batlantirish uchun g’oyalarni hosil qilish o‘ynini birgalikda o‘ynang

Farzandingizning bilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradigan o‘yin g’oyalari:

- Farzandingiz bilan “Ilonlar va narvonlar” kabi stol o‘yinlarini yoki “Go fish” yoki “Snap” kabi karta o‘yinlarini o‘ynang.
- Kitob o‘qing, hazil va topishmoqlar ayting.
- O‘yinlarni stacking va qurishni rag’batlantiring yoki karton qutilar bilan o‘ynang.
- Boshqotirma va xotira o‘yinlarini bajaring.
- Harakatlanish va qo‘shiq aytishni birlashtirgan o‘yinlarni o‘ynang – masalan, “Agar siz baxtli bo‘lsangiz va buni bilsangiz”.
- Haydash yoki jamoat transportida ketayotganingizda “spotto” o‘yinlarini sinab ko‘ring – masalan, “Kim yashil narsani ko‘ra oladi?
- Farzandingizni ovqat pishirishda sizga yordam berishga undash - maktabgacha yoshdagi bolalar oilaviy ovqatlanish uchun foydali ingredientlarni o‘lchash, hisoblash va nomlashdan ko‘p narsalarni o‘rganishlari mumkin.
- Tashqarida o‘ynang. Misol uchun, siz loydan pirog tayyorlashingiz yoki birgalikda tabiatda sayr qilishingiz mumkin.

Farzandingizga o‘yinda etakchilik qilishiga ruxsat berish yaxshi fikr, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar mashg’ulotlarga qiziqqanlarida yaxshiroq o‘rganadilar. Shunday qilib, siz bolangizga yangi narsalarni o‘rganishga yordam berish uchun uning qiziqishlaridan foydalanishingiz mumkin. Farzandingiz odatda yordamga muhtoj bo‘lsa, sizga xabar beradi, shuning uchun yechimlarga juda erta kirishmaslikka harakat qiling.

Va har qanday o‘yin paytida siz bolangizdan nima bo‘layotganini tasvirlashni so‘rashingiz mumkin. Bu bolangizga qiziqish ko‘rsatish va til ko‘nikmalarini

mashq qilishga undashning ajoyib usuli. Misol uchun, agar siz va farzandingiz o‘zingizni veterinar sifatida ko‘rsatayotgan bo‘lsangiz, «Bu hayvonga nima bo‘ldi?» Qanday qilib biz buni yaxshi his qilamiz?

Farzandingiz maktabgacha ta’lim muassasasida o‘qishda qiynalayotgandek tuyulsa yoki bir necha haftadan keyin ham maktabgacha ta’lim muassasasiga borishdan xafa bo‘lsa, o‘z tashvishlaringiz haqida, farzandingiz va oilaviy sog‘liqni saqlash hamshirasi yoki farzandingiz o‘qituvchisi bilan gaplashgan ma’qul. Ekran vaqti, raqamli texnologiyalardan foydalanish va maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv rivojlanishi

Ekran vaqti va raqamli texnologiyalardan foydalanish farzandingizning o‘rganishini qo‘llab-quvvatlashi mumkinligini bilish yaxshi. Misol uchun, bolangiz yomg’irli havoda qanday onlayn belgilar kiyish kerakligini ishlab chiqish orqali muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Yoki farzandingiz Sesame Street kabi sifatli teleko‘rsatuvni tomosha qilib, harflar va raqamlar haqidagi bilim va lug’atni rivojlantirishi mumkin.

Farzandingizga raqamli o‘yin orqali o‘rganishga yordam berish uchun quyidagi narsalarni qilishingiz mumkin:

- Sifatli ilovalar, o‘yinlar va boshqa medialarni tanlang.
- Farzandingiz bilan ekranlar va raqamli texnologiyalardan foydalaning.
- Farzandingizga ekran vaqtini va raqamli texnologiyalardan foydalanishni boshqarishga yordam bering.

Esda tuting - sog’lom ekran vaqti va raqamli texnologiyalardan foydalanish muvozanat haqida. Farzandingizning rivojlanishi uchun juda ko‘p turli xil harakatlar, jumladan go‘yo va ijodiy o‘yinlar, jismoniy o‘yinlar, ijtimoiy o‘yinlar va o‘qish, shuningdek raqamli o‘yinlar bilan shug’ullanish yaxshidir.

Bilish jarayonlarini rivojlantirishda o‘yin muhimmi?

Bolalar uchun 6 ta o‘yin

O‘yin va o‘rganish o‘rtasida aniq tadqiqotga asoslangan qarashlar mavjud, chunki o‘yin bolalarda bilish rivojlanishining muhim qismidir.

Bir nechta misollar keltirib o‘tamiz.

1. Ip o‘tkazish

Ip bilan ishlash- bu maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qulay faoliyatlaridan biridir.

1. Har bir bolaga ip va rangli g’altaklar to‘plamini bering.

2. Bir-biriga mos keladigan munchoq iplarini yasashingizni tushuntiring.

3. Bolalar qo‘llarini boshlariga qo‘yishlari kerak, etakchi esa ikkita rangni chaqiradi.

4. Rahbar «bor» deganidan so‘ng, bolalar g’altaklar topib, ularni ip bilan bog’lashadi.

5. Har bir bolaning navbati etakchi bo‘lib, guruh uchun ikkita rangni tanlaydi va ipni topadi.

6. Bolalar bir vaqtning o‘zida topishlari kerak bo‘lgan ranglar sonini ko‘paytiring.

2. Ko‘rsatmalar

Bolalarga «imkon» bering. Kichkintoyga «qo‘g’irchoqni olib keling» yoki «stulni ko‘rsating» kabi bir bosqichli so‘rovlar berish ularga oddiy maqsadga yo‘naltirilgan usullarni o‘rganishga yordam beradi. Ilg‘or o‘quvchilar uchun “Stol ostida emaklab, stul atrofida sakrab o‘ting va menga to‘pni olib keling” kabi ko‘p bosqichli yo‘nalishlarni kiriting.

3. Endi ko‘rasiz, endi ko‘rmaysiz

Ushbu o‘yinda ob’ektni tanlang va uni bolalar bilan tasvirlab bering. Ulardan so‘rang: “Kichikmi yoki kattami? U qanday ranglarga ega? Ob’ektning bu qismi qanday shaklda?» Ob’ektni muhokama qilgandan so‘ng, uni yoping va bolalardan ob’ekt qanday ko‘rinishini eslab qolishlarini so‘rang. Ko‘proq tafsilotlarni eslab qolish uchun ob’ektni oching yoki ko‘rsatilgan tafsilotlarni tekshiring (Sanderlend, n.d.).

4. Takroriy og’zaki o‘yinlar

“Men sayrga chiqdim” kabi takrorlanuvchi og‘zaki o‘yinlar ham xotirani rivojlantirishga yordam beradi. Har bir kishi boshqalarning aytganlarini eslaydi va o‘z narsasini qo‘shadi. Masalan, 1-bola: «Men sayrga borib, olma olib keldim.» 2-bola: «Men sayrga bordim, olma va banan olib keldim.» 3-bola: «Men sayrga bordim va olma, banan va sabzi olib keldim.» Va hokazo.

5. Men josusman

Bir kishi ko‘rinadigan ob’ektni tasvirlash uchun maslahatlar beradi. Yana bir kishi nima ekanligini aniqlashga urinishda ayblanadi. Masalan, «Men kichkina ko‘zlarim bilan katta va sariq narsalarni ayg’oqchi qilaman.»

6. Tarqatmalar materiallar o‘yini

Tarqatmalar yoki karta o‘yinlari ish xotirasidan foydalanishni talab qiladigan bolalar uchun sevimli mashg’ulotlardir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qator ilmiy-psixologik manbalarda aytilishicha, shu yoshdagi bolalaming his-tuyg’ulari va irodasida muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ladi va bulaming hammasi boladagi xudbinlik, o‘ziga bino qo‘yish, aksilijtimoiy mayl, urinish, qaysarlik, rashk kabi illatlarda yaqqol aks etadi. N.A.Menchinskaya, V.S.Muxinaning oqilona mulohazalariga qaraganda, bolalardagi injiqliklaming bosh omili atrofdagi odamlarning ular shaxsiga

adolatsiz, noto‘g’ri, mensimay munosabatda bo‘lishidan iboratdir, bizningcha, o‘zini tan oldirishga intilish ham bunga sababdir. Katta maktabgacha yoshdagi bolalaming psixologik xususiyatlarini o‘rgangan A.N.Golubevaning fikricha, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish unda o‘jarlikni paydo qiladi. Shuningdek, bu eshdagi bolalaming o‘jarligi doimiy bo‘lmaydi, masalan, o‘z tengdoshlariga nisbatan o‘jarlik qilish ahyon-ahyondagina ro‘y beradi, ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila a’zolarining birortasiga o‘jarlik qiladilar. D.B.Elkoiminning fikricha, bolaning xohishi bilan bu xohishning harakatda ifodalanishi o‘zaro mos tushmasligi, kattalar talabiga so‘zsiz itoatkorlik uning istagini umumlashtirishga olib keladi, voyaga yetganlar talabiga mos emasligi sababli shunchaki xohish, qat’iy shaxsiy xohish darajasiga o’sib boradi. Odatda «Men xohlayman», «O‘zim bajaraman» kabi mustaqillikka intilish harakatlari xohishning kuchayishida o‘z ifodasini topadi. Ana shu tariqa bola psixikasida xohishlaming o‘zaro uzviy bog’lanishi, motivlar va ularning kurashi yuzaga kela boshlaydi. D.B.Elkoninning ta’kidlashicha, mazkur o‘zgarishlar bevosita idrok qilinadigan buyumlarga qaratilgan xohishning mantiqan mavhumroq buyumlarga yo‘naltirilgan xohishga aylanishidir ?” . Buning asosiy sabablari, bir tomondan, bolada oddiy umumlashtirish uquvining pay do bo‘lishi hisoblansa, ikkinchidan, unda nutq faoliyatining jadal sur’atlar bilan rivojlanishidir. Shundan so‘ng uning faoliyati jozibador, maftunkor, jimjimador, yaltiroq narsalaming tgashqi alomatlariga va ulami bevosita egallashga aloqador bo‘lmay, balki mazkur narsalaming timsoli, tasawur obrazlari, kelgusida shulaming hammasini o‘zlashtirish istagi asosiga quriladi. Bolaning orzu-istagi doirasidagi hali foydalanilmagan yangi, yashirin, ammo ro‘ebga chiqadigan imkoniyatlar uning kattalar bilan munosabatida, muomalasida, muloqotida, o‘zining shaxsiy faoliyatida, his-tuyg’usining mazmuni va rivojlanishidagi keskin, muhim o‘zgarishlar uchun zarur shart-sharoitlar sifatida xizmat qiladi. Undagi tasavvur bilan uzviy bog’liq his-tuyg’ular xohishni qondirishda oldindan taajjublanish jaraeniga keng istiqbollar yaratadi. Boladagi mavjud his-tuyg’ular xohishni qondirishni bevosita aks ettirish bilan kifoyalanib qolmaydi, balki kelgusida amalga oshirish mo‘ljallangan faoliyatning ahamiyatini ham o‘zida mujassamlantiradi. Shuning uchun bolaning quvonchi bilan qayg’usi dafatan qanday maqsadni ko‘zlashga (amalga oshirishga) yo‘nalganida emas, balki qaysi faoliyatni (ishni) rejalashtirgani bilan uzviy bog’liqdir. Bolaning xohish va istagidagi ayrim o‘zgarishlar, ulaming tasavvurlar bilan birlashuvi maktabgacha eshdagi sub’ektlarda faoliyatning yangi ko‘rinishlari (rolli o‘yinlar, ijodiy, tasviriy va konstruktiv faoliyat, sodda mehnat faoliyati) keng ko‘lamda rivojlanishiga

qulay imkoniyat yaratuvchi shart-sharoit hisoblanadi. Bola o‘zining faoliyatida tevarak-atrofdagi narsalar va hodisalar to‘g’risidagi tasavvur obrazlaridan amaliy foydalanish bilan chegaralanib qolmay, ularga nisbatan o‘zining shaxsiy emotsional munosabatini ham bildiradi. Bu hoi ko‘pincha ulaming ijodiy o‘yinlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ijodiy o‘yinlarda bolaning kattalar faoliyati haqidagi, ulaming o‘zaro munosabati to‘g’risidagi tasavvuri aks etadi, u o‘zini kattalar bilan birga harakat qilaetgandek his etadi, hatto voqelikning bevosita qatnashchisi vazifasini o‘taydi.

Xulosa va takliflar. Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar hali maktabga bormay turib, oqilona harakat qiladigan, tevarak-atrofni mustaqil kuzatadigan, kattalar yumushiga qarashadigan, ravon so‘zlab, fikr yuritadigan, birmuncha bilim va malaka orttiradigan bo‘ladi.

Pedagog va psixolog olimlarning ilmiy tekshirish ishlari maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlari xususiyatlari rivojlanishida asosan maktabgacha ta’lim dasturiga kiritilgan turli mashg‘ulotlar, xalq og‘zaki ijodi namunalari va yozuvchilarning asarlarini bolalarga o‘qib va hikoya qilib berish, yodlatish, ifodali aytish yo‘llarini tekshirish, umuman u yoki bu badiiy asarda aks etgan g‘oyalarni bolalar ongi va qalbiga singdirish usullarini ko‘rsatish, bu boradagi ilg‘or tajribalarni umumlashtirish va targ‘ib etish kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Osobeimosti psixicheskogo razvitiya detey 6-7 letnegov vozrasta D. B. Elkonin, A.L. Venger tahriri ostida. — M., 1988 y. 123-125-betlar.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / S.X. Jalilova, S.M. Aripova; 0 ‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus taTim vazirligi; O‘rta maxsus, kasb hunar ta’limi markazi. - Toshkent: «Faylasuflar» nashriyoti, 2017. -496 b.

3. Musayev.N. Oilada bola tarbiyasining psixologik xususiyatlari. – Maktab va Hayot jumali, 2005 yil, №3, 18-19 betlar.

4. Sunnatova.R.I. va boshqalar. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish. T., 2008 156-bet.

5. https://positivepsychology.com/cognitive-development-activities.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada asosan 6-7 yoshdagi bolalarning bolalarning bilish jarayonlarining nazariy – amaliy asoslarini haqida hamda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish o‘rganiladi. Tadqiqotning obyekti sifatida 6-7 yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini texnologiyalar orqali shakllantirish jarayonini tashkil qiladi. Maqolada pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o‘rganildi pedagogik tajriba-sinov metodlardan va bir nechta eng samarali metodikalar ya’ni ” Takrorlash va mashq qildirish”,” O‘quv materiallarini yodlash”,”Tanaffus” kabilar haqida ma’lumotlar berilgan. Qolaversa ushbu tadqiqot ishida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asos bo‘lib xizmat qila oladi. Ilmiy izlanish davomida qo‘lga kiritilgan dalillar va xulosalardan kelib chiqib, ushbu ishni maktabgacha ta’lim sohasida ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar amaliyotda foydalanishi mumkin bo‘ladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье у детей в основном изучаются статьи 6-7 о теоретико-практической основе процесса обучения детей, а также о выработке научно-методических рекомендаций и их применении на практике. 6-7 организуют объектный процесс с помощью технологии автоматизированных процессов контроля. В статье представлена информация об изученных в педагогической, технической и методической литературе методах педагогического эксперимента-теста и некоторых наиболее эффективных методах, таких как «Повторение и практика», «Заучивание учебного материала», «Перерыв» и др наоборот, в данной исследовательской работе дошкольные образовательные организации служат основой эффективного пути от педагогических технологий. Процесс научного исследования будет основываться на полученных источниках и на их основе можно будет проводить исследователям эту работу как научную работу дошкольного образования на практике.

SUMMARY

In this article, the theoretical and practical basis of cognitive processes of children of 6-7 years of age, as well as the development and implementation of scientific methodical recommendations are studied. The object of the research is the process of forming the cognitive processes of children aged 6-7 through technologies. Pedagogical, psychological and methodical literature was studied in the article, pedagogical experiment-testing methods and information about some of the most effective methods, i.e. «Repetition and practice», «Memorization of educational materials», «Recess», etc. Effective use of pedagogical technologies by preschool educational organizations can serve as a basis for this research. Based on the evidence and conclusions obtained during the scientific research, this work will be able to be used in practice by researchers conducting scientific work in the field of preschool education.

TABIIY FANLARNI O'QITISHDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHI KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Qulmo'minov O'. S.
Termiz davlat pedagogika instituti
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: tabiiy fanlar, ijodiy fikrlash, ijodkorlik, tanqidiy, mustaqil fikrlash.
Ключевые слова: естественные науки, творческое мышление, креативность, критическое, самостоятельное мышление.
Key words: natural sciences, creative thinking, creativity, critical, independent thinking.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda kechayotgan glaballashuv jarayonida har bir soxada ilg'or ishlar amalga oshirilmoqda buni zamonning o'zi talab etmoqda. Yosh avlod har soxada ildam.Chunki jamiyatimiz axborot oqimiga boy. Jamiyatimiz talab etayotgandek har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalab yetishtirishda o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirishda yosh avlodga chuqur bilim beradigan, fikrlash doirasi keng, kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, huquqiy demokratik jamiyat a'zolarini ozod va erkin yashashga, mustaqil fikr yuritishga o'rgata oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilangan.

Zamon shiddat bilan o'zgarib borar ekan, ta'lim sohasi ham u bilan barobar o'zgaradi.O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1-6 -sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan Tabiiy (SCIENCE) fanlar joriy etildi.Tabiiy (SCIENCE) fanlar ayni vaqtda o'qitib kelinayotgan 1-2-sinfda"Atrofimizdagi olam", 3-4-sinflarda "Tabiatshunoslik", yuqori sinflarda esa 4taalohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7-sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi.

Tabiiy (SCIENCE) fanlarning afzalliklari va ahamiyati shundan iboratki, fan orqali o'quvchi olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglaydi, ilmiy dunyoqarashi shakllanadi, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning PISA,TIMSS kabi xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etish imkoniyati oshiradi.Bugungi kunda ta'lim sohasini rivojlantrishda davlatimiz tomonidan ham alohida e'tibor qaratilmoqda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning 5712-son farmoniga [1] muvofiq o'quvchilarning tabiiy

savodxonligini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish, talim jarayoniga o'qitishning innovatsion shakl va usullarini joriy etish maqsadida ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilab berildi

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzuga doir ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlarning qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, uzviylik va uzluksizlik kabi pedagogik tamoyillar asosida yoritilgan bo'lib, o'quvchilarda tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantrish masalalari tadqiq etilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz yetakchi pedagog va psixolog olimlaridan Sh.Abdullaeva, D.N.Arzikulov, E.G'oziyev, M.G.Davletshin kabi olimlar shaxs kreativ faoliyati va kreativ tafakkurini psixologik jihatlarini tadqiq etgan bo'lsalar, tabiiy fanlar va ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyatni shakllantirish yuzasidan E.O.Turdiqulov, B.X.Xodjaev, Yu.G'.Mahmudov, X.J.Xudayqulov, N.J.Isakulova, X.B.Norbutaev, Sh.L.Maxmudova, V.N.Sattorov, Ye.B.Aydarov, U.G.Saidova, A.R.Malikova, M.K.Shirinov, N.A.Mirzaeva, G.A.Ismoilova, A.Yu.Kuchkinov, G.I.Qosimova, L.M.Abdunazarov, I.X.Ayubovalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, kreativlik shaxs samarali faoliyatini ta'minlovchi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv o'quvchilar bilim o'zlashtirish sifatini ularning ijodiy faoliyati asosida rivojlantirishga xizmat qiladi. SHuningdek, kreativlik – shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi, shaxsni o'z-o'zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosidir. U shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilishda va o'rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi.

"Kreativlik" tushunchasi o'zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik yaratish hisoblanadi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharq olimlari esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Garchi g'arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo'lsada, biroq har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydila[2,8].

Kreativlik shaxsni rivojlantruvchi kategoriya sifatida inson ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lib, shaxsni o'z-o'zini rivojlantrish omili, inson ega bo'lgan bilimlarning va pedagogik kreativlik esa pedagogik jarayonni tashkil etish davomida noodatiy, ijodiy va mahsuldor g'oyalarni yaratish hamda ulardan samarali foydalanishdan iboratdir. An'anaviy yondashuvdan farqli ravishda

pedagogik jarayonga kreativ yondashuv yuzaga keladigan pedagogik muammolarni ijobiy yechimini topishga hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko’p savollar berilishini rag’batlantirish va bu odatni qo’llab-quvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag„batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4)bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to’sqinlik qiladi:

1) o’zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo’pollikka yo’l qo’yish;

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo’lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o’ylash[3,1506].

Yillar mobaynida insonning bir necha sohalardagi ijodiy barkamolligining ahamiyati va uning tahlili borasida ko‘plab adabiyotlar vujudga kelgan. Ushbu yozilgan adabiyotlarda berilgan ta’riflarga ko‘ra, kreativ barkamollik ma’lum ijtimoiy sohaga nisbatan yangi va foydali, deb qaralgan. Ta’lim jaryonida esa kreativ yondashuv o‘zining “kundalik” shakliga egadir. Masalan, u yozish, chizish, musiqa yoki “san’at”ning boshqa sohalarining ifodaviy faoliyati, yangi bilim va tushunchalar hosil qilish, yoki turli ochiq turdagi savollarga kreativ yechimlar topish orqali namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayonida bu kabi ijodiy mashg‘ulotlar ko‘p fan sohalari bilan bog‘langan bo‘lib, san’at va tabiiy fan singari an’anaviy fanlar bilangina chegaralanib qolmaydi. PISA, PIRLS va TIMSS 2022 tadqiqotlari o‘quvchilardan kutiladigan kreativ fikrlash jarayonlariga qaratiladi.

Mazkur xalqaro loyiha faqat ijodkor shaxslarni ajratib olishni maqsad qilmaydi, aksincha o‘quvchilar g‘oyalarni qidirish hamda ifodalashda ijodiy fikrlash qobiliyatini va bu qobiliyatning o‘qitish yondashuvi, maktab faoliyati yoki ta’lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog‘liqligini tavsiflaydi. PISA, PIRLS va TIMSS xalqaro tadqiqotlarining oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi o‘quvchilarning ta’lim siyosati va pedagogikada yaqqol natija beradigan kreativ fikrlash ko‘nikmasiga oid xalqaro miqyosdagi qiyosiy ma’lumotlar bilan ta’minlashdan iborat. Shuning uchun, nazarda tutilayotgan kreativ fiklash ko‘nikmasi ta’lim olish orqali shakllantirilishi, ta’lim jarayonida kreativ fikrlash ko‘nikmasining turli imkoniyatlari aniq ko‘rsatib berilishi va baholovchi topshiriqlarda o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari bilan bog‘langan bo‘lishi,

baholashda qamrab olingan mazmun sohalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi, test topshiriqlari o‘quvchilar tomonidan, ham sinfda ham sinfdan tashqarida bajariladigan mashg‘ulotlarga yaqin bo‘lishi bilan birga, ijodiy yutuq va muvaffaqiyatni ta’minlaydigan darajada ishonchli bo‘lishi kerak.

Xulosa. Kreativ fikrlash mavjud muammoga nafaqat texnik nuqtai nazardan, balki ijtimoiy nuqtai nazardan qarashni, asosiy muammolarga ya’ni shaxsiy muammolar, ta’lim jarayonidagi muammolar, kengroq miqyosdagi yoki global muammolar bo‘lishidan qat’iy nazar yechim topishda boshqalarning ehtiyojlarini tushunish va inobatga olishni o‘z ichiga oladi. Mazkur sohada kreativ fikrlash o‘quvchilarning innovatsion, shu bilan birgalikda amaliy yechimlar taklif etadigan, emotsional mazmunga ega g‘oyalarni ilgari surish, namunalarni ajratish va ma’lum guruh ehtiyojlarini baholash hamda boshqalar fikriga xayrixohlik bildirish qobiliyatiga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 -yil, 29 -apreldagi “O’zbekiston Respublikasi XAlq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida PF– 5712- sonli Farmoni . ПФ-5712-сон 29.04.2019. (lex.uz).

2. Yuldashev S.N. Boshlang’ich ta’lim ixtisosligi talabalarini kreativ yondashuv asosida texnologik ta’limga tayyorlash metodikasi. pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI. Qarshi – 2021 8-bet.

3. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF)2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 1506 www.ares.uz.

РЕЗЮМЕ

Maqolada tabiiy fanlarni o’qitishning dolzarbligi, tabiiy fanlar misolida o’quvchilarining kreativ qobiliyatini rivojlantirishning metodik tizimi, bugungi kunda o‘quvchilarning kreativ fikrlash, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo‘lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini, tafakkurini rivojlantirish, yuksak ma’naviyatli barkamol shaxsni kamol toptirish sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning muhim omili sifatida boshlang‘ich ta’lim tizimidan boshlab ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalarini keng miqyosda qo‘llash zaruratini yuzaga keltirishi haqida fikr yuritilgan

РЕЗЮМЕ

В статье раскрывается актуальность преподавания естественных наук, методическая система развития творческих способностей учащихся на примере естественнонаучных дисциплин, развитие качеств и мышления учащихся сегодня, таких как творческое мышление, осознанное отношение к окружающей действительности. , вовлеченность и социальная активность, высокая духовность Считается, что развитие всесторонне развитой личности как важный фактор воспитания здорового поколения обуславливает необходимость широкого применения передовых педагогических и инновационных технологий, начиная с системы начального образования.

SUMMARY

In the article, the relevance of teaching natural sciences, the methodical system of developing the creative abilities of students on the example of natural sciences, the development of the qualities and thinking of students today, such as creative thinking, conscious attitude to the surrounding reality, involvement and social activity, high spirituality It is thought that the development of a well-rounded person as an important factor in raising a healthy generation creates the need to use advanced pedagogical and innovative technologies on a large scale starting from the primary education system.

BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI TAKOMILLASHTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Usmonova S.E.
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ma’naviy-axloqiy, madaniyat, kognitiv, takomilashtirish, sifatlarini, o‘quvchilar.

Ключевые слова: духовно-нравственные, культурные, познавательные, совершенствующие, качества учащихся.

Key words: spiritual and moral, cultural, cognitive, improving, qualities of students.

Kirish. Jahon ta’lim tizimida integratsiya, globallashuv jarayonlari chuqurlashayotgan va sifat jihatdan rivojlanayotgan sharoitda ta’lim oluvchilarning manfaatlarni himoyalash va ularga pedagogik shart-sharoitlar yaratib berish muhim o‘rin tutadi.

Jahon ta’lim tizimi standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari va darsliklar yaratish, o‘quv jarayoniga malakali pedagog xodimlarni jalb etish kabi vazifalar amalga oshirilmoqdi. Endigi vazifa tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifatini va axloqiy madaniyatini oshirish, ya’ni ularning kasbiy malakasini zamon talablariga javob beradigan darajaga yetkazishdan iborat.

Respublikamizda oliy ta’lim sohasini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘qitish jarayoniga odob-axloq me’yorlarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalar nuqtai nazaridan zamonaviy yondashuvlar asosida dars mashg‘ulotlari jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy, axloqiy va ekologik tarbiyani rivojlantirishning mazmuni va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan M.A.Abdullayeva, N.Achilov, O.Jamoliddinova, R.Mamatqulova, N.Mahkamova, O.Musurmonova, U.Mahkamov S.Norboyeva, O.Nasriddinova, M.S.Salayeva, D.Himmataliyev, B.X.Xodjayev, D.J.Sharipova, Sh.S.Shodmonova, Yo.Ernazarovalarning tadqiqotlarida bo‘lajak kadrlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni shakllantirish, jamiyatda

ma’naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta’minlash, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini yaxlit rivojlantirish, milliy-ma’naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash, talabalarni ma’naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini, ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, o‘quvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish masalalari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola muammoga doir ilmiy, o‘quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish, ma’naviy-axloqiy bilim berishda “oddiydan murakkabga”, “uzviylik va uzluksizlik” kabi pedagogik tamoyillarga tayanish asosida yoritilgan bo‘lib, o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotdagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

A.Erkayevning fikricha, «Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir».

M.Imomnazarov dastlab «Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur…», -deb yozgan bo‘lsa, keyinchalik «Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi», -deb yozadi

T. Mahmudov “…Ma’naviyat – insoning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog‘ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir”, -degan ta’rifni beradi.

Shaxsning o‘z o‘zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrxohlik, iymonlilik, halolik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va boshqalar.

Ma’naviyat tarkibiy qismlaridan eng muhimi – axloq va odobdir. Axloq arabchadan olingan bo‘lib, xulq odob, atvor, fe’l degan ma’nolarni anglatadi. Rus tilida ishlatiladigan “moral” so‘zi «mocheya» so‘zidan olingan bo‘lib, u ham axloq ma’nosini bildiradi.

Yunoncha «ethos» so‘zidan olingan odat, odob, rasm-rusum, fe’l (xarakter) ma’nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha Arastu (e.o.384-322 yy) tomonidan axloqning sinonimi sifatida ishlatilgan.

“Odob” (arabcha “adab” so‘zining ko‘pligi) xulq-atvori, yurish-turish madaniyatning tashqi va ichki jihatlarni ifodalaydigan tushuncha. U kishilarning hatti-harakatida, o‘zaro munosabatida (oila, mehnat jamoasi va h.k.) namoyon bo‘ladi.

Abu Nasr Forobiy «Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloqiy tarbiya bilan yakunlanadi» deb ta’kidlaydi.[1,222b]

Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari asarlarida axloqiylik deganda biz faqat tashqi muomalani ko‘zda tutmaymiz, balki niyatning butun ichki mohiyatini tushunamiz, axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo‘lgan omillar, unsurlar to‘g‘risida to‘xtalmaslik mumkin emasligini yoritadi.

Tadqiqotchi va olimlar axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar.

– bular-axloqiy anglash (axloqiy ong),
– axloqiy his etish (axloqiy xissiyot)
– axloqiy munosabatlar (axloqiy hatti-harakatlar).

Ba’zi mutaxassislar axloqning asosiy tushunchalarini (kategoriyalarini), axloqiy me’yorlar va tamoyillarni axloq – odobning bir butun qon tomiri tarzida taqdim etadilar. Shunday qilib, axloq tuzilmasi uch asosiy omilni: axloqiy anglash, axloqiy his etish va axloqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur uch omil-unsurning birortasisiz axloq tushunchasini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, axloqni inson ko‘zi oldida gavdalantiruvchi axloqiy munosabatlarning his etish va axloqiy anglashsiz yuzaga chiqishi, ya’ni mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Tahlil va natijalar. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Axloqiy tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Shaxs axloqiy tarbiyasining natijasi sifatida shakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir. Shaxsning ko‘pdan-ko‘p xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o‘zaro mustahkam bog‘langan. Tarbiya jarayonida o‘quvchining shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi.

Axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo‘lmaydi. Bu narsa o‘quvchilarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma’naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog‘liq.

Axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, odatda, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash, o‘quvchining atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi.

O‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash shaxsning o‘zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayonidir. O‘quvchi xulqidagi «og‘ish»lar oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo‘l qo‘ygan xatolari, o‘qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o‘zgartiriladi, qayta tarbiyalashda institut va shaxsning shaxsiy ta’sirini oila, shu jumladan, ota-ona ham ma’qullashi lozim.

Demak, qayta tarbiyalash o‘quvchining o‘zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar axloqiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

v) umuminsoniy axloq me’yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o‘quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

g) o‘quvchilarda axloq va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg‘usi, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;

j) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

z) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rganish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat.

Shu bilan birga axloqiy madaniyatini rivojlantirish yo'nalishlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, axloqiy va siyosiy tarbiyaning xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalga oshiriladi. Chunonchi,

1) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar) ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish;

2) aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida – o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish;

3) jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat to'rlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda va xarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigienani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

4) estetik tarbiyani olib borish jarayonida – o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;

5) ekologik tarbiyani olib borish chog'ida – o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;

6) iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamalakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta

biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko‘paytirish borasida qayg‘urish tuyg‘ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

7) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta’limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo‘jalik, ma’muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma’nosini tushuntirish, ular ogiga ijtimoiy-axloqiy me’yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, axloqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ularda axloqiy ong, shuningdek, axloqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy madaniyatni shakllantirish;

8) g‘oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o‘quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o‘rganishni ta’minlash asosida o‘quvchilarda siyosiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

Axloqiy madaniyatini rivojlantirish tamoyillari. Axloqiy tarbiya mazmunida oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Axloqiy tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g‘oyalari asosda belgilanadi. Zamonaviy axoqiy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadining aniqligi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya’ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

2. O‘quvchilar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan ma’naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy me’yor va qadriyatlarini aniqlash o‘quvchining tarbiya jarayonidagi faolligini ta’minlashga olib keladi.

Dunyoqarashi hali to‘la-to‘kis shakllanmagan o‘quvchilar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega.

3. O‘zini-o‘zi anglash. Axloqiy tarbiya insonda e’tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Axloq mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o‘zini-o‘zi anglashi, uning o‘z shaxsiy hayoti va faoliyatining sub’ekti sifatida e’tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o‘zini-o‘zi anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. Axloqiy tarbiyaning shaxsga yo‘naltirilganligi. Mazkur g‘oya ta’lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas, balki o‘quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o‘ziga xos xarakteri, o‘z qadr-qimmatini anglash tuyg‘ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g‘oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Axloqiy tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o‘zida ham o‘quvchi, ham o‘qituvchi ma’naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar o‘qituvchi o‘quvchining qiziqishi, faoliyati, o‘rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg‘ularini ko‘ra va anglay olsagina uni irodali ekanligi ayon bo‘ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo‘lishi ta’minlangan sharoitda uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

6. Jamoa yo‘nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsni har tomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to‘laqonli talqin etish, insonparvarlik va o‘zaro hamkorlik tuyg‘ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidgicha xulosa qilish mumkin:

1. Axloqiy madaniy munosabatni muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo‘lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo‘lib kelgan.

2. Axloqiy madaniy munosabat turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy Axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Axloqiy madaniy munosabatning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni,

shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Axloqiy madaniyat jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda Axloqiy tarbiyani tashkil etish oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

Axloqiy madaniy munosabatlar pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyasiga muvofiq, endilikda o‘quvchi Axloqiy tarbiya jarayonining ob’ektigina bo‘lib qolmasdan, sub’ekti sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. // Tanlangan asarlar. Mas’ul muharrir: akad. M. Xayrullaev. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 222 b.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 t. - T.: Fan, 1968. - 488 b.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O‘qituvchi, 1992-62 b.

4. Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. Toshkent. Ma’naviyat, 1997

5. Arnoldov A.I. Teoriya kulturы: istorizm i voprosы metodologii. (kultura, chelovek, katrina mira).- M:Nauka-1987-s-21

6. Imomnazarov M. Ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent: Sharq, 1996

7. Axloq-odobga oid hadis namunalari. - T.: Fan, 1990. - 172 b.

8. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari: Uch jildlik saylanma. Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Xikmatullaev - T.:A.Qodiriy nomli Xalq merosi nashriyoti, 1993. - 1 jild. -212 b; 2 jild - 304 b.; 3 jild -320 b.

9. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. –T.: Sharq, 2000. -94 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish omillari nazariy tahlil qilib o‘tilgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini, madaniyatini rivojlantirish aloqadorlikda takomillashtirish asosida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning kognitiv, omillari ta’limiy sharoitda aniqlashtirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проведен теоретический анализ факторов совершенствования духовно-нравственных качеств учащихся. Кроме того ,в образовательном контексте определены познавательные,факторы формирования у учащихся духовно-нравственной культуры на основе совершенствования их духовно-нравственных качеств, культуры общения.

SUMMARY

This article presents a theoretical analysis of the factors of improving the spiritual and moral qualities of students. In addition, in the educational context, the cognitive factors of the formation of students’ spiritual and moral culture based on the improvement of their spiritual and moral qualities, the culture of communication are determined.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIVLIK FIKRLASH QOBLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEZONLARI

Eshpulatova J.E.
Termiz davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ta’lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

Ключевые слова: образование, методика, мышление, творчество, знак, упражнение, мышление, творчество, мышление, свобода.

Key words: education, methodology, thinking, creativity, sign, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom.

Kirish. Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g`oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg`ularida, muayyan qobiliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e`tibor qaratish zarur:

1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag`batlantirish va bu odatni qo‘llabquvvatlash;

2) bolalarning mustaqilligini rag`batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;

3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;

4) bolalarning qiziqishlariga e`tibor qaratish.

Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi:

1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;

2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish; www.pedagoglar.uz 44-son 7–to‘plam may 2023 Sahifa: 39.

3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;

4) boshqalarga tobe bo‘lish;

5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash. Boshlang`ich sinf o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri o‘qituvchi-o‘quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e`tibor qaratildi. Ma`lumki, ta’lim jarayoni ikki yo‘qlama xarakterga

ega bo‘lib, o‘qituvchi va o‘quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o‘qituvchi ta’lim jarayonining to‘g`ri tashkil etilishi, ta’lim maqsadlarining to‘g`ri amalga oshirilishi va ta’lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Ammo bu, ta’lim jarayoni o‘qituvchining to‘liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto‘g`ri fikrning tug`ilishiga asos bo‘la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo‘ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o‘zlashtirishga oid mexanizmgina bo‘lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik lozim.

Bizningcha, o‘quv vaziyati ta’lim jarayonini tashkil qiluvchi o‘zgaruvchan tizim sanalib, u quyidagicha ikki qismdan iborat: - o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligi; - o‘quvchilarning o‘zaro bir-birlari bilan hamkorligi. O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning hamkorligi o‘qituvchining o‘quvchilarga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o‘quv harakatlariga aylanadi. Natijada, o‘qituvchi bilan o‘quvchilar munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o‘sib o‘tadi. Materiallar tahlilining ko‘rsatishicha, mantiqiy topshiriqlar hamkorlikda bajarilgandagina bilimlarni o‘zlashtirish mahsuldor bo‘ladi.

Ilmiy manbalarda ta’limning shunday tashkil etilishini hamkorlikdagi mahsuldor faoliyat vaziyati, deb atash qabul qilingan. Pedagogik adabiyotlar tahlili va ijodiy tajribalarimiz natijalariga www.pedagoglar.uz 44-son 7–to‘plam may 2023 Sahifa: 40 ko‘ra hamkorlikdagi mahsuldor o‘quv faoliyati vaziyatini tashkil qilishning 2 asosiy tamoyilini ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiqdir: 1.Ta’limda mazmunning izchilligi tamoyili. Unga ko‘ra shaxs o‘z faoliyatini muayyan maqsad asosida tashkil qilishida mazkur faoliyatning uzluksiz shakllanishi ko‘zga tashlanadi. 2.O‘qituvchi-o‘quvchilar hamkorligining mustaqil ijodiy faoliyat bilan bog`liqligi tamoyili. O‘quv jarayonida o‘quvchilar bilan hamkorlik qilish katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning ta’limga qay darajada ixlos qo‘yishi o‘qituvchining mana shu hamkorlikni yarata bilish mahoratiga bog`liq.

O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘quv faoliyatidagi muhitning to‘g`ri uyushtirilishi o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi, ularni butun kuch va g`ayratini sarflashga undaydi. Bu o‘zaro muloqotning shunday bir shaklidirki, bunda o‘quvchi o‘zini pedagogik ta’lim obyekti deb emas, balki mustaqil va erkin harakat qiluvchi shaxs deb biladi. O‘qituvchining o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qaysidir bir ma`lumotga aniqlik kiritish paytida o‘quvchilarga yordam so‘rayotganday murojaat qilishi hamkorlik faoliyatini yanada chuqurlashtiradi. O‘quvchilarni o‘rganuvchi va tarbiyalanuvchiga aylantirish o‘qish o‘qitish jarayonini muvaffaqiyatli olib borishninggina sharti

bo‘lib qolmay, balki ularni har jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ham muhim shartidir.

O‘quvchi o‘qitish va tarbiyalash jarayonining o‘zidayoq bilim va tarbiya oluvchi shaxsga aylanadi. Sh.A.Amonashov ta’lim jarayonida o‘quvchi bilan hamkorlik munosabatini o‘rnatish lozimligini ta’kidlab, shunday deydi: “O‘quvchining o‘quv biluv faoliyati nafaqat qiziqarli o‘quv materiali va uni tushuntirishning turli metodlari vositasida, balki pedagogning ta’lim jarayonidagi muomala xarakteriga ko‘ra tartibga solinadi. Mehr, ishonch, hamkorlik, hurmat mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchi o‘quv topshiriqlarini oson o‘zlashtiradi. Yutuqlari, mustaqil fikri, ijodiy izlanishlari yuqori baholanayotganini ko‘rgan o‘quvchi yanada murakkab bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini bajarishga intila boshlaydi”. www.pedagoglar.uz 44-son 7–to‘plam may 2023 Sahifa: 41 Boshlang‘ich ta’lim - bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta’lim turidan biri bo‘lib, ta’limning bu bosqichida pedagog o‘qituvchilarga katta mas’uliyat yuklatiladi. Ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o‘rganishni talab etmoqda.

O‘quvchilar o‘z-o‘zidan kreativ bo‘lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O‘qituvchilar o‘quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o‘quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o‘quvchilarni o‘zgacha yondashuvli ya’ni kreativ bo‘lishlariga erishishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o‘quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Hozirgi kunda ta’lim muassasalarining ko‘plab o‘quv jamoalari mahalliy va xorijiy ta’lim texnologiyalarini faol sinovdan o‘tkazmoqda. Shu sababli o‘qituvchi kasbiy mahoratining muhim tarkibiy qismi yangi pedagogik texnologiyalar samaradorligini baholashga tayyorlikdir. Zamonaviy o‘qituvchi taklif etilayotgan yangi texnologiyalar muayyan ta’lim muassasasining ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos kelishini aniqlay olishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni ijodiy yondashuv asosida innovatsion faoliyatga yo‘naltirish muammosining ayrim jihatlari rossiyalik tadqiqotchi-olimlar A. Boyko, A. Aleksyuk tomonidan, pedagogik faoliyatga tayyorlikning shaxsiy yondashuvi nazariy o‘rganilishi, o‘qituvchilar iste’dodli yosh avlodini samarali tarbiyalashning integrativ sifatlari V. Bondar, S. Goncharenko, V.I.Yevdokimov, L. Kadchenko, V. Kovalev, A. Lipenko, O.R. Penkova, B.V.Shcherbina, Slastenin va boshqa bir qator olimlar ishlarida yoritilgan.

Biroq aytib o‘tilgan ishlarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning faqat muayyan masalalari ko‘rib chiqiladi.

Ko‘rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi asosida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatining nazariy hamda uslubiy tomonlari etarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, zamonaviy o‘qitish tizimini takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq.

O‘rganilayotgan muammoning murakkabligi va serqirraligini hisobga olgan holda ushbu g‘oyani faqat kreativ qobiliyat doirasida quyidagi nazariy tavsiyalar orqali amalga oshirish mumkin:

1. O‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi uning integrativ sifati bo‘lib, u barcha tarkibiy komponentlar, xususiyatlar, bog‘lanishlar va munosabatlarning dialektik birligida namoyon bo‘ladi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligini shakllantirish tizimini pedagogik ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni ta’lim yangiliklarining subyektlari sifatida shakllantirishga qaratilgan umumiy pedagogik tayyorgarlikning quyi tizimi deb qarash mantiqan to‘g‘ri.

3. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni texnologik yondashuv sharoitida amalga oshirilsa samarali bo‘ladi.

4. Ijodiy yondashuvlar asosida pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasining konseptual asoslari o‘qituvchilarning kasbiy, pedagogik tayyorgarligiga innovatsion hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy qoidalari hisoblanadi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish texnologiyasi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida ularning umumiy pedagogik tayyorgarligi sharoitida kasbiy faoliyatning yaxlitligi, individual yondashuvi va bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Bunga boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion tayyorlashni individuallashtirish, undagi o‘zaro bog‘liq bosqichlar siklini ajratish, ularning har biri aniq maqsadga va mos mazmunga, ish usul va shakllariga ega bo‘lish orqali erishiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ta’lim jarayoniga maqbul integratsiyalashgan tizim vazifasini bajarishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikning subyektiv xarakteri, o‘qitish jarayonini individuallashtirish, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning tanqidiy, kreativ tafakkuri hamda dunyoqarashini, ijodiy kasbiy tafakkurini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda interfaol pedagogik texnologiyalardan qo‘llash orqali erishish mumkin.

Yangi ijtimoiy-madaniy tartibni qondirish uchun zamonaviy o‘qituvchi innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, mutaxassislarning

fikricha, innovatsion o‘quv faoliyati sub’ektlarini tayyorlashni tashkil etish tub o‘zgarishlar darajasiga qarab o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni ta’lim innovatsiyalarini joriy etishga tayyorlashning asosiy qoidalari maqsadli yondashuv asosida va ta’lim muassasasini innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni ta’lim yangiliklarini tanlashga tayyorlash va amaliyotga joriy qilish aniqlangan muammolarni hal etishga imkon beradi, ularning tanqidiy tafakkurini shakllantirishni ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarning o‘quv innovatsiyalarini joriy etish jarayonini quyidagicha rejalashtirish kerak:

– oliygohlarda ta’limni innovatsion rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;
– oliy ta’lim muassasasi amaliyotida o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etishning strategik rejasini ishlab chiqish;
– o‘qitish jarayonini amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

O‘qituvchi innovatsion faoliyatining an’anaviy faoliyatdan asosiy farqi har qanday, hatto kutilmagan vaziyatga tayyor bo‘lishi, moslasha olishi, talaba shaxsining salohiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishdadir. O‘qituvchining o‘quv faoliyatidagi yangiligi ma’lum innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash ma’nosini qanchalik tushunishi, ularni qo‘llashdan oldin izlanishi, to‘g‘ri tanlovni amalga oshirishi lozim.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan adabiyotlarda innovatsion faoliyatning quyidagi ko‘rsatkichlarini ta’kidlab o‘tish lozim:

– oliy ta’lim muassasasida ta’lim mazmunini, o‘qitish uslubiyotlari va shakllarini yangilash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, tahlil qilish va ularning faoliyatini baholash, hamkorlikda o‘qitish faoliyati va boshqalar;
– o‘quv jarayoni samaradorligini baholashda yakuniy natijalarning rejalashtirilganlarga mosligini taqqoslash. Amaliy ishlar innovatsion faoliyat mezonlari, ko‘rsatkichlarini baholash va o‘qituvchining innovatsion salohiyati uchun rag‘batni shakllantirishda eng katta qiyinchilikni namoyon etadi. Mezonlar hukm chiqarish vositasi bo‘lib, uning asosiga baho beriladigan xususiyatdir.

O‘qituvchining innovatsion faoliyatini baholash mezonlari ta’lim jarayoni samaradorligining muayyan sharti sifatida xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsiyalarni qo‘llash o‘qitish jarayonining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi davomida noan’anaviy vaziyatlar jarayonidagi muammolarni hal etish usuli sifatida qaraladi. Baholash mezonlari innovatsion o‘zgarishlarni tashkiliy darajadan mazmun darajasiga o‘tkazishga, ya’ni innovatsion

texnologiyalarga yangi sifatlarga ega bo‘lish, ularning mohiyatini o‘zgartirishga yordam beradi[1-13].

Innovatsion faoliyatni boshqarish bo‘yicha ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri o‘qituvchilarga alohida yo‘naltirilgan yordam ko‘rsatish va ijodiy ishlarni tashkil etishning tipik muammolarini hal etishda jamoalarga ko‘maklashish. Bu muammolar orasida asosiylarini aniqlab, ularni hal qilish yo‘llarini belgilab olish zarur. Odatda, innovatsiyalar yangicha mazmunga ega bo‘lgan g‘oya tug‘ilganda, an’anaviy muammoni yangicha hal etishga urinishlar natijasida, faktlar to‘plash va tushunish jarayonining uzoq davom etishi natijasida paydo bo‘ladi, uning ishtirokchilarini rag‘batlantirish va ijodiy pozitsiyasidan o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim jarayonida innovatsiyalar faoliyat reproduktiv va muammoli yo‘nalishga mos keladigan ikkita asosiy turga bo‘linadi:

1. Innovatsiyalar ta’lim jarayonini o‘zgartiruvchi, uning an’anaviy reproduktiv yo‘nalishi doirasida kafolatlangan natijalarga erishishga qaratilgan modernizatsiyalardir.

2. Ta’limda innovatsiyalar - jarayonni o‘zgartiruvchi, tadqiqot xususiyatini ta’minlashga, o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishga qaratilgan o‘zgarishlardir.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchining pedagogik faoliyatini amalga oshirish jarayonini samarali ta’minlash uchun o‘qituvchi-mutaxassis sifatida, o‘qituvchi-pedagog sifatida, o‘qituvchi-tadqiqotchi sifatida va nihoyat, o‘qituvchi-innovator sifatida kamida quyidagi ikki asosiy omilga tayanishi zarur:

1) O‘qituvchining innovatsion faoliyatga psixologik tayyorligi va refleksiv-analitik va faoliyatli-amaliy tartibdagi ko‘nikma va malakalarni egallaganligi.

2) Uzluksiz kasbiy o‘sishga intilishda mutaxassis-o‘qituvchi sifatida uni qo‘llab-quvvatlash vazifalariga kasbiy ta’limning barcha shakllarini qayta yo‘naltirish, o‘qituvchining muntazam malakasini oshirish.

O‘qituvchining o‘quv faoliyatida erishgan yutuqlari insonni sezilarli darajada rivojlantiruvchi omildir. Innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, muhim, yangi, e’tiborga loyiq narsalarni yaratish jarayonida o‘qituvchining o‘zi o‘sadi, chunki inson ijodiy faoliyat jarayonida o‘sishi eng muhim holat sanaladi.

Innovatsion pedagogik faoliyat tushunchasi o‘qish va ta’limni tashkil etishga yangicha yondashuv demakdir. Bu, birinchi navbatda, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro samarali hamkorlikning yangi usullaridan foydalanish, ko‘zlangan natijalarga erishishga olib keladi, innovatsion ta’lim yangi g‘oyalarni qidirish va qo‘llashni o‘z ichiga oladi, o‘qituvchi yangi usullarni ishlab chiqadi, amalga oshiradi hamda echimlarni mustaqil tanlaydi.

Bu o‘quvchilarni o‘z ustida ishlash, mustaqil o‘qib o‘rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo‘ladi. “Kreativlik” tushunchasi “ijod” tushunchasi bilan bog‘liq. Biroq, “kreativlik” tushunchasi tegishli lug‘atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O‘nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o‘ziga va na unga taalluqli bo‘lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to‘xtam mavjud emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma’no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko‘z o‘ngiga ma’lum bir narsani ixtirosi,chizmasi va hokazolar kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin har bir o‘quvchining o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va o‘zini-o‘zi namoyish eta olishi, bilimini o‘zlashtirib borishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq.

O‘quvchi kreativligining shakllanishi “ehtiyojlar”, yo‘nalishlar va “Men” kontsepsiya”laridan kelib chiqadi. O‘quvchining kreativlik qoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo‘lishi davr talabidir. O‘quvchining kreativlik faoliyati bu avvalo, qobilyat bilan bog‘liq degan umumiy xulosani shakllantiradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq ta’limi va oliy ta’lim tizimi o‘qituvchilari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqi. 2019.08.23.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi matni. http://uza.uz

3. Abdirasilov.S “Tasviriy san’at va o‘qitish metodikasi” Toshkent - “Fan va texnologiya” – 2012.

4. S.F.Abdirasilov, Boymetov.B, Tolipov.N. “Tasviriy san’at”- T.”Cho‘lpon” nashriyoti 2012.

5. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped. f. d…diss. – T., 2003. 280 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada kreativlik haqida tushinchalar berilgan bo‘lib, bo‘shlang‘ich sinf o‘quvchilarda kteativlikni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini takomillashtirish omil, tamoyil va vositalari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikirlash qobiliyatlarini nazorat qilish yo‘llari ko‘rsatilib o‘tilgan

РЕЗЮМЕ

В данной статье даны понятия о творчестве, а также даны рекомендации по развитию творческих способностей у учащихся младших классов. Показаны факторы, принципы и средства совершенствования навыков творческого мышления младших школьников, способы контроля навыков творческого мышления младших школьников.

SUMMARY

In this article, concepts about creativity are given, and recommendations are given for the development of creativity in primary school students. Factors, principles and means of improving creative thinking skills of primary school students, ways to control creative thinking skills of primary school students are shown.

TABIIY FANLARNI O`QITISHDA STEAM TEXNALOGIYASINING AHAMIYATI VA UNDAN FOYDALANISH

Pardayeva G.J.
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: STEAM texnologiyasi, Evristik ta'lim metodi, kreativlik sifatlari, fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math).

Ключевые слова: технология STEAM, эвристический метод обучения, творческие качества, наука, технология, инженерия, искусство, математика.

Key words: STEAM technology, Heuristic educational method, creativity qualities, Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics.

Kirish. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kreativ sifatlarini rivojlantirish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

STEAM ta'limi asosida o'qitish tabiiy va iqtisodiy fanlar yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan[2].

Tahlil va natijalar. Ta'lim, bir so'z bilan aytganda, mamlakatning kelajakdagi istiqbolini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, savodli qilishdir. Turli ilmiy tadqiqot metodlarini o'quv jarayonida qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, olingan bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini

shakllantiradi[3]. STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi.

U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida beshta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM ta'lim muhitida o'quvchilar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Shuning uchun, ular o'sib ulg'ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o'zgarishi bo'ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo'yicha bilimga tayanish etarli emas.

Amaliy qobiliyatga e'tibor berib, talabalar o'zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o'rganadi. Ushbu ko'nikmalar va bilimlar asosiy ta'lim vazifasini tashkil etadi, ya'ni bu butun ta'lim tizimi nimaga intilishini. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEAM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Boshlang'ich sinf o'quvchilarni ijodiy yondashuv asosida innovatsion faoliyatga yo'naltirish muammosining ayrim jihatlari rossiyalik tadqiqotchi-olimlar A. Boyko, A. Aleksyuk tomonidan, pedagogik faoliyatga tayyorlikning shaxsiy yondashuvi nazariy o'rganilishi, o'quvchilar iste'dodli yosh avlodini samarali tarbiyalashning integrativ sifatlari V. Bondar, S. Goncharenko, V.I.Yevdokimov, L. Kadchenko, V. Kovalev, A. Lipenko, O.R. Penkova, B.V.Shcherbina, Slastenin va boshqa bir qator olimlar ishlarida yoritilgan.

Biroq aytib o'tilgan ishlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning faqat muayyan masalalari ko'rib chiqiladi.

Ko'rib chiqilayotgan muammoning dolzarbligi asosida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatining nazariy hamda uslubiy tomonlari etarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, zamonaviy o'qitish tizimini takomillashtirish zarurati bilan bog'liq.

O'rganilayotgan muammoning murakkabligi va serqirraligini hisobga olgan holda ushbu g'oyani faqat kreativ qobiliyat doirasida quyidagi nazariy tavsiyalar orqali amalga oshirish mumkin:

1. O'quvchining innovatsion faoliyatga tayyorligi uning integrativ sifati bo'lib, u barcha tarkibiy komponentlar, xususiyatlar, bog'lanishlar va munosabatlarning dialektik birligida namoyon bo'ladi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorligini shakllantirish tizimini pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni ta’lim yangiliklarining subyektlari sifatida shakllantirishga qaratilgan umumiy pedagogik tayyorgarlikning quyi tizimi deb qarash mantiqan to‘g‘ri.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni texnologik yondashuv sharoitida amalga oshirilsa samarali bo‘ladi.

4. Ijodiy yondashuvlar asosida pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasining konseptual asoslari o‘quvchilarning kasbiy, pedagogik tayyorgarligiga innovatsion hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvning asosiy qoidalari hisoblanadi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorligini shakllantirish texnologiyasi pedagogika oliy o‘quv yurtlarida ularning umumiy pedagogik tayyorgarligi sharoitida kasbiy faoliyatning yaxlitligi, individual yondashuvi va bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi lozim. Bunga boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion tayyorlashni individuallashtirish, undagi o‘zaro bog‘liq bosqichlar siklini ajratish, ularning har biri aniq maqsadga va mos mazmunga, ish usul va shakllariga ega bo‘lish orqali erishiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ta’lim jarayoniga maqbul integratsiyalashgan tizim vazifasini bajarishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchi va talabalar o‘rtasidagi hamkorlikning subyektiv xarakteri, o‘qitish jarayonini individuallashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning tanqidiy, kreativ tafakkuri hamda dunyoqarashini, ijodiy kasbiy tafakkurini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish hamda interfaol pedagogik texnologiyalardan qo‘llash orqali erishish mumkin.

Yangi ijtimoiy-madaniy tartibni qondirish uchun zamonaviy o‘quvchi innovatsion faoliyatga tayyor bo‘lishi kerak. Shu bilan birga, mutaxassislarning fikricha, innovatsion o‘quv faoliyati sub’ektlarini tayyorlashni tashkil etish tub o‘zgarishlar darajasiga qarab o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni ta’lim innovatsiyalarini joriy etishga tayyorlashning asosiy qoidalari maqsadli yondashuv asosida va ta’lim muassasasini innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish usullarini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lsa, samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni ta’lim yangiliklarini tanlashga tayyorlash va amaliyotga joriy qilish aniqlangan muammolarni hal etishga imkon beradi, ularning tanqidiy tafakkurini shakllantirishni ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘quv innovatsiyalarini joriy etish jarayonini quyidagicha rejalashtirish kerak:

– oliygohlarda ta’limni innovatsion rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish;
– oliy ta’lim muassasasi amaliyotida o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini joriy etishning strategik rejasini ishlab chiqish;
– o‘qitish jarayonini amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

O‘quvchi innovatsion faoliyatining an’anaviy faoliyatdan asosiy farqi har qanday, hatto kutilmagan vaziyatga tayyor bo‘lishi, moslasha olishi, talaba shaxsining salohiyatini har tomonlama rivojlantirish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishdadir. O‘quvchining o‘quv faoliyatidagi yangiligi ma’lum innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash ma’nosini qanchalik tushunishi, ularni qo‘llashdan oldin izlanishi, to‘g‘ri tanlovni amalga oshirishi lozim.

Tadqiqot davomida tahlil qilingan adabiyotlarda innovatsion faoliyatning quyidagi ko‘rsatkichlarini ta’kidlab o‘tish lozim:

– oliy ta’lim muassasasida ta’lim mazmunini, o‘qitish uslubiyotlari va shakllarini yangilash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, tahlil qilish va ularning faoliyatini baholash, hamkorlikda o‘qitish faoliyati va boshqalar;
– o‘quv jarayoni samaradorligini baholashda yakuniy natijalarning rejalashtirilganlarga mosligini taqqoslash. Amaliy ishlar innovatsion faoliyat mezonlari, ko‘rsatkichlarini baholash va o‘quvchining innovatsion salohiyati uchun rag‘batni shakllantirishda eng katta qiyinchilikni namoyon etadi. Mezonlar hukm chiqarish vositasi bo‘lib, uning asosiga baho beriladigan xususiyatdir.

O‘quvchining innovatsion faoliyatini baholash mezonlari ta’lim jarayoni samaradorligining muayyan sharti sifatida xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsiyalarni qo‘llash o‘qitish jarayonining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi davomida noan’anaviy vaziyatlar jarayonidagi muammolarni hal etish usuli sifatida qaraladi. Baholash mezonlari innovatsion o‘zgarishlarni tashkiliy darajadan mazmun darajasiga o‘tkazishga, ya’ni innovatsion texnologiyalarga yangi sifatlarga ega bo‘lish, ularning mohiyatini o‘zgartirishga yordam beradi[.

Keyinchalik bu erda Art qo‘shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O‘quvchilar ushbu mavzular, aniqrog’i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, o‘quvchilar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi[4].

STEAM fan bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir. STEAM ta’limi deganda amaliy mashg‘ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash tushuniladi. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning

uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda.

Xulosa. STEAM ta'limi yo'nalishi va amaliy yondashuvni qo'llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta'lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. Uning asosiy g'oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya'ni, o'rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo'limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o'rganish tez o'zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, o'quvchilar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyani, ham qo'llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o'zlari "uqib oladilar".

Adabiyotlar:

1. Umumta'lim maktablarining milliy o'quv dasturi/ Tabiiy fanlar (SCIENCE).-T.: 2021.-53-b.

2. Muxtarova L.A., Pardayeva G. Steam texnologiyasini hayotga tadbiq etishda oila va maktab hamkorligi. "Oilaviy munosabatlar destruktsiyasining psixologik tadqiqi: muammo va yechimlar" Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Termiz: 2022 yil. 356-359 b.

3. Axmedova Z.R. Fizika fanini o'qitishda ilmiy tadqiqot metodlari va STEAM texnologiyasi «Science and Education» Scientific Journal August 2020 / Volume 1 Issue 5.

4. Tog'ayeva G.O., Xolmirzayev F.G., Tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun daftar. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent 2020 yil.

5. Jalgashevna, P. G., & Abdimannabovna, M. L. (2023). Pedagogical possibilities of teaching natural sciences based on steam technology. World Bulletin of Social Sciences, 21, 109-111.

РЕЗЮМЕ

Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasiming imkoniyatlari o'quvchilarning borliq haqidagi, atrof-olam haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni rivojlantirish, xalqaro texnologiyalarni xalq ta'limiga olib kirish takomillashmoqda. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda STEAM texnologiyasining ahamiyatiga bag'ishlangan.

РЕЗЮМЕ

Возможности технологии STEAM в начальном образовании помогают расширить знания учащихся о существовании и окружающей среде. Сегодня в нашей стране улучшается развитие непрерывного образования и внедрение международных технологий в народное образование. Данная статья посвящена важности технологии STEAM в преподавании предметов начального образования.

SUMMARY

The capabilities of STEAM technology in primary education help to increase students' knowledge about existence and the environment. Today, the development of continuous education and the introduction of international technologies into public education are improving in our country. This article is devoted to the importance of STEAM technology in teaching primary education subjects.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA EKOLOGIK TAFAKKURNI TAKOMILLASHTIRISH

Suyunov D.A.
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ekologik tafakkur, mutafakkir, ta’lim, shakl, metod, foydalanish, meros, manba, qadriyat, o‘qitish, tabiat, munosabat, tushuntirish ekologik tarbiya, o’quvchi, boshlang‘ich sinf.

Ключевые слова: экологическое мышление, мыслитель, образование, форма, метод, использование, наследие, ресурс, ценность, обучение, природа, отношение, объяснение экологическое образование, ученик, начальная школа.

Key words: ecological thinking, thinker, education, form, method, use, heritage, resource, value, teaching, nature, attitude, explanation environmental education, student, elementary school.

Kirish. Mamlakatimizda milliy qadriyatlar, boy madaniy merosga asoslangan milliy ma’naviyatning yuksalishiga alohida e’tibor qaratilib, unda yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalar orasida o‘quvchilarni globallashuv davrining eng muhum muammolaridan biri-ekologik xavfni bartaraf etishda kurashishga imkon beruvchi bilimlar bilan qurollantirish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya berishda O‘rta Osiyo mutafakkir- larining ekologik meroslaridan foydalanishda ikki muhim holat yuzaga keladi:

ular ekologik g‘oyalarni ifoda etuvchi milliy qadriyat namunalari bilan tanishadilar;

ularda atrof-muhit ekologik holatini yaxshilashga mas’uliyatli bo‘lish, tabiatni asrab-avaylash to‘g‘risidagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar.

Bu kabi harakatlar tabiatni asrab qolish, ekotizimning mavjudligini muhofaza qilish yo‘lidagi urinishlarning bir qismi ekanligini, uning katta qismi butun insoniyat e’tiborini ushbu muammoga qaratish, ularning birgalikda, o‘zaro hamjihatlilikda tabiatni muhofaza qilishga undash ekanligini kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga tushuntirish kutilgan natijalarni beradi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ong, ekologik tafakkur va ekologik madaniyatni shakllantirishda xulq-atvor sifatlarining

shakllanishi va mustahkamlanishida muhim o‘rin tutuvchi boshlang‘ich ta’lim muayyan imkoniyatlarga ega. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari bilan tanishtirishga e’tiborning qaratilishi ijobiy natijalarni beradi. O‘quvchilar ongida O‘rta Osiyo buyuk mutafakkirlarining ekologik meroslariga asoslangan bilimlarni hosil qilish ularda atrof-muhitga, tabiatga mas’uliyatli munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik ta’lim-tarbiya umummilliy ahamiyat kasb etuvchi muammo bo‘lib, uning yechimi masalaga ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yondashish hamda samarali yo‘llarning belgilanishiga bog‘liq. Shu sababli umumta’lim maktablarida ham o‘quvchilarga ekologik bilimlarni tizimli, uzluksiz berib borilishini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

Shu bois bugungi kunga qadar ekologik barqarorlikni ta’minlash, tabiatni asrash, atrof-muhit musaffoligini saqlab qolish yo‘lida tabiiy fanlar yo‘nalishlarida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi va ularda ijobiy natijalarga erishildi. Tashqi olamni o‘rganish, tabiat sirlarini bilishda tabiiy fanlarning roli beqiyos.

Umumiy ekologik xavfni bartaraf etishda sub’ekt tomonidan atrof- muhit va tabiatga ko‘rsatiladigan ta’sir muhim ahamiyatga ega. Ana shu ta’sirning ijobiy xususiyat kasb etishi esa aholi, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida ekologik bilimlarni targ‘ib qilish, ularda ekologik tafakkurni shakllantirish, ekologik madaniyatni tarbiyalashni taqozo etadi.

Tabiat va jamiyatda sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarning, ular orasidagi aloqalarning bir-biriga bog‘liq holda rivojlanishini tabiiy fanlar integratsiyasi asosida tushuntirish o‘quvchilar shaxsida organik olam haqida yaxlit bilimlar tizimini tarkib toptiradi va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

Tadqiqot ishining o‘ziga xos jihati boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosidan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashdan iborat. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari tadqiqot ishi uchun muhim metodologik asos bulib, falsafa, pedagogika va sotsiologiya yo‘nalishlarida ular tomonidan qoldirilgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosning qay darajada o‘rganilganligi masalasi ham e’tiborga moliqdir.

O‘rta Osiyo mutafakkirlari va ular tomonidan qoldirilgan boy ma’naviy-ma’rifiy meros turli fan sohalari bo‘yicha quyidagi asosiy yo‘nalishlarda o‘rganilganligiga ishonch hosil qilishdir Jumladan:

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining falsafiy qarashlari-moddiy borliq, ob’ekt va sub’ekt munosabatlari, ijtimoiy jamiyatning bazasi va ijtimoiy qonuniyatlari hamda ularning kishilik taraqqiyotiga ta’sirini yorituvchi g‘oyalar;

mutafakkirlarning huquqiy g‘oyalari-davlat, uning turlari va shakllanish tarixi, davlat va fuqaro o‘rtasidagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mazmuni, ular asosida tashkil etuvchi surishtiruv va sudlov ishlari, shaxs haq-huquqi masalalari bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyalari;

mutafakkirlarning ma’rifiy-ilmiy qarashlari, ilmiy bilimlar tizimining shakllanishi, fanlar tasnifining asoslanishi, bilimning shaxs kamolotini ta’minlashdagi o‘rni, shaxsga ijobiy sifatlarni tarbiyalashdagi roli, madaniy-ma’naviy taraqqiyotning asosi ekanligini isbotlovchi nazariyalar;

O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ma’naviy-axloqiy qarashlari- ma’naviy-axloqiy sifatlar, ularga ega bo‘lishning o‘ziga xos jihatlari, shaxsning ma’naviy-axloqiy qiyofasining shakllanishiga ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ta’siri, ma’naviy-axloqiy sifatlarga egalikning inson kamolotini belgilovchi mezon ekanligini tasdiqlovchi fikrlari;

mutafakkirlarning psixologik nazariyalari-shaxs, uning ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish sababchisi, asosiy sub’ekti va ob’ekti ekanligi, unga xos bo‘lgan etno-psixologik xususiyatlari, ularning psixologik qonuniyatlar negizida kechishi, shaxslararo munosabatlar mazmuni va boshqalar borasidagi ilmiy farazlari;

mutafakkirlarning pedagogik qarashlari-shaxs, uning fiziologik, jismoniy va ruhiy kamoloti birligi, individning shaxs sifatida shakillanishini ta’minlovchi omillar, shaxs kamolotida ta’lim-tarbiyaning o‘rni ta’limiy hamda tarbiyaviy jarayon mohiyati ijtimoiy pedagogik qonuniyatlar o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatlari mazmuni, pedagogik ta’sir natijasi to‘g‘risidagi ilmiy asoslarni o‘rganishdan iborat.

Mazkur jarayon ekologik bilimlarning uzoq yillik tarixga egaligidan dalolat berib, asrlar davomida ajdodlarimizning bu boradagi ma’naviy merosi avlodlar uchun qo‘llanma bo‘lib kelganligini ko‘rsatadi. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining ekologik qarashlari atrof-muhit holatining yomonlashuvi keskinlashgan bugungi sharoitda ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqod ishida ularning boy ma’naviy merosi bilan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanishtirish ilmiy izlanish yo‘nalishi sifatida tanlandi.

Sharq uyg‘onish davrining yetuk mutafakkirlaridan biri Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy riyoziyot, geografiya, tarix faniga oid asarlar yozish bilan birga, yer meridiani yoyining bir gradus uzunligini o‘lchash ishlariga rahbarlik qilgan. Mutafakkir tomonidan 20 dan ortiq ilmiy asarlar yaratilgan bo‘lib ularning aksariyatida atrof-muhitning ekologik holati va insonlarning unga nisbatan munosabatlari yoritilgan. Jumladan, mutafakkirning “Hind hisobi”, “Er surati”, “Tarix kitobi”, “Astronomik jadvallar”, “Quyosh soati to‘g‘risida”, “Usturlob

qurish haqida kitob" haqida risola" va boshqa asarlarida ekologik g'oyalar o'z ifodasini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy tomonidan 847-yilda yaratilgan "Kitob surat il-ard" ("Yerning surati") asarida yer sharining quruqlik va suvli hududlari, qit'alar, okeanlar, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, shuningdek, ko'pgina tabiiy zahiralar, mamlakatlar va u yerdagi xalqlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Asarda bir necha izohlar, xaritalar mavjud bo'lib, Orol dengizining tasviri ham berilgan. Asarda bundan tashqari 637 ta muhim joylar, 209 ta tog'ning geografik tafsilotlari o'z aksini topgan. Alloma tomonidan daryo suvlari qurib, ifloslanib, inson boshiga turli falokatlar yog'ishi mumkinligi ta'kidlangan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga Muhammad al-Xorazmiyning yer maydonini hisobga olish muammolari, ularni yechish yo'llari hamda yerdan unumli foydalanish borasidagi qarashlari haqida ma'lumotlarni berib borish maqsadida muvofiqdir. Shuningdek, tabiiy fanlarni o'qitishda alloma shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardan iborat 2402 ta geografik ob'ektlarning nomlari qayd etilganligini aytib o'tish lozim.

Islom madaniyatida o'ziga xos o'rin tutuvchi buyuk alloma Imom Ismoil al-Buxoriyning boy madaniy merosi bugungi kunda ham amaliy ahamiyatga ega. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan: "Imom al-Buxoriy nafaqat o'zbek xalqi, balki butun musulmon olamining faxr-iftixoridir. Ul tabarruk zotning hayoti tom ma'nodagi ilmiy va insoniy jasorat, bukilmas iroda, so'nmas e'tiqod timsolidir" deb ta'kidlagan edi.

Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-jome' as-sahih" kitobi boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda mumim ahamiyat kasb etadi. Agar tom ma'noda insonga xos ijobiy sifatlar-halollik, poklik, rostgo'ylik singari fazilatlar, o'quvchi yoshlarda shakllantirish masalalari yoritilgan bo'lib, unda ilgari surilgan g'oyalar insonni ezgulikka, savob ishlarni amalga oshirishga, o'zidan yaxshi nom qoldirishga undaydi.

Allomaning "Al-adab al-mufrat" ("Adab durdonalari") asarida inson ekologiyasiga oid masalalari ham batafsil tahlil etilgan. Jumladan, asarda "Farzand, bir tog' ikkinchi tog'ga zulm qilsa, bu zulm qiluvchi tog' albatta mayda-mayda qilib yuboriladi. Ya'ni, zulm shunday yomon xulqki, u aslo kechirilmaydi. Bu insonlar uchungina emas, hatto tog' kabi jamodat (jonsiz jism)lar bir-biriga hujum qilsa, albatta o'chini olib beriladi" , "Qaysi bir musulmon biror daraxt yoxud biror ekin eksa-yu, uning hosilidan inson, qush yoki hayvon yesa, buning uchun unga ajru savob ato etilur" - deya ta'kidlanadi.

Ulug' alloma Imom Iso at-Termiziy asarlarida ham ekologik ta'lim-tarbiya masalalari yoritilgan. Uning "Sunnan" ("Hadislar to'plami"), "Nuqsonlar kitobi", "Tarix kitobi", "Payg'ambarning axloq - odob, sayru suluklari haqida

kitob”, “Ismlar va laqablar haqida kitob”, “Zohidlik haqida kitob” kabi asarlari juda mashhurdir.

Imom Iso at-Termiziy o‘z asarlarida tabiatni muhofaza qilish, tirik jonzotlar, o‘simlik va dov-daraxtlarni asrab-avaylash, atrof-muhitning tabiiy go‘zalligini saqlash lozimligini uqtiradi. Bu kabi qarashlar allomaning “Sunnan” asarida keltirilgan bo‘lib quyidagi hadislar mazmunida yaqqol aks etadi. Ya’ni: “Erda halal berib yotgan biror tosh, tikanak yoki suyakni bir chekkaga olib qo‘yishing ham-sadaqa”; “Chelagingdagi suvdan boshqalarning idishlariga solib berishing ham sadaqa hisoblanadi”; “Birodaringni yuziga kulib boqishing sen uchun sadaqadur”; “Odamlarga hayrixohliging sening sadaqangdur”: “Kishilarni xayrli va yaxshi ishlar qilishiga da’vat etishing va zulumdan qaytarishing sening sadaqangdir”. Ta’kidlanganidek, mazkur hadislarida inson ekologiyasining sharqona jihatlari ifoda etilgan.

Mashhur alloma Ahmad ibn Muhammad al-Farg‘oniyning “Falakda bo‘ladigan sabablar haqida kitob,” “Astronomiya ilmining usullari haqida kitob”, “Usturlobni yasash haqidagi kitob”, “Al-Farg‘oniy jadvallari” “Etti iqlim hisobi”, “Falakiyot” hamda “Quyosh soatini yasash haqida kitob” kabi asarlarida yoritilgan ekologik qarashlar asrlar davomida o‘zining muhim ilmiy ahamiyatini yo‘qotmay kelmoqda. Allomaning “Oy yerning ustida va ostida bo‘lganida vaqtni aniqlash risolasi”, “Astronomiya elementlari”, “Astronomiya asoslari haqida kitob” kabi ilmiy asarlarida esa tabiat hodisalari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, qit’alar, joylarning iqlimi, sahro, tog‘, daryo va shaharlarning joylashuviga oid muhim dalillar keltirilgan.

Ahmad al-Farg‘oniy oy va quyosh tutilishini chuqur o‘rganish bilan birga 1022 ta yulduz holatini o‘lchashga muvaffaq bo‘lgan hamda yerning sharsimonligini ilmiy jihatdan isbotlagan. Allomaning tabiiy bilimlar rivojiga qo‘shgan xizmatlaridan yana biri dengiz va sahrolarda, yulduzlar harakatini o‘lchashda foydalanuvchi asboblarni yaratgan. Shuningdek, Abu Nasr Farobiyning quyosh soatini ixtiro etganligi ham o‘quvchilar uchun qiziqarlidir.

Ahmad al-Farg‘oniyning ekologiyaga oid meroslari umumbashariy ahamiyatga ega. Jumladan, “Farg‘oniyning astronomiya fani rivojidagi nufuzi shu qadar katta ediki, allomaning nomi yer kurrasidagina emas, samoda ham abadiy shuhrat topdi”. XVI asrdayoq oydagi kraterlardan biriga uning nomi berilganligi to‘g‘risida atoqli astranom Yan Geveliyning 1647 yilda nashr etilgan “Selenografiya” kitobida ma’lumot berilgan.

O‘rta asrlarda yashagan Abu Nasr Farobiy tomonidan yaratilgan asarlarning aksariyatida yoritilgan ekologik g‘oyalar umuminsoniy xarakterga ega. Manbalarda ko‘rsatilishicha, alloma tomonidan 160 ta ilmiy asar yaratilgan bo‘lib, ularni bitta nortuya zo‘rg‘a ko‘tara olgan. Allomaning fikricha, inson Olloh

yaratgan mavjudotlar orasida eng buyuk va yetukdur. U o‘zining ongi, aqli, sezgi a’zolari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga ega. Aql yordamida inson o‘zini o‘rab olgan mavjud olamning mohiyatini bilishga qodirdir. Inson tomonidan olam va uning mavjudligi asoslarini bilishda ilm-fan hal etuvchi omil hisoblanadi.

Buyuk alloma o‘zining “Kitob al-mabodi al-insonino” (“Insoniyat hayotining boshlanishi haqida kitob”), (“Hayvon a’zolari haqida so‘z (kitob)” nomli asarlarida odam va ayrim hayvonlarning anatomik tuzilishi, organlarning xususiyatlari, ular o‘rtasidagi umumiylik hamda farqlarini izohlaydi, olamning turli-tumanligini ta’kidlab, ularning yer, havo, suv, olovdan paydo bo‘lganligini va o‘zaro bog‘liqligini qayd etadi.

Abu Nasr Farobiyning insoniyat tomonidan tabiatga ko‘rsatayotgan ta’sirining doimiylik kasb etishi, tabiiy va sun’iy tanlanish muammosini atroflicha baholash zarurligi haqidagi fikrlari e’tibor molikdir. Olimning nuqtai nazariga ko‘ra, borliqdagi mavjud narsalar abadiy emas, ya’ni, “Ular abadiy (boqiy) bo‘la olmaydilar chunki ular havo, suv, tuproq va olovga bo‘linadi, birlari boshqasiga aylanadilar, balki har bir unsur boshqasida mavjuddir. Misol tariqasida hayvonot dunyosini oladi, u to‘rt unsurdan biridir.

Ulug‘ mutafakkir al-Farobiyning uqtirishicha, aql faqat insongagina xos bo‘lgan tug‘ma quvvat-ruhiy kuch bilan bog‘liqdir. Inson tug‘ilgan kunidanoq tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o‘ylab topish, fikrlash quvvatiga ega bo‘ladi va bu xususiyatlar bolaning o‘sib kamolga yeta borishi bilan rivojlanib boradi[8].

Shuningdek, alloma al-Farobiy gumanitar yo‘nalishdagi fanlarni o‘rganishda va o‘rgatishda katta yutuqlarga erishgan bo‘lib, bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo‘yicha bir qator tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi nazariyotchi bo‘lish uchun nazariya qaysi fanga taallukli bo‘lsada, quyidagi uchta shartga rioya qilish shart:

1. Mazkur fan kelib chiqishidagi barcha tamoyillarni to‘liq bilish;

2. Mana shu tamoyillardan va mazkur fanga doir ma’lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish;

3. Noto‘g‘ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg‘ondan farqlash, xatolarni to‘g‘rilash uchun boshka mualliflarning fikrlarini tahlil qila bilish.

Al-Farobiy bilim berishda va o‘qitishda o‘zining ana shu tamoyillariga amal qilgan.

Alloma asarlarida ilgari surilgan ekologik qarashlar negizida tarbiyalanganlik darajasiga bog‘liqdir, degan g‘oya yotadi. Ushbu g‘oyaga tayangan holda aytish mumkinki, tabiat sirlarini o‘rganib, atrof- muhitga nisbatan ongli munosabatga bo‘lish insoniylikning eng oliy sifatidir. Ekologik bilimlar rivojiga

o‘zining munosib hissasini qo‘shgan mutafakkirlardan yana biri Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi. Mutafakkir tomonidan 152 ta asar yaratilgan bo‘lib, ularda tabiiy muhitdagi dialetik rivojlanishning ilmiy asoslari yaratilgan.

Mutafakkirning asarlarida insonlar tomonidan o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan ekologik bilimlar, jumladan, o‘simlik va hayvonlarning biologik xususiyatlari, ularning tarqalishi hamda tabiatdagi ahamiyatiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “ Hindiston”, “Saydana”, “Metereologiya” kabi asarlari Abu Rayhon Beruniyning jahonga mashhur asarlari sanaladi. Ularda yosh avlod uchun o‘ta muhim bo‘lgan o‘simlik va hayvonlarning tuzilishi, ularning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasi haqida qiziqarli ma’lumotlarni keltirgan. Shuningdek, mutafakkirning asarlarida turli tropik o‘simliklar va hayvonlar to‘g‘risida ma’lumotlarning keltirilishi nabotot va hayvonot olamining tashqi muhit bilan aloqasini, yil fasllari almashuvining o‘simlik va hayvonot olamiga ta’sirini yoritishga xizmat qilgan.

Uzoq yillik ilmiy kuzatishlari va tajribalariga tayangan holda Abu Rayhon Beruniy tabiatdagi hodisalar asosida boshqariladi degan xulosaga keladi, ularga tashqaridan ta’sir etuvchi har qanday kuch ularni o‘zgartirish qobiliyatiga ega emas. Bunday holatning ro‘y berishi esa ekologik buzilishga olib keladi.

Allomaning bu boradagi yondashuvi uning quyidagi qarashlarida yanada rivojlantirilgan: “Yerda hayvon va o‘simliklarning yashashi uchun zarur imkoniyatlar cheklangan bo‘lsa ham, ular cheksiz ko‘payishga intiladilar va shu maqsadda kurashadilar. O‘simlik va hayvonlarning nasl qoldirishi bilan olam to‘lib-boyib boraveradi. Agar o‘simliklardan yoki jonivorlardan biror xilining o‘sishiga sharoit bo‘lmay, o‘sishdan to‘xtasa ham boshqalarida bu ahvol sodir bo‘lavermaydi. Bu fikrlarda dialektik rivojlanish qonunlarining falsafiy bayoni o‘z ifodasini topgan.

Mutafakkir insonni tabiatning bir qismi deb hisoblash bilan birga ularning turli irqqa mansubliklarini quyidagicha izohlaydi: (odamlar) tuzilishlarining rang, surat, tabiat axloqda turlicha bo‘lishi faqatgina nasablarning turliligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, (odam) yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir.

Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida tabiatga oid fikrlarini bayon qilish bilan birga insonning atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi lozimligini ham ta’kidlab, insonlarning tabiatga munosabatida o‘ziga xos madaniyatli yondashishlarini targ‘ib qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning e’tiborini quyidagilarga qaratish pedagogik jihatdan to‘g‘ri sanaladi. Jumladan, tabiat hodisalarini tushuntirganda, tabiatning o‘zidan kelib chiqish kerak va uning o‘zida bo‘lgan qonuniyatga, dalil va tajribalarga asoslanishi lozim, “Biror

narsani o‘rganishni mazkur narsa (fan)ni tashkil etib turgan element (unsur)larni o‘rganishdan boshlash zarur”, “Narsa (fan)ni o‘rgangan paytda fikrlash zarur (sezgi a’zolaridan qo‘llanma sifatida foydalanish kerak)”.

Abu Rayhon Beruniyning tabiiy fanlarga oid bilimlarini o‘zida mujassamlashtirgan asarlaridan yana biri “Hindiston” asaridir. Asarda allomaning 30 yillik kuzatishlarining samarasi bo‘lgan bilimlar yaratilgan bo‘lib, unda hind hayotining turli tomonlari, urf - odatlari, aqliy va ma’naviy xususiyatlari, jon va uning moddaga munosabati, diniy qonun-qoidalar, payg‘ambarlar va shariatlar haqida batafsil ma’lumotlar beradi.

Shuningdek, inson ekologiyasi mohiyatini yorituvchi muhim jihatlari-muqaddas joylarni ziyorat qilish, xarom va halol hisoblanadigan ovqat va ichimliklar, nikoh, meros bo‘lish qonun-qoidalari, da’volarni hal qilish yo‘llari, ulug‘ ayyomlar, yaxshi va yomon amallar va hakozo muammolar haqidagi ma’lumotlarga keng o‘rin ajratilgan.

O‘quvchilarda ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirishda Abu Ali ibn Sino asarlarining ahamiyati katta. Alloma tomonidan yaratilgan asarlarning soni 450 dan ortiq bo‘lib, ularning 80 dan ortig‘i tabiat va insonning unga bo‘lgan munosabati masalasiga bag‘ishlangan. Abu Ali ibn Sinoning tog‘larning paydo bo‘lishi, yer yuzasidagi tabiiy jarayonlarning davrlar o‘tishi bilan o‘zgarishiga oid g‘oyalari tabiiy fanlarning rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Tashqi muhitning kishi organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri, inson salomatligini saqlash, parxez, shaxsiy gigiena to‘g‘risidagi masalalar esa alloma tomonida yaratilgan “Tib qonunlari” asarining bosh g‘oyalari sanaladi. Allomaning inson tanasida kasalliklarni keltirib chiqaruvchi omillardan biri suv, yer va havoda mo‘tadillikning buzilishi bilan bog‘liqligi, yashash joylarining torligi, ozoda bo‘lmasligi, yuqumli (chechak, vabo isitmasi, yiring,toshma kabi) kasalliklarning tez tarqalishi uchun qulay sharoit yaratishi yuqumli kasalliklarning aholi zich joylashgan joylarda havo va boshqa omillar orqali yuqishiga doir o‘gitlari bugungi kunda ham muhim ijtimoiy-tibbiy ahamiyatga egadir.

Mutafakkirning “Agar havoda chang va g‘ubor bo‘lmaganida edi, inson ming yil umr ko‘rgan bo‘lar edi” degan mashhur iborasi esa o‘quvchilarda havoni ifloslantirmaslik, atrof-muhitni ozoda saqlash va tabiatga ziyon yetkazmaslik ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Allomaning fikricha, inson tabiatdan moddiy hayot manbalarini o‘zlashtiribgina qolmay, balki ruhiy va jismoniy quvvat ham oladi. Shuningdek, u ayrim kasalliklarni davolashda tabiiy manbalar, xususan, qum, tuproq, suv va o‘simliklardan foydalanish zarurligini uqtirib, qimmatli tavsiyalar beradi.

Abu Ali ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida bir qator kasalliklardan davolash yo‘llarini ko‘rsatibgina qolmay, balki jismoniy tarbiyaning salomatlikni

muhofaza qilishdagi ahamiyatini ham asoslab bergan. Shuningdek, Abu Ali ibn Sino jismoniy tarbiyaning turli ko‘rinishlari va ulardan qanday foydalanish kerakligini ham ko‘rsatib bergan.

Alloma o‘quvchilarning badan tarbiya bilan shug‘ullanishlari uchun qulay bo‘lgan vaqtlarni ham tavsiflagan. Chunonchi, badan tarbiya uchun bahor faslida tushga yaqin vaqt qulay bo‘lib, mashq o‘rtacha haroratli uyda bajarilishi, yozda ertalab, qishda esa kechqurun jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish maqsadga muvofiqdir. Mutafakkirning fikricha, badan tarbiyasi bilan shug‘ullanishda yana quyidagi shartlarga ham rioya qilish zarur: qishda uyni o‘rtacha haroratda isitish, mashqlarni ovqat hazm bo‘lgach amalga oshirish tabiiy jihatdan to‘g‘ri sanaladi.

Mutafakkir o‘quvchilar tomonidan badan tarbiya bajarilayotgan quyidagi ikki holatga alohida e’tobor berish zarurligini ta’kidlaydi:

1. Terining rangiga-agar u yaxshilana borsa, mashqlardan davom ettirish mumkin, agar ter chiqa boshlasa, harakatni to‘xtatish lozim.

2. A’zolarning holatiga-agar ularning ko‘pchishi davom etsa, mashqni davom ettirish mumkin, agar ko‘rsatilgan belgilar yo‘qola borsa, mashqni darhol to‘xtatish kerak.

Ulug‘ alloma Abu Ali ibn Sinoning jismoniy tarbiya samarali va uzluksiz tashkil etishga oid tavsiyalari bilan o‘quvchilar, shu jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanishtirish va ularda jismoniy faollik, jismoniy tarbiya ko‘nikmalarini shakllantirish ularning har tomonlama yetuk bo‘lib voyaga yetishlariga yordam beradi.

Alloma dunyoning tuzilishi va insonlarning undagi o‘rniga baho berar ekan, inson dunyodagi eng oliy mavjudot ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shoir ruboiylarida inson tabiatning bir bo‘lagi, ajralmas unsuri ekanligiga e’tibor qaratilib, uni muhofaza qilish, eng avvalo, insoniyatning yashovchanligini ta’minlash shart ekanligini uqtiradi.

Xulosa. Demak, O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy tarixiy-madaniy merosini o‘rganish ularning asarlarida ekologiyaga oid qarashlarning ham yoritilganligidan dalolat beradi. Ularning ekologiyaga oid qarashlari mohiyatiga ko‘ra tabiatning insoniyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishdagi ahamiyati, insonning tabiatga, shuningdek, atrof-muhitga munosabati, muhim geografik obyektlar, ularning xususiyatlari, atrof-muhitning ular yashab o‘tgan davrlardagi holati va boshqa masalalar tarkib topgan bo‘lib, asrlar davomida avlodlar uchun muhim yo‘riqnoma sifatida xizmat qilib kelgan.

Adabiyotlar:

1. Арапбаева Д.К. Шарқ мутафаккирларининг фарзанд тарбияси ҳақидаги фикрлари.Оила ва мактаб. 2015.

2. Андуманнопов А.М. Алишер Навоий мероси асосида бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий тушунчаларини шакллантириш (“Ҳайрат ул -аброр” достони мақолотлари мисолида): Пед. фанл. номз. … дисс. автореф. - Т.:Фан, 2004.-21 б.

3. Арапбаева Д.К. Шарқ мутафаккирларининг фарзанд тарбияси ҳақидаги фикрлари.Оила ва мактаб. 2015.

4. Баҳодиров О. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, аллома, адиблар). -Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1999, - 392 б.

5. Валиев З. Ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантиришда экологик тарбия // Узлуксиз таълим тарбия муаммолари.-Т.: Низомий номидаги ТДПИ, 1993.- 27-31 б.

6. Носиров К.Ж. IX-X асрларда Марказий Осиё мутафаккирларининг ахлоқий тарбия ҳақидаги ғоялари. (Ал-Бухорий ва ал-Фарғоний асарлари мисолида): Пед. фан. номз. …дисс. - Т.: 2004.- 167 б.

7. Норбутаев Х.Б. Развитие экологического мышления у школьников при изучение учебных материалов по биологии. Научный журнал о гуманитарных науках. «Гуманитарных трактат». Россия (Кемерово).-№24. 2018. С. -15-17.

8. Suyunov D.A. Improving the use of the heritage of central asian thinkers in forming ecological thinking in primary school students. Web of Scientist: International Scientific Research Journal ISSN: 2776-0979 Impact Factor: 7.565 volume 3, issue 3, March - 2022 -P.159-165.

9. Suyunov D.A. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida ekologik tafakkurni shakllantirish vositalari // Science and innovation. International scientific journal// 2022 №5 -P.43-47.

10. Турдиқулов Э.О., Турдиқулов У.О. Марказий Осиёда экологик таълим тараққиёти . -Т.: Фан, 2005, - 309 б.

11. Хайруллаев М.М. Буюк сиймолар: Марказий Осиёдаги машҳур мутафаккир ва донишмандлар. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1996, - 120 б.

REZYUME

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik tafakkurni takomillashtirish, tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilar ekologik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash, o‘quvchilarda ekologik tafakkurni takomillashtirish, o‘quvchilarning faktlarni tahlil qilishlari, hodisa va jarayonlarni o‘rganishda bog‘lanishlar mexanizimini yaratish, tabiiy fanlar bo‘yicha avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yangi vaziyatlarda qo‘llashi orqali o‘quv materialini ongli o‘zlashtirish, tabiiy fanlar ta’lim mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o‘rganuvchi turli o‘quv fanlariga oid bilimlar uzviyligini zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье совершенствование экологического мышления при преподавании естественных наук в начальных классах, выявление возможностей развития экологического мышления учащихся при преподавании естествознания, совершенствование экологического мышления учащихся, анализ В данной статье рассматриваются факты студентами, изучение явлений и процессов. Создание механизма общения, сознательное усвоение учебного материала путем применения ранее полученных знаний, умений, умений и компетенций по естественным наукам в новых ситуациях, содержание естественнонаучного образования и проблемы взаимоотношений человека и природы. Описана интеграция знаний учащегося по различным учебным предметам с использованием современных образовательных технологий.

SUMMARY

In this article, the improvement of ecological thinking in the teaching of natural sciences in elementary grades, the identification of opportunities for the development of the ecological thinking of students in the teaching of natural sciences, the improvement of the ecological thinking of students, the analysis of facts by students, the study of phenomena and processes are discussed in this article. creation of a mechanism of communication, conscious assimilation of educational material by applying the previously acquired knowledge, skills, competences and competences in natural sciences in new situations, the content of natural sciences education and problems related to the relationship between man and nature The integration of the learner’s knowledge of various academic subjects is described using modern educational technologies.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISH SAVODXONLIGI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Saidaxmadova N.S.
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: o‘qish savodxonligi, PIRLS, kitobxonlik, to‘g‘ri va ifodali o‘qish, nutq madaniyati, mustaqil fikrlash, grammatik savodxonlik.

Ключевые слова: читательская грамотность, PIRLS, чтение, правильное и выразительное чтение, культура речи, самостоятельное мышление, грамматическая грамотность.

Key words: reading literacy, PIRLS, reading, correct and expressive reading, speech culture, independent thinking, grammatical literacy.

Kirish. Yoshlarni komil insonlar qilib voyaga yetkazish jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi muhim vazifalardan biridir. Shu o‘rinda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir”[1] degan fikrlarini keltirmoqchiman. Darhaqiqat, bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda o‘quvchilar uchun informatsion savodxonlik ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi[2].

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq.

Tahlil va natija. O‘qish savodxonligi fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo‘lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo‘ladi.

Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan.

Ahamiyatli tomoni endi o‘qituvchilar uchun “O‘qituvchi kitobi”, o‘quvchilar uchun esa “Mashq daftari” ham bo‘ladi. Eski darsliklar til strukturasini o‘rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko‘ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg‘u berilgan. Ya’ni asosiy e’tibor so‘z, uning ma’nolari, o‘rindoshlari, qo‘llanish o‘rinlari, lug‘at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o‘rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo‘lishidan ko‘ra, didaktik ahamiyatiga urg‘u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she’rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo‘lgan so‘zlar darslikning orqa qismida maxsus lug‘atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo‘lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishni boshlagan bola ma’lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o‘quvchilarning eng og‘riqli muammosi bo‘lgan og‘zaki javob beriladigan, o‘gzaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she’rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

Ushbu nuqtayi nazar o‘quvchilarning o‘qishdan olingan ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan

o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

Savodxonlik so‘zi o‘quvchilarning kelajakda o‘z rejalarini amalga oshirishda, ya’ni bilim olishni davom ettirish, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rish, ijtimoiy hayot va mehnatda ishtirok etishda asosiy vositasi sifatida savodxonlarcha o‘qish ko‘nikmasini egallashdagi muvaffaqiyatini anglatadi[4].

O‘qish savodxonligi fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo‘lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo‘ladi.

Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan.

Ahamiyatli tomoni endi o‘qituvchilar uchun “O‘qituvchi kitobi”, o‘quvchilar uchun esa “Mashq daftari” ham bo‘ladi. Eski darsliklar til strukturasini o‘rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko‘ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg‘u berilgan. Ya’ni asosiy e’tibor so‘z, uning ma’nolari, o‘rindoshlari, qo‘llanish o‘rinlari, lug‘at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o‘rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo‘lishidan ko‘ra, didaktik ahamiyatiga urg‘u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she’rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo‘lishi mumkin bo‘lgan so‘zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo‘lgan so‘zlar darslikning orqa qismida maxsus lug‘atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo‘lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishni boshlagan bola ma’lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o‘quvchilarning eng og‘riqli muammosi bo‘lgan og‘zaki javob beriladigan, o‘gzaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she’rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to‘ldiradigan, o‘zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma’lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og‘zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta’lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so‘z qo‘llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Boshlang’ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog’lanishi haqidagi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o‘zbek tilining to‘g’ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o‘quvchilar nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang’ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘quvchilarni ongli, to‘g’ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning mazmuni va metodlari o‘quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko‘nikma va malakalar hosil qilishga ko‘maklashishi lozim.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to‘ldiradigan, o‘zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma’lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og‘zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta’lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so‘z qo‘llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Boshlang‘ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o‘quvchilar nutqini o‘stirishga xizmat qiladi.

Umumiy o‘rta ta’limning boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi fani o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan birga ularda

kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning mazmuni va metodlari o‘quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko‘nikma va malakalar hosil qilishga ko‘maklashishi lozim.

Maktabni bitirib chiqqan yoshlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang - barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o‘zbek tilidan bemalol - erkin, samarali va to‘g‘ri foydalana olish, uning cheksiz imkoniyatlaridan to‘laqonli bahramand bo‘lish, zaruriy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari kerak.

Xulosa. O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish lozim. Shuning uchun o‘quv dasturi va u asosida yaratiladigan darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechish, ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg‘ulotlarni o‘quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga qaratish maqsad qilib olindi[3].

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishning maqsadi - o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 -yil 8-dekabrdagi 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

A. SH.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” T., 2017 yil, 106 bet.

3. tadqiqotlarda boshlang’ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, Toshkent – 2019 yil, 92-bet.

4. Umumta’lim maktablarining milliy o‘quv dasturi/ Ona tili.-T.: 2021.-170-b.

5. Normatova, D., & Muxtarova, L. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish. Interpretation and researches, 2(1).

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishning nazariy asoslari hamda o‘quvchilarni ongli, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish, ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantirish haqida bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны теоретические основы формирования читательской грамотности у учащихся младших классов, а также обучение учащихся чтению осознанно, правильно и выразительно, развитие культуры чтения и речи, умения самостоятельно мыслить.

SUMMARY

The article describes the theoretical foundations of the formation of reading literacy in elementary school students, as well as teaching students to read consciously, correctly and expressively, to develop the culture of reading and speech, and the ability to think independently.

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KREATIV FIKRLASH KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Saidaxmadova N.S.
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kreativ fikrlash, savodxonlik, o‘qish savodxonligi, PIRLS tadqiqotlarining mazmun mohiyati, o‘qish savodxonligini baholash, o‘zma tilning shakllarini idrok etish, matn ustida ishlash.

Ключевые слова: творческое мышление, грамотность, читательская грамотность, содержательная сущность исследования PIRLS, оценка читательской грамотности, восприятие форм собственного языка, работа над текстом.

Key words: creative thinking, literacy, reading literacy, content essence of PIRLS research, assessment of reading literacy, perception of forms of one’s own language, work on the text.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchiyoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida chiqarilgan[1].

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilm-fan va ta’limtarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq[2].

Tahlil va natijalar. Yoshlarni komil va komil insonlar qilib voyaga yetkazish jamiyatimiz ijtimoiy hayotidagi muhim va asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda prezidentimiz Sh.M.Mirziy oyevning “Biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmaydigan yana bir masala, bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy

pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir"[3] degan fikrlarini keltirmoqchiman. Darhaqiqat, bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchi dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Hozirgi kunda o‘quvchilar uchun informatsion savodxonlik ta’lim samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

O‘qish savodxonligi – jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

Ushbu nuqtayi nazar o‘quvchilarning o‘qishdan olingan ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga tobora ko‘proq e’tibor qaratadigan zamonaviy jamiyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy e’tibor tushunishni namoyon qilishdan o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda.

Savodxonlik so‘zi o‘quvchilarning kelajakda o‘z rejalarini amalga oshirishda, ya’ni bilim olishni davom ettirish, mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rish, ijtimoiy hayot va mehnatda ishtirok etishda asosiy vositasi sifatida savodxonlarcha o‘qish ko‘nikmasini egallashdagi muvaffaqiyatini anglatadi[4].

O‘qish savodxonligi fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she’rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko‘maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo‘lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O‘qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma’lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o‘qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo‘ladi.

Shu paytgacha ona tilini o‘qitishdan maqsad tilning grammatikasini o‘rgatish, til strukturasiga oid qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko‘proq urg‘u berilgan.

Ahamiyatli tomoni endi o‘qituvchilar uchun "O‘qituvchi kitobi", o‘quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo‘ladi. Eski darsliklar til strukturasini o‘rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasidan ko‘ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg‘u berilgan. Ya’ni asosiy e’tibor so‘z, uning ma’nolari, o‘rindoshlari, qo‘llanish o‘rinlari, lug‘at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan.

Amaldagi darslikdan o‘rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo‘lishidan ko‘ra, didaktik ahamiyatiga urg‘u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa

yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan. Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan.

Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, o'gzaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o'zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so'zlarning o'zgarishi va gapda so'zlarning bog'lanishi haqidagi, so'zlarning morfemik tarkibi va so'z yasalishi, so'zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o'zbek tilining to'g'ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi. Berilgan bu bilimlar o'quvchilar nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllantiradi. O'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qish savodxonligi fanini o'qitishning mazmuni va metodlari o'quvchilarga dastur talab qilgan hajmda puxta bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilishga ko'maklashishi lozim.

PIRLS tadqiqotlari - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish hamda amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. PIRLSning o'qishdagi yutuqlarni baholash doiralari IEA tomonidan 1991-yilda o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan foydalangan holda, ilk marotaba, 2001-yildagi tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan.

Shundan buyon PIRLSning baholash doiralari tadqiqotning har bir davri uchun, shu jumladan, 2021-yildagi tadqiqot davri uchun ham yangilandi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifiga ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

O'qish (umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflari o'quv rejasidagi adabiyot) fani og'zaki va izchil nutqni o'stirish, so`z boyligini oshirish, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyati hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'qish fanini o'qitish orqali o'quvchida to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish; mutolaaga muhabbat uyg'otish, ularni oddiy kitob o'quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish; o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, dunyoqarashini boyitish; axloqiy-estetik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash; nutqi va tafakkurini o'stirish; tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; o'quvchining fikrlashini o'stirish ko'zda tutiladi[5].

O'qish savodxonligining bu ko'rinishi konstruktiv va interaktiv jarayon sifatida ko'plab o'qish nazariyalarini aks ettiradi. O'quvchining matn bilan ishlashi jarayonida o'quvchi va matn orasidagi muloqot orqali (shuning uchun ham bu jarayon interaktiv deyiladi) o'quvchi ma'noni yaratadi (shuning uchun ham bu jarayon konstruktiv inglizcha «construct» – yaratmoq deyiladi).

O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki

mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to‘plamlari yoki rasmli kitoblar) yoki o‘quvchilarga atrofidagi dunyo haqida ma’lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma’lumotli matnlardan iborat bo‘ladi. Yosh o‘quvchi uchun o‘qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o‘qish turini baholashda matnlarni teng bo‘lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Xulosa. O‘qish savodxonligi o‘quvchilarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, poklik tuyg‘ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o‘tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o‘stiradigan musiqa va tasviriy san’at fanlari bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi kerak. O‘qish, musiqa va tasviriy san’at darslarini o‘zaro bog‘lab uyushtirish bolalarda san’at asarlarini to‘g‘ri tushunish va qadrlash ko‘nikmalarini o‘stiradi, o‘quvchining shaxs sifatida ma’naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 -yil 8-dekabrdagi 997-sonli “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.

3. SH.M.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” T., 2017 yil, 106 bet.

4. Umumta’lim maktablarining milliy o‘quv dasturi/ Ona tili.-T.: 2021.-170-b.

5. Normatova, D., & Muxtarova, L. (2023). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish. Interpretation and researches, 2(1).

РЕЗЮМЕ

Maqolada butun dunyo bo‘ylab boshlang’ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘qish va matnni tushunish darajasi va sifatini taqqoslashi, shuningdek kreativ fikrlash kompitensiyasini shakllantirishning samarali usullari haqida bayon qilingan. Bundan tashqari o‘qish savodxonligi o‘quvchilarda go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, poklik tuyg‘ulariga ozuqa beradigan, hissiyotni o‘tkirlashtiradigan, aqlni charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, estetik didni o‘stiradigan musiqa va tasviriy san’at fanlari bilan uzviy bog‘langanligi asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В статье проводится сравнение уровня и качества чтения и понимания текста у учащихся начальных классов разных стран мира, а также эффективные методы формирования компетентности творческого мышления. Кроме того, читательская грамотность неразрывно связана с музыкой и изобразительным искусством, которые прививают учащимся любовь к красоте, питают чувство чистоты, обостряют чувства, обостряют ум, обогащают воображение, развивают эстетический вкус.

SUMMARY

The article describes the comparison of the level and quality of reading and text comprehension among elementary school students around the world, as well as effective methods of forming creative thinking competence. In addition, reading literacy is inextricably linked with music and visual arts, which instill in students a love of beauty, feed the feelings of purity, sharpen the senses, sharpen the mind, enrich the imagination, and develop aesthetic taste. is based on.

STEAM TA'LIM VOSITASIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IJODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Pardayeva G. J.
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: STEAM texnologiyasi, Evristik ta'lim metodi, kreativlik sifatlari, fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math).

Ключевые слова: технология STEAM, эвристический метод обучения, творческие качества, наука, технология, инженерия, искусство, математика.

Key words: STEAM technology, Heuristic educational method, creativity qualities, Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics.

Kirish. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kreativ sifatlarini rivojlantirish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Tahlil va natijalar. STEAM ta'limi asosida o'qitish tabiiy va iqtisodiy fanlar yo'nalishida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash va qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari hamda mustaqil bajarishga va ijodiy (kreativ) fikrlashga undovchi amaliy topshiriqlar bilan ishlashni yosh avlod ongiga singdirish o'quvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi famonida ham O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy –axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsad qilingan.

STEAM fan bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir. STEAM ta’limi deganda amaliy mashg‘ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo‘llash tushuniladi.

STEAM ta’lim texnologiyasi maktab o‘quvchilarini yangicha o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi.

U o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida to‘rtta – **fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san’at (Art), matematika (Math)** bo‘yicha o‘qitishga mo‘ljallangan. STEAM fan bo‘yicha emas, balki mavzular bo‘yicha integratsiyalashgan o‘qitish tizimidir.

Agar ushbu qisqartmani yoysak, quyidagilarni olamiz: STEAM bu — S – science, T – technology, E – engineering, A – art va M – math. Ingliz tilida bu shunday bo‘ladi: tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika. Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan.

Uning asosiy g’oyasi shundan iboratki, amaliyot nazariy bilimlar singari muhimdir. Ya’ni, o‘rganish paytida biz nafaqat miyamiz bilan, balki qo‘limiz bilan ham ishlashimiz kerak. Faqat sinf devorlarida o‘rganish tez o‘zgaruvchan dunyo bilan hamqadam emas. STEAM yondashuvining asosiy farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun ham miyani, ham qo‘llarini ishlatadilar. Ular olgan bilimlarni o‘zlari “uqib oladilar”.

STEAM ta’lim muhitida bolalar bilimga ega bo‘ladilar va darhol undan foydalanishni o‘rganadilar. Shuning uchun, ular o‘sib ulg’ayganlarida va hayotiy muammolarga duch kelganda, atrof muhitning ifloslanishi yoki global iqlim o‘zgarishi bo‘ladimi, bunday murakkab masalalarni faqat turli sohalardagi bilimlarga tayanib va birgalikda ishlash orqali hal qilish mumkinligini tushunadilar. Bu erda faqat bitta mavzu bo‘yicha bilimga tayanish etarli emas.

Amaliy qobiliyatga e’tibor berib, talabalar o‘zlarining irodasini, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadi. Ushbu ko‘nikmalar va bilimlar asosiy ta’lim vazifasini tashkil etadi, ya’ni. bu

butun ta'lim tizimi nimaga intilishini. Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'quvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi

STEAM ta'limi amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi.

Prezident maktablarida "STEAM" ta'lim dasturi asosida o'qish tashkil qilinishi, o'quvchilar o'zlarining qiziqishiga qarab ayrim fanlarni tanlash orqali individual bilim olish imkoniyatiga ham ega bo'lishi bilan umumta'lim maktablaridan tubdan farq qiladi. Chunki Prezident maktablarining asosiy vazifalaridan biri – tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'qitish, o'quvchilarning innovatsion bilimlarni o'zlashtirishi, ularning intellektual, ilmiy-ijodiy salohiyatlarini ochib berish va rivojlantirishdan iborat.

STEAM yondashuviga oid darslik va o'quv qo'llanmalari Cambridge University Press shu jumladan Oxford University Press va Collins kabi nufuzli nashriyotlar tomonidan chop etilgan. Cambridge taklif qilayotgan o'quv dasturining asosiy afzalligi jahon mehnat bozoridagi tamoyillardan kelib chiqib, o'quvchilarda tegishli zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga urg'u berishdir[2.4;62;bet]

O'quvchilarga mazkur fanlarni o'qitishda malakali mahalliy o'quvchilar bilan bir qatorda, xorijlik o'quvchilar ham hamkorlikda saboq beradilar. Yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni ishga yollashda mazkur yo'nalishda ko'p yillik tajribaga ega "Teachaway" (Kanada) va "TIC Recruitment" (Buyuk Britaniya) rekruting kompaniyalari bilan hamkorlikda ishlar amalga oshirilmoqda.

O'quvchilarining qiziqishlari va xususiyatlariga qarab, Prezident maktabida ta'lim o'quv jarayonini individualizatsiya qilingan holda olib boriladi. O'quvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlashga talab kun sayin oshib bormoqda, shu sababli mamlakatimiz taraqqiyoti ilm-fan, texnika-texnologiyalar rivoji hozirda bardavomlik kasb etmoqda. Shuning uchun oliy ta'lim muassasasida pedagoglarni tayyorlashga zamonaviy ilm-fanning so'nggi yutuqlariga asoslangan talablar qo'yib borilishi tabiiy. Bular boshlang'ich sinf o'quvchilarni zamonaviy raqobatbardosh qilib, ya'ni innovatsion rivojlangan qilib tayyorlash davr talabi ekanligini ko'rsatmoqda. Bunday talablarni bajarish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

1. Boshlang‘ich sinf mutaxassislarni tayyorlash jarayonida kreativ qobiliyatni rivojlantirish.

Ta’lim jarayoni ko‘p bosqichli dinamik jarayon sifatida qaralib, ta’lim metodlari va texnologiyalari zamon bilan hamnafas yangilanib borayotgani hisobga olinadi, shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga har qachongidan ham ko‘proq e’tibor berish doimiy faoliyatga aylanadi. Innovatsion metod va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda ko‘rib chiqilayotgan ta’lim yo‘nalishidagi o‘quv rejasining fanlar bloklari va ularning aloqadorligi hamda tayanch fanlar bilan integratsiyasi e’tiborga olinsa, mazkur soha bo‘yicha istiqbolli pedagogik samara qo‘lga kiritiladi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni tayyorlashning axborot texnologiyalari tizimini shakllantirish va ularni yangi talablar asosida yanada takomillashtirib borishga erishish.

Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning axborot texnologiyalarini yaratish va takomillashtirib borish ishlari quyidagi ketma-ketlik asosida olib boriladi:

– o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatini oshirishda kompyuterlardan texnik-didaktik vosita sifatida foydalanish;
– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni kompyuterdan foydalanishining samarali shakllari bilan tanishtirish;
– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda kompyuterda ishlash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning optimal yo‘llarini topishga erishish;
– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni intellektuallashtirilgan o‘qitish tizimlari va ularga mos holda ishlab chiqilgan muloqotli ishchi dasturlardan foydalanish ko‘nikmalari bilan qurollantirish.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo‘yicha innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga oid tadqiqot ishlarini doimiy olib borish.

Bunda ta’limda axborotli ta’lim muhiti, shuningdek, innovatsion ta’lim muhitlari negizidagi innovatsion-integrativ majmualar tayyorlashga istiqbolli yo‘nalish deb qarash lozim bo‘ladi. Ushbu jarayon an’anaviy ta’lim jarayoni bilan intellektuallashtirilgan ta’lim jarayonlari o‘rtasidagi intellektuallashtirilgan interfeysni o‘rnatish orqali amalga oshiriladi va bunda dasturlashtirilgan ta’minot nihoyatda zarurligini e’tiborga olib ish yuritishga to‘g‘ri keladi.

4. Innovatsion faoliyatni tashkil etish uchun o‘quvchining kasbiy intellektual salohiyati hamda muntazam yuksalishini doim e’tiborga olib faoliyat yuritish.

Bunda o‘quvchining o‘z sohasiga oid fanlar asoslarini bilishi va ular bo‘yicha egallagan bilimlaridan o‘zi ta’lim beradigan fanni bayon qilishda samarali

foydalanishi kerak, o‘zi ta’lim beradigan fanlarga mos va xos innovatsion metod va texnologiyalar bilan qurollangan bo‘lishi, muntazam ravishda jamiyatimiz va davlatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishi, o‘zi o‘qitayotgan fan bo‘yicha o‘quv-metodik, o‘quv-dasturiy, o‘quv-didaktik, axborotli metodik ta’minotlar kabilar bilan qurollangan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning o‘quv-metodik axborotli ta’minotini mukammal yaratish. Bunda asosiy e’tibor qayd etilgan ta’minotning zamonaviy taraqqiyot darajasi bilan mos ravishda yuksalib, takomillashib borishiga qaratiladi va ularni quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalarni to‘liq egallash jarayonida axborot madaniyati shakllanishini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
– elektron o‘quv adabiyotlari: elektron darslik, elektron o‘quv qo‘llanma, fan bo‘yicha elektron portfel va elektron qomusiy lug‘at kabilarni tayyorlash;
– interfaol metodlar va ulardan amaliy faoliyatda foydalanishga “didaktik portfel” tayyorlash;
– internetdan foydalanib ta’lim jarayoniga tegishli fanlar bo‘yicha ma’lumotlar to‘plash va shu kabilar.

6. Kasbiy bilimlarni zamon talabi asosida muntazam takomillashtirib borishga erishish. Bunda:

– egallanishi lozim bo‘lgan mutaxassislik bo‘yicha bilimlarni uzluksiz ravishda oshirib borish va ularni yanada boyitish vostalaridan samarali foydalanishga erishish;
– pedagogik va axborot texnologiyalariga oid adabiyotlar bilan muntazam tanishib borish, ulardan amaliy-kasbiy faoliyatda og‘ishmay foydalanish va shu kabilar.

7. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kreativ qobiliyatga erishish.

Kreativ qobiliyat quyidagilarga asoslansa, maqsadga erishishning optimal yo‘li kafolatlanadi:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning dolzarb muammolari nimalardan iborat ekanligini anglab olish;
– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘z mutaxassisliklariga oid ilmiy-uslubiy, dasturiy-didaktik, dasturiy-axborotli ta’minot yaratish;
– oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion tayyorlash bo‘yicha ilmiy, ilmiy-uslubiy, innovatsion loyihalar bilan tanlovlarda qatnashish va ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion

faoliyatga tayyorlashga keng joriy etish borasida muntazam ijodiy faoliyat yuritish kabilar.

8. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularning ma’naviy etuk va intellektual salohiyatli bo‘lishining muntazamligini ta’minlash.

Ushbu tarkibiy qismga qo‘yilgan talablarni bajarish quyidagi jihatlarga e’tibor berish orqali amalga oshirilishi mumkin:

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda ma’naviy etuklik tuyg‘usini shakllantirish;
– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ta’lim dasturidagi fanlar bo‘yicha va ularga tegishli ma’lumotlardan muntazam ravishda foydalanish;
– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni o‘quvchi kasbining mas’uliyati, ya’ni jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan muntazam ravishda tanishtirib borish;
– ma’naviy-ma’rifiy faoliyat bo‘yicha turli mavzularda ma’naviy tadbirlarni tashkil etishning mukammal istiqbolli rejasini ishlab chiqish va ularni olib borishning innovatsion uslublarini yaratishga doimo e’tiborli bo‘lish va hokazo.

O‘quvchining innovatsion faoliyati bu – tayyorlik darajasini, talabalar o‘rtasida innovatsion madaniyatni shakllantirishga imkon beruvchi integrativ xususiyatdir. Professional sohada istalgan natija va tegishli darajaga erishish uchun bo‘lajak o‘quvchilarni inno vatsion faoliyatga tayyorlashga har qachongidan ko‘ra e’tiborni kuchaytirish zarur.

<table>
<tr><th colspan="4">Pedagogik innovatsiyaning modeli</th></tr>
<tr><th>Nimaga o‘qitish?</th><th>Nima uchun o‘qitish?</th><th>Qanday o‘qitish?</th><th>Qanday qilib natijaga erishish?</th></tr>
<tr><td colspan="2">Pedagogik innovatsiya- o‘qitish jarayonini rivojlantiruvchi va uning natijaliligini ta’minlovchi ta’lim tizimidagi har qanday yangilik</td><td colspan="2">Pedagogik innovatsion faoliyat – ta’lim jarayoni maqsadlari, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari, texnologiyalari, menejmenti va tashkiliy maqsadlaridagi har qanday zamonaviy o‘zgarishlardir</td></tr>
<tr><th colspan="4">Pedagogik innovatsiyaning uch asosi</th></tr>
<tr><th colspan="2">Ijtimoiy-iqtisodiy</th><th>Pedagogik-psixologik</th><th>Tashkiliy-boshqaruv</th></tr>
</table>

1-rasm. Pedagogik innovatsiya modeli.

Innovatsion pedagogika – pedagogik texnologiyalarni muntazam takomillashtirish jarayoni, pedagogik ta’lim mazmunini boyitish, mazkur

maqsadga pedagogik metodlar, vositalar va uslublarni maksimal darajada ta’lim jarayonida qo‘llashdir.

Innovatsion pedagogika – ta’lim tizimida har qanday ijobiy natijalilikka olib keluvchi yangi tizimlar va yo‘nalishlar bo‘lib, ularni sifatli va oxirgi maxsulotni ishlab chiqarishga safarbar etishdir.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar innovatsion faoliyatining obyektiv xususiyatlari ishlab chiqildi.

Innovatsion faoliyat sohasi	**Kasbiy-professional vazifalar**	**Amalga oshirish Mexanizmi**	**Innovatsion faoliyat natijasi**
Pedagogik qidiruv	Qidiruv - axborot	Mashg‘ulotlardagi kamchiliklarning noaniq ma’nosi.Qarama-qarshiliklarni qidirish va muammoli vaziyatni anglash	Shakllantirilga n innovatsion muammo. Haqiqiy o‘quv kursining tavsifi
	Analitik-tanqidiy	Innovatsiya muammosi bo‘yicha mavjud bilim va ma’lumotlarni tanqidiy baholash. O‘quv kursining analitik tavsifini tayyorlash. Qarama-qarshi o‘zgaruvchilarni aniqlash. Pedagogik innovatsiya mavzusining belgilanishi. O‘zgaruvchilarni operatsionallashtirish va dastlabki mezonlarni shakllantirish	Innovatsiyaning maqsadi va vazifalari. Innovatsiyalarni baholashning dastlabki mezonlari
Pedagogik yangilik yaratish	Modelli-Loyihaviy	Qarama-qarshi o‘zgaruvchilarga adekvat bo‘lgan mustaqil o‘zgaruvchilarni aniqlash.	O‘quv kursi loyihasi va innovatsion taklif ishlab chiqish
	Me’yoriy - Konstruktiv	Yangi didaktik, pedagogik retseptlarni ishlab chiqish. Tajriba o‘tkazish.	Pedagogik sinov Natijalari

Innovatsion faoliyat sohasi	Odatiy Profes-sional Vazifalar	Odatiy professional vazifalarni hal qilish uchun operatsiyalar	Innovatsion faoliyat natijasi
Pedagogik Innovatsiya-larni amalga oshirish	Dasturiy ta’minot va stsenariy	Innovatsion loyihani amalga oshirish dasturini yaratish. Innovatsion loyihani amalga oshirish uchun optimal stsenariyni ishlab chiqish	Pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirish dasturi va chora-tadbirlar rejasi
	Tashkiliy-Boshqaruv	Approbatsiya, innovatsion stsenariyni bajarish.	Ktilayotgan Natijalar
Pedagogik-didaktik innovatsiya-larga yo‘naltirish	Tajribali-baholash	Mezonlarni tizimli yo‘naltirish. Pedagogik tadqiqotning maqsad va vazifalarini shakllantirish, amalga oshirish dasturini tuzish, dalillarni to‘plash, qayta ishlash va tizimlashtirish. Umumiy natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish va izohlash. Xulosalarni shakllantirish va ularning harakatlari doirasini aniqlash.	Yangilangan mezonlari. Yangilik natijasida ta’siri. Xulosalar

2-rasm. Innovatsion faoliyatning ob’ektiv xususiyatlari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayoni innovatsion faoliyatni rivojlantirish, kasbiy faoliyatni yanada takomillashtirish, uni kasbiy mahorat darajasiga ko‘tarishdan boshlanadi. Bunday jarayon o‘qitishning mazmuni va usullarini uzluksiz izlashga yo‘naltirilgan innovatsion ta’lim muhitini yaratish, innovatsion onglilik va zamonaviy o‘quvchining faoliyat modelini tuzish orqali amalga oshiriladi.

Yuqoridagilarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, pedagogik faoliyat samaradorligining ikki vektorini uning innovatsion xarakteri nuqtai nazaridan ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

- o‘quvchi o‘z faoliyatida allaqachon yaratilgan texnika va texnologiyalarni kasbiy faoliyatning real sharoitlariga moslashuvi bilan amalga oshiradi;

- o‘quvchi kasbiy faoliyatning ob’ektiv ravishda o‘qitishning yangi metod, vosita va texnologiyalarini yarata oladi.

Maktablarda **«STEAM – ta'lim»** (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etiladi. O'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda sinfdan tashqari amaliy mashg'ulotlar o'tkazish nazarda tutiladi. Bitiruvchilarga belgilangan tartibda davlat tomonidan tasdiqlangan ma'lumot to'g'risidagi hujjat (shahodatnoma, attestat) bilan bir qatorda xalqaro darajadagi tegishli dastur diplomi (International Baccalaureate, Advanced Placement yoki International Advanced Levels) beriladi. Bunday diplom bilan xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish mumkin bo'ladi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, umumta'lim maktablarida ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish, ta'lim jarayonlariga STEAM texnologiyasini keng joriy etish, tahsil olayotgan yosh avlodning nazariy bilimlarinigina oshiribgina qolmasdan, ularni tezroq amaliy va kasbiy jarayonlarga kirishga undaydi. Bu esa mamlakatimiz zamonaviy ta'limining yutuqlaridan biridir.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

2. Radjiyev A.B, Ismailov A.A., Narziyev J.R., Axmedov X.P., Tog'ayeva G.O. O'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi, qo'llanma, Toshkent–2019 yil 62-bet.

3. Jalgashevna, P. G., & Abdimannabovna, M. L. (2023). Pedagogical possibilities of teaching natural sciences based on steam technology. World Bulletin of Social Sciences, 21, 109-111.

4. Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоа// Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400б.

5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика,1991. 479с.

6. Jumaeva, H. (2020). Some Shapes of Spiritual Attack, Its Influences and Outcomes for Educating the Youth. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 8(2).

РЕЗЮМЕ

Boshlang'ich ta'limda SCIENCE fanini maktabda o'qitish o'quvchilarning borliq haqidagi, atrof-olam haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi. Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'limni rivojlantirish, xalqaro texnologiyalarni xalq ta'limiga olib kirish takomillashmoqda. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda STEAM texnologiyasining ahamiyatiga bag'ishlangan.

РЕЗЮМЕ

Преподавание НАУКИ в школе в начальной школе помогает расширить знания учащихся о существовании и окружающей среде. Сегодня в нашей стране улучшается развитие непрерывного образования и внедрение международных технологий в народное образование. Данная статья посвящена важности технологии STEAM в преподавании предметов начального образования.

SUMMARY

Teaching SCIENCE at school in primary education helps to increase students' knowledge about existence and the environment. Today, the development of continuous education and the introduction of international technologies into public education are improving in our country. This article is devoted to the importance of STEAM technology in teaching primary education subjects.

BOSHLANGICH SINF O‘QUVCHILARINING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TARBIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Usmonova S.E.
Termiz davlat pedagogika instituti, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: ma’naviy-axloqiy, madaniyat, kognitiv, takomilashtirish, sifatlarini, o‘quvchilar.

Ключевые слова: духовно-нравственные, культурные, познавательные, совершенствующие, качества учащихся.

Key words: spiritual and moral, cultural, cognitive, improving, qualities of students.

Kirish. Jahon ta’lim tizimida integratsiya, globallashuv jarayonlari chuqurlashayotgan va sifat jihatdan rivojlanayotgan sharoitda ta’lim oluvchilarning manfaatlarni himoyalash va ularga pedagogik shart-sharoitlar yaratib berish muhim o‘rin tutadi.

Jahon ta’lim tizimi standartlariga muvofiq mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlari va darsliklar yaratish, o‘quv jarayoniga malakali pedagog xodimlarni jalb etish kabi vazifalar amalga oshirilmoqdi. Endigi vazifa tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifatini va axloqiy madaniyatini oshirish, ya’ni ularning kasbiy malakasini zamon talablariga javob beradigan darajaga yetkazishdan iborat.

Respublikamizda oliy ta’lim sohasini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘qitish jarayoniga odob-axloq me’yorlarini keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur vazifalar nuqtai nazaridan zamonaviy yondashuvlar asosida dars mashg‘ulotlari jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy, axloqiy va ekologik tarbiyani rivojlantirishning mazmuni va amaliy-texnologik tizimini takomillashtirishning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamiz olimlaridan M.A.Abdullayeva,N.Achilov,O.Jamoliddinova,R.Mamatqulova,N.Mahkamova, O.Musurmonova, U.Mahkamov S.Norboyeva, O.Nasriddinova, M.S.Salayeva, D.Himmataliyev, B.X.Xodjayev, D.J.Sharipova, Sh.S.Shodmonova, Yo.Ernazarovalarning tadqiqotlarida bo‘lajak kadrlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, talabalarda ma’rifatparvarlik fazilatlarini rivojlantirish, pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni

shakllantirish, jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhit barqarorligini ta’minlash, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini yaxlit rivojlantirish, milliy-ma’naviy meros asosida universitet talabalarida xulq-odob fazilatlarini tarbiyalash, talabalarni ma’naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlarini, ma’naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash, o‘quvchilarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish masalalari yoritib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola muammoga doir ilmiy, o‘quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish, ma’naviy-axloqiy bilim berishda “oddiydan murakkabga”, “uzviylik va uzluksizlik” kabi pedagogik tamoyillarga tayanish asosida yoritilgan bo‘lib, o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish masalalari tadqiq etilgan.

Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotdagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

A.Erkayevning fikricha, «Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir».

M.Imomnazarov dastlab «Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur…», -deb yozgan bo‘lsa, keyinchalik «Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi», -deb yozadi

T. Mahmudov «…Ma’naviyat – insoning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, axloqiy va ruhiy balog‘ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir», -degan ta’rifni beradi.

Shaxsning o‘z o‘zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrxohlik, iymonlilik, halolik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va boshqalar.

Ma’naviyat tarkibiy qismlaridan eng muhimi – axloq va odobdir. Axloq arabchadan olingan bo‘lib, xulq odob, atvor, fe’l degan ma’nolarni anglatadi. Rus tilida ishlatiladigan «moral» so‘zi «mocheya» so‘zidan olingan bo‘lib, u ham axloq ma’nosini bildiradi.

Yunoncha «ethos» so‘zidan olingan odat, odob, rasm-rusum, fe’l (xarakter) ma’nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha Arastu (e.o.384-322 yy) tomonidan axloqning sinonimi sifatida ishlatilgan.

“Odob” (arabcha «adab» so‘zining ko‘pligi) xulq-atvori, yurish-turish madaniyatning tashqi va ichki jihatlarni ifodalaydigan tushuncha. U kishilarning hatti-harakatida, o‘zaro munosabatida (oila, mehnat jamoasi va h.k.) namoyon bo‘ladi.

Abu Nasr Forobiy «Daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo‘lganidek, insonning barcha xislatlari ham axloqiy tarbiya bilan yakunlanadi» deb ta’kidlaydi[1,222b].

Abu Ali Ibn Sino Tib qonunlari asarlarida axloqiylik deganda biz faqat tashqi muomalani ko‘zda tutmaymiz, balki niyatning butun ichki mohiyatini tushunamiz, axloq haqida gap borganda, albatta uning muayyan tuzilmasi, unga asos bo‘lgan omillar, unsurlar to‘g‘risida to‘xtalmaslik mumkin emasligini yoritadi.

Tadqiqotchi va olimlar axloq tuzilmasini, odatda, uch omil-asosdan iborat deb hisoblaydilar.

– bular-axloqiy anglash (axloqiy ong),
– axloqiy his etish (axloqiy xissiyot)
– axloqiy munosabatlar (axloqiy hatti-harakatlar).

Ba’zi mutaxassislar axloqning asosiy tushunchalarini (kategoriyalarini), axloqiy me’yorlar va tamoyillarni axloq – odobning bir butun qon tomiri tarzida taqdim etadilar. Shunday qilib, axloq tuzilmasi uch asosiy omilni: axloqiy anglash, axloqiy his etish va axloqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur uch omil-unsurning birortasisiz axloq tushunchasini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Boshqacha aytganda, axloqni inson ko‘zi oldida gavdalantiruvchi axloqiy munosabatlarning his etish va axloqiy anglashsiz yuzaga chiqishi, ya’ni mavjud bo‘lishi mumkin emas.

Tahlil va natijalar. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Axloqiy tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo‘nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi.

Shaxs axloqiy tarbiyasining natijasi sifatida shakllanadigan ijtimoiy mavjudotdir. Shaxsning ko‘pdan-ko‘p xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o‘zaro mustahkam bog‘langan. Tarbiya jarayonida o‘quvchining shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi.

Axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayonining natijalari odatda bir xil xarakterda bo‘lmaydi. Bu narsa o‘quvchilarning psixologik (individual, tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlari, ularning hayotiy va ma’naviy tajribasi, shaxsiy pozitsiyasiga bog‘liq.

Axloqiy madaniyatini rivojlantirish jarayoni, odatda, o‘zini-o‘zi tarbiyalash, o‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash, o‘quvchining atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va ularning xususiyatlarini bartaraf etish bilan olib boriladi.

O‘zini-o‘zi qayta tarbiyalash shaxsning o‘zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo‘qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayonidir. O‘quvchi xulqidagi «og‘ish»lar oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo‘l qo‘ygan xatolari, o‘qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulqni hosil qilgan sabab, sharoit o‘zgartiriladi, qayta tarbiyalashda institut va shaxsning shaxsiy ta’sirini oila, shu jumladan, ota-ona ham ma’qullashi lozim.

Demak, qayta tarbiyalash o‘quvchining o‘zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar axloqiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

v) umuminsoniy axloq me’yorlari (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o‘quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

g) o‘quvchilarda axloq va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg‘usi, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

d) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;

j) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

z) mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rganish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmati, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifalari ana shulardan iborat.

Shu bilan birga axloqiy madaniyatini rivojlantirish yo'nalishlari – axloqiy, aqliy, jismoniy, ekologik, iqtisodiy, axloqiy va siyosiy tarbiyaning xususiy maqsadidan kelib chiqqan holda bir qator vazifalar amalga oshiriladi. Chunonchi,

1) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – talabalarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ularda ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va ta'qiqlar) ga nisbatan hurmat hissini qaror toptirish asosida axloqiy ong va madaniyatni shakllantirish;

2) aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida – o'quvchilarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish;

3) jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarni o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishi hamda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat to'rlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda va xarakterni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigienani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash;

4) estetik tarbiyani olib borish jarayonida – o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish;

5) ekologik tarbiyani olib borish chog'ida – o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;

6) iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamalakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta

biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko‘paytirish borasida qayg‘urish tuyg‘ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish;

7) axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida talabalarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta’limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo‘jalik, ma’muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma’nosini tushuntirish, ular ogiga ijtimoiy-axloqiy me’yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni singdirish, axloqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlash, ularda axloqiy ong, shuningdek, axloqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, axloqiy madaniyatni shakllantirish;

8) g‘oyaviy-siyosiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o‘quvchilarga siyosiy bilimlarni berish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o‘rganishni ta’minlash asosida o‘quvchilarda siyosiy faoliyat ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish, siyosiy madaniyatni shakllantirish va hokazolar.

Axloqiy madaniyatini rivojlantirish tamoyillari. Axloqiy tarbiya mazmunida oldinga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar, shaxs xulq-atvori hamda sifatlari mohiyati aks etadi. Axloqiy tarbiya mazmuni shaxsning shakllanishiga qo‘yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi g‘oyalari asosda belgilanadi. Zamonaviy axoqiy tarbiya mazmunida quyidagi tamoyillar yotadi:

1. Axloqiy madaniyatni rivojlantirish maqsadining aniqligi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada, amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan tarbiya maqsadi aniq belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuniga ko‘ra axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan komil inson va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo‘lidagi asosiy vazifa - bu shaxsda umumiy madaniyat unsurlari, ya’ni, shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, siyosiy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

2. O‘quvchilar va kattalarning birgalikdagi faoliyati. O‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan ma’naviy madaniyatini shakllantirishning eng yaxshi namunasini izlash, shu asosida tarbiyachi ishining hayotiy me’yor va qadriyatlarini aniqlash o‘quvchining tarbiya jarayonidagi faolligini ta’minlashga olib keladi.

Dunyoqarashi hali to‘la-to‘kis shakllanmagan o‘quvchilar uchun kattalarning hayotiy tajribalari, ularning shaxsiy namunalari tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega.

3. O‘zini-o‘zi anglash. Axloqiy tarbiya insonda e’tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Axloq mazmunining eng muhim unsurlaridan biri – bu insonning hayotiy o‘zini-o‘zi anglashi, uning o‘z shaxsiy hayoti va faoliyatining sub’ekti sifatida e’tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotida fuqarolik, kasbiy va axloqiy o‘zini-o‘zi anglash jihatlari muhim ahamiyatga egadir.

4. Axloqiy tarbiyaning shaxsga yo‘naltirilganligi. Mazkur g‘oya ta’lim muassasasi amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlar, ularning shakl, metod va vositalari emas, balki o‘quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o‘ziga xos xarakteri, o‘z qadr-qimmatini anglash tuyg‘ulari rivojlantirilib borilishi zarur.

5. Ixtiyoriylik. Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g‘oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Axloqiy tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o‘zida ham o‘quvchi, ham o‘qituvchi ma’naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar o‘qituvchi o‘quvchining qiziqishi, faoliyati, o‘rtoqlik va fuqarolik burchini anglash, mustaqillikka intilish tuyg‘ularini ko‘ra va anglay olsagina uni irodali ekanligi ayon bo‘ladi. Tarbiyalanuvchining irodali bo‘lishi ta’minlangan sharoitda uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyat jarayonida samaraga erishiladi.

6. Jamoa yo‘nalishi. Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsni har tomonlama kamoloti, uning dunyoni anglash, uni to‘laqonli talqin etish, insonparvarlik va o‘zaro hamkorlik tuyg‘ularini yuzaga kelishi va rivojlanib borishi kabi holat amalga oshiriladi.

Xulosa. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidgicha xulosa qilish mumkin:

1. Axloqiy madaniy munosabatni muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni bo‘lib, har qanday tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo‘lib kelgan.

2. Axloqiy madaniy munosabat turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy Axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Axloqiy madaniy munosabatning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni,

shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Axloqiy madaniyat jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda Axloqiy tarbiyani tashkil etish oldinga qo‘yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradagi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi.

Axloqiy madaniy munosabatlar pedagogik texnologiya nazariyasi g‘oyasiga muvofiq, endilikda o‘quvchi Axloqiy tarbiya jarayonining ob’ektigina bo‘lib qolmasdan, sub’ekti sifatida ham faoliyat ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo‘layotgan tashqi ta’sirlar va axborot manbalarini inobatga olishi zarur.

Adabiyotlar:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri// Tanlangan asarlar. Mas’ul muharrir: akad. M. Xayrullaev. - T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 222 b.

2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1 t. - T.: Fan, 1968. - 488 b.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq.- T.: O‘qituvchi, 1992-62 b.

4. Erkaev A. Ma’naviyat – millat nishoni. Toshkent. Ma’naviyat, 1997

5. Arnoldov A.I. Teoriya kulturы: istorizm i voprosы metodologii. (kultura, chelovek, katrina mira).- M:Nauka-1987-s-21.

6. Imomnazarov M. Ma’naviyatimizning takomil bosqichlari. Toshkent: Sharq, 1996.

7. Axloq-odobga oid hadis namunalari. - T.: Fan, 1990. - 172 b.

8. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari: Uch jildlik saylanma. Tuzuvchilar: U.Karimov, H.Xikmatullaev - T.:A.Qodiriy nomli Xalq merosi nashriyoti, 1993. - 1 jild. -212 b.; 2 jild - 304 b.; 3 jild -320 b.

9. Begmatov A. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. –T.: Sharq, 2000. -94 b.

10. Boboxonov Sh., Irisov A. Hadis ilmining peshvolari. –Toshkent: Nur, 1992. -72 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish omillari nazariy tahlil qilib o‘tilgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy sifatlarini ,madaniyatini rivojlantiuish aloqadorlikda takomillashtirish asosida o‘quvchilarda ma’naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning kognitiv,omillari ta’limiy sharoitda aniqlashtirilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье проведен теоретический анализ факторов совершенствования духовно-нравственных качеств учащихся. Кроме того ,в образовательном контексте определены познавательные,факторы формирования у учащихся духовно-нравственной культуры на основе совершенствования их духовно-нравственных качеств, культуры общения.

SUMMARY

This article presents a theoretical analysis of the factors of improving the spiritual and moral qualities of students. In addition, in the educational context, the cognitive factors of the formation of students’ spiritual and moral culture based on the improvement of their spiritual and moral qualities, the culture of communication are determined.

MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK-METODOLOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Turayev A.M.
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: masofaviy ta’lim, intellektual, modifikatsion, onlayn darslar, resurslar, individual, innovatsion.

Ключевые слова: дистанционное образование, интеллектуальное, модификационное, онлайн-занятия, ресурсы, индивидуальное, инновационное.

Key words: distance education, intellectual, modification, online classes, resources, individual, innovative.

Kirish. Hozirgi kunda o‘qitishning zamonaviylashuvi, tahsil olish jarayonini optimallashtirish va mustaqil ta’lim olish imkoniyatini oshirish maqsadida masofaviy ta’limni tatbiq etish butun oliy ta’lim jarayonida keng ommalashib bormoqda. Bu uchun esa masofaviy ta’lim sharoitida o‘qitish jarayonini to‘liq loyihalash, o‘rganish, o‘rgatishning innovatsion usullari hamda qoidalarini individuallashtirish qolaversa, intellektuallashtirish, mustaqil bilim olish imkoniyatini oshirish, beriladigan yangi modifikatsion ma’lumotlarni insonparvarlashtirish, o‘quv materiallarining mustaqil qabul qilinishi, qo‘llaniladigan elektron vositalar kommunikativligi, zamonaviy va axborotliligi, bilim olish va mustaqil izlanishga nisbatan yuqori motivatsiya uyg‘otishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy davlatlar olimlarining adabiyotlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda “masofaviy o‘qitish”, “elektron o‘qitish” “e-learning”, “kompyuter texnologiyalarini qo‘llab o‘qitish”, “masofaviy ta’lim texnologiyalari”, “tarmoq ishida o‘qitish” (ta’lim dasturlarini amalga oshirishning tarmoqli shakli), “virtual o‘qitish” va boshqa tushunchalar mavjud.

Tahlil va natija. Mazkur tajribalarda “masofaviy o‘qitish” - inglizcha “distanse learning” atamasidan “distanse education”, ya’ni “masofaviy ta’lim” atamasining kengroq tushunsha ekanligi ta’kidlangan. Bu atamani kengroq tushunsha deb hisoblashning sababi inglizsha “learning” so‘zi o‘zining asosiy ma’nosida “o‘rganish” yoki “o‘rgatish” ma’nosini bildirib, ushbu ingliz mualliflari

ushun “distanse learning” ifodasi masofaviy o‘qitishning mustaqil o‘qishdan farq qiladigan faqat bir jihati bo‘lgan “learning”, ya’ni tyutor bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan o‘qishni bildiradi. “Distanse education” - “masofaviy ta’lim” atamasi esa, ta’lim jarayonining barcha jihatini qamrab oladi. Bu tushunshalar bir tomondan o‘xshash bo‘lib, ular bitta hodisa - axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy qilishni bildiradi. Boshqa tomondan esa, ushbu tushunshalarning ta’riflari orasida farqlar ham bo‘lib, bu tushunchalarning ma’nolari bir xil emasligi ta’kidlangan[2, 65 b.].

“Masofaviy o‘qitish» atamasi ilk bora Viskonsin shtati universiteti tomonidan sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo‘llanilgan. Masofaviy o‘qitish deganda masofadan turib tashkil qilingan ta’lim tushunilgan. Unga «korrespondentlik o‘qitish”, “uyda o‘qish” va boshqa tushunshalar sinonim hisoblangan.

Masofaviy o‘qitish mazmuni – masofaviy o‘qitish kurslarida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘quv materiallari, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar.

Masofaviy ta’lim usuliy materiallariga quyidagilar kiradi:

darslik, o‘quv, usuliy qo‘llanma va o‘quv-usuliy majmualar;

audio va video darsliklar;

onlayn darslar (Internet sayt);

elektron kutubxona;

testlar;

multimedia elektron darsliklar.

Masofaviy o‘qitish qonuniyatlari an’anaviy o‘qitish shaklida o‘rnatilgan asosiy qonuniyatlar masofaviy o‘qitish jarayonida ham asosiy qonuniyat bo‘lib xizmat qiladi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalaridan o‘qitishning turli shakllarida foydalanish mumkin:

kunduzgi;

sirtqi;

kechki;

eksternat shakllarida;

ta’limning ma’lum bosqishlarida;

asosiy va qo‘shimsha ta’lim dasturlarini amalga oshirishda.

Masofaviy ta’lim texnologiyalarida qo‘llaniladigan aloqa usuli turlicha bo‘lishi mumkin. Ular elektron pochta orqali yozishmalar, shaxsiy saytlar/bloglar orqali muloqotlar, materiallarni turli electron resurslar yordamida o‘rganish va boshqalardan iborat.

Masofaviy ta’limning tarkibiy mazmuni va foydalanish tarkibiga o‘qituvchi, tinglovchi va masofaviy bilim olish platformasi kiradi.

Masofaviy ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish va loyihalashtirish multimediali, innovatsion-kognitiv faoliyatni tashkil etish bilan bevosita bog‘liq.

Olimaning fikrisha, masofaviy ta’lim jarayonini rivojlantirishning asosiy tendensiyalari:

masofaviy ta’limni tashkil etish mazmuni va usullarining telekommunikatsiya hamda axborot texnologiyalari rivojlanishiga bog‘liqligi;

talabalar ushun masofaviy ta’limning individual usullaridan foydalanishdan didaktik o‘qitish va monitoring dasturlarini yaratishga o‘tish;

masofaviy ta’limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalashning pedagogik asoslarini mustahkamlash;

oliy kasbiy ta’limning istiqbolli turi sifatida masofaviy ta’limni qonun hujjatlarida mustahkamlash masofaviy ta’limni sifatli tashkil etishga asos bo‘ladi.

Masofadan o‘qitish kurslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish ushun qanday konseptual pedagogik qoidalar mavjudligini ko‘rib chiqish mumkin.

1. O‘quv jarayonining markazida ta’lim oluvshining mustaqil bilim olish faoliyati turadi (o‘rgatish, o‘qitish emas). Hozirgi kunda axborotlashgan jamiyatda ta’lim berish, mustaqil bilim olish va ularni amaliyotda qo‘llash odamlarning hayoti davomida zaruriyatga aylandi.

2. Masofadan o‘qitish ta’lim oluvchilarga istalgan joyda va vaqtda bilim olish imkonini beradigan moslashuvshan ta’lim tizimi hisoblanadi. Bunda ta’lim oluvchi nafaqat ma’lum bir ko‘zlangan bilimlarni o‘zlashtiradi, balki mustaqil bilim olishni, ma’lumot bilan ishlashni o‘rganadi, kelajakda amaliyotda qo‘llash mumkin bo‘lgan amaliy-metodik usullarni o‘zlashtiradi hamda bu borada yetarli darajada turli jihatdan kompetentlik darajasi oshadi.

3. Mustaqil ravishda bilimlarni egallash nofaol bo‘lmasligi kerak, aksinsha, bilim faoliyati faqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi, balki atrofdagi mavjud turli muammolarini hal qilish ushun ularni qo‘llashni ta’minlashi kerak. Bunday mashg‘ulotlar davomida ta’lim oluvchilar, avvalo, bilimlarni qanday egallashni va amalda qo‘llashni o‘rganishlari zarur bo‘lgan o‘quv vositalari hamda ma’lumot manbalarini izlashi, topishi, qolaversa, ushbu ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

4. Tarmoqda ta’lim oluvchilarning mustaqil (individual yoki guruhiy) faoliyatini tashkil etishda avvalo loyiha uslubidan keng foydalanish, hamkorlikda o‘qitish, tadqiqot, muammoli usullar, ko‘p bosqichli o‘qitish, modulli o‘qitish va boshqalardan foydalanish zarur.

5. Masofaviy o‘qitish o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra, bir vaqtning o‘zida nafaqat tyutor bilan, balki boshqa ishtirokchilar bilan ham aloqa, turli xil bilim va

ijodiy faoliyat jarayonida hamkorlik qilish imkoniyatini istisno etmasligi kerak. Ijtimoiylashtirish muammolari masofaviy o‘qitish ushun juda dolzarbdir.

6. Masofadan turib o‘qitish u yoki bu to‘g‘ri va teskari aloqani nazarda tutadi, chunki u dastlab ta’lim xizmatlariga qaratilgan.

Aynan masofaviy ta’lim mazmunini to‘liq anglash va ta’lim jarayoniga tatbiq etishning introversion usuli bo‘lajak o‘qituvchining axborot texnologiyalari vositasida nechog‘lik muloqot qila olishiga ham bevosita bog‘liq.

Masofaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ish sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirish talablaridan kelib shiqib quyidagi xulosalarga keldik:

1. Masofaviy ta’lim sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, masofaviy ta’limning didaktik asoslarini ishlab shiqish, pedagogik shart-sharoitlari, mazmuni va tuzilmasi, mezonlari va shakllanganlik darajalari, shakl, metod, vositalari, modeli, o‘qitish sifatini oshirish, shuningdek, pedagogika oliy ta’lim muassasasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilgan.

2. Shaxsiy va kasbiy ahamiyatga molik xususiyatlar, umummadaniy (estetik, falsafiy, didaktik, tarbiyaviy), ilm-fanga oid (nazariy, metodik, zamonaviy, amaliy, texnik), psixologik-pedagogik va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan milliy dastur talablari asosida innovatsion-modifikatsion pedagogik va masofaviy ta’limdan amaliyotda foydalana olish metodikalari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ishiga oluvshi murakkab dinamik tizim — masofaviy ta’lim sharoitida metodik tayyorgarlikni takomillashtirish mexanizmi belgilangan.

3. Masofaviy ta’lim sharoitida har bir talabaning fundamental nazariy va amaliy bilimlarni bilishiga, kognitiv-integrativ faoliyatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, tahlil qilish va xulosa shiqarish, mustaqil ishlay olish, har bir talabada shaxsiy metodik tayyorgarlikni takomillashtirish bo‘yicha o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni motivatsion mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat va qat’iyatlilik hissi rivojlantirilgan.

4. Masofaviy ta’lim bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan asosiy yondashuv bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvshisi tajribasining kognitiv-modifikatsion texnikasi hisoblanadi degan qoida tasdiqlangan. Masofaviy ta’lim sharoitida talabalar bilim olish faoliyatining maxsus usullari va uslublari yordamida, o‘zining shaxsiy tajribalarini samarali jalb qilgan holda, yangi ta’lim tajribasi sifatidagi yangi bilim yoki yangi ta’lim mazmunini egallash imkoniyatiga erishilgan.

5. Masofaviy ta’limni tashkil etishda o‘qitish shakli sifatida ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, mustaqil ish, vebinar, seminar, nazorat ishlari, interaktiv bog‘lanish sifatida Zoom, vebinar, forum, chat, videokonferensiya, tvitter, telekonferensiya, tizimni boshqarish jarayoni sifatida ro‘yxatdan o‘tish, fanlarni biriktirish, fanlar mazmunini boyitish, o‘quv dasturlari, dars jadvali, nazoratlarni tashkil etishdan foydalaniladi. Oliy ta’limda Moodle, Hemis, Uniwork va h.k. kabi o‘qitish shakllari mavjudligi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvshisini o‘qitishning masofaviy ta’lim shakllari asosida o‘qitish va mazkur jarayonda elektron manbalar sifatida elektron adabiyotlar, flesh mahsulotlari, audio, video, multimedialardan foydalanish.

Adabiyotlar:

1. Андреев А.А. Дидактические основы дистанционного обучения в высших учебных заведениях: дисс.… док. пед. наук. – М.: 1999. – 289 с.

2. Asqarov A.D. Masofaviy o‘qitish ta’lim shaklining rivojlanish bosqichlari va modellari // Zamonaviy ta’lim. 2015. – 65 b.

3. Raximov A. Masofaviy ta’limning didaktik ta’minoti TATUQF. –Qarshi, 2011. – 68 b.

4. Saidova M. Masofaviy ta’limda o‘qitish imkoniyatlari va usullari // Boshlang‘ich ta’limga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman –Buxoro, 2021. – 192 –196 b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada masofaviy ta’lim tushunchasi, uning mohiyati,tarkibi va bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik-metodologik tayyorgarligini takomillashtirish haqida so‘z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о понятии дистанционного образования, его сущности, содержании, а также совершенствовании педагогической и методической подготовки будущих учителей начальных классов.

SUMMARY

This article talks about the concept of distance education, its essence, content, and improvement of pedagogical and methodological training of future primary school teachers.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK SAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Daminova D.M.
Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so’zlar: matematika, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, matematik savodxonlik, kontekst, matematik tushunchalar va belgilar.

Ключевые слова: математика, рассуждение, решение задач, математическая грамотность, контекст, математические понятия и символы.

Keywords: mathematics, reasoning, problem solving, mathematical literacy, context, mathematical concepts and symbols.

Kirish. Ta’lim jarayoni innovatsion pedagogik texnologiyalar, yondashuvlar, interfaol metodlar bilan boyitilmoqda, kompyuterizatsiya va kommunikatsiya sharoitlari bilan ta’minlanmoqda, etuk mutaxassislarni tayyorlashga nisbatan kouching xizmatlari ko’rsatkichlari ortib bormoqda.

“Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

Tahlil va natijalar. Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo‘lib, tevarak-atrofimizdagi voqea va hodisalarning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga ega. Matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham matematik madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi va matematikajamiyatimizning barcha jabhalariga juda katta madaniy hissa qo‘shadi. Ma’lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o‘rgatadi va eng muhimi, mulohaza yuritish, muammolarni hal qilish, innovatsiyalarga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi". Matematika fani asoslarini yaratishga ulkan hissa qo'shgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy va Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalarimizga munosib yosh avlodni tarbiyalash, zamonaviy bilimlarni o'quvchilarga etkazish hamda mamlakatimiz yoshlarining matematika sir-asrorlaridan bahramand bo'lishlariga sharoit yaratib berish uchun ham qarz, ham farz hisoblanadi.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalar rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi uchun fanlarni mukammal egallashini taqozo etadi. Bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatishga ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Matematika fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish; jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish; o'quvchilarning kuzatuvlar orqali amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, kreativ, tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil, qiziquvchanlik, muammolarni hal qilish, yangiliklar yaratishga bo'lgan ko'nikmalarini namoyon qilish va rivojlantirishdan iborat.

Matematik savodxonlik - shaxsning matematikani turli kontekstlarda formalizatsiya qilish, qo'llash va talqin qilish qobiliyatidir. U hodisalarni tushunish, tushuntirish va bashorat qilish uchun o'z ichiga matematik mulohazalarni yuritish, matematik tushunchalarni, usullarni, faktlarni va vositalarni qo'llash kabi jihatlarni olgan. Matematik savodxonlik insonlarga dunyoda matematikaning o'rnini tushunish, konstruktiv, faol va fikrlaydigan fuqaroga zarur bo'lgan mulohazalarni yuritish hamda qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

Matematik savodxonlikning aniqlashtirilgan ta'rifi matematik vositalar bilan ishlash ko'nikmalarini o'z ichiga olgan. Ularga ishlatilishi umume'tirof bo'lgan va kengaytirilishi davom etgan XXI-asrning texnologiyasiga mansub fizik va raqamli qurilmalar kiradi. Ravshanki, bu ko'nikmalarga ega bo'lish sharti zamonaviy insonning muvaffaqiyatli bo'lishiga zarurdir.

Matematik savodxonlikni baholashni tashkil qilishning asosida quyidagi uchta o'zaro bog'liq jihatlar turadi:

1. Topshiriqlarda ishlatiladigan matematik tushunchalar majmui (mazmun)
2. Muammoni taqdim etadigan vaziyat (kontekst)

3. Bu kontekstda berilgan muammoni echishga zarur bo'lgan matematika bilan bog'lash uchun o'quvchi faoliyatini tasvirlaydigan matematik aqliy jarayonlar.

Matematik savodxonlik tushunchasi turli yillardagi tadqiqotlarda turlicha talqin qilingan. Oxirgi tadqiqot natijalariga ko'ra unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: tanqidiy fikrlash; ijodkorlik, kreativlik; tadqiqot va tahlil qilish; mustaqillik, tashabbuskorlik va qat'iylik; ma'lumotlardan foydalanish; tizimli fikrlash; muloqot qilish; mulohaza yuritish.

Matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni echishda matematikani qo'lay olish va olingan natijalardan muammoning echimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir. U hodisalarni tavsiflash, tushuntirish va oldindan aytib berish uchun tushunchalar, algoritmlar, faktlar va vositalarni o'z ichiga oladi. U insonlarga matematikaning olamdagi o'rnini tushunishga hamda yaratuvchan, qiziquvchan va o'zini o'zi tahlil qiladigan XXI asr fuqarolariga zarur bo'lgan asoslangan hukm va qarorlar qabul qilishga yordam beradi[2].

Matematik savodxonlik har bir kishiga matematika olamini tushunishga, uning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini anglashga, faol, mulohazali va ishning ko'zini biladigan (konstruktiv) XXI asr fuqarosi uchun zarur bo'lgan, asosli mulohazalar yuritish orqali maqbul qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini o'zida shakllantirishga yordam beradi[3].

Ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS – matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoring dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi hamda sifatini solishtirishga, milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

TIMSS birinchi marotaba 1995 yilda Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan. Uning matematik va tabiatshunoslik ta'limi sohasidagi oldingi qiyosiy tadqiqotlardan asosiy farqi bitta mashg'ulotda (matematika va tabiiy fanlar) ikkita fanning birlashishi edi. 1995 yilgacha matematik va tabiiy fanlar ta'limi sohasidagi qiyosiy tadqiqotlar alohida-alohida olib borilgan. 1999 yilda TIMSS tadqiqotida asosan 1995 yildagi tadqiqotlar usullari va vositalari ishlatilgan va shuning uchun TIMSS-R - TIMSS-Repeat deb nomlangan. U faqat 8 ta sinfda o'tkazilgan.

2003- yildan beri TIMSS monitoring tadqiqotiga aylandi va yangi nomi «Trends in Mathematics and Science Study « (Matematik va tabiiy fanlarni o'qitish tendentsiyalari) deb nomlandi. Uning asosiy maqsadi - umumiy o'rta ta'lim tizimining 4 va 8-sinf o'quvchilarida matematik va tabiiy fanlarning ta'lim sifatini qiyosiy baholash. Har to'rt yilda 4 va 8-sinf o'quvchilarining o'quv

yutuqlari baholanadi, ular nafaqat bilim va ko'nikmalarni, balki fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va motivatsiyasini ham o'z ichiga oladi. Tadqiqot shu tarzda rejalashtirilganki, uning natijalari har 4 yilda 4-sinf o'quvchilari 8-sinf o'quvchilari bo'lganda ishtirok etuvchi mamlakatlarning matematik va tabiiy fan tendentsiyalarni kuzatish imkonini beradi. Shunday qilib, boshlang'ich va o'rta maktablarda o'quvchilarning o'quv yutuqlari monitoringi amalga oshiriladi, shuningdek, boshlang'ich maktabdan asosiy maktabga o'tish davrida matematik va tabiiy fandagi o'zgarishlar kuzatiladi.

IEA tomonidan 1995 yilgacha o'tkazilgan matematik va tabiatshunoslik ta'limi sohasidagi barcha tadqiqotlar bir xil kesimda o'tkazilgan. 1995 TIMSS tadqiqoti bitta kesimda emas, balki ketma-ketikdagi ikkita 3-4 va 7-8-sinflar kesimida o'tkazilgan. Ushbu yondashuv muhim afzalliklarga ega edi. U ma'lum bir yosh guruhidagi o'quvchilarni qamrab olish va o'quv yutuqlarini baholashga imkon berdi. Masalan, 1995 yilda TIMSS tadqiqotida o'rganilgan ettinchi va sakkizinchi sinf o'quvchilari soni o'n uch yoshdagi o'quvchilarning deyarli ko'p qismini qamrab olgan. Shu bilan birga, alohida yoshdagi o'quvchilarni o'quv yutuqlaridagi o'zgarishlarni taqqoslash, kuzatish va tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Masalan, sakkizinchi sinf o'quvchilarining 13,5 yoshdagi o'quv yutuqlari va 12,5 yoshdagi ettinchi sinf o'quvchilarining o'quv yutuqlari bilan taqqoslash amalga oshirildi va shu tariqa bir yillik o'qishning o'quv samaradorligi aniqlandi [4].

1995 yil TIMSS tadqiqot kontseptsiyasini ishlagan mutaxassislar D. Uayli va R. Wolfning qarashlariga ko'ra, birinchi bosqichda TIMSS ishida qo'llaniladigan yondashuv an'anaviy tasavvurlar va tadqiqotlar o'rtasidagi kelishuv bo'lgan va o'quvchilarning ilmiy yutuqlari to'g'risida ko'proq ma'lumot bergan. Faqat o'quvchilarning ma'lum bir yoshi yoki yiliga qaratilgan odatiy amaliy tadqiqotdagiga qaraganda o'quv natijalariga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishga ko'proq e'tibor berilgan [5].

Shuni ham ta'kidlash kerakki, 1995 TIMSS tadqiqotida vazifa maktabdagi turli bosqichdagi o'quvchilarning o'quv yutuqlarini taqqoslash edi, shuning uchun uchta guruh o'quvchilari tanlangan. Tanlashda bittasi boshlang'ich sinflardan (3-4) iborat bo'lib, unda to'qqiz yoshli o'quvchilar ko'pchilikni tashkil etgan. Ikkinchi guruhda o'n uch yoshdagi asosiy maktabning ikkita sinfini (7–8) o'quvchilari qatnashgan. Uchinchi guruhga o'rta maktablarning bitiruvchi o'quvchilari kiritilgan.

TIMSSni o'rganishda ishtirok etadigan mamlakatlarning barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarini qamrab olgan birinchi va ikkinchi tanlanmalardan farqli o'laroq, 3-guruh shunchalik shakllantirilganki, unga umumta'lim dasturlari asosida o'qigan oquvchilar bilan birga matematika va fizika chuqurlashtirib

o’rganishga ixtisoslashtirilgan maktablarning bitiruvchi sinf o’quvchilari ham kiritilgan. Bu o’rta maktab bitiruvchilarining tabiiy-matematik savodxonlik darajasi to’g’risida ma’lumot olish va maktabda olingan matematika va tabiiy fan bo’yicha asosiy bilim va ko’nikmalarni turli vaziyatlarda qo’llash malakasi haqida ma’lumot olishga imkon berdi. Bundan tashqari, maktabni tamomlash davrida bitiruvchilarning matematika va fizika bilan bog’liq tayyorgarligini taqqoslash, bitirish arafasida kelajakdagi kasbini tanlash imkoninin berdi.

Shaxsiy hayot bilan bog’liq kontekstlar odatda o’quvchi, oilasi, do’stlari va tengdoshlarining kundalik hayotiy bilan bog’liq (urtoqlari bilan muloqot, sport mashg’ulotlari, do’konlarda savdo-sotiq, dam olish, uy yumushlari).

Ta’lim/Kasbiy faoliyatga doir kontekstlarda berilgan masalalarda maktab hayoti yoki mexnat faoliyat bilan bog’liq. Ular o’lchash, narxni hisoblash, qurilish uchun materiallarni harid qilish (masalan, maktab matematika kabinetiga kitob javonini yasash uchun), buyurtma bo’yicha to’lash, muayaan ishni bajarish.

Ijtimoiy hayotga oid kontekstlar jamiyatning (mahalliy, milliy yoki umuminsoniy) hayoti bilan bog’liq. Maxalliy jamiyat bilan bog’liq vaziyatlar o’quvchi atrofida vujudga kelgan muammolarga (masalan, valyuta ayirboshlash, bankka omonat qo’yish) bag’ishlangan. Kengroq jamiyatda vujudga kelgan muammolar sifatida saylov tizimilari va saylov natijalari bilan bog’liq muammolarga (masalan, prezident saylovlari natijalarini bashorat qilish), transport, hukumat qarorlari, demografik muammolar, milliy statistika va iqtisodiyot masalalari qaralishi.

Ilmiy faoliyatga oid kontekstlar odatda matematikani fan va texnologiyaga, fizik hodisalarga bag’ishlangan (masalan, mavjud statistik ma’lumotlar asosida zilzila ro’y berish-bermasligi to’g’risida hulosa chiqarish). Bu kontekstlarda ob-havo yoki iqlim, ekologiya va tibbiyot, koinot, genetika muammolari qaralishi mumkin. Ularda nazariy savollar (masalan, aholining turli taqsimotlari) yoki bevosita real hayotga bog’liq bo’lmagan sof matematik masalalar (masalan, uchburchakning ikki tomoni berilganda uchinchi tomonni topish).

Xulosa. Matematik ta’limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko‘rinishdagi malakalar o‘quvchilar tomonidan egallanishini nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta’limning asosi amaliy, tadbiqiy yo‘nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi. Bolalarga matematikadan qanday qilib samarali foydalanishni batafsil o‘rgatish, shuningdek, ularni tanishtirish, barcha ko‘nikma, vosita va bilimlarni o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish o‘quvchilarni har qanday vazifaga ishonch, yil davomida ishtiyoq bilan o‘qishlari uchun zarur bo‘lgan tushunchalar bilan ta’minlaydi.

Hammamiz farzandlarimizning matematikada muvaffaqiyat qozonishini xohlaymiz. Ko‘pincha matematikadan sinovga tayyorgarlik materiallariga haddan tashqari ishonish o‘quv vaqtini o‘g‘irlaydi, shu bilan birga, o‘rganish va motivatsiyaga zarar etkazadi. Darslik hamda o‘quv metodik qo‘llanmani yaratishda xalqaro davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganildi. Xalqaro tashkilotlar ekspertlarining tavsiyalari inobatga olindi. Darslikda mavzular sodda, tushunarli tilda, hayotiy masalalar yordamida yoritilgan va rang-barang rasmlar bilan bezatilgan. Fanlararo integrasiya ta’minlangan. Darslik asosan o‘quvchilarda matematik bilim, tasavvur, tafakkur, mantiqiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning imkoniyatlari, yoshi, individual xususiyatlari, XXI asr ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini inobatga olgan holda yozilgan. Topshiriqlar soddadan murakkabga tomon spiralsimon tarzda rivojlanib boradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PF-4708- sonli “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroru

2. Maxmudova D.M. Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va echimlar Pedagogical Education Cluster: Problems and Solutions Кластер педагогического образования: проблемы и решения International Conference “PISA” xalqaro dasturida matematik savodxonlik. Chirchik, Uzbekistan 1476-1480 bet.

3. “Xalqaro tadqiqotlarda o`quvchilarning matematik savodxonligini baholash” “Sharq” NMAK Toshkent 2019.

4. TIMSS Monograph No.2.Research Questions and Study Design. General editor, David F. Robitaille.

5. Pacific Educational Press, Vancouver, Canada, 1996

6. Kovaleva G.S. i dr. Kontseptualьnыe podxodы k otsenke uchebnыx dostijeniy po matematike i estestvoznaniyu v mejdunarodnom sravnitelьnom issledovanii. Moskva, 2008 god. – 44 s

7. Abdimannabovna, M. L. (2022). Opportunities for an Interdisciplinary Integrated Approach to Improving the Culture of Environmental Safety. Eurasian Scientific Herald, 7, 7-12.

8. Abdimannabovna, M. L. (2021). Possibilities of an Integrative Approach to the Formation of A Culture of Environmental Safety. European Scholar Journal, 2(11), 43-44.

9. Таълим ва ривожланиш таҳлили онлайн илмий журнали 207-212 2022/5/30.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarida matematik savodxonlik uchun zarur bo‘lgan matematik bilim va ko‘nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Matematik mulohazalarni yuritish, matematik tushunchalarni, usullarni, faktlarni va vositalarni qo’llash kabi matematik savodxonlik faoliyat sifatidagi mohiyati ochib beriladi.

РЕЗЮМЕ

Статья посвящена вопросам формирования и развития системы математических знаний и умений, необходимых для математической грамотности у учащихся начальной школы. Раскрывается сущность математической грамотности как такой деятельности, как ведение математических рассуждений, применение математических понятий, методов, фактов и средств.

SUMMARY

The article focuses on the formation and development of the system of mathematical knowledge and skills necessary for mathematical literacy in elementary school students. The essence of mathematical literacy as an activity is revealed, such as conducting mathematical reasoning, applying mathematical concepts, methods, facts and tools.

BOSHLANG‘ICH SINF TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Umbarova N.X.
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: sinf, texnologiya, dars, ilmiy-nazariy, ta’lim, qog‘oz, topshiriq.
Ключевые слова: класс, технология, урок, научно-теоретический, образование, работа, задание.
Key words: class, technology, lesson, scientific-theoretical, education, paper, assignment.

Texnologiya ta’limida qog‘ozdan amaliy ish topshiriqlarini bajarishga o‘rgatish o‘qituvchidan muntazam katta tayyorgarlikni, har bitta mashg‘ulotni doimo nazorat qilishni, o‘quvchilarni mashg‘ulotga oid bilimlar bilan qurollantirib, uni amalda q o‘llashni va mavzular mazmunini mukammalashtirib o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etish talab etadi. O‘quvchilar texnologiya darslarida eng avvalo qog‘oz turlari, ishlab chiqarilishi, qog‘ozning xususiyatlari, ishlov berish usullari bilan tanishadilar. Bu barcha o‘quv anjomlari daftarlar, kitoblar, o‘quv q o‘llanmalari, bosiladigai qog‘oz turlari: yoziladigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va oynoma qog‘ozlaridir.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, mehnatning xarakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo‘yadi. Sh o‘nga ko‘ra har bir kishini hayotga tarbiyalashda aniq o‘zgarishlar qilishi lozim. Har bir o‘quvchida zamonaviy ishchi shaxsining sifatlarini shakllantirish uchun maktabning boshlang‘ich sinflarida va hatto ilgariroq maktabgacha muassasalarda, keyinroq maktabdan yuqori sinflardagi ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, keyinchalik kasb-hunar kollejlarida o‘z bilimlarini davom ettirishlari lozim. Butun kuch va qobiliyatlarini siyosiy bilim doiralarini kengaytirish, zamonaviy bilim bilan qurollantirish va jismoniy mehnatni har tomonlama uyg‘unlashtira olishga o‘rgatishdan iboratdir.

Texnologiya ta’limi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang‘ich maktablarda butun ta’lim va tarbiya tizimida hamda barcha o‘quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o‘rinda texnologiya darslari yetakchi rolg‘ o‘ynaydi. Maktabda muntazam texnologiya ta’limining boshlang‘ich bosqichi boshlang‘ich sinflarda

texnologiya darslarida va kichik maktab yoshidagi bolalarni q o‘lidan keladigan ijtimoiy foydali ishdir.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:

- o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, k o‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida q o‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari:

-materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob’ekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish;

-texnik ob’ekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;

-texnologik jarayonlarni boshqara olish hamda maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda q o‘llay olish;

-texnik va kreaktiv fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

-texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qilish;

-buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholash;

-ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Boshlang‘ich maktabdagi texnologiya ta’limining asosiy vazifalari mehnatga axloqiy va ruhiy tayorlash, o‘quvchilarni boshlang‘ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish, mehnatga amaliy tayorlashlardan iboratdir.

Mehnatga axloqiy tayyorlash – o‘quvchilarga jamoada ishlashni, o‘zaro do‘stona yordamni, ijodiy tashabbuskorlikni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilish, mehnat kishilari va mehnat natijalarini xurmat qilishga o‘rgatishdan iboratdir.

Mehnatga ruhiy tayyorlash. Mehnatga ruxiy tayyorlash murakkab, uzoq davom etuvchi va k o‘p qirrali jarayon b o‘lib, u butun ta’lim va tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega b o‘lsada mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Mehnatga ruhiy tayyorlash – o`quvchilarni mehnatga ruhiy tayyorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli va ijobiy musbatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va k o‘nikmalarni egallashga qiziqishini shakllantirishdan ibortadir. O‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatning yaxshi tomonlarini singidirishdir. Bolalarni mehnatga

qobiliyati har bir kishi uchun zarur bo‘lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashish zarurligini anglashlari juda muhimdir. Mehnat ruxiy tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirishni va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib-anglash, psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, taffakkur mehnatning psixologik komponentlaridir.

Mehnatga o‘rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari bolaning xotirasini o‘stirish ham alohida ahamiyatga ega. Texnologiya fani b o‘yicha o‘quv materiallarni eslab qolish boshqa predmetlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Barcha yangi asboblar, materiallarni, opreatsiyalarning nomini boshlang‘ich sinf o‘quvchilari so‘z nomini, predmetini ko‘rib idrok etish bilan fikran biriktirib, tinglab fahmlaydilar, tushunib oladilar.

O‘qituvchi mehnat darslarida faqat tushuntiribgina qolmay, balki asosan materiallar va buyumlar namunasini, asboblarni metarialga ishlov berish usullarini, ish bosqichlarini izchilligini k o‘rsatadi. Shuning uchun texnologiya ta’limida eshitish, k o‘rish xotirasi va harakatlanuvchi xotira muhim rolg‘ o‘ynaydi. O‘quvchilarda texnologiya darsidan amaliyotgacha yangidan-yangi bilim va k o‘nikmalar mujassamlashib boradi, ularni esa anglash va xotiralab qolish kerak.

Texnologiya ta’limini to‘g‘ri tashkil etish bolalarni qiyinchiliklarni yengishga, q o‘yilgan maqsadga erishish yo‘lida matonat va qathiyat bilan kirishishga, boshlangan ishni chala tashlab ketmay, balki oxiriga yetkazishga o‘rgatish lozim. Bu o‘rinda ijobiy natijalar: Mehnatdan quvonish, lazzatlanish va qoniqish hissiyotlarining namoyon bo‘lishi juda muhimdir.

Mehnatda shaxsning qiziqish, qobiliyat, intiluvchanlik kabi shaxsiy psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mehnatga psixologik va axloqiy tayyorlash jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir.

Boshlang‘ich sinflarda keng ma`nodagi ilmiy asoslar haqida emas, politexnik ta’limning elementlari t o‘g‘risida gap boradi. Bu o‘quvchilarda fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg‘onishiga yordam beradi. Biroq, umum ta’lim predmetlarini o‘qitish texnologiya darslarini ma’lum darajada politexnik asoslarda, darsdan-darsga politexnik bilimlarni qo‘shib olib borishga yordam beradi. Politexnik tayyorgarlikka ega b o‘lib, q o‘yilgan mehnat vazifalarini bajarishda asboblardan to‘g‘ri foydalanishga yordam beradi. Shuningdek bu tayyorgarlik kerakli ishlab chiqarish bosqichlarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish, qanday asboblarni q o‘llash va undagi sabablarin anglashga k o‘maklashadi. Texnologiya b o‘yicha dasturning istalgan b o‘limini o‘tishda o‘qituvchi bolalarga ma’lum hajmdagi politexnik bilimlarni beradi. Boshlang‘ich politexnik bilim bilan qurollantirish o‘quvchilarga predmetni yasash, ishlov berilayotgan materialning xususiyatlari, texnologik o‘ziga xosliklari, materialga qo‘lda ishlov berilganda

qo‘llaniladigan asbob-moslamalarning xususiyatlari, ulardan foydalanish qoidalari haqida mahlumot berishdan iboratdir.

Politexnik bilimlar asosan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fan-texnika yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg‘otadi.

O‘quvchilarga berilayotgan politexnik bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga o‘rgatishni ma’lum nazariy darajada amalga oshirishga imkon beruvchi zamindir.

Umumiy o‘rta ta’limning malaka talablari umumta’lim fanlari b o‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta’lim sifatiga q o‘yiladigan talablardan iborat b o‘lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

bilim — o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

k o‘nikma — o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda q o‘llay olish;

malaka — o‘rganilgan bilim va shakllangan k o‘nikmalarni notanish vaziyatlarda q o‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

kompetensiya — mavjud bilim, k o‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda q o‘llay olish qobiliyati.

Mehnatga amaliy tayyorlash va boshlang’ich mehna telementlari bilan tanishtirish texnologiya ta’limining muhim omillaridan biridir. U o‘zaro bog‘langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish u yoki bu materialga ma’lum izchillikda ishlov bera olish, yo‘l qo‘yilgan xatoni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘irlay olish kabilardan tarkib topadi.

Mehnatga amaliy tayyorlash va boshlang’ich mehnat telementlari bilan nafaqat kerakli bilimlar bazasida amalga oshishi mumkin. U boshlang‘ich maktabda boshlang‘ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Texnologiya ta’limining mazmuniga muvofiq o‘quvchilarda mazkur yosh uchun qulay bo‘lgan materiallarga ishlov berishda q o‘llaniladigan oddiy asbob va moslamalarni ishning amaliy malaka va k o‘nikmalarini egallaydilar. Oddiy asbob va moslamalar maxsus asbob va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi.

Boshlang’ich mehnat telementlari bilan tanishtirishda amaliy malaka va k o‘nikmalar bilan qurollantirish, asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarini o‘rgatish ham demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari duch keladigan buyumlar mehnati xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil o‘rganmasdanoq ish opreatsiyalarining tipikligini sezib olish qiyin emas, ular: materiallarni o‘lchab olish va belgilash, ularni qirqib ishlov berish, qismlarni yelimlash, tikish, o‘rash va bog‘lash kabi y o‘llar bilan birlashtirish va mustahkamlash, detallarni yig‘ish va buyumni mantaj qilishdir. Yakunlovchi bosqich buyumni bezashdir.

O‘quvchilardagi mehnatga b o‘lgan qiziqishni o‘z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg‘ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

Bunda o‘quvchilarni e’tiboriga eng oddiy buyum o‘yinchoqlarni, o‘yinlarni, o‘quv qurollarini tayyorlash, naqshlar chizib va qirqib olish, applekatsiya ishlari havola etiladi. Bundan tashqari bolalarda Mehnatga qiziqishni uyg‘otish, mehnat darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash uchun “Mohir q o‘llar” to‘garaklarida, kun uzaytirilgan guruhlarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya ta’limi vazifalari haqida gapirilganda, o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining moddiy va ma’naviy ta’minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Bolalarni aqliy o‘stirishda ham texnologiya ta’limining roli k o‘p qirralidir. Mehnat o‘quvchilarning bilim olishiga intilishlarini q o‘zg‘atuvchi vositagina emas, balki uning manbai hamdir. Texnologiya ta’limi jarayonida o‘quvchilarni aqliy o‘stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga egadir. Biroq har qanday mehnat ham aqliy o‘sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak.

Mehnat eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya ta’limida mehnatga psixologik tayyorgarlik, Mehnat faoliyatining t o‘g‘ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnatkash uchun zarur bo‘lgan sifatlari shakllanadi. Darslarning jihozlanganligi o‘z mehnati uchun shaxsiy ma’suliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo‘pol, og‘ir va yoshlariga nomunosib asboblar bilan shug‘ullansalar ish natijalari ko‘ngildagidek bo‘lmaydi.

Agarda bola har bir qadamda tartiblilikka, aniqlikka rioya qilish lozimligiga ishonch hosil qilinmasa, bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishish haqida gapirish qiyin. Mehnat malakalari madaniyati u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakat izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga b o‘ladigan k o‘p mashq qilishlar natijasida tarkib topadi.

O‘quvchilar o‘rtasida y o‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam esa, ularda do‘stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Texnologiya ta’lim darslarida o‘quvchilar turli qog‘ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari; rangi, qalinligi, zichligi siyohni shimish xususiyati, sathining xarakteri – siliq g‘adir-budirligi bilan tanishadilar. Bu esa o‘quvchilarni qog‘oz va kartonga ishlov berish malaka va ko‘nikmalarini egallashga, ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga, bilimga qiziqishini o‘stirishga yordam beradi. Texnologiya ta’limi darslarida o‘quvchilar ijtimoiy ishlab chiqarish mehnatiga tayyorlashning ilk bosqichlarini o‘rganadilar. Birinchi sinfda o‘quvchilar eng avvalo faqat dars mashg‘ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to‘qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Qog‘oz va uning turlari bilan ishlash, karton va uning turlari bilan ishlash, gazlamaga dastlabki ishlov berish, turli materiallar bilan ishlash, o‘z-o‘ziga xizmat k o‘rsatish

kabilar bilan tanishadilar. Amaliy ishlar jarayonida o‘quvchilarda mehnatsevarlik, materiallarni tejamli sarflash, mehnatga ijodiy yondoshish, tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish, mehnat madaniyatini tarbiyalash, ularga ayrim kasblar haqida tushunchalar singdirib boriladi.

Texnologiya darslarida qog‘oz bilan ishlash asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda qog‘ozga ishlov berish k o‘nikmalarini hosil qilish va ularga shunga muvofiq bilimlarni berishdir. Bu ish birinchi sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirib boriladi, chunki o‘quvchilar qog‘ozdan eng oddiy buyumlarni tayyorlash ishlarini eslab qolishga qodir emaslar. Qog‘ozga ishlov berishda hosil qilingan k o‘nikmalar takror mashq qilishlar natijasida takomillashtirib boriladi. Xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun o‘quvchilarni o‘z-o‘zini nazorat qilishga odatlantirish lozim. Topshiriqlarni bajarish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘zlari topib uni tuzatmagunlaricha hamda bajarilgan ishlarning to‘g‘riligiga ishonch hosil qilmagunlaricha o‘quvchilardan ishni qabul qilmaslik lozim.

Qog‘ozdan amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida yangi ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi. Buning uchun qo‘l asboblaridan foydalanishning o‘ziga xosligini, materiallarni xususiyatini, yasalayotgan buyumlar xususiyatini bilish katta ahamiyat kasb etadi. Dars boshida o‘qituvchi biror mavzu b o‘yicha suhbat olib borar ekan, bu buyum qanday maqsadlarda, ya’ni qayerda ishlatilishini tushuntiradi, s o‘ngra o‘quvchilar tayyorlanayotgan har bir buyumni amalda qo‘laydilar. Qog‘ozdan buyumni tayyorlash usullarini o‘qituvchi sinf doskasiga osib q o‘yilgan y o‘llanma xaritasidan yoki texnik vositalardan foydalanib k o‘rsatadi. Shundan so‘ng u ishni bajarish tartibi va usullariga tegishli savollarni berib, materialni takrorlaydi va buyumni o‘quvchilar bilan birgalikda tayyorlashga o‘tadi.

Texnologiya ta’limida qog‘ozdan amaliy ish mashg‘ulotlari tashkil qilishning bu tartibidan o‘qituvchi mazkur dars uchun belgilangan aniq buyum yoki ishning xususiyatlarini nazarda tutib foydalanadi.

Dars jarayonida o‘quvchilar turli qog‘ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g‘adur-budurligi bilan tanishadilar. Ba’zi narsalarni tayyorlashda bolalar elimdan foydalanadilar. Demak, bolalar 1-sinfdayoq tayyor ilimlarining asosiy xususiyatlari: yopishqoqligi, saqlanishi, elimlashni o‘rganishlari kerak.

Qog‘oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, bolalar ularni osonlik bilan uzlashtirish oladilar. Qog‘oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mehnat turlari b o‘yicha texnologiya ta’limida keng k o‘llaniladi.Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limi dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, ahloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarini shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan b o‘lib o‘z oldiga quyidagi maqsadlarni q o‘yadi.

Texnologiya ta’limining yangi dasturlari, metodlari va tashkiliy shakllari asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya dasturlarida mehnat madaniyatining malaka va k o‘nikmalari aks ettirilgan b o‘lib, unga qarab maktab o‘quvchisi, o‘qituvchisi va maktab faoliyatiga baho beriladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning u yoki bu xususiyatlarini, mehnat madaniyatining tarkibiy qismi birligini hisobga olganda dastur tuzib chiqadi.

Texnologiya ta’lim y o‘nalishlaridan birinchisi bolada va o‘smirda inson mehnati haqida va uning mehnatining mahsuli yaratilgan buyumlar t o‘g‘risida, ishlab chiqarish muhiti, materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqida tasavvurlar hosil qilishga har tomondan yondashishni talab qiladi. Mehnatga o‘rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari bolaning xotirasini o‘stirish ham alohida ahamiyatga ega. Boshqa fanlarda bo‘lgani kabi texnologiya fanida ham xotira muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning o‘z hayoti davomida bo‘layotgan jarayonlarni esda olib qolishi va keyinchalik ularni esga tushirishi xotira deb ataladi. Texnologiya darsining har bir mavzusida yangidan-yangi bilim va ko‘nikmalar mujassamlashib boradi, o‘quvchilar esa ularni anglashi va xotirasida saqlab qolish kerak. Olimlarning ta’kidlashicha inson eshitganda 20% ,ko‘rganda 30% ma’lumotni esda saqlab qolarkan.Amaliy mashg‘ulot davomida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha yangi bilimlarga ega bo‘ladilar,o‘qituvchi ko‘rgazmali qurollar yordamida yangi mavzuni yanada kengroq ochib beradi.Bu esa o‘quvchilarda mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.

Harakat xotirasi – turli xil xarakatlarni va ularning tizmlarini esga solish,esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat.Harakat xotirasi har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib toptirishning asosini tashkil qiladi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qog‘ozdan yoki boshqa materiallardan narsalar yasashda harakat xotirasi yetakchi o‘rin tutadi. O‘quvchilar yasagan narsa va buyumlarni qayta yasash jarayonida ya’ni mustahkamlashda bajargan harakatlarini har bir bosqichini qayta esga tushiradi. Agarda o‘quvchilarda harakat xotirasi yaxshi rivojlangan bo‘lsa bu ishlar ularda hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi.Texnologiya ta’limini to‘g‘ri tashkil etish bolalarni hayotdagi mashaqqatlarni ,qiyinchiliklarni yengishga o‘rgatadi. Amaliy mashg‘ulotlar texnologiya ta’limining asosini tashkil qiladi. Texnologiya ta’limi orqali o‘quvchilarda kreativ fikrlash ko‘nikmasi shakllanadi. Kreativ fikrlagan o‘quvchida yangi g‘oyalar , maqsadlar paydo bo‘ladi. Bu o‘rinda ijobiy natijalar: mehnatdan quvonish, va o‘z ishidan zavqlanish kabi hissiyotlar namoyon bo‘ladi. Texnologiya ta’limi o‘quvchilarni birgalikda jamoa bo‘lib ishlashga chorlaydi. Amaliy mashg‘ulot davomida o‘quvchilar bilim,ko‘nikma va hayotiy tajribaga ham ega bo‘ladilar.

Bizga ma’lumki texnologiya fani juda qiziq va biroz mashaqqatli fan.Ta’lim sohasida ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda jumladan, texnologiya fanida ham bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirildi. 2017-yil 6-apreldan mehnat fani texnologiya fani deb yuritila boshladi, dastur va o‘quv rejalarda ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Texnologiya ish rejasiga qarasak bazi sinflarda mavzular soni qisqartirilgan, bazi sinflarda esa yangi mavzular kiritilgan va qayta to‘ldirilgan. Texnologiya fanini o‘qitishda yangicha yondashuvlar vujudga keldi. Texnologiya o‘quvchilarni kundalik hayotga tayyorlaydi, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.O‘quvchilarni yaratuvchanlikka, izlanuvchanlikka o‘rgatadi. Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dars sifati va samaradorligini oshiradi. Texnologiya ta’limida ham turli interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni mavzuni yaxshi tushunishga, mavzuga doir materiallarga unga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, shu bilan birga o‘quvchilarning bilimini oshiradi.Texnologiya darslarida amaliy ishlarni tashkil etishda integratsiya asosida dars o‘tish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda boshlang‘ich sinflar fanlarini integratsiyalash kunning dolzarb muammosiga aylanmoqda. Texnologiya fanini ham integratsiya asosida tashkil qilsa o‘quvchilarda mavzuga doir atroflicha, turli-tuman bilimlar majmui hosil bo‘ladi, darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Qadimdan bizni bobolarimiz, ustozlarimiz dars jarayonida integratsiyani qo‘llab kelgan, ammo buni fanda integratsiya atamasi bilan qo‘llanilishini bilishmagan. Bundan ko‘rinib turibdiki G‘arbda integratsiya paydo bo‘lishidan oldin, fan sifatida shakllanishidan avvalroq bizning ajdodlarimiz undan amaliyotda foydalanib kelishgan. Bunga misol qilib Abu Ali Ibn Sinoning “Bog‘da dars o‘tish” metodini keltirishimiz mumkin. Ibn Sinoning ta’kidlashicha bog‘da, ochiq havoda, tabiat qo‘ynida dars o‘tilganda o‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, fanga bo‘lgan munosabati yaxshilanadi. Boshlang‘ich sinflarda integratsiya kursi asoslari. Ona tili, o‘qish, tabiat, tasviriy san`at, musiqa, matematika, texnologiya, tarbiya darslari integratsiyasini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinflarda fanlarni integratsiyalash dars samaradorligini oshiradi, vaqtdan unumli foydalanishga olib keladi, darsni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, bo‘sh vaqt orttiriladi va to‘garaklarga jalb etiladi. Integratsiyaga ilmiy tomondan to‘xtaladigan bo‘lsak,Integratsiya - lotincha “integratio” so‘zidan olingan bo‘lib, to‘liq, yaxlit, bir butun degan ma’nolarni bildiradi.

Texnologiya ta’limi y o‘nalishining ikkinchisi, o‘quvchilarda oilada va turmushdagi vazifalarni taqsimlash, ularni bajarish to‘g‘risidagi tasvvurlarni shakllantirish. Texnologiya ta’limi y o‘nalishining uchunchisi esa hozirgi zamon o‘quvchisi tabiatga ekologik munosabatda b o‘lishni shakllantirish, uni qishloq xo‘jaligi sohasidagi malaka va k o‘nikmalari bilan qurollantirish kerak. Texnologiya ta’limi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va k o‘nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga b o‘lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.Qog‘oz bilan ishlash darslarida o‘quvchilarga

ish o‘rnini tashkil qilish, qog‘oz va uning turlari, qog‘ozdan buyumlarni yasash boskichlari haqida, ya’ni qog‘ozni buklash, qirqish, yirtish, yig‘ish va ishlov berish t o‘g‘risida, ishni t o‘gatgandan s o‘ng xato va kamchiliklarni y o‘qotish haqida va boshqalar t o‘g‘risida tasavvur hosil b o‘ladi.

Qog‘oz va karton bilan ishlash mashg‘ulotlariga oldindan q o‘yidagicha tayyorgarlik k o‘rishadi: stolning ustiga kog‘oz yozib, ung tomoniga qaychi, elim uchun ch o‘tka, chizg‘ich qalam avtoruchka, old tomonlariga elim qiyqimlar uchun quti, chap tomonlariga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog‘oz t o‘plamini q o‘yadilar. Har bir mashg‘ulot oxirida o‘quvchilar keyingi mashg‘ulotda kerak b o‘ladigan narsalarni yozib oladilar. O‘quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda b o‘lishlari, o‘z ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqdan unumli foydalanishlari, o‘qituvchi k o‘rsatmalariga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashlari, mashg‘ulotdan so‘ng sinfni tozalab q o‘yishlari kerak. Barchamizga ma’lumki, texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani insonning aqlini o‘stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko‘zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o‘zida qat’iyat va irodani tarbiyalaydi, o‘zidagi algoritmik tarzdagi tartib-intizomlilikni ta’minlaydi va eng muhimi uning tafakkuri kengayadi.

Adabiyotlar:

1. Umbarova Nasiba “Methodology of Organizing Lessons for Primary School Technology Teacher with Paper and Carton” International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume 15 (40-45-page) 2022 https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm.

2. Ashurov N.R, Umbarova N.X.Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida qog‘oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. “Monografiya” Denov -2022, 160 b.

3. Umbarova Nasiba Xolboy qizi “Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida texnologik atamalardan foydalanish “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 3(1/2), Jan., 2023 www.oriens.uz.

4. Nasiba Umbarova, Maftuna Rashidova “Boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida amaliy ish samaradorligini oshirish texnologiyasi” boshlang‘ich ta’lim tizimiga integrativ yondashuv: nazariya va amaliyot Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar t o‘plami. 284-285-b.Denov-2022.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola boshlang‘ich sinf texnologiya darslarini tashkil etish va o‘tkazishning ilmiy-nazariy asoslari va boshlang‘ich sinf texnologiya darslarida qog‘oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish haqida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о научно-теоретических основах организации и проведения занятий по технологии в начальных классах и совершенствовании методической подготовки учителя по организации практических работ из бумаги и картона на уроках технологии в начальных классах.

SUMMARY

This article is written about the scientific-theoretical basis of organizing and conducting primary-grade technology classes and improving the teacher’s methodological preparation in organizing practical works from paper and cardboard in primary-grade technology classes.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING KOGNITIV JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Mamatmuminova M.G.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha talim fakulteti
Maktabgacha talim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: maktabgacha, katta, yosh, bola, texnologiya, shakl.
Ключевые слова: дошкольный, взрослый, юношеский, ребенок, технология, форма.
Key words: preschool, adult, youth, child, technology, form.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish tobora boshqacha tus olayotgan sari, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bu jarayonning samaradorligini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida har tomonla mayetuk kamol topgan, bolalarni ta’lim va tarbiya berishning asosiy masalasi o‘z aksni topgan.

Dastur talabiga muvofiq, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni ma’naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tarbiyalanuvchilarni tabiat bilan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, Vatanga mehrli bo‘lish, ekologik ta’lim - tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bulgan yoshlami tarbiyalashdir. Tabiat bilan tanishtirish maktabgacha ta’lim didaktikasida muhim o‘rin egallaydi, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiat bilan bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini hisobga olgan holda tanishtiriladi. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, harakter hislatlari, iste’dodlari hisobga olinadi.

– Bola a’zolarining tuzilishi

– oliy nerv tizimi, ichki a’zolari, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo‘ladigan o‘zgarishlar tabiat bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o‘simliklar o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko‘nikmalar hosil qilish ta’lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgalar mehratini qadrlash, o‘simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish

qilish, o‘z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning ahamiyati tabiatga muhabbat-juda keng qamrovli va murakkab his-tuyg’udir. U yuksak ruhiy va akliy qatlamlarni o‘z ichiga oladigan murakkab bir butunlikni tashkil etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga doir tadqiqot ishlarini olib borgan M.Umarovaning fikricha, bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Har bir bolada o‘zi yashab turgan mahalliy o‘lka va O‘zbekiston tabiatiga muhabbat bilan qarash, unga ko‘ngil qo‘yish ishtiyoqi o‘sib boradi. Bolalikda tug’ilgan bu tuyg‘u maktab yillarida rivojlanib, boyib boradi. Ana shuning uchun ham P.Yusupova o‘zining «Formirovanie nachal materialisticheskogo miroponimaniya u starshix doshkolnikov v prosesse oznakomleniya ix s rasteniyami v usloviyax Uzbekistana» deb nomlangan tadqiqot ishida metodist olim A.V.Zaporojesning quyidagi fikrini o‘rinli keltiradi: «... maktabgacha yosh didaktikasini shunday yo‘lga qo‘yish kerakki, bolalar tevarak-atrofdagi buyumlaming tashqi jihatlari bilangina emas, balki ular orasidagi eng oddiy bog‘lanishlar, kuzatilayotgan hodisalaming eng yaqin sabablari, o‘zgarish va rivojlanishlaridagi ayrim xususiyatlar bilan ham tanishsinlar, bunday material saviyaga mos bo‘libgina qolmay, maktabgacha yoshdagi bola uchun qiziqarli hamdir”.

Bola ana anglash orqali tabiat qonunlarini bilib boradi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish - bu ularda tabiatga to‘gri munosabatni tarbiyalash va hissiy tajribaga asoslangan, atrof-muhit haqidagi real bilimlarni anglashning ta’limiy vositasi. Kuzatishlaming tasdiqlashicha, bolalarning atrof-muhitdagi faoliyati asosan o‘z-o‘zidan, kutilmagan tarzda kechadi va buni ulardagi tabiatga bo‘lgan bunday munosabatning asosiy sababi deb hisoblash to‘gri bo‘ladi Oila, mahalla, bir so‘z bilan aytganda, tevarakdagilarning, ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining pedagogik ta’siri bilan bunday nojoiz faoliyat tuzatib boriladi. Mana shuning uchun ham maktabgacha yoshdayoq bolalarning tabiat haqida ishonarli ma’lumotlarni egallashlari juda muhim. Bolalar tabiat hodisalarini to‘gri idrok etishlari uchun ularning tabiatni idrok etish jarayonini yo‘naltirish zarur.

Bolalarni tabiatga oshno etmasdan va maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ta’lim-tarbiya ishlarida undan keng foydalanmasdan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni har tomonlama - aqliy, estetik, ahloqiy, jismoniy jihatdan tarbiyalash vazifasini muvafaqqiyatli hal etib bo‘lmaydi. Bolalami tabiat bilan tanishtirishning ta’limiy-tarbiyaviy vazifalari. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ko‘ra bolalami tabiat bilan tanishtirish jarayonida o‘zaro bir-biriga bog’liq ta’limiy- tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi.

Aqliy tarbiyadagi asosiy vazifasi - bolalarda jonsiz tabiat, o‘simliklar, hayvonlar haqida ma’lumot berish, ularning tabiat voqea-hodisalarini yetarlicha idrok eta olishlariga imkon berish. Aqliy tarbiyaning ajralmas qismi - sensor madaniyatdir. U taxlillarni takomillashtirish, bolalarda keyingi umumlashmalar uchun asos bo‘ladigan hissiy tajribani mustahkamlash, tabiatshunoslikka oid. dastlabki tushunchalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Bolalarning tabiat haqidagi bilimlarni egallashlari ularning bilish qobiliyatlari - sensor apparati, mantiqiy fikrlashi, diqqat, nutq, kuzatuvchanlik, bilishga qiziqishi kabilar bilan mustahkam bogMangan bo lishi kerak. Fikrlashni rivojlantirish va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun bolalarning tabiat predmet-hodisalari bilan tanishtirish, ularni kuzatilayotgan predmet-hodisalami tushunishga o‘rgatish va ular orasidagi aloqa va munosabatlarni anglashlariga olib kelish kerak. Anglash jarayonidagi tabiat hodisalari orasidagi sababiy aloqalar va munosabatlar fikrlashni rivojlantiradi. Bola o‘zini o‘rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligini terisi bilan, suyuqliklarning ta’mini tili bilan, havodagi hidni burni bilan, tabiatdagi xilma-xil ob’ektlaming rangini ko‘zi bilan, tovushlarni qulog’i bilan sezib, ya’ni mazkur xossalar bolaning besh turli sezgisiga ta’sir etib, shu a’zolarda joylashgan asab hujayralari orqali bosh miyasiga borib yetib, natijada miyada tabiatning ayrim xossalari to‘g‘risida bilim paydo bo‘ladi, ularning ko‘rinishlari, qiyofalari, tasvirlari, manzaralari vujudga keladi. Bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash ham muhimdir.

Bolalarga hayvonlar va o‘simliklarni qanday kuzatishni ko‘rsatish, ulaming diqqatini ularning tashqi ko‘rinishi, harakatiga qaratish orqali tarbiyachi ularda nafaqat tabiat haqida bilimlarni, balki ularga mas’uliyatli munosabatni shakllantiradi. Faqatgina har doim bolaning yoshini hisobga olish va uning diqqatini mazkur predmet va hodisadagi predmetlarga qaratishni bilish zarur. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida ahloqiy, jismoniy, mehnat va estetik tarbiyani amalga oshirish zarur. Bolaning ahloqiy rivojlanishida unda Ona tabiatga muhabbat va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish asosiy o‘rin tutadi. Bolalarga bu borada eng yaqin yo‘l ular o‘sib ulg‘ayotgan joydir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi bolalar bilan hayvon va o‘simliklami kuzatadilar va parvarishlaydilar. Natijada ularda tabiatga ehtiyotkorona munosabat, mehnatni sevish va mehnat qilishga odatlanish, topshirilgan ishga mas’uliyat o‘z-o‘zidan shakllanadi. Bolalarda mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash uchun ularni o‘simliklarni sug‘orish va hayvonlarni ovqatlantirishning oddiy usullarini o‘rgatish zarur. Eng muhimi, bolalarning o‘zlari bajarayotgan ish jarayoni va natijalaridan zavq olishlariga erishish lozim. Mehnatsevarlik sifatini shakllantirish uchun bolalarni kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirish, ularning faoliyatiga hurmatni tarbiyalash zarur.

Bolalarning tabiatda bo‘lishi va mehnatidan ularning jismoniy rivojlanishi va salomatliklarini mustahkamlash uchun foydalanish muhim ahamiyatga ega. Tabiat bolalarni estetik tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Tabiatning go‘zalligi hatto eng kichik bolalarni ham o‘ziga rom qilmasdan qolmaydi. Ularni tabiatni bilish

jarayonida e’tiborlarini o‘rmonning shovqinlari, qushlarning sayrashi, barglarning shakli va rangi, gullarning hidlari, hayvonlarning harakatlariga qaratish kerak. Buning muhim jihati bola kelajakda o‘z hayotida dunyoning barcha va xilma-xil go‘zalliklarini idrok eta olishiga sharoit yaratishdir.

Turli yosh guruhi bolalarining tabiat bilan tanishtirishda psixik xususiyatlarini rivojlantirish. Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o‘sishiga ta’siri kattadir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta’lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o‘rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muxidmdir. Haqiqatni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasi, bolalarda tabiat haqida noto‘g’ri tushunchalar hosil bo‘ladi. Noto‘g’ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidanoq, his etilish, qabul qilib olish va zehniy rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir.

Tabiat vositasida bola shaxsini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash. Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish haqida boyitish, shuningdek, o‘simliklar o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko‘nikmalar hosil qilish ta’lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, o‘simlik va hayvonlarni asrash, ulami parvarish qilish, o‘z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. Tabiat bilan tanishtirishning bolalarni aqliy jihatdan o‘sishiga ta’siri kattadir. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda talim-tarbiya jarayonida ulaming ongida atrofni o‘rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to‘g‘ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasa, bolalarda tabiat haqida noto‘g’ri tushunchalar hosil bo‘ladi.

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir kismi bo‘lib, u o‘z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishni vazifa qilib qo‘yadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning ko‘p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir. Yoshlarga estetik tarbiya berishdan maqsad - shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarak-atrofdagi narsalarni to‘g‘ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o‘stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan isiyinish, yurish-turish, mehnat qilish, omma orasida o‘zini to‘g‘ri tuta bilish kabi hislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevish va undan zavq olish, ya’ni go‘zallikni his qilishni o‘rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvmng jildirab oqishi, qishda qorning g’ichirlashi - bulaming hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur

etishga imkon beradi va ularda estetik hissiyotini tarbiyalashda va o‘stirishda boy material bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti yoshidagi bolalarda bunday estetik tuygculaming o‘sishi esa, o‘z navbatida san’atni, hayotni, tabiatni sevish, uni tushunish va o‘rgamsh uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Avval tabiat go‘zalligini, so‘ngra san’at go‘zalligini his etish kerak. Tabiatdagi va san’atdagi go‘zallik bilan tanishish bolaning aql-idroki va his- tuyg‘ularini tarbiyalabgina qolmay, balki uning axloqini, aqliy xayol va fantaziyasini ham rivojlantiradi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti yoshidagi bolani tabiat bilan tanishtirishda uni zavqlantirish, estetik his-tuyg4ularni hosil qilish oson ish emas. Uning tabiat go‘zalliklarini ko‘ra bilishi, ulardan bahramand bo‘lishi, qalbida havas, qiziqish, hayajonlanish hislarining uygconishi uchun oylar, yillar kerak bo‘ladi. Bolani estetik tarbiyalashni tabiatga sayohat, sayrlar yoki maktabgacha ta’lim tashkiloti hovlisidagi xushmanzara gullarni, chiroyli bog‘ hovlilarini kuzatish orqali amalga oshirsa bo‘ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat orqali estetik ruhda tarbiyalashni tabiatning istagai faslida amalga oshirish mumkin. Axloqiy tarbiya. Axloqiy tarbiya deganda, yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuygculari, intizomlilik, xulq-atvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do‘stlik, tinchlik, inson harakterinyng irodaviy hislatlari hamda shaxsning ijobiy, axloqiy sifatlari, poklik, to‘g‘rilik, kamtarlik, xullas barcha olijanob hislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash tushuniladi.

Tabiat vositasida bolalarga axloqiy tarbiya berishning yo‘llari juda ko‘p va xilma-xildir. Bizyuqorida faqat uning ba’zi birlarini eslatdik, holos. U ni har bir tarbiyachi o‘z sharoiti, o‘z milliy urf-odatlari asosida amalga oshirsa, nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi. Bolalarning o‘simliklar o‘stirish va hayvonlarni parvarish qilishda ishtirok etishlari ularda har bir ishda javobgarlikni his qilishga va mehnatsevarlikka zfgatadi. Jismoniy tarbiya. Insonning ma’naviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan soglom bo‘lishining ahamiyati beqiyos kattadir. Xalqimiz “tani sog’lik - tuman boylik”, “to‘rt muchaling sogc bo‘lsin” deb bekorga aytmagan. Bu naqllarning turli-tuman ma’nosi bor. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasidan ma’lumki, bolalar 7-8 yoshgacha bo‘yiga har yili 5 sm gacha o‘sib, tana og‘irligi 2-2,5 kg ga ortib boradi. Keyin esa biroz sekinlashadi. Bundan kurinib turibdiki, bolaning jismonan sog’lom o‘sishini yoshlikdan ta’minlash kerak. Maktabgacha yoshidagi bolalarni jismonan sog‘lom tarbiyalash uchun nimalarga e’tibor berish zarur? Bunda qanday tarbiya vositalaridan foydalanish kerak, degan haqli savollar tug’ilishi mumkin. Bolalarni jismonan to‘g‘ri tarbiyalash uchun quyidagi shartlarga qatiy rioya qilish kerak:

– gigienik ko‘nikmalar hosil qilib tarbiyalash (bino, hovli, jihozlar, kiyim-bosh, poyabzal gigienasi);
– tibbiyot xodimlarining doimiy nazoratida (sogiig’i, antropolitik ma’lumotlari, fiziologik holati) bo‘lish;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bolalarning kun tartibini tuzish (ovqatlanish, uyqu, o‘yin, mashg’lot, sayrlar, organizmni chiniqtirish). Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishda ochiq havoda sayr qildirish, tog‘ etaklari, daryo bo‘ylariga sayohatga chiqish, shahar ichidagi istirohat bogiarida bo‘lish, ular bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti hovlisida ishlash, harakatli o‘yinlar tashkil qilish, o‘simliklar va hayvonot dunyosi bilan tanishish, hayvonot bog‘larida bo‘lish kabilar bolani jismoniy tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hovlisidagi gullarni parvarish qilish, tagini yumshatish, sug‘orish, gulzorni begona o‘tlardan tozalash, gullarga mineral ya madaniy o‘g’itlar solish kabi ishlar bolalarni ham mehnatsevarlikka, ham Jismonan soglom bo‘lib o‘sishlariga yordam beradi. Yosh avlodni jismoniy tarbiyalashda yer maydonchasi, maktabgacha ta lim tashkiloti hovlisining mavjudligi katta ahamiyatga ega.

Bola ochiq havoda sayr etar ekan, nafas olish organlarining rivojlanishi bilan birga tanasining boshqa a’zolari mustahkamlanadi, sogMom o‘sishi uchun sharoit yaratiladi. Tabiat vositasida jismoniy tarbiya berishning turlari juda ko‘p bo‘lib, ulardan oqilona foydalanish kerak. Bolalarning ekologik tarbiyasi-pedagogikaning bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturlarida o‘z ifodasini topgan an’anaviy yondashish, keyingi yillarda yuzaga kelgan yangi bir yo‘nalishdir. Voyaga yetayotgan avlodni ekologik tarbiya muammosi avvalambor hozirgi zamon olimlarining tabiat va jamiyatdagi o‘zaro bogilqliklarini diqqat bilan kuzatishlari natijasida kelib chiqdi. Hozirgi kunda inson va tabiatning o‘zaro munosabatlar harakteri yer sharida hayotni saqlab qolish bilan bog’liqdir.

Ushbu muammolarning dolzarbligi, ekologik va biologik qonuniyatlami hisobga olmagan holda tabiiy resurslardan foydalanish, sanoat ishlab chiqarishning tez sur’atlar bilan o‘sib borishi va nihoyat, tabiatda inson faoliyati orqali yuzaga kelgan aniq ekologik xavf vujudga kelganligi bilan asoslanadi. Olimlar tabiat jamiyat bir-biriga ta’siming o‘ziga xosligini tahlil qilish orqali, hozirgi zamon sharoitida tabiat va jamiyatning yangi turiga utishni ta’minlash kerak degan xulosaga keldilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki aynan shu yoshda informasiyalarning 70% ni qabul qiladilar, ma’naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevor asoslari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi maqsad sari yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bogiiq bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtai nazaridan yo‘naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan harakterlanadi. Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa. Maktabgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi - tabiatni bilish bo‘yicha bilim va uning ekologiya nuqtai nazaridan yo‘naltirilganligi, kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda: (uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o‘yinlarda) foydalanishni tashkil qiladi. Maktabgacha ta’lim

tashkilotlaridagi pedagogik jarayonda shaxsni ekologik tarbiyalash quyidagi faoliyat turlarini ochib berish orqali amalga oshirilishi mumkin.

1. Bolalarda ekologik ong elementlarini shakllantirish. Bola ekologik ong elementlarini tushunish va tasavvur etish, tabiat to‘grisidagi bilimlarning harakteri va mazmuni bilan aniqlanadi. Ularda, tabiiy hodisalarning o‘zaro bogcliqligini namoyon qiluvchi ekologik mazmunga ega bo‘lgan bilimlar bo‘lishi kerak.

2. Bolalarda tabiat bilan bogiiq bo‘lgan turli xil bilim va malakalarni shakllantirish, faoliyat bilan bog’liq bo‘lgan harakatlar tabiatni saqlash harakteriga ega bo‘lishi kerak. Tabiat bilan bog4liq holda olib borilayotgan aniq faoliyat davomida (dala hovli va tabiat burchaklarida o‘simlik va hayvonlarga qarash, tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarda faol qatnashish) bolalar tirik organizmlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, o‘simlik va hayvonlar uchun tabiiy sharoitga yaqin bo‘lgan aroitlami tashkil qilishni o‘zlashtiradilar. Bunda, salbiy ishlarning oqibatlarini oldindan ko‘ra-bilish, tabiatda o‘zini qanday tutishni bilish, aaohida olingan turkumlar va tirik organizmlarning butunligini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo‘lib, u o‘z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilish jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishni vazifa qilib qo‘yadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning ko‘p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir.

Adabiyotlar:

1. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik.
2. Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU -2013y. O‘quv qo‘llanma.
3. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari T.: 2015 y. O‘zPFITI. Uslubiy qo‘llanma.
4. “O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi “Xalq so‘zi” 2017-yil 8 fevral.
5. Sh. A. Sodiqova, M. A. Rasulxo‘jayeva “Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi” “Fan va taxnologiya”- T.: 2012.
6. O.Hasanboyeva, X.Jabborova, Z.Nodirova “Tabiat bilan tanishtirish metodikasi” “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot matbasi -T.: 2016.
7. Saidahmedov N. “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar” – T.: O‘zMU OPI, 2003. – 68 b.
8. L.A. Alibekov “Inson va tabiat” O‘quv va metodik qo´llanma “Fan va texnologiya” -T.: 2016.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning kognitiv jarayonlarni rivojlantirishdagi o‘rni va bolalarni tabiat bilan tanishtirish modelining didaktik imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о роли приобщения детей дошкольного возраста к природе в развитии познавательных процессов и дидактических возможностях модели приобщения детей к природе.

SUMMARY

This article talks about the role of introducing preschool children to nature in the development of cognitive processes and the didactic possibilities of the model of introducing children to nature.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING AHAMIYATI

Kadirova Sh.X.
TerDPI Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi katta o’qituvchisi (PhD)

Tayanch so‘zlar: xorij, maktabgacha ta’lim, musiqiy ta’lim, tafakkur ustaxonasi, intellekt, ta’lim dasturi.

Ключевые слова: за рубежом, дошкольное образование, музыкальное образование, мастерская мышления, интеллект, ликбез.

Key words: abroad, preschool education, music education, thinking workshop, intelligence, educational program.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida milliy g‘ururni shakllantirish maqsadida o‘tilayotgan mashg‘ulotlar mavzulari bolaning har tomonlama rivojlanishiga, yuksak odob-axloqli, milliy g‘ururli, komil inson bo‘lib tarbiyalashiga yordam berishi lozim.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda milliy g‘ururni shakllantirishda nafaqat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, balki oilaning ham mavjud holatini o‘rganish muhim ahamiyatni kasb etadi. Chunki, bolalarning bo‘sh vaqti, asosan, uyda, oila davrasida o‘tadi. Buni hisobga olmaslik, yosh avlod tarbiyasida ota-onaning burchi va vazifalari haqida yanada chuqurroq o‘ylamasak xato bo‘ladi.

Milliy g‘ururning bir jihati Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanini sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas.

Oila tarbiyasida doimiy ta’sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a’zolarining o‘zaro aloqasi, ota-ona, aka-uka va boshqalarning hulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta’sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi hulq-atvorli, uning a’zolarining o‘zaro munosabatlari samimiy bo‘lsa, oila tarbiyasi ham shunchalik samarali bo‘ladi.

Imom ibn Kudoma o‘zining: “Minxojul-kosidin” nomli kitobida bir necha odoblarni zikr qiladi: “Bola voyaga etib, unda fikrlash alomatlari namoyon bo‘lsa, uni yaxshi kuzatish va ahvolini o‘rganish lozim bo‘ladi. Chunki bolaning qalbi sodda va toza bo‘lib, u har qanday naqshni qabul qilishga tayyor. Agar yaxshilikka odatlantirilsa, yaxshilik bilan ulg‘ayadi. Agar yomonlikka odatlansa, yomonlik

bilan ulg‘ayadi va javobgarlik uning yaqinlari bo‘yniga tushadi. Shuning uchun bolani ehtiyot qilish, tarbiyalash, yomonliklardan pok tutib yaxshi axloqlarni o‘rgatish lozim. Agar bola yuzida hayo nurlari ko‘rinib, ba’zi ishlardan uyalsa va hayo qilsa, uni yomon deb bilsa, bu yaratganning hidoyati va axloqining yaxshiligi va qalbining tozaligiga dalolat qiladigan yaxshilikdir. Agar bolaning holati shunday bo‘lsa, u balog‘atga etganda komil, aqlli bo‘lishi bilan kelajagi porloq. Bolaga chiroyli odob berishga rioya qilish diqqat-e’tiborga sazovor ish”1.

Milliy g‘urur, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchidir. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ota-onalari bilan ham milliy g‘urur, mafkuraviy ta’lim ishlarini olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini yoshlikdan xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish mafkuraviy tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab uni narsalar olami bilan tanishtirishning milliy an’analarimizga xos shakllarini qo‘llash lozim. Chunki, davlat va jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday voyaga etishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. O‘z navbatida milliy g‘urur millatning ma’naviy darajasi bilan belgilanadi.

Yosh avlodni bolaligidan boshlab milliy g‘ururli, kishilarga mehr muhabbatli, izzat-hurmatda bo‘lish, vatanning qadriga etish va hurmat qilish kabi ijobiy hislatlarni tarbiyalab borish barchamizning vazifamizdir.

Oilaning jamiyat hayotidagi ahamiyatini o‘zbek xalqi qadimgi davrlardanoq ta’kidlab kelgan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da oila tarbiyasi masalalariga alohida urg‘u berilgan. Ushbu asarda oilani himoyalash, bir necha bolani dunyoga keltirib, tarbiyalagan ayollarni mukofotlash, ularga nafaqa tayinlash to‘g‘risidagi g‘oyalar o‘z aksini topgan.

Islomiy qadriyatlarda ham oilada farzandni jamiyatga munosib inson qilib tarbiyalash, axloqli, mehnatsevar, go‘zal fazilat egasi etib shakllantirishga alohida ahamiyat beriladi. Xususan, “Ota o‘z farzandiga axloq-odobdan ko‘ra ko‘proq meros qoldira olmaydi” degan hadisda oila tarbiyasidagi eng muhim jihat – farzandga axloq-odob in’om etish ekanligi uqtiriladi.

Tarixiy asarlarda mashhur shaxslarning onalari, ularning dono va zukkoligi, farzand tarbiyasida xalq og‘zaki ijodidan foydalanganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Masalan, Ibn Arabshohning “Amir Temur” asarida Amir Temurning zavjalari Saroymulkxonim (Bibixonim)ning davlat ishlarida va bola tarbiyasida tutgan o‘rni to‘g‘risida misollar keltirilgan. Abu Ali ibn Sinoning “Tadbiri manzil” asari oilaviy tarbiya muammolariga bag‘ishlangan. Unda bola tarbiyasida xalq og‘zaki ijodi va uning ahamiyati to‘g‘risida qimmatli fikrlar bildirilgan.

“Tadbiri manzil” risolasida Ibn Sino inson tabiati azaldan axloqiy yoki axloqsiz bo‘lmaydi, degan g‘oyaning muhimligini ta’kidlaydi. Odamlar aslida tayyor shaxsiy sifat, odat va ko‘nikmalar bilan tug‘ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida sekin-asta shaxsiy va o‘zgalar tajribasi, ajdodlar an’analari, ta’lim-tarbiya ta’sirida shakllana boradi. Bolalarning tarbiyasini barvaqt boshlagan ma’qul. Tarbiya jarayonida ularga yaxshi ijobiy odatlarni singdirib borish, ishtiyoq va qiziqishlarini sinchkovlik bilan payqab olishga harakat qilish zarur.

Bolaning barkamol inson bo‘lib etishishida xalq og‘zaki ijodining ta’siri, uning natijasida vujudga keladigan ruhiy, fiziologik holatlar to‘g‘risida mulohaza yuritilgan. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalangan bola chidamli, mard, jasur va mehnatsevar bo‘lib o‘sishi ta’kidlangan.

Ibn Sino oila tarbiyasida otaning o‘rniga alohida e’tibor beradi. Uning fikricha, oila boshlig‘i oila a’zolarini tarbiyalashi, ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi lozim.

Umuman, Sharq mutafakkirlari barkamol inson tarbiyasida oila, oiladagi muhit, irsiyat kabi omillarga alohida e’tibor qaratish lozimligini uqtiradilar va shu bilan birga xalq og‘zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyatini yuqori baholaydilar.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ota-ona va farzandlar o‘rtasida mehr-oqibatning saqlanishiga e’tibor beriladi. Bunda ota o‘z o‘g‘liga nasihat qilarkan, xalq donishmandligidan unumli foydalanadi. Bola tarbiyasiga oqilona yondashish, xalq donishmandligidan unumli foydalanish, hatto farzanddan norozi bo‘lganda ham uni qarg‘ash va urushishdan saqlanish, bu sohada ustozlardan ko‘mak so‘rash lozimligi uqtiriladi.

Shu jihatdan olganda, xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida oilada bolalarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunda, ayniqsa, buvi va bobolarning o‘rni muhimdir.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari tarkibida unga yondosh manbalar: milliy urf-odatlar, an’analar, xalq o‘yinlari, diniy ta’limotlar, xalq amaliy san’ati, musiqa, qo‘shiq, raqs kabilar uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri ertaklar bolaning ilk yoshidanoq uni quvonchli tuyg‘ularga oshno qiladi. Bola ertak qahramonlari bilan birga olis-olislarga “sayohat qiladi”. U erdagi hayot bilan tanishadi. Ertak uning aqlini charxlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o‘stiradi. Oilada aytilgan ertakning ravon, obrazli til uslubi bola nutqini rivojlantiradi. Yorqin, hayotiy obrazlar uning hissiyotlariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. U aqlli, oqko‘ngil, ijobiy qahramonlar bilan tanishadi, ular falokatga yo‘liqqanida qayg‘uradi, g‘alaba qilishganida, yovuz va xasis kishilarni jazolaganlarda xursand bo‘lishadi. Oilada kattalar tomonidan aytilgan ertakning ishonchli axloqiy g‘oyalari bolani fikrlashga, o‘z xatti-harakatini sevimli ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bilan qiyoslashga undaydi, qahramonlar timsolida bolalar qo‘rqmas va rostgo‘y bo‘lishga o‘rganadilar. O‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yish, unga erishish uchun harakat qilish, turli to‘siqlarni engib o‘tish,

do‘stlashish, o‘rtoqlariga sadoqatli bo‘lish kabi sifatlarni bosqichma-bosqich egallab borishadi.

Oilada kattalar tomonidan aytilgan ertaklarni bola qiziqish bilan tinglaydi. Ertak bolaning yoshiga mos bo‘lishi zarur. Ertakni sekin-asta, shoshmasdan, ifodali o‘qish, obrazlar qiyofasini bola ko‘z oldida gavdalantirish zarur.

Farzand bilan birgalikda ota-onalar ham ertakka mos chizilgan syujetli rasmlarni tamosha qilishlari, ularni sharhlab berishlari lozim. Bolaga unchalik murakkab bo‘lmagan savollar berish, uni ertak yoki rasmni qayta so‘zlab berishga undash amaliy pedagogik jihatdan juda foydalidir. Bu bolaning xotirasi va diqqatini rivojlantirib, o‘qilgan narsaga ongli munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Bolaning hayotiy tajribasi bu davrda xali juda oz bo‘ladi. Ertak va real olam uning nazarida mutlaqo farq qiladi. Bola “chindan ham jodugar kampir, dev, uchar gilam bo‘lganmi?” kabi savollarni beradi. Bunday paytda ota-ona hushyorlik bilan ertaklar bilan moddiy borliq orasida aloqadorlikni hamda farqlarni tushuntirib borishi lozim. Aks holda uning faraz qilish qobiliyatiga putur etadi. Ertaklarga ishonchsizlik bilan qaray boshlaydi. Natijada ularga bo‘lgan qiziqishi so‘nib boradi. Masalan, uchar gilamlar o‘rniga fan-texnika, davr taraqqiyoti natijasida samolyotlar, oynai jahon o‘rniga televizor ixtiro qilinganligini ehtiyotkorlik bilan tushuntirish lozim. Bola ulg‘aygan sari ertak va real olam o‘rtasidagi aloqadorlikni yaxshi anglab boradi hamda ulardagi axloqiy-estetik qarashlarni chuqurroq o‘zlashtirib oladi.

Ertak, rivoyat, hikoyatlar kabilarning bola dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatishining asosiy sabablaridan biri unda real voqelikning bola yoshi va dunyoqarashiga mos tarzda afsonaviy, tushunarli talqin qilinishidir. Bola ruhiy olamiga yaqin kuchli va adolatli insonlar, yoqimtoy jonivorlar xalq og‘zaki ijodi qahramonlari sifatida namoyon bo‘ladi. XIII–XVI asrlarda temuriylar saltanatida zodagonlar, saroy ahillarining farzandlarini sog‘lom, oqila, baquvvat, odobli, so‘zga chechan ayol enagalar tarbiyalaganlar. Ayniqsa, enaganing sog‘lomligi hamda ozoda va zukkoligiga alohida e’tibor berilgan. Enagalarning bola tarbiyasidagi asosiy vazifasi uni o‘z vaqtida to‘g‘ri ovqatlantirish, ozoda kiyintirish, toza havoda sayr qildirish, ularga axloq-odobdan saboq beruvchi, rivoyat va dostonlarni so‘zlab berish kabilardan iborat bo‘lgan. Qissalar, ertaklar, rivoyatlar, jangnomalar vositasida enagalar bolalarni go‘zal axloqli, zukko, hozirjavob, uddaburon qilib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratishgan.

Ushbu maqsadda ular xalq maqollari, matal va topishmoqlardan ham keng foydalanishgan. Enagalarning xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanib qo‘llagan quyidagi tarbiya usullari bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan:

O‘rnak-namuna ko‘rsatish, o‘git-nasihat berish; Vatanga muhabbat, jasurlik, ilmga intilish, adolatparvarlik, to‘g‘riso‘zlik, mardlik, do‘stlik, sadoqatlilik, ahillik, sog‘lom va baquvvat bo‘lishga intilish, ozodalikka rioya qilish kabi axloqiy

sifatlarni shakllantirish va xokazo. Mazkur maqsadda ular ertak, rivoyat, hikoyat, maqol, qo‘shiq kabilardan foydalanishgan.

Bundan tashqari oilada qiyoslash, chiniqtirish, ayrim xususiyatlarni bo‘rttirib tasvirlash kabi mantiqiy tafakkur xususiyatlarini rivojlantiruvchi shakllardan foydalanilgan va bolalarda hozirjavoblik, so‘zga chechanlik, ravon nutqni tarkib toptirish maqsadida topishmoq, tez aytishdan foydalanganlar.

Bolalarda epchillik, do‘stlik, haqgo‘ylik, o‘zligini namoyon eta bilish kabi fazilatlarni shakllantirishda turli xil milliy o‘yinlar ham qo‘llanilgan.

Tarix – asrlar guvohi bo‘lganidek, xalq milliy ruhining aksi hisoblanmish maqollar ota-bobolarimiz so‘zi sifatida avloddan-avlodga etib kelgan xalq og‘zaki ijodini boyitib turuvchi durdonalardir.

“Otalar so‘zi-aqlning ko‘zi” hisoblangan maqollarning kundalik hayotda, odamlarning bir-biri bilan bo‘lgan muomalasida ishlatilishi, kishining zehni o‘tkir, farosatliligidan dalolat beradi. Maqollarning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri salmoqli bo‘lib, undagi dono fikrlarni bolalarning ongiga singdirish, yaxshilik va yomonlik tushunchalarini farqlay olishga zamin yaratadi.

Xalq maqollari yosh avlodning ma’naviyatini o‘stirishda, nutq madaniyatining yuksalishida va barkamollashuvida muhim manbadir. Kelajagimiz davomchilari – o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida ona Vatanga sadoqat, ezgulik tuyg‘ularini uyg‘otish, ota-bobolarimiz merosi – milliy qadriyatlar, milliy an’analar, g‘urur-iftixorni tarbiyalashda xalq maqollari alohida o‘ringa ega.

Maqollar xalqning tarixiy tajribasida muhim tarbiya vositasi sifatida e’tirof etilgan. Ulardan kundalik hayotda tez-tez foydalanilib turiladi. Ayniqsa, oilaning katta a’zolari bolalarni yaxshilik, ezgulik, qanoat, ozodalik, mehnatsevarlik kabilarga undaganda maqollardan o‘rinli foydalanadilar. Maqol qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli gap bo‘lib, u bolani mustaqil fikrlashga undaydi. Lo‘nda va aniq fikr bayon qilishga o‘rgatadi. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do‘stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, shuningdek, salbiy illatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida keltirilgan.

Maqol ba’zan masal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so‘z, tanbeh, mashoyixlar so‘zi, hikmatli maqol, donishmandlar so‘zi, otalar so‘zi kabi nomlar bilan yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g‘oyat katta.

Maqol bilan matalning bir-biridan farqi shundan iboratki, matalda narsa tasviri, uning tavsifi beriladi, maqolda esa to‘la tugallangan fikr-xulosasi ifodalanadi.

Oilada aytilgan rivoyatlar ham bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Rivoyat – voqea va hodisalar, inson faoliyatini ba’zan uydirmalar vositasida, ba’zan real tasvirlovchi og‘zaki hikoya shaklida ifodalanadi. Rivoyatning hajmi qisqa, 2 yoki 3 ta epizoddan tashkil topadi, an’anaviy uslubiy shaklga ega bo‘lmaydi. Odatda, oddiy hikoya bayonidan boshlanib, og‘izdan-og‘izga o‘tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Rivoyat asosida voqelik va tarixiy shaxs bilan bog‘liq hodisalar yotadi. G‘oyaviy mazmuniga ko‘ra, tarixiy rivoyat hamda toponim rivoyatlarga bo‘linadi. Tarixiy rivoyatlarda biror shaxs faoliyati va xalq qahramonlari bilan bog‘liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me’yorlari tashviq etilib, muayyan dalillar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar Navoiy, Ulug‘bek, Ibn Sino, Beruniy, Amir Temur va boshqalar hayoti bilan bog‘liq voqea-hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda shahar va qishloq, qo‘rg‘on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelish sabablari bilan bog‘liq voqealar hikoya qilinadi.

Shuningdek, hadislarda oila munosabatlarini to‘g‘ri tartibga solish, farzandlarni (halol) komil inson etib tarbiyalashga keng o‘rin berilgan. Hadislar farzandning o‘z ota-onasiga hurmatda bo‘lishi, eru-xotinni murosali, ahil bo‘lib bir-birini izzat-hurmat qilishlari, insonlarni ahloqan etuk, ruhan pok boshqalarga nisbatan rahmli, mehr-shavqatli bo‘lishga da’vat etadi.

Islom olamining mashhur muhaddisi Imom Buxoriyning “Al Adab al-mufrad” asarining 1-24 boblarida ota-ona hurmatini joyiga qo‘yish, ularni e’zozlab, farzandlarning ular oldidagi burchlarini mukammal ado etishlari zarurligi kabi masalalar bayon qilingan.

Hadislar yosh avlod ongida halollik ezgulik, mehribonlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, do‘stlik, kamtarlik, chidamlilik, sabr-qanoatlilik kabi fazilatlarni tarkib toptirishda muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari bolalarda to‘g‘rilik, haqgo‘ylik, kamtarlik, o‘z-o‘ziga tanqidiy qarash, jonkuyarlik va samimiylik, andishalilik kabi axloqiy sifatlarni shakllantirish, shu bilan birga yolg‘onchilik, kibr-havo, o‘z-o‘ziga bino qo‘yish, xudbinlik, andishasizlik kabi illatlarga qarshi kurash tuyg‘usini paydo qilishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bolaning o‘z maqsadi yo‘lida fidoyilik, qat’iyatlilik, mardlik, o‘zini tuta bilish kabi irodaviy xususiyatlari ham xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida samarali shakllantiriladi. Bunday sifatlarga ega bo‘lgan bolalar har tomonlama kamol topgan bo‘ladi.

Hozirgi zamon pedagogikasi bola shaxsiga hurmat va uning shaxs sifatidagi betakrorligini tan olgan holda yondashishni talab qiladi. Mazkur yondashuvning muhim qirralaridan biri bolaning o‘ziga xos jihatlariga putur etkazmagan holda unda o‘z-o‘zini hurmat qilish, doimiy ravishda barkamollikka erishishga intilish

kabi sifatlarni qaror toptirishni nazarda tutishdir. Olimlarning ta'kidlashicha, bola xarakteri asosan u 5 yoshga to'lgunga qadar shakllanadi. Keyingi yosh bosqichlarida uning shaxsiyati asta-sekin rivojlanib boradi. Demak, bolaning qay tarzda shakllanishi uning kelajakdagi hayoti mazmunini belgilaydi.

O'zbek oilalarida farzand tarbiyasida qo'llaniladigan tajribada sinalgan, milliy asosga muvofiq tarzdagi metod-usullar mavjud-ki, ularga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: tushuntirish, odatlantirish, o'rgatish, mashq qildirish, bolalarning kundalik rejimi, ibrat-namuna, iltimos qilish, yolborish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, maslahat berish, o'git-nasihat, undash, maqtash, rahmat aytish, duo qilish, olqishlash, oq yo'l tilash, yupatish, ko'nglini ko'tarish, ta'qiqlash (man etish), ta'na, gina, o'pka qilish, qoralash, tanbeh berish, yuziga solish, uzr so'rash, majbur etish, zaharxandalik, ayblash, nafratlanish, gaplashmay qo'yish (arazlash), aybini iqror qildirish (qizartirish), qo'rqitish, mulzam qildirish, ogohlantirish, ont-qasam ichirish, do'q-po'pisa qilish, siylash va boshqalar. Bularning har biridan o'z o'rnida oqilona foydalanish kelajakda barkamol insonni tarbiyalashda yaxshi samara berishi, shubhasizdir.

Bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda ota-onalar asosan, ikki metoddan foydalanishlari lozim.

Birinchisi ishontirish – bolaga kichikligidanoq bu ishni qilishing kerak, chunki uni amalga oshirish u yoki bu sabablarga ko'ra zarur deya uqtiriladi. Bola o'zi bajargan ishning foydali va zarurligiga ertak, doston qahramonlari timsolida ishontiriladi. Masalan, bolaga nima sababdan ovqatlanishdan oldin qo'lini yuvishi kerakligi, o'z o'rnini yig'ishtirish, o'yinchoqlarini joyiga tartib bilan qo'yishi zarurligi, do'stlashish va do'stga sadoqatli bo'lishning foydaliligi kabi g'oyalar biror ertak asosida yaratilgan diafilmlar, kinofilmlardagi obrazlar orqali ko'rsatib beriladi.

Ikkinchisi – bolalarni ertak qahramonlaridan ta'sirlanib faoliyat ko'rsatish orqali ijobiy fazilatlarni egallashga undash. Bolalarni mehnat qilish, yaxshilik, sabr-bardoshga undashda maqollardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bola muayyan ijobiy faoliyatni tartibli va izchil takrorlasa, u odatga aylanadi. Odatlanish kundalik tartib-intizomga rioya qilish, jumladan, salomlashish odobi, do'stga samimiy munosabat, ota-ona hurmatini saqlay bilish kabi faoliyatning ko'plab turlarini qamrab oladi.

Boladagi yaxshi xulq, odob-axloq nishonalari asosan xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida qaror toptiriladi. Chunki asardagi turli qahramonlar asosan bolaning ko'z oldida gavdalanadi. Ularning xatti-harakati bolalar uchun o'rnak, ibrat vazifasini o'taydi. Masalan, qanotlari singan qushga dehqonning g'amxo'rlik qilishi, baliq bergan risq-nasibaga qanoat qilmagan kampirning qashshoqlashib qolishi bolalarga juda tez ta'sir qiladi. Ularda ochko'zlikka nafrat, laylakka

mehribonlik qilgan dehqonga nisbatan esa mehr paydo bo‘ladi, qanoatlilik tuyg‘usi qaror topadi.

Ota-ona bolada axloqiy sifatlarni shakllantirishga intilar ekan, xalq qahramonlari shaxsiy namunasidan samarali foydalanishlari lozim. Bunda ularga ertak va doston qahramonlari yordam beradi. Ertak va doston qahramonlari timsolida bolalarda ish va so‘z birligi, lavz halolligi qaror toptiriladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida bolalarni tarbiyalashda ishontirish bilan birga rag‘batlantirish, isbotlash, ta’sir, ibrat namunasi kabilar muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashda ularni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu o‘rinda rag‘batlantirishning muhim jihatlari bolalarni ijobiy qahramonlarga o‘xshatishda namoyon bo‘ladi. Jumladan, “Mening Alpomishim”, “Go‘ro‘g‘li sultonday pahlavon bolam”, “Jaloliddiy Manguberdidek mard o‘g‘lim”, “Oybarchin qizim, “qaldirg‘ochim”. Bunday rag‘batlantirish natijasida bola ruhiyatida o‘zini xalq qahramonlaridek his etish tuyg‘usi hosil bo‘ladi va yangidan-yangi ishlarni bajarishga ishtiyoq uyg‘onadi. Xalq qahramonlari bolalarni yaxshilikka undovchi omil, stimul vazifasini bajaradi, o‘z kuchiga ishonch hosil qiladi. Ota-ona maqtovi, rag‘batlantirishi, ma’qullashi unga to‘g‘ri ish qilayotganligi, o‘z vazifasini yaxshi uddalaganligini bildiradi. Lekin bunda me’yorga rioya qila olish kerak. Oilada bola tarbiyasida tartiblilik, insoniylik, kuzatuvchanlik, tirishqoqlik, vatanparvarlik kabilarni shakllantirishda ertaklar, dostonlar, rivoyatlardan ham samarali foydalanish kerak.

Oilada bolalar kitobxonligini yo‘lga qo‘yishga ota-onalar alohida e’tibor qaratishlari lozim. Oila kutubxonasining aksariyat qismini folklor namunalari egallashi kerak. Chunki bunday asarlar bola ruhiyatiga yaqin bo‘ladi. Ularning tili sodda, ravon va xalqchildir. Bolada kichik yoshidan boshlab kitobga havas uyg‘otish ota-ona faoliyatida asosiy o‘rin tutishi zarur.

Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarga xalq qahramonlari timsoli aks etgan turli rangli, rasmli nashr qilingan ertak, rivoyat, hikoyatlarni taqdim etish lozim. Bolalarga mazkur kitoblarni o‘qib berish, ularning shaxsiy kutubxonasini tashkil qilish katta ahamiyatga egadir. Bu kutubxonadan xalq og‘zaki ijodiga oid asarlarning o‘rin olishiga ham ota-ona alohida e’tibor bilan yondashishi lozim.

Nutq yordamida inson o‘z fikri, hissiyotini ifodalaydi, muloqotga kirishadi. Bu esa bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bolada bir yoshga to‘lganida so‘zlarni o‘zlashtirish layoqati vujudga keladi. Ayni shu davrda bola bilan ko‘proq muloqotda bo‘lish lozim. Bolalar ota-onalariga “Nima uchun, bu nima, bu kim?” kabi ko‘plab savollar bilan murojaat qiladilar. Ularning savollariga sabr-toqat bilan javob berish, bolaning atrof-olam, ertak qahramonlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, keyinchalik maktabda turli xil bilimlarni o‘zlashtirishiga omil bo‘ladi. Bolalarni ularning yoshiga mos ertak, she’r, ashulalar bilan tanishtirib borish lozim. Bola xalq og‘zaki ijodiga oid badiiy asarlardagi jarangdor va obrazli so‘zlarni yaxshi

eslab qoladi, hattoki tashqaridan bir-biriga bog‘lanmagandek tuyilgan xalqona iboralar, she’rlarni o‘zlashtirish ham bolani ona tilidagi tovush va so‘z boyligini o‘zlashtirishi, uning go‘zalligini anglashida katta ahamiyat kasb etadi.

Maktab yoshidagi bolalar badiiy nutq bilan tanishish jarayonida yangi so‘zlar hisobiga o‘z nutqlarini boyitib boradilar. Maktablar, klublar, madaniyat saroylari turli shakldagi kutubxonalar aholi o‘rtasida pedagogik bilimlarni tarqatishda katta ahamiyatga ega. Bunda “Ota-onalar maktabi”ning ham alohida o‘rni bor. Turli kasb-hunar egalari bo‘lgan ota-onalar pedagogika haqida unchalik to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaydilar. Ularni pedagogika nazariyasi va tarbiya mahoratini egallashlariga bo‘lgan ishtiyoqlari birlashtiradi. “Ota-onalar maktabi”ni mahallalar, maktablar huzurida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur “Ota-onalar maktabi” dasturidan pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti kabi fanlar o‘rin olishi zarur. Mashg‘ulotlar ham qat’iy jadval asosida o‘tkazilishi kerak. Bunday dorilfununlarda mashg‘ulotlar 1-2 yil davom etishi, mashg‘ulotlarni pedagog, psixolog, fiziolog, yurist, shifokor, adabiyotshunos, tilshunos mutaxassislar o‘tkazishi lozim. Shuningdek, jamoat tashkilotlarining namoyondalari ham mashg‘ulotlarga jalb etilishi kerak. Kursdagi mashg‘ulotlar kundalik tarbiyaviy vazifalarni hal etishda ota-onalarga yaqindan ko‘mak beradi. Bunda bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalash mahoratini ota-onalar faoliyatiga singdirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida oila tarbiyasi samaradorligini oshirishning turli yo‘llari ham mavjud.

Oila pedagogikasining hayot tajribalaridan orqada qolayotganligi uning samaradorligini oshirish yo‘llarini izlashni taqozo qilmoqda. Jamiyat hayoti va shaxs tafakkurida ro‘y berayotgan murakkab pedagogik jarayonlar o‘z vaqtida ilmiy echimlarini topishi lozim. Aks holda yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalari ezgulik, iymon va diyonatni o‘zida mujassamlashtirgan insonlar faoliyatini targ‘ib qiladi. Ushbu asarlar tinchlik, birodarlik, do‘stlik, hamkorlik, ezgulik kabi insoniy fazilatlarni ulug‘laydi. Tinchlikka rahna soluvchi, birodarkushlikka asoslangan, xunrezlik va buzg‘unchilikni keltirib chiqaruvchi har qanday qarashlarni qoralaydi. Pedagogika tarixida oila tarbiyasining juda ko‘p namunalari uchraydi. Yoshlarni noto‘g‘ri g‘oyalardan himoya qilishda xalq og‘zaki ijodi namunalari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

– xalq og‘zaki ijodi namunalarida ifodalangan ezgu qarashlarni bolalarga singdirishning yagona dasturini yaratish;
– yosh ota-onalarning xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida bolalarni tarbiyalash sohasidagi bilim va tajribalarini oshirish;

– ota-onalarni oila pedagogikasi, falsafa, adabiyotshunoslik, tarix, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, ma'naviyat, huquqshunoslikka oid bilimlar bilan qurollantirish;
– oilada folklor namunalari yordamida xalq pedagogikasining ijobiy qirralarini umumlashtirish;
– oilalarda xalq pedagogikasining aniq, mukammal, eng muhim – amaliy, ijtimoiy-pedagogik dasturini ishlab chiqib, oila tarbiyasiga tatbiq qilish kerak.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodida ota-bobolarimiz aql-idrok egalari, sofdil kishilarni yovuz kuchlar qo'liga tutqazmaslikka harakat qilganlar, oilada bolalarni ma'naviyat, iymon-e'tiqod, insof va diyonat bilan boshqarishga alohida e'tibor berganlar va bunda xalq og'zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanganlar.

Yoshlarda milliy g'urur hissini tarbiyalashda oila muhiti, ota-ona ma'naviyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra oilaning muqaddasligi, ota-ona va farzandning burchi, tejamkorlik, sabr-qanoat, o'zaro muamola munosabatlari, uy tutish, mehnat tarbiyasi kabilar xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida bolalarga singdiriladi.

Shu sababli bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalashda oilaning vazifalari:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, bolalar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, bolalarning ota-onasiga, Vataniga mehr-muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;
– bolalarini axloqiy bilim asoslaridan atroflicha xabardor qilish, ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib etishishlarini ta'minlash;
– bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
– bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axloqiy tomonlarini shakllantirish;
– sanitariya-gigiena, estetik me'yorlarni singdirish, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi kurashishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan xalq qahramonlari timsolida unumli foydalanishdan iboratdir.

Oila tarbiyasida xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish shunisi bilan alohida ahamiyatga egaki, ota-ona yoki bobo-buvi o'z oldiga ongli tarzda muayyan maqsad qo'yadi hamda shu maqsadga erishish uchun intilib, uni amalga oshirishda ertaklar, maqollar, dostonlar, topishmoqlardan unumli foydalanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida oilada bolalarni tarbiyalashda tarbiya metodlaridan unumli foydalanish zarur. Bunda quyidagilarni inobatga olish kerak:

1. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashning maqsadi va vazifalari.
2. Ushbu tarbiyaning mazmuni.
3. Bolalarning yosh xususiyatlari.
4. Bolalarning fikrlash darajalari.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual va shaxsiy xususiyatlari.
6. Tarbiyaning boshqaruv elementlari va hokazo.
7. Ota-onalarning xalq og‘zaki ijodidan xabardorlik darajasi.
8. Tarbiyaviy jarayondan kutiladigan natijalar.

Shunday qilib, oilada bolalarni xalq og‘zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalash serqirra jarayon bo‘lib, o‘ziga xos, takrorlanmas xususiyatlarni o‘zida namoyon qiladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali oilada bola felitsitologik (italyancha “felisite” - baxt), iqtisodiy, estetik, kommunikativ, relaksatsiya (emotsional, ruhiy-jismoniy quvvatini, mehnat qobiliyatini qayta tiklash) funksiyalaridan bahramand bo‘ladi. Bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirish uchun oilada xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish izchil tizim va aniq metodlar yordamida amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Maxmudov Y.F. “Milliy g‘urur-ma’naviy komillik mezoni”. T, Dizayn-Press 2011.327b.
2. Zunnunov A. Oilada bola shaxsini shakllantirish. –T.: Fan, 2006. -112 b.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. T.: Sharq, 2004. – 336 b.
4. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. O‘quv ko‘llanma. –T.: Respublika «Oila» ilmiy – amaliy markazi, 2006. -140 b.
5. Musurmonova O. Oila ma’naviyati – milliy g‘urur: O‘quv qo‘llanma/ S.Ochil umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
6. Tadjieva S.X. Ota-ona munosabati bola shaxsi rivojlanishini belgilovchi omil sifatida. Psixol. fan. nom ... diss. – Toshkent, 2009. – 141.
7. Tojiboeva H.M. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oila o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari // Ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash – soha taraqqiyotining muhim mezoni: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (6-kitob).–Toshkent, TDIU, 2015. – B. 81-83.
8. Ш.Х. Кадырова. Инновацион таълим-муҳитида мактабгача таълим муассасалари тарбия-ланувчиларида миллий ғурур ҳиссини шакллантириш \\ Муғаллим ҳем узлуксиз билимлендириў илимий-методикалық журнал. Нукус. 2020 йил. Б.124-127.
9. S.X. Kadirova. Formation of national attention in innovative education - preschool educational schools \\ Europen Journal of Research and Reflection in Educational Sciences 2020 й. Б.108-111.
10. K.S. Khudoyberdiyevna. Proverbs - a source of upbringing the moral qualities of the personality of preschoolers \\ Asian Journal of Multidimensional Research 2021= 7.699.

РЕЗЮМЕ

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilada muntazam olib boriladigan, tarbiyalanuvchilarni Vatanga sadoqat, milliy g’urur va buyuk ajdodlar ma’naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar jarayonida xalqimizning boy ma’naviy-madaniy merosi, sharqonq va umumbashariy qadriyatlar asosida mamlakat, millat kelajagini belgilaydi.

РЕЗЮМЕ

Богатое духовное и культурное наследие нашего народа, будущее страны и natsii определяет будущее страны в процессе духовно-просветительской работы, которая регулярно организуется в дошкольных образовательных учреждениях.

SUMMARY

The rich spiritual and cultural heritage of our people, the future of the country and nation determines the future of the country in the process of spiritual and educational work, which is regularly organized in preschool educational institutions.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI USUL VA METODLARI

Altibayeva G. M.
Termiz davlat Pedagogika instituti o'qituvchi

Tayanch so'zlar: rejalashtirish, tashkilot, faoliyat, imkoniyat, xususiy turkumlar, tashkil etish.

Key words: planning, organization, activity, opportunity, private categories, organization.

Ключевые слова: планирование, организация, деятельность, возможность, частные категории, организация.

Kirish. San'at markazida bolalarning tasviriy faoliyati tashkil etiladi. Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni intelektual qobiliyatini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Tasviriy faoliyat bolalarni qiziqarli faoliyat turlaridan biri bo'lib, unda inson hayotidagi barcha voqea va hodisalarni ifodalash, o'zaro muloqatga kirishish va ijobiy munosabatlarni shakllanish imkonini beradi. Bola shaxsini rivojlanishida tasviriy faoliyat yetakchi rol o'ynaydi. Bolaning intelektual qobiliyati, ma'naviy dunyoqarashi va hissiy olamiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. "Til va nutq" markazida narsa-buyum nomi bilan rasmlar, turli vositalar orqali tanishsa, "Qurilish va konstruksiyalash" markazida uning tuzilishi, tashqi belgilarini o'rganadi. "Ilm-fan va tabiat" markazida ushbu buyumlar, uning ahamiyati va zaruriyati, o'ziga xos xususiyatlarini o'zaro muloqat jarayonida anglaydi, kuzatuv, tahliliy suhbat, audio va videovositalar orqali tushinib yetadi."Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish" markazida bolalar turli rollarni ijro etish orqali aqliy faoliyati va intelektual qobiliyati rivojlanadi. Mazkur yondashuv gruhdagi bolalarni bir vaqtning o'zida turli faoliyat bilan band qilish, faoliyat mazmunini o'rganilayotgan mavzuga yo'naltirish jarayonlari integratsiyalangan mashg'ulotni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Bunda tarbiyachidan faollik, intelektuallik va moslashuvchanlik bilan yondashish talab etiladi. Bir markazdagi bolalarning qo'lga kiritgan yutug'i, ikkinchi markazdagi faoliyat uchun imkoniyat yaratadi. Ya'ni bola oldin o'zlashtirgan ma'lumot zamirida keyingi qadamlarni amalga oshiradi. Bolalar faoliyatini bu tarzda tashkil etish konsentrik yondashuv

hisoblanadi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, bolalar asta-sekin tarbiyachi ko‘rsatgan usullardangina foydalanadi. Shuning uchun bolaning ilk yoshidan unga harakatlarni amaliy namoyish qilish lozim. Ta’lim jarayonida bolalarning ishi tahlil qilinadi va to‘ldiriladi yoki bola uchun qiziqarli bo‘lgan harakat namuna sifatida ko‘rsatiladi, taqqoslanadi (rasmlar, qurish yasash, loy va plastilin bilan) bolalarga namuna alohida bir stolda joylanadi.

Tajribaning ko‘rsatishicha, bolalar juda chuqur o‘ylaydi, qiziqish bilan o‘z ishini namunaga taqqoslaydi, hech ham xato qilmaydi, xatto mayda elementlargacha fahmlaydi. Ushbu jarayonlar bolalarda mustaqil samarali refleksiv faoliyatning rivojlanishiga amaliy yordam beradi. Pedagogik jarayonlarni amalga oshirishda tarbiyachilar bolalarga qulay sharoit va o‘z kuchiga ishonch hissini ta’minlashi lozim. Tarbiyachi bolalarning o‘zlashtirish darajasi, ularning intellektual pozitsiyasini rivojlantiradi va mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi, imkoniyat va shart-sharoitlarni yaratadi. Tarbiyachi ta’lim jarayonida o‘zaro ta’sir (hamkorlik) va insonparvarlikka yo‘naltirilgan pedagogik munosabatlarni amalga oshiradi. Tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik munosabatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan muloqot quyidagi shakllarda uyushtiriladi:

– pedagogik jarayonni loyihalash;
– tarbiyalanuvchilar guruhi bilan muloqotga kirishish;
– rivojlantiruvchi pedagogik jarayonda muloqot jarayonini boshqarishni tashkil etish;
– faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muloqot tizimining andozasini yaratish;
– tarbiyalanuvchilar bilan bevosita muloqotni tashkil etish kabilar.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar orasidagi o‘zaro munosabat va muloqotning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ular sust-ijobiy, barqaror hamda beqaror bo‘ladi.

Ta’limiy omillarni yaratishga mo‘ljallangan innovatsion texnologiyalar tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilarga muloqot asosida ta’sir etish yo‘llarini ham o‘z ichiga oladi. Ayrim metodlar yoki muloqot turlari bolalarni intelektual qobiliyatini shakllantirishda alohida samaradorlikka ega. Ular ishontirish, isbotlangan natijalarga asoslanish, bevosita va bilvosita ta’sir, o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zaro ta’sir metodlari.

Innovatsion texnologiyalar maktabgacha ta’lim jarayonini yaxlit tizim sifatida tasavvur etish imkonini beradi. Maktabgacha ta’lim jarayoni ta’lim texnologiyasining asosi ta’lim maqsadi, mazmuni, shakli, metodi, vositalari, tarbiyalanuvchi va tarbiyachilar o‘zida mujassamlashtirgan tizimdir. Ular o‘zaro aloqadorlikda maktabgacha ta’lim jarayonining mohiyatini belgilaydi.

Maktabgacha ta’lim jarayoni quyidagilarga muvofiq tarzda tashkil etiladi:

1. Bolalardagi intellektual qobiliyat, kognitivlik, komunikativlik, ijtimoiylashish va rivojlanish kabi ehtiyojlarning vujudga kelishi;

2. Kognitivlikka bo‘lgan qiziqshning uyg‘onishi;

3. Tarbiyalanuvchilarga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar mazmunini belgilash;

4. Innovatsion texnologiyalar asosida intellektual qobiliyatni shakllantirish omillarining mavjudligi kabilar.

Amaliyotda oqlangan har qanday innovatsion texnologiya tarbiyalanuvchi shaxsini faollashtirishga va intellektualligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchi shaxsining mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi vositasida amalga oshiriladi.

Bunda tarbiyalanuvchi ta’lim tizimiga moslashtirilmay, aksincha, ta’lim-tarbiya jaranida erkinlikka intilishi, mustaqilligi, shaxsiy fikrlarning mutloq o‘ziga xosligi, o‘z-o‘zini namoyon qilish ehtiyojining mavjudligi kabilarni hisobga olgan holda, unga uning o‘ziga xosligini ta’kidlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish imkonini berish va buning uchun qulay pedagogik sharoit yaratish lozim. Chunki, har qanday tarbiyalanuvchi o‘ziga xosligini namoyon qilishga intiladi. Bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirishga insonlar hati-xarakati va kattalar mehnati haqida tushunchalar berish orqali erishiladi.” Mening oilam”, “Mening sevimli bog‘cham”, “Men sevgan yurt”, “Mening ona Vatanim”, “Bizning milliy armiya”, “Vatanim bayrog‘i” mavzulari bolalarni intelektual-hissiy rivojlantiradi va va shu orqali bolalarga aqliy tarbiya beriladi. Atrof olam bilan tanishtirish orqali bolalarga aqliy tarbiya ham beriladi. Aqliy tarbiya bilish faoliyati bilan birga zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Natijada, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat bolalarda intellektual tasavvurlarni shakllantiradi. Ularda insonlar, atrof olam, (o‘simliklar va hayvonlar), predmetlarga (insonning turmush tarzi, hayvon va o‘simliklarning hamda, suv, havo va tuproqning zarurligi) qiziqishni rivojlantiradi; uy-ro‘zg‘or buyumlari (kiyimlar, poyabzal, idish-tovoq, mebel) ularning belgi va vazifalari bilan tanishtiradi; o‘zi haqida ilk tasavvurlarni shakllantiradi; bolaning ijtimoiy muhitda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi “Men va tengdoshim”, “Mening o‘rtog‘im”, “Mening obod mahallam”, oila a’zolari (ona, ota, buvi va buva, aka-uka, opa-singillar) bilan munosabatlarga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi shaxsiga faoliyatli yondashuv texnologik tizimning konsepsiyasini ifodalab, bunda tarbiyalanuvchi shaxsining erkinlikka intilishi, bir butunligi, mustaqil bilim olishi, o‘zligini namoyon etishi va faolligi ta’minlanadi

Demak, tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini shakllantirishda quyidagi pedagogik imkoniyatlarni inobatga olish zarur sanaladi:

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan o‘quv seminarlari, seminar-treninglar, ochiq mashg‘ulotlar, o‘zaro mashg‘ulot kuzatishlar, turli kechalari,

ilmiy-amaliy uchrashuvlar, masofadan o‘qitish shuningdek, turli to‘garaklar, fasllar bilan bog‘liq tadbirlar, turli mavzularda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy kechalar, davra suhbatlari hamda soha vakillari bilan uchrashuvlar uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash.

2.Tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini samarali tashkil etish.

3.Turli mavzular bo‘yicha tashkil etiladigan seminar trening jarayonlarida tarbiyachilar innovatsion yondashuv asosida tarbiyalanuvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirishga kreativ yondashishi, o‘z ustida muntazam ishlashi, mustaqil ta’lim va ma’lumotlar olish ehtiyojlarini boyitib borish;

4.O‘rganiladigan mavzularni o‘zaro bog‘liqligi, aloqadorligi va izchilligi hamda ketma–ketligi asosida rejalashtirish.

5.Tarbiyalanuvchilarining intelektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratish.

6.Tarbiyalanuvchilarining intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlarini qiyosiy tahlil qilish.

Ushbu jarayonda tarbiyalanuvchi shaxsining intellektual qobiliyati jadal rivojlanishi, moddiy-ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishi ta’minlanadi.

Agar tarbiyalanuvchi mashg‘ulotlar mazmun-mohiyatini anglay olmasa, kerakli ma’lumotga ega bo‘lmasa yetarlicha rivojlanmay qoladi. Shunday qilib, mashg‘ulotlar mazmun-mohiyati tarbiyalanuvchi shaxsi rivojlanishining asosiy birligi hisoblanadi. Shaxsning intellektual qobiliyatlarini o‘rganishga G.Eyzenk, S.K.Annamuratova, L.S.Vygotskiy, R.Sternberg va boshqalarning tadqiqoqtlari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, V.N.Drujinin shaxsning intellektual qobiliyatlari muammosini operativ yondashuv doirasida, ya’ni intellektning G-omilli modellarida ko‘rib chiqadi.

Fransuz olimi J.Piaje intellekt va aqliy faoliyat tushunchalarini ajratib, intellektni “yangi sharoitlarga aqliy moslashish” deb talqin qilishni taklif qildi.

Tadqiqotchilar o‘z g‘oyasini amaliyotda sinab ko‘rish maqsadida shogirdi T.Simon bilan hamkorlikda bolalar intellektning rivojlanish darajasini o‘lchash uchun psixologik aqliy testlar ishlab chiqdilar. Ushbu konsepsiyaga asoslangan holda Bine shunday masalalarni tanladiki, bunda bolaning ilgarigi bilimlari va ko‘nikmalarini qo‘llash imkoniyatlari sezilarli darajadi kamaytirildi. A.Binening maqtovga sazovar jihatlaridan biri shuki, u har bir yosh davri uchun shunday testlar seriyasini tuzishi kerakki, toki uning yechilishi faqat shu davrga ta’lluqli bo‘lsin deya yosh davrlari hususiyatlariga alohida to‘xtalib o‘tish zarurati haqida fikrlar bildirdi.

F.Degan g‘oyadan kelib chiqqan holda u test topshiriqlarni nazariy asoslash shart emas deb hisobladi, natijada ayrim shubhalar tug‘ilishga imkon yaratadi] Asrimizning boshlarida esa intellektni tadqiq qilish yuzasidan Bine va Simon

ta'limotlari jahon olimlari orasida keng quloch yoydi natijada bir qancha mamlakatlarda ularning tarafdorlari ham fikrlari vujudga kela boshladi. Bine va Simonlardan keyin bir qator boshqacha shaklga ega bo'lgan testlar va ularning muayyan tizimlarining ko'p sonli madefikatsiyalari yuzaga keladi. Ular orasida Amerikalik olim L.Termin tamonidan ishlab chiqilgan madefikatsiyasi alohida ahamiyatga moneligi bilan ajralib turar edi. U o'z tadqiqotlarida Platonning aqliy qobiliyatlarini genetik jihatdan shartlanganligi to'g'risida nazariyasiga ko'proq murojaat qiladi.

V.D.Shadrikov intellektga ma'naviyat bilan ma'naviy qobiliyatlarning birgalikdagi komponent tarzida qaraydi. Bunga muvofiq bu funksiya o'rab turgan voqelikni oddiy baholash emas, balki insonning ma'naviy jihatlari bilan solishtirishi va shaxsning ichki o'zgarishlarini belgilovchi sotsial muhit bilan o'zaro ta'sirlashuvini muvofiqlashtiradi.

Gilford o'zining kubik yordamida tafakkur o'lchamlaridan operatsiyalar bilish funksiyasi, xotira, divirgent va konvergint tafakkur, baholash, mazmun: obrazli, belgili, semantik, xulqiy, natija: elementlar, darajalar, aloqa, munosabat, tizim, sistema, o'zgartirish, islohat: qo'llash, tadbiq qilish kelib chiqqan holda 120 ta o'ziga qobiliyat turlarini ajratib berishga harakat qiladi.

Bugungikunda MTT trbiyalanuvchilariningta'lim-tarbiyajarayonidagifaolligini oshirishga qaratilgan bir nechta o'qitish uslublari ham mavjud bo'lib bir nechta o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, intellektual faoliyatlilikni ifodalovchi turli rolli o'yinlar, treninglar, bahs munozaralarni tashkil qilish va hokazolardir. Intellektual qobiliyatini shaklantirishda ayniqsa treninglarning o'rni beqiyosdir. Sababi trening o'tkazish jarayonida tarbiyalanuvchilarning intellektual qobiliyati o'sadi, nutqi ravon bo'ladi, tafakkuri rivojlanadi, muloqotga tez kirisha oladigan bo'ladi. Shu sababli treninglarni verbal va noverbal ko'rinishda tashkil etish mumkin.

Treningni noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hakozolar) ko'rinishda tashkil qilgan tarbiyachi gapirayotganida har bir qatnashuvchini ko'z ostida tutishi, hammaga bir xil e'tibor berishi va guruhdagi ba'zi tarbiyalanuvchilarga xayrixoh bo'lib qolmasligi lozim. Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qilishi (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qochishi, shuningdek, guruhga o'zi ko'rinmaydigan joydan turib gapirishi) kerak bo'ladi. qatnashuvchilarning bosh qimirlatishi, tabassumi va xatti-harakatlari nimanidir aytmoqchi ekanligiga, xohishi borligiga e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Treningni verbal ko'rinishda tashkil etilsa, tarbiyachi savollarni shunday tuzishi kerakki, asosan qatnashuvchilar gapirsin. Bunda tarbiyachiga ochiq savollar yordam beradi: «Siz bu haqda nima deysiz», «Nimaga», «Qanday... «, «Agar...» va qokazolar. Agar qatnashuvchi «Ha», «yo'q» deb javob bersa, «Nimaga shunday

gapiryapsiz» deb so‘rash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari boshqa qatnashuvchilardan ham so‘rash kerak tasdiqlangan fikrlarga qo‘shiladimi?

Tarbiyachi trening o‘tkazish jarayonida o‘z ovozining ohangiga e’tibor berishi, sekin va aniq gapirishi kerak bo‘ladi. qatnashuvchilarni ko‘proq gapirishga undash kerak. Ularda mazkur texnologiya Tarbiyachi o‘zining va qatnashuvchilarning so‘zga chiqishi vaqtini hisoblashi lozim bo‘ladi. Hamma savollarga faqat o‘zi javob bermasligi, qatnashuvchilar bir-birlarining savollariga javob berishi mumkinligini unutmasligi lozim. Bahs natijalarini xulosa qilishda har bir mashg‘ulot qatnashchisining muhokama qilinayotgan muammoni mohiyatini to‘g‘ri tushunayotganini aniqlab, keyin umumiy xulosa chiqarish kerak. Agar tarbiyachining shaxsiy tajribasi mazkur baxsga mos kelsa, qatnashuvchilar fikrlarini mustahkamlab «Bu menga o‘tgan yilgi voqeani eslatadi» – deyishi mumkin.

Yaxshi trening o‘tkazishning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud.

1. Izyumenka. (Bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos ajoyib tomoni.) qatnashuvchilarning treninga qiziqishini uyg’otish uchun qisqa baxs boshlang, savollar bering, provokatsion ta’kidlashlarini ilgari suring yoki qandaydir faoliyat turini faraz qiling. Trening qatnashchilarining avvalgi bilimlari va ularning qatiy tajribalarini bohlashga harakat qiling. Trening nima uchun ahamiyatli ekanligi sabablarini tushuntiring.

2.Tarbiyalanuvchilar uchun ta’kidlash. Tarbiyalanuvchilarga ulardan nima kutilayotganini tushuntiring. Tarbiyalanuvchilar uchun natijalar quyidagi savolga javob berishi kerak: «Bu treningdan keyin qatnashuvchilar nimalarni bilishini va qilishini xohlamayman».

3. Trenerning hissasi. Trening uchun kerakli boshlang‘ich ma’lumot va yetarli bilimlar (matn, ma’ruza, hujjatlar, o‘qish) va biror faoliyat turini o‘tkazish uchun mashg‘ulot mazmunini namoyish qiling.

4. Interfaol. Bu - trening yuragi. Interfaol uslubiyotda foydalanadigan ish tartibini mazmuni va mohiyati. Interfaol uslub - bu jamoaviy muhokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va intelektual faoliyatni baholashdir. Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqing. Ayniqsa, guruhda ishlash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib boring. Tushuntirishini tekshiring va tushuntirishlar bering.

Treningni to‘liq yakunlashga vaqt yetishi uchun uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qiling. Treningni o‘tkazish savollari bu yerda muhim aqamiyatga ega (guruhni o‘lchovi, guruhga shaxsiy yordam, tushunishini tekshirish). Aynan shu narsalar treningni o‘tishiga yordam beradi. Trener mashqlarni bajarish jarayonida qatnashuvchilarni topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishini kuzatib boradi.

5. Debrifing (xulosa) baholash. Qatnashuvchilar o‘zlari yodlagan, o‘rgangan yo‘nalishlari bo‘yicha xulosa qiladilar, olingan ma’lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, bolalar bilan ishlashda qo‘llashni muhokama qiladilar.

Bu - treningni baholash qismi sanaladi. «Qatnashuvchilar nimani o‘rgandilar». Trening davomida o‘rganganlari yoki ko‘rsatganlari natijalar bilan mos kelishini tekshiring.

«Muammoli bola» treningini o‘tkazish texnologiyasi.

Treningni maqsadi:

– Qatnashuvchilarga muammoli bolalar bilan o‘zaro til topishishning hamda ular bilan bo‘ladigan turli vaziyatlarda to‘g’ri yechimni topishlarga yordamlashish.
– Muammoning mohiyatini aniqlashda malakani shakllantirish.
– Tirbiyaning ba’zi usullari bilan tanishtirish, bolalar bilan ishlashda ushbu uslublarni tog’ri tanlashni o‘rgatish.
– Muammoli bolalarning paydo bo‘lish sabablari va yetakchi tarbiyachilarning ushbu muammoni yechishdagi xatti-harakatlarini to‘g’ri aniqlashni o‘rgatish.

Demak, yangi texnologiyalar hozirgi davr ta’lim tizimini yangi sifat ko‘rsatkichlariga olib chiqish mumkin bo‘lgan metodlar tizimiga aylanadi. Ayniqsa, MTT tarbiyalanuvchilarga bilim berish, ko‘nikma va malaklarni hosil qilishda, kasbiy sifat va salohiyatni shakllantirishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish va turli o‘quv mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

N.E.Vasyukova va O.I.Chexonina fikricha “kombinatsion mashg‘ulot bir necha faoliyat turi yoki didaktik vazifalarning biriktirish asosiga quriladi, ammo mashg‘ulotlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlik ta’minlanmaydi, masalan, loy ishidan keyin harakatli o‘yin o‘tkaziladi. Mujassam mashg‘ulotda turli faoliyat va ular o‘rtasida o‘xshash aloqalar bajariladi (masalan: yong‘in xavfsizligi qoidalari mavzusida suhbat o‘tkazilsa, rasm orqali ifodalanadi yoki o‘yin o‘tkaziladi). Bunda bitta faoliyat turi ustunlik qiladi, ikkinchisi uni to‘ldiradi, hissiy muhit yaratiladi. Integratsion mashg‘ulot tarbiyalanuvchilarga atrof olam haqida batafsil ma’lumot olish imkonini beradi, ular yashayotgan joyidagi hodisalar va narsa-buyumlarning o‘zaro bog‘liqligini anglaydi. Integratsion mashg‘ulot tarbiyalanuvchilarda ijodiy faollikni rivojlantiradi. Bu esa tarbiyachidan “Ilk qadam” dasturidan to‘liq foydalanish, turli sohalardan ma’lumotlar olish, madaniyat, san’at, atrof-muhit va hayotiy voqea-hodisalardan namunalar keltirishini taqozo qiladi.. Maktabgacha ta’limda integratsion jarayon uch ko‘rinishda amalga oshiriladi: ichki mashg‘ulotlararo; tizimlararo; yuqori va past darajadagi integratsiya.

Integratsion mashg‘ulotlarning pedagogik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

– bolalarning bilim va ko‘nikmalarini yaxlitlikda shakllantirish;
– bolalarning kommunikativ ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

– bilim olishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish;
– bolalardagi psixologik zo‘riqish, qo‘rquv va ishonchsizlikni bartaraf etish.

Integratsion mashg‘ulotlarning muhim jihati shuki, tarbiyalanuvchilarda ta’lim olishga bo‘lgan motivatsiya oshadi, bilishga qiziqish shakllanadi, butun olamga yaxlit va voqea-hodisalarga har tomonlama qarashga intilish paydo bo‘ladi. O‘quv-tarbiya jarayonini kuchaytirish va samarali tashkil etishga asos bo‘ladi, eng muhimi, bolalardagi zo‘riqish va toliqishni bartaraf etadi.

Yangi munosabatlarning o‘ziga xos jihati an’anaviy ta’lim shaklidan tubdan farq qilib, tarbiyalanuvchilarni aqliy qobiliyati, intelektual salohiyatini tarbiyalanuvchilarning mustaqilligi, yoki ta’qiqlamasdan balki belgilangan maqsadga yo‘naltirish, o‘quv faoliyatini hamkorlikda tashkil etish, ularni faoliyatga ongli ravishda qo‘llash, biror - bir faoliyatini buyruq orqali amalga oshirish emas, balki, samarali tashkil etish maqsadida o‘quvchilarni fan asosidagi bilimlarni chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttirish, ijodkorlik qobiliyatini o‘stirshga imkon yaratadi va talabalarni ehtiyoji, qiziqishi, imkoniyatlarini chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog’liq bunday pedagogik holat yoki munosabat mazkur jarayonni pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishni va ularni keng qo‘llashni taqazo etadi.

MTTda ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish ta’limning yangi usullari va shakllarini amaliyotga qo‘llash va shu orqali intelektual qobiliyati shakllangan, ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma’naviyatli, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o‘z burchini va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish ularning oila va qalbiga mustaqillik va milliy istiqlol g’oyasini singdirish, zamonaviy bilim ko‘nikma va malakalari bilan qurolangani nazarda tutadi.

Mazkur vazifalarni bajarilishi va muvoffaqiyatli hal etishishi, avvalo ta’lim tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalaridan keng qo‘lashda foydalanishni taqozo etmoqda.

Yangi munosabatlarda o‘ziga xos jihatlari an’anaviy ta’lim shaklidan tubdan farq qilib tarbiyalanuvchilarni intellektual qobiliyati, mustaqilligi, bilimlarni chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini ortirish imkoniyatlarni chegaralamasdan erkin tanlash huquqini berish sanaladi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni bilan bog’liq bunday pedagogik holat yoki munosabat mazkur jarayoni innovatsion texnologiyalar orqali tashkil etishni va ulardan keng qo‘llashni taqozo etadi.

Xulosa. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri «shaxs manfaati va ta’lim ustivorligi»dir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi.

– Pedagogik texnologiya (PT)-shunday bilimlar sohasiki, ular yordamida 3-ming yillik davlatimiz ta'lim sohasida tub burilishlar yuz beradi, tarbiyachi faoliyati yangilanadi, tarbiyalanuvchining intelektual qobiliyati, uning tafakkuri, dunyoqarashi mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi shakllanib boradi.

Barron va Volshava tajribalar shu narsalarni ko'rsatadiki murakkab chizmalar va rasmlar yaratilishi shaxsning ijobiy xususiyatlari bilan uning intellektual imkoniyatlari o'zaro uzviy bog'liqdir. Nuqtaning tezligi surati hukmning beixtiyorligi va mustaqilligi qiziqishlarining kengligi va oqilligi kabilar.

Olimlardan J.Kettell, D.Golland, M.Makkennon, S.Madli, kabilarning intellektni o'lchab beruvchi, mezon vazifasini o'tovchi testlarini boshqarishda sinaluvchilarning shaxsiy fikr hamda mulohazalarni o'rganish hech qachon foydadan holi emasdir. Koliforniya ta'lim muassasasida olib borilgan tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, yetarlicha ijodkor bo'lgan insonlar sezilarli darajada intellektual ustunlikka ega bo'lishlari shart emas, chunki ularning intellektual darajasi o'z – o'zidan yetarlicha yuqoridir. Ijodkor shaxsning ritmik hususiyatlari mohiyatlari shundaki, u bolaning rostgo'yligi tasavvur qilish, ko'rsatkichi ajablanishi taajublanishi bilan etuk amaliy turmushlar tajribisiga ega bo'lgan tajriba ishidagi kishining bilish mahoratini o'ziga birlashtira olishga qodir bo'lishi.

Adabiyotlar:

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni.–T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2008. – 34 bet.

2. Djuraeva B.R., Umarova X.A., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. «Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini takomillashtirishning pedagogik tizimi» / monografiya // Toshkent, Real print. – 2017. 160 b.

3. Yo'ldoshev J.G'., Usmonova S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: RTM, 2004.-B.104.

4. Shodmonova Sh. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi (o'quv-metodik qo'llanma). - T.: "Fan va texnologiya", 2008, 160 bet.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola innovatsion texnologiyalar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish jarayonlari usul va metodlari va innovatsion texnologiyalar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual qobiliyatini shakllantirish ijtimoiy- muammo sifatida haqida yozilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о методах и способах формирования интеллектуальных способностей дошкольников с помощью инновационных технологий и о формировании интеллектуальных способностей дошкольников с помощью инновационных технологий как социальной проблеме.

SUMMARY

This article is written about methods and methods of forming the intellectual ability of preschool children with the help of innovative technologies and the formation of intellectual ability of preschool children with the help of innovative technologies as a social problem.

OTA-ONA VA TARBIYACHI-PEDAGOGLARNING MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK TEXNOLOGIYASINI SHAKLLANTIRISHNING USULLARI

Allaberdiyeva K.X.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa dotori (PhD)

Tayanch so'zlar: maktabgacha ta'lim, musiqiy ta'lim, tafakkur ustaxonasi, intellekt, ta'lim dasturi.

Ключевые слова: дошкольное образование, музыкальное образование, мастерская мышления, интеллект, ликбез.

Key words: preschool education, music education, thinking workshop, intelligence, educational program.

Kirish. Kitobxonlik bolalar uchun maqsadga muvofiq pedagogik yoshni va o'ziga xos psixologik xususiyatlarini talab qiladi. Bir xil va xar xil yoshdagi bolalarning kitobga qiziqishi va o'qishida o'ziga xos tafovutlar mavjud bo'ladi. Biroq bolalikning xar bir davrida o'qishning o'ziga xos xususiyatlari,o'qish sifatining o'z yoshiga muvofiq munosabati namoyon bo'ladi. Ayrim psixologik tekshiruvlardan shunisi malumki, bolaga kitob o'qib berilganida unda:.so'z boyligi oshadi;kitobga mehri paydo bo'ladi;.muomulasi chiroyli bo'ladi.

Kitobda qanchalik mukammal so'zlar mavjud bo'lsa, kelajakda bolaga bu so'zlarni o'rganishi yanada oson bo'lar ekan. Yangi tug'ilgan chaqaloqqa 5 daqiqa davomida bo'lsa ham kitob o'qib berish, uning ham aqliy rivojlanishi uchun juda foydali ekan. Yana bir tadqiqotning ko'rsatishicha, 3 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga ko'p kitob o'qilsa, ularning chap miya yarimshari rivojlanar ekan. Bu degani, bolada suhbat qilish, tasavvur, tilga moyillik kabi xislatlar yuksaladi. Kitobni o'qilishini ko'p eshitgan bola buyum va so'zlar orasida bog'liqlikni ko'p ko'ra boshlaydi. Bu esa bolaning miyasini ilmiy, akademik yo'nalishda rivojlanishiga turtki bo'ladi. Undan tashqari uyquga ketishdan oldin kitob o'qilsa, bola oson uyquga ketadi va tinch uxlaydi, ota-ona va bola orasidagi ruhiy munosabat yanada mustahkamlanadi. Siz bilan maktabgacha katta yoshdagi bolalarga qanday kitob tanlash lozimligi haqida aytib o`tamiz? Eng yaxshi kitob, bu klassik ertak va hikoyalardir.

Lekin undan yaxshi tanlov, bola o'zi qiziqqan kitobini o'qib berish.Bu yoshdagi bola bilan kitob do'konlariga tez-tez borib turish kerak. U yerda bolaga

oʻzi qiziqib tanlagan kitobini olib berib, unga oʻqib berish maqsadga muvofiq boʻladi.Bitta oʻyinchoqning narxiga ba'zida 10 dona kichik kitob sotib olsa boʻladi. Ota-ona pulni sifatsiz, keraksiz va ba'zida zararli plastikdan yasalgan oʻyinchoqqa emas, foydasi har tomonlama katta va qiziqarli kitobni olib berib, bolaning kelajagiga katta ijobiy xissa qoʻshgan boʻladi. Keyinchalik bola ham, oʻyinchoq doʻkoniga emas, balki kitob doʻkoniga borishni afzal koʻrib qoladi. Shuning barobarida, ota-onalar oʻz farzandlarining kutubxonaga qatnashini ragʻbatlantirishlari darkor. Kitob sovgʻa qilish an'anasini keng joriy qilish kerak. Hozirgi kunda yurtdoshlarimiz orasida bayram, toʻy va tugʻilgan kunlarda kitob sovgʻa qilish ommalashib borayotgan boʻlsa-da, ayrimlar haligacha kitob hadya etishdan or qiladi, uyaladi. Bugun kompyuter, televizor, uyali telyefonning koʻpgina salbiy ta'siridan farzandlarimizni ajratib ololmaymiz.

Tahlil va natija. Demak yoshlarimiz butunlay texnika ta'siriga tushib qolmasliklari uchun yagona yoʻl – bu kitob hisoblanadi. Bolani fikrlashga, mushohada qilishga oʻrgatish bizning asosiy maqsadimiz. Kitob – tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam boʻlsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi. Kitobga boʻlgan qiziqish kitobsevarlarni kutubxona tomon chorlaydi. Bolalarda kitobga muhabbat uygʻotish, ularning kitobxonligini oshirishda kutubxonaning roli ham katta. Kutubxona – ma'naviyat va ma'rifat oʻchogʻi. Oʻsib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyosini boyitishga, kitobga boʻlgan mehr-muhabbatning oshishiga xizmat qiladi. Har bir inson kutubxonalar ma'naviyat xazinasidan, bu cheksiz imkoniyatidan iloji boricha koʻproq foydalanishi, oʻzining, oʻzgalarning hayotini boyitishi mumkin. Millatning ma'naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qoʻshgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan doʻstlashish nafaqat bizni ma'nan yuksaltiradi, balki jahonni tanitadi, ezgulikka etaklaydi. Bolalik — begʻuborlik faslining oltin zinalaridan katta hayotga qadam qoʻyayotgan farzandlarimiz qoʻliga imkon qadar kitob tutqazaylik.

Zero, ma'rifatli, ma'naviy boy va bilimli insonlargina yurtni obod qiladi. Ilm-fan va u orqali erishiladigan farovonlik bilan dunyoga tanilish esa bebahodir. Barkamol avlodni voyaga etkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin,aynan mutoala insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi.

Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyordir. Kitob haqida har qancha gapirish, uning sifatlarini soatlab maqtash mumkin. Sababi, eng yaqin doʻst, eng zarur hamroh boʻlgan kitob, insoniyat kashf etgan ixtirolarning eng buyugi va eng qadrlisi, zamonlar oʻtsada, oʻz oʻrnini hech nimaga boʻshatib bermagan moʻjizadir. Donolar kitob, kitobxonlik haqida fikr bildirar ekan, adabiyotlar bilan oshno qalbga hech qachon yomonlik in qurmasligini ta'kidlashadi. Ayniqsa, bolaligidanoq kitobga mehr qoʻygan insonlarning jamiyatda oʻz oʻrni, odamlar orasida obroʻ-etibori alohida boʻladi. Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti deb ta'rif

berganlarida, u inson ma'naviy olamini boyitishni nazarda tutganlar. Kitob Vatanga muhabbat yurtga sadoqat odamlarga mehr oqibat tuy'ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasida sifatida qadrlanadi. Maktabgacha katta yoshidagi bolalarni savodxonlikka o'rgatish bo'yicha olib boriladigan ishlar D.B.El'konin tamonidan ishlab chiqilgan nazariy tamoyillarga asoslanadi. Savodxonlikka o'rgatishning bog'cha yoshiga mo'ljallangan shakl va metodlari D.B.El'konin metodi asosida L.E.Jurova tamonidan ishlab chiqilgan.

Bolalar tamonidan savodxonlikni o'rganishga hamda buning uchun eng optimal yosh davrini aniqlashga qaratilgan maxsus tadqiqotda N.S.Voronsova 5-6 yoshli bolalar savodxonlikni o'rganishda tanlovchan tipdagi qabul qilish xususiyatiga ega ekanligini, 6-yoshdan esa o'qishga e'tiborli bo'lishini aniqladi. Shundan kelib chiqib, N.S.Voronsova 5-yoshni tovushlarni analiz qilishga o'rgatishning eng optimal davri,6 yoshni esa o'qishga o'rgatishning eng optimal(eng yaxshi va eng qulay)davr ekanligini ta'kidladi. Bu davrda bolalar kitobxonligi asosan ota – onalar va tarbiyachilar tamonidan amalg oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan butunlay behabar bo'ladilar. Shunga qramay, kichkintoylar o'zlarini qurshab olgan olamni tezroq bilib olishga,uni o'rganishga intiladilar.

Bunda ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari va ularga badiiy asarlardan parchalar o'qib berishlari lozim. Bu davr bolalariga o'qib beriladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni soda bo'lishi talab etiladi.Shuningdek, bunday kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo'lishi maqsadga muvofiq. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko'pchiligini alla-qo'shiq, ertak topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og'zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bundan tashqari, yozuvchilar yaratgan yuqoridagi talablarga to'la to'kis javob beradigan asarlar ham maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga qo'l keladi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagi muhim xarakterli voqea va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nuqtiga mos tilda, ularning yoshi, ruhiyati va saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim.

Bolalar shoiri Anvar Obidjon o'zining "G'oz" she'rida bolalar yaxshi ko'radigan g'ozlar to'g'risida so'z yuritadi. Biz bilamizki, bolalar jonivorlarga, ayniqsa, qushlarga ilk yoshlardan boshlab qiziqadilar. Umuman bolalarning yosh xususiyatlarini psixologiya fani o'rganadi.Kutubxonashunoslik esa uning xulosalarga tayanib, bolalarning kitob o'qishicha, ularning yosh xususiyatlarini qanday kitoblarni o'qish o'rganishga ta'sir etadi. Katta maktabgacha yoshdagi guruhda endigina narsalarni idrok etish, fikrlash tasavvur etish shakllanib boradi. Ular kitoblardagi qahramonlarning qiziqarli qiliqlari, kulgili voqea va hodisalarni tasodiflarni ko'proq eslab qoladilar.

Agar tarbiyachi kitobni ovozli o'qib ularning diqqatini o'qilgan narsaga tortib tushuntirib bersa, bolalar uni eslab qoladilar. Bu yoshdagi bolalar o'yin orqali voqea va hodisalarni, kishilarning xarakteri va munosabatlarini bilib oladilar ko'rgan, eshitgan, o'qigan narsalardagi holatlarni, kishilarni, hayvonlarni "yaxshi" va

‘‘yomon’’ ga ajratadilar va ularga o‘z munosabatlarini bildiradilar. Bu yoshdagi bolalarni o‘zlarini o‘rab turgan muhit, tabiat va undagi hayvonlar,o‘simliklar qiziqtiradi. Hali ular ilmiy bilim beruvchi kitoblar tabiat haqida tug‘ilgan savollarga javob berishini bilmaydilar. Shuning uchun ham ular o‘z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma-hil savollarga ko‘mib tashlaydilar endi ular voqea hodisalarga boshqacha ko‘z bilan qaraydilar,voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar. ‘‘Nima uchun qarochig‘i bo‘ladi’’, ’’Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi’’, ’’Nima uchun qor yog‘adi’’ va h.k, savollar bilan kattalarga murojat qiladilar.

Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o‘sishida,o‘qitish va tarbiyalashda o‘ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishni talab etadi, Kitobxonlar uchun kankret narsani obrazli fikrlash harakterlidir, o‘qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o‘sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozilishi masalaning qo‘yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi. Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish ular o‘qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim.

Biz bu erda alohida kitobxonlarga ta’rif berdik xolos. Bolalar o‘qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tamonlama o‘rganish lozim. Jamiyat taraqqiyotining nihoyatda ilgarilab ketishi, fan va texnika maorif va madaniyatning rivojlanish kishilar ma’naviy dunyosining yuksalishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida tehnik vositalardan-kino,televideniya,matbuot keng doirad bilim olishlari uchun imkoniyat yaratmoqda. Kitobxonlarni o‘rganish, ularning qiziqish vao‘ziga xos xususiyatlarini bilish tarbiyachining raxbarlik qilish sifatini oshiradi Bolalarni kitobxonlikga o‘rganish har xil usullarda olib borilsa ham quyidagi prinsiplarga asoslanadi. Asosiy prinsiplardan biri-yosh kitobxonni o‘rganishni uning shaxsini o‘rganish bilan bog‘liq xolda olib borish. Avvalo tarbiyachi suhbat kuzatish va boshqalar birgalikda kitobxon haqida to‘liq ma’lumot bera oladigan bo‘lishi lozim. Shunday qilib biz yosh kitobxonning qiziqishi va talablarini o‘rganish bilan birga uning o‘zini ham o‘rganamiz.

Zero, kitobxonning qiziqishi,talabi uni o‘rab turgan muhit (oila,maktabgacha ta’lim muassasasi, o‘rtoqlari) bilan munosabati qo‘shib o‘rganishga, u haqda to‘liq ma’lumot beradi. Ikkinchi prinsip, pedagogik va psixologik xususiyatlardan kelib chiqadigan fikrlar va xulosalar asosida yosh kitobxonni o‘rganish bilan birga uning qiziqishlarini tog‘ri yo’lga solib, yanada rivojlantirishdan iboratdir. Uchinchi prinsip shunga asoslanadiki, bolalar kitobini ilmiy va estetik jihatdan o‘rganish bilan uzviy alohida olib boriladi. Tarbiyachi bolalarga atalgan badiy,ilmiy, ommobop kitoblarni yaxshi bilish, uni pedagogik tomondan tahlil qila olish kerak. Tarbiyachi bu kitoblarni o‘zining muloxozasi va xulosalari bilangina baholab qolmasdan,kitobxonning yosh xususiyati, saviyasi hamda nuqtai nazarini ham hisobga olishi lozim.

Yosh kitobxonni o‘rganar ekanmiz yuqorida ko‘rsatilgan prinsiplarni birbiri bilan o‘zaro bog‘langan holda olib borish lozim. Shu prinsiplarni qo‘llashda, yuqorida ta’kidlanganidek, kitobxonning yosh xususiyatlari hisobga olish lozim. Kitobning bolaga ta’sirini, u qaysi qahramon va hodisalarni eslab qolishni, kitobning mazmuni va yozilishiga bo‘lgan munosabatini, kitobdagi ilmiy bilim beruvchi materiallarni qanchalik o‘zlashtirib olganini o‘rganish mumkin. Bu erda tarbiyachi o‘z oldiga yana ham aniq masalani qo‘yish, ya’ni bolalarning biron bir yozuvchining asariga bo‘lgan munosabatlarini janrdagi yoki mavzudagi (ertak, fantastika, urushlar) kitoblarni o‘qilishi va undagi materiallarning qabul qilishini aniqlash mumkin. Bu tarbiyachi uchun qimmatli ma’lumotlar beradi. Jumladan tarbiyachi bolalarning kitobga beradigan o‘ziga xos baholarini munosabatlarini aniqlab olish bilan ularga eng qo‘l keladigan usul vositasida kitob tavsiya etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kuzatish usuli yordamida esa kutubxonachi yoki tarbiyachi kitobxonni kitob tanlayotganda, ommaviy ishlarda qatnashayotganda, kitob o‘qiyotganida “o‘quv xonasida” bevosita ishlanadi. Suhbat usuli orqali u kitobxon fikrini,bilishini,qobiliyatini, qiziqishini, so‘zlab berish mahoratini bilib oladi. Bu usulning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Birgalikda ko‘ndalang qilish usuli orqali biror dolzarb munosabati kuzatiladi.

Bu ayniqsa kitob xaqida munozara bois o‘tkazilganda yorqin nomayon bo‘ladi. Tarbiyachi o‘zlarining kundalik faoliyatlarida shunday usullardan foydalanadilarki, u bir vaqtda ham kitobxonni o‘rganadi,ham uning o‘qishga rahbarlik qiladi. Tarbiyachi kitobxonlarni kitob tanlash,undagi rasmlarni ko‘rish yoki bolalarni kitobni bir-biriga tavsiya etayotgan paytda ular aytgan so‘zlarni bildirmasdan yozib oladi, bu ancha tabiiy chiqadi. Kitobxonlarning o‘qishini o‘rganishda va ular bilan yakka tartibda ishlashda eng samarali usullardan biri suhbatdir, bu kitobxonni va tarbiyachi o‘rtasidagi quruq savol va javob bo‘lmay, balki tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasida kitoblar haqida qiziqarli,maroqli fikr almashuv vositasidir.

Odatda tarbiyachi quyidagi uch xildan foydalaniladi; 1.Bolaning kitobga qiziqishini tanishuv suhbati. 2. Tarbiyaviy suhbat. 3. O‘qilgan kitoblar haqida suhbat. Katta guruh yoshdagi kitobxonlar bilan ishlaganda tarbiyachi yoki kitobxonchi v kutubxonachi bog‘cha hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan asarlarga ko‘proq e’tibor beradi. Ma’lumki bog‘chada turli xil hislatlarga ega bo‘lgan,ya’ni bebosh,beg‘am, tanbeh,to‘polonchi,intizomsiz bolalar ham o‘qiydi. Bu bolalarning xulqi tufayli qanchadan-qancha oynalar, kitoblar,kiyimlar iflos bo‘ladi,Tarbiyachi katta guruhdagi bolalarga ya’ni bilimlarni bilish va o‘zlashtirish lozim bolgan to‘g‘riso‘zlik,adolatlilik, halollik, sahiylik kabi hislatlarni kitobdan qiziqarli hikoya, ertaklarda ularning qalbiga singdirib berish lozim.

Ushbu yo’nalishning harakteri hususiyati shundaki, juda ko‘p bolalar yuqoridagi aytilgan hislatlarning aksi o‘zlarida ham mavjud ekanligini lekin ularga tushuntirib berish darkor. Yosh kitobxonlar ko‘pincha begona kishi oldida uyalib gapirishga iymanadilar, shuning uchun ham bu yoshda ota-onalar tarbiyachilar ishtirok etsalar bolalar haqida bilimlarga ega bo‘lib oladilar. Bola bilan suhbat

boshlanganda uni qiynayotgan har xil savollar berilsa, bola hadiksiraydi, shuning uchun ham savollar qisqa lo‘nda va qiziqarli bo‘lishi bilan bolaning o‘zini ko‘pro q gapirishga imkoniyat yaratadigan bo‘lish kerak. Buni nazarda tutib kutubxonaga kitobxon bilan suhbatini, kitobda nimalar bayon qilingan ekan?” degan umumiy savoldan emas,balki kitobdan uning uchun eng qiziqarli narsa nimaligini so‘rashdan boshlaydi va asta-sekin undan kitobni qanchalik tushunganini bilib oladi. Zarur bo‘lgan taqdirda unga muallif fikrini anglashga, qaxramon xarakterini tushunishga yordam beradi, muhimi epizodni kitobxon bilan birgalikda o‘qiydi, berilgan rasmlarni ko‘rib chiqadi kitobxonga asar g‘oyasini tushuntirishga yordam beruvchi suhbatini davom ettiradi. Tarbiyachi kitob tavsiya etar ekan, kitobxonlarga mustaqil ravishda kitob taxlash malakasini ham singdirib beradi.Shuning uchun bog‘cha javonidagi kitoblarning katalog va kartotenalari rasman bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Kitobxonning yosh xususiyatida katta farq bo‘lgani ularning tushunishi va unga munosabatida ham katta farq qiladi.

Bundan tashqari har bir kitobxonning o‘ziga xos tomoni, xarakteri ,qiziqish mavjud bo‘lib,tarbiyachi suhbat davomida bularni tezda ilg‘ab olish lozim. Shuning uchun tarbiyachi imkoniyatini hisobga olib ular bilan yakka holda ishlashni va ularga yordam berish lozim. Bolaning ko‘z oldida tarbiyachi kitoblarni yaxshi biladigan, uning qiziq joylarini gapirib bera oladigan maslahatchi bo‘lib gavdalanish lozim. Tarbiyachining tarbiyaviy roli birinchi marta kitobga qiziqqan bola bilan suhbatiga bog‘liq. Tarbiyachi bolalar bilan suhbatlashib kitob bilan ishlash qonun qoidalarini ham aytib o‘tish lozim. Chunki bola olgan kitobiga javob berish, lozimligi uqtiriladi. Bolaga ertak kitoblar tavsiya qilinayotganda unga shu kitobning boshidan ozgina o‘qib berib, kitob qahramonini xarakterlab beradi.

Ertaklarda ko‘rsatilgan rasmlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunda rasmlarning hammasini birdan ko‘rsatish maqsadga muvofiq emas.Rasmlarni bolaning hayajonini kuzatgan holda asta-sekin ko‘rsatish kerak.1-2 ta asosiy rasmlarni ko‘rgan bola kitob bilan birga shu kitobdagi epizodlarga, qahramonlarga, voqealarga, qahramonlarning harakteriga qiziqib qoladi.

Xulosa. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ba’diy asarlarni qabul qilishlarida va tushunishlarida ularga quyidagi holatlar xos boladi:

Qahramonlarga qayg‘urish va ularga hamdard bo‘lish,shu tufayli vosita tashqi ifodalangan emotsionallikning pasayishi;

Voqealar zanjirini tiklash va asar ichida xamda asarlar o‘rtasida turli hil mazmunli aloqalar o‘rnatish qobiliyati;

Qahramonlarning tashqi harakatlarini ko‘rish va qahramonlar hulq-atvoridagi ochiq mativlarni tushinish,ularning yashirin niyatlari manosiga va xarakatlarining nooshkora motivlariga kirishga urinish;

Hosil bo‘lgan voqea bolaning shaxsiy kundalik hayotidan hikoya emas, balki ko‘proq ertakka o‘xshash bo‘lishi uchun va adabiy vaziyatni talqin qilish va o‘zgartirishga urinish;

Janr asosi (ertak, xikoya,s he'r) va maqbul mavzularning (hayvonlar, sehrgarlik ko'rinishlari, bolalar va boshqa) paydo bo'lishi;

Tilning ayrim ifodali vositalarini payqash qobiliyatining paydo bo'lishi;

Ba'diy asarlarning harakterli tuzilmasi va shakli xaqidagi ta'savurlarni o'z ijodida ifodalash (kompozitsiyalarning uch qismliligi adabiy qahramonlarning asosiy xarakatlari va boshqa). Besh-yetti yoshdagi bolalarning o'ziga xos hususiyatlari- bolalarning ruhiy rivojlanishidagi ikkita bir-biriga qarama-qarshi tamoyillarning bir-biriga zid bo'lgan uyg'unligidan iborat.

Bir tomondan- bolalar yuqori ijodiy salohiyati bilan ajralib turadilar. Ikkinchi tomondan-besh-yetti yoshli bolalarning meyoriylikka intilishi hammaga yaxshi malum. Bola qoidalarini, harakat usullarini oz'lashtirishga intiladi va u bunga qodirdir.

Adabiyotlar:

1. Xomidiy.X "Avesto qaydlari" T.: 2002 yil.
2. Xomidiy.A"Temur tuzuklari".T.: Mavoroun nahr nashriyoti 2010y.
3. Loginova V. I. "Bola va kitob" Sankt-Peterburg «Aksident», 2006 yil
4. Qodirova F.Toshpo'latova Sh.va boshqalar.Maktabgacha pedagogika-2018 yil.
5. QodirovaF., Toshpo'latovaSh., A'zamovM., "Maktabgacha pedagogika".-T.,"Ma'naviyat", 2013.
6. Sayidaxmedov N.S.Yangi pedagogik texnologiyalar.–T.,Moliya,2003.
7. Shodmonova Sh.Maktabgacha ta'lim pedagogikasi.Fan va texnologiya.–T.,2008.
8. "Temur tuzuklari".T.: Mavorounnahr nashriyoti 2010 y.
9. Mashriqzamin-xikmat bo'stoni.-Toshkent,1997.39 bet.
10. Abu rayhon Beruniy"Saydana" T.:1992y.
11. Жонатан Свифт. Собрание сочинений в 3 т. — М.: Терра-Литература, 2000. — Т. I. — 480 с.; Т. II. — 480 с.
12. Смайлс, С. «Бўш қоп тик турмас» // Наука и жизнь. 2006. № 11.
13. Каринишина Л. М. «Пример самоотвержения» // Московский журнал. — 2014. — № 11. — С. 24—31.
14. Safo Matjon Komillik mezonlari.T.: Sharq 2010 y.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqola ota-ona va tarbiyachi-pedagoglarning maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik texnologiyasini shakllantirishning usullari va maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kitobxonlik texnologiyalarini shakllantirish malasasiga bag'ishlangan bo'lib, unda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirishning o'ziga xos metodik imkoniyatlari, ahamiyati, shakl va metodlariga to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена методам родителей и воспитателей-педагогов по формированию технологии чтения у дошкольников и проблеме формирования технологии чтения у дошкольников, в которой заложены уникальные методические возможности повышения интереса дошкольников к книге обсуждаются формы и методы.

SUMMARY

This article is dedicated to the methods of parents and educators-pedagogues to form reading technology in preschool children and the problem of forming reading technology in preschool children, in which there are unique methodical possibilities of increasing the interest of preschool children in books. , importance, forms and methods are discussed.

BOLALARNING IJODIY FIKRLASH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TAJRIBALARI

Allaberdiyeva K.X.
Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa dotori (PhD)

Tayanch so'zlar: xorij, maktabgacha ta'lim, musiqiy ta'lim, tafakkur ustaxonasi, intellekt, ta'lim dasturi.

Ключевые слова: за рубежом, дошкольное образование, музыкальное образование, мастерская мышления, интеллект, ликбез.

Key words: abroad, preschool education, music education, thinking workshop, intelligence, educational program.

Bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish sohasidagi xorij maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning barkamol rivojlanishi, ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirish hisoblanib, bu ishlar ta'lim va tarbiya dasturlari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning har bir milliy tizimi o'ziga xos bo'lib, xorij maktabgacha ta'lim tashkilotlari ilg'or tajribalariga egadir. Shu jihatdan bolalarning fikrlash faolligini rivojlantirish sohasidagi xorij maktabgacha ta'lim tashkilotlari tajribalari o'rganildi va tahlil qilindi. Shuni e'tirof etish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda (Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh) bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlari tomonidan qamrab olinishi 80-90% ni tashkil etadi.

Janubiy Koreyada ta'lim uch yoshdan boshlanadi, bolalar nafaqat ona tilida, balki ingliz tilida ham o'qish va yozishni, matematika asoslarini o'rganadi. Ko'pgina mashg'ulotlar fanlarga bag'ishlanadi, ammo bu bolalarning bilimlarini oshirish uchun emas, balki qiziqishlarini shakllantirish hamda kuchaytirishga qaratilgan. Ingliz tilini o'rgatayotganda alohida so'z va iboralarni tarjima qilishni emas, fikrni boshqa tilda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratiladi.

Davlat va xususiy bog'chalarda o'qitish dasturlari mavjud. Bolalarga o'qish 3 yoshdan boshlab o'rgatiladi. Ularga ona tili va ingliz tilida yozish va sanash o'rgatiladi. Bolalar nafaqat xorijiy tildan tarjima qilish, balki o'sha tilda o'z fikrlarini ham ifoda etadi. Janubiy Koreyada maktabgacha ta'lim boshqa yo'nalishlarni ham qamrab oladi: jismoniy tarbiya; musiqa va raqs darslari; urf-odatlarni o'rganish; tabiat haqidagi fanlar; boshqa fanlar.

Musiqiy ta’limga ko‘p vaqt ajratiladi. Maktab yoshiga yetganda bola kamida bitta cholg‘u asbobini chala oladi.

Tabiat darslarida bolalar fasllarni o‘rganadi, hayvonlar va hashoratlarning hatti-harakatlarini o‘rganadi. Yaqin atrofdagi bog‘larga sayrlar tashkillashtiriladi. Butun guruh bilan birgalikda fermaga boriladi, qulupnay terishadi yoki bog‘cha hovlisiga daraxt va buta ko‘chatlari o‘tqazishadi.

Yapon tarbiyachilarini bolalarni kichik guruh (xan)larga bo‘lib o‘qitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o‘rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o‘rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o‘zlari boshqaruvchi tanlaydilar.

Germaniyada tafakkur ustaxonasi hisoblangan maktabgacha ta’lim tashlilotlari davlat tizimiga kirmaydi. Bolalar bog‘chasi xayriya jamg‘armalari, mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Shu bilan birga korxona va tashkilotlar ham o‘z bog‘chasiga ega bo‘lishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tizimi 3 yoshdan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarni qamrab oladi. Hali aqlini tanib ulgurmagan bolalarda o‘z fikrini ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish, ularni boshlang‘ich ta’limga tayyorlashda bog‘chalarning o‘rni katta. Shu bois ham olmonlar bog‘chalarni “tafakkur ustaxonasi” deb atashadi. Germaniyadagi zamonaviy o‘qituvchilarning asosiy vazifalari bolalarning uyg‘un hissiy, ijtimoiy, intellektual va jismoniy rivojlanishini, ularning shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantirishdan iborat. O‘qituvchilar asosan shaxsiy ish uslublarini qo‘llaydilar yoki kichik guruhlar bilan ishlashadi.

Kanadada maktabgacha ta’limda har bir sohani rivojlantirish uchun sarflanadigan vaqt belgilanmagan. Shaxsiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanish; muloqot, til va savodxonlik; matematik qobiliyatlarni rivojlantirish; tafakkurni rivojlantirish; jismoniy rivojlanish; ijodiy rivojlanish. Hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan barcha MTTlarda rahbariyat va xodimlar o‘qitish metodi va aqliy rivojlanish uchun zarur materiallarni o‘zlari belgilashlari mumkin.

Barcha bolalar juda faol – barcha biror ish bilan mashg‘ul bo‘ladilar. Barchasi ular uchun qiziq va odatiy ekanligi his etiladi. Kanadada hech qanday alohida belgilangan tarbiya tizimi mavjud emas. Bolalarga “Yo‘q” deyish ta’qiqlanadi. Bolalar istaganlarini qiladilar, ammo qaysar va to‘polonchi bolalarni ham ko‘chalarda uchratmaysiz. Kanadada tarbiyaning asosiy tamoyili xorijiy tarbiya tamoyillari asosidagi – qat’iy qoida va kun tartibining o‘rnatilmasligidir. Kanadada erkin shaxsni tarbiyalashga harakat qiladilar, uning rivojlanishida erkin fikrlash va ijodga e’tibor qaratiladi.

Niderlandiyada maktabgacha ta’lim bolaning emotsional sohasi, intellekti va san’atini rivojlantirishga, ijtimoiy, madaniy va jismoniy malakalar bilan bir vaqtda

zarur bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan. Maxsus maktablardagi ta’lim oluvchilar sog‘lom bolalar bilan teng ravishda ta’lim olishlariga yo‘naltirilgan. Ta’lim dasturi quyidagilarni qamrab olgan: sensor koordinatsiya va jismoniy ta’lim; nemis tili; arifmetika va matematika; ingliz tili; dalilli fanlar, masalan geografiya, tarix, biologiya, ijtimoiy tuzilmalar (jumladan, siyosiy fan), shuningdek, diniy va g‘oyaviy tarbiya, tilni, musiqani, o‘yin, harakatlarni qo‘llashga qaratilgan ifodali tadbirlar; ijtimoiy va hayotiy ko‘nikmalar, jumladan, ko‘chada o‘zini tutish qoidalari va sog‘lom turmush tarziga amal qilish.

Buyuk Britaniyada majburiy guruhli mashg‘ulotlar o‘tkazilmaydi, aqliy rivojlanish o‘yin shaklida amalga oshiriladi. O‘yinchoqlar va o‘yin uskunalarini tanlashga alohida e’tibor qaratiladi. Mustaqil shug‘ullanadilar, 15% vaqt guruhli ta’lim uchun, uyqu vaqti bo‘lmaydi, maxsus kiyim, qat’iy tartib-intizom, ozgina kechikish uchun ota-onalar tushuntirish xati yozadilar. Bolaning kela olmasligi (biror sabab tufayli) to‘g‘risida ota-ona rahbariyatni oldindan yozma ogohlantirishi lozim.

Norvegiya maktabgacha pedagogikasi M.Montessorining ta’lim nazariyasini keng qo‘llagan holda, bolalarning atrof-olam bilan bevosita tanishishlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Eshitish va ko‘rish orqali tanishishdan tashqari pedagoglar sezish, tuyishni keng qo‘llaydilar. Og‘zaki metodlardan ko‘proq tushuntirish, hikoya, suhbat qo‘llaniladi. Pedagoglar har bir bolaning qiziqish va moyilliklarini o‘rganadilar, maslahatlar beradilar, ularning har tomonlama rivojlanishlari uchun sharoitlar yaratadilar, predmetli-moddiy muhitni ta’minlaydilar. Tarbiya metodlari ko‘proq individual ishlashga yo‘naltirilgan. Norvegiya maktabgacha pedagogikasi mustaqil va ijodiy shaxsni tarbiyalashda muammoli tarbiya va ta’lim metodlarini qo‘llashni nazarda tutadi. Qaror qabul qilishni talab etuvchi turli vaziyatlarni yaratish MTTlar ishlarini tavsiflaydi.

Xorijiy tajribalar tahlili asosida bolalarda ijodiy faollikni shaklantirish bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlarining asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bolada “sog‘lom tana va vujud”ning bo‘lishini ta’minlash: bola ruhiyatini sog‘lomlashtirish, individual xususiyatlarini hisobga olish orqali jismoniy sifatlarni shakllantirish, bolaning fiziologik molsashuvchanlik darajasini oshirish;

2) rivojlantiruvchi ta’limiy muhitni qaror toptirish: “.bolaning aqliy, ma’naviy va jismoniy layoqatlarini to‘laqonli” (“Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya”, 29-modda) rivojlantirishda barcha bolalarga teng dastlabki shart-sharoitni ta’minlash (BMT konvensiyasi) bilan to‘liq bog‘liqdir;

3) tuzatish va o‘zgartirishlar kiritib borish: bolalardagi ijodiy layoqatning to‘g‘ri rivojlanishini tashxis etish va muayyan darajada tuzatishni amalga oshirish;

4) ijodiy faollikni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

1) potensial imkoniyatlar asosida bolaning har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlash;

2) bolaning yosh va shaxsiy saloxiyatini ro‘yobga chiqarish uchun maktabgacha ta’limda o‘qitish sifatini oshirish;

3) amaliy faoliyat doirasini bosqichma-bosqich kengaytirib borish, ijodiy faoliyat turlari xilma-xilligiga erishish;

4) bola shaxsiga yo‘naltirilgan kreativ muhitning barqarorligini yuzaga chiqarish;

5) ijodiy faollikni shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy intellekt turlariga bevosita jiddiy e’tibor qaratish;

6) ijodiylik, onglilik va faollikning uyg‘un namoyon bo‘lishini hisobga olish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish sifati individual yutuqlardan qoniqish hosil qilish, Davlat talablariga moslik, ijodiy ko‘nikma va sifatlarning rivojlanganligi, kreativlikka intilish bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim mazmuni integratsiyalashuvining o‘ziga xosligi hozirgi vaqtda shakllangan muayyan shartlar asosida yuzaga keladi. Bu pedagog va bolaning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida ta’limiy ishlarni amalga oshirishning yetakchi tamoyillari, yo‘llari va vositalarini belgilovchi bolalar ta’limi yondashuvlariga taalluqli.

Rus olimi M. Lazarevaning integratsiyalashgan yondashuvi misolida maktabgacha ta’limning asosiy komponentlarining o‘zaro aloqasi xususiyatlari ochib berilgan .

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirishda integrativ yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Integratsiya (lot. integratio – tiklash, to‘ldirish) – turli xil qism va elementlarni bir butunlikka birlashtirish jarayonini ifodalovchi atama. Ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim mazmuni mashg‘ulotlar va faoliyat turlari o‘rtasidagi integratsiyaini ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Aynan bola faoliyatining xilma-xil turlarini integratsiyalash ijodiy qobiliyatlarni to‘liq namoyon qilishga imkon beradi.

Maktabgacha ta’limda integratsiyalashgan ta’limni tashkil etish bolaning qiziqish va intilishlarini to‘liq hisobga olish, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan uyg‘un olib borishni taqozo etadi. Bunda bilim, ko‘nikma va malakalar tarbiya va rivojlanish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Integratsiyalashgan ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

– ta’lim mazmunining hayotiy zarur bilishga doir materiallar, bilishga doir vazifalar bilan boyitilganligi, ularni hal qilishga intilish yangilikni o‘rganishga undaydi;
– pedagog shaxsining kongruentligi, ya’ni o‘zini hissiyotlari fikrlariga mos ravishda tutish, o‘zining haqiqiy “men”ini namoyon etish, bu bolalardagi zo‘riqish va psixologik himoya holatini yengadi, unga qanday bo‘lsa shundayligicha o‘zini tutishiga va o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishiga imkon beradi;
– farovon psixologik muhitni yaratishga olib keluvchi bolani shartsiz ravishda tushunish va qabul qilish, bolani “boricha qabul qilish”;
– shaxsiy faollik barqarorligini ta’minlash, bolaning “ichki kuch va imkoniyatlari”ni yuzaga chiqarish.

Maktabgacha ta’lim mazmuni integratsiyalashuvining o‘ziga xosligi hozirgi vaqtda shakllangan muayyan shartlar asosida yuzaga keladi. Bu tarbiyachi va bolalarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish turlari va shakllari bilan bevosita bog‘liqdir.

Ijodiy faollikni shakllantirishga yo‘naltirilgan integratsiyalashgan ta’lim mazkur jarayonni amalga oshirishda maqsad, vazifa, mazmun, shakl, metod va vositalar hamda natijaning yaxlit tarzda qo‘yilishi, ijodiy jarayonning barcha tarkibiy asoslari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik va bog‘liqlikni yuzaga keltirishni taqozo etadi. .

Bolalarning ijodiy faolligini shakllantirishda integrativ yondashuv quyidagi o‘ziga xosliklariga ega:

1) bola ongida olam haqidagi dastlabki yaxlit umumlashmalar hosil qilish, tarbiyalanuvchilarda hayotiy ko‘nikmalarga ijodiy yondashuvni qaror toptirish;

2) ijodiy faollikni ham mazmunan, ham shakliy jihatdan uyg‘un bo‘lishini ta’minlash;

3) ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim mazmunining ichki va tashqi uyg‘unligini gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda boyitib borish;

4) ijodiy faollikni shakllantirish shakl, metod va vositalarining birligini hisobga olish;

5) ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar va faoliyat turlarini mujassamlashtirish;

6) bolalarning ijodiy faoliyatini tashkil etishda modulli yondashuv (kognitiv, amaliy va kreativ sohalar uyg‘unligi) imkoniyatlarini kengaytirish .

Integratsiyalashgan ta’limga aksiologik yondashuv quyidagilarda aks etadi:
– bolaning atrof-olamga, o‘z-o‘ziga qadriyatli munosabati asoslarini shakllantirish;
– faoliyatning sodda madaniy usullarini egallash;

– kattalar va boshqa bolalar bilan muloqot madaniyati me'yorlariga mos bo'lgan shaxslararo munosabatlarni shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar integratsiyalashgan ta'limiga aksiologik yondashuv olamning yaxlit tasvirini tushunishga asoslangan atrof-olamga qadriyatli munosabatni shakllantirishni va qadriyatlar asosida atrof-olamning yaxlit obrazini anglash va loyihalashni aks ettiradi; qadriyatli munosabatlar[44], qadriyatli me'yorlar (atrofdagi insonlarga, o'z-o'ziga, turli faoliyat turlariga, san'at asarlariga, kattalar mehnati va boshqalarga), qadriyatli sifatlar (mehribonlik, hamdardlik, tartiblilik va boshqalar)ni shakllantirish maqsadida qadriyatlar yaxlit tizimiga o'rgatish.

Integratsiyalashgan ta'limga faoliyatli yondashuv quyidagi belgilarning namoyon bo'lishida aks etadi: asosiy e'tibor bolalarning xilma-xil faoliyat turlarini tashkil etilishiga qaratiladi; tarbiyachi nafaqat belgilangan bilimlar majmuasini taqdim etuvchi, balki pedagogik jarayonning tashkilotchisi sifatida qatnashadi; bilishga oid material ta'limning maqsadi sifatida emas, balki faoliyatni o'zlashtirish vositasi sifatida qo'llaniladi; malakalar atrofdagi hayot to'g'risidagi o'zaro bog'liq bilimlarni o'zlashtirish orqali shakllanadi;

– maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning atrof-olamdagi predmetlar va hodisalar to'g'risidagi tasavvurlarining yaxlit shakllanishi predmetlar, obyektlar va ularning qismlari orasidagi mantiqiy aloqadorlikning ko'rgazmali taqdim etilishida samarali amalga oshadi;
– bilish faoliyatida bilimlarni mustahkamlash va qo'llash orqali ularning sifatini tekshirishning zaruriyati;
– maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning bilish jarayonlarida hissiy va ratsional hodisalar yaxlitligini ta'minlash;
– bilimlarni o'zlashtirish usuli sifatida bilish jarayonida izlanish metodlarini qo'llash;
– bolaning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi uchun ijodiy pedagogik jarayonlarni yaratish.

Kompleks yondashuv – integratsiyalashgan ta'limning xususiy holati, integratsiyalashgan ta'limda o'zaro bog'liq san'at turlari va bolalar badiiy-estetik faoliyati turlarini qo'llashda namoyon bo'lib, quyidagilarni inobatga oladi:

– san'at va umumiylikning o'zaro aloqasi – san'atning obrazli-badiiy tabiati yaxlitligini yaratish;
– ijodiy faoliyatda artterapiyadan foydalanish;
– xayol, tasavvur va zehnning o'zaro bog'liqligini ta'minlash;
– kreativ sifatlarni (qiziquvchanlik, sezgirlik, hissiy yo'nalganlik, xayolga "cho'mish", tasavvurning boylishi) bosqichma-bosqich rivojlantirib borish.

Integratsiyalashgan ta’lim konsepsiyasiga tayanuvchi keyingi yondashuvlar guruhi uning tuzilish xususiyatlarini belgilaydi: tizimli, funksional-tuzilishli va texnologik yondashuv.

Integratsiyalashgan ta’lim maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning bilimlarini tizimli shakllantirish zarurligi to‘g‘risidagi, ana shu asosda amalga oshirilganidagina ijodiy bilimlar shaxsiy tavsifga ega bo‘lishi[, bolada kreativ sifatlarni shakllantirishga maqsadli tarzda xizmat qilishi mumkinligidan dalolat beruvchi struktur (chiziqli) yondashuv talablariga muvofiq amalga oshadi.

Struktur (chiziqli) yondashuvdan kelib chiqadigan funksional tuzilishli yondashuv integratsiyalashgan ta’limni undagi har bir komponentni funksional sifatida uni boshqasi bilan ahamiyatli aloqadorlik va bog‘liqlik orqali solishtirish yordamida aniqlanuvchi yaxlitlik sifatida qarashga imkon beradi.

Bolalarning ijodiy faolligini shakllantirishga texnologik yondashuv kutiladigan natijaga erishishni kafolatlaydigan maqsad va vazifalarni aniqlashtirish, ta’lim-tarbiya shakl, metod hamda vositalarini oqilona tanlashga asoslangan pedagogik jarayon tizimini o‘zida ifoda etadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ijodiy faollikni shakllantirishga texnologik yondashuvni tatbiq etish quyidagi jihatlarni hisobga olishni taqozo etadi:

1) bolada ijodiy layoqatni rivojlantirishga doir o‘quv materiallarini tanlash;

2) ijodiy faoliyatni tashkil etish jarayonlarini tahlil qilish, bolalarning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

3) pedagog faoliyatining insonparvarlikka yo‘nalganligi;

4) bolaning ijodiy faolligini muntazam monitoring qilib borish;

5) dialogik ta’lim metodlaridan samarali foydalanish;

6) bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish;

7) kreativ ta’lim muhitini qaror toptirish.

Integratsiyalashgan ta’limning yetakchi tendensiyalari zamonaviy ta’limning umumiy tendensiyalarini aks ettiradi – dunyoviy, milliy, hududiy hamda o‘z ichiga maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning integratsiyalashgan ta’limi uchun xos bo‘lgan maxsus yo‘nalishlarni: insonparvarlik, ijtimoiylashuv, demokratlashuv, mazmunning variativligi, maktabgacha ta’lim mazmunining jadallashuvi va integratsiyasi, axborotli ta’lim metodlaridan faol ta’lim metodlariga o‘tilishi (ta’limning faoliyatli asosini kuchaytirish), gnoseologik, aksiologik, madaniy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mazkur tendensiyalar maktabgacha ta’limda umumiy holda namoyon bo‘ladi, integratsiyalashgan ta’limda esa belgilangan xususiyat kasb etadi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning integratsiyalashgan ta’limi qarama-qarshiliklarini tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy ilmiy bilimlarning rivojlanishi sharoitida ayniqsa fanlarning integratsiyasi va differensiyasi bilan bog‘liq masalalar: ta’limda klaster yondashuvning rivojlanishi, integrativ pedagogika g‘oyalarini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’limda bolaning rivojlanishini optimallashtirish va boyitishga yo‘naltirilgan mazkur tamoyilni joriy etishning muvaffaqiyatli amaliyoti mavjud. Ammo yangi sharoitlarda integratsiyani mazmun jihatidan ham, shaklan ham yangicha tushunish talab etiladi.

Ayniqsa, bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish maqsadini integratsiyalash maktabgacha ta’lim tashkilotining barcha funksiyalarini mujassamlashtirishni taqozo etadi. Maqsadga erishish uchun MTTning funksiyalari nafaqat vazifalarning natijalarga aylanishi, balki his-tuyg‘ularning odat (fazilat)ga “o‘tishi”ni ta’minlashi kerak.

Mazmunning integratsiyasi – ta’lim mazmuni tarkibida ijtimoiy tajriba asosiy komponentlarining o‘zaro bir-birini to‘ldirishi, o‘zaro boyitishi. Ta’lim mazmunining (tasavvurlar va bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar, faoliyat va ijod tajribasi, munosabatlar tajribasi) dastlabki komponentlari har bir ta’lim sohalarida hamda ularning har biri bilan o‘zaro aloqadorlikda va uzviylikda oqilona taqdim etilishi lozim. Bu bolalar bilan ta’limiy ishlarning muvofiq ravishdagi texnologiyalari orqali ta’minlanadi.

M. Lazarevaning ishlarida berilgan maktabgacha ta’lim mazmunini integratsiyalash usullarining tasnifi alohida e’tiborga loyiq. Integratsiyalashgan ta’limning mazmuni murakkab tuzilishga ega. Tarkibida dasturning bir bo‘limi mazmuni aks etuvchi an’anaviy bir turdagi faoliyatlardan farqli ravishda, integratsiyalashgan faoliyatlar tarkibiga dasturning turli bo‘limlaridan ikki va undan ortiq komponentlari kiritiladi. Tarkibiy tahlil integratsiyalashgan faoliyatlar mazmunining komponentlari integratsiyasining belgilangan usullari bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Integratsiyalashgan faoliyatlar mazmunini o‘rganishda tarkib komponentlari orasidagi munosabatlar tahlili ikki turini ajratishga imkon berdi: tenglikdagi munosabat va teng bo‘lmagan munosabat. Tengsizlikda bir komponent boshqasiga turli darajada bo‘ysunishi mumkin. Mazmun komponentlarining turli sifatliligini bartaraf etish va yaxlitlikni yaratish maqsadida umumiy va fanga oid integratsiyasi omillari kiritiladi. Integratsiyasi omili ijodiy jarayonning muhim tarkibiy asosi bo‘lib, ijodiy faoliyat turlarini yaxlit ifoda etish, ularning samarali ta’sir doirasini kengaytirishga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Deyarli barcha sanab o‘tilgan integratsiyasi omillari u yoki bu darajada maktabgacha ta’lim mazmunida namoyon bo‘ladi. Umumiy holdagi integratsiyasi omillariga quyidagilar kiradi: mavzu, maqsad va vazifalar; mazmunning faoliyatli

xususiyati; intellektual texnologiyalar; o‘yin, “Men” obrazi; sodda muammoli vaziyatlar; hududiy va ekologik komponentlar.

Fanga oid integratsiyasi omillariga “integratsiyasi asosi”ga kiritiladigan va umumiy bo‘lgan, demak integratsiyalashgan mazmunning barcha komponentlarini birlashtiruvchi badiiy obrazlar, atrof-olamdagi predmetlar, obyektlar, hodisalar to‘g‘risidagi tasavvurlar kiradi .

Texnologiyalar integratsiyasi – bolaning shaklan (erkin va maxsus tashkil etilgan faoliyat, mustaqil va hamkorlikdagi faoliyat, tartib o‘rnatilgan faoliyat) va mazmunan (bilishga oid, badiiy-nutqiy, o‘yinli, mahsuldor va boshqalar) har tomonlama va yaxlit rivojlanishi maqsadida bolalar faoliyatlari va muloqotlari (faoliyatlararo asos) turlarining yig‘indisidan foydalanish.

Integratsiyalashgan ta’lim zamon va makon muhitida amal qilib, “hozir va shu erda” (kongruentlik) tamoyiliga muvofiq o‘qitish shakl, metod va vositalarini uyg‘unlashtiruvchi faoliyatni amalga oshirishni talab etadi. V. Lazareva tomonidan integratsiyalashgan faoliyatlar mazmuni murakkab tuzilishga ega bo‘lgan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning sodda o‘quv-biluv faoliyatlarini maxsus tarzda tashkil etilishi sifatida belgilanadi . An’anaviy faoliyatlardan farqli ravishda tadqiqotchi quyidagilarning mavjudligini aniqlaydi:

- faoliyat tarkibida ikki va undan ortiq tarkibiy qismlarni;
- mazmunning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi tabiiy, hayotiy aloqalar (mazkur aloqalar ko‘rinarli bo‘lgani ma’qul) ;
- komponentlar orasidagi munosabatlar (tenglik yoki tengsizlik) va o‘zaro ta’sir kuchi (kuchsiz, o‘rta, kuchli) xususiyatlarini aks ettiradigan integratsiyasi usullari;
- faoliyat tarkibiga kiruvchi barcha komponentlar uchun umumiy hisoblangan mazmunni aks ettiruvchi “integrativ asos”; umumiy va maxsus integratsiyaviy omillarni.

S. Sajinaning ishlarida integratsiyalashgan faoliyatlarni o‘tkazish texnologiyalari batafsil ko‘rib chiqilgan. Eng samarali metodlar va usullarga quyidagilar kiritiladi:

- solishtirma tahlil, taqqoslash, izlash, evristik faoliyat;
- muammoli savollar, “isbotla”, “tushuntir”, “qanday bilding” kabi topshiriqlardan foydalanish va boshqalar;
- madaniy-nutqiy qoidalar bilan tanishtirish, lug‘at boyligini faollashtirish, o‘z kuchiga ishonch tuyg‘usini tarbiyalash uchun nutqqa oid turli-tuman didaktik o‘yinlar.

Integratsiyalashgan faoliyatlarni o‘tkazish talablari tarkibida quyidagilar belgilangan:

- o‘quv materialining aniqligi, ixchamligi, ravonligi.

– har bir faoliyatda dastur bo‘limlarining o‘rganilayotgan materialining o‘ylanganligi va mantiqiy o‘zaro aloqadorligi.
– faoliyatning har bir bosqichida integratsiyalashgan fanlar materialining o‘zaro aloqadorligi, o‘zaro bog‘liqligi.
– faoliyatda qo‘llaniladigan o‘quv materialining katta axborot hajmi.
– materialni bayon etishning tizimliligi va tushunarliligi.
– faoliyat vaqt chegaralariga amal qilish zarurati.

Integratsiyalashgan faoliyatning afzalliklari:

– ta’lim olish motivatsiyasining oshishiga, tarbiyalanuvchilarning bilishga oid qiziqishlarining shakllanishiga, olamning yaxlit tasavvuri va hodisani bir necha tomondan ko‘rib chiqilishiga yordam beradi;
– odatiy faoliyatlardan ko‘proq darajada nutqning rivojlanishi, tarbiyalanuvchilarning solishtirish, umumlashtirish, xulosa yasash, malakalarini shakllantirish, zo‘riqishni, charchoqni yozishga yordam beradi;
– tasavvurlar asosida paydo bo‘lgan tushunchalarning doirasi, mazmuni va yo‘nalishini boyitadi;
– ijodiy faollikni oshirish uchun zarur masala mohiyati bilan bog‘liq dalillar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatadi, sezgirlik va kuzatuvchanlik sifatlarini rivojlantiradi;
– bolalarda ijtimoiy intellekt, ya’ni kommunikativlik, o‘z-o‘zini va boshqalarni tushunish, olamni turli ko‘rinishlarda ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantiradi .

Mualliflar integratsiyalashgan faoliyatlarning pedagogik va metodik texnologiyalari turlicha bo‘lishi mumkinligini, ammo har qanday vaziyatda ham ularni modellashtirish zarurligini ta’kidlaydilar. Yangi optimal sxema-modellarni mustaqil izlash – pedagogning ijodiy faolligi namoyon etilishidir.

Natijaning integratsiyasi maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning asosiy yangi shakllangan bilimlarida aks etuvchi, shaxsning integrativ xususiyatlari va faoliyatining shakllanishiga yo‘naltiradi. Bu, avvalo, katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning shaxsiy yutuqlari va mos faoliyat turlarida shakllanuvchi subyektiv xususiyatlariga tegishlidir.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar erta rivojlanish hodisasi, bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish jarayonlarining samaradorligi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning sifatiga bog‘liq ekanligini haqli ravishda ta’kidlab o‘tishadi. Rivojlangan bolalik borlig‘iga nisbatan (V. Kudryavsev) bolaning psixik rivojlanishi madaniy ijodning alohida shakli sifatida, madaniyatning tarixiy rivojlanishida teng ravishda ham uzluksizlik, ham bog‘lovchilikni amalga oshiruvchi mexanizm tarzida madaniy ijodning alohida shakli sifatida ko‘rilishi mumkin. Madaniy ijod funksiyasining mavjudligi – bolalikning yetakchi mezonidir .

Maktabgacha katta yosh davrida bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish bir tomondan bola va ijod psixologiyasi qonuniyatlari, ikkinchi tomondan, evrologik (izlanishli) ta'limning asosiy tamoyillarining bevosita hisobga olish zarurligini talab etadi.

Bolalarda ijodiy faollikni shakllantirish ulardagi topqirlik, moyillik va qiziqishlarni erta tashxis etish, ana shu asosda integrativ yondashuv asosida faoliyat jarayonlarini rejalashtirish va amalga oshirishni taqozo etadi .

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiya jarayoni bolalarning ijodiy faolligini shakllantirishda ta'lim ishlarini barcha bo'g'inlarining o'zaro ta'siri, o'zaro uyg'unlashuvi va o'zaro aloqadorligini ta'minlovchi majmuaviy tarbiya, ta'lim, rivojlanish sifatida qaraladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish faoliyatlar va faoliyat sohalarini integratsiyalash asosida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari va sotsiumning ta'sirini hisobga olish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kreativ ta'lim muhitini rivojlantirish, bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish maqsadida hamkorlikdagi faoliyat turlari va shakllari variativligini bevosita hisobga olishni taqozo etadi. Bolalardagi ijodiy faollik izlanishli faoliyat bilan tabiiy ravishda bog'liq bo'lib, aynan maktabgacha katta yoshdagi bolalarning individual-psixologik xosliklari bilan uyg'unlik kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Лазарева М. В. Интегрированное обучение детей в дошколь¬ных образовательных учреждениях: Автореф. дис.... д-ра. пед. наук. М., 2010.

2. Педагогика: энциклопедия. II жилд. Жамоа // Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2015. – 376 б. Б.100-101.

3. Сажина С.Д. Технология интегрированного занятия в ДОУ. М., 2008.

4. Кузьмина Т. Оптимизация обучения младших школьников на основе нейропедагогического подхода. – Таллин, 2010. – С.9.

5. Вассерман Е.Л. Модернизация специального образования: проблемы коррекции, реабилитации, интеграции. Санкт Петербург: 2003. – С. 459-464.

РЕЗЮМЕ

Bolalarning ijodiy faolligini shakllantirish sohasidagi xorij maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarning barkamol rivojlanishi, ularda ijtimoiy hayot malakalarini shakllantirish hisoblanib, bu ishlar ta'lim va tarbiya dasturlari asosida amalga oshiriladi.

РЕЗЮМЕ

Зарубежные дошкольные образовательные организации в сфере творческой деятельности детей учитывают развитие детей, формирование у них навыков социальной жизни, и эта деятельность осуществляется на основе образовательных и обучающих программ.

SUMMARY

Foreign pre-school education organizations in the field of creative activity of children consider the development of children, the formation of social life skills in them, and these activities are carried out on the basis of education and training programs.

BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA TOPSHIRIQLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Karimova K.R.
Urganch davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi(PhD)
To‘rayeva O. R.
Urganch davlat pedagogika instituti magistri

Tayanch so‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, boshlang‘ich sinf, kreativ fikrlash, topshiriq, nostandart masalalar, mantiqiy masala.

Ключевые слова: учитель, ученик, начальный класс, творческое мышление, задание, нестандартные задачи, логическая задача.

Key words: teacher, student, primary class, creative thinking, assignment, non-standard problems, logical problem.

Ertangi kun egalari bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalash borasidagi izlanishlar bugungi kunda davlat siyosati darajasida qaralib, tizimli ravishda kuchayib borayotganligini va umumxalq harakatiga aylanayotganligi bolalikning ilk davrlaridanoq ularda aqliy faoliyatni tarbiyalash, boshlang‘ich ta’limni yanada takomillashtirishdek juda muhim bo‘lgan mas’uliyatli vazifani qo‘ymoqda. Ayni paytda ushbu muammoni hal qilish uchun yetarlicha shart sharoitlar yaratildi va bu jarayonga e’tibor yanada kuchaytirilmoqda. O‘quv fanlari va ta’lim bosqichlari bo‘yicha konsepsiyalar, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va ularga mos yangi turdagi darsliklarning yaratilganligi, darsliklarga o‘quvchi fikrlashi oson bo‘lgan yangi g‘oyalarning olib kirilganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi. Shuningdek, ta’limga texnologik yondashish ham dolzarb tamoyillardan biriga aylandi va bularning barchasi davlatimizda o‘ziga xos ta’lim modeliga asoslanishiga olib keldi. Yosh avlodga beriladigan ta’lim-tarbiyani kelajakka, ijodiy kuchlarni rivojlantirishga, fan-texnika taraqqiyotining istiqboliga muvofiqlashtirish zarurligi bugungi kun talabidir.

Har tomonlama yetuk, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli barkamol avlod tarbiyasi mamlakatimizda avvalo o‘qituvchilar zimmasiga yuklatilgan eng mas’uliyatli va shu bilan birga sharafli vazifadir. Komil insonni bu o‘qituvchining ko‘p

yillik mashaqqatli mehnati samarasidir. Komil insonni tarbiyalash sharq allomalari ilmiy meroslarida ham doimo munozarali mavzu bo‘lib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, mashhur alloma Aziziddin Nasafiy o‘zining “Komil inson” nomli kitobida shunday yozadi: “Bilgilki, komil inson quyidagi to‘rt fazilatga mukammal shaklda ega bo‘lgan insondir. Ularning birinchisi yaxshi so‘z, ikkinchisi ezgu faoliyat, uchinchisi go‘zal axloq, to‘rtinchisi ilm”.

Inson hozirgi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda doimiy o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy madaniy sharoitda yashamoqda. Shaxs bunday tezkor o‘zgaruvchan davrda yashashi uchun tizimli ravishda uzluksiz rivojlanishi hamda yangi sharoit va tizimlarga moslashishga yordam beradigan shaxsiy kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak. Bugungi kunda ta’limni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkillashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchilar kompetensiyalarini shakllantirgan holda muntazam rivojlantirib borish pedagogikaning muhim masalalaridan biridir. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ya’ni ijodiy yaratuvchilik ruhida bo‘lib, o‘quvchilarni muntazam faollikka undaydigan bo‘lishi kerak. Ijodkorlik, yaratuvchanlik, yangilikka qaratilgan faoliyat kreativ faoliyat deb tushunilib, kreativlik so‘zi inglizcha “create” - yaratuvchanlik, ijodkorlik so‘zidan olingan bo‘lib, inson shaxsining ijodkorlik qobiliyati, iste’dod darajasi, individning an’anaviy yoki muntazam foydalanilib kelinayotgan fikrlash shaklidan uzoq bo‘lgan, yangi fikr va g‘oyalarni yaratishga undovchi, shuningdek, muammolarni kutilmagan tarzda bartaraf etish va iqtidorning mustaqil omili sifatida qabul qilingan qobiliyatdir.

Boshlang‘ich ta’lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta’lim bosqichlaridan biri bo‘lib, ta’limning bu bosqichi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga katta mas’uliyat yuklaydi.

Insonning ongli faoliyati, fikr yuritishi, yangi bilimlarni o‘zlashtirib, yanada takomillashtirishi topshiriq bilan, o‘quvchilar faoliyatida esa mavzu yuzasidan beriladigan o‘quv topshiriqlari bilan bog‘liqdir. O‘quv faoliyatining yo‘nalishlari – qayta esga tushirib ijod qilish, yangi bilimlarni o‘rganib turli o‘quv jarayonlariga tatbiq qilish, olgan bilimlarni umumlashtirib o‘z-o‘zini nazorat qilish o‘quv topshiriqlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, topshiriqlar esa ta’limni rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi.

Bilish faoliyatining qaysi yo‘nalishi bo‘lmasin ularning o‘ziga jalb qiluvchi shu bilan birga yo‘naltiruvchi kuchi o‘ziga xos “topshiriq”lardir. Fanda berilgan topshiriqni bajarish usullariga ko‘proq e’tibor beriladi lekin, ularning mohiyati va umumiy jihatlariga e’tibor qaratilmaydi. Topshiriqlar turlicha bo‘lib, maktab ta’limi jarayonida o‘rganiladigan topshiriqlar o‘quv-biluv topshiriqlaridir.

Bunday topshiriqlar bilan o‘quvchi shaxsi rivojlantiriladi. O‘quv topshiriqlari o‘quvchining bilimi, ko‘nikmasi, malakasi, ijodiy fikrlashi, tevarak-atrofidagi hodisalarga munosabatini shakllantiradi va rivojlantiradi.

O‘quv topshiriqlari ham turlicha bo‘lib, uning bir qismi bo‘lgan ayrim nostandart topshiriqlar o‘quvchining kreativ tafakkurining shakllantirilishiga, ularning fikrlash qobiliyatining rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi maxsus o‘rganishni talab etmoqda. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan o‘z ustida tinimsiz ishlash va juda katta izlanishni talab etadi. Matematika darslarini o‘quvchilar tomonidan puxta o‘zlashtirilishi uchun dars jarayonida topshiriqlardan unumli va samarali foydalanishimiz, shu bilan birgalikda o‘quvchi kreativ fikrlashini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish zarurdir.

Ma’lumki, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi kuzatish, amalda qo‘llash va ushlab ko‘rish orqali esda saqlab qolishi juda oson va bu bolalik davriga xos bo‘lgan xarakterdir. Shuni e’tiborga olgan holda boshlang‘ich sinf matematika darslarida matematik tushunchalarini o‘quvchilar ongiga yetkaza olishimizda, topshiriqlarni bajarishda didaktik vositalardan unumli foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki, matematika fani boshqa fanlar bilan taqqoslanganda o‘rganish darajasiga ko‘ra ancha murakkab fan hisoblanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf matematika darslarida matematik tushunchalarni egallashning samaradorligini ta’minlovchi vositalarni ishlab chiqish zarur va shundagina yuqori samarali natijalar olish imkoni yaratiladi. Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli bo‘lgan va hayotda mantiqiy masala sifatida o‘quvchilarga ko‘p beriladigan quyidagi topshiriqni ko‘rishimiz mumkin.

Masala. Daryodan o‘tish uchun qirg‘oqda bo‘ri va dehqon turibdi. Dehqonning bir sumka karami va echkisi ham bor. Qayiqqa dehqon o‘zi bilan birga bo‘rini, yo bir sumka karam yoki echkini olishi mumkin. Dehqon va bo‘riga daryodan o‘tib olishiga yordam bering.

Bu masalada berilganlar o‘quvchi uchun tanish va masala hayotiy. Shuning uchun o‘quvchi darrov o‘z fikrini bildirib, har xil variantlarni tavakkal qilishi mumkin. Bunday hollarda o‘qituvchi quyidagilarga e’tibor qaratishi lozim:

– o‘quvchilar tomonidan beriladigan har bir savolga e’tibor qaratish va savol bergan o‘quvchini qo‘llab quvvatlash orqali boshqa o‘quvchilarni faollikka yo‘naltirish;
– o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va izlanishi uchun sharoit yaratish orqali ularda mas’uliyatlilik hissini kuchaytirish;

– o‘quvchilar mustaqil faoliyatni tashkil etishi orqali o‘zaro fikr almashish va yordam berish, yordam so‘rash munosabatlari orqali do‘stlikni mustahkamlash;
– bolalarning qiziqishlarini e’tiborga olgan holda va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tayyorlash.

Yuqoridagilarni e’tiborga olgan holda masalani quyidagi 4 bosqichli metodni qo‘llash mumkin:

1-bosqich. Mantiqiy masala o‘quvchilarga taqdim qilinadi va masala sharti, berilganlar va nima aniqlanishi lozim ekanligi o‘quvchilarga tushuntiriladi.

2-bosqich. Masala yechimi haqidagi fikrlar eshitiladi va o‘qituvchi o‘quvchilarni masalani amaliy yechishga o‘rgatadi.

3-bosqich. Masala shartidagi son qiymatlari o‘zgartirilib amaliy yechish uchun uyga vazifa qilib beriladi.

4-bosqich. Amaliy yechilgan masalaning bittasini amaliy yechilishidan foydalangan holda ifoda tuzib yechishga o‘rgatiladi. Ikkinchisi mustaqil yechishga beriladi.[5, B. 64]

Bu metodning tegishli bosqichlarida masalaning quyidagicha yechimi o‘rgatiladi:

1-usul

№	birinchi qirg‘oq	qayiq	ikkinchi qirg‘oq
1	dehqon, echki, bo‘ri, karam	-	-
2	bo‘ri, karam	dehqon, echki →	-
3	bo‘ri, karam	dehqon ←	echki
4	bo‘ri	dehqon, karam →	echki
5	bo‘ri	dehqon,echki ←	karam
6	echki	dehqon, bo‘ri →	karam
7	echki	dehqon ←	bo‘ri, karam
8	-	dehqon, echki →	bo‘ri, karam
9	-	-	dehqon, echki, bo‘ri, karam

2-usul

№	birinchi qirg‘oq	qayiq	ikkinchi qirg‘oq
1	dehqon, echki, bo‘ri, karam	-	-
2	bo‘ri, karam	dehqon, echki →	-

3	bo‘ri, karam	dehqon ←	echki
4	karam	dehqon, bo‘ri →	echki
5	karam	dehqon,echki ←	bo‘ri
6	echki	dehqon, bo‘ri →	bo‘ri
7	echki	dehqon ←	bo‘ri, karam
8	-	dehqon, echki →	bo‘ri, karam
9	-	-	dehqon, echki, bo‘ri, karam

Yuqorida keltirilgan masalani yechish usullarini o‘quvchilar bilan birgalikda didaktik vositalar yordamida yoki o‘zlari ishtirokida amaliy yechish ham mumkin. Bu orqali o‘quvchilarning masalaning yechilish ketma-ketligini, metodini oson eslab qolishiga va xotirada yanada mustahkam saqlab qolishiga erishamiz.

O‘qituvchining quyidagilarga yo‘l qo‘yishi o‘quvchilarning kreativ fikrlashining rivojlanishiga, umuman olganda o‘quvchining fanga bo‘lgan qiziqishi ortishiga to‘sqinlik qiladi:

– o‘quvchining tavakkalchiligini rad qilish, o‘quvchilarning har bir fikriga e’tibor qaratmaslik va xato fikr aytilganda tanbeh berish;
– o‘quvchi tomonidan bildirilgan fikrini va faolligini rag‘batlantirmaslik;
– o‘qituvchi faqat o‘zi bilgan usul bilan masala yechishni tadbiq qilishi;
– har qanday holatda ham boshqa keltirilgan yechimlarni tan olmasligi.

Topshiriqlar turlicha bo‘lgani kabi ularni yechish usullari va metodlari ham turlichadir. Masalaga mos to‘g‘ri tanlangan usul va metod o‘quvchilarning eng oson va aniq yo‘l orqali masala yechimini topishi uchun to‘g‘ri tanlangan tanlovdir. Agar usul va metod to‘g‘ri tanlanmasa masala yechimini topish uchun vaqt ko‘proq talab qilinadi yoki yechim topishning umuman iloji bo‘lmaydi. O‘quvchilarga har xil usullarning o‘rgatilishi orqali ularda mustaqil fikrlay olish imkoniyatidan foydalana olishga, shaxsiy fikrini erkin namoyon qilishiga va o‘ziga ishonch hissini kuchaytirishga ham erishiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nostandart masalalarni, mantiqiy masalalarni turli usullarda yechish orqali kreativ fikrlashni va tafakkurni shakllantiradilar. Boshlang‘ich sinf darsliklarida o‘quvchining kreativligini rivojlantiruvchi turli xil topshiriqlar yetishmaydi. O‘quvchilarda bunday masalalarni yechishda yoki masala yechimiga to‘g‘ri yo‘lni tushuntirishda qiyinchiliklar kuzatilsa o‘quvchiga yordam berish uchun o‘qituvchi xuddi shunday mazmundagi masalani yechilishidan namuna ko‘rsatib borishi lozim. Lekin ayrim hollarda bu usul o‘quvchi o‘zlashtirishi uchun yetarli bo‘lmasligi mumkin. Bunday

holatlarda o‘qituvchi masala yechimini topishning boshqa usullarini qo‘llab, undan unumli foydalana bilishi kerak. Bunda o‘qituvchi masala yechish uchun usul va metodni shunday tanlashi kerakki, yechish jarayoni imkon qadar qisqa va o‘quvchining tushunib olishi oson bo‘lsin. Yuqorida ko‘rib o‘tilgan masalalarning yechimini topish tizimini sistemalashtirib, o‘qituvchi o‘quvchilarga mazmuni jihatdan bir xil bo‘lgan masalalarni berishi orqali masalani o‘zlashtirilishiga erishadi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida topshiriqlar asosida o‘quvchilar kreativ tafakkuri va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda matematika fani bilan hech bir fan raqobatlasha olmaydi. Yuqoridagicha tanlangan, o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan topshiriqlardan foydalanish orqali biz maqsadimizga erishamiz. Bunday masalalar bilan ishlashga o‘rgatish orqali o‘quvchilarda tevarak atrofimizdagi ro‘y berayotgan hodisa yoki muammolarlardan zaruriy axborotni izlash va ajratish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Natijada, ulardan turli muammo va topshiriqlarning yechimini topishda qay tarzda foydalanish tajribasiga ega bo‘ldilar.

Qiziqarli masalalar yordamida o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishi ortib, har bir matematik atama va tushunchalarni mazmunan to‘g‘ri o‘zlashtirish, analiz qilish, taqqoslash va umumlashtirish, o‘z fikrini aniq va ravon bayon qilish, mustaqil ravishda xulosa qilish kabi qobiliyati ya’ni kreativlik qobiliyati rivojlanadi.

Adabiyotlar:

1. A’zam Xoliqov. Pedagogik mahorat. T.: «Iqtisod-Moliya», 2011, -424 b.

2. Kasimov F.M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan diss. - Buxoro, 2007. – 202 b.

3. Rahmatova F.A. Bo‘lajak boshlang‘ich cinf o‘qituvchilarining matematik tafakkurini takomillashtirish. Pedogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2019. – 47 b.

4. Karimova K.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematik tafakkurini shakllantirishda mantiqiy masalalar tizimi. Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘. 2020. - №3. – B. 117 -122.

5. Karimova K.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matematik tafakkurini shakllantirishda mantiqiy masalalar. Pedogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2023. – 116 b.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада бошланғич синф математика дарсларида топшириқлар асосида ўқувчиларнинг креатив қобилиятларини ривожлантириш масаласи ўрганилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается вопрос развития творческих способностей учащихся на основе заданий на уроках математики в начальных классах.

SUMMARY

This article examines the issue of developing students’ creative abilities based on assignments in mathematics lessons in primary school.

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

STUDENT-JASLARDÍŃ DENE TÁRBIYASÍ SISTEMASÍNDA JEŃIL ATLETIKANÍŃ TUTQAN ORNÍ

Mambetqasimova Q.
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universieteti
Nókis filialı oqıtıwshısı

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya, yengil atletika, talabalar, sport.
Ключевые слова: физическое воспитание, легкая атлетика, студенческая молодежь, спорт.
Key words: physical education, athletics, students, sports.

Kirisiw. Joqarı oqıw orınlarında dene tárbiyası processi bul bilimlendiriwdiń ajılmas bólegi esaplanıp, dene tárbiyası, sport hám tuzrizmniń hár qıylı qurallarınan paydalanıwdı óz ishine aladı. [3]. Student-jaslardıń dene tárbiyası ushın sporttıń tiykarǵı túrleri dizimine jeńil atletikanıda kiritiw múmkin.

Jeńil atletika oqıw baǵdarlaması sıpatında dene tárbiyası hám sport qánigelerin tayarlaw processinde tiykarǵı orınlardıń birin iyeleydi. Dene tárbiyası hám sport baǵdarları bolmaǵan oqıwshılar ushın ǵyne sonday áhmiyetke iye bolıp, olardıń fizikalıq tayarlıq dárejesin arttırıwda, zárúr qurallar járdeminde bilim hám kónlikpelerin bayıtıwǵa, fizikalıq iskerlikte unamsız tásirlerin kemeyttiriwde áhmiyetli orın iyeleydi.

Ádebiyatlar analizi hám metodologiya. Sonlıqtan házirgi waqıtta bul másele júdá aktual bolıp esaplanadı. Ayrıqsha atap ótiw lazım, "Jeńil atletika" kursınıń mazmunı jeńil atletika jarıslarınıń texnikası, arnawlı shınıǵıwlardı úyreniwdi óz ishine aladı hámde fizikalıq sapalardı rawajlandırıw, shınıǵıwlar alıp barıw ushın paydalanıladı. Jeńil atletika shınıǵıwları texnikasın úyretiw metodikası keńnen úyrenip shıǵamız. Sport tarawındaǵı balalar hám túrli dárejedegi sportshılar menen ótkeriletuǵın teoriyalıq hám ámeliy shınıǵıwlar, islenbeler úyreniledi. Jeńil atletikanıń rawajlanıw tariyxı hám shınıǵıwlar texnikasın qáliplestiriw tariyxın úyreniw úlken áhmiyetke iye bolıp tabıladı. Fizikalıq rawajlanıwdıń barlıq táreplerin bahalaw ushın túrli dárejedegi testler, fizikalıq tayarlıq, fizikalıq sapalar dinamikası, hár qıylı tálim tárbiya usıllarınıń nátiyjeliligin úyreniw hám ámeliy paydalanıw lazım. Ilimiy-izertlew islerin alıp barıw joqarı tájiriybeli qánigeler tayarlaw ushın zárúr shárt-sharayatlardı jaratadı [1].

Jeńil atletika sport túri sıpatında hesh bir sport túrinen áhmiyeti jaǵınan kem emes. Fizikalıq sapalar bolǵan shıdamlılıq, kúsh, tezlik, shaqqanlıq, maslasıwshańlıq, sonday-aq, ámeliy kónlikpeler hám tájiriybeler bolǵan juwırıw, sekiriw, ılaqtırıw miynet processinde júdá keń qollanıladı. Jeńil atletika xarakterdi qáliplestiredi hám insan erkin bekkemleydi, sonday-aq qıyınshılıqlardan qorıqpastan, olardı mártlik penen jeńip ótiwdi úyretedi. Bul sport túri menen jumıs ornında, komandalıq jarıslarda qatnasıw alınǵan jumıs ushın juwapkershilikti rawajlandıradı.

Nátiyjeler. Jeıil atletikanıń maqseti, shaxstı bir pútin rawajlandırıw, onıń ruwxıy hám fizikalıq kúshin uyǵınlastırıw, tayarlıǵın arttırıw, turmıs-tárizin, kásiplik iskerligin, salamat hám nátiyjeli tárizde ámelge asırıw, ózin-ózi qáliplestiriwdıń zárúr bolǵan sociallıq-mádeniy qolaylıq ortalıqtıń ajıralmas elementi bolǵan joqarı oqıw ornılarınıń bilimlendiriw maydanı esaplanadı. Bul sport túri bunday qásiyetlerdi rawajlandırıw menen birgelikte individual baǵdarlar, jámiyet mádeniyatı, bilim hám dóretiwshilik isler, sezim-tuyǵılardıń uyǵınlıǵına erisiw hám baylanıs, qarama-qarsılıqlardı sheshiw, islep shıǵarıw, miynet hám dem alıw, fizikalıq hám ruwxıy jetilisiwge imkan beriwshi pazıyletlerdi qamtıp aladı. Bunday uyǵınlıq insanǵa sociallıq turaqlılıqtı támiyinleydi, oǵan turmısta hám jumısta nátiyjeli háreket etiwge, jetiskenlik, ruwxıy qolaylıq jaratadı.

Jeńil atletika – bul insan tábiyatın birlestirgen sport fizikalıq shınıǵıwlar bolǵan júiw, juwırıw, sekiriw, ılaqtırıw h.t.b. Atletika shınıńǵıwlarındaǵı hár qıylılıǵı hám júklemeni ózgertiw ushın keń imkaniyatlar júriw, juwırıw, sekiriw, ılaqtırıw bulardan túrli jastaǵı hám dárejedegi studentler ushın shınıǵıwlar fizikalıq tayarlıqtı nátiyjeli paydalanıw imkniyatın beredi. Jeńil atletika shınıǵıwların orınlap atırǵanda insan muskulleriniń úlken bólegi júrek-qan tamır, dem alıw hám basqa organlar iskerliginiń kúsheyiwine imkan beredi. Jeńil atletika shınıǵıwları menen shuǵıllanıw processinde kondicion kónlikpeler rawajlanadı (tezlik, kúsh, shıdamlılıq, maslasıwshańlıq) hám muwapıqlastırıw qábileti jetilisedi. Jeńil atletika boyınsha nátiyjeler qatań muǵdarlıq ólshemde, studentlerdiń fizikalıq rawajlanıw dárejesiniń ólshemeri sıpatında olardıń obiektivligin hám paydalanıw imkaniyatın támiyinleydi.

Talqılaw. Kóplegen shınıǵıwlar arnawlı qımbat úskenelerdi talap etpewi hámde ápiwayı maydanshada ámelge asırıw múmkinshiligi de úlken áhmiyetke iye. Sonlıqtan jeńil atletika menen shuǵıllanıwshılardıń fizikalıq tayarlıǵı, sport hám maqsetli qurallarınıń eń keń arsenalına iye qolaylı sport túrlerinen biri esaplanadı [2].

Atletikalıq júriw jumıs intensivligi ápiwayı júriwge qaraǵanda joqarı dárejeni talap etedi, nátiyjede energiya sarıplanıwı artadı. Sonıń ushın atletikalıq

júriw shınıǵıwları studentlerdiń denesi, onıń ishki organları hám sistemaların bekkemlew, olardıń iskerliginiń jaqsılanıwı, kúshiniń rawajlanıwına unamlı tásir kórsetedi, ásirese shıdamlılıq, erk kúshiniń rawajlandırıwǵa sezilerli tásir kórsetedi.

Juwırıw shınıǵıwları oqıw rejesiniń basqa bólimlerine de kirgizilgen eń keń tarqalǵan forması esaplandı. Atletik júriwge qaraǵanda juwırıwǵa joqarırar talaplar qoyıladı, pútkil oranizmniń islewi, sebebi organizmniń barlıq bulshıq et toparları hárekette boadı, júrek-qan tamır belsendiligi artadı, dem alıw hám basqa sistemalar, zat almasıw sezilerli dárejede artadı. Siz juwırıw aralıǵınıń hám tezligin ózgertiw, júkleme tásirin normalastırıw, sonday-aq atletika menen shuǵıllanıw arqalı shıdamlılıq, tezlik hám basqa sapalardı olardıń imkaniyatlarınan kelip shıǵıp rawajlandırıwıńız múmkin. Salıstırmalı joqarı tezlikte juwırıw studentlerge ásirese, olardıń júrek-qan tamır sistemalarınıń rawajlanıwı ushın ájayıp qural bolıp xızmet etedi hámde shıdamlılıqtı rawajlandıradı. Júdá joqarı tezlikte juwırıw kúsh hám quwattı rawajlandırıw ushın qollanıladı. Juwırıw processinde ekr kúshi rawajlanadı, óziniń kúshli táreplerin esaplaw, tosıqlardı jeńip ótiw qábiletine iye boladı.

Ílaqtırıw jeńil atletika túrlerinen biri bolıp, ol qısqa múddetligi menen xarakterlenedi, biraq tek ǵana qol muskullerinińń maksimal háreketleri emes, bálki jelke, bel hám ayaqlardıń da háreketleri aktivlesedi. Jeńil atletikada uzaqqa ılaqtırıw ushın snaryadlar joqarı dárejedegi kúsh, tezlik, shaqqanlıq hám háreketlerińizdi jámlew qábileti esaplanadı. Ílaqtırıw shınıǵıwları tek ǵana usı zárúr bolǵan sapalardı rawajlandırıp qoymastan, bálki pútkil deneniń bulshıq etleri uyǵın halda rawajlandıradı.

Juwmaq. Jeńil atletika joqarı oqıw orınlarında fizikalıq mádeniyattı qáliplestiriw iskerliginiń tiykarǵı forması esaplanadı. Ol úsh bólimnen ibarat: tayarlıq, tiykarǵı bólim hám juwmaq [1]

Tayarlıq bóliminiń maqseti - minimal waqıtta nátiyjeli shınıǵıwlar arqalı, istegi hámme nárseni, ámeliyatshı denesiniń funkcional sistemaların óz ishine aladı. Sabaqtıń tayarlıq bólimindegi shınıǵıwlar wazıypalarǵa mas keliwi kerek. Jeńil atletika boyınsha sabaq dawamında – atletik júriw, áste juwırıw, kros shınıǵıwlar, túrli sekiriwler, tezlestiriw sıyaqlılar bolıwı múmkin. Studentler shuǵıllanatuǵın jeńil atletika túrindegi tayarlıq shınıǵıwları sabaǵınıń tiykarǵı bólimin quraydı.

Sabaqtıń tiykarǵı bóliminiń tiykarǵı wazıypalarınan biri jańa materiyaldı úyreniw esapalanadı. Birinshiden, jeńil atletikanıń basqa túrleri sıyaqlı ol yáki bul texnikanıń jańa háreketleri (elementleri) úyreniledi. Aldın úyrenilgen materiyallardı bekkemlew hám jetilistiriw kónlikpeleri sabaqtıń tiykarǵı bóliminiń ortalarında hám juwmaǵında ámelge asırıladı. Tezlik, tezlik-kúsh sapalarınıń

júzege shıǵıwın talap etiwshi shınıǵıwlar sabaqtıń tiykarǵı bóliminiń basında, názik muwapıqlastırıwdı, epshillik, kúsh hám shıdamlılıq shınıǵıwları bolsa sabaqtıń aqırında ámelge asırıladı. Sabaqtıń tiykrǵı bólimindegi shınıǵıwlardıń barlıǵınıń quramı sonday dúziliw kerek, olarda hár qıylı tásir támiyinleniwi lazım.

Sabaqtıń juwmaqlawshı bólimi organizmniń fumkcional jaǵdayın normal iskerlikke aylandırıw ushın móljellengen. Júrek-qan tamır, dem alıw, nerv sistemalarınıń qozǵalıwın kemeyttiriw, bulshıq etlerdiń kúshleniwin saplastırıw ushın áste juwırıw, dıqqat, tuwrı jaǵday, dem alıw shınıǵıwlarınıń hár qıylı túrleri qollanıladı.

Sonlıqtan, jeńil atletika fizikalıq tálim-tárbiya sistemasınıń ajıralmas bólegi esaplanadı. Ol tek ǵana insandı ómirge tayarlawdıń kóp ásirlik qımbatlı bahalıqlardı óz ishine alıp qoymastan, bálki onıń fizikalıq hám aqılıy qábiletlerin, fizikalıq tárbiya processinde óz kórinisin tabatuǵın ádep-ikramlılıq qábiletlerdi rawajlandırıw forma hám usıllarınıń hár qıylılıǵı sebepli jeke qásiyetlerdi de jetilistiredi.

Mámleketimiz tárbiya sisteması hám jeńil atletika arasında úzliksiz baylanıs bar bolıp, olar sonshelli bir-biri menen baylanıslı, basqasha bolıwı da mǵmkin emes. Insannıń rawajlanıw processinde tábiyiy jol menen iyelegen pazıyletleri júdá áhmiyetli bolıp tabıladı.

Ádebiyatlar:

1. Легкая атлетика: учеб. пособие / А.И.Жилкин, В.С.Кузьмин, Е.В.Сидорчук. – М.: Академия, 2003. – 464 с.

2. Шуняева Е.А. Физическое воспитание студентов с низким уровнем развития скоростно-силовых качеств и выносливости средствами легкой атлетики: автореф. дис. канд. пед. наук / Е.А. Шуняева. – М., 2007. – С. 11-13.

3. Шуняева Е.А., Четайкина О.В., Шиндина И.В. Эффективность воздействия средств фитнеса на развитие физических качеств студенток педагогического вуза 18-20 лет // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. – 2014. – №10 (2). – С. 83-85.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola mashhur sport turi - yengil atletikaga bag'ishlangan. Ushbu sport turining ahamiyati ko'rib chiqiladi, turli xil atletika vositalarining umuman tananing funktsional tizimlariga ta'siri aniqlanadi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена популярному виду спорта – легкой атлетике. Рассматривается значимость данного вида спорта, определяется влияние различных средств легкой атлетики на функциональные системы организма в целом.

SUMMARY

This article is devoted to a popular sport – athletics. The significance of this sport is considered, the influence of various means of athletics on the functional systems of the body as a whole is determined.

БЕЛБОҒЛИ КУРАШ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Кошкаров Ж.Т.
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси
Жанговар ва жисмоний тайёргарлик кафедраси

Таянч сўзлар: белбоғли кураш, миллий кураш, беллашув, машғулот, спорт тури, рақиблар.

Ключевые слова: борьба на поясах, национальная борьба, соревнование, тренировка, спорт, спортсмены.

Key words: belt wrestling, national wrestling, competition, training, sport, competitors.

Ўзбекистон Республикасида мустақилликка эришгандан сўнг талабалар ўртасида курашнинг миллий шаклларини ривожлантиришга қаратилган кўплаб ишлар олиб борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев томонидан 2020-йил 4-ноябрда “Кураш миллий спорт турини ривожлантириш ва унинг халқаро нуфузини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4881-сон қарори чиқди. Қарорга мувофиқ ўзбек миллий курашини республика ҳамда дунѐ бўйича кенг тарғиб этиш вазифалари белгиланди. Ўзбекистон Республикасида кураш спорт турини ривожлантириш бўйича спортчиларга, тренерларга, педагогларга маълум бир шароитлар яратилиб берилмоқда.

Мустақиллик халқимизнинг анъанларини, қадриятларини тиклаб, уларнинг жаҳон миқёсида танилишга имконият яратди. Дунёда ватанпарварлик, инсонпарварлик, мардлик, жасурлик, меҳнатсеварлик, ўзаро ҳамкорлик, ён қўшничилик ғояларни амалга ошишида ўзбек халқининг алоҳида ўрни бўлиб, полвонлар, паҳловонлар ватани деб тан олинди. Миллий курашда топланган полвонлар ўз халқининг ор-номуси, миллий ғурури, анъаналарига содиқ қолиб, устоз-шогирдлик эътиқодларига амал қилиб асрлароша ўзбек курашни жаҳонга танилишига олиб келди. Миллий кураш туфайли халқимиз фарзандларини ёшлигидан бошлаб соғлом, бақувват, жуссали, меҳнатга чидамли қилиб тарбиялаб, уларни ақлий жиҳатдан камол топишига, жисмоний чиниқтиришга мунтазам эътибор берганлар. Чунки ўзбек халқининг азалдан илиги тўқ, орияти баланд, қадди алп келбатли бўлиб келган. Халқимиз доимо жисмоний баркамоллик билан маънавий комил-

ликни уйғун тарзда юксалтирган, ҳалолликка, покликка, орият ва мардликка бел боғлаган танти халқ саналади. Чунки халқимиз фарзандларини ёшлигидан юксак фазилатлар руҳида тарбиялаб келган.

Республикамизда Ж.М.Нуршин, Р.С.Саламов, Ф.А.Керимов, Т.С.Усмонхўжаев, А.Ш.Абдуллаев, Ш.Х.Ханкелдиевларнинг тадқиқотларида жисмоний тарбия дарсларининг таълим мазмунини бойитиш шакл ва методлари èритилган Ф.А.Керимов, Н.М.Юсупов, Ш.А,Абдуллаев, Р.Д.Халмухамедов, В.Н.Шин, Г.Б.Абдурасулова, С.С.Тажибаев, Ж.М.Нуршин, Ш.А.Мирзақулов, А.Р.Таймуратов, Н.А.Тастанов, З.С.Артиковларнинг илмий ишларида спортнинг якка кураш турларининг тарихи, ташкилий асослари ва методикаси масалалари ўз аксини топган. А.Атоев, Ж.Нуршин, Р.Саломов, Ф.Керимов, О.Тоймуродов, Ж.Тошпўлатов, Ҳ.Бобобеков, М.Содиқов, Н.Азизов, Х.Ахмедовлар кураш спортининг ривожланиш тенденциялари, кураш анъаналари, усулларига боғлиқлигининг илмий методик асосларини ишлаб чиққанлар. Спортнинг якка кураш турлари тарихи, ташкилий асослари ва методикаси, машғулотлр жараènида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланиш, жисмоний сифатларини ривожлантириш масалаларини èритиш борасида илмий ишларини олиб боришган.

Ўзбек миллий кураш турларидан кураш ва белбоғли кураш қадимда дунёга келган бўлиб, бу кўп сонли тарихий ёдгорликларда ўз аксини топган. Курашнинг олдинги номи – бухороча усулдаги кураш, белбоғли курашнинг олдинги номи – фарғонача усулдаги кураш деб аталган. Бухорача усулдаги кураш 1998-йилдан бошлаб кураш деб атала бошлади. Фарғонача усулдаги кураш 2001-йилдан бошлаб белбоғли кураш деб атала бошлади. Дунёда унчалик кўп бўлмаган давлатлардагина миллий кураш турлари мавжуддир. Бизнинг юртимизда бирданига иккита миллий кураш тури борлигидан ғурурланиб, келажак авлодларимиз учун мазкур қадриятимизни сақлаб қолишимиз зарур.

Баҳсларни тинчлик йўли билан ҳал қилиш, шунингдек, душманни асирга олиш усулларини ўз ичига оладиган кураш усулларини тасвирловчи қадимий расмлар ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида олиб борилган археологик қазилмалар давомида топилган. Айтиш жоизки, мусобақалар олдидан улоқтиришлар, сакрашлар, кучни намойиш қилишни ўз ичига олувчи машқлар бажарилган. Улар рақибларнинг ўзаро беллашувлари олдидан бадан қиздириш воситаси сифатида хизмат қилган. Курашчилар бир-бирининг теридан ишланган белбоғидан ёки устки кийимининг турли жойидан ушлаб, курашишни бошлаганлар. Рақибни ерга ташлаш усулини бажаришда оёқларнинг ишига ҳамда чалиш усулига катта эътибор берилган.

Ўзбекистон ҳудудида яшовчи халқларда беллашув биринчи ташлашгача давом этган. Бу мусобақалар миллий мусиқа оҳанглари садолари остида ўтказилган ва мусобақа ғолиби халқ ўртасида катта ҳурматга сазовор бўлган.

Ўзбек халқи қадимдан фарзандларини норғул, алп келбатли арслон билакли, шижоатли, ўктам ўткир нигоҳли қилиб тарбиялашга бел боғлаган халқ. Шу боисдан ҳам бу халқдан элнинг корига яраган баҳодирлар, юртнинг эрки учун кўкси қалқон бўлган мард ўғлонлар, элнинг орини кўтарган танти паҳловонлар кўплаб етишиб чиққан. Ўзбек халқининг асрлар давомида шаклланиб келган анъанавий ўйинлари ҳам ёш авлодни жисмонан етук, манъан баркамол қилиб тарбиялашда муҳим аҳамият касб этган, Халқимизнинг орасидан кўплаб баҳодирлар, полвонлар, чавандозлар етишиб чиқишида ҳам халқ ўйинларининг ўрни ва роли беқиёсдир. Жумладан: “оқ суяк”, зув-зув, “бобол така”, “чиркаш”, “чиллик” “дўл”, “ганош”, “пойга” каби ўйинлар алоҳида ўрин тутади.

Кураш спорт тури бўлиб белгиланган қоидага мувофиқ икки полвоннинг яккама-якка олишувидир. Шу боисдан ҳам Сурхон воҳасида кураш мусобақалари “Олиш” ҳам деб аталиши бежиз эмас. Кураш инсонни эпчил, кучли, чидамли ва иродали қилиб тарбиялаш воситаларидан бири саналади. Кураш азалдан ўзбек халқи турмуш тарзининг узвий бўлаги сифатида шаклланган. Бироқ мустабид тузум халқимизнинг кўплаб қадриятлари сингари курашнинг ривожига ҳам салбий таъсир кўрсатди.

Бироқ азалдан мардликни, жасурликни қадрлаган, эпчиллик, сабр матонат ва чидамни ўзининг ажралмас менталитетига айлантирган, курашни “Алининг майдони” деб билган, лафзи ҳалол, танти полвонларнинг Алп деб атаган уларни полвон деб сийлаган, кураш мусобақаларига бутун вужуди билан шинаванда бўлган, ҳалолликни улуғ фазилат деб билган ҳаромдан ҳазар қиладиган, ғирромнинг ёқтирмайдиган халқнинг қалбидан курашни чиқариб ташлашнинг имкони бўлмади. Шу боисдан бўлса керак зўравон тузум шароитида ҳам халқ полвонларини унутмади, тўйи томошаси, байрам ва сайллари кураш билан файз олди. Юрт бешикларида баҳодирлар, алплар, паҳловонлар, полвонлар улғайди. Зероки илиги тўқ халқни, имони бут халқни, диёнати мустаҳкам халқни, иродаси бақувват халқни, зуваласи пишиқ халқни, лафзи ҳалол халқни, ўтмиши уйғоқ халқни, қадди баланд халқни, ор номуси улуғ халқни, орияти юксак халқни ҳеч қандай ёт ғоя, ёт мафкура, жабр ва ситам енга олмас экан. Ўзбек кураши ана шундай курашларда тобланган, замон синовларидан ўтган, не-не мардларни, кураги ерга тегмаган полвонларни етиштириб берган улуғ қадрият саналади.

Олий ўқув юртларида кураш турлари жумладан миллий ва белбоғли кураш турларини ривожлантиришга алоҳида эътибор берилмоқда. Курашчи

талабаларни кураш спорт турига тайѐрлаш, спорт курашида рақобатбардошликни оширишга қаратилган ўқув машғулотларини ўтказиш услубларини такомиллаштириш масалалари муҳим аҳамиятга эгадир. Курашчиларнинг мотиватсиясини (фаолиятга ундовчи куч) ошириш учун, малакали етакчи кўрсаткичларини мунтазам интеграсия қилиш, шунингдек йўналишли машғулот комплексларини (машғулот микроцикларини) ташкил этиш, спортчиларнинг рақобатбардошлигини ошириш ва ўз-ўзини назорат қилиш бўйича вазифалар белгиланади. Ҳар бир кураш машғулотларида ўзига хос усуллардан фойдаланилади. Мисол учун: ҳужум, қарши ҳужум, ҳужумларни олдини олиш ва тўсиқ қўйиш, хавфли ҳолатларни жорий қилиш, хавфли ҳолатларни бартараф этиш, эришилган ютуқларни сақлаш каби. 2-3 та самарали техник ва тактик усулни танлаш ва ривожлантириш миллий ва белбоғли курашчиларнинг ҳаракат фаолиятлари, ҳаракат актларини такомиллаштиради. 8-10 кун давомида тузилган микроцикларда мусобақа фаолиятига чиққанда рақобат яъни курашувчанлик ҳолати янада ортиб боради.

Адабиётлар:

1. Лекаров А. Ўзбек миллий курашининг археологик материаларида акс этиши. // Турон тарихи. 2002. №21.
2. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена, т. 1. - М.-Л., 1950.
3. Столбов В.В. История физической культуры и спорта. -М., 1975.
4. Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба. - Т., 1987.
5. Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. -М.: Физкультура и спорт, 1980, 136 с.
6. Годик М.А., Бальсевич В.К., Тимошкин В.Н. Система общеевропейских тестов для оценки физического состояния человека // Теория и практика физической культуры, 1994, №5-6, С. 24-32 с.
7. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва услубияти. -Т., 2001.
8. Кун Л. Всеобщая история физической культуры и спорта. - М.: Радуга, 1982.
9. Купцова А.П. Спортивная борьба. - М., 1978.
10. Кызласов Л.Р. История Южной Сибири в средние века, -М., 1984.
11. Нуршин Ж.М., Саломов Р.С., Керимов Ф.А. Ўзбекча миллий спорт кураши. - Т., 1993.
12. Mirzakulov Sh.A. Belbog'li kurash nazariyasi va uslubiyati. -T., 2013.
13. Петров Р. Свободна и классическа борьба: учебник за студентите от ВИФ. /Р.Петров. София: Медицина и физкултура, 1977. 352с.
14. Петров Р. Свободна борьба. /Р. Петров. София: Медицина и физкултура, 1966. 193 с.
15. Сорокин Н.Н Спортивная борьба. Физкультура и спорт. -М.,1960.

РЕЗЮМЕ

Ушбу мақолада олий таълим муассасаси талабаларида белбоғли кураш машғулотларини такомиллаштириш механизмлари хақида сўз юритилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассказывается о механизмах совершенствования подготовки студентов высших учебных заведений к борьбе на поясах.

SUMMARY

This article talks about the mechanisms of improving belt wrestling training for students of higher education institutions.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТУРИЗИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Мирзахалилов А.Х.
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrasi o'qituvchisi

Tayanch so`zlar: jismoniy tarbiya, turizm, sayohat, ekskursiya, piyoda, turli ulovlarda yurish.

Ключевые слова: физическое воспитание, туризм, путешествие, экскурсия, ходьба, прогулки по разным маршрутам.

Key words: physical education, tourism, travel, excursion, walking, walking on different trails.

Mustaqil O'zbekistonda turizm xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy madaniy, siyosiy, iqtisodiy va tarbiyaviy jarayon sifatida mavjuddir. Mamlakatning geografik sharoiti va ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy tuzilmalari asosida turizm ikki yo'nalishga (ichki va xalqaro turizm) ajratilgan. Ular asosan sayr (ekskursiya) va sayohatlar (piyoda va turli ulovlarda yurish) shaklida olib boriladi.

Turizm sayohat sifatida dam olish, xordiq chiqarish, tabiat manzaralarini tomosha qilish, tarixiy-madaniy obidalarni ko'rish, o'rganish kabi faoliyatlarning mazmun va shakllaridan iboratdir. Bunda eng avvalo ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni kengaytirish va jismoniy kamolatni tarbiyalashdek eng murakkab hamda ulug'vor maqsadlar amalga oshiriladi.

Sayohatlarning kelib chiqish va rivojlanish tarixi yer kurrasidagi barcha insonlarning qadimgi ijtimoiy mehnat va turmush madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Insonlar mehnat qurolini yasash, olov yoqishni kashf etgan davrlarda yovvoyi hayvonlarni ov qilish, yirtqich-vahshiy hayvonlarga qarshi kurashish jarayonlarida qir-adirlar, tog'lar osha yurish-yugurish, tez oqar suvlardan kechib o'tish, yaylovlar, go'zal manzarali joylarda dam olish, tunab qolish, bir necha kunlar poylab yotish kabi hayotiy murakkab faoliyatlarni bajarishga to'g'ri kelgan.

Turizmda (sayr va sayohatlar) manzillarga yig'ilish, avtoulovlar va piyoda yurish jarayonlarida eng avvalo tartib-intizomni saqlash, rahbarlar tomonidan

qo'yilgan vazifa – topshiriqlarni to'la bajarish tartiblari sayrsayohatlarning tashkiliy va amaliy jihatdan mazmunli hamda qiziqarli bo'lib o'tishiga qaratiladi. Bunday faoliyatlarni tashkil qilish, nazorat qilish va yakunlash uchun sayohat rahbaridan qat'iylik, faollik, adolatlilik kabi muhim boshqaruvchilik fazilatlar talab etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quvchi yoshlar va talabalarning turizm bo'yicha o'quv-yig'in mashg'ulotlari asosida tashkil etiladigan ko'p kunlik (5-6 va 6-8) piyoda yurish sayohatlarining namunaviy rejasini quyidagicha tuzish ko'zda tutiladi:

1-kun. Erta tongda to'rva (xalta-ryukzak) va boshqa kerakli anjomlarni (qozon-idish, chodir va h.k.) ko'tarib yo'lga tushish. Joylarning tuzilish (pastbaland, tepalik, soy, so'qmoqlar, oqar suvlar va h.k.) va qiyinchiliklariga qarab har 25-30 daqiqa, tekis joylarda 50-60 daqiqa 5-10 daqiqa dam olish (kichik privallar). Bunda charchoqni chiqarish va boshqa zaruriy – ehtiyojiy ishlarni bajarish. Belgilangan manzil uzoq bo'lsa, tushki nonushtani suvlik, soya va qulay joyda o'tkazish. Rejadagi manzilga yetib borish (tunash uchun) jarayonida qisqa dam olish paytlarida atroflarni kuzatish, tabiat manzaralari, o'simlik va hayvonat dunyosi bilan tanishish ishlarini olib borish mumkin bo'ladi.

Kunning birinchi yarmida 10-15 km va ikkinchi yarmida ham 10-12 km chamasi yo'lni bosib o'tiladi, ya'ni kun bo'yi yurish va atroflarni tanish-bilish uchun kamida 20-25 km masofa o'tilishi lozim. Kechki paytda tunash joyida chodirlarni o'rnatish, ovqat pishirish, choy qaynatish va gulxan yoqish uchun barcha sayohatchilar rahbar va uning yordamchilari tomonidan berilgan topshiriq hamda vazifalarni (o'tin yig'ish, joylarni tayyorlash, tozalash va h.k.) bajarishadi. Kechki ovqatlanish, dam olish (suhbat, o'yin, raqs, qo'shiqlar) va tegishli vazifalarni bajarib bo'lgach, olov-cho'g'larni o'chirish, jihoz va buyumlarni yig'ishtirish, tekshirib ko'rish kabi eng zaruriyatlar ijro etiladi. Dam olish va uyqu barcha qatnashchilardan birdek talab etiladi, ya'ni kundalik tartibga (rejim) rioya qilish sayohatchilar uchun qonun hisoblanadi. Kunlik yurish masofasi 25-30 km atrofida bo'lishi lozim.

2-kun. Quyosh yoyilmasdan barcha sayohatchilar ertalabki jismoniy (badan) tarbiya mashqlarini guruh bo'lib bajarishadi. Uni shu faoliyat uchun mas'ul (tashkilotchi-fiz.org.) tomonidan olib boriladi. Ma'lum bo'lgan jismoniy mashqlar majmuasini bajarib bo'lgach, har bir qatnashchi qo'shimcha ravishda o'zi xohlagan (ixtisoslik-sport turi) mashqlarini bajarishi mumkin. Ertalabki jismoniy (badan) tarbiya mashqidan keyin sovuq oqar suvlarda belgacha yuvinish lozim.

Xohlaganlar cho'milishi ham mumkin. Bunday paytlarda yigitlar, qiz bolalarga halaqit bermasligi, odob-ahloq qoidalariga to'la rioya qilishlari kerak. Ertalabki nonushtadan so'ng, har kim o'z yukini olib yo'lga tushiladi. Chodir, qozon, choynak, paqir, bolta-tesha va boshqa guruhga doir buyumlar, jihozlarni navbatma-navbat olib yurish tamoyiliga (prinsip) asosan boshqa qatnashchilarga taqsimlanadi. Bu jarayonlar sayohat bo'yicha xo'jalik ishlari uchun mas'ul, ya'ni rahbar tomonidan bajarilishi lozim. Sayohatchilar bu ishdan bosh tortsa yoki turli bahonalar bilan bahs qilsa, unda sayohat rahbari bunga aralashishi lozim. Odatdagidek yurish yo'llarining sharoitiga qarab har 10-15 yoki 20-25 daqiqadan so'ng 5-10 daqiqa dam olinadi. Tushki nonushta qilish uchun qulay-tekisroq, soyali, suvli joylar tanlanadi. Tushki dam olish 1-1,5 soatdan oshmasligi lozim. Kechki paytda yana tunash maqsadida qulayroq, tabiat manzarali chiroyli bo'lgan joy tanlanadi. Bunday paytlarda sayohat rahbarining tajribalari, ayniqsa avval ham bu joylarda bo'lganligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Kechki dam olish va tunash uchun odatdagi tashkiliy, tayyorgarlik ishlari bajariladi hamda sayohat qoidalariga amal qilinadi. Gulxan atrofida dam olish paytida sayohat rahbari va faol qatnashchilarning turli suhbatlarini eshitish, tahlil va muhokama qilinishi lozim. Ayniqsa, o'lkashunoslik, ilmiy izlanish, kuzatish faoliyatlari haqida bahslar bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Kasb-xunar, sog'lom turmush tarzi, zamonaviy kiyinish, turmush qurish kabi mavzular haqida sayohat rahbari savol-javob, muloqotlarni qiziqarli qilib o'tkazishi ta'lim-tarbiyaning ijobiy ta'sirini qatnashchilar ongiga singdirishda xizmat qiladi.

3-kun. Sayohat rejasi asosida bu kungi yurish masofasi ko'proq (30-35 km) yoki kamroq (15-20 km) bo'lishi mumkin. Lekin sayohatning so'nggi manziliga yetish va asosiy faoliyatlarni (kuzatish, izlanish, dam olish va turizm bo'yicha musobaqa o'tkazish) bajarish uchun tegishli vazifalar bajarilishi lozim. Tushki nonushta vaqti qisqa (30-40 daqiqa), issiq ovqatsiz bo'lishi mumkin. Manzilga (oromgohga yoki sport maskani) ertaroq yetib borilsa, sayohatchilarning erkin dam olishi, yuvinish-cho'milish, o'yinlarni (futbol, voleybol, badminton, harakatli o'yinlar h.k.) tashkil qilishga ruhsat beriladi.

Chodirlarni o'rnatish, gulxan uchun o'tin yig'ish ishlarini quyosh botmasdan oldin bajarilishi lozim. Ilmiy izlanish, qidiruv, o'simliklar, parrandalar va hayvonlar turini aniqlash, o'rganish uchun yakka va kichik guruh bo'lib atroflarga chiqishlar ham tashkil qilinishi lozim. Bunda mahalliy kishilar, ayniqsa dehqonlar, cho'ponlar, fermer xo'jaliklarining xodimlari, o'rmon xo'jaligi, davlat qo'riqxonalarining xizmatchilari bilan suhbatlashish kabi rejali ishlar amalga oshirilishi lozim. Kechki dam olish gulxanida mahalliy

kishilarni taklif etish, suhbat, madaniy dam olishni (raqslar, turli o'yinlar va h.k.) uyushtirishga to'g'ri keladi.

4-kun. Ertalabki badan tarbiya va nonushtadan keyin turizm texnikasi bo'yicha musobaqa o'tkazishga tayyorgarlik ko'riladi, ya'ni:

1. 3-4 ta qatnashchilar musobaqaning nazorat (kontrol) punktlarini rahbarning ko'rsatmasi asosida (8-10 ta) o'rnatil (belgilab kelish);

2. qatnashchilarni guruhlarga (komanda 5-6 kishidan iborat) bo'lish;

3. musobaqa tartibi va qoidalari (shartlar-punktlarni topish va belgini olib kelish yoki usha joydagi hakamga topshirish va tanishtirish;

4. musobaqa qatnashchilarining tayyorgarligini (salomatligi, kiyimlar, chizma, kompaslarga egaligi va h.k.) tekshirish;

5. ertalab soat 1000 dan kechikmay musobaqani boshlash.

Musobaqalarning mazmuni, bajarilish qoidalari va asosiy talablar avvalgi bo'limlarda bayon etilgan. Kunning ikkinchi yarmida erkin dam olish, rejali izlanish, kuzatish va boshqa ishlarni bajarish amalga oshirilishi lozim. Kechki dam olish, ovqatlanish va uyqu kutgan hamda maqsaddagidek osoyishta, tartibli o'tishi lozim. Chunki, ertasiga avvalgi yo'l yoki boshqa yo'nalish bilan orqaga qaytiladi.

5-6 kunlar. (agar tashkil etilsa – 7-8 kunlar) o'quv-yig'in joyiga (sog'lomlashtirish sport maskani) qaytishga qaratiladi. Bunda esa:

• yo'l sharoitlariga qarab har kuni 20-25 (25-30) km masofani piyoda o'tish;

• go'zal manzarali, suvli (buloq yoki oqar suvli) joylarda hordiq chiqarish, tunash, gulxan yoqish, o'yinlar, suhbatlar o'tkazish;

• tekis yaylov va o'tloqzor joylarda futbol, voleybol o'ynash, balandliklarga (tepa-qir) kim o'zariga yugurish, to'siqliklardan (jar, ariq va h.k.) sakrash, daraxt shoxlarida osilib tortilish;

• o'lkashunoslik va kuzatish ishlari bo'yicha vazifalarni bajarish;

• o'tgan yo'l va manzaralarni chizmaga (sxema) tushirish va esdalik uchun o'zida saqlash;

• dehqonlar, chorvadorlar, fermer xo'jaliklar, o'rmon xo'jaligi va qo'riqxona xodimlariga amaliy yordam berish;

• o'quv-yig'in joyiga (dam olish oromgohi, sog'lomlashtirish sport maskani va h.k.) yetib kelish, erkin dam olish, yuvinish-cho'milish.

7-8 kunlar. Sayohat yakunlari bo'yicha suhbatlar, xisobotlar. Agar o'quv-yig'in mashg'ulotlarining tugashiga to'g'ri kelsa, unga bag'ishlab o'tkaziladigan yakun tadbiri-musobaqalarda ishtirok etish va sayohatlar haqida, o'tgan yo'llar taasssuroti haqida sayohat rahbari, faol sayohatchilarning amaliy ishtirok etishi lozim. Ko'p kunlik sayohatlar va umuman o'quv-yig'ini sharoitida

turizmni o’qitish bo’yicha sayohat rahbari-o’qituvchi (instruktor) o’zining yozma hisobotida shahsiy mulohazalari, takliflarini bayon etishi lozim. Bir kunlik, tunab kelish va ko’p kunlik sayohatlarni umum ta’lim maktablar, o’rta maxsus va oliy o’quv yurtlarida tashkil etishda yuqorida keltirilgan dalillar, ma’lumotlar, mulohazalar va tavsiyalarga amal qilishlari maqsadga muvofiq bo’ladi.

Jismoniy tarbiya va fan o’qituvchilari, ta`lim muassasalaridagi tarbiyachi-tashkilotchi xodimlar sayr-sayohat joylari, ularning sharoitlari, imkoniyatlari bilan to’la va aniq tanish bo’lishlari lozim. Shuningdek, juda ko’p sohalar bo’yicha xotirlash, e’zozlash, ularni eslash, saqlash bo’yicha an’anaviy tadbirlar ko’p o’tkaziladi. Bularda kishilar, ayniqsa o’quvchi yoshlar va talabalarning oddiy tomoshabin bo’lib qolmasliklari kerak. Ya’ni xotirlash, qadrlash, amaliy yordam berish bilan amaliy ishtiroklarini ta’minlash zarur. Bunday jarayonlarda kichik guruh (5-10 kishi) va ko’pchilik (25-30 kishi) bo’lib sayrsayohatlar shaklida ishtirok etishlari, o’zlarining madani, dam olish, sog’lomlashtirish tadbirlarini uyushtirishga ko’maklashishga to’g’ri keladi. Qanday guruh, muhit va sharoitlar, tadbirlar bo’lmasin, ularga albatta yo’lboshchi tashkilotchi (o’qituvchi, instruktor va h.k.) rahbarlik qilishi shart. O’zboshimchalik, o’zibo’larchilik kabi bee’tiborlik ko’ngilsiz tasodiflarga olib kelishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Farg’ona. 2005.
2. Abdumalikov R., Xoldorov T. Turizm. O’quv qo’llanma. T., “O’qituvchi”. 1988.
3. Abdumalikov R., Xoldorov T.X., Daurenov Ye.Yu. Turistik poxodlarni tashkil qilish. Uslubiy qo’llanma. Jizzax. 1986.
4. Daurenov Y.Y. Turizm. O’quv dasturi. 2005. 2007.
5. Qosimova R.A. Turizm va uni o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. T., “Aloqachi” nashriyoti. 2008.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo`lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarini turizmga doir bilimlarni rivojlantirish haqida so`z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о развитии туристских знаний у будущих учителей физической культуры.

SUMMARY

This article talks about the development of tourism knowledge of future physical education teachers.

SAMBOCHILARNING HUJUM VA XIMOYA DARAJASINI ANIQLASH ASOSIDA MUSOBAQA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Sultonov H.D.
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy tayyorgarlik, hujum, himoya, musobaqa, meyorlash, sport turlari, komponentlar, texnologiyalar.

Ключевые слова: физическая подготовка, атаки, защиты, соревнования, эталон, виды спорта, компоненты, технология.

Key words: general strength, special strength, competition, standardization, sports, components, attack, protection.

Dolzarbligi. Respublikamizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ayniqsa jismoniy salomatligini saqlash va mustahkamlash, Vatan mudofaasi va mehnat faoliyatiga tayyorlash jismoniy sifatlarni tarbiyalash ustuvor muammolari biri sifatida e’tirof etiladi.

Sport faoliyati jarayonida, turmushda kuch va kuch chidamkorligi eng ko‘p ahamiyatga ega. Kuchning bu turlari ruyobga chiqishi bilan inson xar qadamda tuqnash keladi (masalan: Dzyudo, Sambo, Yunon-rum va Erkin kurash hamda kurash turlarini barchasida, ogir atletikada, va boshqalar) maksimal kuchni mushaklar kisqarishlarining yuqori tezligi bilan birga qo‘shib olib borishda (uloqtirish, greble va boshqalar) bajarilishi vaqtida foydalaniladi. Insonni absolyut va nisbiy kuchni farqlash kerak. Ya’ni shaxsiy og‘irligining 1 kg ga to‘g‘ri keladigan kuchni miqdori u tayyorgarligi bir xilda bo‘lgan, ammo xar xil og‘irlikdagi atletikachilarning kuchlarini taqqoslash uchun aniqlanadi.

Sportchilarimiz Osiyo hamda jahon miqyosidagi musobaqalarda yaxshi natijalarga erishib, O‘zbekiston bayrog‘ini yuqori ko‘tarishmoqda. Sportchilarimizning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatli ishtiroki fikrimiz dalilidir. Mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, vatan ravnaqini ta’minlaydigan, yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalalariga jiddiy e’tibor berilmoqda. Bu borada muhim qadamlardan biri O‘zbekistonda ilk bor «Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur» hamda «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunning qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. Kurashchilarining texnik

tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyatini tadbiq etish.

So‘nggi yillarda respublikada jismoniy tarbiya va sport sohalarini yanada rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzining keng targ‘ib qilish, mamlakatda yaratilgan jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport infratuzilmasidan to‘laqonli va samarali foydalanishni ta’minlash, shuningdek, sport sohasidagi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924 sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida, 2021 yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarorlari imzolandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatadiki hujum va ximoya darajasini aniqlash va sport mashg‘ulotlarini talab darajasida o‘tkazish ayniqsa iqtidorli yoshlarni tanlash va ularni sport tugaraklariga jalb etishda samarali usullardan foydalanib o‘rgatishda jismoniy madaniyat talim tarbiyasini zamonaviy muommolarni yechimlariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar chuqur olib borilmoqda. Shuningdek mazkur soha bo‘yicha o‘quv uslubiy qo‘llanmalar juda kam uchraydi.

Sambo yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalashdagi ahamiyati va mohiyatining yuqoriligi, salmoqliligi ko‘zga yaqqol tashlanib turibdi. Shuni qayd etish kerakki, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalashda sambo sport turining asosiy tamonlari, o‘ziga xos vositalari va tamoyillari, o‘zaro uzviy bog‘lanib borishni aytib o‘tish joiz. Shu tamonlar, vositalar va tamoyillar orqali sportning har bir turida muayyan fazilatlar kuchliroq shakllanadi, rivojlanadi va u yetakchi harakat sifati tarzida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatimizdagi ko‘plab olimlarning adabiyotlarida bu mavzu muammolari bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan. Bulardan qo‘yidagi adabiyotlarni aytish mumkin Bayturaev E.I. “Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati”, Bayturaev E.I., Odilov B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish, Bayturayev E.I., Odilov B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish. T., 2019, Bayturayev E.I., Radjapov M.A., Odilov B.B. “Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik, Газиев Ш.Ш. “Повышение спортивного педагогического мастерства (по самбо)” kabi adabiyotlarda ham mana shu boradagi fikr va mulohazalar berilgan.

Chet el olimlardan V.A. Spiridonov, V.S. Oshchepkov, A.A. Xarlampiev, E.M. Chumakova, kabi olimlar sambochilar rivojlantirish to‘g‘risida bir qancha tatqiqotlar o‘tkazib maxsus adabiyotlarda fikr va mulohazalar aytib o‘tilgan.

Tadqiqot maqsadi. Sambo kurashda sportchilarning hujum va ximoya darajasini aniqlash va musobaqa samaradorligini oshirish.

Tadqiqot vazifalari: Sambo kurashda sportchilarning hujum va himoya darajasini aniqlash asosida musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyalari aniqlash;

Tatqiqot usullari ilmiy uslubiy adabiyotlar taxlili, pedagogik kuzatuv, matematik statistik usullar.

Tatqiqotning tashkil qilinishi. Sambo kurashchilarda mashg‘ulot yuklamalarini me’yorlash va samaradorligini oshirish omillarini aniqlash;

Sambo kurashichilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishni nazorat va tahlil qilish;

Ish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilindi:

1. Sambochilarni texnik harakatlarga o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni o‘rganish.

2. Sambochilarni texnik harakatlarga o‘rgatishda multimedion va slaydlardan foydalanish uslubiyatini ishlab chiqish.

3. Sambochilarining texnik tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyatini tajriba orqali asoslab berish.

Himoya – hujumni amalga oshiruvchining bajarayotgan usulini hujumni qabul qiluvchi tomonidan to’xtatib qolishga qaratilgan texnik harakat.

Sambochilarning texnikasini namoyon qilish darajasining pedagogik nazorati uslubiyatini ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiq etilishi sportchilarni musobaqa jarayonidagi harakatlar samaradorligini oshiradi, hamda jismoniy tayergarlik ko‘rsatkichlariga nisbatan o‘zining texnik harakatlari natijalari haqida axborot olish sharoitlarida ancha yuqori bo‘ladi.

Sambochilarni texnikasini namoyon qilishi darajasini pedagogik nazorat qilib borish uchun barqaror hamda axborotli testlar majmui belgilandi, ushbu testlarning me’yoriy qiymatlari aniqlandi.

Sambochilarni texnik xarakatlarga o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan samarali foydalanish asosida trenirovka nagruzkalarini boshqarish uslubiyati ishlab chiqildi va tajribada asoslab berildi.

Bajarilayotgan tadqiqot ishini amalga oshirish uchun qo‘yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi tadqiqot uslublari qo‘llanildi. Adabiyotlar va davriy nashriyotda chop etilgan materiallarni umumlashtirish va tahlil qilish;

pedagogik kuzatish;

Pedagogik testlar;

pedagogik tadqiqot;

matematik – statistika uslublari.

Tadqiqotning birinchi bosqichida (2022 – yilning dekabr oyigacha) ilmiy – uslubiy adabiyotlar va davriy nashriyotda chop etilgan materiallar umumlashtirildi va tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqichi asosiy pedagogik tadqiqotda sambochilarda umumiy jismoniy tayyorgarlik hamda hujum va ximoya darajasini rivojlantirish maqsadida o‘quv – mashg‘ulot va musobaqa jarayonlari 2022 – yil sentabr oyidan 2022 –yil dekabr oyigacha Chirchiq sport maktabida o‘tkazildi. Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda tajriba va nazorat guruhlari tashkil etildi. Sambochilarning 12 nafaridan tajriba guruhi, 12 nafaridan nazorat guruhi tashkil etildi.

Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba testlari

1-jadval

	Nazorat test mashqlari	Nazorat guruhi		Tajriba guruhi		t_{sr}	R
		σ	V%	σ	V%		
	Hujum uchun o‘rtacha ball	3,2	0,60	3,3	0,65	0,9	>0,05
	Hujum oralig‘i	20,61	1,41	19,81	1,52	0,75	>0,05
	Hujum samaradorligi	0,54	0,08	0,55	0,07	1,1	>0,05
	Himoya samaradorligi	0,57	0,09	0,58	0,08	0,79	>0,05
	Muvaffaqiyatli hujum oralig‘i	26,2	1,32	25,5	1,29	1,26	>0,05

Tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan pedagogik tajriba testlari

2-jadval

№	Nazorat test mashqlari	Nazorat guruxi		Tajriba guruxi		t_{sr}	R
		σ	V%	σ	V%		
1	Hujum uchun o‘rtacha ball	4,3	0,80	3,8	0,70	1,1	< 0,05
2	Hujum oralig‘i	17,61	0,6	18,65	0,7	0,42	< 0,05
3	Hujum samaradorligi	0,68	0,05	0,61	0,06	1,1	< 0,05
4	Himoya samaradorligi	0,69	0,04	0,60	0,07	0,79	< 0,05
5	Muvaffaqiyatli hujum oralig‘i	22,4	1,15	24,5	1,29	1,26	< 0,05

Adabiyotlar tahlili va ilg‘or amaliy tajribani umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki, hozirga qadar kurashchilarining texnik tayyorgarligida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyati yetarlicha ilmiy asoslab berilmagan.

Kurashchi faoliyatida texnik harakatlarini namoyon qilish darajasini zamonaviy pedagogik texnalogiyalar asosida nazorat qilish ustivor masalalar qatoriga mansub bo‘lib, ushbu jarayonni samarali effektiv vosita va usullar asosida tashkil etish, sportchi mahoratining tez o‘sishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida kurashchilar texnik harakatlarini tezkor, joriy va bosqichli pedagogik nazorat qilish asosida ularning mashg‘ulot jarayonlarini tezkor, joriy hamda bosqichli boshqarish uslubiyatini asoslab berildi.

Muskullar ishtirokida bajariladigan ish yurak-tomir va nafas olish tizimlarining ancha aktivlashuvi bilan bog‘lik emas. Bunday ishda charchoqning sababi, aftidan, nerv-muskul apparatining xarakat bajarilishini bevosita ta’minlaydigan zvenolarda aks ettirilgan.

Faoliyat turlarining spetsifikasiga qarab charchoqning bir necha tiplari mavjuddir. Bular aqliy, sensor (xis-tuyg‘u organlariga tushadigan yuklama bilan bog‘liq), emo-tsional va jismoniy charchoqdan iborat bo‘ladi. Har qanday faoliyatda charchoqning aytib o‘tilgan barcha tiplarining kompopentlari ishtirok etsada, jismoniy tarbiya sohasi uchun muskul faoliyati tufayli xosil bo‘lgan jismoniy charchoq ko‘proq ahamiyatga egadir. Bundan buyon gap charchoqning mana shu tipiga nisbatan bo‘ladigan chidamlilik xaqida boradi.

Kishi faoliyatining, belgilangan intensivligini qachongacha saqlay olishini kursatadigan vaqt chidamlilikning asosiy o‘lchovidir. Chidamlilik bevosita va bilvosita usullar bilan o‘lchanadi. Bevosita o‘lchash usulida tekshirilayotganlarga biror bir topshiriqni bajarish tavsiya etiladi va ish qancha vaqtgacha berilgan intensivlikda bajarilishi aniqlanadi.

Gavda muskullarining 2/3 qismidan ko‘prog‘i qatnashadigan ishda, odatda, energiya ko‘p sarf bo‘ladi. Bu energetik metobolizm tizimlariga, jumladan, nafas olish va qon aylanish organlariga katta talablar kuyadi. Ko‘pincha organizmning aynan mana shu tizimlari funktsional imkoniyatlarining yetarlicha bo‘lmasligi ish qobiliyatini cheklab qo‘yadi. Shuning uchun ma’lum bir bir joydagi mashklarda ko‘rsatiladigan chidamlilik barcha muskullarga ta’sir etadigan mashqlardagi yuksak chidamlilikdan dalolat bermaydi. Inson organizmining jismoniy fazilatlarini tarbiyalashda bu kishilarning xolati ancha o‘zgarganligini ko‘rish mumkin. Bu o‘zgarishni mimika muskullari kuchlanishida, ter paydo bulishida ko‘rish mumkin. Ayni vaqtda uning organizmida bir muncha jiddiy fiziologik o‘zgarishlar xam ro‘y beradi.

Xulosa. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish hamda amaliyotda sambochilarning tayyorgarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg‘ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo‘lgan taktik harakatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e’tibor berilmasligi hamda tayyorgarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Sambo mashg‘ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so‘ng, mashg‘ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida sambochilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqoridagi tavsiya etilgan taktik usullarni musobqa usulidagi mashg‘ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o’zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi. Yuqoridagi mashqlar to‘plamini qo‘llashda yosh sportchilarni malakasini, yuklamani qabul qilishini inobatga olish kerak. Bu yoshda asta sekin garmonalagik o‘zgarishlar natijasida kuch va chidamlilikni rivojlantirish uchun zamin yaratila boshlaydi. Mashqlarni bir hil uslubda bajarish ham sportchilarni mashg‘ulotdan zeriktiradi, shuning uchun maxsus harakatli va sport o‘yinlarni bo‘lishi maqsadga muvofiq dep hisoblaymiz. Biz bu mashg‘ulotlarda qo‘llagan mashqlarni sambo, dzyudo, va kurash sport turlari to‘garaklari hamda sport maktablari o‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llashni tavsiya etamiz.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5368-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2018-yil 5-mart.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5924 sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2020 yil 24 yanvar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5281-sonli “2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi Qarori. 2021 yil 5 noyabr.

4. Qaxramonovich Adilov Sarvar. «Technology of increase in efficiency of development of coordination abilities and technical and tactical actions of athletes in free-style wrestling.» European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.10 (2019).

5. Tastanov N.A. – “ Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik. T. 2017.

6. Adilov, S. Q., Berdiyev, F. O., Jumaqulov, A. B., & Anarbayev, T. R. (2021). Erkin kurashchilarini mashg‘ulot jarayonlarida modellashtirishni asosiy tarkibiy qismlarini o‘rganish. Academic research in educational sciences, 2(4), 1717-1722.

7. Bayturaev E.I. “Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati” T., 2016.

8. Bayturaev E.I., Odilov B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish. T., 2017.

9. Bayturayev E.I., Odilov B.B. Sport pedagogik mahoratini oshirish. T., 2019.

10. Bayturayev E.I., Radjapov M.A., Odilov B.B. “Xalqaro kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik T. 2020.

11. Газиев Ш.Ш. “Повышение спортивного педагогического мастерства (по самбо)”. Учебник T. 2021.

12. Adilov S. Q., Anarbayev T. R., Qayumov X. M. O. G. L. Sport kurashlarida chidamlilikni rivojlantirish uchun aylanma mashqlardan foydalanish samaradorligi //Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 846-851.

13. Раджапов, М. А., Анарбаев, М. А., Қаюмов, Х. М. Ў., & Усмонова, И. З. Қ. (2021). Спортчининг умумий ва махсус тайёргарлиги бирлиги. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 1(4), 133-139

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola yuqoridagi mashqlar to‘plamini qo‘llashda yosh sportchilarni malakasini, yuklamani qabul qilishini inobatga olish kerak. Bu yoshda asta sekin garmonalagik o‘zgarishlar natijasida kuch va chidamlilikni rivojlantirish uchun zamin yaratila boshlaydi.

РЕЗЮМЕ

Данная статья при применении вышеуказанного комплекса упражнений необходимо учитывать квалификацию юных спортсменов и восприятие ими нагрузки. В этом возрасте в результате постепенных гормональных изменений начинает создаваться почва для развития силы и выносливости.

SUMMARY

This article when applying the above set of exercises, it is necessary to take into account the qualification of young athletes and their acceptance of the load. At this age, as a result of gradual hormonal changes, the ground for the development of strength and endurance begins to be created.

KURASH MASHG‘ULOTLARINI REJALASHTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH

Ibodullayev B.
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jangovar va jismoniy tayyorgarlik kafedrasi katta o‘qituvchisi

Tayanch so`zlar: belbog’li kurash, mashg’ulot jarayoni, tayyorgarlik mikrotsikllari, tayyorgarlik mezotsikllari, modellashtirish.

Ключевые слова: борьба на поясах, тренировочный процесс, тренировочные микроциклы, тренировочные мезоциклы, моделирование.

Key words: belt wrestling, training process, training microcycles, training mesocycles, modeling.

Sport mashg’ulotini rejalashtirish, bu sport tayyorgarligi vazifalarini hal etish shartlari, vositalari va uslublarini, sportchi egallashi lozim bo’lgan sport natijalarini oldindan ko’zlashdir. Sportchilar tayyorgarligini to’g’ri rejalashtirish – bu mazkur sportchilar kontingenti (yoki bitta sportchi) xususiyatlarining tahlilidan kelib chiqib, tayyorgarlik jarayonidagi asosiy ko’rsatkichlarni belgilash hamda ularni vaqt oralig’ida taqsimlashdir.

So’nggi paytlarda sport kurashida mashg’ulot jarayonini rejalashtirish to’g’risidagi tasavvurlar ancha o’zgardi. Bu musobaqa qoidalariga ba’zi o’zgartirishlarning kiritilishi va xalqaro kurash federatsiyasining musobaqa bellashuvlari tomoshabopligini oshirish bo’yicha qo’ygan talablari bilan bog’liq.

Hozirgi paytda katta tajriba materiali to’plagan sportchilar tayyorgarligini yanada yuqori darajada sifatli rejalashtirish uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

Mashg’ulot jarayonning elementar tarkibiy qismi hisoblanadi. Alohida mashg’ulotlardan mashg’ulot mikrotsikli tashkil topadi. Bir nechta mikrotsikllar birlashmasidan mustaqil, mashg’ulot jarayonining butun bo’lagi bo’lgan mezotsiklni hosil qiladi.

Bir nechta mezotsikllarning birlashmasi yanada yirik tugallangan tuzilma – makrotsiklni tashkil etadi. Mashg’ulotning mikro, mezo va makrotsikllar kabi

davrlarga ajralishiga qarab yuklama o'lchamlari, hajmi, shiddati, tayyorgarlik vositalari hamda uslublari o'zgaradi.

Kurashchilarning ko'p yillik mashg'ulotiga mo'ljallangan rejani tuzishda sport kurashi rivojlanish yo'lining bashorati hamda muso-baqalar qoidalaridagi o'zgarishlarga amal qilish lozim. Shu sababli mashg'ulot vositalari, hajmi va shiddati vazifalarning o'zgarishini nazarda tutish zarur.

Mashg'ulotning istiqbolli rejalashtirilishi albatta yillik rejalarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Yillik rejalarga qo'llaniladigan vositalar va mashg'ulot yuklamalarining batafsil bayoni kiritiladi. Kundalik rejalashtirishda sport shakli dinamikasining ilmiy qonuniyatlari (yuzaga kelish, barqarorlashtirish va vaqtinchalik pasayishi) qo'llaniladi. Kundalik rejalashtirish tuzilmasiga turli omillar: o'qish va mehnat tartibi, mashg'ulotlar mazmuni, soni va yuklamalar o'lchamlarining umumiy yig'indisi, mashg'ulot yuklamalariga bo'lgan re-aksiyaning alohida xususiyatlari hamda kurashchilar malakasi ta'sir etadi.

Tezkor rejalashtirish kundalik rejalashtirish asosida amalga oshiriladi. Bunday rejalashtirish turi vazifalar, vositalar, uslublar, yuklama hajmi va shiddatini aniqlashtirishni ko'zda tutadi. Mashg'ulotlar tuzilmasi, birinchi navbatda, maksimal mashg'ulot samarasiga erishishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Mashg'ulotning tezkor rejasiga muvofiq mashg'ulotlar konspekti tuziladi, unda tayyorlov (badan qizdirish), asosiy va yakuniy qismlar, takrorlashlar soni, tanaffuslar davomiyligi hamda dam olish xususiyati bayon qilinadi.

Mashg'ulot jarayonida uchta davr: tayyorgarlik, musobaqa, o'tish davrlari ajratiladi.

Tayyorgarlik davrida mashg'ulotlar faol dam olishdan shiddatli maxsus ishga, jismoniy sifatlarni keyinchalik ham rivojlantirishga, kurash texnikasi va taktikasini egallash ham takomillashtirishga asta – daqiqani o'tishni ta'minlashga qaratilgan. Bu davrda sportchilarning oldinda turgan musobaqa davrida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun mustahkam poydevor yaratish lozim. Tayyorgarlik davrining asosiy vazifalari organizmning funksional imkoniyatlarini oshirish, umumiy jismoniy tayyorgarlikni yaxshilash va kurashchi uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan, texnik-taktik harakatlarni egallash hamda takomillashtirish, ularni amalga oshirishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, iroda va ma'naviy sifatlarni tarbiyalashdan iborat.

Mashg'ulotning musobaqa davri maqsadi – musobaqalarga tayyorlash va unda muvaffaqiyatli ishtirok etish. Ushbu davrning asosiy vazifalari yuqori darajada mashqlanganlikka ega bo'lish, texnik-taktik harakatlarni keyinchalik ham mustahkamlash hamda takomillashtirish, musobaqalarda qatnashishda

bellashuvni olib borish taktikasi bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash, yuqori darajada jismoniy, iroda va ma'naviy sifatlarning rivojlanishiga erishish, nazariy bilimlarni kengaytirishdan iborat.

Bu bosqichda sportchilar malakalariga qarab mas'uliyatli musobaqalarda ishtirok etadilar.

Mashg'ulotning o'tish davriga mashg'ulot yuklamasining pasayishi xos bo'ladi. Davrning asosiy vazifalari: salomatlikni mustahkamlash va organizmni chiniqtirish, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish.

Asosiy vositalar: sport o'yinlari, suzish va boshq. To'g'ri tuzilgan o'tish davri organizm funksional imkoniyatlarini keyinchalik ham rivojlantirish, kurashchining maxsus tayyorgarligini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Tayyorgarlik mikrotsikllarini rejalashtirish. Sport amaliyotida mashg'ulot mikrotsikli deganda bir necha kun davomida o'tkaziladigan va mazkur tayyorgarlik bosqichi vazifalarini kompleks hal etishni ta'minlaydigan mashg'ulotlar davomiyligi tushuniladi.

Mikrotsikllar davomiyligi – 3-4 kundan 10-14 kungacha.

Haftaga muvofiq bo'lgan 7 kunlik mikrotsikllar ko'p tarqalgan.

Mikrotsikllarni rejalashtirishda an'anaviy va noan'anaviy yondashishni ajratish mumkin.

An'anaviy mikrotsikllar. An'anaviy mikrotsikllarning to'rtta turga ajratish taklif qilinadi, ya'ni:

- shaxsan mashg'ulot mikrotsikli;
- mashg'ulot yuklamasi yo'nalishi;
- umumiy tayyorgarlik;
- maxsus tayyorgarlik mikrotsikllariga, yuklama o'lchami hamda dinamikasiga qarab, oddiy hamda zarbdor mikrotsikllarga bo'linadi; yaqinlashtiruvchi, ular o'z mazmuniga ko'ra musobaqa vaziyatini qisman modellashtiradi va kurashchilarning maxsus ish qobiliyatini muntazam oshirishga qaratiladi; musobaqa, ular musobaqa sharoitlarini to'liq aks ettiradi; tiklanish (yoki musobaqalardan keyingi yengillashtiruvchi) mikrotsikl, ularning maqsadi sportchilarning musobaqalarda qisman yo'qotgan ish qobiliyatini tiklashdan iborat.

Bir nechta kurash mutaxassislarining fikricha, beshta turdagi mikro-tsikllarni ajratishni taklif qilishdi, ya'ni tortuvchi, zarbdor, yaqinlashtiruvchi, musobaqa va tiklanish.

Shuni esda tutish lozimki, mikrotsikldagi yuklamalar va dam olishning turli almashinuvi uchta turdagi reaksiyalarga olib kelishi mumkin: a) mashqlanishning

maksimal darajada o'sishi; b) mashg'ulot samarasining kamligi yoki butunlay bo'lmasligi; c) sportchining toliqib qolishi. Amaliyotning katta va juda katta yuklamali (ular ham o'zaro, ham kichik yuklamali mashg'ulotlar bilan oqilona almashib turiladi) mashg'ulotlarning optimal soni mikrotsiklga kirgan hollar birinchi turdagi reaksiyaga xosdir. Katta yuklamalarni haddan ortiq qo'llash toliqishga olib keladi.

Tayyorgarlik mezotsikllarini rejalashtirish. Mashg'ulot mezotsikli 3 haftadan 6 haftagacha davom etadigan mashg'ulot jarayoni bosqichidir. Mezotsikllar asosida mashg'ulot jarayonini tashkil etish uni tayyorgarlik davri yoki bosqichining asosiy vazifasiga muvofiq tizimlashtirish, mashg'ulot yuklamalari va muso-baqa faoliyatining optimal dinamikasi, turli tayyorgarlik vositalari va uslublarining maqsadli uyg'un-lashuvi, pedagogik ta'sir omillari hamda tiklash tadbirlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashga, turli sifatlar va qobiliyatlarni rivojlantirishda zarur izchillikka erishishga imkon yaratadi.

An'anaviy mezotsikllar sakkizta turga ajraladi, ya'ni:

- tortuvchi;
- bazaviy va ularni rivojlantiruvchi;
- barqarorlashtiruvchi;
- nazorat-tayyorgarlik;
- sayqallashtiruvchi;
- musobaqa oldi;
- musobaqa tiklanish-tayyorlov;
- tiklanish-saqlab turuvchi.

Har bir mezotsikl uchta, oltita mikrotsikllardan iborat bo'ladi. Ularning to'plami rejalashtirilayotgan mezotsiklning muayyan vazifalari bilan aniqlanadi.

Mezotsikl turlarining bunday ko'p bo'lishi mashg'ulot jarayoni tuzilmasini juda murakkablashtirib yuboradi va mashg'ulotni rejalashtirishni qiyinlashtiradi.

Sportchilar mashg'ulotni rejalashtirishda yuqorida aytib o'tilgan mezotsikl turlarining kamdan-kam qo'llanilishi aynan shunga bog'liq va mezotsikllar turlari tasnifiy amaliyot uchun qulayroqdir: tortuvchi, bazaviy, nazorat-tayyorgarlik, musobaqa oldi va musobaqa. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, tortuvchi mezotsikllarning asosiy vazifalari sportchilarni maxsus mashg'ulot ishini samarali bajarishga maqsadli yaqinlashtirishdan iboratdir. Bazaviy mezotsikllarda organizm asosiy tizimlarining funksional imkoniyat-larini oshirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, texnik, taktik va ruhiy tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha asosiy ishlar olib boriladi.

Nazorat-tayyorgarlik mezotsikllarida sportchilarning avvalgi mezotsikllarda erishgan imkoniyatlari (musobaqa faoliyati xususiyatiga muvofiq) sintezlashtiriladi, ya'ni integral tayyorgarlik amalga oshiriladi.

Musobaqa oldi mezotsikllari sportchi tayyorgarligi davomida aniqlangan mayda kamchiliklarni bartaraf etish, uning texnik imkoniyatlarini takomillashtirish uchun mo'ljallangan. Bu mezotsikllarda ma'lum bir maqsadga qaratilgan ruhiy-taktik tayyorgarlik alohida o'rin egallaydi.

Musobaqa mezotsikllari soni va tuzilmasi sport turining o'ziga xos xususiyatlari, sport xususiyatlari, sportchilar malakasi va tayyor-garlik darajasi bilan belgilanadi.

Mezotsikllarning umumiy tuzilmasi barqarorligi ularning mazmunini muntazam takomillashtirib borishga, ta'sirchan nazorat o'rnatishga, "ilgarilovchi" rejalashtirish tamoyilini amalda yuzaga chiqarishga yordam beradi. Ushbu tamoyilga binoan joriy makrotsiklning mikrotsikllari va mezotsikllaridagi mashg'ulot natijalari darhol navbatdagi makrotsiklning shunga o'xshash tuzilmalari dasturini rejalashtirish uchun qo'llaniladi.

Yillik tayyorgarlik siklida mashg'ulotni tashkil qilish tizimini modellashtirish.

Ma'lumki, zamonaviy sport tayyorgarligi mavjud nazariy va amaliy bilimlarni umumiylashtirish hamda tartibga tushirishni taqozo etadi. Bir qator mutaxassislar tomonidan yillik va ko'p yillik sikllarda mashg'ulotni tashkil etish modellari ishlab chiqilgan. Ular mashg'ulot yuklamalari mazmunini, hajmining muhim parametrlari va ular musobaqa rejasi mazkur bosqichda hal etiladigan vazifalar, an'anaviy bo'lib qolgan tayyorgarlikni davrlash va boshqa bir qator omillardan kelib chiqqan holda mashg'ulot yuklamalari mazmuni, hajmi hamda vaqt ichida taqsimlashning eng muhim parametrlarini son jihatdan aks ettiradi.

Maxsus adabiyotlar va mashg'ulotning amaliy tajribasi tahlili muta-xassislarga shunday xulosaga kelishga imkon berdiki, ko'p yillar avval vujudga kelgan mashg'ulotni tashkil etishning an'anaviy shakllari va tamoyillari bugungi kunda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash vazifalarini qoniqtirmaydi. Yuqori malakali sportchilar maxsus jismoniy sifatlarning rivojlanishi shunday darajaga yetdiki, ularni keyinchalik takomillashtirish uchun yangi, yanada samarali mashg'ulot vositalari va uslublarini izlab topishni talab qiladigan bo'ldi. Bundan tashqari, maxsus jismoniy tayyorgarlikning yillik sikldagi o'rnini qayta ko'rib chiqish hamda uning boshqa tayyorgarlik turlari bilan o'zaro bog'liqlik shakllarini aniqlash lozim.

Hozirgi paytda shu narsa ma'lumki, mashg'ulotni tuzish modelini ishlab chiqishning zarur shartlaridan biri amaliy tajribani tahlil qilish hisoblanadi.

Bunday tahlil jarayonida yuqori malakali sportchilarning yillik sikldagi mashg'ulotni tashkil qilishning amaliyotda mavjud bo'lgan uslublarini o'rganish, shuningdek sportchilar qo'llaydigan mashg'ulot (zarur hollarda musobaqa) yuklamalari hajmining aniq o'lchamlarini aniqlash nazarda tutiladi.

Mashg'ulot modelini tuzish tamoyillari va shakllarini aniqlab beradigan asosiy omillar sifatida sportchilar holati hamda mashg'ulot yuklamasining o'zaro bog'liqligining umumiy qonuniyatlari, shuningdek, muntazam mashg'ulot ta'siri ostida kurashchi organizmining bir holatdan boshqasiga o'tish qonuniyatini ajratadi. Har bir muayyan holda ushbu tamoyillarni amalga oshirish usullariga ta'sir ko'rsatuvchi xususiy sharoitlar qatoriga quyidagilar kiradi: yillik tayyorgarlik siklini an'anaviy davrlash hamda joriy yil uchun muayyan musobaqalar rejasi, sportchining mahorat darajasi va maxsus tayyorgarligining alohida xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik bosqichlaridagi mashg'ulot xususiyati va yo'nalishi, sportchi oldiga qo'yiladigan vazifalar, musobaqa faoliyatining keskinligi va boshq. Biroq olimlar tomonidan tavsiya etilgan bunday bo'linish shartli ravishda ekanligini hisobga olish lozim.

Adabiyotlar:

1. Абдиев Н.А. Борьба (Организация восстановительного тренировоч¬ного процесса в предсоревновательном этапе). Монография. Т., 1997.

2. Алиханов Н.И. Техника-тактика вольной борьбы. Изд. 2-ое перераб. М., ФиС, 1986.

3. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подго-товки спортсменов. М., ФиС, 1988.

4. Годик М.А. Контроль тренировочных и соревновательных нагрузок. М., ФиС, 1980.

5. Дахновский В.С. и др. Планирование нагрузок при подготовке юных борцов. (Спортивная борьба: Ежегодник). М., 1974.

6. Дякин А.М., Невретдинов Ш.Т. Методика отбора борцов. (Спор¬тивная борьба: Ежегодник). М., 1980.

7. Taymuratov Sh.A. Kurashchilarni tayyorlash texnologiyasi. T., Ilm ziyo, 2010.

8. Туманян Г.С. Спортивная борьба (Отбор и планирование). М., 1984.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada belbog'li kurash mashg'ulot jarayonini rejalashtirish mohiyati, ahamiyati va uning turlari, tayyorgarlik mikrotsikllarini rejalashtirish, tayyorgarlik mezotsikllarini rejalashtirish, yillik tayyorgarlik siklida mashg'ulotni tashkil qilish tizimini modellashtirish haqida so`z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о сущности, значении и видах планирования тренировочного процесса по борьбе на поясах, планировании микроциклов тренировки, планировании мезоциклов тренировки, моделировании системы организации тренировки в годовом тренировочном цикле.

SUMMARY

This article talks about the essence, importance and types of planning the training process of belt wrestling, planning microcycles of training, planning mesocycles of training, modeling the system of organizing training in the annual training cycle.

БЎЛАЖАК ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИ УЗЛУКСИЗ ПЕДАГОГИК АМАЛИЁТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Матниязов Х.К.

Таянч сўзлаар: долзарб, зарурат, кадрлар, таълим, узлуксиз, жисмоний тарбия, инновацион механизмлар, лойиҳа.

Ключевые слова: актуальность, потребность, кадры, образование, непрерывное, физическое воспитание, инновационные механизмы, проект.

Key words: relevance, need, personnel, education, continuous, physical education, innovative mechanisms, project.

Кириш. Дунё мамлакатларининг олий таълим тизимида педагогик кадрларни тайёрлашнинг муҳим омили сифатида таълимни бевосита амалиёт билан боғлиқликда олиб бориш асосида рақобатбардош мутахассисларни тайёрлаш асосий вазифа сифатида эътироф этилади. Шунингдек, ривожланган мамлакатларнинг (Англия, Германия, Франция, Жанубий Корея, Хитой, Австрия, Россия) ижтимоий тузумлари ривожланиши ва алмашиши туфайли меҳнат бозорида етук кадрларга бўлган эҳтиёжни таъминлашда, таълим тизимининг устувор йўналишларидан бири сифатида мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашда уларнинг амалиётини такомиллаштириб бориш муҳим аҳамият касб этади. Айни вақтда жамиятнинг интеграциялашаётган даврда назария билан амалиёт алоқадорлигини мустаҳкамлашга йўналтирилган тизимни жорий қилишга қаратилган ташкилий-педагогик ишлар олиб борилмоқда. Бу жараёнда ўқув-тарбиявий ишларнинг педагогика назарияси, амалиёт билан алоқадорлиги муҳим аҳамият касб этади.

Жаҳон мамлакатларининг олий таълим тизимида педагогик йўналишдаги соҳанинг асосий вазифалари сифатида таълим жараёнининг узлуксизлигини таъминлаш ҳамда бўлажак мутахассисларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг самарали усули сифатида узлуксиз амалиётни ташкил этиш ҳисобланиб, унинг асосий негизида таълим сифатини ошириш орқали юқори касбий компетенцияга эга мутахассис тайёрлаш назарда тутилади.

Мамлакатимизда педагог кадрлар тайёрлашнинг мукаммал тизими яратилган бўлсада, бу тизимда кадрларнинг назарий тайёргарлигига устувор тарзда аҳамият қаратилиб, ушбу йўналишда айрим камчиликлар юзага келмоқда. Шу тариқа “педагог кадрларнинг касбий маҳорати сифати ва савиясини узлуксиз юксалтиришда таълим жараёни билан амалиётни боғлашда унинг узлуксизлигини таъминлаш” алоҳида ўрин тутади. Жисмоний маданият таълим йўналишида бўлажак мутахассислар педагогик амалиётининг узлуксизлигини таъминлаш кун тартибидаги муҳим масалалар сирасига киради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 февралдаги “Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4956-сон, 2020 йил 24 январдаги “Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5924-сон фармонларини, 2017 йил 3 июндаги “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-3031-сон қарори ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда таълим сифатини таъминлашга доир белгиланган вазифаларни амалга оширишда мазкур диссертация иши муайян даражада хизмат қилади.

Натижа: Ҳар қандай янгилик, илмий ғоя, назария ва тахминлар экспериментал тарзда синовдан ўтказилади. Педагогика фанида ҳам тажриба-синовларини ташкил этишнинг ўзига хос йўсинлари, хусусиятлари мавжуд бўлиб, тадқиқотнинг амалий синови муҳим босқич ҳисобланади.

Педагогик тажрибанинг моҳиятини тавсифловчи хусусиятлари сифатида қуйидагилар алоҳида инобатга олинади:

а) педагогик жараёнга тадқиқот вазифаси ва фаразига мос муҳим ўзгаришларни киритиш;

б) ўрганилаётган ҳодисаларни, унинг яхлит хусусиятини бузмасдан улар ўртасидаги боғлиқликни кўришга имкон берувчи педагогик жараённи ташкил этиш;

в) педагогик жараёнга тақдим этилган янги ёки мазмунан муайян ўзгартиришлар киритилган, шунингдек, такомиллаштирилган, оптималлаштирилган вариантларни, компонентлари ҳамда бутун жараён натижаларини чуқур ва сифатли таҳлил қилиш ҳамда аниқ мезонлар асосида миқдорини ўлчаш.

Илмий-педагогик адабиётларни таҳлил қилиш мазмунидан қатъи назар, тажриба ишларини ташкил этишнинг умумий тамойиллари мавжудлигини билдиради. Бизнинг тадқиқотимизга мос равишда қуйидаги тамойиллар асос қилиб олинди:

– тажриба тадқиқотида методологик асосланган гипотезага таяниш;

– тажрибанинг мазмуни ва моҳияти ўзига хос хусусиятга эга бўлиши, бу хулосаларни исботлаш мумкинлигини таъминлаш;
– амалиётнинг жараёнида мустақил билим олишга таъсир этувчи тўсиқларни бартараф қилиш;
– тажриба объектив асосда қурилиши, яъни илмий ёндашувга амал қилиниши лозим.

Бизнинг педагогик тажрибамиз бўлажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини касбий-педагогик тайёрлаш мақсадида узлуксиз педагогик амалиётни тизимлаштириш концепциясини, жисмоний тарбия йўналишидаги олий таълим муассасалари талабаларини тайёрлаш, ўқув-тарбиявий жараёнига тажриба-синов татбиқ этишдан иборат бўлиб, унда 58 нафар профессор-ўқитувчи ҳамда 462 нафар талаба респондент сифатида иштирок қилди. Шунга мувофиқ тажрибанинг қуйидаги масалалари белгиланди:

– узлуксиз педагогик амалиётнинг тизимлаштириш моделини амалиётга татбиқ этиш;
– моделнинг педагогик шартларини тажриба асосида синовдан ўтказиш;
– педагогик амалиётнинг ишлаб чиқилган дастурини тажриба асосида синовдан ўтказиш;
– узлуксиз педагогик амалиётни тизимлаштириш концепциясини татбиқ этиш самарадорлигини аниқлаш;
– тажриба-синов ишлари натижаларини миқдорли ва жадвал-график кўринишда тақдим этиш.

Тажриба-синов ишлари уч босқичда амалга оширилди.

1. Дастлабки босқичида олий таълим муассасасида мавжуд ўқув-тарбиявий жараённи ҳар томонлама ўрганиш ва узлуксиз педагогик амалиётнинг дастлабки ҳолати ва талабаларнинг касбий-педагогик тайёргарликлари даражаси аниқланди.

Тажриба ишларига тайёргарлик кўришда қуйидаги масалаларни ҳал қилиш назарда тутилди:

– тажриба тадқиқоти муаммолари ва мақсадларини аниқлаш;
– тажриба иши предмети, объектини танлаш ва уни ўтказишни назарий асослаш;
– тажриба фаразини ифода этиш;

тажриба объектларининг керакли сонини танлаш (тажриба ва назорат гуруҳлари сони, улардаги талабалар сони);

– тажриба ўтказиш вақти давомийлигини белгилаш;
– тажриба объекти бошланғич ҳолатини ўрганиш учун аниқ методикаларни танлаш;

– тегишли педагогик таъсир кўрсатиш натижасида тажриба объектидаги ўзгаришлар ҳақида фикр юритиш мумкин бўлган белгиларни аниқлаш.

2. Ўзгартирувчи (яратувчилик) тажриба ўтказишдан иборат бўлиб, бу жараёнда тадбирлар маълум тизимини синовдан ўтказиш амалга оширилди:

– тажриба ишлари мазмунини танлаш;
– педагогик шароитлар комплексини аниқлаш ва текшириш бўйича тажриба ўтказиш;
– талабаларни касбий-педагогик тайёрлаш бўйича тажриба методикасининг самарадорлиги мезонларини шакллантириш;
– тадбирлар тажриба тизими таъсири остидаги ўзгаришларни ифода қилувчи оралиқ кесимлар асосида тажриба бориши ҳақидаги маълумотларни қайд этиш;
– тажриба ўтказиш давомидаги қийинчиликлар ва мумкин бўлган камчиликларни кўрсатиш.

3. Назорат-тузатиш босқичи қуйидагиларни ўз ичига олди:

– тажриба жараёнида олинган маълумотларни таҳлил қилиш;
– таҳлилий материалларни тадқиқот мақсади, вазифалари ва фарази билан таққослаш;
– тажриба натижаларини мунтазам тарзда қайта ишлаб бориш, натижаларни визуал тарзда тақдим этиш учун графиклар, жадваллар, схемалар тузиш;
– бўлажак мутахассисларнинг касбий-педагогик тайёргарликлари ва амалиёт методистларининг касбий малакалари даражасини якуний диагностика қилиш;
– тажрибага таъсир кўрсатиш субъектларининг (талабалар ва методистлар) хусусиятларини таърифлаш;
– материаллар ва хулосаларни англаш ҳамда таҳлилий баён этиш.

Тадқиқот жараёнида репрезентативлик (таълимнинг амалиёт билан мос келиши) талаби ҳисобга олинди.

Бизнинг тадқиқотимиз Урганч давлат университети, Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти, Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети ҳамда Бухоро давлат университетида ўтказилди. Тажриба-синов жараёнига жалб этилган талабалар сони 462 нафарни ташкил этди. Бундан ташқари, тажрибада 58 нафар амалиёт раҳбарлари иштирок этдилар.

2016-2019 йилларда тажриба ишлари ташкил қилинди. Ҳар бир босқичда тадқиқотлар бутун таълим даври давомида ўтказилди. Тажриба-синов ишлари давомида тадқиқотларнинг турли эмперик методларидан фойдаланилди. Уларни қўллаш билан методологик, назарий ва дидактик хусусиятдаги хулосаларни олишга йўналтирилди. Мустақил ва боғлиқ бўлган ўзгарувчи

педагогик жараёнларни аниқлаш учун тажриба-синов ишларида қуйидаги методлардан фойдаланилди:

– сўров-диагностик (анкета сўровлари, суҳбат, тест синовлари, «рейтинг» баҳолаш, мустақил кўрсаткичларни умумлаштириш);
– обсервацион (тўғридан-тўғри, билвосита, киритилган кузатиш, машғулотлар ва тадбирлар баённомаси);
– праксиометрик (ўқув режалари ва меъёрий ҳужжатларни, амалиётлар дастурларини таҳлил қилиш, талабалар ва методистлар касбий-педагогик фаолиятлари натижаларини таҳлил қилиш);
– экспериментал (қайд этувчи, шакллантирувчи ва диагно¯стик педагогик тажриба);
– математик статистика методлари.

Тажриба-синов жараёнида қўлланилган методларнинг хусусиятларини қуйидагича тавсифлаш мумкин:

Педагогикада кузатиш. Бу узоқ вақт давомида аниқ мақсадга йўналтирилган ва мунтазам равишда идрок этишга асосланган ҳодисалар ва жараёнлар натижаларини қайд этиш методи.

Кузатиш бошқа қатор вазифаларни амалга оширишга ҳам имкон берди. Улар қуйидагилардан иборат: талабаларнинг керакли ўқув материалларни ўзлаштириш жараёнини, зарур таълим методлари ва воситаларини ҳамда тарбиявий ишлар ўтказиш методикасини эгаллаш самарадорлиги, ўқув муассасаси шароитларига мослашиш жараёни қийинчиликларини, улар томонидан методик услубларнинг изчиллик билан қўлланилишини; аниқ бир дарсни ёки тарбиявий тадбирни ўтказиш жараёнида педагогик фаолиятлари услуби хусусиятларининг ўзгаришини таҳлил қилиш.

Ушбу масалаларни ҳал қилиш учун дастлаб кузатиш дастурини ишлаб чиқилиб, унда қуйидаги ҳолатларни назарда тутилди:

– кузатувнинг мақсади;
– кузатув олиб бориладиган шароитлар;
– кузатув объекти; предмети;
– кузатув вақти ва олинган натижаларни таҳлил қилиш.

Тажриба ишлари мактабгача таълим ташкилотлари, умумий ўрта таълим мактаблари ҳамда АЛ ва КҲК ларида ўқув йили давомида амалга оширилди.

Мисол тариқасида умумтаълим мактабида II курсда амалиёт даврида жисмоний тарбия дарсида амалиётчи талабаларнинг фаолиятларини кузатиш дастурини келтирамиз.

1. Умумий маълумотлар: санаси, мактаб, амалиётчининг фамилияси, исми, машғулот мавзуси.

2. Талабанинг дарснинг дидактик мақсадларини аниқлаши.

Дарснинг аниқ бир босқичида ва бу ўқув машғулоти жараёнида ўқув фаолияти методлари ва воситаларининг тўғри танланиши.

3. Мавзу бўйича муҳим тушунча, малака ва кўникмаларни билиши даражаси.

4. Ўқувчилар учун топшириқлар ва машқлар тизимининг ишлаб чиқилишини баҳолаш.

5. Машғулотларнинг тузилиши ва ташкил қилиниши: ўз вақтида бошланиши, ўтказиладиган машғулотларда фаол иштирок этиш, якуний қисми. Машғулотлар ўтказиш жойларини ва ускуналарни тайёрлаш.

6. Мақсадга йўналганлиги, илмийлиги, тарбиявий вазифаларга мослиги.

7. Жамоали, гуруҳли ва индивидуал ишларнинг биргаликда олиб борилиши; ўқувчиларнинг қизиқишлари даражаси.

8. Дарс натижаларини таҳлил қилиш ва умумий баҳолаш.

Тажриба ишлари давомида қўлланиладиган кейинги метод – суҳбат.

Бундан ташқари тадқиқотчи суҳбат жараёнига таъсир кўрсатади ва суҳбатдошини керакли йўналишга йўналтиради. Шу сабабли мазкур методдан фойдаланишда икки томоннинг ўзаро алоқаларига алоҳида эътибор қаратилди.

Суҳбат натижасида олинган ахборотнинг сифати унинг тўғри ташкил этилиши ва унга пухта тайёргарлик кўрилишига боғлиқ бўлади. Ишончлилиги ва аниқлиги ахборот сифати мезонлари саналади. Шу сабабдан суҳбат режасини тузишга, саволларнинг қўйилишига ва уларни асослашга алоҳида ёндашилди. Суҳбатни режалаштириш ва ўтказиш уч босқичга ажратилди: мослашиш, қўйилган мақсадга эришиш ва кескинликни йўқотиш.

Суҳбатда турли тоифадаги шахслар иштирок этдилар:

1) амалиётчи талабалар;
2) амалиёт раҳбарлари;
3) ўқувчилар.

Шу тариқа суҳбат иштирокчилари бир-бирларидан ёши ва бошқа хусусиятлари билан кескин фарқ қилган ҳолларда алоҳида тегишли муносабатлар талаб қилинади.

Суҳбатда кенг доирадаги шахсларнинг иштирок этишлари узлуксиз педагогик амалиёт модели самарадорлиги ҳақида, амалиёт жараёнининг турли ҳолатлари ва ҳодисалари ҳақида, талабаларнинг мотивациялари, қизиқишлари ва эҳтиёжлари ҳақида тўла маълумотлар олиш, уларнинг ўқув муассасаси шароитларига мослашишларини кузатиш имконини берди.

Шундай қилиб, амалиёт жараёнини ташкил этиш хусусиятлари уч нуқтаи назардан аниқланди:

– биринчи томондан, педагоглар;

– иккинчи томондан, ўқувчилар;
– учинчи томондан, амалиётчи талабалар.

Тажриба-синовнинг бу хусусияти педагогик амалиёт ўтаётган талабаларнинг дарс ўтиш ва билим олиш жараёнини янада сифатлироқ таҳлил қилиш имконини берди.

Анкета – бу сўровда иштирок этаётганлар томонидан унда кўрсатилган бандлар бўйича мустақил тўлдириладиган сўров варақаси. Анкета саволлари жуда аниқ, бир маъноли, сўровда иштирок этувчилар учун тушунарли тилда ифода этилиши керак.

Саволларга жавобларни кўздан кечириш узлуксиз педагогик амалиёт тажриба дастури асосий мавзулари ва бўлимлари бўш жойларини, амалиётчи талабаларда педагогик малака ва кўникмаларнинг шаклланганлигини ва таълим муассасаси шароитига мослашиш, касбий масъулият ва фаоллик билан боғлиқ бошқа масалаларни аниқлашга имкон беради.

Анкета сўровномаси II ва III курс амалиётчилари учун алоҳида тузилди. Анкета варақаларида тажриба дастурининг қайси бўлимлари уларда қизиқиш уйғотганлиги ва унинг сабаби, тарбия ва таълим фаолияти қайси турлари уларни кўпроқ қизиқтирганлиги, ўқув материалини ўрганишда қандай қийинчиликларни ҳис қилганликлари, амалий фаолият жараёнида нималар-дан қониқмаганликларини акс эттириш назарда тутилди.

Анкета сўровлари маълумотларини бошқа методлар – ҳужжатларни таҳлил қилиш, тўғридан-тўғри кузатиш, суҳбатлар ёрдамида олинган материаллар билан таққосланди ва умумлаштирилди.

Рейтинг баҳолаш. Талабалар ва методистларда касбий-педагогик малакаларнинг намоён бўлишини аниқлаш учун баҳолаш методи ёки бошқачасига эксперт баҳоси методи қўлланилди.

Ҳужжатларни таҳлил қилиш. Ишчи гипотезани шакллантириш, тадқиқот вазифаларини қўйиш ва уларни ҳал қилиш учун ҳужжатларни ўрганишда анъанавий (сифатли) ва расмийлаштирилган (сифат-сонли) методлардан фойдаланилди. Ушбу методлар ёрдамида қуйидаги ҳужжатлар ўрганилди:

– мамлакатимизда қабул қилинган жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришни таъминлашга оид ҳуқуқий ҳужжатлар;
– Давлат таълим стандартлари;
– жисмоний тарбия олий таълим муассасалари ўқув режалари ва дастурлари;
– касб-малакали характеристикалари, профессиограммалар ва мутахассиснинг касбий тайёргарлигига қўйиладиган талаблар;
– амалиётга тайёргарлик, ташкил этиш, ўтказиш ва назорат қилишга тегишли;

– амалиёт бўйича талабалар ва методистлар ҳужжатлари (кундаликлар, ҳисоботлар ва шу кабилар).

Педагогик тажриба-синовнинг юқорида тавсифланган методлари тадқиқот экспериментал қисмининг хусусиятини ифодалайди ҳамда жараённи кузатишни комплекс тарзда амалга ошириш, ташкил этиш ҳамда баҳолаш имконини беради.

Хулоса:

1. Тадқиқот натижаларидан жисмоний тарбия соҳасида педагог кадрлар тайёрлаш узлуксиз педагогик амалиётида фойдаланиш қуйидагилар ўртасидаги қарама-қаршиликларни маълум даражада йўқотади:

а) жамиятнинг жисмоний тарбия қадриятларини фақат такрорлашга, уларни бойитиш ва ривожлантиришга қодир юқори малакали мутахассисларга объектив эҳтиёж ва олий таълим тизимида юзага келган, замонавий талабларга жавоб бермайдиган жисмоний тарбия мутахассисини касбий-педагогик тайёрлаш тизими ўртасидаги зиддиятлар

Адабиётлар:

1. Абдулина О. Мониторинг качества профессионально подготовки. Высшее оброзование в России. Москва, 1988. №3. – С3-35.

2. Абдулина О.А. Общепедагогическая подготовки учителя системе высшего педагогического оброазования. М., 1990. – С.7-27.

3. Абдулина О.А. Загряскина Н.Н. Педагогическая практика студентов; Учеб; пособие для студентов пед. 2е изд, перераб, доп. - М: Просвещение, 1992. 175с.

4. Авксентьев Е. Н. Формирование готовности студентов педогогических ввузов физкультурно-спортивной деятельности.: Автореф. дис. …канд. пед. наук.- Чебоксари: - Чуваш. гос. пед. ун-т им. И.Я.Яковлева. 2004. – 22 с.

РЕЗЮМЕ

Бизнинг тажрибамизда кузатишнинг асосий вазифаси бўлажак жисмоний тарбия ўқитучиларининг узлуксиз педагогик амалиётини ташкил этиш, уни таҳлил қилиш ва олинган натижалар, дастурлар мазмуни ҳамда амалга ошириш шартлари ўртасидаги сабаб-оқибатли боғлиқликларни аниқлаш жараёнини батафсил таърифлашдан иборат бўлди.

РЕЗЮМЕ

По нашему опыту, основной задачей наблюдения было детальное описание процесса организации непрерывной педагогической практики будущих учителей физической культуры, ее анализ и определение причинно-следственных связей между полученными результатами, содержанием программ и условиями реализации.

SUMMARY

In our experience, the main objective of the observation was a detailed description of the process of organizing the continuous teaching practice of future physical education teachers, its analysis and determination of cause-and-effect relationships between the results obtained, the content of the programs and the conditions of implementation.

DZYUDOCHILARNING TAYYORGARLIK TOMONLARINING INTEGRATSIYALASHUVINING MAZMUNI VA VOSITALARI

Meyliyev X.
UrDU katta o`qituvchisi
Ro`zmetov K.
UrDU magistranti

Tayanch so‘zlar: sport tayyorgarligining tomonlari, integral tayyorgarlik, sport musobaqasi, sport mashg`uloti, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik.

Ключевые слова: аспекты спортивной подготовки, интегральная подготовка, спортивное соревнование, спортивная подготовка, техническая подготовка, тактическая подготовка, физическая подготовка, психологическая подготовка.

Key words: aspects of sports training, integral training, sports competition, sports training, technical training, tactical training, physical training, psychological training.

2022-yil 20-iyunda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Dzyudo sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlati to`g`risida” PQ-286-son qarori qabul qilindi. Qarorda dzyudo kurashini aholi o`rtasida ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo`lga qo`yish, maktabgacha yoshdagi bolalarda dzyudo kurashiga qiziqish uyg`otish va jang san`ati ning ushbu turi bo`yicha boshlang`ich ko`nikmalarni shakllantirish, dzyudo bo`yicha professional trenerlar, malakali hakamlar va mutaxassislarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, o`quv-uslubiy qo`llanmalar ishlab chiqish, ayollar o`rtasida dzyudoni rivojlantirish va boshqa muhim vazifalar belgilab erildi.(1)

Dzyudochilarning sport mashg`ulotlarini samarali tashkl etish va unda yuqori muvaffaqiyatlarga erishish ko`p jihatdan integral tayyorgarlikga bog`liqdir.

Integral tayyorgarlik - sportchining nazariy, texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarliklarini musobaqa faoliyatiga muvofiqlashtirish va amalga oshirishga qaratilgan bo`lib, sportchining barcha tayyorgarlik tomonlarining imkoniyatlarini musobaqa davomida maksimal darajada namoyon qilib, yuqori sport natijasiga erisha oladigan darajaga olib chiqishni ko`zda tutadi. Ushbu holat juz`iy ma`noda “sport formasi” deb ataladi va sport formasi holatining asosiy ko`rsatkichlaridan biri sportchining integral tayyorgarligining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Integral tayyorgarlikning bir qator yo`nalishlari bo`lib, soha olimlari quyidagi asosiy yo`nalishlarini tavsiflaganlar:

1) shaxsiy texnik va taktik harakatlarni takomillashtirish;

2) tananing funksional imkoniyatlarini chegara darajagacha safarbar qilish qobiliyatini takomillashtirish;

3) yuqori ish faoliyatini nisbiy yengillik davridan keyin yana maksimal harakat faoliyatini yaxshilash qobiliyatini takomillashtirish.

L.P. Matveyev, V.N. Platonov va boshqalar olimlar integral tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida turli xil darajadagi musobaqalar jarayonida bajariladigan tanlangan sport turning musobaqa mashqlari va tarkibi hamda xususiyatlariga ko`ra tananing funksional tizimini maksimal darajada musobaqalashish holatiga olib keladigan maxsus tayyorgarlik xarakteriga ega bo`lgan mashqlar tashkil etishini ta`kidlaganlar (4).

Kurashchilarni integral tayyorgarliklarini tarbiyalash musobaqa tizimi, sport mashg`uloti tizimi (kurashchilarning tayyorgarligining barcha tomonlarini tarbiyalash va rivojlatirish) va mashg`ulot hamda musobaqa faoliyatini samaradorligini oshiruvchi qo`shimcha omillardan (tiklanish, ish qobiliyatini oshirish tizimi va boshqalarni) foydalangan holda amalga oshiriladi.

Integral tayyorgarlikning vositalarini har bir aspektiga to`xtaladigan bo`lsak, sport musobaqasi kurashchilarning maxsus tayyorgarlikning eng muhim vositasi sifatida tayyorgarliklarining maqsad va yo'nalishini belgilab olishga hamda shug`ullanuvchilarning tayyorgarlik darajasini taqqoslash va oshirishga xizmat qiladi. Kurashchilarning integral tayyorgarligini rivojlanishida musobaqa asosiy ahamiyat kasb etib, aynan musobaqa jarayonida barcha tayyorgarliklarni o`zaro muvofiqlashuvi yuzaga keladi. Musobaqa faoliyati kurashchidan yuqori darajadagi jismoniy, texnik-taktik, psixologik va funksional tayyorgarliklarni birgalikda amalga oshirishni talab etishi natijasida tayyorgarliklarning o`zaro integratsiyalashuvi malakasi shakllanib boradi hamda bu tayyorgarlik tomonlarining rivojlanish darajasini baholab olishga, keyingi tayyorgarli reja-larini tuzishga, oldiga qo`ygan maqsadlarga erishishga imkoniyatlar tug`diradi. Dzyudochilarning integral tayyorgarligini tarbiyalashda mashg`ulot tizimi ham muhim vosita hisoblanib u mashqlar tizimi asosida qurilgan va kurash- chilarning eng yuqori natijalarga erishish uchun tayyor bo'lishiga olib keluvchi zarur qobiliyatlarni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan maxsus pedagogik jarayon hisoblanadi. (2.3) Mashg`ulot faoliyatini dzyudoshchilarning integral tayyorgarliklarini rivojlantirishdagi ahamiyati shundaki, bunda kurashchilar kurash texnikasi va taktikasini oqilona egallab olishga, jismoniy sifatlarni takomillashtirishga, tananing funksioal tizimlarining ishlash imkoniyatlarini oshirishga, shuningdek, shaxsiy (ayniqsa, ma`naviy-irodaviy) fazilatlarini tarbiyalashga, psixologik tayyorgarlikning zarur darajasiga erishishga, ayniqsa,

kurash mashg'ulotlarining amaliy tajribasi bilan bog'liq nazariy bilimlarni egallab olishga imkoniyatlar yaratiladi.

Dzyudochilar tayyorgarliklarini integratsiyalashuvida ko`p yillik sport mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonidagi o'quv jarayonining yaxlitligi ham muhim pedagogik ahamiyatga ega hisoblanadi va bu quyidagilarni ta`minlaydi:

– mashg`ulot jarayonida sportchilarni tayyorlashning turli tomonlarini o`zaro bog`liqligini: (UJT, MJT, texnik va taktik va jismoniy tayyorgarlik);

– mashg`ulot yuklamalarining parametrlari nisbatini (bajarilgan mashg`ulot ishlarining hajmi va shiddati);

– mashg`ulot jarayonining turli yo'nalishlarining muayyan ketma-ketligini (ayrim mashg'ulotlar, bosqichlar, davrlar, tsikllar).

Dzyudochiining integral tayyorgarligini rivojlanishida texnik va taktik tayyorgarliklarni samarali egallash muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

Kurash texnikasi dzyudoshchilarga mashg`ulot yoki musobaqa faoliyati elementlarining asosini o`rgatish jarayoni bilan tavsiflanadi va bu kurash texnikasining tanlangan variantlarini takomillashtirishni o'z ichiga olib, buning eng afzallik jihati kurashning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o`tkaziladigan musobaqa bahslarida kuch va energiyaning eng kam sarflanishi bilan hal qilishga yordam beradigan harakatlar, faoliyatlarlar va operatsiyalar tizimi rivojlantirishga yordam beradi. Dzyudoshchilarning texnik usullarni bajarish mahoratlarini yuqori darajada tarbiyalash kurashchilarni musobaqa jarayonidagi harakatlarini o`zaro integratsiyalashuvining asosiy vositasi hisoblanadi.

Dzyudochining taktik tayyorgarligi - bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanish malakasini shakllantirish bilan birga kurashchilarda taktika sohasidagi integratsiyalanishi uchun zarur bilimlarni egallash, kurash bellashuvlarini to'g'ri olib borishda ma'lum malaka hamda bilimlarni shakllantiradi hamda taktik mahoratni takomillashtiradi.

Dzyudoshchilarning taktik tayyorgarligi vositalariga qat'iy belgilangan harakat tuzilmasi va ularni namoyon qilish uchun zarur jismoniy sifatlar darajasi bilan ifodalanadigan kurashchilar harakatlari bilan ifodaladi. Dzyudoshchida taktik bilim, ko`nikma va malakalarini integratsiyalashuvi asosida unda hujum harakatlarini tayyorlash taktikasi, bellashuvni tuzish taktikasi va musobaqalarda qatnashish taktikasi ham samarali rivojlanadi.

Integral tayyorgarlikni rivojlanishi jismoniy tayyorgarlik bilan bevosita va bilvosita bog`liq. Har qanday harakat bajaruvchidan qaysi bir ma`noda jismoniy tayyorgarlikni talab qiladiki, bu sport tayyorgarligini integratsiyalashuvida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon dzyudoshchilarning umumiy va maxsus jismoniy qobiliyatlarini takomillashtirishda, tananing funktsionan imkoniyatlarini rivojlantirishda, yuqori ish qobiliyatini oshirishda, texnik-taktik mhoratlarni samarali egallab olishda katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik dzyudochchlarning jismoniy sifatlarini, tanani funktsioal imkoniyatlarini har tomonlama rivojlanishiga, mushaklarning ish faoliyati jarayonida ularning namoyon bo'lishini uyg'unlashuviga, maxsus jismoniy tayyorgarlik esa kurashchilarni yutuqlarga erishishni bevosita ta`minlaydigan jismoniy qobiliyatlarni, organlar va funktsional tizimlarning imkoniyatlarini rivojlananishiga xizmat qiladi.

Dzyudochilarning tayyorgarlik tomonlarini integratsiyalashuvida psixologik tayyorgarlik asosiy vosita sifatida kurashchilarda mashg`ulot va musobaqada qatnashish vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishni ta`minlashda, psixologik vazifalar, jarayonlar, holatlar va shaxsiy xususiyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: 1. Dzyudochilarning tayyorgarlik tomonlarini integratsiyalashuvi yuqori sport natijalariga erishishning muhim kompanenti hisoblanadi. Bunda musobaqa tizimi, mashg`ulot tizimi, mashg`ulot jarayonida dzyudochilarni tayyorlashning turli tomonlarini o`zaro bog`liqligiga erishish va musobaqa faoliyatining samaradorligini oshirishning qo'shimcha omillari (tiklanish va samaradorlikni oshirish tizimi va boshqalar) asosiy vosita hisoblanadi. 2.Dzyudoshchilar tayyorgarlik tomonlarining integratsiyalashuvini rivojlantirishda musobaqa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musobaqa dzyudochiga o`zining jismoniy, texnik, taktik, nazariy va psixologik tayyorgarliklari bo`yicha olgan bilim, ko`nikma va malakalarini birgalikda qo`llay olish va ularni uyg`unlashtirish imkonini yaratib beradi.

Adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Dzyudo sport turini yanada rivojlan- tirish chora-tadbirlati to`g`risida" PQ-286-son qarori. 2022-yil 20-iyun.
2. Kerimov F. A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati Darslik .Tosh. 2009-yil.
3. Boyto`rayev 3.E.I. Sambo kurashi nazariyasi va uslubiyati. O`quv qo`llanma, Tosh.2016-yil.
4.Невзоров В.М., Щулика Ю.А. Дзюдо (система и борьба) Учебник 2018 г.
Internet saytlari:
1. www.pedagog.uz
2.www.edu.uz
3. www.nadlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
4. http://ziyonet.uz — Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada dzyudochilarning sport tayyorgarlik tomonlarining integratsiyalashuvining maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari, uslublari yoritib berilgan. Shuningdek dzyudochilar tayyorgarligining integrratsiyalashuvida sport musobaqalarining tutgan o`rni, kurashchilarning texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarliklarning mazmuni tahlil qilib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны цель, задачи, содержание, средства и методы интеграции аспектов спортивной подготовки дзюдоистов. Также анализируется роль спортивных соревнований в интеграции подготовки дзюдоистов, содержание технической, тактической, физической и психологической подготовки борцов.

SUMMARY

This article describes the purpose, objectives, content, means and methods of integrating aspects of sports training for judokas. The role of sports competitions in the integration of training of judokas, the content of technical, tactical, physical and psychological training of wrestlers is also analyzed.

JISMONIY MADANIYAT TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI VA SHAKLLARI

Latipov R. I.

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya va sport, zamonaviy kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari va mutaxassisliklari, kasblarga bo'lgan munosabat, mustaqil faoliyat, ta'lim-tarbiya, amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyihasi.

Ключевые слова: физическое воспитание и спорт, современные профессии, высшие учебные заведения и специальности, отношение к профессиям, самостоятельная деятельность, воспитание и обучение, производственная практика, лабораторная работа, надзорная работа, самостоятельная работа, практика, курсовой проект.

Key words: physical education and sports, modern professions, higher educational institutions and specialties, attitude to professions, independent activity, education and training, practical training, laboratory work, supervisory work, independent work, practice, course project.

Butun mamlakat miqyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o'rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta e'tibor qaratildi. "Darhaqiqat, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va professianal ta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan ming-minglab o'quvchilar, katta hayotga kirib kelayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlarimiz misolida ana shunday orzu-intilishlarimiz bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz". Albatta ushbu natijalar birinchidan "Ta'lim to'g'risidagi" qonunni ta'lim jarayoniga chuqur tatbiq etilganligida, ikkinchidan, ta'lim-tarbiyaning uzviyligida, uchinchidan, "...o'zining bilim va tajribasi, iste'dod va mahorati, insoniy fazilatlarini, ko'z nuri va qalb qo'ri, butun borligini ayamasdan, ma'rifat yo'lida beminnat xizmat qiladigan ustoz va murabbiylarimizga" bog'liqdir. Bu sohada oliy ta'limi muassasalarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Chunki, jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari turli sohalariga keng ixtisoslik bo'yicha kasbiy bilimlarni puxta egallagan malakali mutaxassislarni tayyorlaydi.

Shuning uchun ham, bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxasislarini kasbiy madaniyatini shakllantirish oliy ta’lim muassasalari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mazkur jarayonni tashkil etish texnologiyasining yaratilishi talabalar tomonidan mutaxassislik va kasbiy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun imkon beradi. Zero, muayyan tizim asosida tashkil etilgan faoliyat ko‘zlangan maqsadga bosqichma-bosqich, mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni takomillashtirish, shuningdek, yo‘l qo‘yilayotgan xatolarni o‘z vaqtida anglash va ularni bartaraf etish asosida borishini ta’minlaydi.

Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya va sport mutaxasislarini-kadrlar tayyorlashda talabalarga kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiluvchi sifatlar va ularni tarkib toptirish shartlari, shuningdek, ushbu sifatlarning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyati xususida nazariy ma’lumotlar beriladi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxasislarini-pedagoglarga kasbiy madaniyatni shakllantirish, ularning mustahkamlanib borishini ta’minlash borasidagi shaxsiy ehtiyojni qaror toptirish, kasbiy jihatdan shakllanib borish yo‘lida mustaqil faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini, pedagogik faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvni yuzaga kelishini ta’minlash, jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi mutaxasisligi yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxasislarining pedagog shaxsi, uning faoliyati g‘oyalarini aks ettiruvchi ijobiy mazmundagi kasbiy madaniyatlarning qaror topishini ta’minlash kabi vazifalar amalga oshirilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish mashg‘ulotlar jarayonida amalga oshiriladi. Bunda har bir professor-o‘qituvchi talabalarni Davlat ta’limi standarti, oliy ta’lim muassasalari va mutaxassisliklari, kasblarga bo‘lgan munosabat, mustaqil faoliyat ko‘rsatish, oliy ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiya jarayonlari yuzasidan ta’lim olishga tayyorlashlari maqsadga muvofiqdir.

Ushbu mashg‘ulotlarni amalga oshirishda o‘quv materiallari asosiy qismlarga guruhlanadi. Qismlarga ajratish, alohida komponentlar bilan o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi. Ta’lim tamoyillarini bilishga e’tibor qaratiladi. Mashg‘ulot jarayonida talabalarga muhim vazifalar beriladi. Talaba muammoli vaziyatga kirib qolishi natijasida fikrlash xususiyatiga ega bo‘ladi. Ularni bog‘lash va shunga o‘xshash bir butun ishlar amalga oshiriladi. Tahlilga qarama-qarshi munosabatlar, fikrlar bildirish lozimligi tushuntiriladi. Shuningdek, umumlashtirish, taqqoslash, aniqlashtirish kabi yo‘nalishlar mohiyati talabalarga tavsiya etiladi.

O‘quv jarayonining samarali bo‘lishi o‘qituvchining faoliyatiga bog‘liqdir. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv fanlari materiallarni talabalarga etkazibgina qolmaydi, balki ularning mustaqil ravishda bilish faoliyatlarini tashkil etishi

lozim. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z fani bo‘yicha dars berishda optimal natijaga erishgan holda olib borishi talabalarda mustaqil ravishda o‘quv jarayonini amalga oshirish, ularni mustaqil ta’limga yo‘naltirishi, o‘quv jarayonini tashkil etishda va amalga oshirishda talabalarni ilmiy-tekshirish va amaliy faoliyat tajribasidan keng foydalanishi, ta’lim jarayonini didaktik va psixologik jihatdan asoslash manbalarini, usullarini topishga o‘rgatishi, talabalarda ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni har tomonlama shakllantirishga harakat qilishi, talabalarda kasbiy burch, javobgarlikni, intizomlilikni, tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi tavsiyalar asosida o‘qitish mazmunini komplektlash, jismoniy tarbiya va sport mutaxasislarini tayyorlashda aniq natijalarga erishiladi. Bunda talabalarning bilim egallashi, fanlarni o‘zlashtirishidagi qobiliyatlari namoyon bo‘ladi. Talabalarning dastur materiallarini o‘zlashtirish darajasi, bilimi, tajribasi oshib boradi.

Talaba kasbiy madaniyat haqidagi bilimlarni chuqur o‘rganadi. O‘z mutaxassisligining boshqa kasblardan farqi nimada ekanligi haqida umumiy tushunchaga ega bo‘ladi, axborot texnologiyalari orqali egallayotgan kasb faoliyati haqidagi bilimlarini o‘z sohasiga tatbiq qiladi.

Olib borilgan tajriba-sinov ishlarimiz ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish modelini yaratishga asos bo‘ladi.

Mazkur model talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning jarayonlarining dinamikasini aks ettirib, o‘z-o‘zini rivojlantirish, takomillashtirish va o‘z-o‘zini boshqarish kesimida amalga oshadi. Ayni paytda talabalarning kasbiy madaniyatining dinamikasi jadvalda ko‘rsatilganidek, ta’lim va amaliyot jarayonida jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarida mutaxassislikni shakllantirish metodlari, umummadaniyat imkoniyati darajasida oliy ta’lim muassasalarida mutaxassis shaxsini rivojlantirish texnologiyasi maqsadini belgilash yordamida amalga oshiriladi.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish metodlari va vositalari didaktik talabalarni loyihalash ishlariga tayyorlash usullarini belgilashga yordam beradi. Bu tizim mutaxassislik shaxsi madaniyatini shakllantirishni baholash mezonlari, ta’lim-tarbiyaviy sikl, ijtimoiy-kasbiy adabtatsiyani qamrab oladi. Mazkur shakldagi ko‘rsatkichlar, komponentlar oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish darajasiga mos keladi.

Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda umumta’lim maktablarida o‘tkaziladigan pedagogik amaliyot muhim ahamiyatga ega. Ushbu amaliyot jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun III kursda o‘tkazish rejalashtirilgan hamda nazariy va amaliy fanlarni to‘liq o‘zlashtirishga

mo‘ljallangan. Olti haftaga rejalashtirilgan pedagogik amaliyot jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishidagi maktablarda amalga oshiriladi.

Talaba umumta’lim maktablaridagi amaliyot davrida o‘quv-tarbiya jarayonida faol qatnashishi, ta’limning ilg‘or usullarini o‘rganishi, ularning keng yoyilishiga yordam berishi zarur.

Pedagogik amaliyot bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport sohasida o‘qish jarayonida gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy, umumkasbiy va maxsus fanlar, ularning jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi masalalarini echish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari chuqurlashtiriladi hamda mustahkamlanadi. Talabalar umumta’lim maktablarida belgilangan vazifalarni bajargan holda amaliy malakani egallaydilar. Kurs va BMI loyihasini bajarish uchun materiallar, ilk ma’lumotlarni to‘playdilar.

Ijtimoiy-siyosiy, tashkilotchilik va tarbiyaviy ishlarda tajriba orttiradilar. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar maktablar tizimi, tuzilishi, pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat usullari va vositalar bilan tanishadilar, amaliyot misolida pedagogikasiga doir materiallarni o‘rganadilar. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonlarni tahlil qiladilar, umumta’lim maktablarda mehnat va atrof-muhitni muhofaza qilish, bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlar bilan tanishadilar, yakka tartibdagi topshiriqlarni bajarish uchun ma’lumot yig‘adilar, umumta’lim maktab o‘quvchilari orasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilishni o‘rganadilar.

Pedagogik amaliyotning mazmuni shundaki, unda talaba umumta’lim maktab faoliyati bilan yaqindan tanishadi, ayrim bo‘limlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlaydi hamda pedagogik texnologiya haqidagi bilimlarni egallaydilar. Shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonning tuzilishi, tamoyillari (jarayonning pedagogik reglamenti), tadbirlar tafsilotlari bilan tanishadilar.

Pedagogik amaliyotning bosh maqsadi-talabalarni umumta’lim maktab bilan tanishtirish, nazariy bilimlarini mustahkamlash, ijodiy fikrlash, mavjud tajribalarni mustaqil tahlil etish ko‘nikmasini hosil qilishdir.

Talabalar umumta’lim maktablarda o‘quv jarayoni va tegishli hujjatlar bilan tanishishdan tashqari, o‘qituvchilar tarkibi, o‘qituvchi xodimlarining faoliyatlarini o‘rganadilar, maktab faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama etishda ishtirok etadilar. Umumta’lim maktabning axborot jamg‘armasi, o‘qitishning uslub va vositalarini tanlash, o‘quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta’minlovchi ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish, o‘zining kasbiy faoliyatini tashkiliy va moddiy texnik jihatdan ta’minlash, umumta’lim maktabning o‘qituvchilari tarkibi va ilmiy xodimlarining burchlari, o‘quv kurslari mazmuni, davlat ta’lim standartlari, ilmiy-

pedagogik jarayon, ma’naviy-ma’rifiy ishlar yuzasidan muayyan ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Ushbu pedagogik amaliyot talabalarda ta’lim-tarbiya jarayonining birligi, davlat ta’lim standartlari, umumta’lim maktabning ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlari, ma’naviy-ma’rifiy va sport ishlari hamda jamoatchilik tashkilotlariga rahbarlik qilish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish kabi kasbiy bilimlarni shakllantiradi.

Talabalar pedagogik amaliyotda ma’ruza, maslahat, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi, nazorat ishi, mustaqil ish, amaliyot, kurs loyihasi (kurs ishi), bitiruv malakaviy ishi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar. O‘quv jarayonini tashkil etishda mustaqil ta’lim shakllari, uslub va vositalari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish uslubiyoti ishlab chiqiladi.

Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi mashg‘ulotlari va amaliyotda egallangan bilimlar mutaxassislarni tayyorlashda, jamiyat istiqbolini yuksaltirishda asosiy negiz hisoblanadi. Chunki, kasbiy madaniyatga ega bo‘lgan mutaxassislar, jamiyatning barcha sohalarida mustaqillikka to‘la erishish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni to‘la tiklash, O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish kabi vazifalarni amalga oshirishda faol ishtirok etadilar. Albatta, bularni amalga oshirishda talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki kasbiy madaniyat g‘oyatda chuqur va keng qamrovli tushuncha hisoblanadi.

Yetuk kadrlarni tayyorlash jamiyat, davlat va millat bilan uzviy aloqador bo‘lib, shaxs kamolotining asosini tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Ochilova N.M. Talabalarda pedagog odobi fazilatini shakllantirish: P.f.n. olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T., 2007.

2. Raximov B.X. Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy-madaniy munosabatlarning shakllanishi. P.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss... Avtoreferati. – T., 2002.

3. Толипов Ў.Қ. Педагогические технологии развития общетрудовых и профессионалных умений и навыков в системе высшего педагогического образования: Автореферат. диссертатция Д.п.н. -Т. 2004.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishi talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishda lozim bo‘lgan tashkiliy – metodik ishlarning uslubiy jihatlari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны методические аспекты организационно-методической работы, необходимой для формирования профессиональной культуры студентов физического культурного образования.

SUMMARY

This article describes the methodological aspects of organizational and methodological work necessary for the formation of professional culture of students of physical cultural education.

MUSTAQIL TA'LIM ISHLARINI TASHKIL ETISH ORQALI JISMONIY MADANIYAT TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI KASBIY MADANIYATINI SHAKLLASHTIRISH

Latipov R. I.

Tayanch so'zlar: bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxasislari, mustaqil ta'lim, talabaning kasbiy qobiliyati, bilim, o'quv jarayoni, ilmiy-tadqiqot ishlar.

Ключевые слова: будущие специалисты по физическому воспитанию и спорту, самостоятельное образование, профессиональные способности студента, знания, учебный процесс, научно-исследовательская работа.

Key words: future specialists in physical education and sports, independent education, professional abilities of the student, knowledge, educational process, research work.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega" deb ta'kidlab o'tgandi.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohatlarimizning samaradorligi avalo xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urf-odatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji, eng muhimi, jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog'liqdir".

Darhaqiqat, istiqlol yillarida iste'dodli yoshlarimizning, yigit-qizlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk insonlar bo'lib yetishishi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratildi. Ularning mamlakatimiz va chet ellardagi nufuzli ilmiy markazlarda ta'lim olish uchun mablag'lar ajratildi.

Shu boisdan ham, o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, yon-atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil yondosha oladigan, ayni paytda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash hamda talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish vazifalari istiqlol yillarida dolzarb muammoga aylandi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish darajasi hayotning turli bosqichlarida amalga oshiriladi. Kasbiy madaniyatni shakllantirish u yashayotgan, ta'lim olayotgan va mehnat qilayotgan muhitga, uning shaxsiy sifatlari, zakovati, g'ayrati, fe'li, ruhiy va jismoniy holatiga, qolaversa, nasl-nasabiga bog'liq. Salbiy holatlar yuzaga kelganda

ayrim talabalar o‘zini-o‘zi boshqara olmaydi, ba’zilari esa oddiy hollarda o‘zini yo‘qotib qo‘yadi. Talaba o‘zining fikrlari, xulqiga doimo tanqidiy yondashishi, hayot talablari va o‘zining kasbiy imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

Talabaning kasbiy madaniyati ta’lim jarayoni davomida ham, ta’limdan tashqari vaqtda ham shakllanib boradi. Talabalarda kasbiy sifatlarni kamol topishida professor-o‘qituvchilarning ta’siri nihoyatda katta. Har bir talaba o‘z ustida bilim darajasini yuksaltirish ustida tinmay ishlashi zarur.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish, mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotda qo‘llash ko‘nikmalarini hosil qilish, axloq-odobni shakllantirish o‘quvchilik davrida kamol topadi.

Oliy maktab faoliyatining asosiy maqsadi-ta’lim yo‘nalishidagi qonuniyatlarni talaba shaxsi ehtiyojiga xizmat qildirishdir. O‘quv jarayonida sodir bo‘ladigan munosabatlarni ochib berish, ta’lim tizimi va asosiy tamoyillarni ishlab chiqish oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining vazifalaridir.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy madaniyatini shakllantirishda o‘quv jarayoni muhim o‘rin tutadi. Chunki, talabaning kasbiy qobiliyati va bilimlari o‘quv jarayonida shakllanadi.

Talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirish aniq bir maqsadga qaratilgan pedagogik jamoaning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati mahsulidir. Shuning uchun ham talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda har bir professor-o‘qituvchini o‘quv-metodik, ilmiy va ommaviy adabiyotlarga, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari hamda Oliy Majlis qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va Farmoyishlari, «Oliy ta’lim to‘g‘risida»gi Nizom hamda boshqa me’yoriy hujjatlarga asoslanishi muhimdir. Chunki ushbu hujjatlarda shaxsning intellektual, madaniy va ma’naviy-ahloqiy kamol topishiga qo‘yilgan talablar o‘z ifodasini topgan. Ularda oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ma’lumot olish, har tomonlama rivojlangan shaxsni, mustaqil davlat fuqarosini, o‘z Vatani fidoyisi, xalq, jamiyat va oila oldidagi o‘z mas’uliyatini tushungan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, xalq an’analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi etib shakllantirish vazifalari ko‘rsatilgan.Shunday ekan, har bir talaba fan, texnika va madaniyatning zamonaviy taraqqiyoti darajasiga mos keluvchi bilimlarni olishi, oliy ta’lim kutubxonasi, axborot jamg‘armasi, o‘kuv, ilmiy, tibbiy va boshqa bo‘g‘inlarning xizmatidan to‘liq foydalanishi, ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiyalar, simpoziumlarda ishtirok etishi, o‘z ishlarini nashrga taqdim etishi, tanlangan yo‘nalish (mutaxassislik) bo‘yicha oliy ta’lim muassasasida o‘qitiladigan fanlarni o‘zlashtirishi, ixtisoslik bo‘yicha ta’lim olishi kasbiy madaniyatga ega bo‘lishning asosini tashkil etadi.

Talabalar o‘qish vaqtida o‘quv jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ishlarda ishtirok etishi, malakaviy bitiruv ishlari yo‘nalishlariga mos ravishda pedagogik bilimlarga ega bo‘lishlari shart. Albatta bunda kasbiy ta’lim dasturlari va o‘quv rejasida nazarda tutilgan bilimlarni egallashlari, topshiriqlarning barcha turlarini belgilangan

muddatda bajarishlari zarurligi haqidagi burch va huquqlarga to‘la amal qilishlari lozim.

Shuni aytish kerakki, mustaqil bilim egallash ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatida chuqur o‘rin egallagan. Abu Nasr Forobiy., Mahmud Qoshg‘ariy., Abu Rayhon Beruniy., Ibn Sino., Abdurahmon Jomiy., Mirzo Ulug‘bek., Alisher Navoiy, kabi buyuk allomalar ilm tufayli o‘z davrining nufuzli kishilari darajasiga erishganlar.

Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy xalqni ilm olishga chaqirib, jumladan, shunday degan edi: «Ilmlar ko‘pdir, ular zamon iqboli bo‘lib, turli fikr va xotiralar ularga qo‘shilib borsa ko‘payadi, odamlarning ilmlarga rag‘bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o‘sha iqbolning belgisidir». Darhaqiqat, ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bo‘lib, uning fikrini o‘tkir qiladi, madaniyat-ma’rifat dunyosiga olib kiradi.

Demak, mustaqil ta’lim har bir kishining dunyoni bilishida, shaxs ma’naviyatini shakllantirishda, fundamental fanlarni chuqur o‘rganishda, ta’limni davom ettirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Oliy ta’lim mazmunida bo‘lajak mutaxassislarning kasbi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy dunyosini, milliy istiqlol g‘oyasi, mafkurasi, matematik va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy, maxsus fanlar haqidagi bilimlarini yangilash, chuqurlashtirish, kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Mustaqil ta’lim-bu umr bo‘yi yangiliklarni o‘qib-o‘rganish, bilim orttirish, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yanada yuqoriroq samaradorlikka erishish uchun ijodiy mehnat faoliyatiga erishish demakdir. Mustaqil ta’lim talabaning o‘z mutaxassisligi yuzasidan dunyoqarashini kengaytiradi, pedagogika, psixologiya, ma’naviyat, mafkura sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini yangilaydi. Bu esa ilg‘or tajribani o‘rganish va takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Mustaqil ta’limga ega bo‘lgan, malaka va ko‘nikmasi shakllangan talabagina fan asoslarini puxta o‘zlashtirishi mumkin. Talabalarda mustaqil ta’lim olishga qiziqish uyg‘otish, o‘quv-biluv ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda mutaxassislik fanlarini amaliy faoliyatga yo‘llovchi mustaqil ishlar katta imkoniyatlarga ega.

Mustaqil ta’lim egallashning turli bosqichlarida mustaqil ishlarning turli shakllaridan foydalanish, shu jarayonda talabalarning u yoki bu kasbga bo‘lgan qiziqishini oshirish usullari, ularda kasbiy madaniyatni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Lekin, shuni aytish kerakki, Jismoniy tarbiya va sport ta’limi yo‘nalishlarida mustaqil ta’limni tashkil etish usullari, ularning ta’lim tizimidagi ilmiy, amaliy ahamiyati, talabalarning o‘quv malakasini shakllantirishdagi o‘rni xususida adabiyotlar yetarli darajada emas.

Mustaqil ta’lim jarayoni talaba shaxsiga hurmat, uning imkoniyati va qobiliyatiga ishonch, ajdodlar ma’naviy merosiga qiziqish, o‘zaro hurmat va uyushqoqlikni shakllantiradi.

Talaba mustaqil ta’limga ega bo‘lishi natijasida o‘zini ruhan erkin va hadiksiz seza boshlaydi, unda ruhiy erkinlik kamol topadi. Mustaqil ta’limga ega bo‘lish

o‘qituvchi va talaba orasidagi erkin, madaniy muloqot, haqgo‘ylik va tanqidiy fikrni rivojlantiradi. Ta’lim jarayonida talabalar keng qamrovli axborotlarni o‘zaro ayr boshlaydilar, natijada mustaqil intellekt maydoni vujudga keladi. Mustaqil ta’limga ega bo‘lish talabaning fanlardan o‘zlashtirishining yuqori darajasini ta’minlash bilan birga, kursdoshlar orasida hamkorlik, do‘stona munosabat, jonli muloqot o‘rnatilishiga yordam beradi. Mustaqil ta’lim talaba shaxsiga o‘z huquqlariga ega bo‘lish imkoniyatlarini izlab topish, rivojlantirish, aqliy va texnik salohiyatini namoyon qila bilish, jismoniy va ma’naviy rivojlanish uchun foydali bo‘lgan sog‘lom muhitni tarkib toptiradi.

Talaba-yoshlar tabiiy, ijtimoiy va gumanitar, mutaxassislik fanlarini chuqur o‘rganish yo‘li bilan tabiat, jamiyat va tafakkurga oid bilimlarning umumiy asoslarini o‘zlashtiradi.

Mustaqil ta’limni egallash natijasida talabaning ta’limdagi faolligi rivojlanadi. Shuni aytish kerakki, har qanday faollik zaminida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, ijtimoiy va ma’naviy hayotda faol ishtirok etish, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko‘rsatish jarayonida talabalarning mustaqil faolligi namoyon bo‘ladi.

Buning uchun talabalar texnik, ilmiy-ommabop, siyosiy, pedagogik, o‘quv, badiiy va boshqa adabiyotlarni mustaqil ravishda o‘qib o‘rganishi, yangi axborot texnologiyalaridan, internetdan foydalanishi, dars mashg‘ulotlarida ijodiy fikrlashi, didaktik o‘yinlar, munozaralarda ishtirok etishi, ayniqsa, ko‘rgazmali qurollar tayyorlashi, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganishi, ularni amaliyotda qo‘llashi, an’anaviy va ilmiy-amaliy anjumanlarida, seminarlarida ishtirok etishi, o‘z ish tajribalarini ommalashtirishi, fikr vamulohazalari, takliflari, tavsiyalari bilan matbuotda, radio, televidenieda ishtirok etishi zarur.

Mustaqil ta’limni mustahkamlashning quyidagi usullari mavjud: elektron darsliklar, multimedialar yaratish; axborotni so‘z orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish; axborotlarni ko‘rgazmali uzatish orqali qabul qilish; axborotlarni amaliy mashg‘ulotlar orqali berish; nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish; savol-javob, anketa tuzish; adabiyot, gazeta, jurnallarni tahlil etish va boshqalar.

Bu usullarni amalga oshirishda har bir o‘qituvchi talabalarning o‘quv fanlarini o‘zlashtirishda bir qancha masalalar va muammolar bo‘yicha mustaqil ta’lim olishlarini nazarda tutishi zarur.

Ta’lim-tarbiya, fan va ilmiy muassasalar, madaniyat va madaniy-ma’rifiy muassasalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar, milliy urf-odat, marosim va bayramlar, oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqalar mustaqil ta’limni shakllantirishning vositalari hisoblanadi.

Mustaqil ta’lim olish, mustaqil ravishda o‘qish va o‘rganish mustaqil fikrlash bilan uzviy bog‘liqdir. Mustaqil fikrlash orqali kishida kelajakka intilish, uni tasavvur qilish va inson sifatida istiqbolga ishonch xususiyatlari kamol topadi. Mustaqil ta’lim jarayonida har bir talabaning kasbiy va hayotiy ko‘nikmalarini egallash imkoniyati kengayadi.

Mustaqil ta’lim mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi, uning mazmunida o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq o‘z maqsadiga ega bo‘lgan insonlarni tarbiyalash imkoni yaratiladi va ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Har bir shaxs o‘z aqli, tafakkuri mehnati, mas’uliyati bilan ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi. Ularni o‘zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlaridan chalg‘itib bo‘lmaydi.

Talabalar kasbiy madaniyatini shakllantirishda ilg‘or pedagogik va informatsion texnologiyalar, ta’limni individuallashtirish va mustaqil ta’lim olish haqidagi bilimlarga ega bo‘lish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham talabalarda kasbiy madaniyatni shakllantirishda davlat ta’lim standartlarida belgilangan kasbiy ta’lim yo‘nalishidagi ixtisoslik fanlarining laboratoriya va amaliyot mashg‘ulotlarini bajarish uchun o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalariga asoslangan zamonaviy asbob-uskunalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda talabalar o‘z sog‘alari bo‘yicha maktabda o‘qitiladigan mutaxassislik fanlariga doir laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarini amalga oshiradilar.

Pedagogik texnologiyaning xususiyatlari-ta’lim jarayonini oldindan loyihalash, tizimli yondashuv asosida talabaning o‘qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta’lim jarayoni loyihasini tuzishdir.

Ta’lim maqsadi real, aniq diagnostik bo‘lishi va talabaning o‘zlashtirish sifatini baholash; ta’lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o‘zaro aloqada bo‘lishi; ta’limni optimallashtirish va boshqalar haqida mu’lumotga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, “Pedagogik texnologiya-ta’lim usuli, ma’lum ma’noda ta’lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui, o‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlash, ta’lim shakli, pedagogik texnologiyaga xosligi, ta’lim-tarbiyaning ob’ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o‘quv jarayonlari, ta’lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimi ekanligi haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradilar”. Natijada talabalarda o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalashtirish, ta’lim jarayonining asosiy qismlar, ta’lim maqsadlarini belgilash, umumiy maqsadni oydinlashtirish va o‘quv maqsadlariga aylantirish, o‘quv amallari majmui; ta’lim natijasini baholash, o‘quv jarayonida modul xarakteri, ta’limni blok (qism)larga ajratish kabilar bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi.

Talabalar pedagogik texnologiya monitoringi va o‘qitish piramidasida diagnostikaning asosiy vazifalari ta’lim jarayonida normadan chetga chiqish holatlarini o‘z vaqtida aniqlab, tuzatishini nazarda tutish, har bir talabaning rivojlanishi tendansiyalarini oldindan aniqlash va bashorat qilish, ta’limni birlashtiruvchi uzluksiz jarayonlar bilan tanishadilar.

Ta’lim maqsadlariga erishish usullarida o‘quv materiallarini kichik-kichik bo‘laklarga ajratib o‘rganish, talaba javobini etalon bilan taqqoslab ko‘rish; o‘qish tezligini individuallashtirish; sekin-asta murakkablashtira borish; bilimlarni tabaqalashtirib mustahkamlash; o‘qishning har bir bo‘lagini turli mazmunda bir

necha marta takrorlash; yaxshi tanlangan misollar bilan namoyish etish malakalarini egallaydilar.

Dars jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng joriy etish, yoshlarni integrativ bilimlar tizimi bilan qurollantirish, ularda ilmiy-ijodiy dunyoqarashni shakllantirish kabi asosiy vazifalar ishlab chiqiladi. Ularning metodikasi yaratiladi.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integrallashuvi jarayonida talabalarda ilmiy-ijodiy yondashuv va tadqiqot usulini qo'llash, axborotlarni qayta ishlash texnologiyasidan foydalanish orqali ijobiy sifat o'zgarishi va yuqori samaradorlikka erishish amalga oshiriladi.

Mustaqil ta'lim asosida talabalar fan, texnika va madaniyatning muhim yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajarishda ishtirok etadilar. Shuningdek, davlat byudjeti va shartnoma asosida vazirliklar, idoralar, korxonalar, birlashmalar, shu jumladan, xorijiy tashkilotlarning ilmiy buyurtmalarida qatnashadilar. Bunda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari talabalarga jismoniy tarbiya va sport fanlarni o'qitish uslubiyati, pedagogika va psixologiya, iqtisodiyot nazariyasi, kabi fanlardan chuqur bilim berishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki talabalar kafedra nomidan ish olib boradi, barcha idoralar, muassasalar, korxonalarda uning vakili sifatida qatnashadi hamda kafedra ilmiy ishlarida ishtirok etadi.

Talabalarda mustaqil ta'limni shakllantirishdaiqtisodiy savodxonlikni oshirish muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxasislari umumta'lim maktablarda ta'lim faoliyatini moliyaviy ta'minlash davlat grantlari asosida mutaxassislar tayyorlash uchun ajratilgan mablag'lar, davlat tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar haqida bilimlarga ega bo'lish muhimdir. Chunki umumta'lim maktablarda asosiy faoliyatiga zarar yetmaydigan tartibda ta'lim va boshqa sohalarda pullik xizmatni amalga oshirish mumkin. Shuning uchun ham talabalar umumta'lim maktablarda tadbirkorlik faoliyati, xo'jalik shirkatlari, pullik ta'lim xizmatlari haqida bilimga ega bo'lishlari va shartnomalar tuzish, majburiyatlar va boshqa shartlarni belgilash bo'yicha masalalarni mustaqil hal qilishga o'rganishlari iqtisodiy savodxonlikni yanada takomillashtiradi.

Mustaqil ta'lim jamiyat kuch-qudratini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har qaysi talabada muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan bilimlar mustaqil ravishda egallansa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi.

Oliy ta'lim muassasasi talabasining mustaqil ta'lim egallashi va amaliy faoliyatini oqilona samarali tashkil etishi mustaqil fikr yuritishning natijasi hisoblanadi. Talabaning mustaqil fikrlashi mustaqil mutolaa vositalari, shakllari, usullari orqali amalga oshirilib, uning natijasida narsa va hodisalarning mohiyati, mazmunini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu har bir talabaga xos bo'lgan ijtimoiy va ijodiy jarayondir. Fikrlash va aqliy faoliyat yangilik yaratadi, yangi g'oyalarni, maqsadlarni

vujudga keltiradi. Mustaqil fikrlash natijasida talabalarda aniq maqsadga qaratilgan ijod qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki ijodkorlik, birinchidan, mustaqil ta'limning natijasi hisoblansa, ikkinchidan, bu narsa orqali talabalarda sinchkovlik tasavvur, bilimga va kasbga qiziqish, irodalilik, tanqidiy fikr, bilim olishga ishtiyoq, aqliy tayyorgarlik, xususiyatlari shakllanadi. Ularda tanlangan kasbini chuqur o'rganish, muhandislik va pedagogika sohasidagi nazariy dunyokarashi, bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirish, texnik ijodkorlikni o'stirish, mustaqil ishlash, ixtirochilik faoliyatida ishtirok etish kabilarga bo'lgan intilishlari namoyon bo'ladi.

Demak, ijodiylik va faollik talaba kasbiy bilimini mustahkamlashda, mustaqil ta'limni rivojlantirishda muhim omillardan hisoblanadi.

Talabalar bilan ilmiy-ijodiy ishlarni amalga oshirish jarayonida ularni uslubiy, ilmiy faoliyatga jalb etish yuzasidan maqsadli dastur tuziladi, ilg'or ish tajribalari o'rganiladi. Innovatsion texnologiya, kompyuter texnologiyasi va video, audio texnikalari qo'llaniladi.

Talabalarda ilmiy-ijodiy ishlarga oid bilimlarni o'zlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratiladi, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot ishlarga jalb etiladi. "Eng yaxshi malakaviy bitiruv ishi", "Eng yaxshi magistrlik dissertatsiyasi" uchun tanlovlar o'tkaziladi va g'oliblar aniqlanadi. Fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integrallashuv jarayonida talabalarning ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish markazi tashkil etiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekicton Recpublikaci Vazirlar Mahkamacining 2020 yil 14 dekabrdagi 781-con "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dacturini tacdiqlash to'g'ricida" qarori.

2. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Ped.fan.dok. diss... avtorefer. – T.: 2006.

3. Maxmutova G.I. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari: Ped.fan.nom. ilmiy daraja olish uchun yozilgan dissertatsiya Avtoreferati.-T.,2004.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etish orqali jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy madaniyatini shakllashtirish lozim bo'lgan tashkiliy – metodik ishlarning uslubiy jihatlari bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статей описаны методические аспекты организационно-методической работы, которые следует использовать для формирования профессиональной культуры студентов физического культурного образования путем организации самостоятельной воспитательной работы.

SUMMARY

This article describes the methodological aspects of organizational and methodological work that should be used to form the professional culture of students of physical cultural education by organizing independent educational work.

JISMONIY TARBIYA DARSLARI VA SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA O‘QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASH

Djoldasov R.F.
Ajiniyaz nomidagi Nukus TDRI, tayanch doktaranti

Tayanch so’zlar: estetik tarbiya, jismoniy tarbiya darslari, murakkablik, sinfdan tashqari ishlar, o’quvchilar, jismoniy qobiliyatlar.

Ключевые слова: эстетическое воспитание, занятия по физической культуре, утонченность, внеурочная деятельность, студенты, физические способности.

Key words: aesthetic education, physical education classes, sophistication, extracurricular activities, students, physical abilities.

Kirish. So‘nggi yillar mobaynida mamlakatimizda yoshlarimizning jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlari bilan muntazam shug‘ullanib borishlari uchun ularning qiziqish va intilishlarini inobatga olgan holda keng ko‘lamli sharoitlar, imkoniyatlar yaratildi.

Ayniqsa, yoshlarimizning jismoniy tarbiya fanini qiziqib o‘rganishi, sport bilan musobaqalari orqali o‘zining mustahkam irodasi, tenglashadigan kuchini mustahkamlash, jasurlik, insonparvarlik, ona Vatanga mehr, muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini kamol toptirish ishlarini amalga oshirishda ko‘plab ishlar tashkil qilinmoqda. Binobarin, bunday ishlar o‘quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishini kundalik turmush tarziga aylantirishiga yordam beradi.

Muntazam ravishda sport turlari bilan shug‘ullanib borish, shug‘ullanish jarayonida e’tiborli bo‘lish yuzasidan kerakli ma’lumotlarni o‘rgatish, o‘quvchi yoshlarda sport bo‘yicha mukammal bilimlar olishi uchun sharoit yaratish, darsdan keyin bo‘sh vaqtlarini unumli o‘tkazishga sarflash va foydali tashkil qilishni o‘rgatish, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining oldida turgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Estetik tarbiya (lotincha “estezio” “go‘zallikni his qilaman”) o‘quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go‘zalliklarini anglash, idrok etish va to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otish, ularning badiiy didini o‘stirish, go‘zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon[2].

Estetik madaniyat. Go‘zallikni his etish, undan zavqlanish, mavjud go‘zalliklarni asrash va boyitish yo‘lida o‘zlashtirilgan bilim hamda amalga oshiriladigan estetik faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko‘rsatkichi.

Jismoniy tarbiya. O‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Muhokama va natijalar. Yoshlarni sog‘lom bo‘lib voyaga etishlarini ta’minlash masalasi xalq pedagogikasi, og‘zaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh g‘oyalaridan biri bo‘lib kelgan. “Alpomish” dostonida Hakimbek (Alpomish)ning jismoniy mashq qilishi, tabiat qo‘ynida voyaga etganligi, uning alpligi quyidagicha tasvirlanadi: “Alpinboyning bobosidan qolgan o‘n to‘rt botmon birinchdan bo‘lgan parli yoyi bor edi. SHunda etti yashar bola Hakimbek shul o‘n to‘rt botmon yoyni qo‘lga ushlab ko‘tarib tortdi, tortib qo‘yib yubordi. Yoyning o‘qi yashinday bo‘lib ketdi. Asqar tog‘ining katta cho‘qqilarini yulib ketdi, ovozasi olamga yoyildi. SHunda barcha xaloyiq yig‘ilib kelib aytdi: “Dunyoda bir kam to‘qson alp o‘tdi, alplarning boshlig‘i Rustami doston, oxiri bu Alpomish alp bo‘lsin”.

Abu Ali ibn Sino ham insonga xos bo‘lgan ijobiy fazilatlaridan sanab o‘tar ekan, quyidagilarga alohida urg‘u beradi:

1. Jasurlik – biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to‘xtatib turuvchi quvvat.

2. Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.

3. Ziyraklik – sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushuntirishga yordam beruvchi quvvat.

Alisher Navoiy “Farhod va SHirin” dostonida Farhodning jismoniy qobiliyatlarini alohida ko‘rsatib o‘tadi. Dostonda ta’riflanishicha, Farhod aqliy kamolotga erishish bilangina cheklanib qolmay, jismoniy va harbiy mashqlar yordamida chiniqadi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg‘ulotiga aylangan. Mutafakkirning fikriga ko‘ra, Farhod 10 nafar 20 yoshli yigitning quvvatiga ega bo‘lgan.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog‘lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma’rifatga ega bo‘lmoq uchun badan-tarbiya bilan shug‘ullanishi zarur: “Badanning salomat va quvvatli bo‘lmog‘i insonga eng kerakli narsadir. CHunku o‘qimoq, o‘qitmoq, o‘rganmoq va o‘rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozim[2].

Sog‘ badanga ega bo‘lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo‘l qo‘yurlar. ... Badan tarbiyasini fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa,

yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo‘yib asatrini yuvib ovora bo‘lmak kabidirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog‘lom bir vujud kerakdur”[1].

Jismoniy tarbiya kishilarga kuchli ta’sir ko‘rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish kuch-quvvatini saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo‘lib xizmat qiladi[4].

O‘zbekiston Respublikasida sport, shu jumladan, bolalar sportini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kopleks dasturi ishlab chiqildi. Sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha joylarda ommaviy sport bayramlari, sport musobaqalarning tashkil etilishi ommaviy tus oldi[5].

Yangi turdagi o‘quv muassasalarda ham o‘quvchilar o‘rtasida jismoniy tarbiyani samarali tashkil etilishiga e’tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya mazmuni o‘quvchilarning harbiy chaqiriqqacha tayyorgarligiga erishish bilan uzviy bog‘liqdir.

Jismoniy madaniyatning estetik qadriyatlari tana go‘zalligining tashqi ko‘rinishlari yoki harakatlarning go‘zalligi bilan chegaralanib qolmasligi juda muhimdir. Bu qadriyatlar, eng muhimi, jismoniy madaniyat to‘liq sog‘likka, jismoniy qobiliyatlarni har tomonlama rivojlantirishga olib keladi va shu bilan jismoniy barkamollik idealiga erishishga yordam beradi.

Estetik tarbiya vazifalari quyidagilardan iboratdir:

Asosiy vazifalar:

1. O‘quvchilarga estetik bilimlarni berish.

2. Ularda estetik tushunchalarni hosil qilish.

3. O‘quvchilarda estetik his-tuyg‘u, estetik ong, estetik did va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik vositalar xilma xildir. Tabiat mehnat, insoniy munosabatlar, san’at estetik tarbiya vositasidir. Tabiat estetik tarbiyaning muhim manbaidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod estetik tuyg‘ularining rivojlanishiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, yurish, tabiatga bag‘ishlangan san’at asarlarini o‘rganish mazkur yo‘nalishdagi an’anaviy ishdir. Biroq tabiat ichida bo‘lishning o‘zi etarli emas. Tabiatdagi go‘zallikni ko‘ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni sport turizmi, sayr, ekskursiya hamda maktab uchastkasida ishlash paytida o‘quvchilar e’tiborini tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratishi, bolalarga nafosat,

tabiatni sevish ehtiyojigina bo‘lmay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini tushuntirib borishi lozim.

Estetik va shu bilan birga axloqiy tarbiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri inson munosabatlari, harakatlari, xulq-atvori go‘zalligini tarbiyalashdan iborat. Salomatlikning poydevori bolalikdan qo‘yiladi. Jismoniy tarbiya qanchalik to‘g‘ri tashkil etilganiga, uning farovonligi, kayfiyati, o‘quv muvaffaqiyati ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

Bu bilimli shaxsning mehnat imkoniyatlarini o‘sishiga yordam beradi, uning axloqiy va irodaviy fazilatlarini takomillashtirish, barkamol rivojlanish vositasidir. Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadlari - to‘g‘ri jismoniy rivojlanish, vosita ko‘nikmalarini va vestibulyar apparatlarni o‘rgatish, turli xil qattiqlashuv protseduralari, insonning ish faoliyatini oshiradigan iroda va xarakterni tarbiyalash.

Jismoniy tarbiya vositalari majmuasiga to‘g‘ri kun tartibi, ratsional ovqatlanish, madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni singdirish, jismoniy tarbiya va sport kiradi. Estetik tarbiya ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, hayot va san’atdagi go‘zallikni tushunish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirishga, bolaning ma’naviy dunyosini boyitishga qaratilgan.

Bundan tashqari, uni tabiatdagi, ijtimoiy hayotdagi, san’atdagi go‘zalliklarni payqashga o‘rgatish, o‘quvchiga to‘g‘ri estetik mulohazalar va baholashlarni rivojlantirishga yordam berish, shuningdek, qobiliyatlarni rivojlantirish, bolani badiiy ijod bilan tanishtirish kerak. Bolaning estetik didini tarbiyalashda uning birinchi o‘yinchoqlari ayniqsa muhim rol o‘ynaydi.

Ular hayotni o‘rganishga o‘rgatadi va birinchi estetik taassurotlarning manbai hisoblanadi. Mehnatni estetik jihatdan tashkil etish, ta’lim muassasalaridagi xona, sinf va auditoriyalarning jozibali dizayni, kiyim uslubida namoyon bo‘ladigan badiiy did va hokazolar tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Estetik tarbiyada tabiatga muhabbat tuyg‘usini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Estetik jihatdan rivojlangan shaxs nafaqat go‘zallikdan zavqlanib, go‘zallik qonunlari asosida yaratishga, balki xunuk, asossiz va yolg‘onning barcha ko‘rinishlariga qarshi faol kurasha oladi.

Sport amaliyotida axloqiy va estetik jihatdan nomaqbul harakat va xatti-harakatlarni yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan holatlar inkor etilmaydi: qo‘pollik, xudbinlik, bema’nilik va boshqalar).

Sinfdan tashqari vaqtda mashg‘ulotlar va musobaqalar o‘tkaziladigan tabiatning go‘zalligi ham estetik ahamiyatga ega. O‘quvchilar e’tiborini tabiatning estetik xususiyatlariga qaratish orqali biz o‘quvchilarimizning estetik moyilligini rivojlantirishga hissa qo‘shamiz, ularni atrofdagi dunyoda go‘zallikni ko‘rishga o‘rgatamiz. Sport inshootlari, jihozlari, inventarlarining estetik jihatdan barqaror

shakllari, gigiyena talablariga muvofiqligi ham estetik tarbiyaga yordam beradi. Afsuski, barcha o‘quvchilar gigiyena va sanitariya qoidalariga amal qilmaydi.

Ba’zi o‘quvchilar jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga sport formasisiz kelib, shu orqali xavfsizlik qoidalari, shaxsiy va jamoat gigiyena qoidalarini buzmoqda.

Estetik tarbiya manfaati yo‘lida o‘z ishimda vizual ta’sirga asoslangan usullardan foydalanish mumkin. Jismoniy mashqlarni ko‘rsatish usullari, harakatlarni nafaqat texnik jihatdan to‘g‘ri, balki oson va oson bajarilgan taqdirda estetik ta’sir kuchiga ega bo‘ladi. Shu maqsadda ko‘rgazmali qurollardan, eng yaxshi o‘quvchilar tomonidan bajariladigan mashqlardan, shuningdek, yuqori saviyali sportchilar tomonidan ko‘rsatilgan mahorat darslaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Go‘zallikka intilishlarni uyg‘otishda vizual qo‘zg‘alishning roli yaxshi ma’lum. Maktab rekordlari jadvali, eng yaxshi sportchilar va maktab rekordchilarining foto- suratlari, maktab birinchiligining yig‘indisi bayonnomasi, sport lahzalari aks ettirilgan fotosuratlar - bularning barchasi o‘quvchilarni sport natijalarini oshirishga, muntazam ravishda sport bilan muntazam shug‘ullanishga, sport mahoratini oshirish va o‘z bilimlarini oshirishga undaydi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida estetik tarbiya omili sifatida, o`qituvchining estetik jihatdan boyitilgan so`zi muhim ahamiyatga ega. So‘z yetarli darajada estetik samaraga ega bo‘lishi uchun u nafaqat to‘g‘ri va mazmunli, balki ayni paytda yorqin, rang-barang va majoziy bo‘lishi kerak. Estetik nuqtai nazardan, uzun tushuntirishlar, mulohazalar o‘rniga so‘zga she’riy yorqinlik baxsh etadigan yorqin epitet, nozik kinoya, kulgili, hazilkash gap kabi so‘z ta’sir shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim jarayonida insonni o‘z taqdirini o‘zi belgilash o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim maydoni yaratilishi zarur. Bu o‘smirlarga kelajakda o‘z taqdirini o‘zi belgilash, shuningdek alkogolizm, giyohvandlik kabi ijtimoiy hodisalardan qochish qobiliyatini tarbiyalaydi. Barcha fan o‘qituvchilari zimmasida ta’limiy vazifa bilan birgalikda tarbiyaviy vazifasi o‘quvchilarning axloqiy sifatlarini shakllantirishdir. Bola axloqiy sifatlarining shakllanishi, salomatligini mustahkamlash, qobiliyatlarini rivojlantirish kabi uchta tamoyilga asoslangandagina jismoniy tarbiya ta’lim tizimining bir qismi sifatida o‘z mazmunini saqlab qoladi. Jismoniy tarbiya va sinfdan tashqari darslarda bolalarda estetik, irodaviy va axloqiy fazilatlar, ya’ni e’tibor, intizom, mulkni hurmat qilish, shuningdek, do‘stlik, maqsadlilik, mustaqillik, matonat, qiyinchiliklarni engish, o‘zaro yordam ko‘nikmalari shakllanadi.

Jamiyatda shaxsning barkamol rivojlanishida jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta bo‘larkan, u shunday shakllantirilishi kerakki, natijada axloq, estetika va

ma’naviy hayotning boshqa sohalarining organik elementiga aylanib shundagina shaxs qiyofasida yaxlit namoyon bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шарҳи. – Тошкент: 1991. – 107 б.
2. Абдулла Шер, Э., Ҳусанов Б. Эстетика. – Т.: 2000. – 192 б.
3. Лихачев.Б.Т. Теория эстетического воспитания. – М.: Просвещение, 2005. – 175 с.
4. Хожимирзаев А.Д. Ўсмирларни эстетик тарбиялашда миллий спорт турларининг ахамияти. // “Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбиянинг роли”. Республика илмий-амалий анжумани тезислари тўплами.– Бухоро: 2002. – 125–127 б.
5. Исақова М.Т. Комил инсон тарбиясида миллий қадриятлар // “Алпомиш” илмий-амалий анжуман матнлари. – Фарғона: 2000. – 41–45-б.

РЕЗЮМЕ

Maqolada jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni estetik tarbiyalash masalalari taxlil qilindi. Kalit so‘zlari: estetik tarbiya, jismoniy tarbiya darslari, nafosat, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘quvchilar, jismoniy qobiliyat.

РЕЗЮМЕ

В статье проанализированы вопросы эстетического воспитания студентов на уроках физической культуры и внеурочной деятельности.

SUMMARY

The article analyzed the issues of aesthetic education of students in physical education classes and extracurricular activities. Keywords: aesthetic education, physical education classes, sophistication, extracurricular activities, students, physical ability.

BADMINTON DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANGAN XOLDA TALABALARNI JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Nizambayev M. A.
Namangan impuls tibbiyot inistituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: pedagogik texnologiyalar, badminton, sport, mashq qilish, rivojlantirish, jismoniy sifat, ta'lim, tarbiya, maqsad, jarayon, talaba.

Ключевые слова: педагогические технологии, бадминтон, спорт, тренировка, развитие, физическое качество, воспитание, тренировка, цель, процесс, ученик.

Key words: pedagogical technologies, badminton, sport, training, development, physical quality, education, training, goal, process, student.

Kirish. Sport- shiddat zavqidan goh tana rohatlansa, gohida shu zavq ostida buyuk maqsadlar sari dadil qadam bosiladi. Ham jismoniy chiniqish xosil qilinsa, ham aqliy faoliyat chiniqadi. U kurashmi, futbol, boks - maqsadi bir: do'stlikni ulug'lash, sog'lom hayot tarzi, sog'lom muhitni shakllantirish. Boshqa fanni bilmadikku, sport murabbiysining oldida katta vazifalar qo'yiladi. Ham amaliy, ham aqliy faoliyatini rivojlantirish sport murabbiysi uchun murakkab jarayon emas. Bir vaqtlar o'ziham chempion bo'lgan murabbiy kun kelib, yetuk shogirdni voyaga yetkaza oladi. Sababi, xatosi qayerdaligini bilmagan, yutqizib qo'ygan shogird ham, maydonda raqibini yenggan shogird ham murabbiyning tajribalariga suyanadi[4].

Demakki, pedagogikada sport murabbiylarining ham taktikasi, ham pedagogklik qobiliyati yurtimizda bo'lg'usi chempionlarni tayyorlashda dasturi amaldir.

Adabiyotlar taxlili va metodologiyasi. Avvalo, badminton haqida, Badminton (inglizcha badminton) - o'yin sport turlaridan biri. Musobaqa 13.40x6.10 m (juftlik uchun) yoki 13.4x5.2 m (bitta o'yin uchun) bo'lgan maydonda bo'lib, u yarmiga to'rga bo'linadi (balandligi 1.55 m). Ekstremal chiziqlar (o'ng va chap), shuningdek orqa chiziqlar bo'yicha o'yin maydonidir. Bunga qo'shimcha ravishda, to'rdan 1,98 m masofada, orqa chiziq bilan bir qatorda, xizmat ko'rsatish zonasini markaziy chiziq bilan ajratilgan xizmat ko'rsatish liniyasi mavjud. O'yin saytning qarama-qarshi tomonlarida joylashgan ikkita sportchini (yoki ikkitadan ikkita jamoa) ishtirok etadi. Odatda 3 yoki 5 o'yindan iborat bo'lgan

o‘yin 15 ballgacha o‘ynaladi (agar bolalar va ayollar o‘ynashsa - 11 ochko). Manbalarda keltirilishicha, ba’zi tadqiqotchilar Hindistonni badmintonning vatani deb bilishadi, boshqalari bu o‘yin Malayziyada, keyinchalik u Osiyoning boshqa mamlakatlarida paydo bo‘lgan, deb ta’kidlashadi. Ehtimol, Hindistonda Angliyadan bo‘lgan Baffort gertsogi zamonaviy badmintonning «pune» («pune») o‘yini bilan tanishgan. 1873 yilda u Gloucestershirdagi (Londondan 100 km uzoqlikda) Badminton uyi uyiga qaytib keldi va o‘zi bilan qanotli to‘p va bir nechta raketka olib ketdi. Birinchi qoidalar Britaniyalik ofitserlar Hindistonda bo‘lgan paytida yozgan g‘alati o‘yin darhol jamoatchilik e’tiborini tortdi va ko‘plab muxlislarni topdi. 1887 yilda ushbu o‘yin muxlislarining birinchi klubi tashkil qilindi va 1893 yil 13 sentyabrda 14 badminton klubi birinchi ingliz badminton uyushmasini (BAE) tashkil qildi. Xuddi shu yili ushbu o‘yin qoidalari rasmiy ravishda o‘rnatildi. Birinchi Butunjahon ochiq chempionati 1899 yilda, badminton bo‘yicha xalqaro musobaqalar 1902 yilda Irlandiyaning Dublin shahrida bo‘lib o‘tgan. Ushbu o‘yinda faqat ikkita jamoa ishtirok etdi - Angliya va Irlandiya. 1934 yil 5-iyulda to‘qqiz shtat (Angliya, Shotlandiya, Daniya, Gollandiya, Irlandiya, Uels, Frantsiya, Kanada va Yangi Zelandiya) Xalqaro Badminton Federatsiyasini (IBF) ta’sis etdi, unga 147 mamlakat vakillari kiritilgan. Evropa Badminton Ittifoqi (EBU) 1967 yil 24 sentyabrda 11 mamlakat tomonidan tashkil etilgan va bir yil o‘tib, Bochumda (Germaniya) ushbu sport turi bo‘yicha birinchi Evropa Badminton chempionati bo‘lib o‘tdi. Badminton bo‘yicha erkaklar o‘rtasida.

Tomas kubogi (IBFning birinchi prezidenti, ingliz Jorj Tomas nomi bilan atalgan) 1947 yildan beri o‘ynab kelmoqda va ayollar sportchilari Uber kubogi uchun 1955 yildan beri kurash olib borishmoqda (amerikalik badmintonchi Betti Uber sharafiga). 1977 yildan beri Badminton bo‘yicha jahon chempionati o‘tkazib kelinmoqda. Ushbu sport turidagi musobaqalar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish uchun barcha uchrashuvlarga shaxsan qatnashishning hojati yo‘q edi - 1951 yildan beri turli chempionatlarning televizion ko‘rsatuvlari bo‘lib o‘tdi va 1972 yilda «Jahon badminton» ixtisoslashgan jurnali nashr etildi, u 1999 yilga qadar mavjud bo‘lgan. Badminton o‘ynash uchun zarur jihozlar: shtutnik (frantsuzcha volantdan - «uchuvchi», «engil», «harakatchan») - teri bilan qoplangan mantiyadan yasalgan mayda tukli to‘p va raketka (frantsuzcha raquettadan, - bu so‘zlar, o‘z navbatida, arabcha raxatdan olingan - «xurmo») cho‘zilgan va tutqichli yumaloq halqadan iborat. Dastlab tabiiy materiallardan yasalgan iplar (ko‘pincha ox bo‘zlari) endi o‘zaro bog‘langan sintetik mikrofiberlar (ko‘pincha neylon yoki aramid) bo‘lib, yadro elastik tolalardan yasalgan va ortiqcha oro bermay va niqobi ostida bardoshli materiallardan tayyorlangan [3, 5, 6, 7].

Mulohaza va takliflar. Badminton - bu oson o‘yin, qiziqarli o‘yin-kulgi. Havaskorlar darajasida kassetani havoda ushlab turishga harakat qilish kifoya, ammo g‘alaba qozonish uchun professionallar ayyorlik, moslashuvchanlik, chidamlilik, mukammal muvofiqlashtirish, ajoyib kuch va chaqqonlik, yuqori tezlikni rivojlantirish va etarlicha uzoq vaqt davomida tezkor hujumlarni amalga oshirish qobiliyatini namoyish etishlari kerak.

Yurak-qon tomir kasalliklari bo‘lgan keksa odamlar badminton o‘ynay olmaydilar. Professional sport haqida gap ketganda, bu gap to‘g‘ri. Biroq, havaskor badminton - bu boshqa masala. Bundan tashqari, mutaxassislarning ta’kidlashicha, balog‘at yoshida badminton o‘ynash, o‘yin davomiyligi kamida yarim soat bo‘lsa, umr ko‘rish davomiyligini kamida 2-3 yilga oshirishi mumkin. Bundan tashqari, ushbu sport bilan shug‘ullanish yurakning bazal tezligini va qon bosimini pasaytirishga yordam beradi, shuning uchun gipertenziv bemorlar uchun juda foydali. Tadqiqotchilar jismoniy mashqlar qon tomirlarini toraytiradigan tanadagi ayrim xolesterol (triglitseridlar, past va juda past zichlikdagi lipoproteinlar) miqdorining kamayishiga olib kelishini ko‘rsatdi. Natijada, badmintonchilar yurak xastaligini rivojlanish ehtimoli kamroq. Va bu o‘yin davomida yurak mushaklarining holati yaxshilanadi va natijada miyokard infarkti xavfi kamayadi. Yurak kasalligi bilan og‘rigan odamlar ham badminton o‘ynashlari mumkin, ammo bu holda darsni shifokor nazorati ostida o‘tkazish kerak. Bundan tashqari, badminton suyaklarni mustahkamlashga yordam beradi, suyak to‘qimasining hujayralararo moddasida kaltsiyning so‘rilishini faollashtiradi va shu bilan osteoporozning oldini oladi. Va nihoyat, ushbu o‘yin saraton xavfini (ayniqsa ko‘krak va ichak saratoni) kamaytiradi.

Xulosa. Badmintonda ko‘plab boshlanuvchilar uchun noqulay bo‘lib tuyulgan to‘g‘ri tutish o‘yin samaradorligini yanada oshiradi. Va badmintonni mustaqil o‘rganishga urinish natijasida olingan noto‘g‘ri tutish tez-tez zarba berish texnikasining kamligiga olib keladi.

Badmintonda asosiy narsa ajoyib texnikadir. Ha, lekin oyoq ishlashning ahamiyatini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Axir, bu aniq va tezkor harakatlar, o‘yinchiga zarbani texnik jihatdan to‘g‘ri zarba bera oladigan joyda kerakli vaqtda bo‘lishiga imkon beradi. Shuning uchun, mashg‘ulot paytida siz sayt atrofida harakat qilish.

Adabiyotlar:

1. Saodat, Z. (2020). Teaching Foreign Languages with Interactive Methods. International Engineering Journal for Research and Development, 5(1), 222-226.

2. Krivosheyeva, G., Zuparova, S., & Shodiyeva, N. (2020). Interactive way to further improve teaching listening skills. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 520- 525. 3. Zuparova, S.,

Shegay, A., & Orazova, F. (2020). Approaches to Learning English as the Source of All. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(5).

4. Zuparova, S. (2021). Modern methods and problems of teaching English. Экономика и социум, 11, 135-145.

5. Зупарова, С. Ш., Каюмова, Г. А. (2021). Из истории методов обучения иностранным языкам. Экономика и социум, 7, 272-284.

6. Zuparova, S. S. (2021). Using Didactic Games in Teaching Foreign Languages. Academic research in educational sciences, 2(3), 909-913.

7. Zuparova, S., Shegay, A. (2021). Methods of Teaching Foreign Languages. Eastern European Scientific Journal, 1(7), 141-143.

РЕЗЮМЕ

Badminton sport turi uncha murakkab jarayon bo‘lmasa ham yoshlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda yordamchi mashg‘ulotdir. Odatda, sport- insonning ham aqliy ham jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirar ekan, batmintonda ham sportchi shunday fazilatlari ortadi. Maqolada ham badminton mashg‘ulotlarida qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati xususida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

Бадминтон – это не сложный процесс, а вспомогательное упражнение в развитии физических качеств юношей. Обычно, поскольку спорт развивает как умственные, так и физические возможности человека, в бадминтоне такие качества спортсмена усиливаются. Также в статье говорится о практической значимости использования педагогических технологий, применяемых в тренировках по бадминтону.

SUMMARY

Badminton sport is not a complicated process, but it is an auxiliary exercise in the development of physical qualities of young people. Usually, as sports develop both mental and physical capabilities of a person, such qualities of an athlete also increase in badminton. The article also talks about the practical importance of using pedagogical technologies used in badminton training.

SOG‘LOMLASHTIRUVCHI VA ENG JOZIBALI SPORT TURI BADMINTON

Nizambayev M.A.
Namangan impuls tibbiyot inistituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: badminton, bolalar, sog‘liqni yaxshilash, jismoniy sifatlar.
Ключевые слова: бадминтон, дети, улучшает здоровья, физические качества.
Key words: badminton, children, improves health, physical qualities.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.03.2020 yil 143-son “O‘zbekiston Respublikasida badminton sport turini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[1]. Respublikada badminton sport turini yanada keng rivojlantirish, aholi keng qatlamlarini, xususan, yoshlarni badminton sport turi bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etish, ular orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish, yuqori malakali trener kadrlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, mavjud moddiy-texnika bazadan samarali foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorida belgilab qo‘yilgan.

Butun dunyoda odamlar salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadigan zamonaviy muammolarni tushuna boshladilar. Jismoniy tarbiya, sport va sog‘liqni saqlash bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi kunda yeng muhim davlat vazifalaridan biri yosh avlodni jismoniy tarbiyalash ekanligi bilan izohlanadi. Har bir taraqqiyparvar jamiyat jismonan sog‘lom, ijodkor, mustaqil fikrlaydigan, hayot muammolarini mustaqil aniqlay oladigan va ularni noan’anaviy tarzda hal yeta oladigan shaxsga muhtojdir. Biroq, bunday shaxsni shakllantirish jarayoni juda murakkab. Bugun jamiyatning ana shunday insonni tarbiyalash mas’uliyati har qachongidan ham chuqur anglab yetilmoqda.

Badminton - bu juda serharakat o‘yin,shuning bilan birga u kam shikastlidir. Badminton mashg‘ulotlari davomida bolalarda epchillik, chidamlilik, egiluvchanlik, tezlik, kuch ko‘rsatkichlari kabi jismoniy sifatlar shakllanadi[2].

Badminton - bu turli harakatlar va kombinatsiyalarga to‘la raketka va volan yordamida o‘ynaladigan sport o‘yini. Bu yer yuzidagi yeng qadimiy sport o‘yinlaridan biri bo‘lib, manbalarda keltirilishicha uning yoshi taxminan uch ming yil. Badminton olimpiya sport turi sifatida tan olingan va 1992 yildan buyon yozgi olimpiya o‘yinlar dasturiga kiritilgan. Hozir dunyoda ushbu sport turining

100 milliondan ortiq muxlislari mavjud. U jismoniy sifatlarni rivojlantirishning mavjud vositalarini, masalan: kuch, tezlik, chaqqonlik, diqqat, harakatlarni muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Badminton nimasi bilan bolalar uchun yaxshi va qiziqarli o‘yin?

Badminton o‘ynashni nafaqat kattalar, balki bolalar ham yaxshi ko‘radilar. Agar farzandingiz ushbu sport turiga qiziqish bildirgan bo‘lsa, uni badminton o‘ynashni o‘rgatish uchun shoshiling, chunki badminton juda ko‘p afzalliklarga ega.

Shunday qilib, badminton bolaga nima berishi mumkin:

O‘yin farzandingiz sog‘lig‘ini yaxshilaydi, uni epchil va chidamli qiladi. O‘yin davomida volanni xavoda harakatlanishini kuzatib borish kerak, bu ko‘rish qobiliyatiga foydali ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, reaksiya tezligini oshirishi mumkin[3].

O‘yin davomida bo‘yin va bosh muskularining burilish harakatlari ko‘pligi foydalidir. Bu gemodinamikani yaxshilaydi. Shunday qilib, bu sport turi bolaning butun tanasiga aerobik yuklama beradi. Bundan tashqari, badminton o‘ynab, bolalar chuqur nafas olishadi, bu ham salomatlikka foydali ta’sir ko‘rsatadi.

Bunday harakatlar tufayli bola yanada intizomli va mas’uliyatli bo‘ladi. Ko‘pincha sport to‘garaklarida bolalar jamoada yashashni o‘rganadilar, bu ularning ruhiyatiga foydali ta’sir ko‘rsatadi. Bunday to‘garaklarda bolalar badminton o‘ynash uchun juda yaxshi sharoitlarga ega. Ochiq havoda o‘ynaladigan o‘yinlar ham bolaning salomatligi uchun juda foydali xisoblanadi. Har holda, bu kompyuterda o‘tirishdan ko‘ra ancha yaxshi va foydaliroqdir.

Professional bo‘lish uchun 5-6 yoshdan badminton o‘ynashni boshlash kerak. Bundan tashqari, agar bola jiddiy mashq qilishga tayyor bo‘lsa, u darhol ko‘rinadi[4].

Bundan tashqari, farzandingiz o‘g‘il yoki qizingizda analitik, mantiqiy fikrlash va sezgi rivojlanadi. Badminton “raketka bilan shaxmat” deb nomlanishi ajablanarli emas. Gap shundaki, raketka nafaqat urishi, balki raqibning harakatlarini bashorat qilishi, unga raketka bilan zarba bera olmaydigan shunday parvoz trayektoriyasi haqida xam o‘ylashi kerak. Bu fazilatlar, shubhasiz, o‘g‘lingiz yoki qizingizga o‘qishlarida foydali bo‘ladi.

Mashg‘ulotga tayyorgarlik bosqichlari. Farzandingiz badminton o‘ynashni darhol o‘rganishini kutmang. O‘yinga kirishishdan oldin bola tayyorgarlikdan o‘tishi kerak. Avvalambor o‘yin qoidalari va texnikasini o‘rganib va keyin sherik bilan o‘ynash tavsiya qilinadi. Har qanday yoshdagi bolalar uchun yaratilgan maxsus texnikalar mavjud. Ular o‘yin boshlanishidan oldin mashq qilishga yordam beradi.

Volandan foydalanish. Birinchi qadam - u bilan tanishish. Siz uni qo‘llaringiz bilan ushlashni va ko‘zlaringiz bilan kuzatishni o‘rganishingiz kerak. Bularning barchasi raketka ishtirokisiz amalga oshiriladi, bu jarayonda harakatlarni muvofiqlashtirish, tezlik va aniqlik rivojlanadi.

Qaysi yoshdan bolalarni badminton to‘garagiga bergan yaxshiroq?

Bolalar ko‘pincha badminton to‘garagiga 8 yoshdan boshlab qabul qilinadi. Ba’zi hollarda tayyorlov guruhida mashg‘ulotlar 10-12 yoshda boshlanadi.

Odatda, o‘quv dasturi amaliy va nazariy mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan tashqari, bolalar maxsus mashqlarni bajaradilar, shuningdek, o‘quv dasturidagi mashg‘ulotlarda harakatli o‘yinlar ham mavjud. Aytish kerakki, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun badminton asoslarini tushunish maktab o‘quvchilariga qaraganda qiyinroq. Shuning uchun, siz juda xam shoshilmasligingiz kerak, agar siz badminton o‘ynasangiz, erta yoshdan bolani oilaviy badminton o‘yini bilan tanishtirib borishingiz mumkin. Ammo jiddiy, muntazam badminton mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishni maktabga borgach boshlash yaxshidir. Badminton qizlar va o‘g‘il bolalar uchun bir hil mos keladi. Mashg‘ulotlar ikkala jinsning psixo-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, qizlar va o‘g‘il bolalar kelishgan qadiqomatga, epchil, kuchli va bardoshli tanaga yega bo‘lishadi. Shu bilan birga, qiz bolaning yelkalari juda keng bo‘lib qolishi haqida tashvishlanishingiz uchun asos yo‘q, bu muammo badmintonchi qizlar uchun umuman aloqador emas.

Muammoning mohiyati. Atrof-muhit omillarining ta’siri, zamonaviy hayotning ritmi, atrof-muhitda agressiv mikroorganizmlarning doimiy mavjudligi inson salomatligini zaiflashtiradi. Shuning uchun tananing mudofaasini barcha mavjud vositalar - to‘laqonli ovqatlanish, turli kasalliklarni o‘z vaqtida davolash, immunitetni mustahkamlashga qaratilgan profilaktika choralari, shuningdek, jismoniy faollik bilan mustahkamlash juda muhimdir.

Insonning mehnati va kundalik hayotini osonlashtiradigan kompyuterlar, smartfonlar va boshqa «qurilmalar» paydo bo‘lishi bilan texnologik taraqqiyotning rivojlanishi sharoitida odamlarning jismoniy faolligi hatto so‘nggi o‘n yillikga nisbatan keskin kamaydi.

Bu insonning funksional qobiliyatining asta-sekin pasayishiga, uning mushak-skelet tizimining zaiflashishiga, ichki organlarning faoliyatidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Harakat va energiya sarflashning kamligi barcha tizimlarda (mushaklar, qon tomirlari, yurak, nafas olish organlari) va umuman tanadagi nosozliklarga olib keladi va turli kasalliklarning paydo bo‘lishiga yordam beradi. Shuning uchun ham sportning inson salomatligiga ta’siri juda muhim.

Xulosa. Shunday qilib, har kuni badminton o‘ynashning sog‘liq uchun foydali tomonlari to‘g‘risida edi. Bular ko‘proq bo‘lishi mumkin va yehtimol siz bizga o‘z takliflaringizni berasiz.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 11.03.2020 йил 143-сон “Ўзбекистон Республикасида бадминтон спорт турини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.

2. Атабеков Ф.У. “Бадминтон” олий ўқув юртлари учун дарслик. Тошкент:-2021.

3. Zuparova, S. S. (2021). Using Didactic Games in Teaching Foreign Languages. Academic research in educational sciences, 2(3), 909-913.

4. Zuparova, S., Shegay, A. (2021). Methods of Teaching Foreign Languages. Eastern European Scientific Journal, 1(7), 141-143.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada, bolalar uchun badminton sport turining foydasi to‘g‘risida so‘z boradi.

РЕЗЮМЕ

В этой статье рассказывается о пользе бадминтона для детей.

SUMMARY

This article talks about the benefits of badminton for children.

JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH MEXANIZMI MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASHNING TASNIFIY XUSUSIYATLARI

Maxmudov B.A.
Chrchiq davlat pedagogika universiteti, Bolalar sporti kafedrasi PhD., dotsenti v.b.

Tayanch so‘zlar: ta’lim, tarbiya, modernizatsiya, mutaxassis, mazmun, mohiyat, tasnif, mexanizm, jismoniy madaniyat, jarayon.

Ключевые слова: образование, подготовка, модернизация, специалист, содержание, сущность, классификация, механизм, физическая культура, процесс.

Key words: education, training, modernization, expert, content, essence, classification, mechanism, physical culture, process.

2019–2023-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasida “Yangilangan o‘quv rejalari va dasturlar talablarini, shuningdek, yetakchi jahon sport markazlarining ilg‘or tajribasini, innovatsion rivojlanishning tegishli ustuvorliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan sifati va mazmuniga ko‘ra zamonaviy o‘quv, o‘quv-metodik va ommaviy adabiyotlarni, yangi avlod normativ hujjatlarni tayyorlash va nashr etishni tashkil etish” belgilab qo‘yilgan [1].

Jismoniy tarbiya mutaxassislarini tayyorlash zamonaviy ta’limning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar, mazmun jihatidan pedagogik faoliyatda qo‘llanilayotgan samarali yondashuvlarni ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish, ta’lim mazmunini modernizatsiyalash vositasida jismoniy tarbiya bo‘yicha milliy ta’limning maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus ta’lim tizimi singari barcha bosqichlarini takomillashtirish o‘ziga xos pedagogik muhitni yuzaga keltiradi.

Jismoniy madaniyat bo`yicha pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash, pedagog jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, fan yutuqlarini hisobga o‘lish, ta’limni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, jismoniy tarbiyani sog‘lomlashtiruvchi fan sifatida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirish, uni milliylashtirishga asoslangan mutaxassislarni kasbiy faolitga tayyorlash kun tartibida turgan eng muhim masala hisoblanadi [2].

Zamonaviy sharoitda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik faoliyati sifat jihatidan yangi mazmun bilan to‘ldirib borilmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, muayyan omillar sababli barcha o‘qituvchilar o‘zgaruvchan sharoitda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshira olmaydi. O‘quvchilar bilan munosabatlarning shakllangan stereotiplari, ba’zida o‘zaro hurmat va pedagogik hamkorlikning yetishmasligi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmaslik, jismoniy tarbiya saboqlariga o‘quvchi shaxsini shakllantirish vositasi sifatida qarash istagi yo‘qligi bu samarasizlikka omil bo`ladi. Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya darslari samarasini oshirish masalasini amaliy hal etish, birinchi navbatda, tashkiliy jihatdan o‘qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorlik darajalarini ko`tarishga bog‘liq. Ushbu muammoni hal qilish uchun o‘qituvchining kasbiy fazilatlarini modellashtirish talab etiladi.

Modellashtirish ilmiy bilishning usuli sifatida falsafiy, psixologik, pedagogik adabiyotlar hamda jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy-metodik manbalarda tadqiq etilgan. Uning mohiyati o‘rganilayotgan obyektni tuzilishi soddarog`i bilan almashtirilishi va asliga mos keladigan obyektni o‘rganishdan iboratdir. Model nafaqat obyekt haqida yangi bilimlarni olish, balki ularni tuzatish vositasi hamdir [3].

Dastlabki sifat-tavsif modeli jismoniy tarbiya o‘qituvchisining professiogrammasi, ya’ni uning asosiy vazifalari, zamonaviy maktab o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar, nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, integratsiyalashgan kasbiy va shaxsiy sifatlar aks ettirilgan ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi. Shuning uchun jismoniy madaniyat sohasidagi pedagog uchun, ayniqsa, jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga bakalavr ta’lim yo‘nalishida olib boriladigan bloklar bo‘yicha bilimlar majmuasini egallashi ularning mustaqil pedagogik faoliyatida erishishi lozim bo‘lgan natijani belgilab beradi.

Bugun ta’limga oid ma’lumot va bilimlarning muttasil kengayishi, yangilanib borishi ularning tezda eskirishini ham anglatadi. Shuning uchun har bir pedagog, shu jumladan jismoniy tarbiya o‘qituvchisi uzluksiz ta’lim tizimidagi yangiliklar to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishi talab etiladi.

Jismoniy tarbiya sohasidagi innovatsiyalar ta’lim samaradorligini oshirishning eng samarali usuli va vositasidir. Shu bois rivojlangan mamlakatlar ta’limga iloji boricha ko‘proq innovatsiyalarni kiritishga intiladilar. Ilgari jamiyat va ta’lim-tarbiya tizimlari faqat ayrim pedagoglar tomonidan ta’lim jarayoniga kiritilgan yangiliklardan xabatdor bo`lishi mumkin edi. 20-asrning 80-yillarida Shatalov va Sh.Amonashivililar tajribasi hammabop yangilik sifatida qabul qilingan. Bugungi kunda innovatsiyalar xususiy emas, balki uyushgan, rejalashtirilgan, ommaviy munosabatlarni talab qiladi.

Jamiyatdagi o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya va tarbiya tizimiga ham tegishli o‘zgarishlar kiritishni talab qiladi. Ayni paytda ta’lim jamiyatdagi voqealar va yangiliklarni passiv kuzatuvchisi emas, balki pedagogik innovatsiyalar yangi istiqbollarga yo‘naltirilishi lozim.

Ta’lim va tarbiya sohasidagi innovatsiyalarni modernizatsiya qilish va amalga oshirish jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga ham tegishli. Bugungi kunda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari ishtirokisiz tashkil etilgan har qanday tadbir samarasiz bo’lib qolishi oydinlashib bormoqda. O‘qituvchi – o‘rganishning asosiy omili va shuning uchun ham yangilikning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchining yangiliklarni o‘zining innovatsion faoliyatiga tatbiq etish kometensiyasiga bog‘liqdir. Ushbu funksiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchi nafaqat o‘z intizomi, balki psixologiya va ta’lim texnologiyalari bo‘yicha ham yetarli darajadagi bilimlarga ega bo‘lishi lozim hisoblanadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ta’lim texnologiyasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashuvchisi sifatida o‘qituvchi puxta tayyorlangan bo‘lishi uchun esa unga kasbiy faoliyatga oid yo‘naltiruvchi ko‘rsatma berilgan bo‘lishi talab etiladi. Agar o‘qituvchi mutaxassislik kasbiga yetarlicha tayyor bo‘lmasa, kelgusi faoliyatida turli innovatsiyalarni joriy etishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Uning faoliyatida o‘zining irodasi, bilimlari va sohaga oid innovatsiyon yangiliklarni qo‘llash qobiliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu sifatlarga ega bo‘lishi uchun esa o‘qituvchi yaxshi tayyorgarlik ko`rgan bo‘lishi lozim. Bunday tayyorgarlik, shubhasiz, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining o‘qitiladigan fanning Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv rejasi hamda fan dasturi orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy madaniyat mutaxassislarini kasbiy faoliyatdagi o‘zgarishlar ta’lim muassasasi tomonidan unga qo‘yiladigan zamonaviy talablarni to‘g‘ri qabul qilishi, sodir bo‘layotgan yangiliklarga o‘z munosabatini bildirishdan boshlanadi. Boshqa tomondan, o‘qituvchining qarashlari jamiyatning ijtimoiy imkoniyatlariga mos kelmasa, unda jamiyat va o‘qituvchi o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Aynan shu yerda har ikki taraf o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqib, qarashlarini o‘zaro muvofiqlashtiradi [2].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda jismoniy madaniyat ta’lim sohasini o‘qitish jarayonida ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun, avvalo o‘qitish mexanizmini qayta ko‘rib chiqish va uning mazmunini takomillashtirish talab etiladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligini ta’minlash ta’lim ilg‘or mahalliy va xorijiy tajribalar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o‘quv-metodik ta’minotini zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish zarur. Demak, o‘quv-metodik ta’minotjismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarni kelgusi kasbiy faoliyatga

tayyorlashning muhim omillaridan biridir. Shuningdek, o‘quv-metodik ta’minot ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya jarayonini to‘liq va samarali tashkil etish hamda o‘tkazishga asoslangan Davlat ta’lim standarti, malaka talabi, o‘quv reja va dasturlar, shunga muvofiq tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmualar, o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quv materiallar (darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy qo‘llanma, metodik tavsiya, didaktik materiallar, o‘quv-metodik vositalar) majmuasi tarzida taqdim etilishi lozim. Shu tariqa bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy kopetentliligini oshirishda o‘quv-metodik ta’minotining jamlanmasi kelgusida amaliyotda qo‘llaniladigan ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish uchun zaruriy pedagogik shart-sharoit yaratadi.

Ayni paytda ta’kidlash joizki, jismoniy madaniyat ta’lim tizimida qo‘llaniladigan o‘quv-metodik kompleksning tashkiliy-pedagogik komponentlari, mazmuni va boshqa jihatlari ta’limiy islohotlar asosida modernizatsiyalashtirib borilishi lozim, ya’ni o‘quv-metodik ta’minot o‘qitish jarayonida turli-tuman bo‘lishi, zamon talabiga ko‘ra uning komponentlari o‘zgarib, yangilanib turilishi ta’lim dasturlarining o‘zgaruvchanligiga moslashishi, olingan bilim ko‘nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq eta olishlariga imkon bera oladigan didaktik yondashuv ham talab qilinadi. Mazkur masala yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar mavjud o‘quv-metodik ta’minotning tahlili, shuningdek, ta’lim tizimidagi islohotlarni bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilari oldiga qo‘yilgan talablarga asoslangan holda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyalari bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini o‘quv jarayoniga tayyorlashning muhim sharti sifatida amalga oshirildi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini mutaxassislik faoliyatiga tayyorlash mazmunini takomillashtirishning meyoriy asoslari ham jarayonning muhim omillaridan biridir. Jumladan, mutaxassis chiqaruvchi 60112200–Jismoniy madaniyat ta’lim yo‘nalishining DTS, malaka talabi (klatsifikator) kabi hujjatlarda bitiruvchi mutaxassis kelgusi faoliyatini qanday va qayerlarda amalga oshirish mumkinligini belgilab beradi. Shuning uchun ham bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablarni inobatga olgan holda mutaxassislarni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorligini baholovchi talablar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

– jismoniy tarbiya ta’limning samaradorligini ta’minlashda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchisi barcha psixologik-pedaogik vositalarni qo‘llagan holda, o‘quvchilarda yaxlit tarzdagi o‘quv faoliyatini shakllantirish hamda ularning salomatligini ta’minlay olish xususiyatiga ega bo‘lishi kerak;

– zamonaviy jismoniy tarbiya nazariyasida o‘qituvchining mavqei o‘quv-tarbiya jarayonining boshqaruvchisi sifatida tavsiflangan. Demak, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi pedagogik jarayonni to‘g‘ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi lozim. Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi ko‘p jihatdan o‘quvchilar uchun o‘rnak hisoblanadi. Shuning uchun ham u, birinchi navbatda, o‘quvchilarni o‘ziga jalb eta olishi kerak;
– shaxsga yo‘naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishni nazarda tutgan holda o‘qituvchining shaxsiy sifatlari, kasb mahorati hamda bilim darajasini tashxislash asoslari ishlab chiqilishi zarur. Tashxislash natijalari asosida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmining samaradorligini oshirish mazmuni va texnologiyalari uzluksiz takomillashtirlishi lozim.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash joizki, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmi mazmunini modernizatsiyalashda yuqoridagi fikrlarga tayangan holda hamda zamonaviy tkndensiyalarga yondashib uning mazmunini takomillashtirilsa, kelgusida kasbiy komponentga ega raqobatbardosh jismoniy madaniyat mutaxassisini tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги 2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси118-сон қарори.

2. Махмудов Б.А. Жисмоний маданият мутахассисларини тайёрлаш механизмини такомиллаштириш. Монография/ Чирчиқ-2023 й. 142 б.

3. Махмудов Б.А. Жисмоний маданият мутахассиларини тайёрлашнинг дидактик параметрлари ва уни стратегиясини белгилаш. Молодой учёний-Казан-2021 г. 112-114 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqola jismoniy tarbiya mutaxassisligi bo‘yicha tahsil oluvchi talabalarning o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirishda uning mazmunini qayta ko‘rib chiqish orqali ta’lim tizimini yangilash borasidagi fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны идеи обновления системы образования путем пересмотра ее содержания для улучшения учебно-методического обеспечения студентов, изучающих физическое воспитание.

SUMMARY

This article describes the ideas of updating the educational system by revising its content to improve the educational and methodological support of students studying physical education.

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY FAOLLIGINI NOAN'ANAVIY VOSITALAR ASOSIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Haydarov B.T.
Aniq-tabiiy fanlar va jismoniy madaniyat fakulteti dekani,
p.f.n. professor

Tayanch so'zlar: 4-7 yoshli bolalar, korreksiyalash, noananaviy jismoniy mashqlar, jismoniy faollik, jismoniy madaniyat, konsepsiya.

Ключевые слова: дети 4-7 лет, коррекция, нетрадиционные занятия спортом, двигательная активность, физическая культура, концепция.

Key words: children 4-7 years old, correction, unconventional exercise, physical activity, physical culture, concept.

Kirish. Dunyo mamlakatlari ta'lim tizimida bolalar jismoniy tarbiyasida ilk yoshidan boshlab sog'ligini mustahkamlash va har tomonlama uyg'un rivojlantirish eng asosiy talablardan biri sanaladi. Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bola shaxsi rivojlanishining asosiy poydevorini yaratishni ta'minlashga qaratilmoqda. 4-7 yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi umumiy ta'lim-tarbiya tizimida muhim o'rinni egallaydi, uning asosiy vazifasi bolalarni barkamol rivojlanishini ta'minlash, sog'lom, jismonan rivojlangan va mukammal avlodni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahonda 4-7 yoshdagi bolalarning jimoniy tarbiya mazmunini optimallashtirish uchun turli shakllarini ishlab chiqish, mavjud vositalarni turli o'yinlar asosida tashkil etish, harakat ko'nikmalarini shakllantirish va jismoniy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ammo xorijiy mutaxassislarning tadqiqotlarida gimnastika mashqlari yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini modellashtirish asosida dasturlar ishlab chiqish, noananaviy vositalar va usullarni maqsadli yo'naltirib oqilona tanlab olish yetarlicha tadqiq qilinmagan. 4-7 yoshdagi bolalarning o'sib ulg'ayishida jismoniy faollik, asosiy harakatlar tartibiga hos bo'lgan jarayonlarni gimnastika mashqlari orqali tizimli ravishda tashkil etishni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. G.Xolboyeva, N.Nuriddinovalarning tadqiqotlarida (2022) jismoniy tarbiya mashg'ulotlari asosan ma'lum miqdordagi harakat ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilganligi biroq 4-7 yosh bolalarda

asosiy harakat faolligini va jismoniy tayyorgarligini samarali tarbiyalashga hissa qo‘shmasligi aniqlandi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Respublikamizda 4-7 yosh bolalar tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e’tiborga olib jismoniy faolligini oshirishning yangi vositalarini ishlab chiqish talabini qo‘ymoqda. “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, xorijiy tajribalardan foydalangan holda ta’lim yuqori darajaga olib chiqish, tizimda innovatsion faoliyatni qo‘llab quvvatlash, sohada xususiy ta’lim tashkilotlarini rivojlanishiga imkoniyatlarni yaratish zarur [2,5].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 4-7 yosh bolalarni jismoniy tarbiyalashning yangi, noan`anaviy shakllari, vositalari va usullarini izlash dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: noan’anaviy vositalar yordamida 4-7 yosh bolalarni jismoniy kompetensiyalarini oshirishda korreksiyalash, oila pedagogikasi va pedagogik texnologiyalar asosida jismoniy madaniyat tizimini takomillashtirish

Tadqiqotning vazifalari: Tadqiqot maqsadi quyidagi vazifalarda belgilangan:

4-7 yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirish uchun yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish;

4-7 yoshdagi bolalarni jismoniy faollik darajasini inobatga olib individual yondoshuv orqali mushaklar harakatchaligini uyg‘un tarbiyalashga va bolalar aerobikasi pedagogik texnologiyasidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

4-7 yosh bolalarning jismoniy faolligini oshirish uchun yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish;

zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolalarni “Maktabga tayyorlik” darajasini oshirish shart sharoitlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obe‘kti sifatida 4-7 yosh bolalarning jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida jismoniy faolligini noan`anaviy jismoniy mashqlar tizimini moderinizatsiyalash jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti: 4-7 yosh bolalar jismoniy madaniyatini moderinizatsiyalashning tashkiliy-uslubiy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqotning uslublari: Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun tadqiqotning pedagogik va tibbiy-biologik usullari majmuasi qo‘llanildi:

Maktabgacha yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida noan`anaviy mashqlar majmuasidan tashkil topgan dastur ishlab chiqildi.

Noan`anaviy mashqlar-bu jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazishning tashkiliy shakllaridan biri bo‘lib, maktabgacha yosh va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalarning jismoniy mashqlarni bajarish jarayonini moderinizatsiyalashga yordam beradi.

An’anaviy shaklda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlardan farqli o‘laroq, noan`anaviy mashqlar mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan jismoniy tarbiya vositalarining barchasi yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan.

4-7 yosh bolalarning jismoniy faolligini oshirish uchun yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini kengaytirish;

4-7 yosh bolalarni mushak elastikligi darajasini oshirish uchun diqqatni jamlash, harakatlarni asimmetrik asinxron bajarish qobiliyatini pedagogik jarayonga uyg‘unlashtirishdan iborat. [4,8,9]

4-7 yoshdagi bolalarning jismoniy faolligini oshirishda tayanch-harakat tizimidagi mushaklarni (bo‘g‘inlar va boylamlar) rivojlanganlik darajalaridan kelib chiqib muvozanat saqlash hamda reablitasiyaga yo‘naltirilgan noan’anaviy automanual gimnastika mashqlarini tana qismlariga tanlab yo‘naltirish hisobiga yoshga mos harakat kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyati kengaytirilgan;

4-7 yoshdagi bolalarni jismoniy faollik darajasini inobatga olib individual yondoshuv asosida mushaklar harakatchaligini uyg’un tarbiyalashga qaratilgan logoritmik gimnastikada nutq va harakatni bir xil ritm hamda tempda bajartirish hisobiga bolalar aerobika pedagogik texnologiyasidan foydalanish imkoniyati kengaytirilgan;

4-7 yoshdagi bolalar organizmining funksional va adaptiv imkoniyatlaridan kelib chiqib statik rejimda umurtqa pog’onasi mushak qayishqoqligini rivojlantirishga qaratilgan spring elastika mikromashg‘ulotlarini ishlab chiqish hisobiga mashg’ulotlarni o‘z vaqtida tezkor korreksion korreksion pedagogika yo`nalishi takomillashtirilgan;

4-7 yoshdagi bolalarni mushak elastikligini oshirish maqsadida diqqatni jamlash, mashqlar muvozanat saqlash intervalini uzaytirish darajasidan kelib chiqib “Xatxa” yoga asanalari mashqlarida harakatni assimetrik va asinxron yo‘nalishini kiritish orqali pedagogik jarayon bilan uyg`unlashtirilgan.

Tahlil va natijalar. Tajriba boshlanishidan oldin tajriba va nazorat guruhlari bolalari oldinga yegilish natijalari bundan mustasno, jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari va harakat faolliklari natijalarida sezilarli farqlar mavjud yemas yedi. Tajriba o‘tkazilgandan so‘ng, har ikki guruhda ham jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarida bir tomonlama ishonchli o‘zgarish kuzatildi. Shunday qilib, yuklama miqdorini asta-sekin oshirib borish tajriba guruhidagi bolalar organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatmadi. Noan`anaviy mashqlar mashg‘ulotlarning tajriba guruhlarida qo‘llanilgan vositalari va usullari ushbu yoshdagi bolalar organizmining imkoniyatlariga mos yedi (bu pedagogik kuzatuvlar va pulsometriya ma’lumotlari bilan ham tasdiqlangan).

Zamonaviy maktabgacha ta’lim tashkilotining jismoniy tarbiya va sog’lomlashtirish ishlari amaliyotida innovasion quyidagi pedagogik

texnologiyalar paydo bo‘ldi: o‘yin stretching, ritmoplastika fitbol, logoritmik gimnastika va boshq.

O‘yin stretching. Barcha mashqlar mushaklarning kuchlanishi va bukilishiga asoslangan. Mashqlar musiqa ostida bajariladi. Har bir mashg’ulotda ajoyib sayohatlar shaklida yangi rolli o‘yin o‘tkaziladi. O‘yin emotsional tarzda o‘ynaladi, mashqlarni almashish va ertak tinglash almashtitiladi. O‘yin syujeti mashqlar o‘zgaruvchan bo‘lishi uchun tashkil etilgan, bolaning butun tanasiga bir xil yuklama tushadi.

Ritmoplastika. “Ritmoplastika” pedagogik texnologiyasi harakatlar va ritmning uyg`un mozaikasi.

Ritmoplastika texnologiyasining o‘ziga xos xususiyati bu ishda ¬maxsus ishlab chiqilgan repertuardan - musiqiy va plastik kompozisiyalardan foydalanish bo‘lib, ularning har biri bolalar uchun tushunarli bo‘lgan aniq o‘ynoqi tasvirga ega. Har xil turdagi harakatlarni (har xil boshlang’ich pozisiyalarda bajariladigan raqs, umumiy rivojlanish, taqlid va boshqalar) kombinasiyasi pedagogik mahorat, kommunikativ raqs yoki o‘yin texnologiyasi shaklida musiqiy va plastik tasvirni yaratishga yordam beradi.

Fitbol. Texnologiya katta to‘plardan foydalanishga asoslangan. ¬Gimnastika to‘plarida mashq qilishning shifobaxsh ta’sirining o‘ziga xosligi umurtqa pog’onasidagi ta’sirning fiziologik mexanizmi va natijada butun tayanch-harakat tizimi va tananing avtonom tizimlarining ishi bilan belgilanadi. To‘plar umumiy va maxsus korreksion vazifalarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin.

To‘plarda mashqlarni yuqori tezkorlikda bajarish ¬mushaklarning ohangini oshiradi, bola aqliy qobiliyatlarini stimullab, charchoqning yoqimsiz hislarini kamaytiradi. To‘pning elastik xususiyatlari mushak-skelet tizimiga zarba yuklamasini kamaytiradi. Shuning uchun, turli xil tartiblarni tanlashda vazifani bajarish qulayligi bilan tananing ish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Kreativ gimnastika. “Kreativ gimnastika” atamasi tomonidan 4-7 yoshli bolalar uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining yangi tuzilishi va mazmunini ishlab chiqishda kiritilgan.

Bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari asosan o‘yin shaklida, aqliy va tarbiyaviy faoliyatga yo`nalgan musiqadan foydalangan holda olib boriladi. Bundan tashqari, bolalarda ijodkorlik va tasavvurni rivojlantirishga katta e’tibor beriladi.


Gender xususiyat insonning asosiy xususiyatlaridan biridir. Shaxsni shakllantirishga individual yondashishning zamonaviy talablari bolaning jinsining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan amalga oshirilmaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta`lim amaliyotida insonning u yoki bu jinsga mansubligi belgilarini farqlash tendensiyasi kuchaymoqda.

Jismoniy qobiliyatning rivojlanishini samarali boshqarish uchun 4-7 yoshdagi bolalarda harakat faolligini oshirish va takomillashtirish, har bir bolada tashkiliy va mustaqil harakat faolligi darajasini aniqlash va shunga muvofiq noan'anaviy gimnastika vositalari hamda usullaridan foydalanish zarur.

Bolalarning harakat faolligini, vosita va amalga oshirish usullarini o'rganishda adabiyotlarni tahlil qilishni yakunlab, biz ikkita muhim jihatni qayd etdik:

bolaning harakatga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis qondirishga, harakat faolligini rivojlanishiga yordam beradigan eng munosib faoliyatni yo'lga qo'yish; tashkiliy va mustaqil faoliyatda bolalarning harakat faolligini optimal tashkil etish usullari va vositalarini izlash.

Shuningdek, harakatchanligi turli xil bo'lgan bolalar quyidagicha tahlil qilindi:



1-rasm. MTT kun tartibida HF hajmi ko'rsatkichlarini me'yor bilan solishtirilishi (qadamlar soni)

Izoh: MTT-maktabgacha ta'lim tashkiloti; HF-harakat faolligi.

Shunday qilib, kichik guruh 4-7 yoshdagi bolalarning

HF darajasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhida bolalarning ko'pchiligi (62%) o'rta darajaga ega, tajriba guruhining sinaluvchilari ko'rsatkichi esa, o'rtacha darajadan yuqori bo'lgan (68%); o'rta guruh 4-7 yoshdagi bolalarning HF darajasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhida ko'pchilik bolalar (75%) o'rta HF darajasiga ega, tajriba guruhida bu ko'rsatkich 54%ni tashkil etdi; katta guruh 4-7 yoshdagi bolalarning HF darajasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi bolalarning ko'pchiligi (43%) Hfning past darajasiga ega, tajriba guruhida ko'pchilik (79%) harakat faolligi o'rtacha

darajasiga ega bolalardir. MTTning kun tartibida jismoniy faollikning umumiy hajmini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlar qayd etildi.

Harakat faolligi sust 4-7 yoshdagi bolalarning mavjudligi, faol kun tartibini tashkil etish uchun noananaviy gimnastika vositalari va nazariy modelini qo‘llash orqali yoshga nisbatan to‘laqonli shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Tajriba guruhining o‘g‘il va qiz bolalarida jismoniy qobiliyatlarini rivojlanishining tadqiqot boshidagi ko‘rsatkichlari dinamikasi n=30 (6-7 yosh)

Jismoniy me’yorlar			6 yosh		7 yosh	
			$\overline{X}\pm\sigma$	V %	$\overline{X}\pm\sigma$	V %
Egiluvchanlik	Yotgan holda ko‘prik holatida turish, soniya	O‘	4,96±0,64	12,90	5,03±0,65	12,92
		Q	4,58±0,59	12,88	4,67±0,55	12,21
	Tik turgan joydan egilish, sm.	O‘	4,22±0,52	12,32	4,28±0,55	12,85
		Q	4,31±0,51	11,83	4,42±0,52	11,76
Mushak harakatchan-ligi	Burchak holda o‘tirib, qo‘llarni yon tomonlarga cho‘zib (10 marta) harakatlanish, soniya	O‘	4,33±0,58	13,39	3,52±0,46	13,07
		Q	4,48±0,57	12,72	3,62±0,48	13,56
Chaqqonlik	Oldinga 10 qadam 8 shaklida sakrab yurish, qo‘llar belda, soniya	O‘	4,36±0,45	10,32	3,33±0,36	10,81
		Q	4,29±0,55	12,82	3,27±0,44	13,46
	Gimnastika o‘rindig’ida qo‘llarga tayangan holda, qorin bilan sudralish, soniya 2 marta.	O‘	4,24±0,63	14,86	4,14±0,61	14,73
		Q	4,90±0,57	11,63	4,99±0,61	12,22
	To‘rt oyoqlab 10 metrga emaklash, (soniya).	O‘	10,34±1,12	10,83	9,3±1,06	11,40
		Q	11,28±1,26	11,17	9,17±1,09	11,89
Harakat faolligi	Doira bo‘ylab yugurish, 1 marta, soniya	O‘	4,18±0,59	14,11	3,64±0,54	14,84
		Q	3,59±0,45	12,53	3,52±0,43	12,22

Izoh: o‘-o‘g’il; Q-qiz.

Qiz va o‘g’il bolalarda jismoniy qobiliyatlarining rivojlanishiga oid ma’lumotlar qiyosiy tahliliga ko‘ra, o‘g’il bolalar yuqoriroq ko‘rsatkichga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida barcha yoshdagi qizlarda egiluvchanlik qobiliyatining rivojlanishi yuqoriroq ko‘rsatkichga ega ekanligi kuzatildi. Bu yesa jismoniy qobiliyatlarning yaxshiroq shakllanganligi hamda o‘g’il bolalardan ko‘ra qizlarda egiluvchanlik qobiliyatini rivojlanishining yuqoriroq darajasi bilan belgilanadi

Xulosa qilganda, 4-7 yosh bolalarning yosh, individual, va boshqa differensial xususiyatlarin hisobga olgan holda noan`anaviy mashqlar tizimiga asoslangan vositalarni MTT lari amaliyotida qo‘llash, jismoniy tarbiya jarayonini moderinizatsiyalashga imkon beradi hamda mashqlar korreksiyaviy, reablitativ effekt berib, jismoniy faolligini oshirish dinamikasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, bolalarning muntazam jismoniy mashqlarga bo‘lgan qiziqishi, irodaviy va tarbiyaviy jarayonlarini shakllantirishga asos bo‘ladi. Tadqiqtdan so`ng matematik statistik tahlil qilinganda bolalar aerobika pedagogik texnologiyasidan foydalanish imkoniyati kengaytirilgan hamda statik rejimda umurtqa pog‘onasi mushak qayishqoqligini rivojlantirishga qaratilgan spring elastika mikromashg‘ulotlarini ishlab chiqish hisobiga mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida tezkor tuzatuvchi korreksion pedagogika yo`nalishi takomillashtirilgan.

Adabiyotlar:

1. G.X.Xolboyeva. SamDU ilmiy Axborotnomasi. Mechanisms for improving primary gymnastics in increasing the physical activity of children in preschool education. 2021-yil, 2-son. 2091-5446. B.130-136.

2. G.Xolboyeva. Maktabgacha ta`lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, SamDU ilmiy Axborotnomasi.2020. 2-son. 2091-5446. B.102-108.

3. B.T.Xaydarov. G.X. Xolboyeva. SamDU ilmiy Axborotnomasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg`ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari. 2020. 2019-yil, 6-son. 2091-5446. B.140-144.

4. J.Eshnazarov. Bolalar jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslublari

5. Малинина Н.Н. Гимнастика и методика преподования. Ташкент. 2001 й. 123 стр.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada noan’anaviy vositalar yordamida 4-7 yoshdagi bolalarni jismoniy kompetensiyalarini oshirishda korreksion pedagogika, oila pedagogikasi va pedagogik texnologiyalar asosida jismoniy madaniyat tizimini takomillashtirishga oid vosita va dasturlar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены инструменты и программы, связанные с совершенствованием системы физической культуры на основе коррекционной педагогики, семейной педагогики и педагогических технологий в повышении физической компетентности детей 4-7 лет с использованием нетрадиционных средств.

SUMMARY

This article describes an experimental program aimed at modernizing preschool education organizations based on non-traditional methods, improving the physical culture system of preschool children.

JISMONIY MADANIYAT MUTAXASISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY, GUMANITAR, MINTAQAVIY-MILLIY KONSEPSIYAVIY POTENSIALINI OSHIRISH

Xolboyeva G.X.
O`zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
"Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi"
v.v.b., dotsenti, pedagogika fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)

Tayanch so`zlar: kontseptual-nazariy, konstruktiv-texnologik, loyihalash, gumanitar, model, intellektuallik, kognitivlik, kreativlik, kommunikativlik.

Ключевые слова: концептуально-теоретический, конструктивно технологический, дизайнерский, гуманитарный, модельный, интеллектуальность, познавательный, творческий, коммуникативный.

Key words: conceptual-theoretical, constructive-technological, design, humanitarian, model, intellectuality, cognitive, creativity, communicative.

Tadqiqotning dolzarbligi. Oliy ta'limidagi sifat o'zgarishlari oliy ta'lim tizimining maqsadlarini yuqori kasbiy mahorat bilan keng umumiy gumanitar dunyoqarashni uyg'unlashtirgan mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirishda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida integratsion jarayonlarning ustunligi yuzaga keladi, unda gumanitar bilimlar etakchi rollardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning o`rganilganligi. Mutaxassislar oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida uni modernizatsiya qilish, mazmun-mohiyatini insonparvarlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyillari asosida takomillashtirishda ko'rmoqda.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy sotsiotsentrik ta'lim yondashuvidan farqli o'laroq, talabaning qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga, kasbiy faoliyatda uning individual xususiyatlarining barcha ko'p qirraliligi va o'ziga xosligini anglashga imkon beradigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda[7,10].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aslida universitetda jismoniy tarbiyani gumanitarizatsiya qilish printsipini amalga oshirishning

ajralmas tavsifini taqdim etadigan, uning mazmunli namoyon bo'lishi va amalga oshirish tartibini ochib beradigan ishlar mavjud emas[6,8,9].

Jismoniy madaniyatdan uning gumanitar salohiyatining xilma-xilligida foydalanish hozirgi kunga qadar mutaxassislarni tayyorlash tizimida to'liq aks ettirilmagan.

Oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotida universitetning ijtimoiy-madaniy makonida gumanitar madaniyat etishmasligini bartaraf etishda jismoniy madaniyatning mazmunli va protsessual imkoniyatlari tushunilmagan va oshkor etilmagan, bu muammoning kontseptual-nazariy, konstruktiv-texnologik va uslubiy-amaliy jihatdan rivojlanmaganligi kuzatilmoqda.

aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda tadqiqot muammosi aniqlandi:

universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishni ta'minlaydigan nazariy va uslubiy qoidalar, etakchi tendentsiyalar, tamoyillar va psixologik-pedagogik sharoitlar to'plami qanday?

aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda tadqiqot muammosi aniqlandi:

universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishni ta'minlaydigan nazariy va uslubiy qoidalar, etakchi tendentsiyalar, tamoyillar va psixologik-pedagogik sharoitlar to'plami qanday?

Tadqiqot maqsadi: universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etish uchun nazariy va uslubiy asoslarni ishlab chiqish va asoslash.

Tadqiqot ob'ekti: universitetda mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit jarayonida talabalarning jismoniy tarbiyasining mazmuni.

Tadqiqot predmeti: gumanitar fanlar bo'yicha dizayn va qurilish

universitetda jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning yo'naltirilgan mazmuni.

Muammo, maqsad, ob'ekt va mavzu asosida quyidagi tadqiqot vazifalari aniqlanadi:

- gumanitar ob'ektlarni loyihalash va tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslarini tashkil etuvchi qoidalar to'plamini asoslash. oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning yo'naltirilgan mazmuni;
- jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishning konseptual yondashuvlarini aniqlash;

– jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash modelini ishlab chiqish;
– o'quvchilar jismoniy tarbiyasida ta'limni insonparvarlashtirishning yetakchi yo'nalishlari, didaktik tamoyillari va psixologik-pedagogik shartlarini aniqlash;
– o'quvchi shaxsi jismoniy madaniyatini shakllantirish sharoitida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini tajriba-sinov tekshirishni amalga oshirish;
– insonparvarlik yo'nalishidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash shaxs jismoniy madaniyatining mazmunli xususiyatlari bilan jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmuni;
– universitetda jismoniy tarbiya mazmunini insonparvarlashtirish tamoyillari asosida loyihalash va tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari. Vazifalarni hal qilish va tadqiqot farazsini tekshirish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik va maxsus adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, universitetlarning jismoniy tarbiya kafedralarining shaxsiyat muammolari bo'yicha tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish. jismoniy tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassisni shakllantirish, talabalar va o'qituvchilaridan so'rovnoma va anketa olish, o'z pedagogik faoliyatini retrospektiv tahlil qilish, modellashtirish, ekspert baholash usuli, gumanitar yo'naltirilgan mazmunning ishlab chiqilgan modelini aprobatsiya qilish va tuzatish bo'yicha pedagogik tajribalar o`tkazildi. Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim, tajriba ishtirokchilarining harakatchanligini nazorat qilish testlari, statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik usullari qo`llanildi.

Tajriba-sinov ishlari dasturining amalga oshirilishi taklif etilayotgan jismoniy madaniyat ta'limining gumanitar-yo'naltirilgan mazmuni modelining samaradorligini tasdiqladi.

Jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunining insonparvarlik ahamiyatini aniqlashda ekspert protsedurasi quyidagilardan iborat edi: talabalar tomonidan o'z-o'zini diagnostika qilish, bu sub'ektivlik printsipiga va malakali va tajribali universitet o'qituvchilarining ekspert bahosiga mos keladi. Tanlangan mezonlar bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish ko'rsatkichlarini (TMIK) kompleks monitoringi tajriba-sinov va nazorat guruhlarida sezilarli farqlarni qayd etish imkonini berdi (1-rasm q.). Ekspert baholash natijalariga ko'ra, birinchisi barcha sakkizta mezon bo'yicha o'quv manbaalarining insonparvarlik

qiymati ko'rsatkichlarini yaxshilashning aniq progressiv xarakterini ko'rsatdi, bu ishlab chiqilgan dasturning samaradorligini ko'rsatadi.

Natijalar tahlili. Tajriba-sinov guruhlarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining qiymat-semantik tashkil etilishining o'sishi TMIK 0,89 (yuqori daraja), nazorat guruhlarida - 0,30 (past daraja) bilan aniqlandi; an'anaviylik mezoniga ko'ra, tajriba-sinov guruhlarda TMIK 0,78 (o'rtachadan yuqori daraja), nazoratda - 0,27 (past daraja); TMIKni amalga oshirish amalga oshirilayotgan ijodiy ta'lim muhiti mezoniga ko'ra, mos ravishda 0,86 (yuqori daraja) va 0,39 (past daraja) ni tashkil etdi; tashqi kontekst mezoniga ko'ra, mos ravishda 0,89 (yuqori daraja) va 0,24 (past daraja); «o'zini o'zi boshqarish» ning namoyon bo'lish mezoniga ko'ra TMIK 0,88 (yuqori daraja) va 0,30 (past daraja) edi.

Agar tajriba boshida solishtirilgan guruhlarda 60,6% dan 80,5% gacha talabalar va ekspertlar «men»ning namoyon bo'lish mezonini «mazmunda ifodalanmagan» deb baholagan bo'lsa, tajriba oxirida talabalarning 74% va o'qituvchilarning 88,9 foizi uning tajriba-sinov mazmundagi ijobiy namoyon bo'lishi haqida o'z fikrlarini o'zgartirdilar. Ayniqsa, o'quvchilarda o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini rivojlantirishga doimiy ehtiyojning namoyon bo'lishidagi progressiv o'zgarishlar sezildi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich deyarli o'zgarishsiz qoldi.

«Jismoniy madaniyat» fanining mazmuni uning gumanitar mohiyatini belgilaydi va talabalarni jismoniy madaniyatning gumanitar qadriyatlari bilan tanishtirishda bir qator umumiy ta'lim va kasbiy yo'naltirilgan fanlarga kiritadi, ular orasida shaxsning o'zini o'zi o'zgartirish, o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq qadriyatlar mavjud. 1-rasmda jismoniy madaniyatning gumanitar qadriyatlarini pofillash natijasida talabalarning o'zini o'zi o'zgartirish jarayoniga qo'shilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan[7,8,10]. Tajriba-sinov guruh talabalari psixofiziologik qobiliyat va imkoniyatlarni aniqlashda, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega; o'z istagini mukammal o`rganishga intilish ((o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilish qadriyatlari); kognitiv faoliyat, kognitiv faoliyat usullarini o'zlashtirish ,o'z-o'zini o'rganish qobiliyatlari (o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini takomillashtirish qadriyatlari); jismoniy holatni o'z-o'zini boshqarish, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini belgilangan maqsadga muvofiq ravishda tuzatish va qayta tashkil etish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati, psixofiziologik tartibga solish usullarini (o'z-o'zini tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish qadriyatlari) bilish. Talabalarning nazorat guruhlarida esa bu ko'rsatkichlar zaif ifodalangan.

Tadqiqot farazsini tasdiqlash uchun muhim masala talabalarning o'zini o'zi o'zgartirish jarayoniga jalb qilishning psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash edi.


1-jadval

Oliy ta`lim muassasalarida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish

№	Mezon asoslari	Asosiy qadriyatlar
1	Qadriyatlar qimmati	1.Insonparvarlik 2.Individuallik 3.Insonparvarlik bilimi
2	Madaniy	1.Intellektuallik 2.Kognitivlik 3. Yaxlitlik
3	Innovatsion	1.Muammoli 2.Kreativlik 3. tanqidiylik
4	Tizimli va izchil faoliyat	1. ma'naviy va jismoniy mohiyatni amaliy o'zgartirish 2.Professionalikka yo`naltirish 3.Faol harakat faoliyati
5	Konventsiyali	1.Variativlilik 2.Bashoratlash 3.Alternativlik
6	Ijodiy bilish muhiti	1.Insonparvarlikning mikrosiyosiy muhiti 2.Kommunikativlik 3.O'qituvchi shaxsining tizimli yaratuvchiik roli
7	Yuqori kontekstlik	1.Universitetdan tashqari kommunikatsiya 2.Bardavomlik 3.Turg`unlik
8	O'z-o'zini namoyon qilish	1.o'z taqdirini o'zi belgilash 2.o'z-o'zini bilish 3.o`z-o`zini o`zgartirish


O'z-o'zini anglash, o'zini o'zi belgilash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi boshqarish jarayonlarini o'rganish uchun o'z-o'zini anglash testi qo'llanildi. Uning yordami bilan quyidagilar baholandi: o'quvchilarning istak va ehtiyojlariga munosabati, o'ziga ishonchi (o'zini o'zi anglashi); shaxsning ruhiy salomatligi, uning yaxlitligi, mustaqilligi va erkinligi (avtonomiya); o'quv va kasbiy faoliyatga, hayotga (ijodkorlikka)

ijodiy munosabat; boshqalar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish qobiliyati (aloqa). Muvaffaqiyat motivatsiyasi - natijalarni yaxshilashga intilish, o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatlilik - butun hayotga ta'sir qiladigan asosiy shaxsiy xususiyatlardan biridir. Talabalarning jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida o'z taqdirini o'zi belgilashga tayyorligi, uni takomillashtirish yo'llarini izlash to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib, unga erishish zarurligi to'g'risidagi anketa ma'lumotlari bo'ldi.



2-rasm. Natijada o'quvchilarning o'z-o'zini o'zgartirish jarayoniga jalb etilishi

Tajriba oxirida jismoniy madaniyatning insonparvarlik qadriyatlarini ichkilashtirish: 1 - o'z-o'zini baholash va o'zini o'zi bilish, 2 - o'z taqdirini o'zi belgilash, 3 - o'zini o'zini tushunish va o'zini o'zi anglash, 4 - o'zini o'zi



3-rasm. Talabalar guruhlarida shaxsiy fazilatlarni o'z-o'zini o'zgartirishga tayyorlik ko'rsatkichlarining jiddiyligini o'zgartirish.

rivojlantirish. o'z-o'zini takomillashtirish, 5- o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini tartibga solish.

Tajriba davomida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish sub'ektlar guruhlarida talabalarning shaxsiy fazilatlarining jiddiyligini aniqlash imkonini berdi. Aniqlanishicha, barcha tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhi talabalari sezilarli ijobiy o'zgarishlarni o`zlarida sezishgan. ($p < 0.01$ darajasida) o'z-o'zini anglash, ijodkorlik va erishish istagi zarurati nuqtai nazaridan o'zgarishlar sezilarli darajada edi. Tajriba davri uchun nazorat guruhida o'zgarishlar ifoda etilmaydi (3 rasmga q). Olingan natijalar gumanitar yo'naltirilgan ta'lim mazmunining talabaning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan, o'zi tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan talabalarning subyektiv faoliyatiga ta'siri haqidagi farazni tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov tadqiqot natijalari ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini o'zlashtirishda tajriba-sinov guruhlarda shaxsning jismoniy madaniyati tarkibiy qismlari (SHJM) rivojlanishining barqarorligini aniqlashga imkon berdi. Ushbu ta'sir diagrammalar tomonidan aniq ko'rsatilgan (3-rasmga q.).

Xulosalar. Jismoniy tarbiya sohasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri uning mazmunini insonparvarlashtirish ekanligi aniqlandi. Uning loyihasi va tashkil etilishi ta'lim amaliyoti talablariga samarali javob beradi. Jismoniy madaniyatning gumanitar ahamiyati mutaxassis shaxsni har tomonlama yetuk rivojlantirishga, talabalarning inson va ularga yo'naltirilgan tizimli bilimlarini shakllantirishga, shaxsning o'zini namoyon qilishi va o'zini anglashi uchun qulay imkoniyatlar yaratishga, talabalarning o'zlarining muhim kuchlarini sog'lom va samarali hayot tarzida to'liq amalga oshirishga tayyorligini faollashtirishda namoyon bo'ladi.

1. Jismoniy madaniyat ta'limini insonparvarlashtirishning mazmunli jihati murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, u quyidagilarni nazarda tutadi: uning mazmunida insonparvarlik qadriyatlarini aniqlash; o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy kuchlari va qobiliyatlarini uyg'unlashtirish; ularni hayotning tabiiy va ijtimoiy sohalarida tashabbuskorlik va mas'uliyatni tarbiyalash; shaxsiy va kasbiy o'sish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini ta'minlash; bo'lajak mutaxassis shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi takomillashtirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

2. Jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmuni modeli ishlab chiqildi, bu evolyutsion yo'l bilan amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyaning innovatsion tizimini loyihalash strategiyasini asoslash

imkonini beradi; pedagogik loyihani mantiqiy va didaktik loyihalashda amalga oshirish, uning natijalarini amaliyotga tatbiq etildi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida « PF-5368-son farmoni. 2018 yil 5-mart.

2. 2019-2023 O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 15-fefral.

3. Kholboeva, Gulhayo Kholboevna (2021) «Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes,» Eurasian Journal of Sport Science: Vol. 1: Iss. 2, Article 1. Available at: https://uzjournals.edu.uz/eajss/vol1/iss2/1

4.Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojieva X.B. Methodology of the improvement of preliminary gimnstic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569.

5.Holboeva GH Mechanisms of improving primary gymnastics in increasing the motor activity of preschoolers // Scientific Bulletin of the Samarqand State University 2019, issue 6; 140-144.

6.Xolboyeva G.X. Methods of development of physical qualities in gymnastics for 5-7 years old». // Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 Volume 6, issue 6, june -2020; 743-747.

7. Holboeva G. H. Nazarova D. Mechanisms of increasing the motor activity of children aged 5-6 years on the basis of initial gymnastic exercises. // Scientific theoretical journal «Science to sport». 2020 Year Number 6. ISSN.2181-7804; 72-75.

8. Haydarov B.T., Holboyeva G.H., Theory and methodology of physical education. // Textbook Samarqand state university edition. 2020; 56-59.

РЕЗЮМЕ

Jismoniy tarbiyaning sifatini tubdan o'zgartiruvchi yana bir asosiy vazifasi - ta'limni shaxsning jismoniy, axloqiy va aqliy rivojlanishining haqiqiy mexanizmiga aylantirish funktsiyasidir. Ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida shaxsning rolini kuchaytirish jismoniy tarbiya tizimini jamiyatning sog'lom inson salohiyatining asosiy manbai sifatida tubdan o'zgartirishning o'ta muhim vazifasidir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori pedagogik va ilmiy-tadqiqot madaniyatiga ega, keng ma'noda kasbiy ijodkorlikka qodir mutaxassislar talab etiladi.

РЕЗЮМЕ

Другой основной задачей, принципиально меняющей качество физического воспитания, является функция превращения воспитания в реальный механизм физического, нравственного и психического развития человека. Усиление роли личности во всех сферах общественного развития является важнейшей задачей коренного изменения системы физического воспитания как основного источника здорового человеческого потенциала общества. Для выполнения этих задач в области физического воспитания и спорта требуются специалисты с высокой педагогической и научно-исследовательской культурой, способные к профессиональному творчеству в широком смысле.

SUMMARY

Another main task that fundamentally changes the quality of physical education is the function of turning education into a real mechanism of physical, moral and mental development of a person. Strengthening the role of the individual in all areas of social development is a very important task of fundamentally changing the physical education system as the main source of healthy human potential of the society. To carry out these tasks, specialists with a high pedagogical and scientific-research culture, who are capable of professional creativity in the broad sense, are required in the field of physical education and sports.

JISMONIY MADANIYAT O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Qosimov F.J.
Sharof Rashidov nomidagi Sam DU mustaqil izlanuvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy, tarbiya, mutaxassis, ta’lim, tarbiya, soha, kasbiy kompetentlik, innovatsion, texnologiya.

Ключевые слова: физический, учебный, специалист, образование, обучение, сфера, профессиональная компетентность, инновационная, технология.

Key words: physical, educational, specialist, education, training, sphere, professional competence, innovative, technology.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyoev “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtish hamda sport tashkilotlarini, ta’lim va sport-ta’lim muasssasalarini yuqori malakali trenerlar va boshqa sport mutaxassislari bilan ta’minlash ishlarini yanada samarali tashkil qilish” bu boradagi asosiy vazifalarimizdan bir ekanligi alohida takidladi. Bu borada jismoniy madaniyat o‘qituvchilarni kasbiy kometentligin malaka oshirish jaronida takomillashtish, uning amaliyotdagi holatni o‘rganish, muammoning didaktik imkoniyatlarin ta’lil qilish, ularni kasbiy kompetentligini takomillashtirishning mazmuni aniqlash va belgilash, uslubiy tavsiyalar ushlab chiqish, jismoniy madaniyat o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligin takomillashtishga xizmat qiladi va metodik jihatdan natijadorligin ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “2022-2026 yilarga mo’ljalangan yangi O‘zbekistonning tarqqiyot strategiyasi to’g’risida” gi 2022 yil 28 yanvardagi 60-sonli farmoni, 2019-yil 29-aperladgi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimni 230-yilgacha rivojlantirsh konsepsiyasin tasdiqlash to’g’rida”gi PF-5212-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 27 avgistagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedogigk kadrlarini uzliksiz malakasini oshirish tizimimni joriy etish to’g’risida”gi PF-5789-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Mazirlar mahkamasining 2022-yil 4-iyundagi “Jismoniy tarbiya va sport bo’yicha mutaxassislarni qayta tayorlash va malakasini oshirish tizimini yanda tokomillashtish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 355-sonli qarori

hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarni belgilash vazifalarini amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti muayan darajada xizmat qiladi.

YUNESKOning ma'ruzasida quyidagi ta'rif berildi: kompetensiya - bu har bir insonga xos bo'lgan o'ziga xos mahorat kokteyli bo'lib, u kvalifikatsiya, ijtimoiy xulq-atvor, guruhda ishlash qobiliyati, tashabbuskorlik va tavakkalchilikka asoslanadi.

Framework for Qualification of the EHEA kvalifikatsiyasini oshirish doirasi mutaxassislarning vakolatlari - kasbiy va (yoki) shaxsiy rivojlanish jarayonida ish yoki o'qish sharoitida bilim, kompetensiya, shaxsiy, ijtimoiy va uslubiy kompetensiyalardan foydalanishning tasdiqlangan qobiliyati, debbelgilangan.

Ma'lum bir sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, kompetensiya va shaxsiy fazilatlarni qo'llash qobiliyati sifatida davlat standarti belgilanadi. Bu "Kompetensiya" tushunchasiga mos keladi. Qisqacha aytganda, vakolat "qobiliyatni namoyish etishistagi". "Imkoniyat" esa muammoli vaziyat va resurslarning mavjudligiga bog'liq.

"Qobiliyat" bu bilim, kompetensiya va ularni qo'llashdagi tajribaning kombinatsiyasi. "Tayyorlik" muammoli vaziyatni hal qilish "qobiliyati" namoyon bo'lishining motivatsiyasi bilan bog'liq.

Kelajak avlodning sog'lom turmush tarzi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Har bir mamlakat o'zining sog'lom, mehnatga layoqatli, Vatanni himoya qiladigan, jamiyat talablari va o'ziga xos shaxsiyatiga mos hayot kechiradigan yangi avlodning kelajagini kutadi. Va bu shuni anglatadiki, asosiy e'tibor bolalar, o'smirlar, yoshlar, ya'ni inson tanlashni boshlagan yoshda, unga nima qiziqarli va qulayroq bo'lishi kerak, ya'ni jismoniy tarbiya va sport. hamma uchun ochiq va qiziqarli bo'ladi.

Pedagogik jarayonni texnologiyalashtirish g'oyasiniilgari surganimiz holda, ushbu tadqiqot vazifalarini hal etish jarayonida o'qitish texnologiyasi kategoriyasining mohiyatini dalillashni muhim deb hisoblaymiz.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, o'qitish texnologiyasi muammosini ishlab chiqishda O'zbekiston olimlaridan O'.Tolipov, X.Yo'ldoshev, M.Ochilov, U.Nishonaliyev va boshqalar faol bo'lishgan. Chet mamlakat tadqiqotchilardan A.Faberman, D.E Arnold., J.E Razer., D.Crase, G.Luschen, R.F.Lesgaft, H.Lenk,V.V.Stolbov, L.A Finogenova., B. HXon, M.Daniels va boshqalarning ishlari bor. Olimlarning bu asarlaridagi qarashlari har doim ham o'zaro mos kelavermaydi.

Biz olimlarning asarlarida uchraydigan ta’lim-tarbiyashunoslikni o‘qitish texnologiyasi orqali bog‘liq bo‘lgan tushunchalarning ba’zi tomonlarini keltib o‘tamiz.

“O‘qitish texnologiyasi” tuchunshasi birinchi marta 1970 yil YUNESKO konferensiyasida kiritilgan, umumiy ma’noda “bilimlarni o‘qitish va o‘zlashtirishning butun jarayonini texnika va odam resurslarini, ularning o‘zaro ta’sirlashuvini hisobga olgan holda qo‘llash va aniqlashning ta’lim shakllarini optimallashtirishni o‘z vazifasi etibbelgilagan tizimli metodi” sifatida e’tiborga olingan edi. Biroq o‘sha damdan boshlab mazkur tuchunsha ancha o‘zgardi.

N.V.Kuzmina bu qoidaga “O‘quv jarayonida qatnashadigan va ta’lim tizimining takomillashishiga yordam beradigan barcha narsani-turli metodlarni, materiallarni, jihozlarni va ta’minot tizimini” kiritadi.

B.L.Farberman o‘qitish texnologiyasi deb, “O‘quv faoliyatini nazariy boshqarishning texnik loyihasini va pedagogik tizimning talabalarga ta’lim berish va tarbiyalashni takomillashishning berilgan maqsadlariga muvofiq ishlashini ta’minlaydigan zaruriy vositalar tizimi”ni tushunadi.

O‘.Tolipov o‘qitish texnologiyasini o‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan o‘qitish mazmunini amalga oshirish usuli deb qaraydi va o‘qitish shakllari, metodlari va vositalarini o‘z ishiga oladi va ular tufayli u yoki bu qo‘yilgan maqsadlarga eng samarali erishish ta’minlanadi, deb aytadi.

M.Axmedjanov o‘qitish texnologiyasi – tarbiyada didaktik tizimning tarkibiy jarayonli qismi deb ko‘rsatadi.

Malaka oshirish tizimida o‘qitish jarayonini tashkil etilishining tadqiqotchisi E.G‘oziyev ushbu ta’rifni qo‘llashni maqbul topgan: “O‘qitish texnologiyasi – bu o‘qitish mobaynida tarbiyani takomillashtirish uchun zaruriy didaktik shakllar, metodlar, uslublar va sharoitlarning maxsus tartiblanishini o‘z ichiga oladigan psixologik-pedagogik jarayonlarning tizimli kompleksi hisoblanadi”.

Shundan ma’lumki, mualliflar pedagogik jarayonni tizimli tasvirlashga harakat qiladilar. Ko‘pchilik tadqiqotchilar o‘qitish texnologiyasi o‘quv jarayonini kafolatlangan natijaga erishishga (didaktik maqsadlarga erishishga) yo‘naltirilgan ma’lum tartibda tuzish va amalga oshirish bilan bog‘langan degan fikrga kelishadi.

Bunda E.G‘oziyev qayd etganlaridek, o‘qitishning kafolatlangan didaktik maqsadlariga erishish tegishli vositalarga qo‘llanilgandagina mumkin. O‘qitish vositalarining yuqori unumdorligi va ulardan foydalanish xususiyatlari mutlaqo o‘zgasha o‘qitish texnologiyasini amalga oshirishning eng muhim xarakteristikalaridan biri bo‘ladi.

Hozirgi zamon ilmiy adabiyotining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab mualliflar Axmedov F.Q., Begimqulov.U.Sh., Jo‘rayev R.H., Tolirov O‘.K., Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A., NurmanovA.T., To‘raqulov X. A. bular jumlasiga tizimlilik, ilmiylik, integratsiyalanuvchanlik, samaradorlik, axborotlilik, o‘qitish sifati va motivatsiyasining yangiligini, algoritmikligini, axborotdorligini, ko‘paytirish va yangi sharoitlarga o‘tkazishni kiritadi. Bu qonunlar va qonuniyatlar qanchalik to‘liq oshilgan va amalga oshirilgan bo‘lsa, talab qilingan natijani hosil qilish kafolati shunchalik yuqoridir. Shunday qilib, o‘qitish texnologiyasining barcha yetakchi belgilari qonunga muvofiqlik mezonlariga javob berishi kerak.

Su bilan bir tomonda eng muhim jihatli belgilar jumlasiga diagnostik maqsadni hosil qilish, natijaviylik, tejamkorlik, algoritmlanuvchanlik, loyihalanish, tizimli butunlik, boshqaruvchanlik, korreksiyalanish va vizualizasiyani kiritish mumkin. Bu belgilar N.Muslimov, Markova, A.X.Meliyevlar asarlarida eng to‘liq ochib ko‘rsatilgan. Bu qayd etib o‘tilgan belgilar tadqiqot jarayonida – «kasbiy ta’lim texnologiyalari» o‘quv fanining o‘qitish texnologiyasi loyihasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida pedagogik layoqatni tarbiyalashda yo‘nalish bo‘ladi deb hisoblanadi.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarni yakunlab aytish joizki, o‘qitishni texnologiyalashtirish sohasida tahlil etilishi lozim bo‘lgan material hajmi borgan sari oshib borishi, tarbiya maydoni esa torayib borishi inobatga olinadi. Olimlar borgan sari ko‘proq, shunga yaqin nuqtai nazarda ta’lim va tarbiya birligini mustahkamlash, kuchaytirish zaruriyati haqida mulohaza bildirmoqdalar. Shu sababli mazkur tadqiqotimizda aniqlangan masalalarni yechish maqsadida, M.Ochilov taklif etgan yondashuvga tayangan holda quyidagi qoidaga asoslanamiz: o‘qitish texnologiyasi– bu qonunga mos ravishdapedagogik faoliyat bo‘lib, didaktik jarayonning ilmiy asoslangan loyihasini amalga oshiradi va an’anaviy o‘qitish modellariga qaraganda natijaning yuqori darajada samaradorligi, ishonchliligi va kafolatlanganligiga ega ekanligi qayd etiladi.

Shu asos bo‘ladigan ta’rif, o‘qitish texnologiyasi jarayon va natija holatlarida bo‘ladigan qiymatlarida modifikatsiyalanishi mumkin.

Jarayonning nuqtai nazaridan o‘qitish texnologiyasi birgalikda bir butun (yaxlit) didaktik tizimni tashkil etadigan pedagogik jaryonlar, operatsiyalar va uslublar ketma-ketligi bo‘lib, uning pedagogik faoliyatda amalga oshirilishi o‘qitishning kafolatlangan maqsadlariga etaklab boradi, ya’ni ta’lim jarayonining o‘zgaradigan sharoitlarida bashoratlanayotgan o‘qitish natijasiga erishilishini ta’minlaydi va talaba shaxsining» yaxlit takomillashishiga yordam beradi.

Bu borada pedagogning o‘zaro bog‘langan harakatlari tizimi didaktik vazifalarni hal etishga va amaliyotda oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni reja asosida, izchil amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

O‘qitish texnologiyasi (natija sifatida) didaktik jarayonning ilmiy loyihasi (tavsifi, modeli)dan iborat bo‘lib, uning qayta tiklanishi pedagogik amallarning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Malaka oshirih tizimida o‘qitish jarayoni, jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini tayyorlashga yo‘naltirilganligini hisobga olinsa, pedagogning texnologik darajadagi faoliyatining mezonlari (kriteriylari) sifatida quyidagilarni ko‘rsatish muhimdir:

– aniq va diagnostik berilgan maqsadning mavjudligi, ya’ni tushunchalar, operatsiyalar, tinglovchilar faoliyatining kutilayotgan o‘qitish natijalari, bu maqsadga erishish diagnostikasi usullari kabi korrekt o‘lchanish ekanligi;
– mavzuni (material, kasbiy vazifalar nabori va h.k.) o‘zlashtirishning yetarlicha qat’iy ketma-ketligi, mantiqi, ma’lum bosqichlarining mavjud ekanligi;
– o‘rganilayotgan mavzuni bilish va amaliy masalalar ko‘rinishida, asosi va ularni yechish usullarini tasvirlashzaruriyati;
– o‘quv jarayoni ishtirokchilarining (o‘qituvchi va talabalarning, talabalarning bir-biri bilan) o‘zaro ishlashi usullarini ko‘rsatish ahamiyati;
– o‘quv jarayonining natijaviyligi nuqtai nazaridan o‘qituvchining eng optimal o‘qitish vositalaridan foydalanishi zaruriyati;
– o‘qituvchi va tinglovlarning shaxsiy vazifalarni amalga oshirishlariga asoslangan faoliyatning motivatsiyali asoslanishi (erkin tanlov, kasbiylik, musobaqalashish, hayotiy va kasbiy ma’no);
– o‘qituvchining qoidaviy (algoritmik) va ijodiy faoliyati chegaralarini belgilash, yagona qoidalardan ruxsat etiladigan chetga chiqishlarining ko‘rsatilishi jarayonlaridir.

Bu sanab o‘tilgan kriteriyalar tinglovchilar kasbiy layoqatliligining takomillashganlik baholari kriteriyalarini ishlab chiqishda asos bo‘ladi.

Quyida aytilgan mulohazalarni, fikrlarni umumlashtirib, jismoniy madaniyat o‘qituvchilarini o‘qitishda texnologik yondashuvning mohiyatini asoslaymiz, u quyidagilardan iborat ekanligini ta’kidlash joizdir:

– o‘quv jarayonini dastlabki loyihalash va keyin bu loyihani pedagogik amaliyotda qayta tiklash imkoniyatini yaratilishi;
– qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishilganlik sifatini ob’yektiv nazorat qilish imkoniyatini ko‘zda tutuvchi maxsus maqsad tuzish tizimi;

– o‘qitish texnologiyasining strukturaviy va mazmuniy yaxlitligi, ya’ni uning komponentlaridan biriga, boshqalariga tegmasdan turib o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi inobatga olinadi;
– o‘qitish texnologiyasi barcha elementlarining to‘la aniqlangan va qonuniyatli bog‘lanishlari bilan taqozo etiladigan optimal metodlar, shakllar va vositalarning tanlanishi usullari;
– o‘qitish jarayonini o‘z vaqtida va samarali korreksiyalash imkonini beradigan teskari aloqaning mavjudligi inobatga olinadi.

Shunday qilib, kasbiy-yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi doirasida nazariy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni, mutaxassisning kasbiy kompetentliki va shaxsiy sifatlarini tarbiyalash talabalarning o‘quv fani loyihasini yaratishlari va amalga oshirishlari sharoitlarida ro‘yobga chiqishi mumkin. U kasbiy kompetentlikni egallash maqsadlariga erishish vositasi bo‘ladi. Tinglovchini ta’limiy-kasbiy dasturining barcha bo‘limlari faoliyatining bilimlari va usullarini kasbiy vazifalarni hal etish vositasiga aylantirish texnologiyasiga ega bo‘ladi deb tushuniladi.

Texnologik yondashuv ta’lim sifatini oshirish, uning mazmunini takomillashtirish va buning natijasi sifatida malaka oshirish muassasasi bitiruvchilarining kasbiy layoqatliligini oshirishning sharti bo‘lib qoladi.

Istalgan yo‘nalish mutaxassisi kasbiy layoqatliligining umumlashgan kriteriyasi sifatida uning amaliy faoliyati natijalari qaralishi mumkinligiga asoslanib, jismoniy madaniyat o‘qituvchilarida bu fenomen kriteriyalari, ko‘rsatkichlari va darajalarini asoslashni pedagogik mehnatning sub’yektiv va sub’yektiv xarakteristikalari tizimi orqali amalga oshirishi mumkin.

Mazkur holda ob’yektiv xarakteristikalar pedagogik faoliyatning maqsadlari va vazifalari, uning strukturasi, o‘qituvchi hal qiladigan muammolar doirasi va uning o‘z vazifalarini kerakli natijaga erishish maqsadida bajarishdan iborat bo‘ladi.

Ilmiy manbalarning tahlili quyidagicha xulosaga kelish imkonini beradi: jismoniy madaniyat o‘qituvchisi o‘z faoliyatida maktab o‘qituvchilari takomillashishining yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda aniq o‘qitish, rivojlantiruvchi va tarbiya maqsadlarini aniqlaydi, o‘quv mashg‘ulotlari uchun material tanlaydi, tinglovchilarni kasbiy tayyorlashning samarali vositalari, shakllari va usullarini tanlashni amalga oshiradi, qo‘yilgan maqsadlarga erishilishi uchun zaruriy psixolog-pedagogik va moddiy-texnik sharoitlar yaratadi, o‘quv jarayonining borishini tashkil etadi, uquv va malakalarini o‘z vaqtida nazorat qilish va baholashni o‘tkazadi. O‘qituvchi o‘qitish faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o‘quv

jarayoni samaradorligini oshirish uchun imkoniyati boricha optimal didaktik sharoitlar yaratishga intiladi. Shu sababli didaktik aspektda o‘quv jarayoni – bu talabalarning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadlarida o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan jarayon bo‘lib, turli o‘quv-kasbiy vazifalarni hal etishga qaratilgan va buning natijasida talabalar bilim, o‘quv va malakalarni egallaydilar va o‘z shaxsiy hislatlarini takomillashtiradilar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yangi O’zbekiston taraqiyot strategiysi”. 3-nashri. T: “O‘zbekiston”, 2022, 221 b.

2. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммеҳнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантириш технологияси: Пед.фанлари доктори илмий даражасини олиш учун диссертация. –Тошкент: 2004. 269 б.

3. Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. -T.: RTM, 2004. -104 b.

4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.-Qarshi.Nasaf. 2000- 80 b.

5. NishonaliyevU. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Т.: Фан, 1996. – 88 с.

6. Farberman B.L. Oliy o‘quv yurtlarida o‘qitishning zamonaviy usullari.- Toshkent, 2002.-B.192

7. Arnold D.E. and Razer J.E. Physisal Education and community Education: Extending The Score of physisal Education. - Physical Educator. March 1977, vol. 34.n 1.

8. Razer J.E. and Arnold D.E.Physisal Education and community Education: Extending The Score of physisal Education. - Physical Educator. March 1977, vol. 34.n 1.

9. Crase D. Has Physisal Education Achieved a Scholarly Dimension. - Journal of Physisal Education and Respeation, October 1978. - R. 21-24; Shelton J.W. Phisysal Education In Persrective. - Phisysal Edusator, May 1971. - Vol. 28, N 2.

10. Zeigler E.F. Without Rhilosorhy, Soashes and Phisycal Educators Are Unguided Missiles. - Phisycal Edusator, October 1980. - Vol. 37, N 3.

11. Luschen G. Sosiology of Sport: development, present state and prospests. - Annual Review of Sociology, 1980, N 6. R. 315-347.

РЕЗЮМЕ

Maqolada jismoniy madaniyat o‘qituchilarining kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda innovatsion yondashuv asosida ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье описана роль учителей физической культуры в образовательном процессе, основанном на инновационном подходе к повышению профессиональной компетентности.

SUMMARY

The article describes the role of physical education teachers in the educational process based on an innovative approach to improving professional competence.

BO‘LAJAK JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINING PEDAGOGIK MADANIYATI VA KOMPETENSIYASINI O‘STIRUVCHI JISMONIY MASHQLARNI TASNIFLASH

Mexmonov R.N.
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Mamadova F.M.
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: pedagogik madaniyat, pedagogik tadqiqotlar, milliy harakatli o‘yinlar, akmeologik, sport jismoniy tayyorgarlik, psixologik, jismoniy mashqlar, sport to‘garaklari, jismoniy tarbiya, jismoniy kamolot, jismoniy holat, jismoniy yetuklik, funksional tayyorgarlik.

Ключевые слова: педагогическая культура, педагогические исследования, национальные подвижные игры, акмеологическая, спортивная физическая подготовка, психологическая, Физкультурная деятельность, спортивные кружки, физкультминутка, физическая зрелость, физическая зрелость, функциональная подготовленность.

Key words: pedagogical culture, pedagogical studies, national action games, acmeological, Sports Physical Training, psychological, physical exercises, sports clubs, physical education, physical maturation, physical condition, physical maturity, functional training.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarida bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik jarayondagi jismoniy mashqlarning izchil va tartibli tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu orqali talabalarda jismoniy madaniyatni akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishning texnologiyasi shakllanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlariga nazar tashlansa, yoshlarni tarbiyalashda ratsional yondashuv asosida jismoniy mashqlarning jamlanmasi yoki inson jismoniy sifatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi shakllari tanlab olingan va ta’lim-tarbiyada ularga alohida e’tibor qaratilgan. Misol qilib Qadimgi Yunonistondagi beshkurashni keltirish mumkin. Beshkurash orqali Yunonistonda jismoniy kamolot darajasi va qatnashchilarning jismoniy imkoniyati, yuksak jismoniy sifatlari aniqlangan. Bugungi kunda ham rivojlangan oliy ta’lim muassasalarida talabalarni jismoniy sifatlariga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki, jismoniy yuksak sifatlarga ega talabalargina yuksak intellekual qobiliyatlarini namoyon qila oladi va raqobatbardosh kadr bo‘ladi. Lekin, bu degani nogiron yoki imkoniyati cheklangan talabalar kuchli bo‘lmaydi degan yondashuv noto‘g‘ri bo‘lsada, har bir kadr ham aqlan va ham jismonan yetuk bo‘lsa bu yanada keng

imkoniyatni yuzaga chiqaradi. Shunday bo‘lsada, nogiron yoki imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy holatini yaxshilash, ularni sog‘lomlashtirishga doir ishlarni muntazam olib borish ham oliy ta’lim muassasasining tashkiliy-pedagogik faoliyatining mazmunini tashkil qiladi.

Jamiyatimizda ham talaba-yoshlarni barkamol inson sifatida tarbiyalash doirasida oliy ta’lim muassasalarida ham ta’lim-tarbiya bilan birga jismoniy sifatlarni rivojlantirish, sog‘lomlashtirish va sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq mashg‘ulotlarni tashkil etilishi va bu jarayon akmelogik yondashuv asosida olib borilishi natijasida yurtimizda yoshlar o‘rtasida sportga qiziqish, sport musobaqalaridagi yuqori natijalardan ham bilish mumkin. Shuningdek, bu o‘zgarishlarni ta’lim tizimidagi pedagogik jarayonga o‘ziga xos tarzda, yangicha yondashuvning mahsuli ham deyish mumkin. Oliy ta’lim tizimida Abu Ali ibn Sino tomonidan ilgari surilgan insonga xos bo‘lgan ijo¬biy fazilatlarni talaba-yoshlarda ham shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bular:

1. Jasurlik - biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to‘xtatib turuvchi quvvat.

2. Aqllilik - biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat.

3. Ziyraklik - sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushunti¬rishga yordam beruvchi quvvat.

Tarixdan shakllangan jismoniy madaniyatni rivojlantiruvchi mashqlarga yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, og‘ir narsalarni ko‘tarish mashqlari, uloqtirish, suzish, himoyalanish va hujum qilish kabilar kiritilgan va insonlarning jismoniy sifatlari va imkoniyatlarini baholashda ushbu mashqlarning qanchalik yuksak darajada bajarilishiga e’tibor qaratilgan.

Avstriyalik olim-pedagoglar K.Gaulgofer va M.Shtreyxer tomonidan shakllantirilgan jismoniy sifatlarni yuksaltiruvchi jismoniy mashqlar turkumlanishi «pedagogik maqsadlar» bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, ular talaba-yoshlarda jismoniy madaniyatni akmeologik yondashuv asosida rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini o‘stiruvchi jismoniy mashqlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tenglashtiruvchi mashqlar;
2. Shakllantiruvchi mashqlar;
3. Yetuklikka oid mashqlar;
4. Harakatlarni chiroyli bajarish mashqlari.

Bunday turkum mashqlar orqali pedagogik jarayonda bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini

rivojlantirish uchun talabalarning ruhiy tayyorgarligi va ma'naviy irodasini ham tarbyalash, ularda yuksak fazilatlarni shakllaishiga asos bo'ladi. Chunki, bugungi kunda talaba-yoshlarda jismoniy kamolot va jismoniy tayyorgarlik yuqori bo'lgan holda ma'naviy - ruhiy iroda va bardoshning yetarli emasligi ularning ishda, kasbiy faoliyatda, sport musobaqalarida yoki boshqa bellashuvlarda o'z imkoniyatlarini ko'rsata olmasligiga sabab bo'lmoqda. Shunday ekan, talaba-yoshlarda «jismoniy madaniyat sifatlarini rivojlantirish bilan birga o'ziga ishonch va o'z shaxsiyatini rivojlantirishdek pedagogik faoliyat ta'lim tizimida yaratilmas» ekan, yuksak marralarga erishish juda qiyin bo'ladi.

Boshqa bir pedagogik tadqiqotlarda bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan jismoniy-pedagogik mashqlar quyidagicha tasniflangan.

1. Oddiy mashqlar;
2. Murakkab mashqlar yoki kuchlanish ortib boradigan mashqlar;
3. Maqsadi fazoviy munosabatlarini o'rganish va vaqtga ko'ra ishni taqsimlashdan iborat bo'lgan mashqlar;
4. Murakkab harakatlar ko'rinishidagi muntazam mashqlar.

Bu mashqlar yoshlarni, ayniqsa, talabalarning gimnastik imkoniyatlarini oshiruvchi turkum mashqlar sifatida ta'riflansa-da, ular jismoniy madaniyatni akmeologik yondashuv asosida rivojlanishini to'la ta'minlab bera olmas edi.

Inson uzoq va tinch hayot kechirish maqsadida sog'lom, tetik va baquvvat bo'lishi, o'z yoshligi, husni hamda ishchanlik qobiliyatini saqlashga erishishning asosiy omillaridan biri jismoniy harakat sanaladi.

Respublikamizda jismoniy jihatdan yetuk, sog'lom avlodni tarbiyalash borasidagi tub islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 27 maydagi «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 271-sonli qarorida jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining barcha qatlamlarining, ayniqsa, yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun keng jalb etishga qaratilgan.

Qarorda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirish tadbirlaridagi o'quv muassasalarida jismoniy tarbiya bo'yicha majburiy mashg'ulotlarining ko'paytirgan soatlarini o'quv reja va dasturlariga kiritish bo'yicha takliflarini vazirlikka topshirish, sportning milliy turlari va xalq o'yinlarini jismoniy tarbiya o'quv dasturlariga kiritish, oliy ta'lim muassasalarida sport turlari bo'yicha shu'balarning faoliyatini jonlantirish va ularga yoshlarni keng jalb etish, talabalarni bo'sh vaqtlaridan faol foydalanish, ularni sog'lomlantirish maqsadida talabalar uyidagi gienik gimnastika va sport turlari bo'yicha mavjud sho'balarning muntazam ravishda ishlashini, institut professor-o'qituvchilari, talabalar (xotin-qizlar)ning sport bilan muntazam shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratishni

nazorat qilish topshirilsin, deb ta’kidlangan. Shunday ekan, oliy o‘quv yurtlarida yuqori darajali sportchilarni tayyorlash bilan birga ko‘proq ommaviy sport-sog‘lomlashtirishishlariga e’tibor qaratish, kishilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ommaviy musobaqalarni muntazam o‘tkazish, jismoniy tarbiya darslarining mazmunli va sifatli o‘tishini ta’minlash yoshlarning sog‘lom va barkamol inson hamda yetuk bilimli mutaxassis bo‘lib yetishishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

2019-2023 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasini to‘liq ko‘lamda rivojlantirish yo‘lidan borib hozirgi paytda mamlakatda bunga to‘sqinlik qiluvchi bir qator jiddiy kamchiliklar mavjudligi keltirilgan. Jumladan, «sport fakultetlari talabalari kontingentining sifati va tuzilmasi talab darajasida emas. Sport mutaxassisligiga kirish uchun ularda salohiyat mavjudligini va tanlangan kasbda ishlashdan manfaatdorligini, bolalar va katta yoshdagilar bilan umumiy til topishqobiliyatini, ruhiy barqarorlik va muomalaqila bilishning etarli darajasini aniqlash yuzasidan kiruvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini, ruhiy-hissiy ma’lumotlarini baholashning aniqtartibotlari va xolisona mexanizmlari mavjud emas»ligi keltirib o‘tilgan.

Respublikada aholini va eng avvalo, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda. Buni 2010 yilning «Barkamol avlod yili» deb e’lon qilinishidan ham bilish mumkin. Uning ma’no-mazmuni shundan iboratki, ushbu yilda barkamol avlodni shakllantirish boshqa masalalar ichida ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Ushbu jarayon faqat bir yil bilan tugamaydi, balki keyingi yillarda ham davom etadi, chunki bu uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, u kishilarning ongini va ma’naviyatini rivojlantirish bilan bog‘liq.

Yoshlar va umuman, insonning barkamolligi jismonan, ma’nan va aqlan etuklik darajasi bilan belgilanadi. Ana shu uch jihatning uyg‘unlikda rivojlanishi barkamollikni ta’minlashi mumkin.

Sog‘lom inson istalgan jamiyatda katta kuchga ega yaratuvchilik vazifasini bajaradi, quvonch, intellektual va jismoniy qobiliyatning manbasi hisoblanadi. Inson ehtiyoji bo‘lmish salomatlikni mustahkamlash dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Bundan jamiyatning har bir a’zosida inson hayotida eng muhim bo‘lgan salomatlikka bo‘lgan munosabatini tarbiyalash masalasi yotadi. Buning uchun sog‘lom inson modelini, pedagogik nazorat tizimini va jismoniy kamolotga erishishning effektiv usul va uslublarini ishlab chiqish lozim.

Jamiyatda sog‘lom hayot tarzini shakllantirish, aholi salomatligini mustahkamlash, jismonan sog‘lom, ma’nan boy yosh avlodni tarbiyalash, fuqarolarni jismoniy tarbiya va sport bilan faol shug‘ullanishga keng jalb etishni ta’minlashga yo‘naltirilgan, kompleks tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim istiqbol taraqqiyotining asosiy muammolarini hal etish, yoshlarni jismoniy tarbiya qilish tizimini qayta ko'rish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi, chunki tadqiqotlar natijalariga ko'ra o'qish davomida talabalar salomatligi darajasi yildan-yilga pasayib bormoqda. Hozirgi vaqtda oliy o'quv yurtini bitirayotgan yosh mutaxassislar ko'pincha to'liq sog'lomlashgan emas, bu esa ularning kelgusidagi ishlab chiqarish va ijtimoiy foydali faoliyatini cheklab qo'yadi, natijada rivojlanayotgan davlatga iqtisodiy va intellektual zarar yetkazadi.

Shuning uchun pedagogikada yoshlar jismoniy tarbiyasi salomatlikni saqlash va yaxshilashga, sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya turlari, uslub va usullariga, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan sog'lomlashtirish tizimi sifatida ko'rib chiqiladi.

Darsdan tashqari tashkil etilgan sport to'garaklarning asosiy maqsadi kelajakda kasb-hunar haqidagi ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Sport to'garaklarida qatnashgan yoshlar hayotiy zarur ko'nikma malakalar bilan qurollanadi, qiyinchiliklarni yengib o'tish, faollik, dovyuraklik, qat'iyatlilik, intizomlilikni namoyon etadilar.

Yoshlarni har tomonlama barkamol va yuksak fazilatli sifatida tarbiyalashda jismoniy madaniyat va sportning ahamiyati beqiyosdir. Chunki Respublikamiz ta'lim tizimida o'zbek milliy xalq o'yinlarining va sport to'garaklarining yoshlarni jismoniy, ma'naviy rivojlantirish vositasi ekanligi mustaqillikka erishgandan beri olib borilayotgan ishlardan ham bilsak bo'ladi.

Sport to'garaklari hayotda yoshlarning tetik, epchil, baquvvat, muvozanatni his etish, o'zini qarshiliklardan himoya qilish, sog'likni mustahkamlash kabi xislatlarni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini" 4-yo'nalishi–Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarining 4- va 5-bandlarida "sport sohalarini rivojlantirish", "bolalar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish", "sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga jalb qilish, ... yangi bolalar sporti obyektlarini... qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish" belgilab qo'yilgan. Bu esa o'z navbatida sport to'garaklari faoliyatiga alohida e'tibor qaratishni hayotiy zaruriyatga aylanganini anglatadi.

Ish faoliyatida aksariyat sport to'garaklari o'z faoliyatlarini baholash jarayonini chetlab o'tadilar. Jumladan, sport to'garaklarida ham bu bosqichga kam e'tibor qaratiladi. Ammo ayni sport to'garaklarini rejalar monitoringi va uni baholash bosqichi sport sohasi uchun g'oyatda muhim jarayon hisoblanadi. Agarda sport tadbiri o'tkazish misolida olib qayraydigan bo'lsak, ushbu bosqich quyidagi uch qismga bo'linib ketadi:

- Tadbirdan oldin baholash;

- Tadbir mobaynida baholash;
- Tadbirdan keyin baholash.

Demak, sport to‘garaklarida ishlab chiqiladigan rejalar ham xuddi shunday tartibda monitoring qilib turilishi kerak. Muntazam ravishda olib boriladigan baholash sport muassasa va undagi dasturlar samaradorligini oshiradi va boshqaruv mexanizmini sezilarli ijobiy rivojiga yordam beradi.

Jismoniy rivojlanish, gavda tuzilishi, yurak-qon tomir tizimining ishlashi, jismoniy tayyorgarlik va jismoniy ahvol salomatlikning tarkibiy elementlari ekanligini qayd etish lozim. Shuning uchun insonni boshqarish va uning jismoniy yetukligiga erishish uchun jismoniy tayyorgarlikni qator ko‘rsatkichlar (jismoniy rivojlanish va gavda tuzilishi, jismoniy va funksional tayyorgarlik) bo‘yicha kompleks baholash kerak bo‘ladi. Olingan ma’lumotlar asosida inson salomatligi darajasini aniqlash mumkin. Jismoniy komillikka erishish jarayonini individuallashtirish uchun esa insonning shaxsiy xususiyatlarini bilish lozim. Buning uchun turli psixologik testlardan foydalanish mumkin.

Pedagogik tadqiqotlar, tibbiy tekshirishlar va axborot ta’minoti usullari qo‘llanilgan kompleks ma’lumotlar quyidagi masalalarni hal etishda yordam beradi:

1. Jismoniy holatni aniqlash.
2. Jismoniy rivojlanish, jismoniy va funksional tayyorgarlikni baholash.
3. Insonning jismoniy yetuklikni dinamikasini aniqlash.
4. Sog‘lomlashtirishning effektiv usullarini aniqlash.
5. Yetuklikka erishish jarayonini rejalashtirish tizimini o‘rganish.
6. Jismoniy yetuklikka erishishni individuallashtirish.
7. Jismoniy mashqlar bilan mustaqil muntazam, amaliy shug‘ullanishga ehtiyojni rivojlantirish.
8. O‘z-o‘zini nazorat qilish usullariga o‘rgatish.

Xulosa qilganda, oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ilg‘or horijiy tajribadan foydalanish, rivojlangan oliy ta’lim dargohlarining ta’lim-tarbiya metodikasini o‘zlashtirish, tajriba almashish bilan bog‘liqlikda olib borildi. Yuksak samaradorlikka ega horij tajribasiga tayanilgan holda ko‘pchilik universitetlar va institutlarda jismoniy tarbiya darslari talabalar hoxishi, qiziqishiga qarab sport o‘yinlari, yengil atletika, stol tennis, suzish kabi turlardan ko‘proq foydalanilgan metodikasi ishlab chiqish lozim. Oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ilg‘or horijiy tajribadan foydalanish, rivojlangan oliy ta’lim dargohlarining ta’lim-tarbiya metodikasini o‘zlashtirish, tajriba almashish bilan bog‘liqlikda olib borildi.

Adabiyotlar:

1. Tursinovich K. A., Mirzaakhmadovna M. F., Alijonovich E. T. 'Topical issues of preuniversity preparation of students in the field of physical culture and sports //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 7. – C. 253-255.

2. Qayumovna R. M., Mirzaahmad qizi M. F. et al. Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students //Journal of Pedagogical Inventions and Practices. – 2021. – T. 3. – C. 40

3. Xasanov A.T, Bobojonov N., Mamadova F.M. //Methodological approaches to the development of a professiogram for a physical

education teacher // International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS) December- 2020

4. Khasanov Axadjon Tursinovich, Mamadova Feruza Mirzaakhmadovna. // Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports // Texas Journal of Multidisciplinary Studies 300 253-253, 2022

5. F.M.Mamadova // Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxasislarini pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirishning o'ziga xosligi // Farag'ona politexnika instituti 299 276-278, 2022

6. Xojimurodova M. K. Q. Talabalar ommaviy sog 'lomlashtirish mashg'ulotlarida chiniqtirish orqali ular salomatligini mustahkamlash metodikasi //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 49-51.

7. Умаров, А., & Хожимуродова, М. (2023). Проблемы женского спорта в семейно брачных условиях. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарныхнаук / ActualProblemsofHumanitiesandSocialSciences., 3(6), 313–317. https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6Y2023N42

8. Mamadova Feruzahan Mirzaakhmad. (2023)Development of Pedagogical Culture and Competence of FuturePhysical Culture Specialists in Higher Educational Institutions. AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education Volume 01, Issue 06, 2023 ISSN (E): 2993-2769https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/515

9. Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi. (2023). Проблемы женского спорта в семейно брачных условиях. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik modeli. No 7 (3)-2023.ISSN:2181-1342

DOI: https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I7Y2023N38

РЕЗЮМЕ

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini rivojlantirish, bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini o'stiruvchi jismoniy mashqlar, pedagogik tadqiqotlar, tibbiy tekshirishlar va axborot ta'minoti usullari qo'llanilgan kompleks ma'lumotlar, milliy harakatli o'yinlar orqali pedagogik madaniyatni takomillashirish, pedagogik tadqiqotlar, tibbiy tekshirishlar va axborot ta'minoti usullari qo'llanilgan kompleks ma'lumotlar haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье представлена комплексная информация о развитии педагогической культуры и компетентности будущих специалистов по физической культуре в высших учебных заведениях, применении методик физических упражнений, педагогических исследований, медицинских обследований и информационного обеспечения, воспитывающих педагогическую культуру и компетентность будущих специалистов по физической культуре. Речь шла о совершенствовании педагогической культуры посредством национальных подвижных игр, о комплексной информации, в которой использовались методы педагогических исследований, медицинских экспертиз и информационного обеспечения.

SUMMARY

The article uses comprehensive data on the development of pedagogical culture and competence of future physical culture specialists in higher educational institutions, physical exercises, pedagogical studies, medical examinations and methods of information supply that cultivate pedagogical culture and competence of future physical culture specialists. Comprehensive information on the improvement of pedagogical culture through national action games, pedagogical research, medical examinations and methods of information supply were used.

ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ ИХТИСОСЛИГИДАГИ ТАЛАБАЛАРДА БОШҚАРУВЧИЛИК ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, УЛАРНИНГ БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ОШИРИШ ОМИЛИ СИФАТИДА

Ярашев К.Д.
педагогика фанлари номзоди, профессор ЎзДЖТСУ

Таянч сўзлар: жисмоний тарбия, спорт, талаба, бошқарувчилик, тафаккур, компетентлик.

Ключевые слова: физическое воспитание, спорт, студент, управление, мышление, компетентность.

Key words: physical education, sport, student, management, thinking, competence.

Мавзунинг долзарблиги. Инсон саломатлиги қадр-қимматининг замонавий талқини, жисмоний тарбиянинг юқори ижтимоий аҳамиятини тан олиш, жисмоний тарбия орқали кўрсатиладиган хизматларни кенгайтириш зарурати, бозор иқтисодиёти шарт-шароитлари жисмоний тарбия ва спорт ихтисослиги битирувчиларининг касбий тайёргарлиги мазмунига қўйиладиган талабларга ўзгартириш киритиш эҳтиёжини юзага келтирди.

Шу аснода давлат томонидан олий таълим тизимини ислоҳ қилиш бўйича олиб борилаётган қадамлар мутлақо ўзини оқламоқда дейиш ўринли. Олий таълимнинг янги таълим стандартларини жорий этиш, олий таълим муассасаларга академик мустақиллик берилиши, уларнинг самарадорлигига талабларнинг ортиши ва яна бошқалар юзага келган муаммоларни ҳал қилишда давлатнинг фаол иштирокидан далолат беради. Шу билан бирга, асосий вазифа халқаро стандартлар даражасида ўқитишни йўлга қўйишдир.

Бакалаврларни тайёрлаш жараёнида жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги талабалар таълими мазмунига қўйиладиган энг муҳим талаблардан бири, бу таълимнинг фундаментал компетенцияларининг профессионал таълимининг специфик компетенциялари билан оқилона уйғунлигини таъминлашдир. Шуни ҳисобга олиш керакки, жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги бакалавр касбий фаолиятининг специфик хусусиятлари икки компонентдан иборат - касбий ва педагогик, улар-

нинг ҳар бири ўзига хос хусусиятларга эга, аммо шу билан бирга улар бир-бири билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бир бутунликни (касбий-педагогик фаолиятни) ифодалайди.

Шунга асосланиб, педагогик фаолиятнинг предметини жисмоний тарбия воситалари орқали тарбиялаш ташкил этиши ҳақида ҳулоса қилиш мумкин.

Касбий фаолиятнинг мазмуни жисмоний тарбия деб аталувчи фаолият соҳаси доирасида касбнинг мақсадлари, вазифалари, объекти, шартлари билан белгиланади. Бундан ташқари, педагогик фаолиятнинг мазмуни касбий фаолиятда жисмоний тарбиянинг амалга оширилиши усулларидан келиб чиқади. Агар касбий фаолиятнинг турли соҳаларида жисмоний тарбиянинг амалга оширилиши усулларини кўриб чиқадиган бўлсак, шуни аниқ таъкидлаш мумкин бўладики, бунинг барчаси педагогик жараёнда содир бўлади.

Шундай қилиб, Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассис тайёрловчи ОТМ томонидан амалга оширилувчи касбий тайёргарликнинг асосий мақсадларидан бири битирувчиларнинг таъсир объекти бўлган ҳамда ноёб ва энг мураккаб биоижтимоий тизимни ифодаловчи шахс билан ишлашга тайёргарлигини таъминлашдир. Ушбу ҳолатда, олий таълимнинг асосий вазифаларидан бири, бу жисмоний тарбия ва спорт ихтисослиги бакалаврида педагог шахсини шакллантиришдир.

Педагог шахсининг энг муҳим хусусияти унинг йўналганлиги бўлиб, бунинг энг муҳим кўрсаткичи сифатида, тарбияланувчи шахсини ривожлантириш мақсадидаги педагогик вазифаларни бажариш жараёнида ўз фаолиятига қай даражада онглилик билан ёндашиш, бошқача айтганда, педагогик тафаккурнинг шаклланганлик даражасини кўрсатиш мумкин.

Педагогик тафаккур тушунчаси остида педагогик ишнинг табиати ва педагогик фаолиятнинг умумий стратегиясидан келиб чиқувчи ақлий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятларини тушуниш умумқабул қилинган. Педагогнинг касбий тафаккури кўп қиррали ва кўпвариантли ҳодисадир, чунки у ахлоқий тамойилларни, ижтимоий-сиёсий, психологик-педагогик ва ижтимоий-касбий билимларни, касбий-шахсий сифатларни, ақлий ва педагогик ҳаракатларни бажариш кўникмалари ва усулларини акс эттиради.

Педагог касбий-педагогик тафаккурининг ўзига хос хусусияти шундаки, у нафақат таълимий-билиш жараёни, балки конструктив-такомиллаштирувчи жараёндир. Унинг энг муҳим хусусияти педагог томонидан ҳар бир таълимий ва тарбиявий вазиятни тушуниш, юзага келган педа-

гогик муаммоларни ҳал қилишнинг мақбул усулини зудлик билан амалга ошириш қобилияти ифодаланади. Бунда, мақсадлилик, бор эътиборни муаммо атрофида жамлай олиш, мослашувчанлик, объективлик, қатъиятлилик, илмийлик, ривожланишга йўналганлик, мантиқийликкаби сифатларни ривожлантириш билан бир қаторда ақлий муаммоларни ҳал қилишда бошқарув кўникмалари ва қобилиятларини шакллантириш ҳам алоҳида роль ўйнайди. Шуни таъкидлаш керакки, бошқарувчилик тафаккури тушунчаси нафақат педагогнинг бошқарув фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини, балки ундаги идрок этиш, диққат, тасаввур, хотиранинг касбий-педагогик хусусиятларини, шунингдек унинг ҳиссий-иродавий соҳасининг ўзига хос хусусиятларини акс эттиради.

Тадқиқотнинг мақсади жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги талабаларни ташкилотчилик ва бошқарувчилик компетенцияларини шакллантириш моделининг самарадорлигини назарий асослаш, экспериментал равишда синаш ва баҳолашдан иборат.

Тадқиқотнинг вазифаси жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги талабаларнинг ташкилотчилик ва бошқарувчилик компетенцияларини шакллантириш муаммолари ва истиқболларини аниқлашдан иборат.

Тадқиқот натижалари ва унинг муҳокамаси.Таълимий ва тарбиявий фаолиятига тайёрлик даражасини бошқарувчилик тафаккурининг шаклланганлик даражаси ёрдамида аниқлаш мумкин.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, биз томонимиздан, кейинчалик жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги талабаларда бошқарувчилик тафаккурни ривожлантириш йўлларини излашга бағишланган экспериментал тадқиқотлар натижаларини баҳолаш кўрсаткичлари сифатида қўлланилган бошқарувчилик тафаккурининг шаклланганлик даражаси тавсифлари ишлаб чиқилди (1-жадвал).

Тадқиқот “Жисмоний тарбия ва спортни бошқариш” фанини ўқитиш жараёнида битирувчи босқич талабалари (n=126) иштирокида ўтказилди.

Бошқарувчилик тафаккурини ривожлантиришнинг асосий шарти талабалар ўртасида психологик ва педагогик билимларнинг етарли захирасининг мавжудлиги эканлигига таянган ҳолда, дастлабки босқичда талабаларнинг педагогика ва ўқитиш усулларига оид фанлардан олган билимларига ўзлари томонидан берилган баҳолари ўрганилди.

Натижада талабалар ўз билимларини беш балли баҳолаш шкаласи бўйича 3,4 балл даражасида баҳолашлари аниқланди. Шу билан бирга, педагогика ва у билан боғлиқ ўқув фанларини ўрганишда асосий қийинчиликлар қуйидагилар эканлиги таъкидланган: асосий педагогик тушунчалар

ва ғояларни ўзлаштириш (90%), педагогиканинг назарий қоидаларини педагогик амалиётдан мисоллар билан тасвирлаш қобилияти (80%), педагогик вазиятларни таҳлил қилишда ёш физиологияси, психология, педагогика, фалсафа соҳасидаги билимлардан фойдаланиш қобилияти (91%).

Олинган маълумотлар шуни кўрсатадики, бўлажак жисмоний тарбия мутахассисларида педагогик фикрлашни мақсадли шакллантириш педагогикага оид фанларни ўқитиш мазмуни, шакллари ва усулларини тубдан қайта кўриб чиқиш зарур. Ушбу масаланинг ечимларидан бири бўлажак педагогларда ижодий салоҳиятни ривожлантиришни таъминлайдиган ва мустақил бошқарув фаолиятини амалга оширишнинг барқарор кўникмаларини шакллантирувчи фаол усулларни таълим жараёнга оқилона жорий этишдир.

Ушбу тахминни тасдиқлаш учун моҳияти қуйидаги усуллардан кенг фойдаланишни назарда тутувчи эксперимент ташкил этилди: диалог-маърузалар, конференция шаклидаги семинарлар, ишбилармонлик ўйинлари, ўқув мунозаралари, талабалар ўртасида бошқарувчилик тафаккурини самарали ривожлантиришга ёрдам берадиган ўқув ва педагогик вазифаларни ҳал қилиш.

Назорат гуруҳи талабаларини “Жисмоний тарбия ва спортни бошқариш” фани бўйича ўқитиш ишлаб чиқилган ишчи ўқув дастурига мувофиқ амалга оширилди.

Экспериментал гуруҳда ўқув ва педагогик шароитлар ва вазиятлар билан белгиланадиган бошқарув вазифаларини ҳал қилиш жараёнида менежментнинг асосий назарий қоидаларини ўрганишни таъминлайдиган экспериментал дастур қўлланилди. Олинган билимларни мустаҳкамлаш учун бериладиган назорат саволларининг мазмуни қуйидаги мазмундаги саволлар билан бойитилди: жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги замонавий бошқарувнинг назарий ва услубий муаммолари, хусусий усулларни қўллаш; бошқарув муаммоларини ҳал қилиш билан боғлиқ амалиёт.

Экспериментнинг дастлабки босқичида экспериментал ва назорат гуруҳлари талабалари бошқарувчилик тайёргарлигини баҳолаш картаси ёрдамида аниқланган бошқарувчилик тафаккурининг ривожланганлик даражаси бўйича бир хил кўрсаткичларига эга эдилар.

Бошқарувчилик тафаккурининг шаклланганлик даражаси тавсифлар

Бошқарувчилик тафаккури даражаси		
юқори (4,6 ва ундан юқори балл)	ўртача (3,6-4,5 балл)	паст (3,5 ва ундан паст балл)

Бошқарувга оид вазиятларни таҳлил қилишга ижодий ностандарт ёндашув, муайян шароитларнинг ўзига хос ҳусусиятларини ташхислаш асосида муаммонинг мақбул ечимини танлаш. Тушунчавий аппаратдан тизимли фойдаланиш. Асосий тушунчалар, принциплар, усуллар, воситалар, мезонлар бўйича психологик ва педагогик билимларга асосланган бошқарув фаолиятини моделлаштириш. Аниқ вазиятларда нафақат назарий билимларга, балки бошқарувчилик интуициясига, ҳиссий идрокка ҳам таянади. Қуйидаги энг муҳим умумпедагогик ва бошқарув кўникмаларининг юқори даражада шаклланганлиги: педагогик ва бошқарув таъсири объектининг ҳолатини ташхислаш; прогноз ва лойиҳа билан натижаларни башорат қилиш, режалаштириш ва башорат қилиш; янги педагогик вазифаларни аниқлаш.	Олинган назарий билимларни синтез қилиш ва уларни амалда қўллаш бўйича дастлабки кўникмалар қайд этилади. Ўқув ва бошқарув вазифаларини ҳал қилишда назарий ва амалий машғулотлар жараёнида олинган билимлардан фойдаланилади. Педагогикани ривожлантиришнинг замонавий тушунчаларига асосланган онгли шахсий бошқарув позицияси ўзгариб боради. Мазкур позиция ҳали барқарор эмас ва ҳақиқий амалиёт таъсири остида ўзгариши мумкин. Бошқарув тафаккурига шахсий ижодий элементлар хосдир.	Амалий бошқарув фаолиятини таҳлил қилиш учун назарий билимларни қўллаш кўникмалари етишмайди. Қоида тариқасида, дидактик ва тарбиявий характердаги бошқарув вазифаларни мустақил равишда аниқлаш ва шакллантириш қийинчилик туғдиради. Таклиф этилаётган бошқарув вазиятлари муаммоларни ҳал қилиш жараёнини ҳолатни диагностика қилмасдан, бошқарув фаолияти объекти ва предметининг хусусиятларини аниқламасдан, асосан ташқи шароитларга ва фактнинг ўзига таяниб, маълум намунавий усуллардан фойдаланган ҳолда ҳал қилинади.

Якуний баҳолашда бошқарувчилик тафаккурининг ривожланганлик даражасини аниқлашнинг асосий кўрсаткичи сифатида ўртача арифметик

баҳо олинди. Тажриба охирида худди шу методикадан фойдаланган ҳолда такрорий тадқиқотлар ўтказилди.

Натижада, педагогик ва бошқарув фанларини ўқитишнинг анъанавий қўлланиладиган усуллари бошқарув тафаккурини ривожлантиришга етарлича ҳисса қўшмаслиги аниқланди.ОТМда тўрт йиллик ўқиш тугаганидан кейин ҳам талабаларнинг аксариятида бошқарувчилик тафаккури ривожланишининг паст даражаси кузатилди (30,5% ида - ўртача даража). Тадқиқот давомида бошқарувчилик тафаккури юқори даражада ривожланган талабалар аниқланмади.

Педагогик фаолият бошқарув вазифаларини самарали ҳал қилиш учун педагогдан юқори даражада ривожланган ижодий тафаккурни талаб қилишини ҳисобга олиб, унинг талабалар орасида ривожланиш даражасини аниқлашга қарор қилинди.

Ижодий салоҳият даражаси П. Торренс ва А. Е. Антонова томонидан ишлаб чиқилган сараланган психологик тестлар ёрдамида аниқланди. Баҳолаш мезонлари сифатида креативликнинг энг информатив компонентлари ишлатилди: маълум вақт бирлиги ичида пайдо бўладиган ғоялар сони, бир ғоядан бошқа ғояга эътиборни кўчира олиш қобилияти, умумқабул қилинган ғоялардан фарқ қилувчи ғояларни ҳосил қилиш қобилияти, иш жараёнига тайёрлик, ижодга йўналганлик, танқидийлик, янгилик ҳисси.

Олинган маълумотлар бошқарувчилик тафаккурининг ривожланиш даражаси паст бўлган талабаларнинг ижодий салоҳияти кўрсаткичлари, бошқарувчилик тафаккурининг ривожланганлик даражаси ўртача даражадаги талабалар гуруҳига нисбатан анча паст эканлигини аниқлашга имкон берди. Бунда фарқларнинг ишончлилиги текширилмади, чунки кўрсаткичлар нисбий бирликларда келтирилган. Бироқ, ОТМда ўқиш жараёнида ижодий қобилиятлар мақсадли ривожлантирилмаслиги кўпчилик талабаларда бошқарув тафаккурининг паст даражада ривожланганлигининг асосий сабабларидан бири деб тахмин қилиш мумкин.

Яхлит, кўп қиррали мураккаб хусусиятга эга бўлган касбий вазифаларни ҳал қилиш жараёнида бошқарув тафаккурини ривожлантиришга қаратилган экспериментал дастурни амалга ошириш мавжуд ҳолатни сезиларли даражада ўзгартирди.

Тажриба якунида экспериментал гуруҳда бошқарув тафаккурининг юқори даражада ривожланган талабалар аниқланди (32,0%), ўртача даражага эга талабалар 60% гача ўсди ва талабаларнинг фақат кичик бир қисми паст даражада қолди (8,0%).

Шу билан бирга, назорат гуруҳида аҳамияциз ижобий ўзгаришлар кузатилди, бу жисмоний тарбия ва спортга ихтисослашган ОТМ талабаларини бошқарув тайёргарлиги бўйича анъанавий қўлланиладиган ёндашувларнинг камчиликларини аниқ кўрсатиб турибди.

Таълимдаги консерватизм кўплаб битирувчиларнинг ОТМда олган билимлари асосида бошқарув муаммоларига ўз муносабатини шакллантира олмаслигига олиб келади. Уларнинг фаолиятида тадбирли ёндашув устунлик қилади. Улар таълим олувчиларнинг шахсини ривожлантириш вазифаларини ҳал қилмайди, балки турли тадбирларни режалаштиради ва ўтказиш билан чекланишади. Ушбу ёндашув педагог авторитаризмининг намоён бўлиш шакли бўлиб, у таълим ва тарбияни катталарнинг болага мажбурий таъсири билан белгилашидан далолат беради.

Шу билан бирга, ўқув жараёнида талабада бошқарувчилик ва касбий-педагогик функцияларни онгли равишда тушунишни шакллантиришга ўтиш мослашишга ва ўқув жараёнида ўзини ўзи топишга юқори даражада тайёр бўлишга имкон беради.

Бундан ташқари, экспериментал шароитлар талабаларнинг ижодий йўналганлигига ижобий таъсир кўрсатганлиги аниқланди, уларнинг кўрсаткичи назорат гуруҳи талабалари натижаларига нисбатан деярли икки баравар ошди.

Хулоса.Шундай қилиб, ўқув ва бошқарув вазифаларини ҳал қилиш орқали бошқарувнинг назарий асосларини билишга йўналтирилган таълим жараёнида фаол ўқитиш усулларидан фойдаланиш битирувчиларнинг касбий ва бошқарув функцияларини бажаришга юқори даражада тайёрлигини таъминлайди. Бу ҳолда талабаларни ўқитиш уларнинг бошқарувчилик тафаккурини ривожлантириш мақсадида келажакдаги касбий ва бошқарув фаолиятини моделлаштириш асосида амалга оширилади.

Жисмоний тарбия ва спортга ихтисослашган ОТМ талабаларини ўқитиш жараёнида бошқарув вазифаларидан кенг фойдаланиш ўқув дастурига мувофиқ турли фанларни ўрганишда олинган билимларни бирлаштириш кўникмаларини шакллантиришга ёрдам беради. Бошқарув вазифаларини ҳал қилишни тартибга солувчи тушунчалар тизимида асосий фикрлаш бирликлари сифатида қуйидагилар намоён бўлади:

– жисмоний тарбия мутахассиси фаолиятининг бошқарувга йўналганлигини белгилайдиган ва унинг шахсий эътиқоди бўлиши керак бўлган етакчи ғоялар;
– умумий ғоялар ва тамойилларни аниқлаштирадиган конструктив ва услубий схемалар;

– танловининг оқилоналиги, оператив таълим ва бошқарув вазифаларини ҳал қилишда режалаштирилган натижага эришиш билан таъминланадиган бошқарув фаолияти усуллари.

Бошқарув тафаккурини шакллантириш талабаларга бошқарув фаолиятининг моҳиятини англашга имкон беради; бошқарув тамойиллари, шакллари ва усулларини реал бошқарув шароитлари билан боғлаш; ҳар қандай ўқув ва бошқарув вазифаларини ҳал қилишга ижодий ёндашиш ва ўзгарувчан бошқарув вазиятларига тезкор жавоб бериш қобилиятини ривожлантиради.

Адабиётлар:

1. Курдюков, Б. Ф. Интегративный подход к обучению по непрофильным специальностям: педагогический потенциал [Текст] / Б. Ф. Курдюков // Образование и общество: педагогика, психология, социология, экономика, юриспруденция, история. - 2010. - Вып. 3. - С. 3-4.

2. Курдюков, Б. Ф., Бойкова М. Б. Современные концептуальные взгляды на процесс формирования профессионально-компетентностной личности в условиях преобразования высшей школы [Текст] / Б. Ф. Курдюков, М. Б. Бойкова // Физическая культура, спорт - наука и практика. - 2012. - Вып. 2. - С. 2

3. Курдюков, Б. Ф., Иванова, Н. В., Неботова, И. И. Анализ тенденций преобразования системы профессиональной подготовки специалистов адаптивной физической культуры // Здоровьеобеспечение учащихся в образовательном процессе современной школы: материалы региональной научно-практической конференции (9 апреля 2010 г., г. Краснодар). - Краснодар: Кубанский гос. университет; КРО АПСН, 2010.

4. Курдюков, Б. Ф., Бойкова М. Б. Современные концептуальные взгляды на процесс формирования профессионально-компетентностной личности в условиях преобразования высшей школы [Текст] / Б. Ф. Курдюков, М. Б. Бойкова // Физическая культура, спорт - наука и практика. - 2012. - Вып. 2. - С. 2

5. Голубов Олег Викторович. Развитие творческого потенциала студентов вузов физической культуры в процессе освоения общепрофессиональных дисциплин (На примере социальной педагогики) : Дис. ... канд. пед. наук: 13.00.04 : Краснодар, 2000 135 с. РГБ ОД, 61:00-13/1462-4

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақолада жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги талабаларда бошқарувчилик тафаккурини шакллантириш, уларнинг бошқарув компетентлигини ошириш омили юзасидан маълумотлар баён этилган.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлена информация о факторе формирования управленческого мышления у студентов физического воспитания и спорта, а также факторе повышения их управленческой компетентности.

SUMMARY

This article provides information on the factor of formation of management thinking in students of physical education and sports, and the factor of increasing their management competence.

BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QTUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Bo'riyeva G. I.
ChDPU stajyor tadqiqotchisi

Tayanch so'zlar: jismoniy tarbiya , kompetensiya, kasbiy kompetentlik, shaxsiy tajriba, texnologiya, amaliy faoliyat.

Ключевые слова: физическое воспитание, компетентность, профессиональная компетентность, личный опыт, технология, практическая деятельность.

Key words: physical education, competence, professional competence, personal experience, technology, practical activity.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda faol intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega , zamonaviy bilim hamda kasblarni chuqur egallagan, bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Mana shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoklarning oldiga muhim vazifa qilib qo'yilga

Muxtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan yuksak intelektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" degabn fikr ham vatanimiz yoshlarini erkin fikrlashini tarkib toptirishga qaratilayotganligi etibordan holi emas. Shunday ekan biz o'qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni tashkil qilishimiz oldimizdagi yuksak vazifalardan biridir.

Kompetent yondashuv oliy ta'limni modernizatsiyalsh nuqtai nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rib chiqish hamda ta'limning an'anaviy uch elementi " bilim – ko'nikma – malaka – amaliy faoliyat tajribasi-kompetensiya -kompetentlik" tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab "kompetensiya "tushunchasini mohiyatini aniqlashtirib olishimiz lozim.

Kompetensiya – lotincha so’z bo’lib, o’zbek tilida lug’aviy ma’nosi “inson yaxshi biladigan” “tajribaga ega bo’lgan “kabi ma’nolarni bildiradi.

Kompetentlik – biror bir ishni samarali qila olish, aniq ishchi funksiyalarini bajarishda talablarni qondira olish,aniq ishchi funksiyalarini bajarishda talablarni qondira olish qobilyati.

Kasbiy kompetentlik - mutahasis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo’llay olishidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

L.M.Mitina pedagogik kompetentlik – deganda predmet haqidagi bilimlar , o’qitish metodikasi va didaktikasi , pedagogic muloqot ko’nikma va malakasi, shuningdek o’z-ozini rivojlantirish, o’z-o’zini takomillashtirish, o’z-o’zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg’un birlshini tushungan. Shaxsga ta’lim tarbiya berishda talim oluvchiga ta’limning yo’naltirilishi , balki o’qtuvchining pedagogic faoliyatga psixologik tayyorgarligi muhimdir. Bunday hollarda o’qtuvchining kasbiy kompenentlik darajasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi . Ta’lim tizimida kompetentli yondashuv ta’lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi , ta’lim tizimiga kompetenli yondashuvning joriy etilishi ta’lim maqsadi , mazmuni , o’qitish shakli , o’qitish usullari , pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta’lim beruvchi va oluvchi rolida jiddiy o’zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O’qtuvchining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta’limda tub o’zgarishlarni amalga oshirish kerak. Oliy ta’lim Davlat talim standarti, o’quv dasturi va darsliklarini takomillashtirish yo’nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda ,mavjud an’anaviy mazmundan voz kechish quyin kechsa-da, ta’lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo’ladi.

Jismoniy tarbiya o’qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllanganligi o’quvchilarni jismoniy jihatdan tarbiyalash sohasidagi inovatsion metodika va texnologiyalarni qo’llay olish malakasi bilan belgilanadi. Kasbiy kompetentliksiz pedagogning kasbiy o’sishi , o’quvchilar salomatlik darajasini mustahkamlanishi, ta’lim oluvchilarda jismoniy tarbiya mashg’ulotlariga mativatsiyani rivojlantirish mumkin emasligi amalda o’z isbotini topgan.

Jismoniy tarbiya o’qtuvchisining pedagogik jarayondagi innovatsion metodika va texnologiyalarni o’zlashtirganlik hamda uning kasbiy faoliyatida qo’llash malakasiga egaligi masalasini o’rganish natijalari bu ikki component bir-biri bilan bog’liq, bir -birini taqazo qiladigan va yaxlit hodisalar ekanligini ko’rsatadi. Ush bu jarayon kompleks yondashuv bo’lajak jismoniy

tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetentligi darajasini rivojlantirish va takomillashtirish imkonini beradi.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ning "O'zbekiston xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tog'risida "gi farmonida jismoniy tarbiya va sport sohasida yagona davlat siyosatini yuritish, aholining turmush tarzini ta'minlash va jismoniy faolligini oshirishning samarali tizimini yaratish vazifalarini belgilangan . Mazkur farmonda o'quvchilarning ma'naviy-ahloqiy tarbiyasini ta'minlash bolalarni jismoniy rivojlangan va sog'lom bo'lib voyaga yetishi ,shuningdek ,yoshlarni sport va jismoniy tarbiyaga jalb qilishiga alohida e'tibor qaratilgan . Bu borada soxa bo'lajak pedagog xodimlarni har tomonlama bilimli , kasbiy kompetensiyali qilib tayyorlash asosiy masala bo'lib qoladi.

N.LGololobova "bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalari quyidagi funksiyalarni bajarishi kerak " degan fikrni ilgari surgan

Rivojlantiruvchi: asosiy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish

Adabtiv (moslashuvchan): bo'lajak pedagokning kasbiy faoliyatidagi o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga tayyorla

Innovatsion: nazariy asoslarning yangilanishi va malakalarni takomillashtirish

Kompensatorlik (o'rnini to'ldiruvchi): ta'limda o'zgarishlar yuzaga kelishi sababli kasbiy kompetentlikdagi kamchiliklarni to'ldirish.

Kasbiy kompetentlik mutahasis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishi emas ,balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrative bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.Shuningdek, kompetensiya mutahasislik bilimlarini doimo boyitib borishni yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni , yangi ma'lumotlarni ozlab tipish,ularni qayta izlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqazo etadi . Kasbiy kompetentlik quyidagi hollarda yaqqol namoyon bo'ladi:

Murrakkab jarayonlarda

Noaniq vazifalarni bajarishda

Bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda

Kutilmagan vaziyatlarda harakatrejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi

Maxsus yoki kasbiy kompetentlik

Texnologik kompetentlik

Ekteremal kompetentlik

Psixologik, metodik, informatsion, kreativ,innovatsion, komunikativ va boshqa kompetentlik. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qtuvchining pedagogik qobilyatga ega ekanligiga bog'liq.

Ta’lim tizimida tom ma’noda o’quvchilarga sifatli, foydali, muhim, zarur , kerakli va amaliy ahamiyatga ega ma’lumotlarni tizimli ravishta yetkazib bera olishi uchun bugungi kun o’qituvchisi, axborotlarni tezkor qabul qilish, qayta ishlash va o’quvchilarga samarali , qiziqarli tarzda yetkazib berishning uddasidan chiqa olishi zarur. Bu esa o’qtuvchining kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik mahorat asoslari hamda kreativlik qobilyatiga ega bo’lishiga zaruriyat sifatida kun tartibaga olib chiqmoqda.

O’QITUVCHINING KASBIY KOMPENTLIK SIFATLARI	
1	O’qtuvchilarda motivatsiyani shakllantirish
2	Ta’lim jarayonini rejalashtirish ,baholash,qayta aloqani o’rnata olish
3	Axborot komunikatsiya texnologiyalarini bilish
4	O’z ustida ishlash
5	Pedagogika va pisixologiyaga oid bilimlarga ega bo’lish
6	O’z fanini mukammal bilish
7	Ta’lim muhitiga yangilik kiritish

A.A.Derkach tomonidan kasbiy muloqotdagi kompetentlikning

- komunikativlik yoki muloqotchanlik kompetentligi (kasbdoshlar bilan muloqot qila olish qobilyati)
- ijtimoiy -perseptiv kompetentlik(boshqa kishilarni idrok qilish va baholay olish qobilyati)
- diagnostik kompetentlik(boshqa kishilarga hos bo’lgan xusisiyatlarni o’rganish qobilyati)
- axloqiy kompetentlik (shu kasb talab etadigan odob -axloq normalariga rioya qilish)
- empatik kompetentlik (jamoa a’zolariga hamdard bo’la olish, ularni to’g’ri tushunish va boshqa qismlari ajratib ko’rsatilgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytish joizki shaxsga ta’lim va tarbiya berishda nafaqat talim oluvchiga ta’limning yo’naltirilishi, balki o’qituvchining pedagogik faoliyatiga pisixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o’qituvchining kasbiy kompetentlik darajasiga alohida etibor berish talab etiladi.Jismoniy tarbiya va boshqa soha o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta’limda juda ko’p tub o’zgarishlarni amalga oshirish kerak.

Oliy ta’lim Davlat ta’lim standarti, o’quv dasturi va darsliklarni takomillashtirish yo’nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda mavjud an’anaviy mazmundan voz kechish qiyin kechsada, ta’lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo’ladi. Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qtuvchilarining

kasbiy kompetenligining oshishi o’sib kelayotgan yosh avlodning bilim saviyasining oshishiga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 29.04.2019 sanasidagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida “gi PQ-5712-sonli qarori.

2. Семина Е.А (2010) Компетентностая моделъ випусника педагогического вуза- будущего математчески .Альманах современной науки и образованияю.

3. Muslimov N.A “Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi”-T Fan va texnologiya nashriyoti.

4. Abdullayeva Sh.A “Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qtuvchilarini innovatsionfaoliyatga tayyorlash” Zamonaviy ta’lim 2016

5. Abdullayev A, Xonkeldiyev Sh “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” o’quv qo’llanma T 2005

6. Mahkamjonov K.M “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi” darslik Toshkent 2008

7. Семина Е.А (2010) Компетеностная моделъ випустника педагогического вуза – будущего учителя матеьатика.

8. Salomov R.S “ Sport mashg’ulotlarining nazariy asoslari” Toshkent O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti 2005

9. Shukrullo Mardonov “ Pedagogika nazariyasi va tarixi” Toshkent 2021

10. Sa1amov R. S., Ro’zioxunova M. M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. -Toshkent. 1995. -102 b.

11. Sa1amov R.S. O’quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida harakatli o’yinlar. // Fan sportga. -Toshkent, 2005. -№ 1. -B. 3-5.

12. Internet tarmoqlari

РЕЗЮМЕ

Ush bu maqolada jismoniy tarbiya sog’lom , jismoniy barkamol, ijtimoiy faol avlodni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon ekanligi, o’qtuvchi kompetentligini rivojlantirish uchun qanday yo’l tutish lozimligini ko’rsatib berilgan. Kompetensiya tushunchasining mazmun mohiyati ochib berilgan.Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qtuvchilar uchun egallanishi mumkin bo’lgan pedagogi kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan kompetensiyalar majmuasi mazmuni yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье показано, что физическое воспитание – это педагогический процесс, направленный на формирование здорового, физически развитого, социально активного поколения, а также пути развития компетентности учителя. Раскрывается смысл понятия компетентность, выделяется содержание комплекса компетенций, определяющего уровень развития педагогической компетентности, которую можно приобрести будущим учителям физической культуры.

SUMMARY

This article shows that physical education is a pedagogical process aimed at the formation of a healthy, physically developed, socially active generation, as well as ways to develop teacher competence. The meaning of the concept of competence is revealed, the content of a set of competencies that determines the level of development of pedagogical competence that can be acquired by future physical education teachers is highlighted.

ПРОФЕССИОНАЛ СПОРТЧИЛАР ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИНГ ЮҚОРИ СПОРТ НАТИЖАЛАРИГА ТАЪСИРИ

Усмонов Э.М.

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт универсиети мустақил изланувчиси

Таянч сўзлар: спорт, спорт мотивлари, мусобоқа натижалари, рақобат, натижага эришиш, жисмоний тайёргарлик, психологик тайёргарлик, машғулотлар, спортчи, мураббий, эмоционал барқарорлик, спортчининг умумий ҳолати, сабр-бардошлилик, мусобақалашув мотивлари, фахланиш ҳисси, мукаммаллик, эмоционал барқарорлик, эпчиллик.

Ключевые слова: спорт, спортивные мотивы, результаты соревнований, соревнование, достижение, физическая культура, психологическая подготовка, тренировка, спортсмен, тренер, эмоциональная устойчивость, общее состояние спортсмена, выносливость, соревновательные мотивы, чувство гордости, совершенство, эмоциональная устойчивость, ловкость.

Key words: sports, sports motives, competition results, competition, achievement, physical training, psychological training, training, athlete, coach, emotional stability, general condition of the athlete, endurance, competition motives, sense of pride, perfection, emotional stability, agility.

Мавзунинг долзарблиги ва зарурати. Жаҳон спорт ҳамжамиятида спорт соҳаларида рақобатнинг кучайиб бораётганлиги, шунингдек, мусобақа натижаларининг кун сайин ортиб бораётганлиги, муваффаққиятли спортчиларни касбий жиҳатдан тайёрлаш тизимини янада такомиллаштиришни тақозо этмоқда. Спортда юқори натижаларни қайд этиш, чемпион бўлиш, халқаро миқёсда шуҳрат қозониш мураккаб психологик ҳодиса саналиб, уни амалий ва назарий жиҳатдан ўрганиш, муаммога нисбатан янгича ёндошишни ҳамда илғор услубий асос ва дастурий таъминотндан фойдаланишни талаб этади. Қолверса, спорт турларида натижадорликнинг ўсиши, спортчиларнинг саломатлиги ва уларнинг профессионал тайёргарлиги шунингдек, жисмоний маданиятининг ижтимоий-психологик жиҳатлари билан бир қаторда, уларнинг юқори спорт формасига эришишда аҳамиятли бўлган психик тайёргарлик даражасини доимий ва ҳар тамонлама ошириш заруратини исботламоқда. Бундан ташқари, Жаҳон Соғлиқни

Сақлаш Ташкилоти (ЖССТ) ва Хақаро олимпия қўмитаси (ХОҚ) нинг 2020 йил 16 май куни Женева шаҳрида ўтказилган илмий Саммитида баён этилишича, "Спорт билан шуғулланувчи шахсларнинг, юқори натижаларга эришишига салбий таъсир этувчи психик, неврологик ва наркологик касалликларнинг улуши 33 % ни ташкил этиши ҳамда бутун дунёда 450 млн. киши енгил ёки оғир турдаги психик касалликлар ва стресслар билан азият чекадилар". Шу боис, спорт соҳасида юқори муваффақиятларга эришишга таъсир этувчи салбий омиллар ва шарт-шароитларни эрта аниқлаш, уни ўз вақтида бартараф этиш ва ёш спортчиларнинг муваффаққият мотивациясини яънада ошириш ишлари алоҳида аҳамият касб этиб, мазкур турдаги масалаларга оид муаммо ва ечимлар, маҳаллий тадқиқотларда янги илмий изланишларни амалга ошириш эҳтиёжини кучайтирмоқда.

Халқаро миқёсда, истеъдодли спортчиларнинг рақобатбардошликка қаратилган компетенцияларини ошириш, уларнинг мотивацион соҳаси имкониятларини янада такомиллаштириш ҳамда функционал тайёргарлик шарт-шароитларини дунё тажрибаси асосида олиб бориш эҳтиёжи кун сайин ошмоқда. Қобилиятли спортчиларнинг натижавий соҳаси имкониятини илмий текшириш, танланган спорт тури учун зарур бўлган психологик компетенцияларини янада ошириш, натижага эришишга таъсир этувчи психологик омилларни аниқлаш ишлари, дунё мамлакатларидаги кўпгина илмий тадқиқот институтилари ва ўқув марказларида олиб борилаётган илмий тадқиқотларнинг устувор йўналишларидан биридир.

Республикамизда муваффаққиятли ва номдор спортчиларнинг касбий тайёргарлигига назарий, амалий, методик ёндашиш ҳамда касбий тайёрлашнинг шартлари ва унинг методикаларини такомиллаштириш, қобилиятли спортчиларнинг муваффаққияти учун зарур бўладиган касбий билим, малака ва кўникмаларни аниқлаш масалалари атрофлича тадқиқ этилган. "Жамиятимизда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, аҳолининг, айниқса, ёш авлоднинг жисмоний тарбия ва оммавий спорт билан мунтазам шуғулланиши учун замон талабларига мос шарт-шароитлар ишлаб чиқиш ҳамда жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш" га йўналтирилган кенг кўламли ишларни амалга оширишда, психологик тадқиқотлар учун алоҳида вазифалар белгиланган. Шу ўринда, спорт фаолиятида натижага эришишда психологик ёндашувнинг ўрнини аниқлаш ва уни тадқиқ этишнинг методик таъминотини тубдан такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқотнинг мақсади спорт фаолиятида натижага эришишда психологик ёндашувнинг ўрнини аниқлашдан иборат.

Тадқиқотнинг вазифалари қуйидагилардан иборат:

натижага эришиш муаммосининг назарий масалаларига бағишланган психологик, педагогик адабиётларнинг таҳлилини амалга ошириш ҳамда уларни тизимлаштириш;

натижага эришиш тушунчасининг илмий моҳиятини спортчилар фаолияти орқали очиб бериш;

илғор психологик ёндашувлар ва концепциялар асосида натижага эришиш қобилиятининг психологик таркибларини аниқлаштириш;

спортчининг натижага эришишига хизмат қилувчи жисмоний, шахсий, ижтимоий сифатлар туркумини ёиритиб бериш.

спортда натижага эришишни назарий ва амалий ўрганиш орқали илмий хулоса ва тавсиялар ишлаб чиқиш.

Тадқиқотнинг объекти сифатида Фарғона ва Жиззах вилоятларидаги олимпия заҳиралари коллежида таҳсил олаётган 291 нафар ўқувчилар ташкил этади.

Тадқиқотнинг предметини спортда натижага эришиш жараёни ҳамда унга оид психологик ёндошувлар ташкил этади.

Тадқиқотнинг усуллари. Тадқиқотимизда спортчиларда натижага эришишга таъсир қилувчи психологик омилларни ўрганиш учун Элерс томонидан ишлаб чиқилган “Муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизликдан қочиш” сўровномасидан фойдаландик.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Спортда муваффаққиятли фаолият олиб бориш, юқори натижаларни қайд этиш, рақобат шароитларига интилиш, мураккаб вазифаларни самарали бажариш, танлаган спорт тури бўйича обърў-эътибор қозониш, жисмоний имкониятларини такмоллаштириб бориш, бошқа спортчилардан фарқли жиҳатларга эга бўлиш шунингдек, максималликка интилиш каби масалалар, фанлараро тадқиқотларнинг предмети саналаиб, ҳозирга қадар мазкур масалани ўрганишнинг ўзига хос илмий концептуал асослари ишлаб чиқилган. Жумладан, психология фани ҳам мазкур муаммо борасида фундаментал тадқиқотлар базасига эга соҳа саналади. Яъни, шу кунгача амалга оширилган хориж ва маҳаллий тадқиқотлар бунга яққол мисолдир. Мамлакатимиз психолог олимларидан Э.Ғ.Ғозиев, М.М.Маматов, З.Г.Гаппаров, Й.Н.Машариповлар, Т.С.Усмонходаев, Д.Н.Арзикулов, Р.А.Абдурасулов, Ж.М.Эштаев, О.Э.Ҳайитов, З.П.Расулов, Г.И.Саттарова, А.Н.Абдиев З.Э.Ғозиевалар томонидан кенг тадқиқ этилган.

Шунингдек, жисмоний тарбия назарияси ва амалиёти, педагогика соҳаларида ҳам ушбу масалада ўзига хос илмий изланишлар амалга оширилган бўлиб, уларда асосан ёш спортчиларнинг техник ва тактик тайёргарлигини ошириш муаммосига кўпроқ эътибор қаратилган. Хусусан, Ф.А.Керимов, Р.Д.Халмухамедов, А.Н.Абдиев, О.Н.Джўраев,

Н.А.Тастанов, Ш.А.Мирзақулов, Ш.С.Мирзанов, Т.Р.Ишмухамедов, Б.Х.Саидов, И.Х.Боймуродов, Б.Каримовлар томонидан амалга оширилган изланишлар бунга яққол мисолдир.

Спортда муваффаққият мотивлари ва спорт фаолияти учун хос бўлган иродавий сифатлар, ғалабага эришишни таъминловчи психологик омиллар, жисмоний тайёргарлик ва уни педагогик шарт-шароитлари каби масалалар рус психологиясида ҳам кенг тадқиқ этилган бўлиб, бундай ишлар туркумига М.Я.Басов, В.И. Селиванов, Е.П. Ильин, Б.Н.Смирнов, Г.Д. Луков, В.И.Селиванов, О.А. Сиротин, С.Я.Самулькин, В.А.Иванников, Н.А.Батурин, И.Д.Бех, М.И.Боришевский, И.П.Вольков, А.В.Воронин, Ф.Н.Генов, Л.Л.Гиссен, Г.Д.Горбунов, В.К.Калин, О.А.Конопкин, В.И. Моросанова, М.В.Свечение, А.В.Шаболтас, А.В.Радионов каби олимларларнинг изланишларини мисол қилиш.

W.R. Mischel, Y.G.Shoda, M.L.Rodriguez, M.S Muraven, E.D. Slessareva, G.E.Kielhofner, C.S.Helfrich, G.T.Kielhofner, C.Y.Mattingly, L.R. Corno, R.Z. Kanfer, L.S.Barrett, D.M. Beer, J.M.Ackerman, N.J.Goldstein., J.R.Shapiro, S.M. Murphy, R.B. Carlson, P.H.Baillie каби хориж тадқиқотчилари томонидан спорт фаолиятининг ўзига хослиги, спорт мусобоқалашув шароити эканлиги, чемпионатлар ва жисмоний талаблар, спорт мотивларининг табиати, иродани жиҳатдан тарбиялашда регуляцион, эркин танлов ва мотивацион ёндошувларнинг аҳамияти, натижага эришишни ўрганишнинг психодиагностик масалалари, натижага эришиш самарадорлигига таъсир этувчи омиллар, ирода ҳаракатлар ва мотивацион соҳанинг ўзаро алоқадорлик жиҳатлари, спортда психологик тайёргарлик, ёш спортчиларни техник ва тактик тайёрлашнинг психологик жиҳатлари каби масалалар ўрганилган.

Спортчиларда натижага эришишнинг педагогик-психологик хусусиятларини амалий жиҳатдан талқин қилишда хорижда амалга оширилган методика ва сўровномаларни мазкур мавзуга танлаш ва уни мамлакатимиз маданий муҳитига мослик даражаси таҳлил қилиниб танлаб олиш алоҳида аҳамият касб этади. Тадқиқот ишнинг амалий жиҳатини ифодалашда танланган методика ва сўровномалар амалий тадқиқот ишимизга ўзига хос илмий-амалий методологик асос вазифасини бажаришга хизмат қилади. Натижага эришишда ҳар доим мақсад аниқ бўлади. Одам ўз олдига қўйган мақсадидан келиб чиқадиган натижаларни ҳам олдиндан тасаввур эта олади. Ана шунинг учун ҳар қандай қийинчиликларни енгиб бўлса ҳам мақсадини амалга оширишга интила боради. Мотивация ва натижага эришиш муаммосини амалий жиҳатдан тадқиқ қилиш учун АҚШ, узоқ хориж ва Россияда кўплаб тажриба синовлардан ўтган тест ва сўровномаларни мав-

зуга мос тарзда танлаб олиш ва уларни амалиётга татбиқ етиш тадқиқотчи олдига мураккаб вазифаларни қўяди.

Шу жиҳатдан олиб қаралганда спорт фаолиятида натижага эришишда психологик ёндашувнинг ўрнини амалий тадқиқ этиш учун етарлича шарт-шароитларнинг мавжудлиги, уларнинг келгуси касбий фаолиятга кириб борганида касбий қийинчиликларни тез ва осон енгиши ва ўзлаштиришига замин яратиб беради. Албатта, бу каби сифатларнинг шаклланишига спортчилардаги ижтимоий-психологик хусусиятлар ёрдам беради. Натижага эришиш муаммосини спортнинг турли хил соҳаларида таҳсил олаётган ёш ўспиринларда педагогик-психологик жиҳатдан тадқиқ қилиш бугунги кун спорт тизимидаги енг долзарб муаммолардан бири саналади.

Тадқиқот жараёнида спортчиларда натижага эришиш даражасининг педагогик-психологик жиҳати билан бир қаторда, уларнинг индивидуал ва ижтимоий хусусиятлари ҳам инобатга олинган. Тадқиқотимизда спортчиларда натижага эришишга таъсир қилувчи психологик омилларни ўрганиш учун Элерс томонидан ишлаб чиқилган “Муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизликдан қочиш” каби сўровномадан фойдаландик.

Тадқиқотимиз объектини Фарғона вилоятидаги олимпия заҳиралари коллежида таҳсил олаётган 291 нафар ўқувчилар ташкил етади. Қуйида тадқиқот натижалари таҳлили ҳақида сўз боради. Жадвалда Фарғона вилоятидаги спортчиларнинг хавотирланиш даражаси сўровномаси кўрсаткичлари акс эттирилган.

Муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизликдан қочиш даражасини ўрганиш сўровномаси умумий ўртача кўрсаткичлари (Стьюдентнинг t-мезони бўйича)

Шкалалар	Тажриба бошида			Тажриба охирида		
	Гуруҳ	M	t-статистика (p≤0,05);(p≤0,01)	Гуруҳ	M	t-статистика (p≤0,05);(p≤0,01)
Муваффақиятга эришиш	Республика чемпиони	10	0,004*	Республика чемпиони	12	0,003**
	Вилоят чемпиони	13		Вилоят чемпиони	15	
Муваффақиятсизликдан қочиш	Республика чемпиони	12	0,003**	Республика чемпиони	9	0,002***
	Вилоят чемпиони	7		Вилоят чемпиони	8	

Тадқиқотдан олинган натижалар шундан дарак берадики, спортчиларда натижага эришиш билан биргаликда уларнинг иродавий барқарорликга қай даражада бардошли эканлиги ва турли хил қийинчиликларни энгиш дара-

жаси ҳам эътиборга олинган. Шу жиҳатдан спортчиларнинг ўқув фаолиятга чидамлилик даражасини текшириш учун Т.Элернинг муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизликдан қочиш мотивацияси сўровномаси қўлланилган. Вилоят ва республика чемпионлари спортчиларининг муваффақиятга эришиш шкаласи 10-13 натижани қайд этган. Муваффақиятсизликдан қочиш мотивацияси кўрсаткичи бўйича вилоят ва республика чемпионларининг умумий ўртача коэффициенти 12-7 даража билан ўртачага яқин миқдорни намоён қилганлиги билан алоҳида изоҳланади. Ўсмир ўқувчиларда муваффақиятсизликдан қочиш даражаси ўртачага яқин даражани қайд этиши, улар иродавий сифатга эндиликда қадам қўйгани, жисмоний машғулотлар давомида турли қийинчиликларга дуч келиши, жамоада ёлғизлик кайфиятининг мавжуд бўлиши, мураккаб топшириқларни бажаришда қийинчиликлар ва жисмоний машғулотларга мослашув жараёни каби омиллар билан боғлиқ бўлиши мумкин.

Шахс ўзидаги қарама-қаршиликларни енгишга нисбатан бундай муносабат биринчидан, субьектнинг айрим истаклари, мустаҳкамланган салбий одатлари; иккинчидан, турмуш ҳодисаларига нисбатан кўникиш ҳисси; учинчидан, маъқулланмаган ахлоқ-одоб принциплари, анъаналар билан курашишнинг кечиши иродавий актнинг ўзига хос хусусиятга эга бўлган хислати ҳисобланиши иродавий зўр бериш томонидан идора қилинади. Иродавий жараён ҳамиша шахсни фаолликка чорлайди, уни катъий йўл белгилаш сари етаклайди, барқарор ҳаракат қилишга йўналтиради, иккиланиш, шубҳаланишнинг олдини олади. Натижага эришиш учун иродавий ҳатти-ҳаракат мотивацияси муҳим аҳамият касб этади. Худди шу боис ироданинг негизини шахснинг ҳатти-ҳаракатлари ва ишларининг кенг қўламли, ранг-баранг хусусиятли мотивлаштирилишига омил тариқасидаги эҳтиёжларни вужудга келтиради.

Спорт фаолиятида натижага эришишда психологик ёндашувнинг ўрни юзасидан ўтказилган тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, натижага эришиш омилини психодиагностик ташхис қилиш, натижага эришиш даражаси, хавотирланиш даражаси, энгиб ўтувчи хулқ-атвор ва муваффақиятга эришиш-муваффақиятсизликдан қочиш мотивацияси бўйича сўровномалардан олинган натижалар улардаги ўртача кўрсаткичлар ва стандарт оғишларнинг даражалари спортчилар таркиби бўйича қиёсий таҳлил қилинганлиги ва натижага эришишнинг намоён бўлиш шакллари сўровномалар орасидаги қийматларга кўра спортчиларда ўртача коэффициентни ташкил қилганлиги ва бу стандарт кўрсаткич бўйича ўртача даражани ташкил қилганлигини англатади.

Натижага эришишнинг асосий жиҳатлари шундаки, спортчилардаги хавотирланиш даражаси, шахс иродавий сифатлари, энгиб ўтувчи хулқ-атвор ва муваффақиятсизликдан қочиш мотивацияси билан боғлиқ муносабатлар факторли анализ ва спортчиларнинг натижага эришишини белгилаб берувчи асосий хусусиятларни ажратиб берувчи диаграмма таҳлил мезонлари орқали текширилганда уларнинг натижалари ўртачадан юқори даражадаги факторларга бирикганлиги, уларнинг келгуси фаолиятида асосий психологик хусусиятларни ташкил қилиши ва натижага эришишни ривожлантирувчи психологик омиллар сифатида намоён бўлишкузатилди.

Спортчиларда натижага эришишнинг педагогик-психологик хусусиятлари бўйича сўровномалардан олинган факторли анализ шуни кўрсатдики, спортчиларда натижага эришишни ўзаро уйғун равишда ривожлантириш учун улардаги асосий психологик шкалалар бир-бири билан боғланганлги яъни матонат, оқилона ҳаракат, вазиятни энгиб ўтиш, муваффақиятга эришиш, назорат, иродавий масъулиятлилик, ғайратлилик ва қатъийлик каби психологик омиллар юқори даражада боғлинганлигини кўриш мумкин.

Адабиётлар:

1. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Ўқув қўлланма –Т.:“Университет”.2005–Б.66;

2. Гаппаров З.Г. «Спорт психологияси». Ўқув қўлланма – Т.: 2011.– Б.78.

3. Маматов М.М. Спорт психологияси курсидан маъруза мавзулари ва унинг матни. Университет. 2002. – Б.58.

4. Машарипов Й.Н. Спорт психологияс. Ўқув қўлланма —Т.:«Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти», 2010 –Б.85.

5. Усмонхаджаев Т.С. Научно-педагогические основы физического совершенствования детей в связи с их двигательной активностью (на материалах общеобразовательных школ Узбекистана) - Т., 1995. – С.118.

6. Абдурасулов Р.А. Мотивы учащихся-спортсменов в спортивной деятельности. Юбилейная международная научно-практическая конференция // Самара, 2008. – С.226 –229.

7. Арзикулов, Д.Н. З.Г.Гаппаров, Д.В.Вахобова. “Психология ва спорт психологияси” Илмий техника ахбороти – пресс нашриёти, 2018.–С.76.

8. Эштаев Ж.М. Тезкор-куч спорт турларида спортчиларнинг портловчи ҳаракат қобилияти шаклланишининг методологик асосларини такомиллаштириш. Авторефрат. Т. 2017. – С.6.

9. О.Э.Хайитов (2019). Спортивный маркетинг в Узбекистане: проблемы и перспективы. Economics, (5(43)). – С.34.

10. Расулов З.П. Методы и средства психологической подготовки спортсменов //Проблемы педагогики. – Москва, 2019. №4. – С.69-72.

11. Саттарова Г.И. Ўспирин ёшидаги ўқувчилар шахсининг шаклланишида ироданинг ўрни. // «Узлуксиз таълим» илмий-услубий журнали, Т., 2012, 1-сон.-76-б.

12. Газиева Ф.Э. Психологические особенности проявления групповой сплоченности в спортивных командах // Рес.Науч.прак.конф.Т. ЎзМУ, 2015. – С.145.

РЕЗЮМЕ

Мазкур мақола спорт фаолиятида натижага эришиш психологик муаммо сифатида мавзусига бағишланган. Шунингдек, мақола матнида спорт фаолиятининг психологик хусусиятлари, спорт мотивлари ва унинг намоён бўлиши, муваффақият мотивлари, рақобатбардошлилик шаклланти-

ришнинг психологик жиҳатлари, спортда фахрланиш ҳисси, ўзи-ўзидан қониқиш ҳисси, мақсадга йўналганлик, спортда ҳаракатлар интенсивлиги, спортда мағрурлик ҳисси, муваффаққиятлар билан боғлиқ эҳтиёжлар, спортда ички ва ташқи назорат механизми, спортда махсус қобилиятлар каби масалаларнинг ҳам батафсил ёритилган.

РЕЗЮМЕ

Данная статья посвящена теме достижения результатов в спорте как психологической проблеме. В статье также рассматриваются психологические особенности спорта, спортивные мотивы и их проявление, мотивы успеха, психологические аспекты конкурентоспособности, гордость за спорт, самоудовлетворение, целеустремленность, интенсивность занятий спортом, гордость за спорт, потребность в успехе, вопросы. такие как внутренний и внешний механизм управления в спорте, также подробно рассматриваются специальные навыки в спорте.

SUMMARY

This article is devoted to the topic of achieving results in sports as a psychological problem. The article also discusses the psychological characteristics of sports, sports motives and their manifestation, success motives, psychological aspects of competitiveness, pride in sports, self-satisfaction, goal-orientation, intensity of sports, pride in sports, the need for success, issues such as internal and external control mechanism in sports, special skills in sports are also covered in detail.

СПОРТИВНЫЕ ИГРЫ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ОСНОВНЫХ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ У КУРСАНТОВ АКАДЕМИИ МВД РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Миршарапов А. Г.
Академия МВД Республики Узбекистан

Таянч сўзлар: мини-футбол, курсант, ўқув машғулотлари, ички ишлар органлари, жисмоний тайёргарлик, жисмоний сифатлар.

Ключевые слова: мини-футбол, курсант, подготовка, сотрудник органов внутренних дел, физическая подготовка, учебная тренировка, физические качества.

Key words: mini-football, cadet, training, law enforcement officer, physical training, training, physical qualities.

Введение. Подготовка высококвалифицированных офицерских кадров - одна из важнейших задач укрепления внутренних дел государства.

Важное значение приобретает проблема формирования, а затем и поддержания у сотрудников и курсантов Академии МВД Республики Узбекистана необходимых профессиональных качеств и навыков на основе широкого использования средств и методов физической подготовки как эффективного средства оптимизации служебной деятельности и устранения отрицательного влияния большого нервно-эмоционального напряжения на фоне усугубления его факторов гипокинезии и гиподинамии.

Определенный научный интерес представляют собой возможности расширения диапазона средств воздействия на процесс формирования профессионально значимых качеств в условиях образовательного процесса учебных заведений. Это важно потому, что на 3-м курсе плановые занятия по физической подготовке в должном виде учебной программы фактически отсутствует.

Вопросы, связанные с проблемой эффективности формирования основных физических и профессионально важных качеств с помощью физической подготовки достаточно широко представлены в педагогической литературе. А проблема анализа физического воздействия с помощью спортивных игр мало изучена.

В качестве эмоционального и весьма эффективного физического воздействия, был выбран мини-футбол, который, в свою очередь, привлек курсан-

тов к более регулярным физическим упражнениям и, как оказалось, весьма способствующий развитию и подержанию ряда профессионально важных качеств для сотрудников и курсантов Академии. Особенно важно также простота организации этого вида спорта, его доступность и высокая привлекательность.

Научная гипотеза: применение в процессе физической подготовки средств мини-футбола будет способствовать формированию профессионально важных качеств, необходимых сотруднику внутренних дел.

Объект работы - процесс физической подготовки сотрудников и курсантов Академии МВД Республики Узбекистан.

Предмет - средства и методы спортивных и подвижных игр для формирования профессионально важных качеств сотрудников и курсантов Академии.

Цель работы: изучить эффективность формирования основных физических и профессионально важных качеств сотрудников и курсантов с использованием спортивных и подвижных игр.

Задачи:

1. Изучить профессиональную деятельность и профессионально важные качества сотрудников внутренних дел.

2. Обосновать возможности применения спортивных и подвижных игр в целях формирования и совершенствования профессионально важных качеств и поддержания профессиональной работоспособности сотрудников внутренних дел.

3. Экспериментально проверить эффективность мини-футбола в системе физической подготовки сотрудников внутренних дел.

Исследования проводились в три этапа. На первом этапе на основе данных литературного обзора, анкетирования, наблюдения, бесед и других методов были изучены особенности профессиональной деятельности сотрудников внутренних дел, определены требования, предъявляемые к уровню их подготовленности.

На втором этапе исследования методом опроса, широким использованием анкетирования и на основании экспертных оценок были выявлены профессионально важные качества сотрудников внутренних дел, определены педагогические условия, способствующие их формированию.

На третьем этапе проводился педагогический эксперимент, в ходе которого проверялась эффективность использования предложенной программы по физической подготовке.

Задачи педагогического эксперимента состояли как в формировании профессионально важных качеств, так и вовлечении сотрудников и курсан-

тов в регулярные физические тренировки, формировании знаний и умений самостоятельной физической тренировки.

В начале педагогического эксперимента регистрировался исходный уровень показателей. По окончании педагогического эксперимента фиксировался конечный результат.

Основными показателями были измерения:

– роста, массы тела с помощью взвешивания, окружности грудной клетки (мягкой сантиметровой лентой), жизненная ёмкость лёгких (максимальное количество воздуха, которые может быть забрано в лёгкие после максимального выдоха), сила мышц кисти и туловища, которые являются суммарными показателями силы мышц, участвующих в осуществлении движения определённого типа (осуществлялось с помощью кистевого и станового динамометра),индекса массы тела (индекс Кетле), с помощью которого удалось оценить степень соответствия массы курсанта и его роста, пульса (частоты сердечных сокращений), определив 95 толчкообразные колебания стенок артерий, связанных с сердечными циклами, артериального давления (давление которое кровь оказывает на стенки кровеносных сосудов) считая наименьшее, диастолическое, при разрежении и наибольшее, систолическое, при сжатии. Проводилось пробы Штанге и Генчи (функциональная проба для оценки состояния сердечно-сосудистой и дыхательной систем, заключающаяся в определении максимальной продолжительности произвольной задержки дыхания после вдоха и после выдоха).

Проведенное исследование позволило доказать о положительности влияния занятия мини-футболом, что видно из показателей уровня физического развития курсантов опытных групп до и после эксперимента.

Результаты сдачи государственных экзаменов также доказали положительное влияния занятиями мини-футбола.

Результаты педагогического эксперимента убедительно доказывают эффективность экспериментальной программы, которая позволила обеспечить значительное преимущество курсантов экспериментальной группы по всем основным изучаемым показателям.

Вывод. Таким образом в процессе проведенного исследования был проведен анализ профессиональной деятельности, изучены профессионально важные качества сотрудников и курсантов Академии. С помощью исследуемых методик была доказана эффективность применения спортивных и подвижных игр в целях формирования и совершенствования профессионально важных качеств и поддержания профессиональной работоспособности сотрудников внутренних дел.

На практике удалось экспериментально проверить и доказать эффективность мини-футбола в системе физической подготовки сотрудников внутренних дел. Проведённый анализ позволил увидеть положительные изменения показателей физического развития, функционального состояния организма, физической подготовленности и уровня развития некоторых профессионально важных психических качеств курсантов во время эксперимента.

Литература:

1. Пшеницын, А. В. Методика развития основных физических качеств и военно-прикладных навыков: учебно-методическое пособие / ЯВВУ ПВО. - Ярославль, 2019. - 158 с.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 7 апреля 2023 года № ПП-115 “о дополнительных мерах по всестороннему развитию массового и профессионального футбола”, Lex.uz

3. Mirsharapov A.G. Formation and development of mini-football (futsal) as a new phenomenon of modern sport // Ценности, традиции и новации современного спорта. Международный научный конгресс. г.Минск,Беларусь. – 2022. – Часть 2. – С. 5-8.

4. Миршарапов А.Ғ. Современная технология начальной подготовки спортивного резерва в футболе и мини-футболе // Муғаллим Ҳәм Үзликсиз Билимлендириў № 5/2 Нөкис — 2022.

5. Миршарапов А.Г. Features of physical and technical training of cadets engaged in football and mini-football. © Eurasian Journal of Sport Science 2023; 1(2): 95-97 https://eajss.uz

РЕЗЮМЕ

Мақолада спорт ўйинлари ИИВ академияси курсантлари ва ходимларининг касбий фазилатлари ва кўникмаларини ҳамда жисмоний сифатларини ривожлантириш ва кейинчалик қўллаб-қувватлаш воситаси сифатида муҳокама қилинади. Спорт ўйинларида нафақат индивидуал рақобат қиладиган спортчилар, балки битта мақсад ва ҳаракатлар билан бирлашган жамоалар ўзаро беллашадилар. Спорт ўйинларида иштирокчилар нафақат ўзлари балки, бутун жамоа учун масъулиятни ўз зиммаларига оладилар, бу маъсулиятни сезиларли даражада оширади, чукур ва кучли ҳис-туйғуларни бошдан кечириш имкониятини беради.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматривается спортивные игры как средство формирования, а затем и поддержания профессиональных качеств и навыков курсантов, и сотрудников Академии МВД. В спортивных играх соревнуются не столько отдельные спортсмены, сколько игровые коллективы, объединенные единой целью и действием. Участники такого соревнования несут двойную ответственность за себя и за всю команду, что многократно усиливает переживания и дает возможность испытать глубокие и сильные эмоции.

SUMMARY

